




Pirimqul  
Qodirov

# Yulduzli tunlar



YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2015

**UO'K: 81.512.133-3**

**KBK: 84(50')1**

**Q-53**

**Qodirov, Pirimqul**

Yulduzli tunlar: roman / Pirimqul Qodirov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 668 b.

ISBN 978-9943-27-250-7

Mahoratli yozuvchi Pirimqul Qodirovning ushbu asari o'zbek adabiyotining eng sara tarixiy romanlari sirasiga kiradi. Unda Movarounnahrdek ulkan saltanatning parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyatga erishish ilinjida taxt talashib, bir-birlariga qilich ko'targan og'a-ini, tog'a-jianlarning fojiaiy qismati aks ettirilgan. Roman voqealari orqali o'quvchi tarixda Temuriylar o'rtasidagi nizolar, fitna, fisq-u fason tufayli yuzaga kelgan qonli urushlar, ayovsiz xunrezliklar oqibatida behad qonxo'r beklar zulmidan sillasi butkul qurigan xalqning g'oyat nochor ahvoli va uyushqoqlikdan bexabar Temuriylarni Shayboniyxon qanchalar oson mahv etgani bilan tanishadi.

Asarning bosh qahramoni mirzo Bobur odamlardagi bemehrlik, bir-birini ko'rolmaslik, xudbinlik, xiyonat singari jirkanch ilatlar bilan g'oyat erta, o'n ikki yoshida taxtga o'tirganida ro'baro' bo'ldi. Taqdirning ayanchli zarbalaridan zada bo'lgan shohning kuygan yuragi – shoir qalbi qalandarlikni ixtiyor etgani ajab emas. Asar mutolaasi davomida butun umr Vatan ishqida yonib, sog'inch bilan o'rtanib, «Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim...» deya iztirob chekkan bobokalonimiz dardi kitobxon qalbini larzaga soladi.

**UO'K:81.512.133-3**

**KBK:84(50')1**

ISBN 978-9943-27-250-7

© Pirimqul Qodirov, «Yulduzli tunlar». «Yangi asr avlodi», 2015-yil.

## **AROSAT**

*Birinchi qism*

### **QUVA**

#### **QIL USTIDA TURGAN TAQDIRLAR**

##### **1**

Milodiy 1494-yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o'tib kelayotgan sersuv Quvasoy qon qo'shib oqzilgandek qip-qizil bo'lib ketdi.

Soy bo'yidagi majnuntollar panasida bir yigit bilan qiz shivirlashib gaplashmoqda edilar.

– Robiya, inon, men tirik bo'lsam, senga balo-qazoni yo'latmasmen!

– Tangrim sizni ham panohida asrasin, Tohir og'a!.. Yog'iyning<sup>1</sup> ming-ming askari bor. Qaysi biriga bas kelursiz? Ana, qochqinlarga qarang!..

Tohir orqasiga o'girilib, Quvasoyning quyi tomonlariga ko'z yugurtirdi. Pastda qamishzor botqoqlik va uning ustidan o'tgan uzun yog'och ko'prik bor edi. Ko'prikdan chumoliday behisob odamlar, otlar, mollar, aravalar tizilib o'tib kelayotgani yomg'ir pardasi orasidan elas-elas ko'zga chalinardi.

---

<sup>1</sup> Yog'iy – yov, dushman

Samarqand podshosi Qo'qonni bosib olib, qo'shiniga talatgan va Marg'ilonga hujum qilgan edi. Bosqinchilar shahar-u qishloqlarni talash bilan qanoatlanmay, ko'hlik qizlarni cho'rilikka olib ketishar edi. Buning hammasini eshitgan odamlar yovdan qochib, tinch joy izlab bormoqda edilar.

– Ulusning sho'ri qursin! – dedi Tohir. – Kasofat podsholar urushmay turolmasa. Biridan qochsang, boshqasiga tutilsang. Undan ko'ra qochmaymiz! Tavakkal. Peshonaga bitilgani bo'lur!

Tohir yomg'irda ho'l bo'lib, badaniga yopishib turgan qalami yaktak ustidan xanjar taqib olgan edi. Robiya xanjarga qo'rqa-pisa ko'z tashladi-da:

– Qaydam, – dedi. – Otamlar meni qo'rg'onga eltib qo'ymoqchilar.

– Qaysi qo'rg'onga?

– Andijon qo'rg'onida amakim borlar-ku.

Tohir Robiyaning hoziroq jo'nab ketishidan cho'chiganday uning bilagidan oldi. Ilgarilar hurkovich ohudek tutqich bermaydigan Robiya hozir allanechuk yuvosh bo'lib qolgan edi. Uning xina qo'yilgan qo'llari gulday chiroyli. Boshiga otasining qora jun chakmonini yopinib chiqqan ekan. Yomg'irda ho'l bo'lib og'irlashgan chakmon uning nozik bo'yniga og'irlik qildi. Robiya chakmonni elkasiga tushirdi. Shunda yoqasining bit-ta bog'ichi yechilib ketdi-yu, qizg'ish marmarday silliq bo'ynining pasti ko'rindi. Yashil nimchasi o'n yetti yoshli qizlardagina bo'ladigan tolma belidan quchib, qattiq ko'kraklarini mahkam chirmab turar edi. Bolalikdan Robiya bilan devor-darmiyon qo'shni bo'lib o'sgan Tohir uning qanchalik jozibali qiz ekanini, bosqinchi bek va navkarlar mana shunaqa qizlarga qanchalik o'ch bo'lishini go'yo endi astoydil his qildi.

Bu yil bahorda ota-onalari ularni unashtirib qo'ygan paytlarida ham Robiya Tohirga hozirgichalik chiroyli ko'rinmas edi. Ramazon oyi o'tgandan keyin ularning

to'ylari bo'lishi kerak. Tohir Robiya bilan hademay bir yostiqqa bosh qo'yishlariga ishonib, bexavotir yurgan edi. Biroq endi urush dovuli Quvaga yaqinlashib kelayotgan shu xatarli damlarda Robiya unga har qachongidan ham aziz, har qachongidan ham g'animat ko'rindi.

Tohir Robiyaning Andijon qo'rg'onida birorta bo'yni yo'g'on bekning tuzog'iga ilinib qolishi mumkinligini o'yladi-yu:

– Yo'q! – dedi. – Meni desang qo'rg'onga borma!

Robiya Tohirning baxmalday mayin mo'ylovi tagida xiyol titrab turgan labiga va iztirob bilan chaqnatotgan qo'ng'ir ko'zlariga tikildi.

– Mening ham sizdan yiroqqa ketgim yo'q... Lekin ne qilay... Qo'rqamen!..

Tohir qizni chakmon bilan birga quchib, bag'riga bosdi. Robiyaning mayin soch tolalari yigitning yuziga tegdi, bir lahza ikkovining nafasi nafasiga qo'shilib ketdi. Tohir qizning badani titrayotganini sezdi-yu:

– Chindan qo'rqqaningmi bu, Robiya? – dedi. – Senga ne bo'ldi?..

– Men bir vahimali tush ko'rdim, Tohir og'a! Ilohi tushim o'ng kelmasin!..

Endi Tohir ham xavotirlanib, qizni quchog'idan bo'shatdi-da, uning katta-katta bo'lib ketgan ko'zlariga qaradi:

– Yomon tushmi?

– Aytishga ham tilim bormaydir.

– Tushga nelar kirmas!.. Ayt!.. Mayli...

– Sizni bir qora ho'kiz xanjarday shoxlari bilan suzib... Yo'q! Yo'q! Eshlasam, etim junjikib ketadir!

Tohir yomon bir falokatni oldindan sezganday yuragi uvushdi:

– Shoshilmay gapir! Suzgan bo'lsa, qon oqdimi?

– Qon? Ha, ha... Qon tirqirab ketdi.

– Unday bo'lsa qo'rqma. Tushdagi qon – yorug'lik. Otam doim shunday deydi.

– Tangrim shu ta’birni rost keltirsin! Tohir og’a, men... Agar Andijonga siz bormasangiz... Men ham ketmasmen. Neki bo’lsak, shu yerda... birga...

Majnuntol barglari orasidan sirqib tushayotgan yomg’ir tomchilari qizning payvasta qoshlariga, tig’iz kipriklariga tekkan. Tohirning nazarida, Robiya yomon bir baxtsizlik bo’lishini hozirdan sezib, ko’ziga yosh olayotgandek ko’rinardi.

– Mendan ko’p xavotirlanma, Robiya. Men bir dehqon odammen. Havo ochilsa, dalaga chiqib qo’shimni haydaymen. O’rog’imni o’ramen. Yog’iying menga ne ishi bor? Lekin sen... ehtiyotingni qil. Andijon qo’rg’onida amakilaring bor...

– Andijonda sizning ham mulla tog’oyingiz borlar-ku! Yo birga ketaylikmi?

Tohir o’ylanib qoldi. Uning Andijonda me’mor bo’lib ishlaydigan Fazliddin tog’asi el orasida tanilgan mashhur odam. Quvasoy botqog’ining ustidan o’tgan mana shu uzun yog’och ko’prik ham mulla Fazliddin chizib bergan tarh<sup>1</sup> bo’yicha qurilgan. Andijon arkida mulla Fazliddin samoviy naqshlar va koshinlar bilan bezab qurgan devonxona tojdor Umarshayx mirzoga ma’qul bo’lgandan keyin unga to’bichoq ot va bir hamyon oltin in’om qilganini Tohir ham eshitgan. U tog’asining shahar qo’rg’onidan tashqaridagi Bog’ot mahallasida turishini biladi. Mulla Fazliddin Quvada turgan paytlarida Tohirga xat-savod o’rgatgan edi. Endi jiyani panoh istab borsa, qanoti tagiga olishi mumkin. Lekin bu yerda chol-kampirlar nima derkin? Tohir – yolg’iz o’g’il, javob bermasliklari mumkin. U Andijonga Robiya tufayli borishini esa ota-onasiga aytishdan uyaladi... Balki buni Robiyaning akasi Mahmud aytar?

---

<sup>1</sup> Tarh – chizma, loyiha.

– Robiya, mayli, iloji bo'lsa, Andijonga birga keturmiz. Lekin dadamlarni ko'ndirish oson emas... Mahmud og'ang eshikdami?<sup>1</sup>

– Do'konga chiqqan edilar. Iftorgacha kelurlar. Nima edi?

– Iftordan so'ng biznikiga o'tsin. Maslahat bor.

– Xo'p, men aytamen.

Robiya yuzini Tohirning keng ko'kragiga bosdi:

– Tangrim bizni bir-birimizga ko'p ko'rmasin! – dedi-da, majnuntol shoxlari orasidan chiqdi.

Soy bo'yida turgan bo'sh mis ko'zani yomg'ir tomchilari chertib-chertib qo'yadi. Robiya ko'zaga qarab suvga kelganini esladi va uni to'ldirib, uylari tomon ko'tarib ketdi.

Qalliqilar odamlarning ko'zidan yiroqda – yashiriqcha uchrashib yurar edilar. Qiz uzoqlashib ketgandan keyin Tohir ham majnuntollarning panasidan chiqdi. Shunda Robiyaning tushiga kirgan qo'rqinchli voqea uning esiga tushdi-da, noma'lum bir xatar vujudiga larza solib o'tdi...

## 2

Bu yilgi ro'za yoz chillasiga to'g'ri kelgan, jazirama kunlarda tong sahardan kechqurun qorong'i tushguncha tuz totmay och yurish ko'p odamning sillasini quritar, buning ustiga tashnalik azobi qo'shildi. Ro'zadorlar kunni qanday kech qilishlarini bilmay, tezroq qosh qorayishini intizorlik bilan kutishardi.

G'ira-shira qorong'ilikda Quva masjidining minorasidan azon tovushi eshitildi. Urush tahlikasi qanchalik kuchli bo'lmasin, dasturxon atrofiga yig'ilgan odamlar ro'zasini ochayotgan paytda ochlik va

---

<sup>1</sup> Eshik – bu yerda: uy, hovli ma'nosida.

tashnalikdan qiynalgan vujudlari rohatlanib, dunyo g'amlari birpasga bo'lsa ham xayollaridan uzoqlashdi.

Tohir kekxa ota-onasi bilan birga iftor qilmoqda edi. Dasturxondan sedanali issiq non va handalak hidi keladi. Non yeb, bir kosadan qatiqli osh ichganlaridan keyin Tohir Andijonga ketish haqidagi gapning uchini chiqarishga chog'landi.

Shu payt kimdir qamchi dastasi bilan darvozani taqillatdi. Hovlida yotgan kekxa ko'ppak it yo'g'on va xirri tovush bilan vovulladi.

Tohir o'rnidan turgan edi, otasi:

– Ehtiyot bo'! – dedi ovozi pasaytirib. – Avval kimligini so'rab bil.

Tashqarida yomg'ir tingan, lekin osmon bulutli, qorong'ilikda hech narsani ko'rib bo'lmas edi. Tohir darvozaxonaga yaqin borib:

– Kim? – deb so'radi. Ko'ppak qattiqroq hura boshladi. Tashqaridagi odam ovozi balandlatib:

– Tohir, jiyani? – deb so'radi. – Och, men tog'oyingmen!

Tohir tashqaridagi ovozni tanib, ochiq darcha orqali ichkariga:

– Aya, Fazliddin tog'oyim! – dedi-yu, chopib borib darvozaning zanjirini tushirdi.

Ichkaridan chiqqan chol-kampirlar mehmon bilan ko'rishayotganda, Tohir qorayib turgan ikki g'ildirakli soyabon aravani ko'rdi. Aravaga qo'shilgan otning egari ustidan kimdir paypaslanib tushmoqda edi.

– Mulla tog'a, arava sizdanmi?

– Ha, jiyanim. Ko'ch-ko'ronim bilan keldim.

– Shunaqami? – dedi Tohir hayron bo'lib. Uning ko'nglida boya tog'asini ko'rganda yongan quvonch endi tashvishli o'ylar bilan almashindi. Tohirning Andijondagi panohi – mana shu tog'asi edi. Tog'asi ko'chib kelgan bo'lsa, Tohirning qo'rg'onga boradigan yo'li bekilgani shu. Robiya nima bo'ladi?



– Tohir, nega agʻrayib turibsan? Yuklarni tushirishgin! – dedi onasi. – Mullo togʻoying yomgʻirda koʻp azob tortganga oʻxshaydir.

– E, azob ham gapmi, opa! Arava loylarga tiqilaverib jonimizdan toʻydirdi. Yoʻllar tirband. Qochoqlar behisob. Tohir aravadan yuk tushirayotib, otning sagʻrisiga qoʻli tegib ketdi. Shunda qoʻliga shilimshiq loy ilashganini sezdi. Loy otning sagʻrisigacha chiqqan boʻlsa, bu bechoralar kela-kelguncha qanchalik qiynalganikin? Hamma yovdan qochib, Andijonga qarab ketayotganda, bular nega Quvaga koʻchib kelganikin? Tohir qanor qopga solingan yukni aravadan tushirmoqchi boʻlganda togʻasi:

– Hushyor boʻl, juda ogʻir, ikkovlashib koʻtaringlar, – dedi aravakashga.

Tohir qopning ichida uncha katta boʻlmagan poʻlat sandiq borligini sezdi. Mulla Fazliddin oʻtda kuymaydigan, suv kirmaydigan bu sandiqni Quvaning temirchi ustalariga buyurtma berib yasattirgan edi. Uning ichida tarhlar, loyihalar, suratlar saqlanardi. Mulla Fazliddin uch yil Samarqandda, toʻrt yil Hirotda tahsil koʻrgan, oʻsha yoqdan meʼmorlik sanʼati bilan birga musavvirlikni ham oʻrganib kelgan edi. Hirotda jangnomalar ichiga suratlar chizish odat tusiga kirgan, mavlono Behzod chizgan Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro tasvirlari rasmiy doiralarda shuhrat topgan, lekin Samarqandda, xususan, Fargʻona vodiysida odam shaklini chizish hali ham Qurʻon nomidan qattiq taqiqlanib kelmoqda edi. Shuning uchun mulla Fazliddin oʻzi chizgan suratlarini mana shu poʻlat sandiqda doim maxfiy saqlar edi. Tohir qopdagi poʻlat sandiqni aravakash bilan koʻtarishib, uyga olib kirishdi. Mulla Fazliddin hoʻl boʻlib ogʻirlashgan chakmoni va etigini dahlizda yechib qoldirdi. Oyogʻiga charm kavush kiyib, obrez chetida bet-qoʻlini yuvdi. Soʻng boya Tohirilar oʻtirgan dasturxonlik uyga kirdi.

Uning chakmonidan o'tgan yomg'ir kalta yenglik abosini nam qilgan edi. Lekin yoz oqshomi iliq bo'lganligi uchun kiyim almashtirish esiga kelmadi. Yo'lda qattiq toliqqanligi uchun durust ovqat ham yemadi. Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to'rt piyola choy ichdi. Aravakash yigit ikki kosa to'la qatiqli osh ichgandan keyin otlariga qarash uchun hovliga chiqib ketdi.

– Obbo! Mulla Fazliddin-ey! – dedi Tohirning otasi uzun oq soqolini o'ychan ezg'ilab. – Zap kelibsiz-da. Shu notinch kunlarda birga bo'lganimizga ne yetsin!

– Hamma yog'iydan qochganda biz ajdahoning komiga yaqin kelib qolganimiz g'alati bo'ldi, – deb mulla Fazliddin jiyaniga ma'yus ko'zlari bilan qaradi.

– Biron sabab bilan kelgandirsiz-da, mulla tog'a? – so'radi Tohir.

– Sabab shukim, jiyan, urush boshlansa, qurilish to'xtaydi, me'morning keragi bo'lmay qoladir...

– Iye, axir, sizni podshoning o'zi xizmatiga olgan emasmi?

– Podsho Axi qo'rg'onida mudofaa bilan ovora. Toshkent xoni Mahmudxon ham Xo'jand tomondan bizga qarshi qo'shin tortib kelmoqda emish. Qashqar hokimi Abubakir dug'lat degan yana bir bosqinchi sharqdan O'zganning ustiga bostirib kelmishdir.

Tohirning keksa otasi qo'rqib, yoqasini ushladi:

– Yo tavba! Bu yoqda Samarqand qo'shini... Uch tomonimizdan yog'iy bostirib kelibdimi, a? Bu ne ko'rgulik, mulla Fazliddin? Axir bu podsholar sal murosa qilsalar bo'lmaydimi, a? Hammasi bir-biriga qarindosh emish-ku. Shu rostmi?

– Ha, rost. Toshkent xoniga bizning podshomiz kuyov bo'ladir. Qo'qonni talab, bizning ustimizga qo'shin tortib kelayotgan Samarqand podshosi Sulton Ahmad mirzo esa bizning podshomiz bilan bir otadan bo'lgan og'a-inidirlar. Yana bu ikki podsho bir-birlariga

quda bo'lmog'chi edilar. Samarqand podshosining qizi bizning valiahdimiz Bobur mirzoga besh yasharligidan unashtirib qo'yilgan edi. Shundan bilingki, og'a iniga, qaynota kuyovga qarshi qilich ko'tarib chiqmishdirlar!

- Yo Parvardigor! Oxirzamon degani shumikin, mulla Fazliddin?

- Bilmadim, pochcha. Harqalay, yomon tojdorlarning zamonasi oxirlab qolayotganga o'xshaydir. Koshki, o'zlari bilan o'zlari olishib, bizni tinch qo'ysalar! Urushning butun jabr-u jafosi el-ulusning boshiga tushadir.

- Sho'rimiz bor ekan-da!

- Ha, tole bo'lmasa qiyin ekan! Men ne-ne orzular bilan ilm-hunar o'rganib kelgan edim! Vatanimiz bo'lmish Farg'ona vodiysida Samarqanddagidek, Hirotdagidek madrasalar-u ko'rkam obidalar qurmoqchi edim. Bu saltanatu podsholardan ne qolur? Hammasi nom-nishonsiz ketgay! Bizdan yodgorlik bo'lib qolsa Ulug'bek madrasasidek, Navoiy Unsiyasidek san'at asarlari qolur!

Mulla Fazliddin og'zidan chiqib ketgan so'nggi gaplardan xavotirlanib, eshik tomonga qarab qo'ydi. Uning saroy ahliga yaqin yurib, ayg'oqchilardan yurak oldirib qo'rganini Tohir ham sezdi.

- Mulla tog'a, so'zlayvering, bu yerda hamma o'zimizniki... Andijon qo'rg'onidan nechun sizga joy bermadilar?

Mulla Fazliddin so'nggi kunlarda boshdan kechirgan mudhish hodisalarni eslab, bir lahza og'ir sukutga ketdi...

O'tgan kuni xufton paytida mulla Fazliddin o'zlaridan besh-olti uy narida turadigan bir xattot oshnasinikida iftor qilib o'tirganda, qandaydir noma'lum kishilar uning uyiga bostirib kiradi. Hovlidagi it vovullab qo'ymaganda uni qilich bilan chopib tashlaydilar.

Bugun bu yerga aravani minib kelgan xizmatkor yigitning og'ziga latta tiqib, qo'l-oyog'ini bog'laydilar-u

qaznoqqa tashlaydilar. So'ng uyga kirib, tintuv o'tkazadilar va po'lat sandiqni ko'radilar. Lekin uni ochishning ilojini topolmay, qulfini bolta bilan urib sindirishga kirishadilar.

Qilich bilan chopilgan it qattiq vangillaganda devor-darmiyon qo'shnilar bir falokat bo'lganini sezadilar. Ulardan biri chiqib, mulla Fazliddin xabar olmoqchi bo'lsa, darvoza qarshisidagi daraxt panasida bir odam to'rtta otning jilovidan ushlab turibdi. Uning yuzi qora niqob bilan bekitib olingan, faqat ko'zlari ko'rinadi. Ichkaridan esa po'lat sandiq qulfiga urilayotgan boltaning tovushi eshitiladi...

Mulla Fazliddinga qadrdon bo'lgan qo'shni uning uyiga yomon odamlar tushganini sezadi-yu, darhol xattotnikiga chopadi. Undan voqeani eshitgan mulla Fazliddin uyiga yugurib keladi. Po'lat sandiqning qulfini sindirib ochib, undagi qog'ozlarni titkilayotgan bosqinchilar uy egasini ko'rib, darchadan ayvonga sakrashadi.

– To'xta, nobakor! – deb mulla Fazliddin bittasining qarshisidan chiqqan edi, yuziga qora niqob tutgan ayiqday zo'r yigit uni yelkasi bilan urib chetlatadi-da, ko'chaga otiladi. Boshqalari ham ko'chadagi otlariga minib, bir lahzada g'oyib bo'lishadi.

Mulla Fazliddin ularni quvlab yetolmasligini sezadi-da, to's-to'polon bo'lgan uyga qarab intiladi va ochiq yotgan po'lat sandiqning tepasiga keladi. Tokchada qo'shaloq sham yonib turibdi. Uning yorug'ida aralash-quralash bo'lib ketgan, ba'zi joylari yirtilgan loyihalar va chizmalar ko'zga tashlanadi. Sandiq ichida podshoh in'om qilgan oltinning bir qismi hamyoni bilan turgan edi. Shu yo'q. Lekin hozir mulla Fazliddinning ko'ziga oltin ham ko'rinmas edi. Uning butun xayoli sandiq tubidagi maxfiy tagqutini bekitib turgan silliq mis parchasida edi. Uni chapga sekin surgan edi, tagqutining kalit solinadigan joyi ochildi. Mulla Fazliddin

atrofiga alangladi – uyda boshqa odam yo‘q, qo‘shnisi qaznoqdagi xizmatkorning oyoq-qo‘lini yechish bilan ovora edi. Mulla Fazliddin qo‘ynidan kichkina kalit olib, tagqutining qulfiga soldi. Qulf ochilgandan keyin tagqutining mis qopqog‘ini sekin ko‘tardi-yu, yupqa jild ichidagi suratlarni ochib ko‘rdi... Keksa bog‘bonning daraxt payvand qilayotgan payti... Chilmahram tog‘laridagi ov tasviri... Eng pastda chang chalayotgan go‘zal bir qizning surati...

Bu – Umarshayx mirzoning qizi. Andijon chorbog‘ida podshoh oilasi uchun tillakori ko‘shk qurgan paytlarida o‘n sakkiz yoshli Xonzoda begim uning musavviriligini ham bilib qolib, o‘zining suratini chizdirgan. Mulla Fazliddin bu ishni yashiriqcha qilgan. Agar shariat peshvolari uning odam suratini chizganini bilib qolishsa, sog‘ qo‘yishmaydi. Yana tag‘in go‘zal malika bilan yashiriqcha til birlashtirib surat chizgani qizning podshoh otasiga ma‘lum bo‘lsa bormi, mulla Fazliddinni tilka-pora qilib tashlashlari hech gap emas.

Shu sababli hozir uni eng qattiq qo‘rqitgan narsa – bu suratning bosqinchilar qo‘liga tushib qolish ehtimoli edi. Xayriyatki, ular sandiq tagida maxfiy tagquti borligini sezishmabdi. Lekin sandiqni otlariga o‘ngarib ketishsa nima bo‘lardi? Unda tagqutidagi suratlarni ham albatta topib olishardi!..

Xizmatkor yigit sal o‘ziga kelgandan so‘ng, mulla Fazliddin undan va qo‘shnisidan voqeaning tafsilotlarini so‘rab bildi, o‘zining ko‘rganlariga buni taqqoslab, shunday xulosaga keldiki, uning uyiga tushganlar – oddiy o‘g‘rilar emas, balki qaysi bir zo‘ravon bekning yigitlari. Ular uyni tintib nimani qidirishgan? Tarhlarni tashlab ketishibdi. Demak, suratlarni izlashgan... Mulla Fazliddinning surat chizishini biladigan odam... unda qasdi bor bek yuborgan bo‘lishi kerak bu yigitlarni!..

Iztirobli o'ylar tuni bilan mulla Fazliddin ko'ziga uyqu qo'ndirmadi. Urushning alg'ov-dalg'ovida tobora bo'yni yo'g'on bo'lib ketayotgan bebosh beklar esiga tushgani sari ko'ngli bezovta bo'lardi. Andijonlik beklardan Hasan Yoqub degani shu yili bahorda mulla Fazliddinni chorbog'iga chaqirtirib, katta bir ish topshirmoqchi bo'ldi.

– Mirzo hammomidan ham ulkanroq bir hammom qurdirmoqchimen... Yozda salqinlaydigan marmar xonalari bo'lsin... – Yoqubbek ovozi pasaytirib davom etdi. – Chiroylik asira qizlar sotib olg'aymen. Oltinim yetarli. O'sha qizlar hammomning marmar hovuzida cho'milganda, men o'ltirib tomosha qiladigan maxfiy tuynuklari ham bo'lmog'i lozim. Uqdingizmi? – deb Yoqubbek xaxolab kuldi-da, gapning xulosasini aytdi. – Ana shu hammomning tarhini o'zingiz chizing. Qurilishiga ham siz sarkor bo'ling. Qancha haq tilasangiz beray. Xo'pmi? Me'morlikni muqaddas bir san'at deb ishongan mulla Fazliddin Yoqubbekning shahvoniy niyatlarini eshitib, nafrati keldi:

– Janob bek, uzr, men harom ishdan qo'rqamen!..

– Nimasi harom?.. Men hammomni o'z aqchamga qurdirgaymen!

– Hammomga maxfiy tuynuklar qo'yib quradigan sarkorlar boshqa... Siz o'shalarga murojaat qiling. Menga Mirzo hazratlari pokiza bir dargoh qurdirmoqchilar. Shu kunlarda madrasa tarhini chizish bilan bandmen. Ruxsat eting, men boray...

O'rinlaridan turganda, Yoqubbek mulla Fazliddinga o'qrayib ko'z tikdi:

– Lekin men aytgan gap shu yerda qolsin, janob me'mor. Aks holda...

– Albatta, bu gap shu yerda qolur! Lekin siz ham mendan ozurda bo'lmang. Ora ochiq! Ma'qulmi, janob bek?

– Ma'qul!

Mulla Fazliddin shu bilan bu bo'yni yo'g'on bekdan qutuldim, deb o'ylagan edi. Lekin bundan o'n besh kuncha burun Ahmad Tanbal degan bir badavlat bek mulla Fazliddinni so'roqlab, kechki payt uning uyiga keldi. Ikkovlari xoli qolganda, Ahmad Tanbal cho'ntagidan bir hamyon oltin oldi-da, mulla Fazliddinga uzatdi:

– Taqsir, mana shu oltinni oling-u bitta surat chizib bering.

– Qanaqa surat?

Yoshi yigirma beshlardan oshgan bo'lsa ham, yuziga hali durust soqol chiqmagan, ko'sanamo Ahmad Tanbal og'zini me'morning qulog'iga yaqinlashtirib shivirladi:

– Malikamizning surati kerak menga!

– Qaysi malikamiz? – sergaklanib so'radi mulla Fazliddin.

– Chorbog'da tillakori ko'shk qurganingizda ko'rgansiz... Xonzoda begim... O'zi ham sizning san'atingizga ixlosmand emish-ku...

Mulla Fazliddinning yuragi taka-puka bo'lib ketdi. Nahotki bu bek po'lat sandiqdagi suratdan xabardor bo'lsa!

– Kim sizga shunday dedi?.. Men me'mormen... Men faqat imoratlarning suratini chizamen...

– Mendan yashirmang, janob me'mor! Men shariat peshvosi emasmen. Surat chizishni bizda man qilganlariga men ham qarshimen! Hirotda Shohruh mirzo Boysunqur mirzo uchun qurdirgan saroyning devorlari go'zal qizlar surati bilan bezalgan ekan. To'g'rimi?

– To'g'ri-yu, lekin... Har joyning o'z tosh-u tarozisi bor. Agar Xonzoda begimning surati haqida siz aytgan gapni podshoh hazratlari bilib qolsalar, nima bo'lishini o'ylaysizmi?

– Bilmagay! – deb shivirladi Ahmad Tanbal. – Ikkovimizdan boshqa hech kim ogoh bo'lolmagay! Xo'p deng! Mang, oltinni oling!

– Shoshmang, bek. Meni surat chizadi, deb sizga kim aytdi?..

– Eshitdik-da!

– Kimdan?.. Hasan Yoqubbekdanmi?..

– Hasan Yoqubbek bir bogʻbondan eshitgan ekan...

«Demak, Ahmad Tanbalning bu yerga kelganidan Hasan Yoqubbek xabardor! – oʻyladi mulla Fazliddin.

– Bular birgalashib meni qoʻlga tushirmoqchi boʻlsa kerak. Sendek qurbaqataxlit bek uchun Xonzoda begimning suratini chizib berib men ahmoq emasmen!».

– Janob Ahmadbek, kamina bogʻlarning suratini chizganda bir chetiga bogʻbonni ham tasvirlashim mumkin. Meʼmorlik sanʼati buni inkor etmaydi. Ammo malikaning suratini chizish uchun menda na sanʼat bor, na haq va na jurʼat!

– Xullas, mening soʻzimni yerda qoldirmoqchimisiz?

– Boshqa ilojim yoʻq. Meni maʼzur tuting, janob bek. Bunday taklif bilan kelish siz uchun ham xatardan xoli emas!

– E, men buzdillardan<sup>1</sup> emasmen! – deb Ahmad Tanbal qahr bilan oʻrnidan turdi va yirik tishlarini irjaytirib qoʻshib qoʻydi: – Lekin siz mening shaxtimni qaytarganingiz uchun hali pushaymon boʻlursiz!

Bu tahdid mana endi toʻrtta bosqinchining qiyofasiga kirib, qorongʻida uning uyiga bostirib kelgan boʻlsa ajab emas. Qurolsiz, navkarsiz mulla Fazliddin Ahmad Tanbalday yuz-ikki yuztadan qurolli yigitlari bor beklarga qanday bas keladi? Lekin «boʻlari boʻldi», deb indamay yuraversa, bu quturgan bek ertaga beshbattar yomonliklar qilishi mumkin emasmi? Mulla Fazliddin ertalab podshoh inʼom qilgan toʻbichoq otni mindi-da, shahar dorugʻasi<sup>2</sup> qabul qiladigan mahkamaga yoʻl oldi. Uzun Hasan ismli ingichka, novcha dorugʻa askarlikka odam olish va shaharni

<sup>1</sup> Buzdil – quyonyurak, qoʻrqoq.

<sup>2</sup> Dorugʻa – shahar hokimi.



yaqinlashib kelayotgan dushmandan himoya qilish tashvishi bilan band ekan. Mulla Fazliddinning arzini qayoqqadir ketmoqchi bo'lib shoshilib turgan paytda tingladi-da:

– Tarhlaringizga tegmay, hamyoningizni olib ketgan bo'lsa, bu – to'qaydan chiqqan o'g'rilarning ishi, – dedi.  
– Yog'iy tashvishidan qutulsak, to'qaylarni o'g'rilardan tozalagaymiz... Hozir ahvolni ko'rib turibsiz!..

Qo'l qovushtirib tikka turgan mulla Fazliddin dorug'aga yaqinroq keldi:

– Mening boshqa gumonim bor, janob dorug'a, – dedi. So'ng Ahmad Tanbalning surat chizdirmoqchi bo'lganini, rad javobi olganda esa achchiqlanib ketganini aytib berdi.

– Kimning surati? – deb dorug'a qiziqib qoldi.

Mulla Fazliddin Xonzoda begimning nomini tilga olishga qo'rqdi.

– Parilar suratimidi? Yaxshi tushunmadim.

– Sandig'ingizda parilar surati bormidi? Bosqinchilar shuni olib ketibdirmi?

– Surat o'zi bo'lmasa neni olib ketsin! Men hazrati oliylari buyurgan madrasa tarhini chizish bilan bandmen. Suratkashlikka vaqtim yo'q. Sandiqda xomaki loyihalarim bor edi, xolos.

– Ular joyida qolganmi, axir? Undoq bo'lsa Ahmadbekdan nechun gumonsiramoqdasiz?

– Sababini aytdim, janob dorug'a! Taftish o'tkazishingizni so'raymen!

– Ahmadbek – sultonlar avlodidan ekanini unutmagan bo'lsangiz, men eslatib qo'yay. Hazrati oliylarining katta xotinlari Fotima begim Ahmadbekka qarindosh bo'lurlar. Fotima begimning chaqirig'i bilan Sulton Ahmadbek bugun azonda poytaxtimiz Axsiga ketdilar. «Agar o'sha bek sandiqdagi suratlarni qo'lga tushirsa, Axsiga eltib, podshoh oilasiga ko'rsatmoqchi bo'lganmi? – degan o'y mulla Fazliddinning ichini muzlatib o'tdi.

– Bular mening qonimga shunchalik tashnami? Balki Ahmad Tanbal Xonzoda begimni ham shu surat orqali qo‘lga tushirmoqchidir? Hali uylanmagan bu bek podshoga kuyov va Xonzoda begimdek go‘zal qizga er bo‘lishni jon-dili bilan istasa kerak!»

O‘rgimchak to‘riga o‘xshash yopishqoq bir balo atrofini o‘rab kelayotganini sezgan mulla Fazliddin jon-jahdi bilan bu to‘rni yirtib chiqib ketishga urindi:

– Janob dorug‘a, men sizdan adolat istab keldim! Podshoh hazratlari meni sizning himoyangizga topshirgan edilar! Agar bosqinchilarni topib jazo bermasangiz, men podshoh hazratlarining huzurlariga panohtab istab ketishga majbur bo‘lurmen!

– Ammo shuni bilingki, janob me‘mor, hazrati oliyning huzuriga sizdan ham oldin ba‘zi bir gaplaringiz yetib borishi mumkin!

– Ya‘ni, qaysi gaplarim, janob dorug‘a?

– Ba‘zi me‘morlar o‘zlarini podshohlardan ham baland qo‘yarmishlar. «Bu taxt-u saltanatlar benom-u nishon yo‘qolur, faqat me‘mor-u musavvirlar yaratgan zo‘r san‘at asarlari tirik qolur», degan gustohona aqidalar bizga ma‘lum!

Mulla Fazliddin bugun Quvada pochchasining uyida bexosdan aytib yuborgan bu e‘tiqodini boshqa ishongan odamlariga ham aytgan paytlari bo‘lgan edi. Ana shu ishonganlaridan allaqaysisi ayg‘oqchilik qilib, bu gapni dorug‘aga yetkazganini, endi dorug‘a buni podshohga dasturxon qilib olib borishi mumkiligini sezdi-yu, badanidan sovuq ter chiqib ketdi. Lekin dorug‘aga sir boy berish qanchalik xatarli ekanini payqab:

– Bu hammasi ig‘vo! – deb xitob qildi: – Janob dorug‘a, sizning ustingizdan ig‘vo qiluvchilar ham oz emas! Buni bilursiz! Men Andijonda neki bino qilgan bo‘lsam, hammasiga Mirzo hazratlarining nomlarini bitmoqdamen! Arkdagi devonxonani ko‘ring!

Chorbog'dagi ko'shkni ko'ring! Men ularning biror joyiga o'z nomimni yozibmenmi? Qani, ig'vogarlar dalil keltirsinlar! Men hammasiga Mirzo hazratlarining muborak nomlarini bitganmen! Demak, tarixda mening nomim emas, Mirzo hazratlarining nomi qolsin, deganmen! Shundoqmi, yo'qmi? Qani ayting!

Dorug'a bu mantiqli dalillarni rad etolmasdan:

– Shundoqlikka shundoq, ammo...

– Ammosi yo'q, janob dorug'a! Siz meni bosqinchilardan himoya qilish o'rniga, ayg'oqchilarning tuhmatiga ishonadigan bo'lsangiz, men alhol Axsiga borib, Mirzo hazratlariga arz qilurmen!..

Uzun Hasan bu do'qni pisand qilmay:

– Mayli, boring, arz qiling! – dedi. – Lekin shuni bilingki, atrofimizni yog'iy bosgan bu xatarli damlarda podshohga me'mordan ko'ra navkar zarurroq! Ahmad-bekdek, mendek jangovar beklar uchun podshoh hozir sizdeklardan qanchasining bahridan o'tur!

– Axsiga borganda ko'rurmiz, – deb mulla Fazliddin mahkamadan shaxt bilan tashqariga chiqdi. Uning vajohati hoziroq Axsiga, podshoh huzuriga arzga boradiganga o'xshardi. Lekin u o'tlanib uyiga qaytayotganda, sal hovuridan tushdi-yu, Uzun Hasan aytgan so'nggi gaplarda achchiq bir haqiqat borligini sezdi. Yov qurshovida qolayotgan Umarshayx mirzo bitta me'morni deb yuz, ikki yuzdan navkari bor zo'rvon beklarga qarshi bormasligi aniq. Ahmad Tanbal bugun Axsida – shoh saroyida. Agar u mulla Fazliddinning malika suratini chizgani haqida gap tarqatsa... Lekin Ahmad Tanbal buni qanday payqaganikin? Mulla Fazliddin Xonzoda begimning suratini chizish uchun u bilan tillakori ko'shkda pinhon uchrashganda buni zimdan ko'rib qolgan kanizlar yoki savdarlar<sup>1</sup> bo'lsa, Ahmad Tanbal shuning bir chetini eshitib, haligi hamyonni ko'tarib kelganmikin? Bosqinchi yigitlarini

---

<sup>1</sup> Savdar – xos xizmatkor.

ishga solib ham maqsadiga yetolmagan bu yovuz bek endi shoh saroyiga borib peshgirlik qilishi mumkin. Agar u o'zi eshitgan mish-mishni haramdagi ayollar orqali podshohning qulog'iga yetkazsa... Umarshayx mirzo bo'y yetgan qizining qayoqdagi bir me'mor bilan yashiriqcha uchrashib, surat chizdirganini o'z sha'niga katta isnod deb bilishi aniq. Shoh iskovuchlari ishga tushirilsa, mulla Fazliddin yashirib yurgan suratni topib olib, Ahmad Tanbalning gapiga dalil qilish qo'llaridan keladi. Ana undan so'ng shoh qiziga isnod keltirgan musavvirni ming qiynoqlarga solib o'ldirishlari turgan gap!

Mulla Fazliddin Xonzoda begimning suratini chizish bilan nechog'liq xatarli ishga qo'l urganini endi astoydil his qildi. Agar surat qo'lga tushsa, u qiz ham malomatga qoladi. Dunyo busiz ham tashvish-tahlikaga to'la!.. Mulla Fazliddin tagqutidagi malikaning suratini titroq qo'llari bilan jilddan oldi. Ig'vogar ablahlarga dalil qoldirmaslik uchun buni yo'q qilishi kerak! Mulla Fazliddin o'choqda yonayotgan olovga yaqin bordi.

Rangli bo'yoqlar bilan ishlangan mo'jazzgina suratdagi go'zal qiz shu payt unga tirik bir odam bo'lib ko'rindi. Alanga yolqinida qizning kipriklari, lablari bilinar-bilinmas nafis harakatlar qilayotganga o'xshab ketdi. Qizning aqlni shoshiradigan jozibasi bor edi. Bu joziba mulla Fazliddinni har galgiday yana sehrlab oldi, boyagi tahlika xayolidan uzoqlashib, qalbida iliq tuyg'ular uyg'ondi. «Nahotki men bu qizga oshiq bo'lsam? – hayrat ichida o'ylandi mulla Fazliddin. – Qora xalq orasidan chiqqan menday bir suratkashning shoh qiziga muhabbat qo'yishi kulgili emasmi? Yo'q! Men faqat o'zim chizgan suratga – o'z ijodimga mehr qo'rganmen, xolos! Boshim omon bo'lsa, bunday suratni yana chizgaymen!» Shu o'y bilan suratni o'tga tashlamoqchi bo'lib egildi. Qiz tasviri

olovga yaqinlashganda yuzi qizarib bo'g'riqqandek, ko'zlari esa chaqnab ketgandek ko'rindi. Mulla Fazliddin tirik odamni o'ldirayotgandek, seviklisini o'tga tashlayotgandek seskanib orqaga chekindi. Ichki bir ovoz uni «Qo'rqoqsen!» degandek jerkidi. «Dushmanlaring ustingga bostirib kelayotgani yo'q-ku! Ahmad Tanbal ham Axsida. Bilib qo'y, sen bunday go'zal suratni ikkinchi marta chiza olmassen! Tasvirga bunchalik tirik joziba baxsh eta olganing – takrorlanmas bir ilhomning natijasi. Botir bo'lsang, qutqarib qolursen!»

Mulla Fazliddin suratni tagqutiga qaytarib soldi-yu, xizmatkor yigitni chaqirdi.

– Ko'chlarni yig'ishtir! Aravani qo'sh! Quvaga jo'nagaymiz!.. Tez!.. Tezroq!..

Mana hozir opasining uyida o'tirib, yuz bergan voqeani pochchasi bilan jiyaniga so'zlab berar ekan, po'lat sandiqda Xonzoda beginning surati borligini ularga ham aytmadi. Bu sirni u hech kimga bildirmoqchi emas edi...

– Vo darig! – deb Tohirning otasi og'ir uh tortdi: – Bizning suyangan tog'imiz siz edingiz, mulla Fazliddin!.. Endi siz ham quvg'inga uchragan bo'lsangiz...

– Nachora? Hammamizning ham taqdirimiz qil ustida turibdi!

– Podshohga arzga borsangiz, dodingizga yetmas-mikin, mulla tog'a?

– Bu to'polonlar bosilsa, bir marta borib arz qilishim aniq. Agar dodimga yetsa yetdi, yetmasa, yana Hirotga qaytib keturmen! Alisher Navoiy Shifoia degan bino qurdirmoqchi, deb eshitgan edim. Olamda biz uchun yongan yagona umid chirog'i o'sha siymo bo'lib qoldi.

– Hirot orzusini qilmang, mulla Fazliddin, Farg'onada ham hunaringizning qadriga yetadigan odamlar bor. Quvaning ko'prigi sizning rejangiz bilan qurilgan edi. Xalq haligacha sizni duo qilib yuribdir.

– Xalq! Qani endi bu ko‘prikdan faqat xalq o‘tsa! Erta-indin bu ko‘prikdan yog‘iy qo‘shinlari o‘tib kelur! Xalqning boshiga yog‘iladigan balolarni o‘ylasam, bugungi jalalar selga aylanib, o‘sha ko‘prikni oqizib ketmaganiga afsus qilamen! Agar yog‘iy, bu tomonga o‘tolmasin deb, o‘sha ko‘prikni hozir yondirib yuborsalar, men jon deb rozi bo‘lur edim!

«Chindan ham, – o‘yladi Tohir o‘zicha, – yog‘och ko‘prik. Yog‘ sepsa yonur. Yog‘iy faqat shu ko‘prikdan o‘tishi mumkin. Kechuv ham yo‘q. Hammayoq botqoqlik, qamishzor. Agar ko‘prik yondirilsa yog‘iy o‘tolmagay!» Tohir kutilmagan joydan najot yo‘lini topganday bo‘ldi. Tasavvurida gavdalangan yong‘in alangasidan go‘yo uning badani qizib ketganday tuyildi. Robiyani balo-qazodan asraydigan eng zo‘r qalqon ana o‘sha olov bo‘lishi mumkin! Tohir qaltis istakdan ko‘zlari yonib, otasiga qaradi. «Aytsammikin? Yo‘q! Rozilik bermas. Yolg‘iz o‘g‘ilmen. Tog‘am... nozik odam, aralashmagani ma‘qul. Tavakkalchi yigitlardan topishim kerak!».

Tohir sekin o‘rnidan turib, hovliga chiqdi.

Osmonni to‘ldirgan bulutlarning yirtig‘idan bir-da-yarim yulduzlar ko‘rinib qoladi. Uylar chiroqsiz. Ko‘chalar sukutda. Ahyon-ahyonda kuchuklar hurgani eshitiladi.

Iftorni qilib chiqqan Mahmud Tohirga darvoza oldida uchradi. Robiyaning akasi bo‘lgan bu kosib yigit Andijon qo‘rg‘oniga ketishdan gap ochgan edi:

– E, bu niyatlar hammasi puchga chiqdi! – deb Tohir unga tog‘asidan eshitganlarini aytib berdi. Mahmudni ham birdan g‘am bosib:

– Endi qaydan najot izlaymiz, e Xudo! – dedi.

– O‘zing uchun o‘l yetim, degan gap bor, Mahmud... Yur, darvozaxonaga kiraylik. Bir sir aytamen.

– Og‘zingdan chiqarma! Ko‘prikni yondiramiz!..

– Qanday qilib? – hayrat bilan so‘radi Mahmud.

Tohir unga o'zining rejasini shivirlab tushuntirdi.

– Yog' sepsak, yog'och tez yongay. Bildingmi?

– Jinni bo'libsən! Ko'prikda soqchilar bor-ku!

– O'zimizning beklar qo'ygan soqchilarmi? Hali yog'iy yaqin kelsa, hammasi qo'rg'onga qochgay. O'shanda biz...

– Yo'q, shoshma! Axsidan bizning podshomiz qo'shin tortib kelayotgan emish. Bu ko'prik hali o'zimizga kerak!..

– Podshoying qo'rg'onidan chiqsa shu kungacha chiqar edi! Ana, Marg'ilon ham boy berilibdi! Podshodan darak yo'q!..

– Bilmasam, kadxudo<sup>1</sup> guzarda ishontirib aytdi. «Podsho hazratlari yo'lda, erta-indin himoyamizga yetib kelishlari aniq!» – dedi.

– Chindan yo'lga chiqibdimi-a?

– Ha, o'z qulog'im bilan eshitdim! Bultur podshomiz yog'iy bilan Xo'janddan nari Xovosga borib urushgan ekan-ku. Quva Axsiga Xovosdan yovuqroq<sup>2</sup> emasmi?

– Yovuqlikka yovuq-ku!.. Zora sen aytganing rost chiqsa-ya, Mahmud?

– Ha, axir, ko'priikka soqchilarni bekorga qo'yganlarmi?.. Podshomiz erta-indin kelib, jonimizga ora kirgay... Mana, ko'rursen!..

Shu tobda Tohirning ko'nglida ham umid uchqunlaganday bo'ldi. U qorong'i osmonning uzoq bir chetida – Sirdaryodan narida joylashgan Aysi tomonga intizor ko'zlar bilan tikildi.

---

<sup>1</sup> Kadxudo – qishloq oqsoqoli.

<sup>2</sup> Yovuq – yaqin.

## **AXSI**

### **AJALGA DAVO YO‘Q**

#### **1**

Baland tepalik ustiga qurilgan Axsi qal’asi tun og‘ushida tog‘ qoyasiga o‘xshab qorayib ko‘rinadi. Qal’a etagida Kosonsoyning Sirdaryoga guvullab quyilayotgani, ikki daryo to‘lqinlari bir-birlari bilan olishib, qirg‘oqqa shaloplab urilayotgani uzoqdan eshitilib turadi.

Axsining hukmroni Umarshayx mirzo bu kecha haramda o‘n sakkiz yoshlik Qorako‘z begimning xobgohida uxlab yotibdi. Shohona to‘shakning ipak pardasi ortida bittagina sham lipillab yonib turibdi. Uning zaif yog‘dusi tashqaridan bosib kirmoqchi bo‘layotgan tun qorong‘isidan qo‘rqqanday titrab-qaltiraydi.

Sahar paytida qal’a sukunatini buzib, hazin surnay tovushi yangradi. So‘ng unga qo‘sh nog‘ora tovushi jo‘r bo‘ldi. Ro‘za tutish – shoh-u malayga barobar kelgan majburiyat bo‘lgani uchun surnay va nog‘ora saroy ahlini saharlikka uyg‘otmoqda edi.

Yoz tunlari qisqa, uyquga to‘ymay saharlikka turish xiyla noxush. Shunday bo‘lsa ham Qorako‘z begim o‘rnidan ohista turib yuvindi, kiyindi. Lekin parqu to‘shakda baquvvat qo‘llarini ipak choyshabdan chiqarib uxlab yotgan Umarshayx mirzo hamon uyg‘onmasdi.

Xobgohdan ikki xona narida hashamatli tanobiy uyda allaqachon tuzab qo‘yilgan dasturxon Mirzoga muntazir edi. Uning kecha iftordan so‘ng bergan amriga muvofiq bugungi saharlik uchala xotinlari



va bolalari bilan birga qilinishi kerak edi. Mirzoning birinchi xotini Fotima Sulton, ikkinchi xotini Qutlug' Nigor xonim, o'n sakkiz yoshlik qizi Xonzoda begim va o'n yashar o'g'li Jahongir mirzo – hammalari o'sha tanobiy uyga yig'ilgandilar. Lekin hazratning o'zlari kelmaguncha hech kim tamaddi qila olmasdi.

Ichki eshikdan Qorako'z begim chiqib keldi. Kichik jussali bu yosh juvon tepada yonayotgan qandil yorug'ida behad chiroyli ko'rindi. U katta begimlarga uyalibgina salom berdi-da, hazratni uyg'otishga jur'at etolmaganini aytdi.

Qorako'z begimning yoshligi, go'zalligi, xususan, uyalib gapirishi hozir uning eng suyukli xotin ekanini esga tushirdi-yu, Fotima Sultonning rashkini qo'zg'adi.

– Hazratimni muncha qattiq uxlatibsiz, endi uyg'otish nechun ilkingizdan kelmaydir?

Qutlug' Nigor xonim bolalar oldida qilingan bu kinoyadan ozorlanib:

– Qo'ying, og'a oyi. Bu begimda ayb yo'q! – dedi.

Xonzoda begim oyisining yuziga ma'noli ko'z tashlab: «Ayb bizning otamizdami?» demoqchi bo'ldi. Podshoh ota qizi tenglik Qorako'z begimning xobgohida, qonli urush hammani besaranjom qilib turgan shunday tahlikali tunda qotib uxlab yotishi unga behad xunuk tuyildi. Hozir otasi kelsa, Xonzoda begim uning yuziga qaray olmasligini sezdi-yu, oyisidan iltimos qildi:

– Ruxsat bering, men ketay... Saharlikni boshqa qizlar bilan qilay...

– Hazrat otangiz so'rasalar, biz ne deymiz? Xafa bo'lmasinlar, tag'in. Sabr qiling, qizim... Muncha oshiqmang...

Tashqari eshikdan ta'zim qilib kirgan choshnagir ayol ovozi qo'rquv bilan pasaytirib xabar berdi:

– Osmonda yulduzlar siyrak qoldi. Hademay tong yorishur. Hazrati oliy saharliksiz qolurlarmu?

Tong otib, azon aytilgandan so'ng ro'za o'z kuchiga kiradi, hech kim hech narsa yeb-ichishi mumkin bo'lmay qoladi. Uzun va issiq yoz kunida podshohni saharliksiz qoldirish begimlar uchun o'zlari och-nahor qolishlaridan qo'rqinchliroq edi.

Barcha ko'zlar ichki eshik oldida iymanib turgan Qorako'z begimga tikildi. Mirzo uning xobgohida yotibdi, u yerga kirib hazratning shirin uyqusini buzishga boshqa hech kim botinolmaydi. Choshnagir<sup>1</sup> ayol Qorako'z begimga iltijo qildi:

– Iloho Rustamday o'g'il ko'ring, begim!.. Bugun umidimiz sizdan!

Qorako'z begim tashvishli yuz bilan sekin burildi-yu, ichki eshiklardan o'tib, xobgohga qaytib bordi. Umarshayx mirzo boshi yostiqa botib, qattiq uxlamogda edi. Qorako'z begim oltin shamdonni parda ortidan olib, naqshin tokchaga qo'ydi. Sham yorug'i Mirzoning yuziga tushdi. Ammo bu ham uni uyg'otolmadi – Mirzo kechasi ma'jun<sup>2</sup> yegan edi. Qorako'z begim uni cho'chitib yuborishdan qo'rqib, mayin tovush bilan:

– Hazratim! – deb chaqirdi. Bu ham kor qilmadi. Qorako'z begim gilam uzra cho'kkalab, vahimadan xiyol titrayotgan nafis qo'llarini hazratning mayin choyshab ustida yotgan zalvorli bilagiga qo'ydi. To'shakdan gul hidi kelmoqda edi – kecha oqshom choyshablarga gul atri sepilgan edi. Qorako'z begim Mirzoning uyg'onmayotganidan ajablanib, unga tikilib qaradi. Lablari yarim ochiq, oqish yuzi osoyishta. Shu yotishda u qo'rqinchli podshoh emas, hali qirq yoshga to'lmagan va bahodirona uyquga cho'mgan ko'hlik bir yigit bo'lib ko'rindi. Bu yigit Qorako'z begimga

---

<sup>1</sup> Choshnagir – podshohning dasturxoniga qaraydigan xodima.

<sup>2</sup> Ma'jun – ziravor va dorivor giyohlardan tayyorlanadi. Ko'pincha unga afyun ham qo'shganlar.

to'satdan juda g'animat tuyildi. Hozir yurt notinch, Axsiga yov bostirib kelyapti. Mirzoni ajal kutayotganini oldindan sezgandek, Qorako'z begimning yuragi yomon bir uvushdi. U to'satdan egilib, Mirzoning yuzidan, ko'zlaridan vidolashgan kabi o'pa boshladi. Umarshayx mirzoning kipriklari titradi. U ko'zini ochib, tepasida turgan Qorako'z begimga karaxt yuz bilan bir lahza tikilib turdi.

Qorako'z begimning katta-katta ko'zlari xavotirlik to'yg'usidan yana ham ulkanlashib ketdi. U uyqudagi Mirzoni o'pish beadablik sanalishidan tahlikaga tushgan edi. Mirzo:

- Sizmi? - dedi-yu, nima bo'lganini fahmlab, kulimsiradi.

Qorako'z begim endi yengil tortdi va dadillanib ta'zim qildi.

- Hazratim, saharlik vaqti o'tib ketmasin.

- Sizning bo'salaringiz saharlikdan shirinroq...

Begim jiddiy gapirdi:

- Og'a oyim, xonim oyi - hammalari hazratimga muntazirlar.

Umarshayx mirzo bugungi rejalari va urush tashvishlarini eslab, qovog'ini soldi-da, indamay o'rnidan turdi.

U zardo'zi ko'rpachalar to'shalgan tanobiya to'rdagi eshikdan kirib keldi. Sallasi va kamariga qadalgan qimmatbaho gavharlar sham yorug'ida nafis jilolanardi. Odatdagi ta'zimlardan so'ng, ayollar nafaslarini ichlariga yutib, bir lahza jim qoldilar. Podshoh kimni qaysi yoniga taklif qilsa - kimning hurmati qay darajada ekani shu bilan belgilab beriladi. Farg'ona vodiysiga uch tomondan dushman hujum qilib kelayotgan shu og'ir vaziyatda Umarshayx mirzo hamma xotinlariga iloji boricha iltifot ko'rsatmoqchi bo'ldi. Xotinlari orasida eng yoshi ulug'i va eng obro'parasti Fotima Sulton bo'lganligi

uchun Mirzo birinchi bo'lib uni yuqoriga taklif qildi. Fotima Sultonning ko'zlari quvonchdan chaq nab ketdi. U podshohning o'ng tomoniga o'tmoqchi bo'lib borayotgan edi. Biroq Umarshayx mirzo unga chap tomonidan joy ko'rsatdi. Eng mo'tabar hisoblangan o'ng tomonga esa Qutlug' Nigor xonimni taklif qildi. Xonim – taxt vorisi Zahiriddin Muhammad Boburning onasi edi, uning o'ng tomonida o'tirishi adolatdan ekanini kichik xotinlar tan olar edilar. Ammo Fotima Sulton o'zining hurmati Qutlug' Nigor xonimnikidan past ekanini yana bir marta his qilib, ko'zlari alam bilan qisildi.

Dasturxonga tortilayotgan kiyik kabobi, kaklik go'shtlari hazratdan so'ng Qutlug' Nigor xonimga qo'yilar, undan keyin Fotima Sultonga navbat kelar edi. Shu sababli og'izda eriydigan eng a'lo go'shtlar ham Fotima Sultonga ilitma ovqatdek mazasiz tuyilardi. Oqshom iftorda yoyilgan taomlar hazm bo'lib ulgurmagan, dasturxon atrofidagilarning ko'pchiligi hali kun bo'yi och yurishini o'ylab, o'zini majbur qilib bo'lsa ham ko'proq ovqat yeyishga intilar edi. Qutlug' Nigor xonimning yonida o'tirgan Qorako'z begim ovqatdan ham ko'proq bodring, handalak yer, sharbat ichar edi – kecha kun issig'ida tashnalikdan nihoyatda qiynalgani esidan chiqmas edi.

Osmon oqarib qoldi. Tong yorishgan sari qandildagi shamlarning nuri xira torta boshladi. Azon aytadigan payt o'tib boryapti. Arkdan tashqaridagi masjidning imomi koshinlik minoraga chiqib, bakovulning<sup>1</sup> ishorasini sabrsizlik bilan kutuyapti. Axir Mirzo hazratlari saharlik qilib ulgurmasdan, azon aytish xatardan xoli emas. Ovqat yeyilib, choyga o'tilganda Umarshayx mirzo xotinlariga vaziyat qanchalik og'irlashayotganini aytib berdi. Shu payt masjid tomondan azon tovushi eshitildi. Choy ichayotgan

---

<sup>1</sup> Bakovul – podshoh oshxonasining javobgar xodimi.

Xonzoda begim shoshilib piyolasini dasturxonga qo'ydi. Umarshayx mirzo xotinlariga bir-bir qarab, dedi:

– Mo'ysafidlar «to'rt muchang butun bo'lsin», deb duo qilurlar. Fotima Sulton, Qutlug' Nigor xonim, Qorako'z begim, farzandlarimiz Xonzoda begim, Jahongir mirzo – har biringiz oilamizning aziz bir muchasidirsiz. Istaymenki, bu mushkul vaziyatda hamma muchalarimiz butun bo'lsin, bir-birlariga mehr-u shafqat ko'rsatsin. Ilik<sup>1</sup> o'z o'rnida aziz. Ko'z o'z o'rnida mo'tabar. Agar ko'z bilan ilik bir-biriga nizo qilsa, bundan har ikkisi jabr ko'rir. So'nggi gap Fotima Sulton bilan Qutlug' Nigor xonimga qaratilganini hamma sezdi. Xonimning xayoli shu xatarli vaziyatda ota-onadan uzoqda – Andijonda turgan yolg'iz o'g'li Boburda edi.

– Hazrat uni nega farzandlari qatori tilga olmadi?

– Hazratim, bergan o'gitingizni bebaho gavhar o'rnida qabul qilurmiz, – dedi Nigor xonim.

– Ijzat bersangiz, bitta o'tinchim bor.

– Ijzat.

– Urush xatari kuchlik ekan. Bobur mirzoni Andijondan poytaxtga chaqirtirsangiz, yonimizda bo'lsalar...

– Andijon qal'asi mustahkam. Bobur mirzo u yerda bo'lsa qal'a yanada mustahkam bo'lur. Bizning Mirzoga ishonchimiz katta.

Bu javob bilan xonimning iltimosi rad etildi. Fotima Sulton yonida uyqusirab o'tirgan o'g'ilchasi Jahongir mirzoni sekin bag'riga bosib, boshini silab qo'ydi. Bu bilan u Qutlug' Nigor xonimdan ko'ra o'zining ahvoli yaxshiroq ekanini namoyish qilmoqchi edi.

– Bobur mirzoning onasi sizdan umrbod minnatdor, hazratim, – dedi Qutlug' Nigor xonim, – faqat hali o'n ikki yoshga to'lmagan bola... urush maydonida...

---

<sup>1</sup> Ilik – bu yerda: qo'l ma'nosida.

– Xonim, ortiqcha xavotirga o‘rin yo‘q. Bobur mirzoning yoniga eng yaxshi beklarimiz yuborilgan. Yosh bo‘lsa ham sarkardalikka tayyorlanmog‘i zarur. Agar mening kunim bitsa, o‘rnimni Bobur mirzo olg‘ay.

Endi o‘ttiz to‘qqiz yoshga kirgan va qirchillama yigit yoshini yashayotgan Mirzoning o‘z o‘limi haqidagi so‘zlaridan haram ahli og‘ir jimlikka cho‘mdi. Hammaning xayoli qonli urushga ketdi. Xonzoda begim otasi haqidagi boyagi noxush o‘ylarini unutib, unga ko‘zi mo‘ltirab qaradi. Umarshayx mirzo gapining ta‘sirini yanada oshirgisi kelib davom etdi:

– Agar men bu foniy dunyodan ko‘z yumsam, hammangiz Bobur mirzoning amrini hozirgi mening amrim kabi bajo keltirgaysiz. Jahongir mirzo!

Podshoh otasi bilan muomalaga yaxshi o‘rgatilgan o‘n yashar bola darhol sergaklanib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi:

– Labbay, hazratim!..

– Mening bu gaplarimni sen ham esda tutgil. Bobur mirzo sendan faqat ikki yosh katta bo‘lsa ham, agar mening o‘rnimda qolsa, sen unga farzanddek sodiq bo‘lg‘il.

– Xo‘p, hazratim!..

Bola otasining so‘zlaridagi ma‘noni durust tushunmagani uchun tez va oson «xo‘p» dedi. Ammo ayollar murakkab hislar tug‘yonida qoldilar. Qorako‘z begimning Umarshayx mirzoga termilib turgan ko‘zlarida yosh yiltilladi. Mirzo buni ko‘rdi-yu, suyuqli xotining boyagi o‘pichlari esiga tushib, vidolashuv alomatiga o‘xshab tuyildi. Umarshayx mirzo o‘zining so‘nggi gaplari ham vasiyatga o‘xshab ketganini endi sezdi. Yuziga birdan ajal sharpasi tekkanday yuragi «shig‘» etdi. «Menga ne bo‘ldi? O‘limni bo‘ynimga olib vasiyat qildimmi? Yo‘q, yo‘q!» Mirzo o‘z gaplaridan o‘zi qo‘rqib ketganini payqagan Xonzoda begim bugun

otasining allanechuk yordamga muhtoj bir ahvolda ekanini ko'rib, unga bexosdan rahmi keldi.

- Hazratim, men mungliq qizingiz, sizga Xudodan Shayx Sa'diyning umrini tilaymen! Ilohim yuzga kiring!

- Aytganing kelsin, qizim! - deb Umarshayx mirzo yengil bir so'lish oldi. U qizining ziyrakligini, so'nggi paytda bo'y yetib, husni yetilib, ko'zga nihoyatda yaqin bo'lib qolganini go'yo endi sezdi-da, qo'shib qo'ydi: - Men axir sening to'yingni o'tkazmoqchimen!

Xonzoda begimni Samarqand podshosining o'g'li Boysunqur mirzoga so'ratgan edilar. Lekin Umarshayx mirzo bunga rozi bo'lmagan edi. Mana endi agar juda do'ppi tor kelsa, balki u qizini podshoh akasining o'g'liga berib, shu yo'l bilan urushni yarashga aylantirar? Lekin bunday istiqbol Xonzoda begimga qorong'i tundek mavhum va vahimali tuyilardi. Uning boshqa orzulari bor edi. Shuning uchun otasining so'nggi niyatidan cho'chib, gapni boshqa yoqqa burdi:

- Agar inimiz Bobur mirzoni chaqirtirish imkonsiz bo'lsa, men bilan oyimga ruxsat bering, biz Andijonga boraylik!

- Qizim, sen mening eng bebaho gavharlarimdansen. Bu xatarli asnoda seni qanotim ostidan chiqarmagaymen!

- Undoq bo'lsa menga ruxsat bering, hazratim! - dedi Qutlug' Nigor xonim.

- Xonim, Marg'ilondan chopar kutmoqdamiz. Vaziyat aniqlansa, ruxsat olursiz.

Umarshayx mirzo dasturxonga fotiha o'qib, o'rnidan turdi-yu, shoshilinch tadbirlar o'ylab, haramdan chiqdi. Haramga kirish huquqidan mahrum qo'rchilar tuni bilan tashqarida qo'riqchilik qilgan edilar.

Endi hazrati oliyning e'tiborini tortmaslikka va xayolini bo'lmaslikka tirishib, sekingina unga er-gashdilar.

Tong endi otgan, hali oftob chiqmagan bo'lsa ham ko'pchilik beklar va mulozimlar devonxonada hozir erdilar. Hammalari Mirzoni ta'zim bilan qarshi oldilar. Zarbof to'n kiygan, beliga tilla kamar bog'lagan sersoqol eshik og'a birinchi vazir darajasidagi eng katta bek edi. Mirzo unga yuzlanib, qayerdan chopar borligini so'radi.

– Hazrati oliylari, Isfaradan.

Eshik og'a ikki bukilib ta'zim qilar ekan, yuzi tund ko'rindi.

– Qanday xabar, bek?

– Hazratim, qulingizning bir qoshiq qonidan o'ting...

Demak, Isfara ham yov qo'lida! Mirzo ichki bir titroq bilan Marg'ilon choparini so'radi.

– Hazratim, Marg'ilon chopariga intizormiz.

Nahotki Marg'ilon ham taslim bo'lgan? Unda Andijon ham xavf ostida qoladi! Yoki choparlar yov qo'liga tushganmikin? Balki birortasi xiyonat qilib, narigi yoqqa o'tib ketgandir?

– Hazrati oliylari, yana chopar yuborishga farmon berurlarmi?

– Chopar yuborib yana necha kun yo'liga qaraylik?!

Eshik og'a uzr so'ragandek, ta'zim qilib, orqaga chekindi.

Axsi qal'asining qamalda qolishi Mirzoga endi muqarrardek tuyildi. U eshik og'aga olti oylik zaxira tayyorlatishni buyurdi. Qal'a baland tepalikda turgani uchun unga suv chiqmas, suvni meshkobchilar tashib keltirishar edi. Mirzo o'ttiz yoshlik, xushqomat Qosimbekka qal'a ichida bir toshhovuz qurdirish va uni suv bilan to'ldirtirish amrini berdi.

Mirzoning avzoyi yomonligini sezib turgan beklar darhol uning farmonini bajarishga kirishdilar.



Mirzoning o'zi esa o'tlanib arkdan chiqdi. Mulozimlar va qo'rchilar ham o'tlanib, odatdagiday, unga ergashdilar.

Umarshayx mirzo qal'aning bir chetida, daryoning baland qirg'og'i ustida, jar labida turgan kabutarxonaga qarab yo'l oldi. Otliq choparlar dom-daraksiz ketganliklari uchun Mirzo endi qanotlik «chopar»larini ishga solmoqchi edi.

Kabutarlarning don va suvlariga qarayotgan kabutarbonlar podshohni yaqin kelib qolganda ko'rdilar-u shosha-pisha ta'zimga chiqdilar. Mirzo otini to'xtatdi. Orqadagi mulozimlardan ikkitasi – rikobdor<sup>1</sup> bilan jilovdor tez otdan tushdilar. Biri Mirzo mingan qora qashqa otning oltin jilovidan, ikkinchisi kumush uzangisidan tutdi. Mirzo kattagina qorin qo'yg'an semiz odam edi, otdan ehtiyot bilan sekin tushdi. Marg'ilon va Qo'qonga uchadigan maxsus kabutarlar keltirildi. Naycha qilingan qisqa xatlar ularning qanotlari tagiga mahkamlandi. Umarshayx mirzo kabutarlarni o'z qo'li bilan uchirishni yaxshi ko'rar edi. U havorang chiniy kabutarni qo'liga olib, yog'och zina bilan kabutarxonaning tomiga chiqdi.

Tomdan atrof juda yaxshi ko'rinar edi. Uzoqdagi tog' ortidan quyosh jimgina ko'tarilib kelar, pastda shovullayotgan daryoning to'lqinlari nafis jilolanib turar, g'ir-g'ir esayotgan ertalabki shabada ipakday mayin tuyilar edi. Umarshayx mirzo tom tepasida turib, o'zi mustahkamlatgan va poytaxtga aylantirgan Axsiga ko'z yugurtirib chiqdi. Qo'rg'onning qo'l yetmas balandlikka qurilganidan va atrofi chuqur o'ngirlar bilan ihota qilinganidan alohida bir mamnuniyat sezdi. «Hali bu jarlarga qanchadan-qancha yog'iyalarim qulagay», degan o'y ko'nglini shod qildi.

Biroq bu bahaybat o'ngirlar oyoq ostidagi zaminni ichdan hilviratib qo'rganini, kabutarxona ortidagi

---

<sup>1</sup> Rikobdor – uzangichi.

jarining tagini suv o'iyib ketganini, yer o'pirilgudek bo'lib turganini Mirzo ham, uning atrofidagi mulozimlar ham mutlaqo sezmas edilar. Tuprog'i to'kilib, qulashga bahona topolmay turgan jarining qa'rida xatarli bir sharpa borligini hozir faqat kabutarlar sezayotgan bo'lsa ehtimol. Chiroyli to'rlar va ozoda kataklar ichida o'tirgan bu jonivorlar bugun kechasi negadir juda bezovtalanib, patir-patir qilib chiqishdi. Hozir ham ular don-suvga qaramay, nuqul tashqariga intilishar, katak chiviqlarini asabiy cho'qishar edi. Kabutarbonlar buning sababini tushunmay hayron edilar. Faqat Umarshayx mirzoning qo'lidagi chiniy kabutar katakdagi xatardan qutulganday osoyishta bo'lib qolgan edi. Hozir butun olam Umarshayx mirzoga mana shu kabutarday ma'sum va osuda tuyildi. U tom o'rtasiga borib, kabutarning mayin qanotini yuziga bosdi. Uni uchirishdan oldin:

– Marg'ilonga uch, qanotli choparim! – deb shivirladi.

Tagidan nurab turgan jar shu asnoda birdan o'pirildi.

Kabutarlar qo'nadigan ayri yog'och «shaq» etib pastga uchib ketdi. Odamlar nima bo'layotganini tushunib ulgurmaslaridan kabutarxonaning narigi devori jar bilan birga o'ngirga qulab, tomni ham tortib ketdi. Tomning o'rtasida turgan Umarshayx mirzo chang-to'zon ichida qattiq bir chayqaldi-yu, gandaraklab yiqildi. Uning jon achchig'ida qichqirgani vahimali qarsillash va gursillashlarga qo'shilib eshitildi. U yiqilib tushayotganda qo'lidagi kabutarni qo'iyib yuborgan edi. Chiniy kabutar chang-to'zon orasidan yulqinib chiqib, osmonga qarab otildi. Mirzoning o'zi esa tom yog'ochlariga, somon suvoqlariga, jar tuproqlariga aralashib, uch terak bo'yi pastga qulab ketdi.

Mirzoning ketidan tomga endi chiqqan kabutarbon zinapoyadan o'zini yerga otdi. Mulozimlar va qo'rchilar

kutilmagan falokatdan vahimaga tushib orqaga qochdilar. Otlar hurkib, no'xtalarini uzgudek siltanishar va kishnashardi.

Hazrati oliyni xavf-xatardan asraymiz, deb yurgan qo'rchilar avval nima bo'lganini fahmlay olmay esankirab qoldilar. Keyin ular jar o'pirilganini fahmladilar, lekin Mirzoning oldiga tezda yetib bora olmadilar. Chunki bosh aylanadigan balandlikdan pastga tushib bo'lmas, nurab turgan jar labiga odam borsa yana o'pirilishi mumkin edi. Qo'rchilar va mulozimlar qal'adan ot choptirib chiqib, Mirzo qulab ketgan jar etagiga yetib borgunlaricha, so'ng uyilib yotgan tuproq, kesak va yog'ochlar orasidan uni topib, kavlab olgunlaricha o'n jonidan biri ham qolmagan edi.

Uning jasadini arkka kiritib yuvdilar. Majaqlanib, tanib bo'lmas holatga kelgan yuzini oq shohi bilan yopib qo'ydilar. Bugun ertalab Umarshayx mirzo saharlik yegan tanobiyda Qorako'z begim Qutlug' Nigor xonimni quchoqlab, uvvos tortib yig'lar edi.

– Men sabab bo'ldim, xonim aya! Hazratimni men nechun uyg'otdim?! Uyg'otmasam o'sha joyga kechroq borar edilar-ku! Men yuzi qora sabab bo'ldim bu o'linga! Men! Bugun saharlik paytida Mirzo xuddi o'lishini bilganday vasiyat qilganini eslab, Qutlug' Nigor xonim ham o'zini yig'idan tutolmas edi.

– E, voh, rahmatlik kuni bitganini qanday bilgan ekan-a?! Shunday gaplarni aytdilar...

Qorako'z begim xonimning quchog'idan chiqib, kichkina mushti bilan chakkasiga urdi.

– Men hali tug'ilmagan farzandimni otasidan judo qildim, xonim aya! – deb o'rtanib shivirladi: – Bo'yimda bo'lganini shu kecha bilib edilar! «O'g'il bo'lsin!» – deb orzu qilib edilar! Endi bu bolaga otasini qaydan topamiz?! Qaydan topamiz?! Men hazratimni nechun uyg'otdim, xonim aya? U kishiga kelgan ajal meni olsa bo'lmasmidi? O'sha jardan men qulasam bo'lmasmidi?

– Undoq demang, jonim! Biz ham endi jar labida qoldik! Butun atrofimiz tahlikali jar!

Qutlug‘ Nigor xonim erining kutilmagan o‘limida qandaydir sirli bir ma’no borligini hozir tiliga kelgan shu so‘zlardan sezdi. Umarshayx mirzodek jangovar odam qonli urushlarda qilich chopib yurganda o‘lmasdan, jardan qulab o‘lgani tasodifmikin? Mirzoning ota-bobolari barpo etib ketgan davlat mana shunday baland jarlar labiga qurilgan binolarga o‘xshamasmikin? Parcha-parcha bo‘lib ketgan va o‘zaro urushlarda yemirilayotgan ulkan davlat Qutlug‘ Nigor xonim tasavvurida jarga qulab tushayotgan o‘sha binolarga o‘xshab ko‘rindi-yu, vujudini seskantirib yubordi. Axir uning yolg‘iz o‘g‘li, suyukli farzandi Bobur ham mana shu binolarning birida istiqomat qilmayaptimi? Otasini olib ketgan o‘pirilishlar Boburning boshiga ham tushmasmikin?!

– Yo‘q, yo‘q! Tangrim uni panohida asrasin! Men boray, begim, Andijonga chopar yuboray! Bobur mirzoni bu falokatlardan ogoh qilay!

Qutlug‘ Nigor xonim ko‘z yoshlarini artib, o‘z xonasiga chiqdi va eng ishongan amirlaridan Qosimbekni chaqirtirdi. Uni topib kelgunlaricha Andijon chorbog‘ida Bobur bilan birga turgan onasi Eson Davlat begimning nomiga maktub yozdi.

Fotima Sulton begimning topshirig‘i bilan Andijonga yashirincha jo‘nagan Ahmad Tanbal bu orada Sirdaryo ko‘prigidan o‘tib, Bandi Solor yo‘li bilan ancha joyga borib qolgan edi. Ko‘zga tashlanmaslik uchun bittagina navkar ergashtirib ketayotgan Ahmad Tanbal kecha Andijondan oltmishta navkar bilan kelgan edi. Bugun Fotima Sulton unga katta va‘dalar berdi. Agar Ahmad Tanbal Andijondagi sodiq beklarning boshini qovushtirib, Boburni chetlatsa-yu, taxtga Jahongir mirzoni o‘tqazsa, marra uniki. Ahmad tanbal Umarshayx mirzo saroyida ikkinchi darajali beklar

qatorida shuncha yil ko'ngli cho'kib yurdi. Endi bas! Jahongir mirzo podshoh bo'lsa, Ahmad Tanbal uning eng birinchi vaziriga aylanadi. Norasida podshohga vazir bo'lish esa podshoh bo'lish bilan barobar! Ana unda qayoqdagi musavvirdan Xonzoda begimning suratini so'rab yurmaydi. U Xonzoda begimning o'zini oladi! Mana shu orzu bilan Andijonga ot surib borayotgan Ahmad Tanbal orqaga o'g'rincha o'girilib qarab qo'ydi.

Bandi Solor yo'lida boshqa hech kim ko'rinmas edi. Oradan bir necha soatlar o'tib, Ahmad Tanbal ko'zga ko'rinmay ketganidan keyin Axsidan Qosimbek qavchin to'rt nafar navkari bilan ot choptirib chiqdi. U ham tezroq Andijonga yetib borishga intilar, Bobur mirzoning tarafdorlarini yig'ib, uni taxtga o'tqazish ishtiyoqi bilan yonar edi.

## ANDIJON

### GUL VA QUYUN

#### 1

Choparlar hali yoʻlda. Urush toʻpoloni Andijonga yetib kelganicha yoʻq. Shaharning shimolidagi koʻrkam chorbogʻ baland devor bilan oʻralgan, darvozalarga soqchilar qoʻyilgan. Chorbogʻ ichida oʻn ikki yoshlik Bobur mirzo chavandozlik mashqlari oʻtkazmoqda. U chorbogʻ chetidagi yalanglikdan boʻz otni choptirib chiqdi-yu, birdan jilovni qoʻyib yubordi. Kamonga chapdastlik bilan oʻq oʻrnatdi va chopib borayotgan ot ustidan nishonga otdi. Yoy oʻqi nishon yogʻochiga «taq» etib urilgani baralla eshitildi.

Bir toʻp otliqlar mashqni chinor soyasida turib kuzatmoqda edilar. Qora otliq Mazidbek nishonga birinchi boʻlib yaqinlashdi. U Boburning bek atkasi<sup>1</sup> edi. Bobur otini qaytarib kelayotganda, Mazidbek unga:

– Moʻljalni andak balandroq olibsiz, ammo zarbingiz behad yaxshi, – dedi.

Mazidbek sopiga sadaf qadalgan yoy oʻqini nishondan avaylab sugʻurib oldi-da, qanchalik chuqur botganini barmogʻi bilan oʻlchab koʻrdi:

– Bilagingizda kuch koʻp, amirzodam! Sherpanjasiz. Podshoh hazratlari sizni Bobur deb ataganlari bejiz emas. Bobur arabcha sher demakdir!

Bobur mirzoning navkarlari, yaroqbardor, tengdosh-koʻkaldosh<sup>2</sup> mulozimlari ham nishon atrofiga yigʻil-

---

<sup>1</sup> Bek atka – hali balogʻatga yetmagan mirzolariga homiylik qilish uchun podshoh tomonidan tayin etiladigan masʼul bek.

<sup>2</sup> Koʻkaldosh – bir onani emgan bolalar.

dilar. Ular Boburning hali yosh o'spirin ekanini, qo'lidagi kamoni bo'yi-bastiga mos qilib kichraytirib ishlanganini bilar edilar. Shuni o'ylab, Bobur maqto'vni o'ziga olgisi kelmadi.

– Sherpanja deb otamni aytsinlar. Men ko'rganmen, zarblari bundan o'n hissa ortiq. Musht ursalar, eng zo'r yigitni ham yiqiturlar.

– Kamina ham aytmoqchi edimki, amirzodamning sherpanjaliklari podshoh otangizga tortganligingizdan nishonadir!

Mazidbek gapni mohirlik bilan burganini sezib, Bobur kulib qo'ydi. Uning mayin sarg'ish tukli peshonasida, yuqori labining ustida ter rezalari yiltirardi.

– Kun isidi, amirzodam. Yoz ramazoni tinkani quritur. Iftorgacha toliqib qolmasinlar. Endi borib, salqinda mutolaa qilsinlar. Kamina Andijon qo'rg'onini mudofaaga tayyorlash bilan band bo'furmen.

Bobur mulozimlari bilan mashq maydonidan chiqayotganida, ko'nglida yangi bir istak uyg'onib, ko'zlari sho'x yiltiradi. U otini to'xtatib, orqasiga o'girildi va jiyron qashqa ot mingan navkarni yoniga chaqirdi. Navkar yondashganda, qo'lini cho'zib, otining egarini silkitib ko'rdi. Egar mahkam urilgan edi. Bobur navkarga ellik qadamcha nariga borishni, otdan tushib, jilovidan sekin yetaklab ketaverishni buyurdi.

Mulozimlar orasida eng e'tiborlisi Boburning opasi bilan bir onani emib o'sgan o'n etti yoshlik No'yon Ko'kaldosh edi. Mazidbek yo'qligida Boburni ehtiyot qilish No'yonga topshirilgan edi. No'yon Boburning nima qilmoqchi ekanini fahmlab, bezovtalandi:

– Amirzodam, hozirgina bir mashqdan chiqdingiz. Boshqa mushkul mashqlarni ertaga qoldiring.

– Xo'p, mushkuli ertaga qolsin, hozir osonini ko'raylik, – kulib dedi Bobur.

Navkar aytilgan joyga borib, otdan tushdi va jiyron qashqasini sekin yetakladi. Bobur bo'z otni choptirib borib, navkarga yetganda oyoqlarini uzangidan bo'shatdi, qamchini tishiga oldi. Bo'z ot jiyron qashqa bilan jips kelgan zahoti Bobur bo'y cho'zib, narigi otning egaridan ikki qo'llab ushladi-yu, bor kuchi bilan egardan-egarga sakradi.

Biroq navkarning oti sakrash zarbidan cho'chib, hurkib ketdi. Boburning xipcha gavdasi bir lahza havoda muallaq bo'lib qoldi, keyin pastga tushib ketdi. Oyoqlari yerga «tap» etib urildi. Ammo u qo'llarini egardan bo'shatmadi – bo'shatsa yomon yiqilishini sezib, jon-jahdi bilan yopishdi. Bilaklari chindan ham kuchli ekan, shunday og'irlikka bardosh berdi. Faqat navkar otini to'xtatib olguncha Boburning oyoqlari yerni tirnab, sudralib bordi-yu, bejirim ipak sallasi boshidan uchib ketdi.

No'yon Ko'kaldosh yordamga yetib kelganda, Bobur o'zini o'nglab oyoqda turar, biroq rangi juda oqarib ketgan edi. No'yon otdan sakrab tushdi va Boburga sallasini olib bermoqchi bo'ldi. Ammo Bobur tuproqqa tushgan sallaga qaragisi ham kelmadi. Qamchi hamon tishida edi, uni qo'lga oldi, navkar yetaklab kelgan bo'z otga indamay mindi. So'ng otiga qamchi bosib, chorbog' daraxtlari orasidan ot choptirib ketdi.

No'yon uning ketidan vahima bilan tikilganicha qoldi. Hamma yoq dov-daraxt, ariq. Otliqlar yuradigan katta yo'l chorbog'ning narigi chetidan o'tadi. Bobur esa to'g'riga ketgan tor so'qmoqdan, qalin daraxtlar orasidan yelday uchib boryapti! Ot ariqdan sakrab o'tayotganda Boburning boshi ariq bo'yida o'sgan o'rikning katta bir shoxiga uriladigan edi. Ammo u otning bo'ynini quchoqlab, pastga shunday egildiki, o'rik novdalari orqasini ishqalab o'tdi. Pishgan o'riklardan bir qanchasi uzilib, ariqdagi suvga «cho'lp-cho'lp» etib tushdi.



– Sen nega otni mahkam tutmading, avbosh! – deb No‘yon navkarni so‘kdi. – Hammamiz amirzodaning qahriga qoldik! Bizdan xafa bo‘lib ketdilar!

Bobur bog‘ to‘ridagi muhtasham ko‘shk oldiga borib, otini to‘xtatdi. Xizmatkorlaridan biri shoshilib kelib, otning jilovidan olar ekan, Boburning yolg‘iz va bosh yalang qaytganidan taajjubga tushdi. Ko‘shkda Boburning buvisi Eson Davlat begim uni kutib o‘tirgan bo‘lsa kerak. Agar hozir u Boburning qay ahvolda qaytganini ko‘rsa-yu, nimalar bo‘lganini bilsa, mulozimlar ham, navkarlar ham jazo olishi aniq. Chunki podshoh hazratlari Boburni ko‘z qorachig‘iday asrashni Eson Davlat begimga topshirib, chorbog‘ va qasrni hamma xizmatkorlari bilan uning ixtiyoriga berib qo‘ygan.

Mulozim va navkarlar qo‘rqa-pisa ko‘shkka yaqinlashayotganlarida, marmar hovuzdan beridagi behi shoxiga qantarib qo‘yilgan bo‘z otga ko‘zlari tushdi. Bobur hovuz bo‘yidagi tillakori shiyponga kirganini sezishib, shu yerda sekin otdan tushdilar. No‘yon Ko‘kaldosh Bobur sallasini changdan tozalab, qo‘lida avaylab olib kelmoqda edi. Shu payt shiypon ichidan boshiga bo‘rk kiygan Bobur chiqdi. Oti hurkkan navkar o‘zini Boburning oyog‘i tagiga tashlab, uzr so‘rashga chog‘landi.

No‘yon Ko‘kaldosh sallani nodir sovg‘aga o‘xshatib avaylab ko‘tarib kelayotgani Boburga birdan juda kulgili tuyildi. Undan qahrli dashnom kutib bosh egib turganlar to‘satdan kulgi tovushini eshitib, hayrat bilan bosh ko‘tardilar. Bobur bolalarcha zavq bilan gavdasini orqaga tashlab, xandon urib kular edi. No‘yon Ko‘kaldosh ham qo‘lidagi sallaga endi boshqacha ko‘z bilan qaradi va kulib yubordi. Boshqalar ham yelkalaridan tog‘ qulab tushganday yayrab kular va jilmayar edi. Bobur kulgidan to‘xtab, oti hurkkan navkarga yuzlandi:

– Sizda ayb yo‘q edi...

Navkar undan katta bir in‘om olganday astoydil minnatdor bo‘lib, ta‘zim qildi. Bobur No‘yonga tayinladi:

– Katta onam bilmasinlar.

– Muddaomiz o‘zi shu, amirzodam, – kuldi No‘yon va boshqa mulozimlarga sirdoshlarcha ko‘z qisib qo‘ydi.

Shunday paytda ko‘kaldosh va tengdoshlar o‘zlarini taxt vorisiga xizmat qilib yurgan yosh mulozimlar deb emas, uning sirlariga sherik bo‘lgan yaqin do‘stlar deb bilishar va bundan ko‘ngillari o‘sib, Boburga mehrlari oshar edi.

Ko‘shkdan chiqib kelgan savdar Bobur qarshisida qo‘l qovushtirib, ichkarida mudarris uni kutib o‘tirganini aytdi. Bobur bugun shariat ilmidan dars olishi kerakligini esladi va tengdoshlaridan istar-istamas ajralib, ko‘shkka yo‘naldi.

Eshiklari nafis o‘ymakorliklar bilan bezangan, ichidagi oltin-kumush buyumlar ko‘zni qamashtiradigan ko‘shkda hozir Boburni faqat bitta xona o‘ziga tortar edi. Mudarrisning kutib o‘tirganiga qaramay, Bobur yaxshi ko‘rgan kitoblari qo‘yilgan shu xonaga burildi. Baxmal va charm muqovalar ichidan sahifalarga bitilgan satrlarda ulug‘ shoirlarning otash nafaslari sezilib turganday bo‘ladi. Bobur Firdavsiydan, Sa‘diydan minglab baytlarni yod biladi. Hozir u kitoblari orasidan «Xamsa»ni olar ekan, uzoq Hirotda yashayotgan Alisher Navoiyni xayol ko‘zi bilan ko‘rib turganday bo‘ldi. Hirotda ta‘lim olib kelgan andijonlik me‘mor mulla Fazliddin mana shu ko‘shk va marmar hovuzli tillakori shiyponni qurgan paytlarida yosh Boburga Navoiy haqida juda ko‘p ajoyib hikoyalar aytib bergan edi. Me‘mor Hirotdan Alisher Navoiyning Behzod chizgan rasmidan yaxshi bir nusxa ko‘chirtirib kelgan edi. Bobur ham Navoiyga ixlosmand ekanini sezgan me‘mor unga mana shu rasmni in‘om qilgan

edi. Bobur «Farhod va Shirin» dostoni qatidan shu rasmni oldi-yu, shariat ilmiga oid daftarining ichiga soldi. Soʻng mudarris oʻtirgan xonaga chiqdi.

Oppoq soqoli koʻkragini qoplab yotgan, katta oq salla oʻragan qoshlari oʻsiq kekxa mudarris darsxona toʻrida, banoras koʻrpacha ustida oʻltirib, Qurʻondan qiroat bilan suralar oʻqigach, fors tilida fiqh<sup>1</sup> ilmining qonunlarini tushuntirishga kirishdi. Bobur arab-fors tillarini yaxshi oʻrgangan, Qurʻon suralarining koʻpini yod bilar, maʼnosini ham tushunar edi, fiqh ilmining baʼzi nuqtalariga qiziqar ham edi-yu, ammo hozir shu daqiqalarda uning koʻz oldidan Suhrob va Farhodlarning qahramonona ishlari suron solib oʻtmoqda edi. Chorbogʻdagi mashqlar paytida tanasiga sigʻmay avjlanib ketgan shoʻx, bebosh bir kuch hali ham qalbini junbishga keltirib turibdi.

Unga yod boʻlib qolgan sevimli baytlar goh turkiy, goh forsiy ohanglarda mudarris qiroatini yorib oʻtib, xayolida jaranglab eshitila boshladi:

*«Qoshi yosinmu deyin, koʻzi qarosinmu deyin?»  
«Zi mardoni jahon mardi biyomuz!»<sup>2</sup>*

Yod boʻlib qolgan bu satrlar xayolidan oʻtayotganda, Bobur daftari orasiga solingan suratni mudarrisga koʻrsatmaslikka urinib, sekin oldi. Koʻzlaridan ilhom va mehr yogʻilayotgan Navoiy uzun qora chakmon kiygan, ingichka hassaga suyangan. Uning butun qiyofasi yaxshilik istab kelgan har bir kishiga katta yaxshiliklar qila olishidan dalolat beradi. Bobur suratga qarab turib oʻzicha soʻradi: «Ulugʻ amir, nasib qilsa, huzuringizga borsam, yoʻlimda Axraman-u ajdaho uchrasa, Farhodingizday hammasini yengib

<sup>1</sup> Fiqh – musulmon qonunshunosligi.

<sup>2</sup> «Zi mardoni jahon mardi biyomuz!» – «Mardlikni jahon mardlaridan oʻrgan».

o'tsam. O'shanda siz menga... she'riyat tilsimini ochg'uvchi kalit berurmisiz?»

Mudarris qiroat bilan uqtirayotgan darslari behuda ketayotganini birdan sezib qoldi, sekin o'rnidan turidda, Boburning yoniga keldi. Bobur suratni yashirishga ulgurilmadi.

– Odam surati? – shiddat bilan so'radi mudarris. – Siz Qur'oni sharifdan saboq eshitish o'rniga, shariat qat'iyon man etgan suratlashlik bilan mashg'ulmisiz.

– Mudarris janoblari, bu suratni men chizgan emasmen. Buni menga Hirotdin keltirmishlar. Bu ulug' zot – Amir Alisher.

Mudarris Navoiyni shoir deb eshitgan, asarlarini hali o'qimagan edi.

– Odam suratini tarqatmoq – shayton-u layinning ishi! Qani bu suratni menga bering, mirzom! Bering!

Mudarrisning qahrli vajohati suratni yirtib tashlashdan ham toymasligini ko'rsatar edi. Shuning uchun Bobur suratni bermay turib oldi. Mudarrisning g'azabi keldi-yu, ammo taxt vorisiga qattiq gapirishdan qo'rqdi. Boburdan xafa bo'lib, Eson Davlat begimga shikoyat qilgani ketdi.

Ellik besh yoshlardagi salobatli kampir sidirg'a oq atlas ko'ylagini shitirlatib, darsxonaga kirib kelayotganda, Bobur darhol o'rnidan turib, buvisiga salom berdi. Eson Davlat begim suratni qo'liga oldi va Navoiy tasviriga beixtiyor qiziqib:

– Yuzlarida farishtalari bor zot ekanlar, – deb qo'ydi. So'ng harir dakanasining bir cheti bilan yuzini mudarrisdan to'sib, unga yarim o'girilgan holda dedi: – Mudarris janoblari, bu surat Hirotda shariat peshvolarining ruxsatlari bilan chizilgan-ku.

– Meni ma'zur tuting, hazrat xonim, – dedi eshik oldida qovoq solib yerga qarab turgan mudarris, – ammo Hirotda shariat qonunlari buzilmishdir. Shialar ta'sirida chizilgan bu surat bizning pok

sunniy mazhabimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Men taxt vorisini ogoh qilmoqchimanki, bizga Muhammad alayhissalom vasiyat qilgan chin musulmonlik alhol Xurosonda emas, Movarounnahrdadir!

Eson Davlat begim mudarris bilan mazhablar to'g'risida bahslashib o'tirishni istamadi.

Boburga yuzlanib:

– Mudarris janoblari bir jihatdan haqlar, – dedi, – fiqh darsida surat tomoshasi o'rinsiz, azizim. Tangri inoyat qilsa, siz hukmdor bo'lib yurt so'ragaysiz. Shuning uchun fiqh qonunlarini boshidan-oxirigacha bilib oling. Suratni men olib ketay. Bobur suratni buvisidan bir nafasga so'rab oldi-yu, avaylab kitob orasiga solib berdi.

– Ehtiyot qilingiz, sizga orzuyimni topshirdim, – dedi.

Eson Davlat begim nevarasining so'zlarini yoqtirib dedi:

– Balki Alisherbekni Andijonga taklif qilursiz.

– Kelurmikanlar? – ko'zlari yonib so'radi Bobur.

– Samarqandga kelganlar-ku, Farg'ona vodiysining ta'rifi olamga mashhur. Iloj topsalar, albatta kelurlar. Alisherbek nihoyatda pok, avliyotabiat odam, deb eshitganmiz. O'zlari kelsalar, mudarris janoblariga ham manzur bo'lishlari shubhasiz!

Mudarrisning endi sal chehrasi ochildi. Qaddini tiklab:

– Shoyad shunday bo'lsa! – deb qo'ydi.

Eson Davlat begim ularni ustalik bilan yarash-tirganidan mamnun bo'lib, darsxonadan chiqdi.

Kun qiyomiga kelib, peshin namozi o'qilgandan keyin ko'shkning ich-tashi jimjit bo'lib qoldi. Ro'zaning azobi endi bilina boshlagan, yoz kunida chanqab holsizlangan odamlar kunni qanday kech qilishni bilmay, betoqat bo'lishar edi. Koshona egalari salqin xonalarda jimgina yotib, uyqu bilan jon saqlashni odat qilganlar.

Bobur ham bugungi saboqlarini tugatib, o'z xonasida yonboshlab yotibdi. Biroq boyagi shirin orzular hamon xayolini to'lqinlantirib, ko'ziga uyqu qo'ndirmaydi. U qog'oz-qalam olib, she'r yozmoqchi bo'ldi. Lekin hozir uning xayoliga yod bo'lib qolgan mashhur baytlardan boshqa she'r kelmas edi. Shunda u ikkinchi bir daftarni oldi-yu, Farg'ona vodiysi haqida bilganlarini oddiy nasr tariqasida yoza boshladi: «Girdo-girdi tog'lar, ovi qushi ko'p. Oq kiyikni Axxi cho'lida ko'rganbiz. Marg'ilon yovug'ida ham bor». Bobur Farg'ona vodiysida nimayiki go'zallik ko'rgan bo'lsa, hammasini yozgisi kelar edi. Keyin Hirotga Amir Alisherning huzuriga borganda, bu yozuvlari juda kerak bo'ladiganga o'xshardi.

U yozuvga berilib ketib, ko'shk oldigacha chopib kelgan otning dupurini eshitmadi. Birdan jimjit ko'shkning allaqaysi xonasida ayol kishining o'rtanib yig'lagani eshitildi. Bobur cho'chib boshini ko'tardi. Yig'i tovushi Eson Davlat begimning xonalari tomondan kelmoqda edi. Bobur o'rnidan sakrab turdi, takror eshitilgan alamli yig'idan eti junjikib, buvisining xonasiga qarab yugurdi.

Eshik lang ochiq. Eson Davlat begimning ro'moli boshidan tushib ketgan. U qizi Qutlug' Nigor xonim yuborgan xatni ochib o'qimoqchi bo'ladi, ammo yoshli ko'zlari hech narsani ko'rmaydi. Axxidan o'lim xabarini olib kelgan Qosimbek devorga yelkasi bilan

majolsiz suyanib, oyoqlarida zo'rg'a turibdi. U sakson chaqirimlik yo'lni otda dam olmay bosib o'tgan va kipriklarigacha changga botgan edi.

Hozirgina gulday nafis tuyg'ular ichida yurgan Boburga o'lim xabari shu gul orasidan chiqqan ilon bo'lib tuyildi. U Qosimbekdan seskanganday rangi o'chib, birdan orqaga tisarildi. Qosimbek esa unga intildi. Bobur qarshisida tiz cho'kib, bo'g'iq va iltimoskorona ovoz bilan gapira boshladi:

– Mirzom!.. Tangri sizga quvvat bersin! Endi bizning pushti-panohimiz o'zingizsiz! Ikki tarafimizni yog'iy bosgan. Validangiz tayinlab yubordilar. Darhol Andijon qo'rg'oniga borib, beklarni to'plamoq kerak!

Eson Davlat begim qayg'uga berilib, yig'lab o'tiradigan payt emasligini endi sezdi.

Qosimbekni oyoqqa turg'izdi-da:

– Sadoqatingizdan minnatdormiz, – dedi. – Siz Bobur mirzo bilan birga otlaning! Biz ham endi chorbog'dan qo'rg'onga ko'chamiz.

Mudhish xabar Boburni jimjit qilib qo'ydi. U karaxt bir ahvolda kiyindi, otiga mindi. Shu payt uning ko'ziga yashnab turgan daraxtlar, suvi to'la marmar hovuz allanechuk mung'ayib turganday ko'rindi. Bularning hammasini otasi bino qilgan edi. Endi u odam bu joylarga hech qachon kelmaydi. Ana u nashvatilarning ko'chatini Umarshayx mirzoning o'zi o'tqazdirgan edi. Hozir shular meva solgan, hademay pishadi. Ammo ularni ektirgan odam endi hech vaqt bu mevalardan tatib ko'rolmaydi.

Chorbog'dan chiqib, tosh yo'ldan borayotganlarida, Bobur yana otasini esladi. Bu yo'lga otasi to'shatgan toshlar ham turibdi. Uzoqda ko'ringan baland qo'rg'onni ham otasi qurdirgan edi. Hammasi butun, hammasi bor. Faqat uning o'zi yo'q. Bobur endi otasini umrbod ko'rolmasligini butun vujudi bilan his qildi-

yu, achchiq judolik tuyg'usi birdan uning borlig'ini to'ldirib, ko'zlaridan yoqasiga yosh bo'lib tom-di.

Oldinda suv to'ldirilgan choh va o'n bir paxsalik baland devor bilan o'ralgan Andijon qo'rg'oni ko'rindi. Ular Mirzo darvozasiga yaqinlashganlarida, ichkaridan besh-olti kishi ot choptirib chiqdi. Oldinda saman ot minib kelayotgan qisiq ko'zli mo'g'ultaxlit bek – Boburning onasiga qarindoshchiligi bo'lgan Sherim tog'oyi edi. U Boburning yuzida og'ir musibat alomatini ko'r-di-yu, otdan sakrab tushdi, ko'ziga yosh kelmasa ham ho'ngrab:

– Men ishonmagan edim, amirzodam! – dedi. – Pushti-panohimizdan ayrilganimiz rostmi? Oh, bevafo dunyo!

– Kimdan eshitdingiz? – so'radi Qosimbek. – Bu xabar hozircha sir tutilmog'i kerak edi!

Sherimbek yoqasini ushlab:

– Tangrining qudratini qarangki, – dedi, – bir aloqachi kabutarim osmonda uchib yurib birdan yo'q bo'lib qoldi. «Kim uni tushirib oldi?» – deb tom ustiga chiqdim. Anchadan keyin kabutar oldinga kelib qo'ndi. Qanotining tagida bir qog'oz ko'rindi. Olib qarasam – mana shu qayg'uli xabar! Kim yozgan? Osmonda farishtalar yozib yubordimi, bilmadim!

Sherimbek Boburning egariga bir qo'lini qo'yib, yuzini unga yaqinlashtirdi-da, past tovush bilan:

– Mirzom, qo'rg'onga kirmangiz, xatarli, – dedi.

Bu so'zlarni Qosimbek ham eshitdi. Umarshayx mirzo tirikligida durustroq lavozim ololmay ko'ngli cho'kib yurgan Sherimbek endi Bobur mirzoga boshqalardan oldinroq mehr-u oqibat ko'rsatib, uning ishonchini qozonmoqchi va kattaroq martabaga erishmoqchi edi. Qosimbek buni sezib, Boburga osoyishta gapirdi:

– Amirzodam, ortiqcha tahlikaga o'rin yo'q. Tezroq qo'rg'onga kirib, sodiq beklarni to'playlik.



Sherimbek ot ustidagi Qosimbek bilan yerda turib soʻzlashishni oʻziga ep koʻrmadi. Shoshib otiga mindida, shiddat bilan dedi:

– Siz hali ahvolni bilmaysiz, janob Qosimbek! Sodiq beklaringiz Xoʻjandni yogʻiyga topshirdi! Isfarani topshirdi! Margʻilonni topshirdi!

– Margʻilonni?! – seskanib soʻradi Bobur. – Qachon?

– Hozir xabar keldi! Yogʻiy moʻri malaxday yopirilib, Quvaga yaqinlashdi! Endi navbat Andijonga. Sodiq beklar Andijonga qoʻshib Mirzomni ham yogʻiyga bersinlarmi? Yoʻq! Men tirik boʻlsam, bunga yoʻl qoʻymaymen!

Ogʻir musibat ustiga qoʻshilgan bu shum xabarlar Boburni juda esankiratib qoʻydi. Oʻzi kuni bilan roʻza tutib, darmoni ketib borar, nihoyatda qattiq chanqaganligidan tili tanglayiga yopishib qolgandek tuyilar edi. Uning tashna koʻzlari qoʻrgʻon devori tagidagi xandaqqa toʻldirilgan qoramtir suvga tushdi. Turib qolgan shu qora suv ham unga allanechuk jozibali koʻrindi. U quruqlashgan lablarini namsiz tili bilan yalab qoʻydi.

Sherimbek dadil borib, Bobur mingan boʻz otning oltin bezakli yuganidan oldi:

– Men sodiq togʻoyingizmen, Mirzom, ijizat bering, sizni bu xatarlardan uzoqqa olib ketay!

Bobur Sherimbek aytayotgan xatarlarni hozir uncha oʻylamas va aniq his qilmas edi. Ammo uning qaygʻudan ezilgan koʻngli ham, tashnalikdan qiynalayotgan tani ham koʻz oldidagi bekik va dim qoʻrgʻondan koʻra, uzoqdagi daraxtzorlarni, keng, ochiq joylarni afzal koʻrardi. Shuning uchun Sherimbek uning otini orqaga burayotganda, Bobur qarshilik qilmadi. Qosimbek sarosima boʻlib:

– Mirzom, volidangizning tayinlaganlari boshqa edi! – dedi.

– Volidalari bu yerdagi ahvolni bilmaganlar! – deb Boburning o‘rniga Sherimbek javob qildi. Ammo Qosimbek uning gapiga quloq solmay, Boburga yondashdi:

– Xonim hazratlari bugun dafn marosimini o‘tkazib, ertaga Andijonga kelurlar. Ulug‘ onangiz ham chorbog‘dan qo‘rg‘onga ko‘chmoqchi edilar. Ular sizni qayerdan topurlar?

Bobur endi sal xayolini yig‘ib, Sherimbekdan so‘radi:

– Qayoqqa bormoqchimiz?

Sherimbek Qosimbekka eshittirmaslikka tirishib, Boburning qulog‘iga shivirladi:

– Olatog‘ tomonlarga. O‘shga. Balki O‘zganga. Bobur buni Qosimbekdan sir tutishni istamay, sekin unga aytdi:

– O‘sh yo‘lida bo‘lurmiz. Onamga xabar bering.

– Men avval qo‘rg‘ondagi beklar bilan so‘zlashay, amirzodam! Ularning kayfiyatini bilay!

– Undan ko‘ra, Xo‘ja Abdullaga uchrang.

– Bu amringizni darhol bajo keltirurmen!

Qosimbek otini qo‘rg‘on darvozasi tomonga burdi. Bobur esa yonidagi ellikka yaqin otliq bilan qo‘rg‘ondan uzoqlashib keta boshladi.

### 3

Qo‘rg‘on ichidan darvozaxonaning tomiga chiqib olgan yapasqi bir navkar devor kungurasi orasidan ularni kuzatib turgan edi. Qosimbek Mirzo darvozasidan shitob bilan kirayotganda, bu navkar ham tomdan sekin tushdi-yu, devor oldiga bog‘lab qo‘yilgan otni minib, xo‘jayini Ahmad Tanbal kutib turgan joyga qarab ketdi.

Mevalari g‘arq pishgan katta bog‘ning to‘rida marmar gumbazli hammom bor edi. Bog‘ egasi

Yoqubbek yozning issiq kunlarida shu hammomning mehmonxonaga o'xshatib bezatilgan salqin bir xonasida dam olar edi. Asl gilamlar to'shalgan bu xonaning to'rida hozir Ahmad Tanbal o'tiribdi. U kumush bilan bezatilgan qimiz kadidan jiyda gulli piyolaga qimiz quyib, sipqordi. So'ng sarg'ish mo'ylovini kafti bilan artar ekan:

– Tangrim meni kechirsin, bugun ro'zani buzdim, – dedi. – Yo'lda tashnalikdan tilim tanglayimga yopishib qoldi. Hushimdan ketib otdan yiqiladigan holatga keldim.

– Bugun sizga ravo, – dedi Yoqubbek. – Zarurast – ma'zurast. Mushkul ishga bel bog'labsiz. Agar kushoyishi koringizni berib, taxt Jahongir mirzog'a o'tsa, siz uning eng ishongan rahnamosi bo'lursiz.

Ahmad Tanbal bu nurli istiqbolni ko'z oldiga keltirib, bir entikdi. Oldingi tishlaridan ikkitasi tushib ketgan semiz Yoqubbek unga sinovchan nazar bilan qarab turardi. Yoqubbekning nigohida «Mening bu xatarli ishga nechun bosh qo'shayotganimni unutmasmikansen?» degan ma'no bor edi. Ahmad Tanbal sergaklandi:

– Bek janoblari, siz bilan biz asli mo'g'ul<sup>1</sup> urug'idanmiz. Barloslarning Farg'ona viloyatida shuncha vaqt hukm surganlari yetar. Endi navbat bizniki. Men sizni mo'g'ul beklarining eng ulug'i deb bilurmen. Tangri omad berib, agar men taxt vorisiga rahnamo bo'lsam, o'shanda ham menga siz rahnamolik qilg'aysiz!

– Inshoollo! – deb Yoqubbek mamnun yuz bilan kalta soqolini silab qo'ydi. – Qani, Ahmadbek, chanqoq bosilgandan so'ng ochlik bilinadir. Yaxna go'shtdin totining.

---

<sup>1</sup> Mo'g'ul – bu yerda gap o'zbeklashgan mo'g'ullar haqida boradi.

Ahmad Tanbal chinni lagandagi go'shtga endi qo'l uzatganda, eshik sekin ochildi. Ahmad Tanbal laganni bir chetga surib, eshikka qadalib qaradi. Boyagi yapasqi navkar xo'jayinining tinchini buzgani uchun uzr so'raganday bo'sag'adan narida turib, ta'zim qildi:

– Bek janoblari, sevinchi bering! – dedi. – Bobur mirzo qo'rg'onga kirmay qaytib ketdilar. – Ayni muddao!

Ahmad Tanbal uchun bu chindan ham quvonchli xabar edi. Charm hamyonidan bitta oltin tanga olib, bo'sag'a oldiga tashladi. Yapasqi navkar tangani shosha-pisha olib, ikki bukilib rahmat aytdi. So'ng Ahmad Tanbalning ishorasi bilan eshikni sekin yopib, orqaga chekindi.

Axsidan Andijonga kelib to'g'ri Yoqubbeknikiga tushgan Ahmad Tanbal podshohning o'limi haqidagi xabarni eng avval Sherim tog'oyiga yetkazdirgan edi. Uning hovliqma fe'lini qo'zg'atib, o'zi panada qolish uchun imzosiz xatni kabutar yordamida osmondan tushirtirgan edi.

– Maslahatingiz bilan tuzilgan reja sharofatli chiqdi! – dedi Ahmad Tanbal uy egasiga mamnun ko'z tashlab.

– Ha, Sherimbek endi jiyanini xavf-xatardan yaxshilab «xalos qilur». Uning eng nufuzli bekiga aylanish uchun Olatog'dan ham oshur.

– Endi biz Boburning xatardan qo'rqib qochganini xaloyiqning qulog'iga yetkazmog'imiz kerak. Bobur shunday paytda ota yurti Andijonni tashlab ketganini xalq bilsin, undan ixlosi qaytsin. Ana undan so'ng Jahongir mirzoning taxtga o'tirishiga hech bir monelik qolmas.

Yoqubbek soqolini tutamiga olib, bir lahza o'ylanib turdi-yu:

– Ovoza tarqatishning eng afzal joyi – bozor, – dedi.  
– Mening savdogar mijozlarim bor.

- Ammo ovoza bizdan chiqqanini hech kim bilmasligi zarur!

- Xotirjam bo'lsinlar, janob Ahmadbek. Sir saqlashga qodirmiz...

\* \* \*

Andijon aholisi dushman qo'shinlari yaqinlashib kelayotganini eshitib, shu kunlarda juda xavfsirab yurar edi. Shuning ustiga: «Podshoh jardan yiqilib o'lganmish, shaharni bugun yog'iy bosar emish, Bobur mirzo qo'rqib qochganmish», degan ovoza tarqaldi. Andijon rastalaridagi va timning tagidagi do'konlar savdo eng qizib turgan paytda birin-ketin yopila boshladi. Haligi ovozaning qayerdan chiqqanini hech kim aniq bilmas edi-yu, lekin xaloyiq unga bir-biridan vahimali tafsilotlar qo'shar edi. Nihoyat, «Axsini ham yog'iy bosganmish, yog'iy podshoni jardan tashlab o'ldirganmish», degan gaplar ham paydo bo'ldi. Xaloyiq orasida yuradigan xufiyalar dahshatli mish-mishlarni shahar hokimi - dorug'aga yetkazish uchun arkka tomon shoshildilar.

Bu orada Qosimbek Bobur mirzoning ustози Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgan, ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishgan edi. Xo'ja Abdulla ham, beklar ham podshohning o'limidan mutlaqo bexabar edilar. Bu xabarni Qosimbekdan eshitganlaridan keyin, urush xatari ko'zlariga yanada tahlikali ko'rindi, yomon o'zgarishlar bo'lishini sezishib, sarosima bo'lib qolishdi. Buning ustiga bozorda dallol bo'lib yuradigan ishonchli bir xufiya kelib, xunuk ovozalardan hamma yoq to'polon bo'lib ketganini aytib berdi-yu, Uzun Hasan nomli novcha dorug'a esankirab qoldi.

– Bizdan omad ketdi, janoblar! – dedi yig'lamsirab.  
– Tashqarida g'anim. Ichkarida to'polon. Bobur mirzo qo'rg'onga kirmay ketganlari bejiz emas!

– Biz ham jon saqlash uchun har qayonga tarqab qochsakmikin? – kinoya bilan so'radi Xo'ja Abdulla.

O'zi ham, soqol-mo'ylovi ham qop-qora Xo'ja Abdulla katta olim bo'lishidan tashqari, Andijon beklarining eng nufuzli piri hisoblanar edi. Bobur mirzo ham uni o'ziga murshid sanab qo'l bergan edi. Shuning uchun Uzun Hasan Xo'ja Abdullaning kinoyasiga qarshi keskin javob bera olmadi.

– Pirim, Bobur mirzo uzoqlashmasdan qaytarish zarur! – dedi Qosimbek.

– Bobur mirzoning ko'ngillari menga ayon, – dedi Xo'ja Abdulla. – U oliy zot qo'rqib qochgan emaslar. Beklarning sadoqatini bilmoq uchun shunday qilganlar. Bozordagi ovoza – fitnaning belgisi. Agar fitna bo'lmasa, podshohning qazo qilganini bizdan oldin bozordagilar qanday bilmishlar?

Uzun Hasan o'zining aqli yetmagan bu mantiqli fikrga tan berdi. Boburning ko'nglida nima borligini Xo'ja Abdulla shu yerda turib bilganiga qoyil bo'ldi. Xo'ja Abdulla uning ko'ziga chinakam avliyo bo'lib ko'rindi:

– Pirimga hammasi ayon bo'lgan ekan! – dedi u chuqur e'tiqod bilan. – Endi pirim nima desalar biz shunga shaymiz!

– Menga ayon bo'lgani shuki, – dedi Xo'ja Abdulla ovozini pasaytirib, – agar bir tan-bir jon bo'lib, Bobur mirzoga xizmat qilsak, hammamiz omon qolurmiz, hech qaysimizning bir mo'yimiz kam bo'lmag'ay!

Xo'ja Abdullaning komil ishonch bilan aytgan bu so'zlari Uzun Hasanni bir oz tahlikaga soldi. Agar ish Xo'ja Abdulla aytganday bo'lib chiqsa-yu, Bobur mirzo podshoh bo'lsa... unda Uzun Hasanning bugungi ikkilanishlari qanday oqibatga olib keladi? Uning

raqiblari bu ikkilanishlarni bo'lajak podshohga aytib, dorug'alik amalini tortib olishlari mumkin emasmi? Yo'q, Uzun Hasan bunga yo'l qo'ymasligi kerak.

– Pirim, menga fотиha bering, Bobur mirzoning huzurlariga men o'zim boray. Beklarning nomidan sadoqat izhor qilib, qo'rg'onga taklif etay!

– Niyatingiz tahsinga sazovor, janob Hasanbek. Ammo siz dorug'asiz. Siz avval shahardagi g'uluni bartaraf qiling, fitnaning uyasini toping, ana unda Bobur mirzoning inoyatlariga sazovor bo'lg'aysiz.

– Yana karomat qildingiz, pirim! Biz zudlik bilan bu ishga kirishurmiz!

\* \* \*

Yoz oftobi yer-u ko'kni shunday qizdirmoqdaki, ot tuyoqlaridan ko'tarilgan chang yuzga alanga tillaridek tegadi. Havo dim. «G'ir» etgan shamol yo'q. Tuprog'i bilqillab yotgan tor ko'chadan o'tayotganlarida, Boburni ter bosdi. U benihoya chanqaganligidan og'zi taxir bo'lib ketgan edi. Kecha shu paytlarda Andijonsoy bo'yida salqinlab yotgani esiga tushdi. Bundan bir necha soat oldingi hayoti, chorbog'ning musaffo havosi, zilol suvli hovuz, salqin ko'shk, betashvish damlar – hammasi birdan uzoq o'tmishga aylangan edi. Nazarida, shiddatli bir quyun uni o'sha mas'ud hayotdan yulib olib, allaqayoqlarga chirpirak qilib uchirib ketayotibdi. Ot tuyoqlaridan ko'tarilgan chang unga mana shu quyunning changidek tuyiladi. Uni otasidan judo qilgan, pushti-panohidan ayirib, xavf-xatarlar komiga tortgan mash'um bir kuch go'yo mana shu quyunning kuchi edi. Uni qo'riqlab borayotgan ellik chog'li otiqlar ham Boburga mana shu quyun ichida yurganday xira ko'rinardi. Ro'za tutib kuni bo'yi tuz totmaganligidan uning boshi aylanmoqda

edi. Atrofidagi otliqlar to'g'ri yurib borayotgan bo'lsalar ham, Boburning nazarida ularning hammasini o'sha quyun chirmab aylantirayotganday bo'lardi.

O'zgan yo'li bilan borib, Namozgohga yetganlarida, uzoqda qorli tog'lar ko'rindi. Bobur tog' salqinini ko'zi bilan his qilganday bo'ldi va o'sha yerga tezroq yetib borgisi kelib, otining biqiniga niqtadi. Qaqroq lablarini qiyinlik bilan ochib, Sherimbekka:

– Tezroq! – dedi.

Sherimbek esa orqaga o'girilib qarab:

– Chopar bor! – dedi. – To'xtaylik.

Andijon beklari yuborgan chopar Xo'ja Abdullaning qo'li bilan yozilgan maktubni Boburga topshirdi. Bobur o'ram qilib yuborilgan maktubning ipak bog'ichini uzib, yonida turgan No'yon Ko'kaldoshga berdi:

– O'qing.

Maktubda Andijon beklarining Boburga sadoqat bildirganlari aytilgan edi. So'z orasida yomon ovozalari tarqalayotgani, noma'lum fitnachilar «Bobur mirzo qo'rqib qochdi», degan tuhmatni tarqatib, bunga elni ishontirmoqchi bo'layotgani aytilgan edi.

– Men sizni ana o'sha fitnachilardan ehtiyot qilgan edim, amirzodam! – dedi Sherimbek Boburga. – Hozir vaziyat yomon. Qo'rg'on – ig'voning uyasi. Qo'rg'onga qaytmang, amirzodam! Sodiq beklar bo'lsa ketingizdan kelsinlar!

«Ota yurtini tashlab, qo'rqib qochdi» – bu ovoza og'izdan-og'izga o'tib shaharma-shahar, qishloqma-qishloq tarqab ketishi mumkin!

– Yo'q! – dedi Bobur otini orqaga burib. – Men qochmoqchi emasmen!

– Amirzodam, bu hammasi ig'vo!

– Men buning ig'voligini isbot qilurmen! Qayting hammangiz. Qo'rg'onga qayting!

Bobur orqaga burgan otining yuganini bo'shatdi-yu, sag'risiga qamchi urdi. Ot chopib borayotganda,



ko'kragiga shamol tegib, o'zini bir oz yengil sezdi. Boyagi dahshatli quyun endi undan orqada – izma-iz yelib kelayotgan navkar va savdarlar orasida qolib ketganday bo'ldi. Ular oftob ufqqa yaqinlashgan paytda Andijon qo'rg'oniga kirib keldilar. Kechqurun gavjum bo'ladigan ko'chalar hozir allanechuk jimjit. Do'konlar yopiq. Hammayoq huvillagan. Butun shahar xavf-xatardan qo'rqib, biqinib turganga o'xshardi.

Sherimbek oldinda borayotgan Boburni ehtiyot qilmoqchi bo'lib, navkarlariga «qurshab boring» ishorasini qildi. O'zi esa Boburning old tomoniga o'ta boshladi. Atrofni o'tliqlar o'rab ola boshlaganda, Bobur yana quyunning ichiga tushib qolganday bo'g'ildi. Ko'z o'ngida yana otlar, odamlar chirpirak bo'lib aylanishga tushdi. Bobur yutoqib oldinga intildi, otini qamchilab, navkarlar qurshovini yorib chiqqanda yuziga shabada tegib, xiyol yengillashdi. Sherimbek yana oldinga intilib, Boburga yondashmoqchi bo'lganda No'yon Ko'kaldosh uning jilovidan mahkam ushladi:

– Bek janoblari, qo'ying, amirzodam oldinda borsinlar. Fuqaro taxt vorisini ko'rsin, ko'ngli taskin topsin. Ana, tuynuklardan mo'ralab turgan odamlar ig'vogarlarning gapi yolg'onligiga amin bo'lsinlar!

– Fitnachilar biror teshikdan amirzodamni o'qlasalar-chi?

– Niyatni yaxshi qiling!

Bobur boshliq o'tliqlar arkka yaqinlashganlarida, ulkan darvozaning har ikki tavaqasi lang ochildi. Xo'ja Abdulla va bir to'da beklar, mulozimlar Boburga peshvoz chiqdilar. Bobur otdan tushib, ustози bilan ko'rishar ekan, birdan ko'ngli yumshab, ko'zlariga yosh quyilib keldi. Xo'ja Abdulla rangi o'chgan, lablari titrayotgan Boburni bag'riga bosib, tasalli bergisi keldi, ammo beklar va navkarlar oldida taxt vorisini quchoqlash odobsizlik sanalishini o'ylab, o'zini tutdi. U ham ko'ziga yosh olib:

– Kulfatda qoldik, amirzodam, musibatda qoldik!  
– dedi. – Endi bizning pushti-panohimiz o‘zingizsiz!

Mazidbek a‘yonlar davrasidan bir-ikki qadam oldinga chiqdi. O‘zining Boburga bek atka ekanini bildirib qo‘ygisi kelib, Xo‘ja Abdullaning gapini og‘zidan oldi:

– Amirzodam, hamma beklar sizga sodiq xizmat qilishga tayyordurlar!

Bobur to‘planib turgan beklarga ko‘z tashlagan edi, ular hammasi Mazidbekning gapini tasdiqlab, qo‘llari ko‘kraklarida, ta‘zim ado qilishdi. Bobur tovushi titrab:

– Minnatdormen, – dedi.

U yana otlanib, ark darvozasidan kirayotganda orqadan Yoqubbek ham yetib kelib, beklar davrasiga qo‘shildi. U Bobur qaytganini eshitgan zahoti har qanday shubhadan xoli bo‘lish uchun darhol otlanib, sadoqat izhor qilishga shoshilgan edi. Xo‘ja Abdulla o‘ngda, Mazidbek chapda yurib, Boburni ark to‘ridagi qishlik qasrga boshlab keldilar.

Ilgari poytaxt Andijondaligida taxt mana shu qasrga o‘rnatilgan edi. Keyin poytaxt Axsiga ko‘chirilgach, ustunlari o‘ymakorliklar bilan bezatilgan marmar zinapoyali bu qasr avvalgi hashamatidan mahrum bo‘lib, ko‘rimsizlashib qolgan edi. Bugun Bobur kelishidan oldin Xo‘ja Abdullaning farmoyishi bilan qasrning zinapoyalariga yana poyandoz to‘shaldi. Ilgari taxt qo‘yilgan shahnishinga turkman gilamlari va kimxob ko‘rpachalar solinib, maxsus joy hozirlandi.

Bobur binafsharang poyandozga qadam qo‘yganda quruqshab ketgan tomog‘ini ho‘llamoqchi bo‘lib yutindi. Ammo og‘zida nam yo‘qligidan tomog‘ini allanarsa qirib o‘tganday bo‘ldi. Bo‘lajak podshohga xizmat qilish uchun to‘plangan beklarning hech qaysisi Boburga hozir bir qultumgina suv kerakligini sezmas edi. Birda-yarim sezganlari ham shuncha

odamning oldida yosh podshohning ro'zasini ochirish musulmonchilikka to'g'ri kelmaydi, deb bunday ishni qilishdan qo'rqishar edi.

Hamma o'ltirgach, Xo'ja Abdulla Qur'on o'qib, Axsida bugun dafn etilgan Umarshayx mirzoning arvofiga bag'ishladi. Bir necha kishi:

- Iloho joylari jannatdan bo'lsin! - deb qo'ydi. Yana bir necha kishi Boburga yuzlanib, ko'ngil so'radi.

- Muhtaram beklar, davlatxohlar! - deb gap boshladi Xo'ja Abdulla. - Urush tashvishi bo'lmaganda, biz avval motam marosimini o'tkazgan bo'lur edik. Eshitishimizcha, Axsida hazrati oliyni hurmatlariga yarasha ma'raka o'tkazib qabrga qo'rganlar. Andijonga yog'iy yaqin kelib qolgan shu og'ir kunda bizning avvalin mashvaratimiz davlatni yangi podshohga topshirmoq xususida bo'lgani ma'qul.

Mazidbekdan nariroqda semiz Yoqubbek o'tirgan edi. U Xo'ja Abdullaning so'zlarini hammadan oldin ilib ketdi:

- Dono tadbirni o'rtaga soldingiz, pirim. Bandangizning fikricha, Zahiriddin Muhammad Bobur mirzoni qonuniy podshoh atab, muborak nomlarini xutbaga qo'shib o'qitmoq kerak! Bobur «yalt» etib Yoqubbekka qaradi. Uning ovozidagi mayinlik, yuzidagi hayajon, hatto old tishlari tushib ketgan og'zining kemshikligi Boburga allanechuk yoqimli tuyildi. Yoqubbekning eng nufuzli va qaysar mo'g'ul beklaridan ekanligini hamma bilardi. Faqat uning bundan bir necha soat oldin Boburga qarshi fitna uyushtirib yurgani o'tirganlar uchun sir edi. Endi Yoqubbek mana shu sirni yaxshiroq bekitish uchun Boburga hammadan ortiq sadoqat bildirmoqda edi. Uning shu sir ochilib qolishidan iztirobga tushib, dardli va hayajonli ko'zlar bilan Boburga qarashi, undan najot kutganday bo'lib hayajonlanishi o'zi qiynalib o'tirgan Boburga g'alati ta'sir qildi. Yoqubbek birinchi

bo'lib Boburni podshoh deb atagani yosh o'spirinning o'rtanib turgan qalbiga go'yo sarin bir shabada bo'lib tegdi. Qachondir bir vaqt taxtga chiqish va shu yurgan hamma beklarga bosh bo'lib, g'olibona janglar qilish Boburning eng kuchli orzularidan edi. Yoqubbekdan keyin gapirgan beklar ham birin-ketin Boburni podshoh deb tan olar ekanlar, uning mana shu orzusi bulut orasidan chiqqan to'lin oyday charaqlab yuzaga chiqdi-yu, ko'nglini birdan yorishtirib yubordi. Boshiga tushgan musibat ham, ichini kuydirayotgan tashnalik ham xayolidan uzoqlashdi.

Shu payt eshikdan shahar dorug'asi Uzun Hasan ta'zim qilib kirdi.

– Amirzodam! – dedi u entikib. – Qulingizni afv eting, sizni kutib ololmadim. Men Andijonda nomunosib gaplar tarqatgan fitnatchilarni ovlash bilan band edim. Alhol, bir fitnachi arbobni tutib keltirdim.

Bobur beixtiyor oldinga intilib:

– Qaysi arbob? – dedi. – Kim u? Keltiring!

– Bajonidil, amirzodam! – deb Uzun Hasan shoshilib, orqasiga qaytdi.

Hamma ko'zlar ochiq eshikka qadaldi. Yoqubbekning rangi «quv» o'chdi. Nahotki Ahmad Tanbal qo'lga tushgan bo'lsa? Unda sir ochiladi. Yoqubbek sarosima ko'zlar bilan darchani qidirib topdi. Darcha u o'tirgan joydan ancha uzoq. Darchadan narida arkning o'n paxsalik baland devori bor. Yo'q, bu yerdan qochib qutulib bo'lmaydi! Yoqubbekni titroq bosdi...

Shu payt eshikdan narida yo'g'on bir ovoz:

– Qo'limni yeching, men gunohkor emasmen!  
– degani eshitildi. Tovushidan Ahmad Tanbalga o'xshamaydi. Oq shohi yaktak kiygan yo'g'on gavdalik bo'ydor kishini ikki navkar ikki tomonidan mahkam tutib olib kirdi.

– E, bu – Darvesh gov-ku! – dedi Yoqubbek birdan yengil tortib.

Andijon miroblarining boshlig'i bo'lgan bu odam gardani juda go'shtdor bo'lganligi uchun ho'kizga o'xshab bo'ynini bir oz oldinga egib yurar, shuning uchun orqavoratdan uni «gov», deb atashar edi. Andijon Qo'rg'oniga to'qqiz ariq suv kirsa ham, bog'-rog'larning ko'pligidan yoz oylarida suv yetishmaydi, amaldorlar oddiy fuqaroning navbatini ham olishga intilishardi. Shunday paytlarda Darvesh gov ko'pincha fuqaroning tomonini olar, beklarga navbati kelmaguncha suv bermas edi. «Bek bo'lsang, o'zingga, Xudoning oldida hamma bandasi barobar!» – deb tap tortmay gapirganini ko'p odam eshitgan. Shu sababli beklar Darvesh govni yomon ko'rishar, ayniqsa dorug'a Uzun Hasan ko'pdan beri unga kek saqlab yurardi. Qo'li bog'loqliq Darvesh gov Boburga va undan beriroqda o'tirgan Xo'ja Abdullaga bosh egib, ta'zim qildi-yu:

– Adolat qiling, amirzodam! – dedi. – Men fitnachi emasmen, ustod! Bozorda bir yapasqi navkar menga aytdi: «Podshoh Axsida mast bo'lib jordan yiqilib o'libdir. Bobur mirzo yog'iydan qo'rqib, Olatog' tomonga qochibdir», dedi.

Boburning g'ashi kelib:

– Bo'hton bu! – dedi.

– Bo'htonligini men keyin bildim, amirzodam, meni afv qiling! – deb Darvesh gov bir-ikki qadam beriga kelib, qo'li orqasiga bog'langan holicha tiz cho'kdi: – Tuhmatligiga bu yerda muborak yuzingizni ko'rib amin bo'ldim. Ammo bozorda xaloyiq vahimaga tushib, to's-to'polon bo'lib qochganda, o'zimni yo'qotib qo'ydim. Bir odamni to'xtatib: «Shundoq gaplarni eshitdim, nahotki rost bo'lsa?» deb so'rayotganimda, dorug'a janoblarining xufiyalari gapimni eshitib turgan ekanlar...

– Yo'q, sen gap so'rash bahonasi bilan bu qabih ovozani tarqatib yurganingda qo'lga tushding! – dedi Uzun Hasan.

– Kalomulloni bering, qasam ichamen!

– Kalomulloni ham xor qilmoqchi bu qasamxo‘r! – dedi Yoqubbek Boburga yuzlanib: – Amirzodam, agar bu mardak sadoqatli qulingiz bo‘lganda, yomon ovoza tarqatgan o‘sha navkarni qo‘lidan tutib dorug‘aga topshirmsmidi? Vaholanki, bu o‘zi o‘sha ovozani boshqalarga aytgan, ya‘ni ig‘vo tarqatgan. Buni hozir o‘z tilidan ham eshitdik!

Darvesh gov hang-u mang bo‘lib:

– Yo alhazar! – dedi.

Yoqubbek Boburga boyagidek muloyim ko‘z tashlab, kemshik og‘zini sodiq bir tabassum bilan ochdi:

– Amirzodam, sizning rahmatlik otangiz Darvesh govni miroblarga sardor qilib qo‘ygan edilar. Otangizning inoyati bilan shunday martabaga erishgan bu gov endi hazrati oliyni muqaddas ramazon oyida mast bo‘lib yiqilgan desa-ya! Bu qanday noinsoflik!

Boburning yosh qalbi bu mash‘um ig‘voga qarshi g‘azab tuyg‘usiga to‘lib bormoqda edi. «Aldash uchun bola yaxshi!» o‘ylandi Yoqubbek umid bilan. Ig‘vo tarqatgan bu odam o‘zining aybini jon-dili bilan Darvesh govga ag‘darib, Boburni bunga ishontirishga butun kuchini sarflamoqda edi. Bu ishda Yoqubbek yolg‘iz emas edi, beklarning ko‘pchiligi Darvesh govni aybdor deb bilmocda edilar.

– Ig‘vo tarqatganini o‘zi bo‘yniga oldi! – dedi Yoqubbek.

– Tilidan tutilmishdir, jazosini berish darkor!

– deb Ali Do‘stbek nomli badqovoq ko‘sa bir kishi Yoqubbekning tarafini oldi.

O‘ychan o‘tirgan Qosimbek boya Sherimbek tog‘oyining imzosiz xat keltirgan kabutar haqidagi gapini esladi-yu:

– Balki yana taftish o‘tkazish lozimdir? – dedi.

Unga Mazidbek e‘tiroz qildi:

– Ortiqcha taftishlarga fursat qani? Yog‘iy Marg‘ilonni olib, Andijonga bostirib kelur. Qonli urush paytida elni vahimaga tushirgan, podshohning martabasiga raxna solmoqchi bo‘lgan ig‘vogarlarga rahm qilinmaydir!

– Siyosat uchun maydonda yasoqqa yetkazish kerak, toki boshqalarga ibrat bo‘lsin! – dedi Uzun Hasan.

«Yasoqqa yetkazish» – xaloyiq oldida boshini kesish degan gap edi.

Darvesh govning yuziga o‘lim sharpasi soya solib o‘tganday bo‘ldi. U tizzasi bilan yurib, Boburga yaqinlashar ekan, yig‘lab iltijo qildi:

– Amirzodam, men ig‘vogar emasmen! Men ig‘vogarlarning qurbonimen! Menga rahm qiling! Beshta yosh bolam bor! Noumid qilmang, amirzodam!

Darvesh gov, yo‘g‘on gavdasi silkinib, o‘kirib yig‘lar ekan, qo‘li bog‘liq bo‘lgani uchun yuzini yashirolmas, ko‘z yoshlari moshguruch soqoliga tomchilab oqib tushar edi.

Shunday katta yoshli odamning bunchalik kuyunib yig‘lagani Boburning qalbida ko‘pirib turgan g‘azabni birdan bosdi. Uning Darvesh govga rahmi keldi-yu, ustozi Xo‘ja Abdulladan «shu bechoraning qonidan keching!» – degan bir gapni kutdi.

Biroq Xo‘ja Abdulla og‘iz ochguncha bo‘lmay, yana Yoqubbek gapirdi:

– Besh bolasi bor odam tilini tiyib yursa bo‘lmasmidi!

– E, bu gov o‘zi haddidan oshgan! – dedi Uzun Hasan. – Bo‘lmasa, podshoh haqida ig‘vo qilganlarning gapini eshitgan hamono og‘ziga urmasmidi! Yoki u haromnamaklarni bizga tutib bermasmidi!

Bir-birini inkor qiluvchi bu gaplar Boburning xayollarini chalkashtirib yubordi. Vujudini o‘rtayotgan tashnalik yangi bir kuch bilan qaytib keldi. Yuzlar, devorlar, gilamlar bir-biriga qo‘shilib, chaplashib, chirchir aylana boshladi. Darvesh govning yig‘lab gapirgan so‘zlari go‘yo uzoqdan eshitildi:

– Amirzodam! Adolat qiling! Men otangizning sodiq raiyatlaridanmen! Siz yoshsiz, beg‘uborsiz. Siz hali bu beklarni bilmaysiz! Bularning menda keki bor! Beklarga ishonmang, amirzodam! Xalqdan so‘rang! Meni el-ulus biladi! Raiyat biladi!

Ali Do‘stbek qo‘lini mirobga paxsa qilib:

– Eshitdingizmi, amirzodam? – dedi. – Bu govning ichi qoraligini ko‘rdingizmi?

Yoqubbek Bobur tomonga ta‘zim bilan egilib, boyagiday mehribon tovush bilan tushuntirdi:

– Bu gov el-ulusni beklarga qarshi qo‘zg‘amoqchi, amirzodam. Yog‘iy hujumi paytida bariyat bilan raiyatning<sup>1</sup> orasiga nifoq solmoqchi!

– Niyati buzuqligi shundan ham ayon! – dedi Uzun Hasan va navkarlarga qarab buyurdi. – Bas, olib chiq!

Boyagi ikki navkar Darvesh govni ikki qo‘ltig‘idan olib, o‘rnidan turg‘izdi-da, kuch bilan eshikdan olib chiqqa boshladi. Endi Boburdan ham umidini uzgan bandi:

– Men begunohmen! – deb qichqirdi. – Besh bolamning uvoli uradi sen beklarni! Mening begunoh qonim tutadi hammangni!

Bu qarg‘ish Boburning qalbiga o‘tkir tig‘day qadaldi. Uning qo‘l-oyoqlari titrab, o‘tirgan joyida ko‘zi tina boshladi. Nazarida, boyagi quyun avvalgidan battar xuruj qilar, uni mana shu odamlarga qo‘shib chirmab aylantirar edi. Atrof ko‘ziga chang-to‘zon orasida qolib ketganday xira ko‘rinar edi. U o‘tirgan joyida yiqilib ketmaslik uchun ikki qo‘lini ikki yoniga tiradi.

Darvesh govning qarg‘ishidan g‘azabi oshgan beklar endi uning o‘ldirilishini yana ham qattiq turib, talab qildilar:

– Bu ko‘rnamak yasoqqa yetmaguncha eldagi vahima bosilmaydir!

---

<sup>1</sup> Bariyat – bek va a‘yonlar. Raiyat – fuqaro.



– Siyosat uchun bitta igʻvogarning boshini kesmoq zarur!

– Yasoq!

– Yasoq!

Boburning koʻz oldidan boyagi odamning soqoliga oqib tushgan koʻz yoshlari ketmas, qulogʻi tagida uning alamli qichqirigʻi hamon jaranglab turardi. Shu tirik odam murdaga aylanishi kerak. Bobur bunga farmon berishi kerak. Nechun? Beklar u odamni gunohkor deb Boburni ishontirgani uchunmi?

Balki bu beklar chindan ham Boburni aldayotgandir? Balki mana shunaqa beklar Axsida Umarshayx mirzoni jordan itarib yuborib oʻldirgandirlar? Balki bular erta-indin Boburning joniga ham qasd qilishar?

Birdan Boburning begʻam yurgan davri esiga tushdi. Kechagina u tengdosh oʻrtoqlari bilan ot choptirib oʻynab yurmaganmidi? Alisher Navoiyning rasmiga tikilib, musaffo yoshlik xayollariga berilgani qachon edi? Oradan bir necha yil oʻtganga oʻxshaydi. Holbuki, shu bugun ertalab, shu bugun choshgohda uning hayoti quyoshli osmonday tiniq va sof edi-ku! Bu qora bulutlar uning atrofiga qayoqdan yopirilib keldi? «Yasoq!» – deb qichqirayotgan har dargʻazab bek Boburdan quyoshni toʻsib olgan bir qora bulutga oʻxshardi. Boburni chirmab aylantirayotgan dahshatli quyun mana shu qora bulutlarning shamoli emasmikan? Nahotki bu bulutlar doim toj-u taxt bilan birga yursa-yu, Darvesh govga oʻxshaganlarning qoniga shunchalik tashna boʻlsa?! Boya Boburga xuddi bulutlar orasidan suzib chiqqan toʻlin oyday goʻzal koʻringan toj-u taxt endi oy tutilgan tunday vahimali tusga kirdi. Bobur nomaʼlum xavf-xatardan seskanib, Xoʻja Abdullaga yordam soʻraganday qaradi:

– Ustod!

Xoʻja Abdulla unga tomon surilib:

– Amirzodam, bardam boʻling, – dedi.

– Ne qilay, ayting!.. – shivirladi Bobur.

– Hukm chiqaring! Beklar yasoqqa yetsin deb talab qilmoqdalar.

– Siz-chi, ustod?

Agar Xo‘ja Abdulla, o‘tirganlarga qarshi chiqib, Darvesh govni yoqlasa, shuncha amal-taqal bilan boshlari zo‘rg‘a qovushgan beklar yana parokanda bo‘lib ketishlari aniq edi.

– Amirzodam, – shivirladi Xo‘ja Abdulla, – podshohlik udumiga binoan xatarli urush paytida tojdorlar sha‘niga nomunosib gap aytgan odam jinoyatchi hisoblanur! Darvesh gov yana bu yerda ham tilini tiymay chatoq qildi. Barcha beklarni yomonlab, qarq‘ab, olovga moy sepdil! Endi siz... bitta Darvesh govni deb barcha beklardan voz kecholmagaysiz. Vaziyat tahlikali... Siyosat uchun govni yasoqqa yetkazmoqdan boshqa iloj yo‘q!

\* \* \*

Ertasi kuni peshinda Andijon arkinging qarshisidagi jazo maydonida nog‘oralar chalindi. To‘plangan xaloyiqning ko‘zi oldida Darvesh gov, yomon ovoza tarqatishda ayblanib, boshi kesildi.

Yoqubbek Ahmad Tanbalni yapasqi navkari bilan birga o‘sha kuni kechasi Axsiga yashiriqcha jo‘natib yuborgan edi. Ikki oradagi sir sirligicha qoldi.

Dushman Marg‘ilonni olib, Andijonga tahdid solmoqda edi. Xo‘ja Abdulla boshliq elchilar Boburning nomidan Samarqand podshosining Marg‘ilondan beridagi qarorgohiga borib, sulh tuzishni taklif qildilar.

– Siz bilan urush boshlagan iningiz Umarshayx mirzo jordan yiqilib shunqor bo‘ldi!<sup>1</sup> Bobur mirzoni farzand o‘rnida ko‘rgaysiz! Axir u zot sizga kuyov

---

<sup>1</sup> Vafot etdi ma‘nosida.

bo'lish orzusidalar! Sizni bosh hukmdorimiz, deb tan olurlar! O'lpon to'lagaymiz! Urushni to'xtating, hazratim! Xo'ja Abdullaning bu taklifiga samarqandlik beklar qattiq qarshi chiqdilar. Ular Andijon va Axsini bosib, talab, katta-katta o'lja olish umidida edilar. Sulh ularni mana shu o'ljalardan mahrum qilar, o'lponni podshohning bir o'zi olar edi.

– Shuncha joydan qon kechib, jon berib-jon olib kelib, endi yetdik deganda quruq qaytamizmi? – dedi Muhammad tarxon nomli bek.

– Sulh tuzmang, hazratim!

– Qattiq turing! – deyishdi boshqa beklar ham.

Sulton Ahmad mirzo beklarning ra'yini qaytarolmaydigan zaif tojdorlardan edi. Xo'ja Abdulla boshliq elchilar undan rad javobi olib qaytdilar. Endi avvalgidan battar qirg'in bo'lishini sezgan bek va navkarlar Andijon qo'rg'oniga kirib, bekina boshladilar.

## QUVA

### JASORATNING JAZOSI

#### 1

O'tgan kuni o'tlanib, Andijonga ketgan mulla Fazliddin bugun qattiq iztirob ichida yana Quvaga qaytdi.

U Boburning otasi o'rniga hukmdor bo'lganini eshitib undan himoya so'rash niyatida arkka borgan edi. Agar uning huzuriga kirsa noumid qaytmasligiga ishonardi. Chunki mulla Fazliddin chorbog'da ko'shk qurgan paytlarda Bobur bilan ko'p hamsuhbat bo'lgan, uning zehni o'tkir, shoirtabiat, zukko o'spirin ekanini sezib, Alisher Navoiy suratini hadya qilgan edi. Endi mulla Fazliddin bo'yni yo'g'on beklardan ko'rgan yomonliklarini aytib bersa, Bobur uni himoyasiz tashlab qo'ymasligi kerak. Lekin ark darvozasi oldida o'sha dorug'a Uzun Hasan turgan ekan.

– Bobur mirzoning huzuriga kirmoq uchun maxsus ruxsat kerak, – deb uning yo'lini to'sdi.

– Ruxsatni kim berur, janob dorug'a?

– Eshik og'a Yoqubbek janoblari!.. Ana, o'zlari ichkaridan chiqmoqdalar!..

O'ntacha navkar qurshovida ichkaridan otliq chiqib kelayotgan Yoqubbek faqat birinchi vazir darajasidagi eshik og'alar taqadigan enli oltin kamarni beliga taqib olgan edi. Puli katta bu bek Andijon mudofasiga hammadan ko'p mablag' ajratgan edi. Uning navkarlari ham boshqa beklarnikidan ko'proq edi, o'zi ham Boburga ixlosi zo'rligini har ishda namoyish qilib, tun-u kun tinmas edi. U birinchi kuniyoq, Boburga o'zini sodiq ko'rsatgani ustiga bu hammasi qo'shilib,

axiri sohib ixtiyor eshik og'a bo'lib olgan edi. Buni endi bilgan mulla Fazliddin xiyol sarosimaga tushdi. Lekin o'zini dadil tutishga tirishib, otliq kelayotgan Yoqubbekning qarshisidan chiqdi:

– Janob eshik og'a, ijizat bering, kamina Bobur mirzo huzurlariga kiray!

Yoqubbek otining jilovini tortib, xiyol to'xtadi-yu, qo'lini ko'ksiga qo'yib turgan mulla Fazliddinga tepadan kinoyali nazar tashladi:

– Kirib ne qilmoqchisiz?

– Arzim bor... Me'morlik san'atiga oid...

– Hozir yosh podshohimizga me'morlar emas, mamlakat mudofaasiga yaraydigan navkarlar kerak! Urush tugagandan so'ng keling!

Yoqubbek: «Gap tamom!» degandek qilib, otini yeldirganicha o'tib ketdi. Mulla Fazliddin bir lahza qaqqayib turib qoldi. Bir vaqt Uzun Hasanning:

– Janob me'mor, tavochilar navkarlikka odam olmoqdalar, istasangiz borib navkar bo'ling! – degan kinoyasi uni o'ziga keltirdi.

– O'lmasak hali me'mor kerak bo'ladigan kunlarga ham yetishurmiz! – dedi mulla Fazliddin dorug'aga nafratli nazar tashlab.

Endi uning Bobur huzuriga kirolmasligi aniq. Yoqubbek bilan Uzun Hasanning ixtiyoriga o'tgan qal'ada qolish esa juda xatarli. Darvesh govning o'limiga shu beklar sabab bo'lganini mulla Fazliddin eshitgan edi. Hozir uning uchun sal bexatarroq joy – Quvadagi opasining uyi edi...

Mulla Fazliddin xufton payti hovliga kirib kelsa, pochchasi bilan opasi yov yaqinlashayotganini eshitib, vahimaga tushib o'tirishgan ekan. Quvasoydin narida – Karkidon adiridagi yov ilg'orlari yoqqan gulxanlar milt-milt qilmoqda edi.

– Mulla Fazliddin, yog'iy kelsa, po'lat sandig'ingizni tinch qo'ymas, – dedi pochchasi. – Buni tezroq yashiring.

- Bo'sh o'rangiz bormi, pochcha?
- Bor. Ana, bedaxonada.
- Tohir qani?
- Mahmud bilan ko'priikka qarab ketdi. Bilmadim, ne ishi bor? So'rasam, aytmadi.

Mulla Fazliddin pochchasining yordamida po'lat sandiqni yana qopga solib, bedaxonadagi bo'sh o'raga tushirib qo'ydi-yu, o'raning og'zini taxtalar bilan bekitdi. Keyin bu taxtalar ustiga beda bog'larini baland qilib taxlab tashladi.

\* \* \*

Osmonni yana quyuq bulut qoplagan. Birda-yarim yomg'ir tomchilab qo'yadi. Quva ko'chalari jimjit. Yov yaqinligini sezgan odamlar uy-uyiga bekinib olgan. Ahyon-ahyonda itlar hurgani eshitilmasa, butun Quva ko'chib ketganga o'xshardi. Quvasoy ustidan o'tgan yog'och ko'prik ham kimsasiz. Elchilar yomon xabar bilan qaytgandan so'ng, ko'prikdagi soqchilar qo'rg'onga qochib ketishgan...

Tun yarimlaganda shu ko'priikka qarab ketadigan yo'l chetida uch-to'rtta qora ko'rindi. Yo'l bo'yidagi darvozaning bir tavaqasi sekin ochildi-yu, undan katta cho'va ko'targan pakana odam chiqdi.

Tohir shivirlab so'radi:

- Chaqmoq bilan tutantiriqni ham oldingmi?
- Oldim.

Pakana yigitning kiyimlaridan zig'ir yog'ining hidi keladi - uning kasbi juvozkash. Tohir yuziga yomg'ir tomchilaganini sezib, osmonga qaradi. Bulut quyuqlashib, yulduzlar ko'rinmay qolgan.

«Jala quysa, olov yonmay balo bo'larmikin? - o'ylandi u. - Ko'prikning yog'ochlari ham ho'l bo'lib, ivib yotgandir».

– Mahmud, men bitta bolta oldim. Endi yana bitta bolta bilan ikki kishilik katta arra kerak. Sen duradgorsen, asboblaring taxt.

– Arrani nima qilasen?

– Kerak! Umrzoq, sen ham birga bor. Darrov olib chiqinglar.

Ikki yigit bir tor ko‘chaga kirib ketishdi-yu, anchadan keyin aytilgan narsalarni olib kelishdi. Keyin hammalari devorning zehi bilan yurib oldinma-ketin ko‘prikka yaqinlashishdi.

Tohir ko‘prikda qorovul yo‘qligini boya aniqlagan edi. Andijon qo‘shini orqaga chekinib, qo‘rg‘onga kirib ketgan, bostirib kelayotgan yov buni yaxshi bilar, shuning uchun Quvaday joylarda hech qanday xavf-xatar bo‘lishini kutmas edi.

Tohir ko‘prikdan beriroqda – qorayib turgan katta bir daraxtning tagida hamrohlarini to‘xtatdi:

– O‘zlaringdan qolar gap yo‘q. Beklar bilan navkarlar bizni yog‘iyning oyog‘i ostiga tashlab ketdi. «O‘zing uchun o‘l yetim», degan gap bor. Xudo kushoyishi korimizni bersa, hammamiz uy ichimiz bilan bir balodan xalos bo‘lamiz. Mabodo, ishimiz o‘ngidan kelmasa... Bitta-yarimtamiz qo‘lga tushadigan bo‘lsak...

– O‘shanda ham mard bo‘lish kerak, – dedi Mahmud. – Ont ichaylik: kimki yog‘iyga sir bersa, onasi xotini bo‘lsin!

– Omin!

– Omin!

Hammalari yuzlariga fotiha tortishdi-yu, birin-ketin ko‘prikka chiqishdi. Tohirning mo‘ljali qirq-ellik qadam ichkariroqqa borib, ko‘prikning o‘rtasidan o‘t qo‘yish edi. Ammo ular ilgarilagan sari atroflari ochilib, o‘zlarini himoyasiz seza boshlashdi. Suvning ochiq sathi sohilga nisbatan yorug‘roq edi. Ko‘prik

yov qo'shinlari qarshisida nishon taxtasiga o'xshab turgandek vahimali tuyilardi.

Bir vaqt duradgor yigitning qo'lidagi katta arra egilib, yupqa po'lati Tohirning boltasiga tegib ketdi. Uning jarangi qorong'ida shunday keskin eshitildiki, yigitlar seskanib to'xtashdi. Atrofga quloq solib, bir lahza qotib turishdi. Qurbaqalar bir tekis qurillamoqda edi.

– Tohir, ko'p nariga bormaylik! – deb shivirladi Mahmud. – Kelib qolsa qochib qutulishni ham o'ylanglar.

– Naryoqdan keladimi? Umrzoqni o'sha yoqqa qorovul qilib qo'yamiz. Qo'rqmanglar, yog'iy uzoqda.

Shu payt yomg'ir savalay boshladi. Endi uzoqdagi gulxanlar ham ko'zdan yo'qoldi. Yov ularni ko'rib qolish ehtimoli butunlay bartaraf bo'lganini sezib, Tohir ichida suyunib qo'ydi. Ko'prik xiyla uzun bo'lganligi uchun uch-to'rt joyida tagidan qo'yilgan zo'r sepoya tirgaklari bor edi. Tohir ko'prikning qanotidan pastga egilib qarab, shu tirgaklardan birini mo'ljalga oldi-yu, to'xtadi. Umrzoq ko'prikning narigi chetida qorovul bo'lib turish uchun ketdi. Qolganlar ko'prik yog'ochlarining osonroq yonishi mumkin bo'lgan joylaridan tanlab, bolta bilan payraha ko'chirishdi, so'ng chuvadagi yog'dan sepishdi. Uch kishilashib chaqmoqni toshga urib, tutani<sup>1</sup> yomg'irdan bekitib, rosa uringanlaridan keyin, nihoyat achchiq paxta tutuni dimog'lariga urildi. O't yoqishga epchilroq bo'lgan juvozkash yigit tutani puflab-puflab cho'g' qildi. Tohir chakmonning tagidan qo'ltig'iga qisib olib kelgan quruq poxolni shu cho'qqa tutdi.

Poxolning zaif olovi zig'ir yog'i sepilgan payrahalarga ilashib endi sal ko'tarilay deganda, shamol qayirib urayotgan yomg'ir tomchilari «jiz-jiz» etib tegdi-yu, o'chirib qo'ydi.

---

<sup>1</sup> Tuta – chaqmoq uchqunidan yonishi qulay bo'lgan paxta ipi.



– Yonmaydigan sirqindi moy ekan! – dedi Mahmud juvozkash yigitga ta’na qilib.

– Yomg’ir o’chirdi-ku! Shu moyni topib chiqqanimga ham jon de!

– Bas! – shipshidi Tohir juvozkash yigitga. – Tutani o’chirmay tur!

Tohir ikkita belbog’ni bir-biriga ulab, bir chetini beliga bog’lab, ko’prikning tagiga osilib tushdi. Tirgaklarning nam tegmagan joylaridan payraha ko’chirib olib yog’ sepib, ming azob bilan endi olov oldirayotganda, shamolning kuchli bir epkini yonayotgan payrahalarni suvga uchirib tushirdi.

Tohir ko’prikka qaytib chiqdi-yu, boltani qo’liga olib, g’azab bilan ko’prik qanotlarini urib sindira boshladi:

– Mana yonmasang! Mana yonmasang! Mana! Mana!

Juvozkash yigit ikkinchi boltani qo’liga olib, ko’prikning narigi qanotini sindirishga tushdi.

– Tohir, bu ishlaringdan nima foyda? – dedi Mahmud. – Undan ko’ra boltani menga ber. Mana bu mixlangan yog’ochlarini ko’chirib tashlaylik.

Hansiragan Tohir Mahmudning oldiga keldi. Qorong’ida mix ko’rinmasa ham kasbi duradgor bo’lgan Mahmud yog’ochning mix qoqilgan joyini tasmollab topdi. Tohir ikkalasi ko’prikka ko’ndalang qo’yib mixlangan taxtasimon bir yog’ochni ko’chirib olishdi. Ammo ikkinchi yog’ochni ko’chirish juda qiyin bo’ldi.

– Aytmoqchi, arra bor-ku, – dedi Mahmud.

Bir chetda yotgan arrani Tohir paypaslab topdi. Ikki yigit uning ikki dastasidan olib, ko’prik yog’ochlarini arralashga tushishdi.

– Shoshma! – dedi Tohir. – Bu yerdagi besh-o’nta yog’ochni arralab tashlaganimiz bilan hech ish chiqmaydi.

– Nega chiqmasin? Ot-arava o‘tolmaydigan qilamiz!  
– Birorta ustani olib kelib, ko‘prikni tuzatib, o‘tib ketaversa-chi?

– Foydasi yo‘q ishga unnadik chamasi-da! – dedi juvozkash yigit umidsizlanib.

– Yo‘q, biz ko‘prikni bo‘yiga emas, eniga qarab arralashimiz kerak.

– Eniga qo‘yilgan yog‘ochlar juvozkundaday yo‘g‘onku. Arralab bo‘ladimi?

– Bo‘ladi!

To‘rt kishi navbatma-navbat arra tortib, ko‘prikning ko‘ndalangiga to‘sin qilib qo‘yilgan yo‘g‘on va qattiq yog‘ochni arralayotganda, qora terga botib ketishdi. Iliq yomg‘ir hali ham savalab turar, ularning yuzlari va badanlaridan oqqan ter yomg‘ir suviga qo‘shilib, kiyimlarini shalabbo qilgan edi. Yigitlarning maqsadi ko‘prikni ikki tomondan ushlab turgan o‘qyog‘ochlarni arralab, uni bir-ikki joyidan uzib tashlash edi. Ammo ular ko‘prikning har ikki tomonidagi yo‘g‘on o‘qyog‘ochlarni arralab qirqishdi hamki, ko‘prik ular kutganday uzilib tushmadi. Uni yana qandaydir mixlar, bir-biriga tishlatib qo‘yilgan bolorlar va «belbog‘» yog‘ochlar mahkam ushlab turardi. Tohir bilan Mahmud arrani qo‘yib, yana boltani qo‘lga olishdi, qorong‘ida timirskilanib, bolorlarga tishlatilgan qavs mixlardan besh-oltitasini topishdi va ko‘chirib tashlashdi. Shundan keyin ko‘prikning allaqayeri qirsilladi-yu, ammo o‘zi avvalgiday turaverdi.

– Bo‘ldi! – dedi Mahmud madorsizlanib. – Qo‘limizdan kelmaydigan ishga unnabmiz!

– Padariga la‘nat! – deb, Tohir qo‘lidagi bolta bilan yana ko‘prik qanotlarini qarsillatib sindira ketdi. Shu payt ko‘prikning narigi chetidan ular qorovul qo‘ygan yigit chopib keldi:

– Qo‘y, bas! Muncha qarsillatma! Narigi adirdan yog‘iy kelayotganga o‘xshaydi.

– Al Ko‘rdingmi?

– Tovushlarini eshitdim. «Otlan!», «Saf lan!» deb baqirib-chaqirganlari qulog‘imga chalindi!

– Bo‘lmasa hozir bostirib keladi! – deb juvozkash qochishga chog‘landi.

– Arrangni ol, bu yerda hech narsani qoldirmanglar!

– deb Tohir yonmagan payrahalarni, yog‘och siniqlarini suvga otdi.

Besh yigit muvaffaqiyatsizlikka uchraganday ruhlari tushib, uylariga tarqalganlarida tong yorisha boshlagan edi.

## 2

Saharlikni yeb, yo‘lga tushgan yov qo‘shinining oldingi to‘pi ko‘prikka chiqa boshlaganda, tong qorong‘isi hali tarqalmagan edi. Yomg‘ir tog‘larda qattiq quyayotganligi uchun Quvasoyning suvi tobora ko‘tarilib bormoqda edi. Oldinda kelayotgan otliq chig‘dovullar uncha ko‘p emas edi, shuning uchun ko‘prikdan siyrak saf bilan o‘tib ketishdi.

Ammo ulardan keyin kelayotgan saflar juda qalin edi. Har bir bekning navkarlari o‘zlariga qarashli yuklarni tuya qo‘shilgan og‘ir aravalarga ortib kelmoqda edilar. Chug‘uruqday behisob qo‘shin otlari, tuyalari, aravalari bilan birga yomg‘irli tongda qopqora selga o‘xshab ko‘prikni limmo-lim to‘ldirib kela boshladi.

Ko‘prikning o‘rtasida boyagi yigitlar mixlarni sug‘urib, to‘sinlarini arralab ketgan joy bunchalik og‘ir yukka bardosh berishi amrimahol edi. Buning ustiga, xuddi o‘sha joyda bir cho‘bir otning ikki oldingi oyog‘i mixi ko‘chirilgan yog‘ochlarning yorig‘iga tushib ketdi. Ot o‘mrovi bilan yiqilib tushib, oyog‘ini sug‘urib ololmay tipirchilay boshladi. Egarda o‘tirgan navkar otning boshidan oshib, boshqa otlarning oyog‘i tagiga

uchib tushdi. Hozir behisob tuyoqlar ostida qolib yanchilishini sezdi-yu, dod solib qichqirdi. Hamrohlari beixtiyor jilovlarini tortishdi. Ba'zi otlar qo'rqib, orqaga tisarilib ketdi.

Orqadagilar esa hech narsadan bexabar, yopirilib kelmoqda edi. Bir lahzada ko'prikning shu joyi haddan tashqari tiqilinch bo'lib ketdi. Arra va bolta zarbalaridan nochorlashgan ko'prik yog'ochlari to'satdan qarsillab sindi. Tiqin bo'lib yotgan o'nlab otlar, odamlar ko'prik yog'ochlariga qo'shilib, suvga qulab tushdi. Toshib turgan soyning suvi qulab tushganlarni lopillatib oqizib ketdi.

Ko'prik ustida qolganlar jonholatda orqaga burilib, qochmoqchi bo'lishdi. Ammo orqadan hamon otliqlar, aravalar, tuyalar ko'chkdiray bostirib kelmoqda edi. Oldinda nima hodisa bo'lganidan bexabar podshoh eng yaqin beklari bilan soyning narigi chetida turib, qo'shinni ko'prikka tomon yo'naltirmoqda edi. Lekin ko'prik o'rtasidan ko'tarilgan qiy-chuv, to'polon tobora zo'rayib borardi. Vahimaga tushgan qo'shin birdan o'zini orqaga tashladi, ammo ur-sur to'polonda ko'prikka sig'may, ot-ulovlari bilan suvga tutday to'kila boshladi. Ko'prik qanotlarining ancha joyi sindirib tashlangani ularning qulab tushishini osonlashtirardi. Tartibi buzilgan aravalar bir-birini itarib, ko'prikning butun turgan qanotlarini ham sindirib qulamoqda edi. Ba'zi navkarlar yo'lida uchragan tirik jonning hammasini qamchilab o'tmoqchi bo'lsa, ba'zi beklar qilich yalang'ochlab, to'polonni tig' bilan bosmoqchi bo'lishadi. Ammo g'ij-g'ij bo'lib, qurt-qumursqaday qaynab yotgan qo'shin ko'prikka shunday tiqilib qolgan ediki, unga na qamchi kor qilar edi, na qilich. Tuyalar bo'kiradi. Odamlar qichqiradi. Talvasaga tushgan olomon tig' ko'targan beklarning o'zini otlari bilan surib borib, ko'prikdan ag'angatib yuboradi.

Podshoh bilan birga qirg'oqda turgan xos navkarlar suvda oqib borayotganlarni qutqarishga farmon oldilar. Ular qamishlarni shaldiratib, suvga yaqin borganlarida, o'zlari ham balchiqqa botib keta boshladi. Keyin orqada qolganlari arqon tashlab ularning uch-to'rttasini zo'rg'a qutqarib oldi. Boshqalarini qamishzor balchiq qa'riga tortib ketdi. Suvga qulab tushganlarning cho'kkani cho'kib o'ldi. Suzishni biladiganlari esa otlarning bo'yniga yopishib qamishzor qirg'oqqa chiqay deganda, balchiqqa botdi. Sassiqlik botqoqlik ajdahoga aylanib odamni ham, otni ham oyog'idan pastga tortar edi. Otlar jon achchig'ida siltanib kishnar, odamlar qamishlardan qo'llari tilinib dod solar, ammo ular talvasa qilganlari sari balchiqqa chuqurroq botib, yuz azoblar bilan jon berishar edi.

O'rtasi sinib tushgan ko'prikning ustida – ag'darilgan aravalar, yiqilib yotgan ot va tuyalar orasida talay navkarlarning ezg'ilangan jasadlari qoldi. Yovning shu bir-ikki soat ichida ko'rgan talafoti urush boshlangandan beri ko'rgan hamma talafotlaridan ko'proq va dahshatliroq edi. Yana bu falokatning sababini hech kim bilmas edi. Shuncha odamning mislsiz qiynoqlarda jon berganini ko'rgan jangchilar mag'lubiyatga uchragandan battar esankirab, ruhsizlanib qoldilar.

### 3

Quvaliklar tong yorishgandan kun yoyilguncha bo'lib o'tgan bu falokatni narigi qirg'oqdagi devor va tomlardan mo'ralab ko'rib turar edilar. Ularning ba'zisi «yog'iy battar bo'lsin», deb shodlansa, ba'zisi ne-ne yigitlarning suvga oqib, balchiqqa botib, ming azoblar bilan o'layotganidan achinardi. Tohir kechasi o'rtoqlari bilan qilgan ishlarini boya Fazliddin tog'asiga «uddasidan chiqolmadik», degan ma'noda ma'yuslanib

aytib bergan edi. Keyin yuz bergan hodisani tomga chiqib ko'rgan mulla Fazliddin narvondan tez pastga tushdi-yu, Tohirni bir chetga imlab chaqirib oldi:

– O'rtoqlaringga ayt! Hammalaring tezroq berkininglar!

– Nechun, mulla tog'a?

– Ko'prik arralangan joyidan singanga o'xshaydi. Agar ko'prikka o't qo'yib yuborganlaringda ham bunchalik talafot bo'lmas edi. Chunki yog'iy ko'prikning yongan joyini tuzatmaguncha ustiga cherik chiqarmas edi. Ular g'afatda qolib baloga yo'liqqan! Agar qilgan ishlarini bilib qolsa, hammamizni qirib tashlashlari aniq!

– Yog'iy hali naryoqda-ku!

– Chig'dovullari bu yoqqa o'tgan ekan, men ko'rdim. Gapni ko'paytirmay, tezroq yashirin. To'qayga chiqib ketinglar. Tez!

Tog'asi astoydil xavotir bo'layotganini sezgan Tohir boshqa e'tiroz qilmadi-yu, o'rtoqlariga sekin xabar berib chiqdi:

– Arqon bilan o'roq olinglar. Kim so'rasa, o'tinga boramiz, denglar. Lekin xo'rak ikki-uch kunlik bo'lsin.

Besh yigit odamlarning ko'ziga tashlanmaslikka tirishib, qishloqdan yakka-yakka chiqishdi-yu, to'qay ichida uchrashishdi.

Ko'prik sinmasidan oldin berigi tomonga o'tib qolgan chig'dovullar Quvaning kadxudosini topib, uning yordamida duradgor ustalarni ko'prik tuzatishga haydab chiqdi. Naryoqda qolgan navkarlar arqon tashlab, yog'och tashib, ularga ko'maklasha boshlashdi.

Ko'prik tuzatishga chiqqanlarning orasida Tohirning otasi ham bor edi. U kechasi o'g'lining qayoqqadir borib, sahar paytida charchab qaytganini sezgan edi. Duradgorlardan biri yog'ochning arralangan joyini

Tohirning otasiga ko'rsatib, o'z shubhasini aytmoqchi bo'lganda, usta buning oldini olib, labini tishladi:

– Damingizni chiqarmang, – deb shivirladi. – Agar yog'iy biror gumoningizga ishonsa, butun Quvaga o't qo'yadi. Hammamizni qilichdan o'tkazadi!

– Gapingiz haq!

Shundan keyin bu to'g'rida hech kim og'iz ochmadi. Ikki kun deganda ko'prik naridan-beri tuzatildi-yu, yovning otliq askarlari bitta-ikkitanadan bo'lib, ehtiyot bilan o'tishdi. Nihoyat, podshoh ham mulozimlari bilan ko'prikdan o'tib, Quvada to'xtamasdan yo'lida davom etdi. Yovning aravalarga ortilgan og'ir yuklari va tuya karvonlari ko'prikdan narida qolib ketdi. Shunga qaraganda yovning rejalarida qandaydir bir o'zgarishlar yuz bergan edi. To'qayda yashirilib yurgan Tohir Robiyadan xavotirda edi. Ota-onasi qizni qo'llaridan kelganicha avaylab, yashirib yurganlarini bilsa ham, yovning hamon Quva atrofida o'ralashib yurgani juda tahlikali edi. Uchinchi kuni yigitlarning xo'raqlari ham tugadi. Ahvol qanday bo'layotganini bilish va xo'rak g'amlab kelish uchun Tohir o'zi boradigan bo'ldi. U kechki payt bir bog' qamishni orqalab sekin hovlilariga yaqinlashdi. Darvoza zanjir ekan, qo'lining uchini tiqib, zanjirni tushirdi. Mulla Fazliddin bostirmaning oldida aravaning g'ildiraklarini ko'zdan kechirayotgan edi. Qamish ko'tarib kirgan Tohirni ko'rib, unga qarab chopdi:

– Sulh muborak, jiyanim! Sulh!

– Urush tugadimi?

– Xudoga shukr, tugadi.

Tohir yelkasidan qamishni yerga tashlab yubordi. Tog'asi uni bag'riga bosib, qulog'iga shivirladi:

– Jasoratlaring bekor ketmadi, jiyanim! Samarqand podshohining o'zi sulh taklif qilgan emish! Ko'prikdagi talafot yog'iyning belini sindirgan ekan!

Mulla Fazliddin yelkasiga ensiz jiyak tikilgan kiftaki ko'ylak kiygan edi. Tohir engagini jiyakning bog'ichiga bosib va kutilmagan shodlikning zo'ridan o'pkasi to'lib:

– Xayriyat! – deya oldi, xolos.

Mulla Fazliddin uning zalvarli yelkasini silab past tovush bilan:

– Alomat bo'ldi, – dedi. – Ne-ne beklarning qo'lidan kelmagan xaloskorlik sendek tavakkalchi yigitlarning qo'lidan kelgani alomat bo'ldi! Kiborlar sendeklarni «qora xalq», deb pisand qilmaydilar. Ammo bugun shu «qora xalq»ning jasorati bilan urush balosidan xalos bo'lganlarini bilsalar edi!

– Lekin munchalik bo'lishini biz o'zimiz ham bilmagan edik, mulla tog'a. Bir chekkasi, sizning kelib qolganingiz yaxshi bo'ldi. Siz bo'lmaganingizda bu ish mening xayolimga ham kelmas edi, siz turtki berdingiz.

– Shundaymi, a, jiyanim? Agar shunday bo'lsa mening boshimni sen ko'kka yetkazding!

Mulla Fazliddin nuqul ovozini pasaytirib, qandaydir xavf sezib, gapirmoqda edi.

– Mulla tog'a, Quvada hali ham yog'iy bormi? – dedi Tohir.

– Ha, yog'iy o'tib tamom bo'lganicha yo'q. Podshohlari Andijondan bir yog'och<sup>1</sup> berida sulh tuzib, orqaga qaytgan emish. Cherigining bir qismi ko'prikdan nariga o'tib ketganini, o'zim ko'rdim. Ammo qolgan-qutganlari endi qaytsa kerak. Ehtiyot shart, jiyanim, uyga kir.

Tohir ust-boshiga ilashgan qamish barglarini qoqib, uyga kirayotganda qo'shni hovlidan ayol kishining allasi eshitildi. Tohir Robiyani esladi-yu, yuragi bir orziqdi. Sulh tuzilganini eshitganmikin? Tohir uni juda sog'ingan edi. Qani endi iloji bo'lsa-yu, hozir devor oshib, qo'shni hovliga o'tsa. Robiyaga urush qanday daf bo'lganini aytib berib, uning quvonganini ko'rsa! Lekin qallqlik odobi bunga yo'l bermas, Tohir Robiya

---

<sup>1</sup> Bir yog'och – taxminan o'n olti chaqirim.



bilan faqat yashiriqcha uchrashar edi. Tohir endi uyga kirib, onasini sulh bilan muborakbod qilayotgan edi, ko'chada birdan itlar asabiy xurib, ot dupuri eshitila boshladi. Tohir shoshilib, darchadan hovliga qaradi.

Ayvondan pastda turgan mulla Fazliddin unga o'tinxonani ko'rsatib:

– Bu yoqqa chiq! – deb shipshidi. – Bekin!

Tohir beliga taqilgan xanjarni sopidan ushlab, ayvon orqali o'tinxonaga chopib o'tdi va qamish bog'larining orasiga yashirindi.

Darvoza tavaqalari shaxt bilan ochildi. Egarlarining qoshiga yoy osilgan, boshlariga dubulg'a kiygan, keng cholvorlari etiklarining qo'njini yopib turgan otliq askarlar hovliga kirayotib, atrofga alang-jalang ko'z yugurtirib chiqdi. Ulardan ikkitasi bitta qora otga mingashib olgan edi.

Dubulg'asining uchiga yashil matodan bayroqcha qadalgan ponsod bostirmada turgan yaydoq otni ko'rdi-yu, mingashib kelayotganlarga qarab:

– Ana u seniki! – dedi.

Habashday qorayib ketgan o'siq mo'ylovli yigit qora otning sag'risidan sakrab tushdi-yu, bostirmaga qarab yugurdi. Qolgan yigitlar ponsodning ishorasi bilan uyga kirib, yangiroq kigizmi, gilammi, bo'xchami hammasini hovliga ko'tarib chiqa boshladi.

Ayvonning ustuniga suyanib jim turgan mulla Fazliddin bularni: «Ko'prik voqeasidan xabar topib, Tohirlarni qidirib kelganmi?» deb qattiq qo'rqqan edi. Endi bularning badnafs talonchilar ekanini ko'rib nafрати keldi. Otdan tushmay, hovli o'rtasida turgan ponsodga qarab:

– Mehmon, insof ham darkor! – dedi. – Podshohlarimiz sulh tuzganlaridan keyin bunchalik talon-toroj qilish musulmonchilikka to'g'ri kelarmikin?

Bostirmada mulla Fazliddinning otini allaqachon o'ziniki qilib, unga egar urayotgan qora yigit:

– Sulh, omon-omon! – deb, bu soʻzlarni mas-xaralaganday kulib aytdi.

Boshqa bir yigit boʻxchani titkilab, undan bir juft atlas topdi-da, ponsodga uzatib:

– Moli amon!<sup>1</sup> – dedi.

Ponsod atlasni olib xurjunga solar ekan, mulla Fazliddinga zugʻum qilib, samarqandcha talaffuz bilan gapira boshladi:

– Oltmishta otimiz oʻlat boʻlib oʻldi. Bizga kasofatlarning urdi. Sen bunda savori yurgin-u mani yigitim Samarqandga piyoda ketsunmi? Ikki kishi bir otga mingashib kirganini koʻrdingmi?

– Koʻrdim. Agar aravaga qoʻshilgan shu choʻbir ot yigitingizni Samarqandga koʻtarib borolsa, mayli, oling. Lekin ayollarning boʻxchasini kavlash, sizdek olijanob ponsodga joizmikan?

– Bizning ayollarimiz Fargʻona atlasidan savgʻo keltiring, deb tayin qilgan. Biz shuncha joydan ovora boʻlib kelib, endi besavgʻo qaytaylukmi? Insof shumi?!

Ponsod soʻnggi soʻzni alam bilan aytganiga qaraganda, urushning gʻalabasiz tugaganidan juda norozi edi. Bu odamlar, urushdan katta oʻljalar olish umidida oylab-yillab qon kechib, hamma azob-uqubatlarga bardosh berib yurar edilar. Agar Andijon va Axsi kabi boy shaharlar bosib olinsa, jangchilarning har biri oʻljador boʻlishi shubhasiz edi. Biroq Quvadagi talafotdan keyin darhol sulh tuzildi. Andijondan yarashish uchun chiqqanlar Samarqand podshohiga oltin-kumush sovgʻalar, qimmatbaho sarupolar, bir necha yuz chopqir ot va tuyalar inʻom qildilar. Bu inʻomlar podshohning ichkilari, mulozimlari, beklari va boshqa yaqinlaridan ortmay qoldi. Mana bu ponsodga oʻxshagan jangchilar esa oʻljasiz qoldi. Shuning alamiga ular orqaga qaytishda yoʻllarida uchragan qishloqlarni tintib, oʻlja qidirishga tushgan edi.

---

<sup>1</sup> Moli amon – urushda toʻlanadigan tovon.

Ulardan beshtasi hozir Robiyalarning hovlisiga ham bostirib kirgan edi. O'tinxonaning bir devori Robiyalarning hovlisiga tutash bo'lgani uchun Tohir qo'shni hovlida ham to'polon ko'tarilganini eshitib qoldi.

Kecha ehtiyotini qilib, ichkarida bekinib o'tirgan Robiya urush tugaganini eshitgan, so'ng hovliga sigir sog'ishga chiqqan edi. Sigirga buzoqni qo'yib, uni iydirmoq bilan andarmon bo'ldi-da, hovllilariga otliq askarlar kirib kelganini kech sezdi.

Ayasi og'ilxonaga chopib kirdi.

- Voy, o'lay, sen shu yerdamidig?

- Nima bo'ldi, aya?

- Yog'iy! To'xta! Hovliga chiqma!.. Ana u tuynukdan somonxonaga o't!

O'lja ot qidirib yurgan navkarlarning ikkitasi darhol og'ilxonaga kirdi-yu, uning to'ridagi tuynukdan naryoqqa oshib o'tayotgan qizni ko'rib qoldi. Qisiq ko'zli qipchoq yigit yonidagiga qarab:

- Suluv qizga o'xshaydi! - dedi.

- Ot jo'q ekan-da, - dedi sherigi afsuslanib.

- Jaxshi qiz otdan ham qimmat bo'ladi. Jur, olib chig'ayiq. Samarqandga olib borib, Fozilbekka sotamiz!

Sigirning panasida turgan ona bu dahshatli so'zlarning ma'nosini tushundi-yu, chopib borib tuynukning og'zini gavdasi bilan bekitdi.

- Musulmon bo'lsalaring qizimga tegmanglar! Meni o'ldirsalaring o'ldiringlar! Qizimga yaqinlashmanglar! Birovning omonati! Birovga fotiha bo'lgan!

Bu so'zlar qisiq ko'zli yigitning nazarida qizning qiymatini yana ham oshirganday bo'ldi. U kampirni qo'lidan bir siltab, oxurga qarab uloqtirdi. Kampir oxurga boshi bilan urilib chinqirdi-yu, hushidan ketdi.

Qipchoq yigit tuynukdan somonxonaga o'tganda, Robiya somonxonaning eshigidan qochib hovliga chiqdi. Shunda ikkinchi yigit qarshisidan chopib

chiqib, uni tutib oldi. Ichkaridan qisiq ko'zligi yetib keldi. Qiz ularning qo'lidan chiqib ketmoqchi bo'lib, baliqday patillar edi. Uchinchi bir yigit egaridan qop olib, qopning og'zini ochganicha ularga yaqinlasha boshladi. Qiz hozir boshiga qop kiydirilishini sezdiyu, bor ovozi bilan dod solib, qichqira boshladi. Tohir shu vaqtgacha tishini-tishiga qo'yib, uylarida bo'layotgan talon-torojga chidab o'tirgan edi. Ammo Robiyaning chinqirig'ini eshitgandan keyin ko'ziga hech narsa ko'rinmay qoldi. O'tinxonadan chopib chiqdi-da, qo'shni hovlining devoriga tirmashdi. Devorning suvoqlarini ko'chirib, naryoqqa oshib tushar ekan, shuncha kundan beri uni xavotirga solib yurgan eng yomon baxtsizlik u kutgandan ham dahshatliroq bir tarzda ro'y berayotganini ko'rdi. Biri Robiyani oyoqlaridan ushlab olgan, ikkinchisi uning qo'llarini beliga qo'shib, mahkam qisib turgan va uchinchisi qizning boshiga qop kiydirmoqchi bo'layotgan yigitlar Tohirning badaniga ham zaharli ilon bo'lib yopishayotganday tuyildi. Tohir qichqirib yubordi. Hovlida bir yigit otlarning jilovidan tutib turibdi. Yana biri qo'lida uzun nayzasi bilan ot ustida o'tiribdi. Hammasining belida qilichi, yonida o'q-yoyi. Tohir bir o'zi bularga bas keloladimi, yo'qmi, buni o'ylab o'tiradigan ahvolda emas. Robiyaga yopishgan ilonlarga tezroq tig' urishdan boshqa o'yi ham, istagi ham yo'q. U yugurib borayotib, xanjarini qinidan sug'urdi.

Nayza ko'targan otliq:

– To'xta! To'xta! – deb uning ketidan ot soldi. Tohir ikki sakrab mo'ljallagan joyiga yetib bordi. Robiyani oyog'idan quchoqlab olgan qisiq ko'zli yigitning biqiniga xanjar urdi. Xanjar sopigacha botib ketgani, qisiq ko'zli yigit ingrab Robiyaning oyoqlarini qo'yib yuborgani esida. Tohir xanjarni tortib olayotganida o'zining yelkasiga g'archillab sanchilgan nayza

zarbidan gandaraklab ketdi. Uning xanjar tutgan qo'llari dahshatli bir og'riqdan bo'shashdi. Ot ustidan unga nayza sanchgan yigit nayzasini uzun sopidan tortib sug'urib olayotganda Tohirning yelkasidan – ko'ylagi bilan birga kesilgan badanidan qon tizillab otilib ketdi. U o'zi qulatgan qisiq ko'zli yigitning ustiga yiqilar ekan, Robiyaning kosasidan o'ynoqlab chiqqan vahima to'la ko'zini ko'rdi. Qizning:

– Voy, Tohir og'am! – deb qichqirgani uzoqlardan kelgan sharpaday zo'rg'a eshitildi. So'ng bu ham zulmat qa'riga sho'ng'ib yo'q bo'ldi.

Tohir qoniga belanganicha qoldi-yu, Robiyani Samarqand tomonga olib ketishdi.

## O'SH

### NAJOT QAYDA

#### 1

Baland qoyatoshlar bilan tekis vohalar bir-biriga g'alati tarzda kirishib ketgan O'sh atroflari bir necha kundan beri juda serharakat. Andijondan tuyalarga ortib kelingan hashamatli chodirlar Buratog'<sup>1</sup> etagidan oqib o'tadigan Jannatariq bo'yiga o'rnatildi.

Oqburasoy bo'ylarida ham, Chilmahram tog'ining etaklaridagi ko'kalamzorlarda ham yuzlab chodirlar va o'tovlar paydo bo'ldi. Tog'dan haydab tushilgan dumbali qo'ylar so'yildi, kabob qo'ralarida archaning pistoqi ko'miri cho'g'latildi, doshqozonlarda go'sht qaynay boshladi. Bugun O'shga Bobur mirzo boshliq hamma arkoni davlatlarning kelishi kutilmoqda. Mulla Fazliddin yosh podshohning amri bilan Buratog'ning chiqish qiyin bo'lgan xushmanzara bir qoyatoshi ustiga kichkina hujra qurgan. Bobur mirzo bultur shu ishni unga topshirgandan keyin Samarqandga qo'shin tortib ketgan va O'shga mana endi yo'li tushmoqda edi. Mulla Fazliddin savdarlar bilan pastga tushib, hujraga yarashadigan gilam va zarbof ko'rpachalarni o'zi tanladi. Tik, sirg'anchiq qoyatoshga chiqib o'rganmagan savdarlar jihozlarni olib kelayotganda, juda qiynalib qolishdi. Qashqarcha kumush obdasta ko'tarib kelayotgan semiz oftobachi har o'n qadamda

---

<sup>1</sup> Buratog' – ba'zi manbalarda Boratog' ham deb ataladi. Biroq «Oq Burasoy» kabi asli «bura» so'zidan olingan bo'lishi kerak. Turkiy tillarda nortuyaning eng ulkani «bura» yoki «bug'ra» deb ataladi. Bu tog' chindan ham tekis joyda cho'k tushib yotgan ulkan nortuyaga o'xshab ketadi. (Muallifdan)

bir to'xtab qolardi. Mulla Fazliddin uning qo'lidan obdastasini olib, o'zini suyab chiqdi.

Savdarboshi ayvonning sangfarsh qilingan zinalariga guldor poyandoz to'shatgan edi, mulla Fazliddin iltimos qilib, uni oldirib tashladi. Chunki zinalarga ishlatilgan rangli toshlar har qanday poyandozdan qimmatroq va go'zalroq edi.

Tog' qirrasida turgan hujradan butun O'sh shahri va uning atroflari kaftdagidek aniq ko'rinar edi. Hali ham nafasini rostlab ololmay hansirab o'tirgan oftobachi pastga tikilib qaradi-yu, o'rnidan sakrab turdi:

– Ana, keldilar!

Mulla Fazliddin ayvon chetiga borib, pastga ko'z yugurtirdi.

Oq otliq Bobur mirzo yuzdan ortiq beklari va xos navkarlari bilan Javzo masjididan o'tib, tog' etagiga yaqinlashib qolgan edi. Ular hammasi Jannatariq bo'yiga o'rnatilgan borgoh<sup>1</sup> va xirgoh<sup>2</sup> oldida to'xtadilar. Ichi zarrin ipak, usti qimmatbaho mayin movut bilan qoplangan bu chodirlarning zarhal chilvirlari kumush qoziqlarga bog'langan edi. Chodirlarda dam olish va katta ziyofatlar berish uchun hamma tayyorliklar ko'rib qo'yilganini mulla Fazliddin bilar edi. «Endi bugun Bobur mirzo o'sha yerda dam olsalar kerak, balkim bizning hujraga ertaga chiqarlar», degan o'y bilan ishini sekin davom ettirdi. Ammo oradan bir soat o'tar-o'tmas pastdan sersoqol qo'rchiboshi to'rtta soqchisi bilan hansirab chiqib keldi:

– Hozir bu yerga oliy zotlar qadam ranjida qilurlar. Taxtiravon qayerda?

Savdarboshi mulla Fazliddinga yordam so'raganday qilib qaradi. Zira beqasamdan yupqa to'n kiygan mulla Fazliddin qo'rchiboshi qarshisida qo'l qovushtirib:

– Ma'zur tuting, janobi bek, – dedi.

---

<sup>1</sup> Borgoh – podshohning xos chodiri.

<sup>2</sup> Xirgoh – podshohning taxti qo'yiladigan va qabul marosimlari o'tkaziladigan chodir.

– Xo‘sh?

Mulla Fazliddin shu hujrani qurishda g‘ishtlarni zambilga solib, ko‘tartirib chiqmoqchi bo‘lgan, ammo ilojini topolmagan edi. Chunki bu tik qoyaga odam faqat bitta-bitta bo‘lib, goho qo‘li bilan qoyaga suyanib chiqishi mumkin edi. Taxtiravonni esa to‘rt kishi to‘rt tomonidan ko‘taradi, uning ichida podshoh yoki malikalar o‘tiradi.

– Biz tajriba etib ko‘rdik, bu qoyaga taxtiravon ko‘tarib chiqish mumkin emas, – dedi mulla Fazliddin. Qo‘rchiboshi uch tomoni devorday tik qoyatosh bo‘lgan, faqat bir tomonidan yolg‘iz odam zo‘rg‘a o‘tib keladigan toqqa durustroq qaradi-yu, taxtiravon ishlatish fikridan qaytdi.

Savdarboshiga xo‘mrayib:

– Bu yerda ortiqcha odam bo‘lmasin! – deb buyurdi.

Hujra atrofidagi sahn torroq bo‘lsa ham qoyaning shimol tomonida – uyday baland toshlar ortida kichkina maydoncha bor edi. Soqchilardan ikkitasi oftobachi va savdarboshi bilan birga o‘sha yoqqa o‘tib turishdi. Boshqa savdarlar pastga tushib ketishdi. Qo‘rchiboshi mulla Fazliddinga qarab:

– Janobi me‘mor, siz yo‘lni yaxshi bilursiz, podshohga peshvoz chiqing, – deb buyurdi.

Qoidaga binoan qo‘rchiboshining o‘zi ham pastga qaytib tushib, podshoh bilan birga chiqishi kerak edi. Ammo bu toqqa ikki qayta ustma-ust tushib chiqish benihoya qiyin. Buni sezgan o‘rta yashar qo‘rchiboshi ikkita soqchini mulla Fazliddinga qo‘shib pastga tushirib yubordi-yu, o‘zi hujra yonidagi silliq tosh kursiga o‘tirib, terlab ketgan yo‘g‘on bo‘yinlarini arta boshladi. Mulla Fazliddin Buratoqqa har kuni necha qaytadan tushib-chiqib o‘rganib qolgan. Uning oyog‘idagi ixcham mo‘kkisi toshdan toshga yengil o‘tib boradi. Ammo ko‘ngli notinch. Hozir podshoh va uning



beklariga duch kelishi kerakligi, ular bilan muomala qilishning qiyinligi qalbiga tahlika soladi.

Bobur mirzo va uning odamlari tog'ning kunchiqish tomonidan otliq aylanib o'tib, qoyatoshga janubdan yaqinlashdilar-da, mazoratdan yuqoriroqda otdan tusha boshladilar. Shunda mulla Fazliddin bek va navkarlarga qo'shilmay, alohida to'p bo'lib kelayotgan ayollarni ko'rib qoldi. Yuvosh qora otda o'tirgan va oppoq kiyingan o'rta yashar ayol – Boburning onasi Qutlug' Nigor xonim edi. Gulibodom rangli sho'x, o'ynoqi otda qirmizi ipak qabo<sup>1</sup> kiygan Xonzoda begim kelmoqda edi. Mulla Fazliddin uni sho'x ot ustida chavandoz yigitlarday yaxshi o'tirganidan ham tanidiyu, vujudi birdan qizib ketganday bo'ldi. Ko'nglidagi boyagi bezovtalik ustiga olovli bir hayajon qo'shilib, yuragi qinidan chiqquday hapriqib ketdi. Mulla Fazliddin o'zida birdan yuz bergan bu o'zgarishni birovga sezdirib qo'yishdan qo'rqib, podshohni kutib olayotgan mulozimlarning panasiga o'tdi-da, bosh egib, qo'l qovushtirib turdi. Shunda tizzalari ham qaltirayotganini sezib, «Xudoyo o'zing sharmanda qilma!» degan so'zlarni dilidan o'tkazdi.

## 2

Bobur mirzoning opasi Xonzoda begim mulla Fazliddinni ko'pdan beri hayratga solib keladi. Bundan to'rt yil muqaddam mulla Fazliddin Hirotdan kelib Umarshayx mirzoning Andijondagi chorbog'ida ko'shk qura boshlagan kezlarida Xonzoda begim o'n olti yoshda edi. Asilzoda qizlar orasida eng ko'hligi bo'lgan Xonzoda begim bir marta erkakcha kiyinib, ot minib,

---

<sup>1</sup> Qabo – asilzoda ayollar kiyadigan uzun yengli ustki kiyim. Kamzulga o'xshash.

inisining o'smir mulozimlari bilan chavgon<sup>1</sup> o'ynagan. Mulla Fazliddin buni ko'rib bir hayratga tushgan edi. Oradan ikki yil o'tgach, mulla Fazliddin Andijon arkidagi to'rxonaning ba'zi naqshlarini yangilash uchun chaqirildi. Shunda o'n sakkiz yoshli Xonzoda begimni ravonda kanizlar orasida setor chalib o'tirgan paytida yana bir ko'rdi-yu, o'z ko'zlariga zo'rg'a ishondi. Chunki bir vaqtlar yigitcha kiyinib chavgon o'ynagan o'sha qiz endi setorda shunchalik nafis, shunchalik mayin kuy chalar, uning o'zi ham shu qadar nafosatga to'lib o'tirar ediki, mulla Fazliddin beixtiyor uning sehriga berilib, g'alati bo'lib ketdi. Keyin mulla Fazliddin devorga xomaki naqsh chizayotganda, Xonzoda begim uning oldiga kelib, ishini qiziqib tomosha qila boshladi. Mulla Fazliddinning qo'lidagi pargor hayajondan yerga tushib ketdi.

– Ajoyib naqsh chizgan edingiz, ko'zim tegdimi, mavlono? – dedi Xonzoda begim aybni o'ziga olganday bo'lib.

Mulla Fazliddin pargorni<sup>2</sup> yerdan ko'tarar ekan:

– Yo'q, aksincha, begim, sizning nazaringiz tushgan naqsh yanada yaxshiroq chizilgay!

– Men eshitdimki, mavlono musavvir ham emishlar.

– Aslida me'morlar musavvirlik san'atidan xabardor bo'lmoqlari darkor.

– Undoq bo'lsa mening suratimni chizib ko'ring!

Kutilmagan bu taklifdan cho'chigan mulla Fazliddin atrofga alanglab qaradi. To'rxonada boshqa hech kim yo'q. Shunday bo'lsa ham ovozini pasaytirib dedi:

– Bajonidil chizar edim... Faqat...

– Xavotir olmang, mavlono, men sir saqlashga qodirmen!

---

<sup>1</sup> Chavgon – hozirgi xokkey o'yiniga o'xshaydi. Faqat ochiq maydonda ot minib o'ynaladi.

<sup>2</sup> Pargor – sirkul.

– Agar men chizgan surat narigi dunyoda jon talab qilsa, qaydan topurmen, begim?

Mulla Fazliddin bu soʻzlar bilan shariat surat chizishni man etganini, agar qoʻlga tushsa joni xavf ostida qolishini aytmoqchi edi. Xonzoda begim uning ochiq aytolmagan fikrini tushundi-yu, jilmaydi:

– Agar suratim uchun sizdan jon talab qilsalar, menga ayting, men oʻz jonimni bergaymen!

...Mulla Fazliddin poʻlat sandiqda yashirib yurgan suratni mana shu gaplardan keyin chizishga jurʼat etgan edi. Shundan keyingi toʻpolonlarda u Xonzoda begimni uzoq vaqt uchratolmay yurdi.

Nihoyat, bultur kuzda mana shu Buratoqqa Xonzoda begimning oʻzi kelib qoldi. Bobur Samarqandga ketishda oʻz onasi va egachisiga «Oʻshdagi hujradan xabar olursizlar», deb tayinlab qoʻygan ekan. Mezon oyida Oʻshga mehmon boʻlib kelgan Xonzoda begim bitta kanizi bilan Buratoqqa chiqdi. Mulla Fazliddin oʻsha paytda yolgʻiz shogirdi bilan ishlamoqda edi. Har bitta gʻishtni, yogʻochni, har bir koʻza suvni pastdan olib chiqqunlaricha tinkalari qurib ketardi. Marmar yoʻnib sangkorlik qilishga sangtarosh yoʻq. Sirlangan koshin olishga pul yoʻq. Bu hammasi mulla Fazliddinni juda qiynab qoʻygan. Lekin bu mushkulotlarni Xonzoda begimga qandoq aytadi? Begimning marvarid qadalgan ipak toqisidan<sup>1</sup> tortib uchi qayrilgan qizil etikchasigacha butun borligʻi shunday nafis koʻrinar, bu samoviy goʻzallik oldida tosh va gʻishtdan gap ochish juda erish tuyilardi. Biroq Xonzoda begim mulla Fazliddindan boʻlajak hujraning rejasi chizilgan tarhni soʻrab oldi. Qogʻozga qarab turib:

– Gumbazini koshin bilan bezatmoqchi boʻlibsiz, koshiningiz yetarlikmi? – dedi.

Mulla Fazliddin endi dardini aytishga majbur boʻldi. Bu qiz meʼmorlik sanʼatidan ham xabardor boʻlib, anchagina kitob mutolaa qilgan ekan.

---

<sup>1</sup> Toqi – choʻqqisimon zaifona bosh kiyim.

– Bobur mirzo zafar bilan qaytsalar, Xudo rahmati otamning o‘sha orzularini ro‘yobga chiqarurlar, – dedi. O‘shanda yana o‘zingiz bosh bo‘lursiz, mavlono!

Dunyoda hali hech bir tovush mulla Fazliddinga bunchalik yoqimli tuyilmagan edi. Xonzoda begim har gal uni «mavlono», deb ulug‘lash bilan go‘yo porloq bir istiqbol va‘da qilganday bo‘lardi. Podshoh oilasidan me‘morchilik san‘atini shunchalik biladigan, qadrlaydigan ittifoqdosh topilgani mulla Fazliddinning ko‘nglini ko‘taribgina qolmay, qalbida g‘alati bir zavq va dadillik uyg‘otdi.

U sirpanchiq qoyatoshga ko‘tarilishdan ko‘ra tushish qiyinligini bilar edi. Shuning uchun Xonzoda begimni pastga kuzatib tusha boshladi. Xalq «qilko‘prik» deb nom qo‘ygan tor va xatarli tosh so‘qmoqdan o‘tayotganlarida, Xonzoda begimning oyog‘idagi tagi silliq charmdan tikilgan etigi toyib ketdi. Xonzoda begim muvozanatini yo‘qotib, yonida borayotgan kaniziga qo‘l cho‘zdi. Ammo kaniz ham zo‘rg‘a kelayotgan edi, ikkovi barobar chayqalib ketdi. Kaniz qo‘rqib chinqirib yubordi. Ular pastdagi chaqir toshlarga yiqilib tushadigan bo‘lganda, mulla Fazliddin oldinga sakrab o‘tib, ikkovini ikki qo‘li bilan quchoqlab tutib qoldi. Yoshgina kaniz qo‘rqqanidan mulla Fazliddinning yelkasiga yopishib oldi. Kiyikday chaqqon Xonzoda begim yigitning yelkasidan tutib, o‘zini tez o‘ngladi va unga sekin rahmat aytdi. Shu payt mulla Fazliddin o‘z yuzida Xonzoda begimning iliq nafasini his qildi. Qizning yuzidami, lablaridami, gul atriga o‘xshamaydigan, ammo undan ham yoqimliroq, sirliroq bir hid bor edi. Mulla Fazliddin shu hidni oldi-yu, Xonzoda begimning shoh qizi ekanligini go‘yo unutdi. Qizning salqin, yumshoq qo‘lidan ushlab naryog‘i tekis ketgan so‘qmoqqa chiqqunlaricha qo‘yib yubormadi. Besh-o‘n qadamlik masofada oddiy me‘mor bilan malika orasidagi farq go‘yo yo‘qolib ketdi,

ular bir-birlariga faqat zabardast yigit-u go'zal qiz bo'lib tuyildilar. Lekin undan narida yana kanizlar, jilovdorlar, savdarlar oraga tushib, Xonzoda begimni qurshab olib ketdilar. Mulla Fazliddin g'alati bir tush ko'rib uyg'ongan odamday hayratlanib qolaverdi.

Ertasi kuni Xonzoda begim yordamga yuborgan ikkita norg'ul yigit mulla Fazliddinga kerakli yuklarni pastdan tashib chiqa boshladi. Oradan bir hafta o'tgach, tuyaga ortilgan koshinlar ham yetib keldi. Xonzoda begim yubortirgan har bir narsada mulla Fazliddin uning o'zini ko'rganday bo'lardi. Po'lat sandiqdagi suratni oqshomlari yolg'iz qolganda qo'liga olib uzoq-uzoq tikiladi. Qiz sirg'anib ketgan mana shu tog'ning toshlaridan Xonzoda begimning o'shandagi iliq nafasi va sirli hidi hamon kelib turganga o'xshardi. «Nahotki bu muhabbat bo'lsa? – derdi mulla Fazliddin o'ziga-o'zi. – Yo'q, zinhor! Mendagi tuyg'u – beg'araz ilohiy bir mehrning nishonasi, xolos. Boshqacha bo'lishi mumkin emas!»

Hozir yana Xonzoda begim yaqinlashib kelayotganini ko'rib, sarosimaga tushib qolgan mulla Fazliddin o'zining mana shu e'tiqodida mahkam turishga tirishar va ayollar tomondan nigohini olib qochardi.

### 3

Bobur mirzo otdan tushganda bo'yi o'sib, katta yigitlarga tenglashib qolgani bilindi. Qadam olishi ham xiyla salmoqli. Taxtga o'tirganidan beri o'tgan so'nggi uch yil uni juda tez ulg'aytirgan, ko'z qarashlari ko'pni ko'rgan odamlarnikiday vazmin. Faqat xipcha qomati va hali uncha to'lishmagan yelkalari endi o'n besh yoshga kirganini eslatib turardi.

Ammo toqqa chiqishda Boburning o'smirligi juda ish berdi. U hammadan oldinda toshdan-toshga yengil ko'tarilib borar, goh onasiga, goh opasiga

yuqoridan qo‘l cho‘zib yordamlashib qo‘yardi. Beklar va mulozimlarning ko‘pchiligi pastda qolishdi. Yo‘l tor, hujra kichkina bo‘lganligi uchun hozir birinchi navbatda podshoh oilasi va Boburga eng yaqin kishi bo‘lgan eshik og‘a Qosimbek chiqishmoqda edi. Qavchin urug‘idan chiqqan Qosimbek to‘ladan kelgan barvasta kishi edi, tog‘ning yarmiga chiqquncha nafasi bo‘g‘ilib, qiynalib qoldi. Bobur buni ko‘rib, tekisroq bir tosh ustida to‘xtadi. Qosimbek ham to‘xtab, orqada kelayotgan mulla Fazliddinga yuzlandi:

– Janobi me‘mor, bu toshlardan zinapoya tarashlash xotiralariga kelmabdir-da.

Mulla Fazliddin pastroqda to‘xtab qo‘l qovushtirdi-yu, yengil bir ta‘zim bilan javob berdi:

– Agar zoti oliy amr bersalar, zinapoya tarashlash imkoni bor.

Qosimbek yuqoriga yuz o‘girib, Boburga savol nazari bilan qaradi. Bobur kulimsirab:

– Ajabo! – dedi endi yo‘g‘onlasha boshlagan o‘smir ovozi bilan. – Tog‘ cho‘qqisiga ham zinapoya bilan chiqurlarmi? Soddaroq odam bo‘lgan Qosimbek taklifi o‘rinsiz chiqqanini sezdi-yu, izzat-nafsga bormay, gapni kulgiga burdi:

– Amirzodam, lutf qildilar. Kaminani bu terlab-hansirashlardan zinapoya ham qutqarolmas edi.

Endi Qutlug‘ Nigor xonim ham kuldi:

– Qosimbek janoblari haqdir. Ot-ulov o‘tolmaydigan bu cho‘qqilarga shoh ham piyoda chiqur, malika ham!

– Hatto, xonzodalar ham! – deb Bobur opasiga qarab sho‘x kulimsiradi.

Shunaqa hazil-huzullar bilan hujraga yetib bordilar. Niliy gumbazli jajji bino ko‘klam quyoshida shunday nafis jilolanib ko‘rindiki, Boburning dili birdan ravshan tortib ketdi. Atrofdagi tabiatning go‘zalligi, bahor va tog‘lar ayvonga ishlatilgan naqshlarni, gumbazdagi koshinlar rangini allanechuk juda ochib ko‘rsatar edi.

Qosimbek Boburni, uning onasi va opasini tavoze bilan ichkariga kuzatib qo'ydi-yu, o'zi marmar zinapoya oldida qo'l qovushtirganicha qoldi. U ayollar bor joyga podshohdan ishora bo'lmaguncha kirmas edi. Mulla Fazliddin Qosimbekdan beriroqqa – ayvon tagiga kelib turdi. Hujra eshigi yong'oq yog'ochidan o'ymakor qilib, zar bilan ishlangan edi. Bobur go'zal o'ymakorliklarga, devor va shift bezaklariga bir-bir ko'z tashlab chiqdida, hujraning eshigini ochdi. Onasi bilan opasiga yo'l berib, keyin o'zi ichkariga kirdi.

Hujraning ichi qorong'i bo'lmasa ham qoidaga binolan g'arb tomonidagi mehrobgga sham yoqib qo'yilgan edi. Kunduzgi yorug'lik qarshisida ko'zga zo'rg'a tashlanayotgan sham yog'dusi yon-veridagi gulgun naqshlarga tushib, elas-elas jilvalanardi.

Bu hammasi Boburda g'alati bir zavq uyg'otdi. U sham yonidagi to'q-qizil naqshlarni Xonzoda begimga ko'rsatib:

– Islimi gulxan shumi? – deb so'radi.

Xonzoda begim bir ukasiga, bir naqshga qaradi-yu, sho'x jilmaydi:

– Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, ayturmen.

Bobur ham kulimsirab:

– Kechdim, aytingiz, – dedi.

Xonzoda begim o'ngga qayrilib, eshik tepasidagi qip-qizil naqshlarni ko'rsatdi.

– Islimi gulxan mana bu. Siz naqshi lolani bunga o'xshatmishsiz, amirzodam.

Xonzoda begim ko'rsatgan naqshlar haqiqatan qip-qizil olov tillarini eslatar, uning eshik tepasiga naqshlanishi ham bejiz emas edi. «Keluvchiga ergashgan balo-qazoni olov olib qoladi», degan qadimiy e'tiqod va kelin-kuyovni eshik oldiga yoqilgan olovdan aylantirib olib o'tish odatlari Boburning esiga tushdi. U opasiga tan bergan kabi qarab:

– Siz haqsiz, men sahv qilibmen, – dedi.

Shunda Qutlug‘ Nigor xonim gap qo‘shdi:

– Bobur mirzoning sahlari uzrluk. Chunki bu hujrada naqshi lola ham xuddi gulxandek yonib ko‘rinur!

Onasining lutf qilib aytgan so‘zlari Boburning hujradan olgan zavqini yana bir darajada oshirdi.

Uchovlari ayvonga qaytib chiqar ekanlar, pastda turgan mulla Fazliddin Boburning chehrasi ochilib ketganini ko‘rdi. Bobur zinapoya oldida turgan Qosimbekka qarab:

– Buratog‘ga juda munosib! – deb qo‘ydi.

Buratog‘ni Bobur yoshligidan yaxshi ko‘rar edi. Tekis vodiyning o‘rtasiga tushgan bu baland tog‘ odamlarni hayratlantirish uchun yaratilganga o‘xshardi. Go‘yo u ulkan tog‘ning bir parchasini ilohiy bir kuch shunday ko‘tarib olib kelgan-u tomosha uchun sayhon joyga chiroyli qilib o‘rnatib ketgan. Mana shunday toqqa munosib bo‘lish hujra uchun juda katta sharaf ekanini sezgan Qosimbek bir chetda qo‘l qovushtirib, sukut saqlab turgan me‘morni chaqirdi. Bobur podshoh bo‘lgandan beri o‘z ko‘nglidan chiqarib qurdirgan birinchi imorati juda kichik bo‘lsa ham unga aziz va g‘animat tuyildi. Bu hujra tog‘ qirrasida shunday joziba bilan uzoq vaqt turishini istab, me‘morga savol nazari bilan qaradi:

– Tog‘da qor-yomg‘irlar ko‘p bo‘lur. Hujra uzoq vaqtga bardosh berurmikin?

Ayvonda turgan Qutlug‘ Nigor xonim bilan Xonzoda begim ham me‘morga ko‘z tikishdi. Mulla Fazliddin hayajonlanganidan tizzalari bukilib-bukilib ketmoqda edi. U qo‘lini ta‘zim bilan ko‘ksiga qo‘yib:

– Inshoollo, bardosh berur, – dedi. Qosimbek uning gapini tasdiqlab:



– Ha, qirq-ellik yil yaxshi turur<sup>1</sup>, – deb qo‘ydi.

«Qirq-ellik yil» degan so‘zlar mulla Fazliddinga ozor bergani uning Qosimbekka qisqa bir ko‘z tashlab qo‘yganidan sezildi. Shu payt mulla Fazliddin o‘z yuziga kimningdir mayin nigohi tushganini his qildi. Boshini ko‘tarsa, Xonzoda begim yuziga yopilgan yupqa oq harir parda orqali mulla Fazliddinga qarab turibdi. Mulla Fazliddinning butun vujudi olov seli ichida qolganday bo‘ldi. U hozir siri fosh bo‘lishi mumkinligini sezib, yana ta‘zimga bosh egdi. Shunda Xonzoda begim Boburga izoh berdi:

– Amirzodam, Xudo xohlasa, bu hujra ko‘p avlodlarni ko‘rgay. Qarang, qor-yomg‘ir tegadigan joylari sangkorlik qilingan. Poydevori qoyatoshga mahkam

---

<sup>1</sup> Chindan ham, O‘shdagi bu hujra to‘rt yuz yildan ortiq mustahkam turdi. Tog‘ tepasida oqarib ko‘ringani uchun xalq uni «Oq uy» deb ataydigan bo‘ldi. Asrlar o‘tishi bilan ta‘magir shayxlar bu binoni «Sulaymon payg‘ambar tomonidan qurilgan qadim joy» deb e‘lon qildilar, tarixdan bexabar odamlarni bunga ishontirib, nazr-niyoz undirish vositasiga aylantirdilar. Yigirmanchi asrning o‘rtalarida akademik Ibrohim Mo‘minov Qirg‘iziston olimlari bilan hamkorlikda tarixiy haqiqatni tiklab, bu hujrani Bobur mirzo qurdirganini ilmiy jihatdan asoslab berdilar. Oq uyning peshtoqiga buni bildiradigan marmar yodgorlik o‘rnatildi. Ammo Bobur nomining bunday ulug‘lanishi mustabid sho‘ro mafkurachilarining qahrini keltirdi. Ular hujraning ziyoratgoh bo‘lganini bahona qilishib, dinga qarshi kurash shiori ostida 1963-yilda Oq uyni askariy qismlar yordamida portlatib buzib tashladilar. Lekin hujraning mustahkam qoyatoshga o‘rnatilgan poydevori butun qolgan edi. Uning tasviri tushirilgan suratlar bor edi. Adolatparvar odamlarimiz orasida Bobur mirzo qurdirgan bu ajoyib obidani qayta tiklash niyati yillar o‘tgan sari kuchayib bordi. Saksoninchi yillarning oxirida milliy uyg‘onish shabadalari esa boshlagan davrda O‘sh shahrining o‘zbek, qirg‘iz va boshqa millatlarga mansub vakillari Oq uyni qayta tiklash uchun maxsus jamg‘arma tashkil qildilar. Bu jamg‘armaga Bobur mirzoning barcha muxlisleri tomonidan to‘plangan mablag‘lar hisobiga Oq uy tarixiy asliga mos go‘zal shaklda qayta tiklandi. (Muallif)

oʻrnatilgan. Mulla Fazliddinning mahoratlari baland – Hirot bilan Samarqand meʼmorlaridan taʼlim olmishlar. Mulla Fazliddin Xonzoda begimning maqtovini ishga oid oddiy gaplardek qabul qilmasa, koʻnglidagi nozik hislarni sezdirib qoʻysa, oʻn jonidan biri ham omon qolmasligini sezdi. Axir joʻn bir meʼmorning shoh qiziga muhabbati podshoh oilasiga ham, uning beklariga ham haqoratday tuyilishi mumkin!

Xayriyatki, hukmdorlar oldida hayajonga tushish va taʼzim qilish odat tusiga kirib qolgan.

Mulla Fazliddin Xonzoda begimning iliq soʻzlariga javoban yana bir taʼzim qildi-da, yerga qarab, xuddi qilichning tigʻi ustidan yurib borayotganday ehtiyot boʻlib gapira boshladi:

– Hazrati oliyga arzim shulki, Samarqandda Ulugʻbek madrasasining devorlari uchun qanday ganch-u gil-moya, gʻisht-u koshin ishlatilgan boʻlsa, bu hujraning devorlariga ham faqir shularni ishlatmishmen. Xudodan umidim bor. Bobur mirzoning muborak nomlariga mansub bu hujra asrlar davomida mustahkam turur.

Bobur bu soʻzlardan taʼsirlanib:

– Aytganingiz kelsin, – dedi. – Hujra biz istaganimizdan ham yaxshi!

Qosimbek «qirq-ellik yil turar», deb hujraning umrini qisqa qilib qoʻyganidan endi xijolat boʻldi. Hujradan narida xarsangtosh ortida buyruq kutib turgan savdarboshiga bir qarab oldi-da, keyin meʼmorga oʻgirildi:

– Ofarin sizga, mulla Fazliddin!

Bobur Qosimbekning gapini toʻgʻrilab:

– Mavlono Fazliddin! – dedi.

Shu bilan meʼmorga moʻtabar mavlonolik unvoni berilganday boʻldi. Qosimbek podshoh oldida bir necha marta ustma-ust sahv qilganini bir harakat bilan toʻgʻrilagisi keldi-yu, savdarboshiga buyurdi:

– Mavlonoga to‘n keltirilsin!

Savdarboshi sarosima bo‘lib pastga qaradi. Mukofot uchun olib yuriladigan to‘nlar tog‘ etagidagi chodirlarda qolgan edi. Qosimbek buni sezdi-yu, o‘zining egnidagi yangi kimxob to‘nni yechmoqchi bo‘lib:

– Mirzo hazratlari, ijozat bering! – dedi. Bobur uning jo‘mardligiga tan bergandek, jilmayib bosh irg‘adi.

Qosimbek zar yoqali kimxob to‘nini yechib, mulla Fazliddinning yelkasiga tashladi.

– Mavlonoga bizdan bitta ot anjomi bilan in‘om qilinsin, – qo‘shimcha qildi Bobur.

Mulla Fazliddin ta‘zimga egilib minnatdorchilik bildirar ekan, bir necha kishining:

– Muborak! Muborak! – degan so‘zlarini eshitdi.

Bu so‘zlarning orasida eng yoqimlisi – Xonzoda begimning muborakbodi bo‘ldi. Mavlonoga Fazliddin unga ikkinchi marta qarashga jur‘at etolmay yerga ko‘z tikib turgan bo‘lsa ham, shu daqiqalarda o‘zini baxtiyor sezar edi.

#### 4

Kechki payt hujrada Boburning yolg‘iz o‘zi qoldi. Qosimbek kerakli odamlarga: «Hujra mirzo hazratlarining xilvatgohlari bo‘ldi, kechasi ham o‘sha joyda tunamoqlari mumkin», deb bildirib qo‘ydi. Qo‘rchilar Boburning ko‘ziga tashlanmaslikka tirishib, hujraning orqa tomonida qo‘riqchilik qila boshladilar.

Doimo ko‘pchilikning diqqat markazida bo‘lish va podshohning har bir gapi, har bir harakati kimningdir taqdiriga ta‘sir qilishini unutmay hamisha ziyrak va ehtiyotkor turish Boburni juda siqiltirar edi. Yosh tanasi erkin bo‘lishni, oddiy tengdoshlari kabi ochiq-sochiq yayrab yurishni qo‘msar edi. Hozir u hujra ichkarisiga to‘shalgan beqasam ko‘rpachalar ustida boshiga yostiq qo‘ymasdan birpas chalqancha yotdi.

Keyin agʻanab yuztuban boʻldi-da, engagini kaftiga tirab, devordagi naqshlarga tikildi. Kuni boʻyi otda yurib toliqqan boʻlsa ham dam olib yotgisi kelmas edi. Oʻrnidan sakrab turib bir-ikki marta qulochini yozib kerishdi, esnadi. Soʻng ayvonga chiqdi-da, yana atrofni tomosha qila boshladi.

Toʻrt tomon bahor nafosatiga toʻla. Havo musaffo boʻlgani uchun pastda yoqilayotgan olovning tutuni ham odatdagidan tiniqroq koʻrinadi. Oxiri qorli togʻlar bilan tutashib ketgan vodiyning koʻz ilgʻagan hamma joyi koʻkalamzor. Bir yogʻida Oʻzgan, bir yogʻida Margʻilon, uzoqlarda Isfara, Xoʻjand, Koson va Axxi – bu oʻrchinlarning<sup>1</sup> hammasida bogʻ-rogʻlar chaman boʻlib gullaganini Bobur goʻyo xayol koʻzi bilan koʻrib turibdi. Ulugʻvor togʻlar afsonaviy Qalʼa devorlaridek atrofni oʻrab turgan bu goʻzal vodiylar hozir avvalgidan xiyla osuda. Urush tugaganiga ikki yildan oshdi.

Bunday tinch, masʼud damlarda uni qogʻoz-qalam oʻziga tortardi. Savdarlar hujraga olti oyoqlik miz<sup>2</sup> keltirib qoʻyishgan. Bobur miz yoniga oʻtirib «Vaqoye» deb atagan xotira daftarini ochdi. Soʻnggi yozuvlari – oʻzi yaqinda koʻrgan Konibodom va Isfara haqida edi. Endi bu yozuvlarini davom ettirib, Oʻsh toʻgʻrisida bita boshladi: «Oʻsh qasobasi Andijondan toʻrt yigʻoch yoʻldir... Boratogʻning tumshugʻida tarix toʻqqiz yuz ikkida<sup>3</sup> men bir ayvonlik hujra soldim. Bu hujra bisyor yaxshi voqeʻ boʻlibdur. Tamom shahar va mahalla oyogʻ ostidadur...»

Bobur Oʻshning binafshasi, lolalari, oqar suvlari, oq mavjli qizil toshlari haqida ham berilib yozayotgan edi, birdan Qosimbek eshik ogʻzida paydo boʻldi:

– Amirzodam, xayolingizni boʻlsam, maʼzur tuting. Buxorodan – Sulton Ali mirzodan maktub kelmishdir!

---

<sup>1</sup> Oʻrchin – hozirgi tuman tushunchasiga toʻgʻri keladi.

<sup>2</sup> Miz – olti oyoqlik stolcha.

<sup>3</sup> Milodiy 1497-yil

Boburdan ishora bo'lgach, Qosimbek ichkariga kirib, o'ram qilingan oltin bog'ichli maktubni Boburga uzatdi. Bobur maktubni ochib o'qidi-yu:

– Sulton Ali mirzo bizni Samarqand yurishiga chorlabdir, – dedi.

– Bitim tuzgan edingiz-da, amirzodam. Safarga chiqmoq kerak.

– Oshiqmang, bek. Avval onam hazratlarining rizoligini olaylik.

Bobur har muhim ishda onasidan maslahat so'rashi Qosimbekka uncha yoqmas edi. Chunki ayollar jang-u jadaldan juda bezgan edilar. Jangovar beklar esa urushsiz yursa qilichlari zanglab qoladigandek betoqat bo'lishadi.

Qosimbek Qutlug' Nigor xonimning chodiriga Bobur bilan birga tushib bordi.

Xonzoda begim ham onasining huzurida o'tirgan ekan. Ular Bobur uchun dasturxon yozdirib, chinni laganda kabob keltirdilar. Kabobdan so'ng qimiz ichildi. Qosimbek mo'yloviga tekkan qimiz yuqini kafti bilan artib, so'z boshladi:

– Amirzodam Sulton Ali mirzo bilan ittifoq tuzganlar. Bu yerdan cherik tortib bormoqqa so'z berganmiz.

– Tangrim bizni farahli kunlarga yetkazdi, – dedi Qutlug' Nigor xonim. – Endi shuni g'animat bilaylik, janob Qosimbek, Sulton Ali mirzo o'z og'asi Boysunqur mirzo bilan Samarqand taxtini talashurlar. Bobur mirzo ulardan baland turmoqlari kerak. Tangriga shukr, amirzodamning Andijonda o'z taxtlari bor.

Qosimbek bu so'zlarga tezda javob topolmay taraddudlanib qoldi. Shunda Xonzoda begim gapga aralashdi:

– Amirzodam, Samarqand yurishining sarf-u xarojatiga Andijonda saroylar, madrasalar qursangiz bo'lur. Andijon ham Samarqanddek sayqali ro'yi zamin bo'lsa nomingiz Ulug'bek mirzoning nomidek shuhrat qozonsa – biz mushtiparlaringizning orzuyimiz shu!

Bobur hazilomuz kulimsiradi:

– Men avval Samarqand sayqalini bir ko‘rmoqchimen. Ibrat olsak, undan so‘ng olurmiz.

Qosimbek Boburning so‘zlarini yoqtirib:

– Lutf qildingiz, amirzodam! – deb qo‘ydi.

– Lekin amirzodam Samarqandni yoshliklarida ko‘rganlar, – deb e‘tiroz qildi Qutlug‘ Nigor xonim.

– Besh yoshimda ko‘rganim yodimda uncha qolmabdir.

Xonzoda begim kuldi:

– Bultur Samarqand azimati bilan ketib bizni ko‘p sog‘intirgan edingiz-ku!

Bobur bulturgi muvaffaqiyatsiz yurishini eslab, jiddiylashdi:

– Rost, bultur to‘rt oy Samarqand atrofini kezdik. Ammo shahar darbozalari biz uchun biron marta ochilmadi. Biz bobokalonimizning poytaxtini ko‘rishga munosib emas emishmiz!

Bobur bu so‘zlarni shunday kuyunib, alami kelganini yashirolmay lablari titrab aytdiki, uning hali ham juda yosh ekanligi birdan bilinib qoldi. Holbuki, u Samarqandga qo‘shin tortib borgan, agar shaharga kirsa, taxtga o‘tirishi kerak edi. To‘g‘ri, Boysunqur mirzo ham Temuriylar avlodidan bo‘lib, yana tag‘in Boburdan besh yosh katta edi, demak, taxtda o‘tirishi qonuniy edi. Biroq Andijon beklari Boysunqur mirzodan yuz xil kamchilik topib, uni hamisha yomonlab gapirishar va Samarqand taxtiga faqat Boburni munosib ko‘rishar edi.

Boysunqur mirzo buni bilganligi uchun Boburni Samarqandga yo‘latmas edi. Mabodo, Bobur shaharga qo‘shinsiz, shunchaki poytaxtni ko‘rish uchun kiradigan bo‘lsa, Boysunqur mirzo uni tuttirib, yo‘q qilib yuborishi mumkin edi. Chunki oradagi taxt talashi va beklarning adovati ularni bir-birlariga dushman qilib qo‘ygan edi.

Qutlug' Nigor xonim endi o'n besh yoshga kirgan o'g'lining bu talashlar va adovatlarga aralashmasdan, o'z mulkida osoyishta hukm surishini istardi. U Boburning alamdan o'zgarib ketgan yuziga onalarcha qayishib qaradi-yu, unga joni dilini bergisi kelib gapirdi:

– Boburjon, so'zimga ishoning, bu besh kunlik dunyo sizning kuyunishingizga arzimaydir!

Onasi o'g'lini podshoh bo'lmasidan oldingi nomi bilan atab, mehri tovlanib gapirgani Boburga juda yoqimli tuyildi. Bir lahza u o'zini mehribon bir onaning beg'am, betashvish o'g'lidek sezdi-yu, yelkasidagi katta yuk yerga tushgandek yengil tortdi.

– Vaqti-soati kelur. Samarqand orzusiga ham yetishursiz, – deb davom etdi Qutlug' Nigor xonim. – Biroq hozir raiyat osoyishta umr ko'rishga mushtoq. Qanotingiz ostida Qosimbekdek tadbirkor amir-u umarongiz bor. Mana shu O'shdagi hujrani qurgan me'mordek hunarpehalar sizning xizmatangizda. Endi onangiz sizdan iltimos qilur: Samarqand muhoribasini besh-olti yilga kechiktirsangiz. Barchamizga bosh bo'lib, vodiyni obod qilsangiz, Andijonda, Marg'ilonda, O'shda katta obidalar qursangiz!

Qutlug' Nigor xonim podshoh o'g'liga ko'pdan beri bunchalik jiddiy, bunchalik qat'iy iltimos bilan murojat qilmagan edi. Qosimbek yerga qarab, sukutga ketdi. Bobur ham bir lahza dasturxon chetida oltin jomda qizg'ish ko'rinayotgan qimizga ko'z tikib jim qoldi. Umumiy sukunatda Xonzoda begimning nafis, tiniq ovozi eshitildi:

– Amirzodam, siz Navoiyning dostonlarini yod bilursiz. Farhod qanday ajib binolar qurganini bir eslang. Men bir mungliq egachingiz doim orzu qilurmen: siz ham Farhoddek bunyodkor bo'lingiz! Dunyoda bundan ulug', bundan savobli ish yo'q!

Bobur O'shda o'zi qurdirgan kichik bir hujradan bugun qanchalik zavq olganini esladi-yu, onasi bilan opasining tilaklarini qo'llab-quvvatlagisi keldi. Ammo u bunday muhim davlat ishlarini bir o'zi hal qilolmasligini ham bilar edi. Bobur Qosimbekka ko'mak so'ragan kabi qarab:

– Chorasi topilurmikin? – dedi.

Gap Samarqand yurishini qoldirish haqida ekanini Qosimbek sezdi. Asli harbiy odam bo'lgan va juda ko'p jang-u jadallarda qatnashgan Qosimbek Bobur istagan chora topilmasligini ich-ichidan sezib turardi. Chunki Samarqand yurishi hamma nufuzli beklarning mashvaratida ma'qullangan, tayyorgarlik ishlari allaqachon boshlab yuborilgan. Katta bir to'siqdan o'tish uchun butun kuchi bilan sakrayotgan otni birdan to'xtatib bo'lmaydi, mabodo zo'r bilan to'xtatilganda ham ot yiqilishi, chavandozini yerga uloqtirishi mumkin. Qosimbek buni ochiq aytishga jur'at etolmadi-yu, qo'lini ko'ksiga qo'yib:

– Amirzodam, qulingiz chora topishdan ojizmen, – dedi.

Bu javob Boburga og'ir botdi.

– Onamning iltimoslarini rad etaylikmi?

Bobur bu so'zlarni shunday zarda qilib aytdiki, Qosimbek uning hozir onasi va opasi aytgan ishlarni qilgisi kelib turganini aniq sezdi. So'ng u Boburning kechagina Samarqand yurishiga tarafdor bo'lib, janglarda qatnashish ishtiyoqida yonib aytgan so'zlarini esladi-yu, ichida g'ijinib qo'ydi. Boburdagi bu o'zgaruvchanlikni Qosimbek yoshlik g'o'rligidan ko'rar, xususan, bunday murakkab davlat ishlarida ayollarning gapiga kirishni katta bir zaiflik belgisi deb bilardi. Ammo Qosimbek Qutlug' Nigor xonim bilan ham hisoblashishga majbur, chunki yosh podshohga onasining ta'siri kuchli ekanini o'z ko'zi bilan ko'rmoqda edi.



– Xonim hazratlarining iltimoslari menga toji sar boʻlsin, – dedi Qosimbek choʻkkalab oʻtirgan koʻyicha bosh egib. – Qulingiz aytmoqchimenkim, bunday muhim ishda barcha nufuzli beklarning rizoligini olmasak boʻlmas.

Podshoh oilasi Qosimbekka alohida ehtirom bildirganda uning nomiga «amirlar amiri» degan unvonni qoʻshib aytar edi. Hozir ham Qutlugʻ Nigor xonim:

– Janobi amirul umaro, – dedi unga. – Siz boshqa beklarning rizoligini olishda Bobur mirzoga koʻmak berurmisiz?

– Jonim bilan! Ammo beklarning baʼzi andeshalaridan faqir xabardormen. Gustohlik sanalmasa aytay.

– Ayingiz, – dedi Bobur.

Qosimbek yerga qarab, bir lahza oʻy surdi, hali oq tushmagan gʻayir qoʻngʻirtob soqolining uchlari sakarlot chakmonining<sup>1</sup> zarrin yoqasiga tegib, qayrildi. Nihoyat, Qosimbek boshini koʻtarib, Boburga qaradi-yu, Samarqanddagi ulugʻ obidalar ulkan bir davlatning kuchi va butun viloyatlarning ishtiroki bilan qurilganini, hozir oʻsha yagona davlat parchalanib ketganini, Fargʻona katta vodiy boʻlsa ham, ammo Movarounnahrning faqat bir qismi ekanini gapira boshladi. Uning nima demoqchiligini sezgan Xonzoda begim istehzoli jilmayib soʻradi:

– Janobi amirul umaro, Andijonda obidalar qurishga kuchimiz yetmaydi, demoqchimisiz?

– Oliy nasab begim, siz Samarqanddek ulugʻ shahar qurish haqida soʻz ochdingiz. Beklar ayturlarki, ulugʻ shahar bunyod etmoq uchun yana oʻsha ulugʻ davlatni tiklamoq kerak. Butun viloyatlarning kuchini bir joyga yigʻmoq kerak. Hozirgi parokandalik ulugʻ qurilishlar qilishga imkon bermagay. Qosimbekning bu gaplari

---

<sup>1</sup> Sakarlot chakmon – tuya junidan qilingan yengil, qimmatbaho chakmon.

Boburga juda mantiqli tuyildi. U onasiga qarab bundan ham mantiqliroq bir soʻz kutdi.

– Janob Qosimbek, ulugʻ obidalarni faqat Amir Temurdek sohibqironlargina qurgan emas, – dedi Qutlugʻ Nigor xonim. – Hirotda Alisherbek Ixlosiya, Unsiya otliq binolar qurmishlar, Bobur mirzoning hokimiyatlari Alisherbekning hokimiyatlaricha emasmi? Axir Alisherbek bir tojdorning musohibi<sup>1</sup> boʻlsalar, Bobur mirzo mustaqil davlatning podshosilar-ku!

Qutlugʻ Nigor xonimning bu soʻzlari Boburning qalbida choʻkib yotgan eng oʻtli istaklarini yuzaga qalqitib chiqarganday boʻldi. Uning yoshlik ehtirosi bilan qalbiga tugib yurgan eng kuchli orzusi – janglarda katta gʻalabalarga erishib yoki ajoyib sheʼrlar, dostonlar yozib el ogʻziga tushish, soʻng Navoiydek ulugʻ odamlarga tanilish va ularning maxsus eʼtiborlariga sazovor boʻlish edi. Yetti oy ovara boʻlib Samarqandni ololmay kelganidan keyin, janglarda katta gʻalabalarga erishish hali ushalmaydigan bir orzu ekaniga uning koʻzi yetib qoldi. Ulugʻ shoir boʻlish orzusi ham qoʻl yetmas bir balandlikda uchib yurgan baxt qushiga oʻxshaydi. Bobur uni tutishga hali kuchi yetmasligini sezadi. Ammo hozir onasi Navoiy qurgan imoratlarni tilga olishi bilan Boburni oʻsha oʻtli orzusiga yetkazadigan boshqa bir yoʻl «yalt» etib koʻziga koʻrinib ketdi. Navoiy qurgan Ixlosiya va Unsiyalarning shuhrati ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, Fargʻona vodiysiga yetib kelgan ekan, endi bu yerda oʻn besh yoshlik podshoh oʻshanaqa obidalar qurdirsa, ovozasi Hirotga ham yetib bormasmikin? Keyin, ehtimol, Navoiy ham buni eshitar, Boburning kimligini soʻrab bilar, uni orqavoratdan tanib qolar. Keyin, balki Bobur Hirotga borar yoki Navoiyning oʻzi bu tomonlarga kelishni ixtiyor qilar. Navoiy Husayn Boyqaroning saroyidan bezib yurganini Bobur ham eshitgan edi. Balki ulugʻ

---

<sup>1</sup> Musohibi – yaqin suhbatdoshi, doʻsti.

shoir Xurosondan Farg'ona vodiysiga kelib, yosh Boburga murabbiy bo'lar. O'yi shu yerga yetganda, Bobur juda hayajonlanib ketdi.

Ko'zlari yonib, Qosimbekka qaradi-yu:

– Onam haqlar, – dedi. – Beklarni ko'ndirmoq kerak!

Boburning so'nggi so'zi farmondek eshitildi-yu, Qutlug' Nigor xonim bilan Xonzoda begimning chehralari ochilib ketdi. Ular: «Qosimbek endi yengildi», deb o'yladilar. Ammo ulkan gavdali Qosimbek o'zining keng yelkaları ortida zo'r beklar turganini his qilganday hamon taslim bo'lmas edi.

– Amirzodam, farmoyishingizni ado etishdan oldin beklarning yana bir andishasini aytishga ruxsat eting.

Bobur istar-istamas bosh irg'ab, ruxsat bergan bo'ldi. Qosimbek lablarini yopib turgan uzun qo'ng'ir mo'ylovini qo'li bilan ikki yonga surdi-da, kulimsirab, Xonzoda begimga qaradi:

– Begim, siz amirzodamni Farhodga yaxshi qiyos qildingiz. Beklarimiz zamon Farhodning xizmatida bo'lishdan iftixor qilurlar. Bizning orzuyimiz – Farhodimizni o'z Shirinlariga yetkazishdir. Ammo, – deb Qosimbek birdan jiddiylashdi, – ma'lumingizkim, bizning Shirin bugun Samarqandda yog'iy qurshovida asira kabi iztirob chekmoqdalar.

Boburning yuziga nafis qizillik yugurdi. U uyalgani-ni sezdirgisi kelmay, boshini egdi-yu, o'z tizzalariga ko'z tikdi.

Qosimbek juda mushkul va nozik bir gapni qo'z-g'agan edi. Bobur besh yoshligida unga Samarqand podshosi Sulton Ahmad mirzoning o'rtancha qizi Oyisha begimni unashtirib qo'yishgan edi. Hozir shu qiz o'n uch yoshga kirgan. Bobur uni yaqin yillarda ko'rgan emas, ammo ko'rganlar hammasi Oyisha begimning g'unchadek go'zalligini maqtab kelganini eshitgan. O'sha go'zal qizcha Boburni o'z najotkorini

kutganday kutadi, buni ham Boburga kelib aytuvchilar bor. Bobur ham o'zining malikasiga qahramonliklar ko'rsatib yetishishni istaydi. U Oyisha begimning o'zini eslolmasa ham, besh yoshida Sulton Ahmad mirzoga uzatilgan termizlik go'zal bir kelinchakni yaqindan ko'rgani yodida.

«Bet ochar» degan odatga binoan, yosh kelinchakning yuzidagi pardasini pok nafasli yosh bola ochishi kerak edi. O'sha kunlarda Qutlug' Nigor xonim besh yoshli jajji o'g'li Boburni Samarqandga to'yga olib borgan edi. Sulton Ahmad mirzoning o'g'li yo'q edi, Boburga podshoh oilasi havas bilan qarar edi. Shuning uchun kayvonilar «yangi tushgan kelin ham mana shu sherdek o'g'il ko'rsinlar», deyishib, bet ochishga Boburni munosib topdilar. Bu hodisaning ko'p tafsilotlari Boburning xotirasida qolmagan. Ammo oltin qo'shib to'qilgan harir oq pardani kelinchakning yuzidan olganda butun borlig'ini nihoyatda yoqimli bir tuyg'u chulg'ab olgani hech esidan chiqmaydi. Bu – go'zallik tuyg'usi ekanini u endi biladi. Termizlik kelinchak aqlni shoshiradigan darajada ko'hli bo'lganiga besh yashar bolaning fahmi yetmagan bo'lsa ham, ammo go'dak qalbi afsonaviy bir jozibadan to'lqinlangani yodida qolgan. Shuning uchun hozir unga Samarqanddagi qallig'ining husnini maqtaganlarida, o'sha kelinchak esiga tushadi. Boshqa tafsilotlar o'qigan kitoblaridagi go'zallar tasviridan olib qo'shiladi. Bobur Samarqanddagi qallig'ini o's-mirlarcha bir sofflik bilan g'oyibona sevadi. Mana shu sevgilisi bugun Boburning dushmanlari asoratida ekan, u Andijonda bamaylixotir yura oladimi?

– Janob Qosimbek, – dedi Qutlug' Nigor xonim, – kelinimizning taqdiri bizni ham iztirobga solur. Biz onalaridan iltimos qilib kitobat yuborgan edikki, Oyisha begimni Toshkentga egachilari Robiya begim

huzuriga jo'natsinlar. Ehtimol, shu iltimosimiz bajo keltirilgandir?

Qosimbek ma'yus bosh egib:

– Afsus, xonim hazratlari, afsus! – dedi. – Qulingiz Samarqanddagi xufiyalardan kelgan bir xabarni amirzodamga ko'rsatishdan tortingan edim. Sizlarni ham xavotirlantirmoqchi emas edim...

– Nima xabar? Tinchlikmi? – xavotirlanib so'radi Boburning onasi.

– Oyisha begim onalari-yu opalari bilan birga Toshkentga yashirincha ketmoqchi bo'lganlarida, Boysunqur mirzo bilib qolib, monelik qilmishlar. Yog'iylik maqomida qo'pol gaplar aytmishdir. Uylari atrofiga odam qo'ymishlar. Hovlilaridan chiqarmas emishlar. Asiralalar endi butun najotni Andijondan kutar emishlar!

So'nggi so'zlar Boburning butun vujudini zirqiratib o'tdi. Uning qallig'iga qo'pol gapirib, bechorani asiradek azoblayotgan Boysunqur mirzo shunday g'azabini keltirdiki, ertagayoq uning ustiga qo'shin tortib, bostirib borish va qallig'ini asoratdan qutqarish istagi Boburning qalbidagi boshqa hamma istaklarini bosib keta boshladi.

Xonzoda begim ukasidagi o'zgarishni sezib:

– Amirzodam, iloho asiralarni qutqarish sizga tezroq nasib bo'lsin! – dedi. – Ammo najotni faqat jang-u jadal keltirurmikin? Zaifa egachingizning e'tiqodi shulki, qon to'kilsa, adovat kuchayur. Boysunqur mirzo asiralarga battar o'chakishur. Najot urushda emas, amirzodam, najot – sulhda!

Begim hayajonlanib aytgan bu so'zlar Boburning ko'nglida qo'zg'agan boyagi g'azabni ancha pasaytirdi. «Sulh» so'zi qalbiga iliq tuyildi.

Xonim darhol qizining gapini quvvatlab, o'g'liga yuzlandi:

– Boysunqur mirzoga elchi yuboringiz, amirzodam!  
Oradagi adovatni yo‘qotingiz!

– Boysunqur mirzo zo‘ravonlik qilsin! Men mo‘minlarcha bosh egib elchi yuboray!

Bobur bu gaplarni aytar ekan, uning zo‘rlikka zo‘rlik, zarbga zarb bilan javob berish istagi naqadar kuchli ekanligi hammaga sezildi. Qosimbek undagi bu istakni qo‘llab-quvvatlashga tushdi:

– Xonim hazratlari, hozirgi zamonda zo‘ravonlikka mo‘minlik mutlaqo rost kelmas. Zo‘rlar orasida zo‘r bo‘lmoq kerak! Alhol, Shayboniyxon Samarqandga shimoldan ko‘z tikmishdir. Hisor hukmdori Xisravshoh iloj topsa, Samarqandga janubdan chang solg‘usidir. Boysunqur mirzo – noshud tojdor. Poytaxtni ertami-kechmi boy bergay. Agar Bobur mirzo Samarqandni tezroq egallasalar, bobolaridan qolgan saltanat begona sulola ilkiga o‘tib ketgusidir. Xudo ko‘rsatmasin, agar Shayboniyxonmi, Xisravshohmi – birontasi Samarqandni zabt etsa, kuch-qudrati oshib, tez kunda Andijon ustiga ham qo‘shin tortib kelgusidir...

– Axir barcha Temuriylar birlashib ittifoq tuzsalar bo‘lmasmi? – dedi Nigor xonim kuyunib.

– Barcha Temuriylarning parokanda kuchlarini yig‘ib birlashtirmoq uchun ham qudrat kerak. Iste‘dod kerak! Boysunqur mirzoga o‘xshaganlarda na unisi bor, na bunisi. Movarounnahrdagi Temuriylar orasida eng sohibiste‘dod, sohibqudrat siymo – Bobur mirzodirlar. Shuning uchun biz jonimizni amirzodam ko‘zlagan ulug‘ maqsadlar yo‘liga tikkanmiz. Inshoollo, Samarqandni bu yil zabt etsak, xavf-xatarlar bartaraf bo‘lg‘ay. Ana undan keyin chinakam osuda davr kelur, har qancha binolar qursak oson bo‘lur.

Xonzoda begim Qosimbekka tikilib so‘radi:

– Xullas, volidayi muhtaramamizning iltimoslari rad etilurmi?

Qosimbek qo'lini ko'ksiga qo'yib, bosh egdi:

– Qulingizning gustohligini afv eting, begim, men amirzodamning ijozatlari bilan dilimda borini so'zladim. Bobur arosatda qolib qiynalar edi. Onasi shunchalik ishontirib aytgan haqli iltimoslarni rad etishga uning tili ham bormas, ko'ngli ham chopmas edi. Ammo Qosimbek uning qalbida shunday tug'yonli hislar qo'zg'adiki, ulardan qutulishning ham iloji ko'rinmay qoldi. Agar u Samarqanddan voz kechsa, narigi zo'ravonlar poytaxtni olishi, keyin Andijonga bostirib kelishi muqarrar ekani, unga hozir juda aniq sezilmoqda edi. Butun Movarounnahrda urush girdobidan qochib qutuladigan biron viloyat ko'ziga ko'rinmas. Bobur qashqirlar qurshoviga tushib qolgandek bezovtalanar edi. Onasining: «Sulh tuzing, binokor bo'ling!» – degani «kiyikday beozor yashang» degani edi. Lekin Bobur yirtqichlar orasida kiyik bo'lib kun ko'rolmasligini ich-ichidan his qilar, shuning uchun atrofni qurshab kelayotgan bo'rilar bilan sher bo'lib olishishni istar edi. Buni sezib turgan Qosimbek munozarani ortiq cho'zib o'tirgisi kelmadi.

– Amirzodam, bugun otliq sayrga chiqmoqchi edingiz, xonim hazratlarining takliflarini barcha beklar bilan kengashib ko'rurimiz. Oqshom xirgohda mashvarat o'tkazaylik.

Xonzoda begim onasiga «yalt» etib qaradi-yu: «Hozir birgina Qosimbekka o'tkaza olmagan takliflarimizni keyin barcha beklarga qandoq o'tkazurimiz?» demoqchi bo'ldi. Qutlug' Nigor xonim Boburga yana nimalarnidir aytmoqchi bo'lib og'iz juftladi. Ammo Bobur Qosimbekka qarab:

– Mashvarat ertaga chaqirilsin, yaxshiroq o'ylab ko'raylik, – dedi-da, o'rnidan turdi. So'ng Qosimbek boshliq mulozimlari bilan otliq sayrga chiqib ketdi.

O'shning janubidagi keng tekisliklar, to'fqinsimon qir va adirlar turli-tuman dala gullari bilan bezangan. Sap-sariq qoqilar, ko'k-qizg'ish naxo'taklar, nopor-mon er-baholar orasida uzoqdan qip-qizil gilamga o'xshab ko'zga tashlanadigan – qiyg'os ochilgan lolaqizg'aldoqlar edi.

Bobur olisdagi qorli tog'larga qarab borar ekan, tizzaga chiqadigan yumshoq ko'kat ustida otlar ham mayin qadam tashlab borayotganini sezardi. Bahor nafasati hozir uning ko'zini erkalayotgan bo'lsa ham, ammo diliga ta'sir qilolmas edi. Boyagi mushkul ziddiyatlar hali ham xayolini band qilib, ko'nglida tugun bo'lib turibdi. Bobur bu chigal tugunlarni o'zi yecholmasligini sezadi. Bu tugunlarni u istaganday yechib bera oladigan dono odam bormikin?

Uning esiga ustози Xo'ja Abdulla tushdi. Betob bo'lib O'shga birga kelolmagan Xo'ja Abdulla ham Boburning Samarqandga qo'shin tortib borishiga tarafdor edi. «Movarounnahrdagi parokandalikni tugatib, qudratli davlat tuzmaguncha katta orzularimiz ro'yobga chiqmagay!» – degan so'zlarni Bobur ustozidan ham ko'p eshitgan. Ammo buning uchun yana urushish kerak. Urushga esa onasi qarshi. Kim haq? Bobur bu savolga javob topolmaydi.

Otliqlar uzun bir tepalikka ko'tarilganlarida Qosimbek tog' tomonni ko'rsatib:

– Suruvlar bu qadar ko'p? – deb taajjublandi.

Bobur u ko'rsatgan tomonga ko'z yugurtirdi. Qir va adirlarning har biridan bir nechtadan suruvlar yopirilib tushib kelmoqda edi. Xo'ja Kalon degan yigirma besh yoshli qop-qora bek qo'lini peshonasiga soyabon qilib kunbotish tomonga qaradi-yu:

– O'-ho'-o! – dedi. – Bu tomonda undan ham ko'p!

– Kunchiqish tomonda ham bor!



Suruvlar g'uj-g'uj kelayotganiga qaraganda, yoyilib yurgan qo'ylar emas. Ana, to'g'ridagi qirlar ortidan yana ikki suruv chiqib keldi. So'ng uzoqdagi adirlar orasidan birin-ketin uch tavila yilqi otilib chiqdi-yu, berigi tomonga qarab selday bostirib kela boshladi. Chap tomonda yana uch-to'rt tavila yilqi ko'rindi.

Yilqilar ham, qo'y suruvlari ham uzoqdagi qorli tog'lardan O'shga qarab kelmoqda edilar. Nihoyat, tog' tomondan tizilib tushib kelayotgan otliq askarlar ko'rindi. Shunda Bobur tog'larga qo'y va yilqi undirish uchun uch yuz askar bilan chopqinga ketgan Ahmad Tanbalni esladi. Qosimbek quvonib:

– Azamatlarning o'ljasi juda ulug'-ku! – dedi.

Xo'ja Kalon ham hayajonlanib:

– Beadad! – deb xitob qildi. – Bahodirona o'lja!

Odatga binoan, bu behisob qo'y va yilqilarning beshdan biri podshoh ixtiyoriga o'tar, qolgan to'rt qismi hamma bek va mulozimlarga taqsimlanar edi. Shuni bilgan beklar go'yo osmondan tushayotgan bu katta boylikka qarab sevinchlarini yashirolmas edilar.

Bobur otini tog'dan kelayotgan askarlar tomonga burib, jilovini bo'shatdi. Bedov ot qushday uchib bora boshladi. Boshqalar ham Boburning ketidan ot choptirib ketdilar. Bir qir o'tib, ikkinchisiga ko'tarilganlarida, narigilar ham bularni ko'rib, burilib kela boshladilar. Bobur baland bir joyda otini to'xtatdi.

Askarlarning oldida kelayotgan Ahmad Tanbal zirhli kiyimda edi. Yelkasi va ko'kragini yopib turgan jibaning temiri oftobda yiltirardi. Uning bo'yniga yoy o'qi tekkan, yarador joyini yashil mato bilan bog'lab olgan edi. O'zi ozib, mo'g'ulcha yonoqlarining suyaklari yana ham bo'rtib chiqqan. U Boburdan ellik qadamcha narida otdan tushib, qo'l qovushtirib keldi-da, yer o'pib yukundi:

– Mirzo hazratlariga yog'iylik maqomida bo'lgan chagraklar o'lpon to'lashdan bosh tortganlari uchun

o‘n olti ming qo‘ylari, ikki yarim ming yilqilari jarima tarzida tortib olib kelindi!

– Chopqin talafotsiz bo‘ldimi?

– Mirzo hazratlari, bizning uch yigitimiz halok bo‘ldi, o‘n kishi yaralandi. Ammo biz yog‘iylardan buning qasdini oldik!

Ahmad Tanbal oldingi safda turgan yigitlaridan biriga ishora qildi. Ayiqtaxlit, qo‘pol bir yigit egarining ustida do‘mpayib turgan xurjunni oldi-da, podshohga yaqinlashdi. Olachadan tikilgan xurjunning hammayog‘i qon edi. Ayiqtaxlit yigit Ahmad Tanbalning ishorasi bilan xurjunning har ikki ko‘zini to‘ldirgan narsani yerga ag‘dardi. O‘n-o‘n beshta odam kallasi ko‘katlar va lolaqizg‘aldoqlar ustiga yumalab tushdi. Bobur kallalarni ko‘rgan zahoti: «Chagraklar ham bizning odamlarga o‘xshar ekan-ku!» degan o‘ydan eti junjikib ketdi. Chorvador turkiy qabila bo‘lgan chagraklar ham Boburning vatandoshlari ekanligiga, hammalari bir el, bir ulusdanligiga uning ishongisi kelmas edi. Chunki chagraklar uning hukmiga bo‘ysunmas, yuborgan kishilarini qo‘lda qilich bilan qarshi olishardi. Mana endi o‘zlari qilichning tig‘idan o‘tib, boshlari oyoq ostida ag‘anab yotibdi. Bu jonsiz boshlardan birining soqoli yo‘q, ko‘k-sarg‘ish yuzi silliqqina, mo‘ylovi endi chiqa boshlagan. Bobur uning o‘n yetti-o‘n sakkiz yoshli yigit bo‘lganini payqadi-yu, engagi tagidan kesilgan go‘sht aralash qonli bo‘yniga qarab, ko‘ngli birdan behuzur bo‘ldi. Yordam so‘raganday, o‘ng tomonidan turgan Qosimbekka qaradi.

Sulton Ahmad Tanbal ham, uning otliq askarlari ham Boburdan maqtov va mukofot kutmoqda edilar. O‘n olti ming qo‘y, ikki yarim ming yilqi hazilakam boylik emas edi. Uch yigit o‘lgan bo‘lsa, ularning qasdiga o‘n besh-yigirmata yog‘iyning boshini kesib kelish ham shu turganlarning odatiga binoan mardona

ish hisoblanar, buni taqdirlamaslik esa adolatsizlik sanalar edi.

Qosimbek Boburning yuzi oqarib ketganini ko'rib hayron bo'ldi. Uning fikricha, kesik kallalar Boburga bunchalik ta'sir qilmasligi kerak edi. Bultur Samarqand urushida yosh podshoh bunday boshlarni ko'p ko'rgan edi. Odatda: «Falonchi yuzta yog'iyini o'ldiribdi», deb quruq maqtasalar uncha ishonarli bo'lmaydi, chunki ozgina ishni ko'p qilib ko'rsatib, lof uradigan bek va navkarlar ham bor. Jangchining xizmati ishonarli bo'lishi uchun o'ldirilgan dushmanlarining boshini kesib kelib hisob berish eskidan odat tusiga kirgan.

– Amirzodam, – deb shivirladi Qosimbek. – Qulingiz so'zlayinmi?

Bobur tasdiq ma'nosida bosh irg'adi. Qosimbek yuzini Boburga yaqinroq keltirib, yana eshitilar-eshitilmas qilib so'radi:

– Mukofotiga qilich bersak... Rozimisiz?

Boburning yarog'bardori olib yurgan tig'lar orasida yoyday egik katta bag'dodiy qilich bor edi, Bobur bir-ikki marta taqqanda juda og'ir tuyilgan edi. Boburning nigohi shu qilichda to'xtaganini ko'rgan Qosimbek, «tushundim», degandek bosh irg'adi.

– Sulton Ahmad janoblari, – deb ovozini ko'tarib gapirdi Qosimbek. – Siz bahodirona zafar bilan qaytganingiz Mirzo hazratlarini behad shod qildi. Siz Bobur mirzoga nechog'lik sodiq ekanligingizni yana bir bor isbot etdingiz. Butun mavkab<sup>1</sup> bugun sizlarni olqishlag'ay! O'shdagi qarorgohda bu oqshom sizlarning sharafing'izga tantanali ziyofat berilur, hamma yigitlaringiz shohona in'omlar olurlar. Hozir Mirzo hazratlari Sulton Ahmad janoblariga shamshiri xos in'om etdilar!

Qosimbek bag'dodiy qilichni yarog'bardordan oldi-yu, yerga ta'zim qilib turgan Sulton Ahmadga uzatdi.

---

<sup>1</sup> Mavkab – podshoh va uning barcha a'yonlari, yaqinlari.

Sulton Ahmad tiz cho'kib qilichni qinidan to'rt enlikcha chiqardi-da, po'latidan o'pdi, so'ng ovozi hayajondan titrab dedi:

– Mirzo hazratlari, o'lgunimcha bu marhamatingizni unutmashmen! To umrim oxiricha sizga sodiq xizmatda bo'lg'aymen!

Shu kuni oqshom O'sh qal'asining minoralari ustida, shahar atrofiga tikilgan yuzlab chodir va o'tovlar oldida karnaylar, nog'oralalar chalindi, mash'allar yoqilib, katta tantanalar boshlandi. Ming-ming qo'y va yilqilarni in'om tariqasida tekinga oladigan barcha beklar, navkarlar va mulozimlar bugun astoydil shodlanmoqda edilar. Podshohning hashamatli xirgohida oqshom qabul marosimi va bazm bo'ldi. Sozandalar eng quvnoq kuylarini chalishdi, hofizlar eng yaxshi ashulalarini aytishdi.

Bobur xirgoh to'rida to'rtta oltin zina bilan chiqiladigan baland shohsupa ustida yolg'iz o'ttiribdi. Bugun uning o'ng tomonidan o'rin olgan eng nufuzli beklari orasida Ahmad Tanbal ham paydo bo'lgan. U kunduzgi zirhli kiyimlar o'rniga zarbof to'n va simobi salla kiygan, podshoh in'om qilgan oltin sopli qilichni kumush kamarga taqib olgan. Hamma uni mukofot bilan muborakbod qiladi. Tabriklarning barchasidan yoqimlisi – boya xirgohga kirganda uni Qutlug' Nigor xonim muborakbod qilgani bo'ldi. Podshohning onasi bilan egachisi hozir katta dasturxonning narigi tomonida Ahmad Tanbalga yarim o'girilgan holda o'tirib, sozandalar kuyiga quloq solishyapti. Ahmad Tanbal har zamonda ularga ko'z qirini tashlab qo'yadi. Xonzoda begimning nafis qaddi-qomati, haftkor<sup>1</sup> ipak matodan kiygan kamalakday tovlanuvchi kabosi Ahmad Tanbalga bugun har qachongidan ham jozibali ko'rinadi.

---

<sup>1</sup> Haftkor – yetti xil rang.

Yosh podshohning bazmlarida ichkilik ichilmas, Bobur hali mayni og'ziga ham olgan emas edi. Qosimbek ham ichkilikni yomon ko'rar va uni bazmlarga yo'latmas edi. Lekin Umarshayx mirzo davrida may ichib o'rgangan boshqa beklar mana shunday bazmlarda Boburdan yashirib, chet-chetda ichib olishar edi.

Ali Do'stbek degan qotma, ko'sanamo bir bek orqada sharbat ko'tarib turgan sharbatchiga sirli ko'z qisdi-yu, Ahmad Tanbalni ko'rsatdi. Sharbatchi ma'noli kulimsirab, Ahmad Tanbalga yaqinlashdi va kumush ko'zachadan chinni piyolaga to'ldirib, ko'kimtir sharbat quyib berdi. Ahmad Tanbal piyolani qo'liga olar ekan, dimog'iga o'tkir may hidi urildi.

– Oling, bek, ilohim Samarqandda bundan ham ulug' zafarlarga muyassar bo'ling! – dedi Ali Do'stbek.

Ahmad Tanbal minnatdorona bosh irg'ab, mayni sipqardi-yu, keyin dasturxondagi tandirkabobga qo'l cho'zdi.

– Mana endi Samarqand-u Buxoroni olguncha yetadigan zaxiramiz bor! – dedi shirakayf Do'stbek. – Muhoribani tezlatmoq kerak.

Ahmad Tanbalning o'ng tomonida Uzun Hasan o'tirgan edi. Turib yurganda juda novcha ko'rinadigan bu ozg'in odam o'tirganda go'yo qatlanib, kichkina bo'lib qolar edi.

– Shayboniyxon Dashti Qipchoqdan Samarqandga bo'yin cho'zarmish, – dedi Uzun Hasan.

– Tushini suvga aytsin! Samarqand bizniki bo'lur! – dedi maydan badani qiziy boshlagan Ahmad Tanbal ovozi xiyol ko'tarib.

Uning bu so'zlari Boburning qulog'iga ham chalindi. Bugun tog'dan haydab tushilgan behisob qo'y va yilqilar saroy ahlining Samarqandga yurish qilish ishtiyoqini yana ham oshirib yuborgani Boburga tobora aniq sezilmoqda edi. Ilgari ham ularning bu

ishtiyoqlariga qarshi borish qiyin edi. Ammo hozir bek va navkarlarning Samarqandga intilishi – tog‘ daryosining yuqoridan pastga qarab otilishiga o‘xshardi. Bu daryoni orqaga qaytarish hech kimning qo‘lidan kelmasdi...

## 6

Oqish suvli jo‘shqin Burasoy O‘sh qal‘asining tosh yotqizilgan poydevoriga bosh urib, ko‘pirib o‘tadi. Soyning o‘ng betidagi serdaraxt mahallada mavlono Fazliddin bulturidan beri istiqomat qilayotgan peshayvonlik mo‘jaz bir uy bor. Uning oldidagi besholtita nok va behi daraxtlari hozir oppoq bo‘lib, gullab turipti. Hovlining chetidagi bostirmaga ikkita ot bog‘lab qo‘yilgan. Berigi yoqdagi oyoqlari uzun to‘riq qashqa otni anjomlari bilan Bobur mirzo in‘om etgan edi. Mavlono Fazliddin podshohning xos me‘mori qilib tayinlangan, unga yaxshigina ulufa<sup>1</sup> belgilangan edi. Buning hammasidan mavlono Fazliddin o‘zida yo‘q xursand bo‘lib yurgan edi. Biroq keyin ba‘zi bir noxush xabarlarini eshitib, ko‘ngli g‘ash torta boshladi.

Mavlono Fazliddin Andijonda qurmoqchi bo‘lgan katta imoratlarini shu bu yil yozdayoq boshlash orzusida edi. Bobur mirzo ko‘rsatgan marhamatlar bu orzuning ro‘yobga chiqishiga yo‘l ochganday bo‘lgan edi. Hatto Bobur mirzoning o‘zi uni borgohda qabul qilib, qanaqa madrasa, qanday xonaqoh va kutubxonalar qurish haqida gaplashgan, mavlononing bu haqdagi takliflarini ma‘qullagan, «Xonzoda begim biz yo‘g‘imizda mutasaddi bo‘lurlar, rejalarini butun tafsilotlari bilan tuzib, begimga ko‘rsatursiz», degan edi. Ish ustida yana Xonzoda begim bilan uchrashishini o‘ylaganda, mavlononing qalbida qo‘rquv aralash shirin bir hayajon qo‘zg‘alar edi.

---

<sup>1</sup> Ulufa – maosh va turar-joy.

Biroq Bobur yaqinda yana Samarqandga qo'shin tortib bormoqchi ekanligi, davlatning butun kuchi shunga ketib, qurilishlar noma'lum vaqtga kechiktirilishi ma'lum bo'ldi. Agar Bobur Samarqandni ololmay, urushda yengilsa, unda mavlononing barcha orzulari o'z-o'zidan puchga chiqadi. Agar Bobur Samarqandni olsa, tabiiy, o'sha yerda podshoh bo'lib qoladi. Keyin u Farg'ona vodiysida katta qurilishlar qiladimi, yo'qmi? Odatda, podshohlar qayerni poytaxt qilsalar, o'sha yer ko'proq obod bo'ladi. Andijon yana poytaxt bo'lishi gumon. Demak, mavlononing bu yerda qilmoqchi bo'lgan ishlari, barcha rejaları qum ustiga qurilganday omonat.

Hozir ayvonda eski handasa va riyoziyot kitoblarini titkilab, kerakli bir jadvalni axtarayotgan mavlono mana shu narsalarni o'ylab, ta'bi tirriq bo'lmoqda edi. Bir payt darvoza ustma-ust taqilladi. Bostirmada otlarning tagini tozalayotgan keksa xizmatkor yog'och kuragini devorga suyab qo'yib, darvozaga qarab o'tdi. Birpasdan so'ng xizmatkor ayvonning oldiga qaytib keldi-yu:

– Mavlono, bir kimsa huzuringizga kirmoqchi.

– Kim?

– Kiyimi uvada, o'zi bahaybat bir yigit. «Jiyanlari bo'laman», dedi, ammo men sizdan beruxsat kirgazmadim.

– Jiyanim? Shoshmang-chi! – deb, mavlono o'rnidan turdi. Yalang oyog'iga charm kavush kiyib, yarim ochiq darvozaning oldiga bordi.

Olacha to'ni ham, oyog'idagi chang bosgan chorig'i ham yirtilib ketgan novcha bir yigit ko'zlari yaltirab, kulimsirab unga qarab yurdi. Qadam olishi, qarashi juda tanish. Yigit:

– Mulla tog'a! – deb quchoq ochganda mavlono uning ovozi tanidi-yu:

– Tohir! Tohirjon! – deb u bilan quchoqlashib ketdi. – Shuncha o‘limlardan omon qolgan jiyanim, seni zo‘rg‘a tanibmen. Bu qadar o‘zgarib ketibsen! Yuzingga ne bo‘ldi?

– E, so‘ramang, mulla tog‘a...

– Mayli, yur, avval damingni ol. Keyin aytib berursen...

Ular ayvonga chiqar ekanlar, mavlono Fazliddin bundan salkam uch yil oldin Quvasoy bo‘yida bo‘lib o‘tgan qonli voqealarni yana bir esladi. O‘shanda Tohirga nayza sanchgan samarqandlik bosqinchi uni o‘ldirganiga shubha qilmay ketgan edi. Onasi yolg‘iz o‘g‘lining qoniga belanib, jonsizlanib yotganini ko‘rib, uni «o‘ldi» deb o‘ylagan va shaytonlab yiqilgan edi, bechora ona shu yotganicha qaytib turolmay, ertasi kuni vafot etdi. Tohir esa otasi topib kelgan tabiblar va dor-u darmonlar ta‘sirida uch kundan keyin hushiga keldi. Nayza o‘pkaning bir chetini kesib o‘tgan bo‘lsa ham yurak va jigar kabi nozik a‘zolariga tegmagan. Tohirning yoshligi va baquvvatligi ustun kelib, asta-sekin tuzalib ketgan edi. Qo‘ni-qo‘shnilar: «Tohirga kelgan o‘limni onasi o‘ziga oldi-yu, bu tirik qoldi», deyishardi. Mavlono Fazliddin o‘shanda opasining qirqini o‘tkazib kelganicha, qaytib Quvaga bormagan edi.

– Otang qalay, bardammi? – so‘radi mulla Fazliddin Tohirni yuqoriga taklif qilib.

Tohir chang bosgan chorig‘i bilan ko‘rpachaga chiqishdan ibo qildi-yu, poygakdagi sholcha ustiga o‘ltirdi:

– Otam sizga salom aytib yubordilar. Men bir yilcha qishloqda bo‘lmadim... Qarindoshlar «cholning issiq-sovug‘idan xabar olib tursin», deb bir beva kampirni olib beribdilar... Onam rahmatli esimga tushdi-yu, uyda turgim kelmadi.



Faqat onasining musibati emas, bosqinchilar bog'lab olib ketayotganlarida Tohirdan najot kutib qichqirgan Robiya ham uning xayolidan nari ketmaydi. Qizning o'shandagi nidosi hali ham Tohirning qulog'iga eshitilib turganday bo'ladi. U burnog'i yili Samarqandgacha piyoda borib keldi, yo'llarda o'roqchilik qilib, karvonlarga qo'shilib yurib, iloji bo'lgan joydan Robiyani qidirdi, «singlim edi, Sulton Ahmad mirzoning navkarlari olib qochib ketgan edi», deb so'roqladi. Ammo hech qayerdan daragini topolmadi.

Sulton Ahmad mirzo o'sha yiliyoq o'lib, qo'shini tarqab ketgan, bir yil davomida Samarqand taxtida ikki marta podshoh almashingan, ko'p to'polonlar bo'lib, it egasini tanimaydigan ahvolga kelgan edi. Jizzaxlik bir kishi Toshkent tomonlarga cho'rilar ko'p sotilganini aytib qoldi. Bultur kuzda Tohir piyoda Toshkentgacha bordi, yana har joylarda mardikorlik bilan kun o'tkazib, Robiyani so'roqladi, ammo hech natija chiqmadi. Zamona notinch, yurt alg'ov-dalg'ov, hayot hamma joyda xuddi loyqalatilgan daryoga o'xshab oqadi. Robiyani topish – loyqa daryoga tushib ketgan gavharni topishdek qiyin ekanini Tohir ich-ichidan sezar edi-yu, baribir umidini uzolmas edi. Mavlono Fazliddin Tohirning gaplaridan shuni payqab:

– Jiyanim, sen o'sha bechora qizni hali ham unutilmay ikki yil izlaganing – juda ajoyib bir diling borligidan dalolat berur. Men sening sadoqatingga tan berdim! Ammo sen endi o'zingga ham jabr qilmasliging kerak. U qiz taqdirida borini ko'rgay. Agar tirik bo'lsa, balki... birov unga uylangandir. Balki farzandlik ham bo'lganlar. Axir uch yil uni tek qo'yishlari mumkinmi? Sen o'zing bir o'ylab ko'rgin...

– Men buning hammasini allaqachon ko'nglimdan o'tkazganmen, mulla tog'a... Faqat men u qizning oldida o'z gunohimni yuvmoqchimen, xolos.

– Qaysi gunohingni?

– O‘shanda Robiyani Andijonga qochirmoqchi bo‘lganlarida, men Quvada olib qolganmen. Agar Andijonga ketganda bu falokat bo‘lmas ekan.

– Sen nima bo‘lishini qaydan bilibsen, jiyanim?

– Harqalay, men uni topib, shu gunohimni yuvmagunimcha tinchiyolmaymen. Robiya, siz aytgandek, uylik-joylik bo‘lib, tinchib ketgan bo‘lsa, unda... mayli... Taqdirga tan berurmen. Agar hali ham najot izlab, meni kutib yurgan bo‘lsa-chi? Axir men uni unutilmay yuribmen-ku! Unga ham men kerak bo‘lsam-chi?

Mavlono Fazliddin bosh chayqab:

– Dil dardiga davo yo‘q ekan-da, – dedi va mavzuni o‘zgartirdi: – Yo‘qlab kelibsen, endi mehmon bo‘l. Qani, dasturxonga qara...

Tog‘a-jiyan birga o‘ltirib shirchoy ichdilar. Keyin mulla Fazliddin Tohirning kiyim-boshlariga yana bir ko‘z yugurtirdi-yu:

– Jiyanim, tog‘ang hozir xiyla badavlat, – dedi qo‘yniga qo‘l solib, bog‘ichi popukli qora charm hamyon oldi. U hamyonni ochib, jiyaniga bir nechta oltin tanga olib bermoqchi edi. Hamyon tezda ochilavermagach, mavlono uni ochmasdan jiyaniga uzatdi. – Ma, O‘shning rastalariga chiq, bugun juma, mol ko‘p, o‘zingga kerakli kiyim-kechak ol.

Tohir hamyonni olmay turib dedi:

– Yo‘q, mulla tog‘a, menga o‘zingiz sanab, qarz bering.

– Ha, xo‘p, qarz! O‘zing keragicha ol, puldor bo‘lganingda qaytarursen.

– Unday bo‘lsa, mayli.

Tohir hamyonni qo‘yniga solib chiqib ketganicha peshin kechroq oyog‘iga yangi askariy etik, boshiga mo‘g‘ulcha bo‘rk kiyib, chakmonga o‘xshash dag‘al

yungli dag'alani yelkasiga tashlab keldi. Uning qo'lida qini eskirib ketgan arzon bir qilich ham bor edi. Mavlono Fazliddin hayron bo'lib:

– Nechun bunday kiyimlar olding? – dedi. – Qilichni ne qilursen?

– Mulla tog'a, yolg'iz sargardon bo'lib yurish mening jonimga tegdi. Endi Samarqandga Bobur mirzoning qo'shini bilan birga bormoqchimen.

– Sarboz bo'libmi?

– Ha, tavochilar askarlikka odam olayotgan emishlar...

Jiyani O'shga ham shu niyat bilan kelganini mavlono Fazliddin endi sezdi-yu, undan qattiq ranjidi.

– Jinni bo'libsən, Tohir! Hamma urushdan qochsa, sen bu ajdahoning komiga o'z ixtiyoring bilan bormoqchisen! Bir marta nayza yeb, o'limdan qolganing ozmidi?

– Mulla tog'a, undan keyin men yana necha o'limlardan qolganimni siz bilmaysiz. Toshkentda bir mo'g'ul begi bechora kosibning qizini zo'rvonlik bilan tortib olmoqchi bo'lganda men chidab turolmadim. Oraga tushganim uchun mana, yuzimda o'sha bekning xanjaridan chandiqlar qoldi.

– Zamona zo'rnkiligini hali ham bilmaysenmi?

– Bilganim uchun men o'shanday zo'rlar bilan zo'rqo'shinning safida turib olishmoqchimen, mulla tog'a. Men ko'p yurtlarni ko'rdim, turli odamlar bilan birga ishlab, birga yurdim. Bobur mirzoning tabiati pokiza, ko'ngli tiyrak ekanini ko'p odam bilar ekan. «Atrofdagi podshohlardan yaxshilik chiqmasa ham Bobur mirzodan bir yorug'lik chiqar», deb umid qilamen.

Mavlono Fazliddin yerga qarab:

– Qaydam, – dedi. – Bobur mirzo hali yoshlar. Men ham shu zotga umid bog'lagan edim... Lekin yana urush, qon... Hammamiz tun zulmatiday intihosiz bir qorong'ilik ichida yuribmiz. Mamlakat parokanda, zolim tojdorlar qon ustiga qon to'kurlar. Bobur

mirzoning atrofidagi beklar ham rahm-shafqatni unutmishlar. Muhit shundoq g'addor bo'lgach, sen ham yomon beklar xizmatida yurib, o'zingga o'xshash jabrdiyda zahmatkashlarning kushandasiga aylanmasmikinsan, jiyanim?

– Ishoning, mulla tog'a, men yomon beklarning zulmiga ilojim boricha qarshi turgaymen!

– Bobur mirzo hukmdor bo'la turib daf qilolmagan adolatsizliklarni sen nechun daf qilursen?

– Balki Bobur mirzoning mendek navkarlari bo'lmagani uchun daf qilolmagandirlar? Balki u zotga men kerakdurmen, mulla tog'a! Men o'zim uchun shundan ma'qul yo'l topolmadim. Yolg'iz yashashimning ma'nosi qolmadi. Ne qilay?

Mavlono Fazliddin jiyanining yuziga tikilib qaradiyu, uni niyatidan qaytarib bo'lmasligini sezdi. Tohir bundan uch yil oldin Quvasoy ko'prigini buzib, yov qo'shiniga katta talafot keltirgan paytlarda tarix daryosining qudratli oqimiga tortilmaganmidi? Endi umrbod o'sha oqimdan chiqolmasdan, tarixiy voqealarning ichida yurishga mahkum etilganmikin? Harqalay, jiyanining so'nggi gaplari mavlononi o'ylantirib qo'ydi. U birpas jim turgach:

– Tavochiga uchradingmi? – dedi.

– Uchradim. «Oting yo'q ekan, piyoda qo'shinga olamiz», dedi. Men piyoda yurib o'rganib qolganmen, mulla tog'a.

– Ammo jangda eng ko'p talafot piyodalar orasida bo'fur, buni bilursenmi?

– Mayli-da, qirq yil qirg'in bo'lsa ham ajali yetgan o'lgay.

– Bas!

Mulla Fazliddin bu haqda boshqa gaplashmadi. Ertalab nonushtadan keyin xizmatkoriga aytib, bostirmada turgan har ikkala otni ham egarlatdi. Tohirga oyoqlari uzun jiyron otni ko'rsatib:

– Sen mana shuni min, – dedi. – Men sening piyoda askar bo‘lishingni o‘zimga munosib ko‘rmasmen.

Mulla Fazliddin o‘zi Bobur in‘om qilgan to‘riq qashqani mindi. So‘ng ikkovlari Boburning qarorgohiga otliq yo‘l oldilar.

Odatdagiday, Bobur huzuriga kirish uchun eshik og‘adan ruxsat olish kerak. Tog‘a-jiyan sakkiz burchakli ulkan oq o‘tovdan beriroqda otliq kelayotgan Qosimbekni ko‘rdilar va uning hurmatiga otdan tushib qo‘l qovushtirdilar.

– Janobi amirul umaro, jiyanim ham Bobur mirzoga sodiq xizmat qilish orzusida keldi, – dedi mavlono Fazliddin. – Ijzat bersangiz, amirzodaning huzuriga kirsak.

– Amirzodam hozir behad banddir, mavlono. Balki, iltimosingizni menga aytursiz?..

– Jiyanim Tohir... amirzodamning xos navkarlari qatoriga olinishini o‘tinib so‘ramoqchi edim.

Qosimbek Tohirning barvasta gavdasiga va yuzidagi chandiqa qaradi-yu:

– Yigit, askariy xizmatda bo‘lganmisen? – dedi.

Qosimbekning «sensirab» gapirgani Tohirga uncha yoqmadi. Loqayd tovush bilan:

– Hali bo‘lgan emasmen, – dedi.

Mavlono Fazliddin oraga tushdi:

– Janobi amirul umaro, jiyanimiz asli dehqon bo‘lsa ham, lekin tabiatida jangovarlik bor. Esingizda bo‘lsa, Quvaning ko‘prigida yog‘iyalarimiz juda katta talafot ko‘rib, o‘zlari sulh taklif qilgan edilar. O‘shanda bizga g‘alaba keltirgan azamat yigitlarning biri – mana shu Tohir!

– G‘alaba keltirgan?! – ishonqirmay so‘radi Qosimbek. – Qanday qilib?

Mavlono Fazliddin Quvada o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqealarni Qosimbekka qisqacha so‘zlab berdi. Uning

hikoyasiga qaraganda, jangovar beklar va navkarlar eplay olmagan yovning belini oddiy «yalangoyoqlar» sindirgan bo'lib chiqardi. Qosimbek bunga ishongisi kelmadi.

– Quvada g'alabani Tangrim o'zi bizga in'om qilgan, mavlono! – dedi Qosimbek.

Bu gapga qarshi chiqib bo'lmas edi.

– Albatta, bularning ko'ngliga shu ishni Xudo o'zi solgan. Lekin o'shandagi jasorati uchun yog'iyar Tohirga nayza sanchib, uni og'ir yarador qildilar. Jiyanim naq bir o'limdan qoldi, janob Qosimbek!

– Shundoqmi? – deb Qosimbek endi Tohirga iliqroq nazar bilan qaradi. – Samarqanddagi yog'iyalarimizda qasding bormi, yigit?

– Ha, o'chim bor.

Qosimbek ketida sukut saqlab turgan tavochiga o'girildi:

– Bu yigitni Chilmahram tog'i etagida askariy mashq o'tkazayotgan navkarlar qatoriga qo'shing! – So'ng u mulla Fazliddinga izoh berdi. – Jiyaningizning mashqi yetilsin, harbiy muomalani o'rgansin. Undan so'ng amirzodam lozim ko'rsalar, xosnavkarlari qatoriga olurlar.

Tohir mavlono Fazliddin bilan quchoqlashib xayrlashdi-da, otiga mindi va tavochining ketidan Chilmahram tog'iga qarab yo'l oldi.

## 7

Beklarning mashvaratida Samarqand yurishini ramazon oyida boshlashga, tayyorgarlik ishlarining asosiy qismini O'shning o'zidayoq bitirib ketishga qaror qilindi.

Bobur onasining so'zini erda qoldirganidan xijolat bo'lib, Qutlug' Nigor xonimning ko'ziga

tashlanmaslikka tirishardi. Safar tayyorgarliklaridan bo'shagan paytlarda o'z chodirida yolg'iz o'tirib kitob o'qirdi.

Bugun namozigar kechroq Bobur «Vaqoye»<sup>1</sup> nomli daftarga otasining o'limi haqida yozayotgan edi, yasovul kirib, Qutlug' Nigor xonim bilan Ali Do'stbekning chodirga kirishga ijozat so'rayotganlarini aytdi. Bobur daftarini yopib, onasini eshik oldida qarshi oldi va to'rga o'tqazdi.

Qutlug' Nigor xonimning rangi xiyol o'chgan. Uning peshonasidan yuqorida – sochining farq ochilgan joyida Bobur bir tutam oqargan soch tolalarini ko'rdi. Endi qirq yoshga kirgan onayizor kampirlardek odmi kiyinar va qaddini egibroq yurar edi. Bobur onasiga allanechuk rahm qilib past tovush bilan gapirdi:

– Onajon, so'zim yerda qoldi, deb kuyunmang. Nasib bo'lsa, Samarqanddan qaytganda hamma aytganlaringizni qilurmen.

– Xudoning xohishi shunday bo'lsa, biz bandalar qanoat qilgaymiz. Iloho, yaxshi niyatlaringizga yeting, shoh o'g'lim!

Ali Do'stbek baquvvat qo'llarini fotiha uchun ochib:

– Ilohi omin! – dedi.

So'ng katta-katta panjalarini qop-qora silliq yuziga, soqolsiz uzun iyagiga surtdi.

Yuzi mo'g'ulcha bo'rtgan bu chayir ko'sa odam Boburning buvisi Eson Davlat begimga amakivachcha bo'ladi. Shu sababli o'z nomiga «tog'oyi» degan so'zni unvondek qo'shib aytadi va Qutlug' Nigor xonimga akalarcha mehribonchilik ko'rsatib yuradi. Hozir ham ko'rpachalar ustiga o'tirganlaridan keyin Ali Do'stbek Qutlug' Nigor xonimga «Gapni ochaymi?» deganday bir qarab oldi. Xonim tasdiq ma'nosida

---

<sup>1</sup> «Vaqoye» – «Chindan yuz bergan voqealar», demakdir. «Boburnoma» dastlab shunday deb atalgan.

bosh irg'agach, Ali Do'stbek tomoq qirib, siporish bilan so'z boshladi:

– Amirzodam, volidangiz ikkovimiz nozik bir muammoda sizning maslahatingizni olgani keldik. Muhtarama egachingiz Xonzoda begim hozir yigirma yoshdalar. Ayni uzatiladigan paytlari. Begim oy desa oydek, kun desa kundek, oqila-yu foziladirlar. Shu vaqtgacha munosib kuyov uchramay dog'da edik. Volidangiz ham, tog'oyingiz ham vaqt o'tib ketayotganidan iztirobda edik.

– Yana bir-ikki yil uyda o'ltirib qolsa, «qari qiz» deb kulurlar, – dedi Qutlug' Nigor xonim. Opasining taqdiriga oid bunaqa gaplarni Bobur ilgarilari ham eshitgan edi. Ammo bugun Do'stbekning gaplariga qaraganda, qandaydir kuyov topilganga o'xshardi. Bobur shuni bilgisi kelib, o'smirlarcha qiziqish bilan so'radi:

– Kim bizga pochcha bo'lmoqchi?

Ro'yi-rost berilgan bu savol, Do'stbekni shoshirib qo'ydi. U yana gapni aylantirdi:

– Sizdek oliy zotga «munosib pochcha bo'lurmen», deb hech kim jur'at qilib aytolmas. Ammo umarolaringiz orasida asilzoda beklar bor. Chunonchi, Sulton Ahmadbek. Yigirma besh yoshga kirgan norg'ul yigit. Chopqunga borib, bahodirona zafar bilan qaytdi. Beklar orasida obro'si baland. Yonida uch zabardast inisi bor. Uch yuz navkari bilan hammasi sizga to'lguncha sodiq xizmat qilmoqchilar.

Bobur hali oila nimaligini, kuyov-kelin qanday bo'lishini bilmasa ham opasi Xonzoda begimni Ahmad Tanbalning yoniga qo'yib tasavvur qildi-yu, ikkovini bir-biriga to'g'ri keltirolmadi. So'ng onasiga qarab:

– Siz rozimisiz? – dedi.

Qutlug' Nigor xonim og'ir tin olib:

– Nachora! – dedi. – Xonzoda begim tojdor, taxtdor kuyovlarga munosib qiz. Ammo hozirgi notinch



zamonada qani biz istagan kuyov? Biz tog'oyingiz bilan surishtirib bildik. Sulton Ahmadbekning avlod-ajdodi asilzodalardan ekan. Bobokalonlari Jo'jixon, Chingizxonlarga qon-qarindosh bo'lgan sultonlar ekan. Hozir Tilba Sulton nomlik og'asi Toshkentda tog'oyingiz Mahmudxonda sohibixtiyor eshik og'a ekan. Endi bu Ahmadbek kuyov bo'lsa, oraga og'asi tushib, tog'oyingiz Mahmudxon bilan sizni yaqinlashtirarmikin? Shunday nufuzli bek sizga kuyov bo'lib, butun urug'lari-yu navkarlari bilan qanotingiz tagiga kirsa, ishingizning rivoji yaxshiroq bo'lurmikin?

- Shubhasiz, shunday bo'lur! - dedi Do'stбек chuqur e'tiqod bilan.

Bobur nima deyishini bilmay yelka qisdi: yosh o'smir o'zidan katta opasini kimga erga berish haqida o'ylashdan ham tortinar edi. Ammo onasi va tog'asi bu ishni uning podshohlik hukmi bilan amalga oshirishni istardilar.

- Begimning o'zlari uchun ham yaxshi bo'lur, - deb davom etdi Do'stбек. - Agar boshqa bir yurtdagi tojdorga tushsalar, onalaridan yiroqda bo'lurlar, amirzodamday suyuqli inilarining himoyalaridan uzoqlashurlar.

- Ha, undan ko'ra yonginamda bo'lgani afzal, - dedi Qutlug' Nigor xonim. - Xonzoda mening to'ng'ich qizim, maslahatgo'yim, Ahmadbekka bersak, ko'z o'ngimda mening yolg'izligimni bilintirmay yurur.

Bobur bu borada o'zi bilmaydigan ko'p narsalarni onasi yaxshi bilishini o'yladi-yu:

- Onam rozi bo'lsalar, bo'ldi, - dedi.

Do'stбек quvonib ketdi:

- Haq gapirdingiz, amirzodam, juda haq! Ona rozi - Xudo rozi, deb bejiz aytmaganlar!

Qutlug' Nigor xonim hamon xomush edi. Bobur buning sababini sezganday bo'lib:

- Begimning o'zlari nechuk? - deb so'radi.

Qutlug' Nigor xonim og'ir tin olib:

– Begim rozi emaslar, – dedi. – Eshitib ko'p yig'ladilar.

– Bunday paytlarda yig'lash qizlarning azaliy odati, – deb kulib qo'ydi Do'stbek.

– Ammo, Xonzoda begimning ahvolidan men xavotirdamen, amirzodam, – dedi Qutlug' Nigor xonim. – «O'zimni o'ldiramen», degan so'zlarini eshitib qoldim.

– Nahot? – dedi Bobur ham birdan xavotirga tushib.

– Egachingiz sizni jondan aziz ko'rurlar, Mirzo hazratlari, so'zingizni ikki qilmaslar, – dedi Do'stbek. – Volidayi muhtaramangiz bilan ikkalamiz sizdan iltimos qilgani keldik. Xonzoda begimni huzuringizga chorlab, nasihat qiling. Davlatingizning manfaatlari uchun egachingiz rizolik bermoqlari kerak. Sulton Ahmadbek oraga odam qo'ygan. Butun urug'lari bilan sizning marhamatingizga muntazir. Rad javobi ularni sizdan... sovitib qo'yishi mumkin. So'ngra, agar Xonzoda begim rizo bo'lmay, yana uch-to'rt yil uyda o'ltirib qolsalar, «kuyov topilmabdir, qari qiz bo'libdir», deb yog'ylaringiz malomat qilurlar. Bunday gaplar podshoh oilasining sha'niga mutlaqo to'g'ri kelmas. Agar Xonzoda begim sizga yaxshilik istasalar, rizo bo'lmoqlari kerak. Buni endi begimga faqat siz tushuntirursiz, Mirzo hazratlari!

Bobur boshini changallab bir lahza jim qoldi. Bunday nozik, bunday chigal ishga umrida birinchi duch kelishi. Begona bo'lsa ham bir sari edi, gaplashishi osonroq bo'lardi. O'zining jonajon opasi. Bobur Xonzoda begim bilan bu to'g'rilarda gapirishishdan ham iymnadi. Lekin bu yoqda onasi mushkul ahvolga tushib, yordam kutib o'tiribdi. Bu yoqda opasi joniga qasd qilmoqchi emish.

– Mayli, – dedi Bobur onasiga ma'yus ko'z tashlarkan, – begim kelsinlar, o'zim bir so'zlashay.

Qutlug' Nigor xonim tez o'rnidan qo'zg'alib:

– Hozir... hozir borib aytirib yuborurmen, – dedi va chodir eshigiga yo'naldi.

Do'stbek yirik tishlarini ochib, mamnun kulimsiradi-yu, chodirdan orqasi bilan yurib chiqa boshladi. Eshik oldida ta'zim qildi-da:

– Amirzodam, siz shohsiz, sizning hukmingiz vojib, – deb Boburni dadilroq bo'lishga undab ketdi.

\* \* \*

Bobur qator shamlari lipillab yonayotgan ikkita oltin qandil oralig'ida sadaf bilan bezatilgan bejirim mizga ko'kragini tirab, kitob varaqlab o'ltirganda Xonzoda begim chodir eshigidan sekin kirib keldi. Egnida sidirg'a sariq atlas ko'ylak. Hazin tovush bilan salomlashib, Bobur taklif qilgan zarbof ko'rpacha ustiga xastalardek bo'shshib o'ltirdi.

Uning qovoqlari shishinqiraganini ko'rgan Bobur:

– Muncha g'amginsiz, begim? – dedi.

– Amirzodam, men huzuringizga najot izlab keldim!

Xonzoda begimning so'lg'in yuziga ko'zlaridan yosh sirg'alib tushdi. Bobur yaqindagina yayrab-yashnab yurgan opasini hozir bu ahvolda ko'rib, yuragini bir narsa timdalab o'tdi. Onasi uning zimmasiga yuklab ketgan vazifa qanchalik mushkul ekanini u endi astoydil his qildi. Taqdir uning boshiga solayotgan mushkulotlar ozmidi, ustiga bu ham qo'shildi? Bobur kuyunib gapira boshladi:

– Men o'zim bu falakning dastidan najot izlaymen, begim. Yechilmas muammolar biri ustiga biri qo'shilur. Shu asnoda nahotki siz ham mening mushkullarimni ko'paytirmoqchi bo'lursiz?

Xonzoda begim ukasining o'zi chindan ham yordamga muhtojligini, yoshiga nomunosib ishlar uni

juda qiynab yuborganini sezdi-yu, ko'zini tez artidi. Boyagidan tetikroq ohang bilan gapira boshladi:

– Amirzodam, men bir gap eshitdim. Rostmikin?

– Qaysi gap?

– Ahmad Tanbal tog'dan bir xurjun odam kallasini olib tushganmish...

Bobur o'tgan kuni ko'rgan kesik kallalarni, xususan, hali soqoli o'sib ulgurmagan yosh yigitning go'shti chiqib yotgan qonli bo'ynini esladi-yu, birdan seskanib tushdi.

– Jang o'limsiz bo'lmas, – deb Bobur go'yo o'zini o'zi bosmoqchi bo'ldi. – Yog'iy ham biznikilarni o'ldirmishdir. Bu – eski odat. Siz buni unuting, begim.

– Bunisini unutsam, omiligi, johilligi bor. Men umrimni fozil kishi bilan o'tkazish orzusida edim. Ahmad Tanbal qo'li qon, berahm odam. Amirzodam, nahotki siz meni unga munosib ko'rursiz?

– Sizga munosib yigit, balki yetti iqlimda ham yo'qdir. Ammo... sabablarini onam aytgandirlar... Men ham... majburmen!

Xonzoda begim qandilda lipillab yonayotgan shamlarga qarab turib, Ahmad Tanbalni ko'z oldiga keltirdi-yu, o'sha badqovoq yigit bilan bir yostiqaqa bosh qo'yishini o'ylab, eti junjikib ketdi:

– Men bu bekdan qo'rqamen!

– Biz bor ekanmiz, siz hech kimdan qo'rqmang, begim. Men sizga zarracha zulm o'tkazishlariga yo'l qo'ymasmen.

– Meni ma'zur tuting, amirzodam. Ammo egachingizni xohlamagan odamiga zo'rlab uzatsalar, shuning o'zi katta bir zolimlik bo'lmagaymi?

Bu mantiqli so'zlar Boburni dovdiratib qo'ydi:

– Zolimlik... Ha, falakning o'zi zolim! Men ham har kuni suymagan odamlarim bilan muomala qilurmen. Xohlamagan ishlarimga meni aralashtirurlar. Davlat

manfaatlarini o'ylab o'zimni-o'zim majbur qilurmen. Boshqa ilojim yo'q!

Bobur o'z yoshiga yarashmaydigan bu so'zlarni qanchalik qiynalib aytayotgan bo'lsa, ko'ngliga yoqmaydigan, ammo muhit, vaziyat talabi bilan majburan ado etadigan ishlarni undan ham ortiq azoblar bilan qilishi sezilib turardi. Bobur bu mushkul ahvoldan chiqishning yo'lini topolmay ich-ichidan ezilib yurganini Xonzoda begim endi payqadi-yu, ukasiga rahmi keldi.

Boburning podshohligini unutib, uni kichikligida erkalatib suygan paytlarini esladi.

- Boburjon, - dedi, - siz yolg'iz inim, pushti-panohimsiz, men siz uchun jonimni ham ayamaymen! Agar sizga chindan ham shu zarur deb ishonsam, hozirgi gapingizga ham rizo bo'lur edim. Lekin men sizning kuyrak ko'nglingizni bilurmen. Agar men umrbod bebaxt bo'lib qolsam, keyin siz hozirgidan ortiqroq izzat chekursiz!

- Xudo xohlasa, bebaxt bo'lmassiz.

- Ko'nglim sezib turibdir, agar shu odamga tushsam, bebaxt o'turmen. Boburjon, egachingizning so'ziga ham ishoning. «Davlat manfaatlari» deb o'zingizni ko'p ezmang. Siz bilan biz uchun ham bu umr g'animat. O'z ko'nglimizga ham ishonishimiz kerak! Ko'ngil toza bo'lsa, kishini aldamaydir!

Xonzoda begim shunday bir samimiyat bilan yonib gapirmoqda ediki, uning qalbidagi olov go'yo Boburning qalbiga ham o'tdi. Shafqatsiz beklar muhiti va podshohlik majburiyatlari yosh Boburning qalbini qahraton qishning muzlariday siqib yotar edi. Xonzoda begim esa o'zining olovli nafasi bilan go'yo shu muzlarni eritar, Boburning qalbiga bahor mayinligi, yoshlik erkinligi yana qaytib kelayotganday, eti jim-jim qilardi. Xonzoda begim yana ko'zlariga yosh oldi:

– Boburjon, sizning dilingiz beg‘ubor, siz nodir iste‘dodli fidokor yigitsiz! Bu beklar o‘z manfaatlarini ham «davlat manfaatlari» deb ko‘rsatishga o‘rganib qolganlar. Bular sizning yoshligingizdan foydalanurlar. Ammo siz suymagan ishni «davlat manfaatlari uchun» deb qildirmoqchi bo‘lganlarida, ko‘nglingizga ham bir quloq soling. Eng mahram do‘stingiz – sizning musaffo qalbingizdir. Siz bu do‘stingizga ishonib, jonim!

Xonzoda begim o‘tirgan ko‘yicha ukasiga qo‘l cho‘zib, yig‘i aralash iltijo qildi:

– Men sizning pok qalbingizdan adolat izlaymen! Qalbingiz nima buyursa, siz menga shuni buyuring! Men rozimen!

Bobur sakrab o‘rnidan turdi-yu, opasining qo‘llaridan olib, uni o‘rnidan turg‘azdi:

– Yig‘lamang, bas! – dedi. Ammo Boburning o‘zi ham ko‘ngli erib, ko‘z yoshini zo‘rg‘a tutib turardi. – Siz menga barcha beklarimdan yaqinroqsiz. Bir tug‘ishgan yagona egachimsiz. Siz tufayli ne og‘irlik kelsa, mayli, ko‘taray! Xotirjam bo‘ling! Toki bormen, suymagan odamingizga uzattirmasmen!

Xonzoda begim azbaroyi quvonganidan ukasini mahkam quchib, peshonasidan, ko‘zlaridan o‘pdi.

## **SAMARQAND**

### **ZAFAR VA KULFAT**

#### **1**

Boburning qo'shini Samarqandni butun yoz va kuz bo'yi qamal qildi. Boysunqur mirzo yetti oy shahar darvozalarini berkitib yotdi-yu, axiri ochlik va tanqislikka bardosh berolmay, sovuq qish kechalaridan birida yaqin odamlari bilan Samarqanddan yashirincha chiqib, Hisor tomonga qochdi.

Shaharda qolgan beklar bundan xabar topganlaridan keyin qal'a darvozalarini ochtirdilar. Boburning uch mingga yaqin qurolli kishilari zafar kuyini chalib, qo'sh nog'oralar va karnaylar sadosi ostida shaharga kira boshladilar.

Bobur besh yasharligida ko'rganlari yaxshi esida qolmagan ekan. Samarqandning har yer-har yeridan moviy tog'lar kabi ko'kka bo'y cho'zib turgan ulug'vor gumbazlarning qaysisi Ulug'bek madrasasiniki ekanini, qaysisi Bibixonim madrasasiga mansubligini yonida borayotgan Qosimbekdan so'rab bildi. Faqat arkka yaqinlashganda, chap tomonda ko'ringan ulkan obidaning Amir Temur maqbarasi ekanini jangchining dubulg'asiga o'xshash gumbazning afsonaviy go'zal taram-taramlaridan tanidi. Qancha davrlar o'tsa ham, bo'yoqlari xuddi bugun surilganday yap-yangi turgan bu ajoyib binolar, ularning tantanavor ko'rinishi va oftobda g'alati tovlanishi Boburning qalbidagi zafar zavqiga yana zavq qo'shardi.

Ark joylashgan balandlikka ko'tarilayotganlarida Bobur o'ng-u so'lda ko'ringan ayvonli uylar va hovlilarga ko'z tashladi-yu, birdan o'zining asira qallig'i

Oyisha begimni esladi. Ajab emaski, begim mana shu uylardan birida darcha tirqishidan g'oliblarga qarab turgan bo'lsa. U bechora endi barcha azob-uqubatlardan qutulib, Samarqand qizlari orasida eng mo'tabari bo'lishini, hamma uni «yosh podshohimizning qallig'i», deb e'zozlashini bilarmikin? Bobur otini Qosimbekning otiga yaqinlashtirib, past ovoz bilan so'radi:

– Asirlardan xabar olishga odam tayinlandimi?

Qosimbek bu savolning yashirin ma'nosiga tezda tushunolmadi:

– Amirzodam, qaysi asirlarni aytursiz? Bobur otasi tengi Qosimbekning oldida qallig'ini tilga olishdan uyalar edi. U allanechuk iymanib qovog'ini solganidan Qosimbek gap nimadaligini fahmladi-yu: – Ha, asiralarmi? – deb, Bobur aytolmagan so'zni o'zi aytdi. – Bu ishga No'yon Ko'kaldoshni tayin etganmen. Avvalo Sulton Ahmad mirzoning farzandlaridan xabar olinur. Qulingiz aytganmen. Kechqurun No'yon sizga axborot berur. Ark ichiga kirdilar. Bu yerdagi eng ulkan va salobatli bino – to'rt qavatli Ko'ksaroy edi. Ko'ksaroyda juda ko'p fojialar bo'lgan, talay shahzodalar shu yerda o'ldirilgan. Shuning uchun Samarqandning so'nggi tojdorlari Ko'ksaroyda turmas edilar, faqat mashhur Ko'ktosh ustiga chiqib, tantana bilan taxtga o'tirish marosimini o'tkazar edilar. Bobur ham arkning o'ng tomonida joylashgan Bo'stonsaroyga tushdi.

Oqshom Bo'stonsaroyda qandillar yondirilganda Bobur o'tirgan xonayi xosga No'yon Ko'kaldosh kirib keldi. Zar bilan naqshlangan bu xona juda sovuq edi. Ular ikkovi po'stinlarini va telpaklarini yechmasdan ko'rpacha ustida o'tirib, gaplasha boshladilar.

No'yon Ko'kaldoshning ovozida iliqlik bir hayajon sezildi. Bobur podshoh bo'lganidan beri ulug' beklar atrofini o'rab olib, No'yon Ko'kaldoshday tengdoshlari ancha chetga chiqib qolgan edi. Bugun oralari yana



ilgarigiday yaqin bo'lib qolganidan quvongan No'yon to'liqlanib so'zlay boshladi:

– Amirzodamning nomlaridan oltin bilaguzuklar, asl matolar, subhoni o'riklar<sup>1</sup>, lavzinalar<sup>2</sup> olib bordik. Ulug' xolangiz Mehr Nigor xonim peshvoz chiqdilar...

Bobur o'z onasini esladi. Mehr Nigor xonim – Qutlug' Nigor xonimning tug'ishgan opasi va Sulton Ahmad mirzoning katta xotini edi. Oyisha begimning onasi yoshligida o'lib ketgan, uni farzandsiz Mehr Nigor xonim tarbiyalab o'stirgan, hozir ham unga ona o'rnida g'amxo'rlik qilar edi. Shuning uchun Mehr Nigor xonim Boburga ham xola-yu, ham bo'lajak qaynona edi.

– Ozib ketibdilar, – deb davom etdi No'yon. – Oshliqdan<sup>3</sup> juda qiynalmishlar. «Qahatchilik bo'lib, pulga oshliq topilmay qoldi», deydilar. «Zog'ora nonga ham zor» bo'ldik, deb yig'lab yubordilar. O'tin-cho'plari ham yo'q ekan. «Sovuqda diydirab o'ltiribmiz» deydilar.

– Boysunqur mirzo shu qadar noinsofliq qilibdirmi, a?

– Mirzoning o'zi ham oxirgi paytlarda qorni to'yib taom yemagan bo'lsa kerak, amirzodam. Yetti oy qamalda yotish osonmi? Ko'chalarda ochdan o'lgan odamlarning o'liklari yotibdi. Faqir-u bechoralar ochdan o'lmaslik uchun eshak go'shtini, it go'shtini yeyishgacha yetib bormishlar... Biz bundan bexabar ekanmiz. Darhol qaytib kelib, Qosimbek qavchinga uchradim. Bir arava un, guruch, bir arava o'tin, o'nta qo'y oldik. Keyin hammasini yana o'zim eltib topshirdim. Shunda meni ichkari uyga taklif qildilar.

No'yon Ko'kaldosh sirli kulimsirab, bir lahza taraddudlanib turdi. Bobur uning hozir Oyisha begim haqida gapirmoqchi ekanini sezib, sabrsizlandi:

– So'zlang, No'yon, so'zlang!

---

<sup>1</sup> Subhoni o'rik – danagi o'rniga mag'iz solingan o'rik.

<sup>2</sup> Lavzina – bodom qo'shib ishlangan shirinlik.

<sup>3</sup> Oshliqdan – bu yerda: don, un ma'nosida.

– Tillakori uyda Oyisha begim yuzlariga oq ipak parda yopib qarshimdan chiqdilar... – No‘yon bir to‘xtab oldi. Oyisha begim uning ko‘ziga juda kichkina, norasida o‘smir qizchadek ko‘ringan edi. U buni Boburga aytishga jur‘at etmadi. – Juda nozik ko‘rindilar. «Xush kelibsiz», dedilar. Ovozlari shunday mayin, shunday sof.

Bobur Andijondan Oyisha begimni o‘ylab kelib, endi ko‘risholmasligi, balki sabrsizlik qilgan kabi qiz tomonni ham ranjitishi unga bedavo bir dard bo‘lib tuyildi.

No‘yon Ko‘kaldosh bu dardga dori topmoqchiga o‘xshab qo‘yniga qo‘l soldi-yu, jajjigina oq ipak xaltacha oldi.

– Oyisha begimning nomidan sizga buni Mehr Nigor xonim berib yubordilar.

Bobur xaltachani qo‘liga olganda ichida hech narsa yo‘qday tuyildi. Bog‘ichini ochib, xaltachani kaftiga sekin ag‘dargan edi, ikki dona gavhar tushdi. Har biri guruchdan sal kattaroq, ammo xiyla salmog‘i bor. Jilosi nafis va ulug‘vor.

– Sirtiga ham qarang, – dedi No‘yon.

Nozik munchoqlar bilan bezatilgan xaltachaning sirtiga kashtaga o‘xshatib tikilgan chiroyli ipak yozuvni Bobur endi ko‘rdi. «Najotkorimizga» degan birgina so‘z unga butun bir muhabbatnomadek shirin tuyildi. Oyisha begim bu ipak yozuvni oldindan tika boshlagan bo‘lsa kerak. Aks holda, No‘yon borgan zahoti tikib ulgurmas edi. Demak, u Boburning najot keltirishiga ishongan!

– Amirzodam, qo‘lingizdagi gavharlarning tarixini eshiting, – deb davom etdi No‘yon. – Bular Sulton Ahmad mirzoning sallalariga qadalgan asl gavharlardan ekan. Uning mungliqlari tilak bildirdilarki, Sulton Ahmad mirzoning shu gavharlari siz bilan birga yana

Samarqand taxtiga chiqsin-u, sizning aziz boshingizda yuz yil bezavol porlab tursin!

Sulton Ahmad mirzo tilga olinganda Boburning ko'ngli bir xira tortdi. Ammo uning qo'lidagi gavharlar shunday musaffo tovlanar ediki, ularda porlagan go'zal nur qallig'ining ko'zlaridan nishona berib turganga o'xshardi.

– Mayli, mungliqlar tilagandek bo'lsin! – dedi Bobur No'yonga.

So'ng sekin qarsak chalib, dastorpechni chaqirtirdi.

Dastorpech bu gavharlarni Boburning tantanali marosimlarda o'raydigan sallasiga qadab qo'ydi.

Shu oqshom Bobur g'oyibona mehr qo'ygan qallig'ini ko'rgisi kelib, g'azal yoza boshladi:

*Jamoling vasfini, ey oy, necha eldan eshitgaymen  
Ne kun bo'lg'ay visolingga meni dil xasta etgaymen?*

## 2

Qish chillasi avjida. Izg'irinli yellar esadi. Qo'l-oyoqlariga kishan solingan, kiyimlari yirtiq mahbuslar Samarqandning Registon maydonida sovuqdan qaltirab, shahar qozisining hukmini tinglaydilar.

Ishonchli amaldorlarning aniqlashlariga qaraganda, bular Bobur mirzoga xiyonat qilganlar – qamal paytida unga maxfiy odam yuborib, «kechasi kelinglar, darvozani ochib berurmiz», deganlar. Boburning bir dasta botir navkarlari G'ori Oshiqon oldidan qal'aga oshib o'tganda, xiyonatchilar ularni dushmanlariga tutib berganlar.

– Biz emas! Tutib berganlar qochib ketmishlar! – yig'lamsirab qichqirdi mahbuslardan biri. Ammo uning so'ziga hech kim e'tibor bermadi. Farmoni oliyga binoan jallod ularning qo'llarini orqalariga bog'lab, maxsus chuqur oldiga cho'kkaletib qo'ydi-

da, bo'g'izlariga xanjar tortdi. Qatl etilganlarning issiq qoni maydonning toshlariga sachrab, sovuqda hovur chiqarib bug'lanar edi.

Kechasi bo'ralab yoqqan qor buning hammasini bekitib, borliqni oppoq qilib ketdi. Ertasi kuni tushdan havo yumshab, gumbazlarning qorlari erib tusha boshladi.

Peshin namozidan keyin Bobur mirzo o'tlanib Samarqand rastalarini aylanishga chiqdi. Yonida eshik og'a Qosimbek, Ahmad Tanbal va Xonquli degan yana bir bek orqaroqda navkarlar bilan kelishmoqda. Shaharning qayerida nima borligini yaxshi biladigan samarqandlik keksa shoir Javhariy ularga yo'l ko'rsatib, oldinda boryapti.

Ulug'bek qurdirgan ulkan gumbazli xonaqodan o'tganlaridan keyin Javhariy kunchiqish tomondagi ko'chani ko'rsatdi.

– Amir Alisher Samarqandga kelganlarida, mana shu ko'chadan ko'p o'tar edilar. Mazkur ko'channing oxirida Alisherbekning ustozlari faqih Abdullays istiqomat qilur edi. Uylari hali ham bor.

– Siz Mir Alisherning suhbatlarida bo'lganmisiz? – so'radi Bobur.

– Ha, yoshimiz Alisherbek bilan teng edi, ammo faqir u zotni ustoz o'rnida ko'rur edim, mudom ash'orlarimni o'qib berib, maslahat olur edim. Unutmagan ekanlar, «Majolisun nafois» nomli kitoblarida faqirni ham tilga olmishlar.

Soqollari oppoq, qoshlariga ham oq tushgan Javhariy hozir Boburning havasini keltirdi. Qani u ham Navoiyning nazari tushgan shoirlardan bo'lsa! Ammo Bobur hali mashq she'rlar yozishdan nariga o'tgan emas, ularni birovga ko'rsatishga uyaladi. Shunday bo'lsa ham katta shoir bo'lish orzusini hech tark etmaydi. Mana shu orzuning ta'sirida bugun Bobur o'ziga yo'l ko'rsatuvchilikka Samarqandning

mashhur beklarini emas, Navoiyni koʻrgan moʻtabar shoirni taklif qilgan edi.

Javhariy ularni novvoylar mahallasiga boshladi. Koʻchalar allanechuk huvillagan. Bosilmagan qor otlarning tizzasiga chiqadi. Soya joylarda izgʻirin yuzni yalab oʻtsa ham, oftob tushib turgan paxsa devorlar va tom boʻgʻotlari erigan qordan hoʻl boʻlib borar edi.

Bobur tomlarga qaradi. Birortasi kuralmagan. Tom kurayotgan bironta odam koʻrinmaydi. Novvoylik rastasiga kelsalar, qator doʻkonlarning hammasi yopiq. Boburning taajjubi ortib, Javhariyga qaradi:

– Mavlono, novvoylar koʻchib ketganmilar?

– Mirzo hazratlari uch oydirki, rastaga non chiqmaydi. Chunki un yoʻq. Qamalda koʻp novvoylar ochdan oʻlib ketdi. Odamlar holdan toygan. Tomga chiqib, qor kurashga ham madorlari yoʻq.

Bobur bunga sababchi boʻlgan odamdek oʻngʻaysizlanib, Qosimbekka qaradi. Qosimbek esa shoirga kesatibroq gapirdi:

– Novvoylarning tirik qolganlari ham bordir, mavlono?

– Albatta, bor. Lekin yordamga muhtoj. Qani, endi amirzodam buyursalar-u novvoylarga un berilsa. Rastalar yana ochilsa, Samarqandning mashhur nonlaridan odamlar toʻyib yesa.

Bobur Javhariyning aytganini qilmoqchi boʻlayotganini sezib, Qosimbek buning oldini olishga intildi:

– Amirzodam, bizda ham oshliq oz qoldi. Qoʻshinga zaxira kerak. Rastalarga hozir un berolmasmiz. Balki keyinroq...

Keksa shoir Boburga umid bilan qarab turibdi... Shu payt uning qora movut chakmonimi, xiyol egik yelkasimi, kalta qirqilgan soqolimi, nimasidir Boburga Navoiyning Behzod chizgan rasmini eslatdi. Bobur mavlononi noumid qilsa, Navoiyning umidini ham

oqlolmaydiganday bo'ldi. U Qosimbekka buyruq ohangida gapirdi:

– Biz unni rastalarga emas, novvoylarga bermog'imiz kerak. Ishonchli bir kishi nazorat qilsin, novvoylar non yopib, bizning nomimizdan ochlarga tarqatsinlar. Besh-olti qop un bilan qo'shin zaxirasiz qolmas. Jizzaxga yuborilgan karvon erta-indin oshliq olib qaytgusi!

– Saxovatingizga ofarin, Mirzo hazratlari! – deb Boburning so'zlariga faqat Javhariy quvonch bildirdi.

Semiz to'riq ayg'irning jilovidan tortib turgan Ahmad Tanbal mavlonoga qarab po'ng'illadi:

– Amirzodam Boysunqurdan qolgan ochlarning qaysi biriga oshliq yetkazsinlar? Biz bularni boqishga keldikmi?

Ahmad Tanbal, «amirzodam» deb, go'yo Boburga jon kuydirib gapirgan bo'lsa ham, aslida Boburning hozirgi buyrug'idan noroziligi sezilib turardi.

Ahmad Tanbal O'shda Xonzoda begimga odam qo'yib niyatiga yetolmaganidan beri Boburga qarshi adovati avvalgidan o'n hissa ortiq bir kuch bilan xuruj qilmoqda edi.

– Janob Ahmadbek, – dedi Bobur. – Biz Samarqandni boqish uchun kelmagan bo'lsak, talash uchun ham kelgan emasmiz!

Tanbal kecha zargarlarni talatganini eslab, ko'zlari bir bejo bo'ldi. Ammo o'zini osoyishta ko'rsatib:

– So'zingiz to'g'ri, Mirzo hazratlari, – dedi. Biroq shuncha jang-u jadal bilan olgan shahrimizdan ozgina o'ljador bo'lishga nahotki haqimiz yo'q? Axir g'oliblarning o'lja olishi ota-bobolarimizdan qolgan rusum-ku!

Tanbalning gapi navkarlar orasida turgan Xonqulibekka juda yoqib tushgani uning kulimsirab, bosh irg'aganidan bilindi. Ko'pchilik navkarlar ham Ahmad Tanbalni haq deb bilar edi. Samarqanddan durust o'lja

ololmagan beklarning barchasi norozi bo'lib yurgani ma'lum edi. Shu tobda Bobur o'zini ikki o't orasida qolganday sezdi. Beklar-u navkarlarning ko'ngliga qaray desa, bu yoqda raiyat ocharchilikdan o'lyapti. Raiyatni ochlik changalidan qutqazay desa, beklar-u navkarlar: «Bular nega bizning nasibamizga sherik bo'ladi?» deb dod soladi.

Bobur Qosimbekka umid bilan ko'z tikdi-yu:

– Ocharchilikka faqat Boysunqur mirzo sababchimi? – dedi. – Agar biz shaharni yetti oy qamal qilmasak, bu baxtsizlik bo'lmasligi mumkin edi-ku!

Qosimbek Boburning Tanbal qarshisida yakkalanib qolishini istamadi-yu, munozarani tezroq tugatishga tirishdi:

– Amirzodamning so'zlari qulingizga sari toj bo'lsin! Ertagayoq novvoylarga un berib, ochlarga non yoptirib tarqatishni men o'z zimmamga olurmen!

Bobur Qosimbekka minnatdorona ko'z tashlab:

– Gap tamom, – dedi. So'ng Javhariyga yuzlandi. – Qani endi sahhoflar<sup>1</sup> rastasiga o'taylik. Javhariy ularni qing'ir-qiyshiq bir ko'chaga boshlar ekan, Ahmad Tanbal, qovoq-tumshug'i osilib, Boburning ketidan ergashdi. Keng bir sahnga chiqdilar. Yopiq turgan sahhoflik do'konlari ko'rindi. Ikki do'kon oralig'idagi ikki tavaqalik darvoza ichidan avval qandaydir shovqin eshitildi, so'ng oyoq yalang, bosh yalang bir kampir dod solib chiqdi:

– Voy bolamni o'ldirganlar kun ko'rmasin! Och qolib, shishib o'lsin!

Kampirning ketidan o'rta yashar ozg'in bir erkak yugurib chiqdi-yu, otliqlarni ko'rib, qo'rqqanidan bir lahza angrayib turib qoldi. Kampir hamon bor ovozi bilan baqirib qarg'ardi:

---

<sup>1</sup> Sahhof – muqovachi. Kitob savdosi bilan sahhoflar shug'ullangan.

– Dushmanning o‘zi qamalda qolib o‘lsin! Iloyo mening bolamday ochdan o‘lsin! O‘lsin!!!

Javhariy otini erkak kishi tomonga burib:

– Mulla Qutbiddin, nima bo‘ldi? – deb so‘radi.

Mulla Qutbiddin endi hushini yig‘ib, kampirga qarab chopdi. Ozg‘ingina, madorsiz kampirni sudrab hovliga olib kirib ketdi-da, entikib qaytib chiqdi. Qo‘l qovushtirib otliqlar tomonga kelar ekan:

– Afv etgaysizlar, – dedi. – Og‘amning zaifasi farzand dog‘idan telba bo‘lib qoldi.

Bechoraning o‘g‘ilchasi ochlikdan kunjara yegan ekan, shishib o‘ldi.

Og‘ir sukunatda Boburning:

– Yana bu sho‘rliklardan o‘lja olmoqchi bo‘lurlar! – degan kinoyali so‘zlari eshitildi-yu, Ahmad Tanbal bilan Xonqulibekka o‘qday tegdi.

Mulla Qutbiddin Samarqandning taniqli sahhoflaridan edi. Mavlono kim kelganini sahhofga sekin aytdi. Mulla Qutbiddin ko‘pdan beri ochilmagan do‘konini shosha-pisha ochdi. Bobur otdan tushib, mavlono bilan birga do‘konga kirdi. Mulla Qutbiddin bisotida bor eng nodir kitoblarni bir-bir olib, changlarini artib, Boburga ko‘rsata boshladi. Qimmatbaho zarhal muqovalar ichida Mahmud Koshg‘ariy, Abdurahmon Jomiy... Sharafiddin Ali Yazdiyning Behzod suratlari bilan bezangan «Zafarnomasi»... Abdurazzoq Samarqandiy... Ha, mana. Navoiyning «Mezonul avzoni». Bu kitobni Bobur ko‘pdan beri so‘roqlab yurgan edi. U oltinga topilmaydigan ajoyib kitoblarning ko‘pligini ko‘rib, afsonaviy xazinaga kirib qolganday hayajonlanar, nuqul:

– Yana ne bor? Yana? – deb so‘rardi.

Mulla Qutbiddin ham biri-biridan noyob kitoblarni uning oldiga qalashtirib tashladi. Mashhur xattotlar katta pullar evaziga ko‘chirgan, har bir varag‘iga nafis bezaklar ishlangan bu qo‘lyozma kitoblarning har



biri bir necha ming dinor turishini Boburning yonida turgan Qosimbek ham bilar edi. U Samarqand xazinasi ship-shiydam ekanini, Andijondan olib kelingan oltinlar esa ko'pga bormasligini o'ylab qarab turardi. Nihoyat, Bobur ajratib olgan kitoblar o'ndan oshganda, Qosimbek sekin shipshidi:

- Amirzodam, hozir xizonachi yo'q...

Kitoblardan boshqa narsani unutgan Bobur Qosimbekning shamasini tushunmadi.

- Xizonachini yuborurmiz, - dedi va tanlagan kitoblarini sahhofga ko'rsatdi: - Hammasini hisoblab qo'ying. Kitobdor bilan xizonachi pulini to'lab, olib keturlar.

Mulla Qutbiddin qo'l qovushtirib:

- Bosh ustiga! - dedi-yu, ammo uning nimanidir aytolmay, taraddudlanayotgani Boburga sezildi.

- Ne tilagingiz bor, mullo? Ayting, tortinmang. Kitoblaringiz bebaho!

Bobur bu kitoblar uchun mol-dunyasini aya-maydiganday ko'rindi. Sahhof dadillanib:

- Mirzo hazratlari, - dedi. - Hozir pulga oshliq topilmaydi. Bolalarim, «non» deb yig'lab, har kuni yurak-bag'rimizni ezurlar. Agar iloji bo'lsa, ozgina un...

Boburning ko'z oldiga boyagi telba kampir keldi-yu, sahhofning muhtojligini oldinroq sezmagani uchun o'zidan koyindi. Qosimbekning novvoylik rastasidagi e'tirozlari esiga tushib, unga hech nima demadi. Yana beklarning jinini qo'zg'amaslik uchun sahhofga kerakli narsani saroy oshpazidan berib yuborishni ko'ngliga tugdi. Sahhofga past tovush bilan:

- G'am chekmang, - dedi. - Tilagingiz amalga oshur. Xayr!

Bobur tashqariga chiqdi. Ahmad Tanbal hamon otidan tushmay o'shshayib turar edi.

Shu kuni shomda kitoblarni olib ketishga kelgan kitobdor va savdarlar sahhofga so'ragan pulini

berishdi-yu, uning uyiga bir qop un va bitta semiz qo'y tushirib ketishdi.

Ertasi kuni novvoylik rastasiga Qosimbekning navkarlari bir arava un olib kelganliklari, qor tagida sovib yotgan tandirlarga o't qalanib, issiq non hidi atrofga taralgani, otliq jarchilar podshoh nomidan ochlarga non ulashilishini e'lon qilgani hammaning qulog'iga borib yetdi. Novvoylik rastasiga kelib, xushbo'y bug'doy nonining ta'midan ko'zi charaqlab ochilayotgan ochlar Boburdan nechog'lik mamnun bo'lsalar, tamagir bek va navkarlar: «Bizning og'zimizdan olib, avboshlarga berdi!» – deb, yosh podshohdan shunchalik norozi edilar. Samarqanddagi ochlik va tanqislikdan bezgan bir qism jangchilar Andijonga qaytib ketishga intila boshladilar.

### 3

Tandirdan uzilgan nonlarni qopga solib chiqib, ochlarga ulashayotgan navkarlardan biri – Tohir edi. Avval u ham: «Menga nayza sanchib, onamning o'limiga sabab bo'lgan yog'iy'larga xizmat qilgani kelganmi men?!» deb achchiqlandi-yu, lekin uvada kiyingan, bo'yinlari qiltiriqday bo'lib qolgan och o'smirlarga, chollarga, ayollarga ko'zi tushganidan keyin hovuri bosildi. Ichkaridan ola qopda issiq non ko'tarib chiqar ekan: «Balki bu ayollarning orasida Robiya ham bordir? – deb o'ylandi. – Yoki Robiyani ko'rgan-bilganlar uchrab qolar?» Tohirning boshida tulki telpak, egnida pochapo'stin, so'nggi oylarda mudom otliq yurib, qadam olishi xiyla o'zgargan. Uzangiga o'rganib ketgan oyoqlari yerda avvalgiday ravon odimlay olmaydi. Ammo qo'llari chavandozcha bir chaqqonlik bilan qopga tez tushib chiqadi. Ko'zlari lo'q ochlar Tohirning o'zini emas, non ulashayotgan qo'llarini ko'rishadi, xolos. Ularning ko'pi imillab,

kichik-kichik qadam tashlab juda sekin harakat qilishadi. Yo'llarida kichkina ariq yoki do'nglik uchrab qolsa, o'tolmay to'xtab qolishadi. Baquvvatroqlari suyab, ko'maklashib o'tkazib qo'yishadi.

Tohir odamlarning har birini sinchiklab ko'zdan kechiradi. Nahotki, ularning orasida Robiyani ko'rgan-bilgan birorta odam bo'lmasa? Ana, bir ayol to'n yopinib, yarim o'girilib turibdi. Tohir uning yonidagi kampirga qarab:

– Xolalar, oralaringda andijonlik yoki quvalik ayollar bormi? – deb so'radi.

Kampir tojikcha talaffuz bilan:

– Undoqlar yo'q, aylanay, – dedi.

Tohir yuzlab marta aytgan so'zlarini takrorlab:

– Singlimni izlab yuribman, – dedi. – Sulton Ahmad mirzoning askarlari Quvadan olib qochib ketganiga to'rt yil bo'ldi.

– Bechora! – deb qo'ydi kampirning yonidagi ayol.

Nariroqda nonga ko'z tikib turgan bir kishi sabrsizlanib yo'taldi. Tohir non ulashishda davom etar ekan, o'ttiz besh yoshlardagi, siyrak malla mo'ylovli novcha bir kishining qarshisida to'xtadi.

– Siz ilgari navkar bo'lganmisiz?

Yuzi shishinqiragan bu odam xavotirli tovush bilan:

– Ha, – dedi.

– Qachon?

– Ko'p jil bo'ldi.

– Andijonga borganmisiz?

– Jo'q... berirog'idan qaytkanmiz.

Bu odamning talaffuzi o'shanda Robiyani qopga solib olib ketgan «jo'q»chi yigitlarni eslatdi-yu, Tohirning vujudi qaltirab ketdi. Ehtimol, bu o'sha bosqinchilarning biridir? Tohir orqasiga o'girilib, novvoyxona tomonda turgan sherigini chaqirdi. Qopning tagida qolgan nonlarni unga berdi-yu, malla

mo'ylvli kishini bilagidan olib, bir chetga boshladi. U odam qo'rquvdan bo'shashib, kalovlanib, to'xtab qoldi:

– Ukajon, men bir bechora odamman! Meni qo'yib jubaring! Nong'a kelib edim... Nong'a!...

Tohir kalavanning uchini shu odam topib berishi mumkinligini sezib, muloyimroq gapirishga tirishdi.

– Non olasiz. Sizga ko'proq non beramen. Menga rostini ayting. Sulton Ahmad mirzoga navkar bo'lganmisiz?

– Bo'g'anmen.

– Andijondan beridagi Quvaning ko'prigidan o'tganmisiz?

– Qaysi ko'prik? Sinib ketib, bizni xarob qilg'an ko'prikma?

– Xuddi o'zi! – dedi Tohir g'azab aralash quvonch bilan. Mana, o'sha bosqinchi! Tohir unga hozir xanjar ursa bir alamdan chiqar edi. Ammo Robiya nima bo'ladi? Buni o'ldirsa, Robiyani kimdan so'roqlab topadi?

Tohir malla mo'ylvli yigitni yoqasidan olib qahr bilan silkitdi:

– Robiya qani? Ayt tezroq!

Ochlikdan darmoni ketib, zo'rg'a yurgan yigit Tohirning siltalashidan to'kilib, parchalanib ketadiganga o'xshardi. U nafasi ichiga tushib:

– Qa-qaysi Rokiya? – dedi.

– Rokiya emas, Robiya? U qizni Quvadan olib qochib qayoqqa olib bordilaring? Hozir qayerda?

Rostini aytmasang, kallangni olamen! Ayt!

– Uka! Ukajon! Men Robiya degan qizni ko'rganim jo'q. O'ldirsang, mayli, o'ldir, lekin mendan bekorga gumonsirama, o'shanda men qiz obqochadigan ahvolda emas edim. Tug'ishgan ukam ko'prikdan jig'ilib, suvg'a og'ib o'ldi. Qamishlarning orasidan uch kun qidirib o'ligini topolmadim. Balchiq jutib ketgan ekan.

Tohir o'sha ko'priknini o'zi buzganini esladi, malla mo'ylovli yigitning ko'zlari yoshlanganini ko'rdi-yu, uning yoqasini qo'yib yubordi.

Robiyani qopga solayotgan «jo'q»chi yigitlardan biri ikkinchisini «Juman» deb atagani Tohirning yodida qolgan edi. U qarshisida ko'zlari mo'ltirab turgan odamga tikilib:

- Oting nima? - dedi.

- Otim Mamat.

- Mamatmi yo Jumanmi?

- Uka, ishonmasangiz, mana shu mahallaning odamlarini chaqirib so'rang. Otim Mamatligini hamma biladi. O'zim ko'nchi kosibman.

Tohir o'zicha o'ylandi: «Agar ukasi Quvada balchiqqa botib o'lgan bo'lsa, bu ham mening giribonimdan olishga haqi bor!» Shu o'y ta'sirida Tohir jahlidan tushdi. Mamatga yana «siz»lab gapira boshladi:

- Jumanni bilarmidingiz?

Mamat peshonasini ushlab, nimanidir eslashga tirishdi:

- To'xtang, to'xtang, Juman maymoq deganimiz bo'lar edi. Sheriklari bilan o'sha yoqdan ikkita qiz obqochib kelgan, deb eshitib edim.

- Samarqandga olib kelganmi?

- Qizlarnimi? Bunisini bilmadim. O'ratepaning naryog'ida Oqsuv degan soy bor. Oqsuvga jetganimizda podshomiz o'lib qoldi. O'shanda bir alg'ov-dalg'ov boshlandi, mana haligacha bosilmaydi. Navkarlik ham jonimga tegdi, bo'shab ketdim.

- Juman maymoq hozir qayerda?

- Bilmadim-ov. Uch-to'rt jildan beri ko'rgan emasmen. Battarin jigit edi, o'lib ketdima yo boshqa podshoning xizmatiga o'tib ketdima. Podshoh ham ko'p-ku. Toshkentda Mahmudxon degani, Turkistonda Shayboniyxon degani, Hisorda yana birovi.

– Bu podsholarning urush-janjallari boshlaridan qolsin! – dedi Tohir kuyunib. – Siz bir kosib bo'lsangiz. Men bir dehqon edim. Kelib-kelib bizday zahmatkashlarni bir-birimizga dushman qilib qo'yan zamonaning uyi kuysin!

Mamat Tohirning xanjar izi qolgan yuziga endi botinibroq qaradi:

– U qiz kimingiz bo'lar edi, uka? Singlingizmidi?

– Ko'zimning oq-u qorasi edi!

Mamat gap nimadaligini fahmlab, Tohirga xiyol hayratlanib tikildi. So'ng uning armon to'la ko'zlarini ko'rib, bu yigitga o'zini allanechuk yaqin sezdi va unga tasalli bergisi keldi:

– Xudo xohlasa, toviladi! Mening tanish-bilishlarim ko'p, uka. So'roqlayman. Xotiningga aytaman. Ayollardan surishtiradi.

Mamatning astoydil yordam bermoqchi ekanini sezgan Tohir uni yengidan oldi-yu:

– Bu yoqqa yuring, – dedi. Mamatni novvoyxonaning yo'lagiga olib kirdi-da, ichkaridan to'rtta non olib chiqdi.

– Oling! Siz bu yerga nonga kelgan edingiz.

Mamat nonlarni titroq qo'llari bilan olib, qo'yniga tiqdi. Issiq bug'doy nonning hidi va taftidan og'ir-og'ir nafas olib, ustma-ust yutindi. U har qancha och bo'lsa ham Tohirning oldida darhol non kavshashdan o'zini tutdi. Faqat nonning hididan mast bo'lganday ezmalanib, gapira boshladi:

– Nonday aziz bo'ling, uka. Biz ko'rgan kunlarni hech ko'rmang. Qo'ldan berganga qush to'ymas. Jotib jesang bu non ikki kunga ham jetmaydi. Lekin men shuning kuchi bilan qishlog'imga jetib olaman. Ana u tovning orqasida og'a-inilarim bor. Biz o'zbekning qo'yanquloq urug'idanmiz. Qishlog'imga jetib borsam, bir-ikki qop g'alla tovib kelaman. Lekin bo'sh qop tik turmas ekan, uka. Bitta cho'bir otim bor edi, kuzda

soʻyib jeb qoʻydik. Piyoda ketay desam, och odam tovda jigʻilib sovuqda qotib oʻlaman, deb qoʻrqdim. Mana endi qoʻrqmasam boʻladi...

– Men sizni qayerdan topamen? – dedi Tohir unga avvalgi vaʼdasini eslatib.

– Koʻnchilik guzarida uyim bor. Mamat polvon desangiz, hamma biladi. Bir vaqtlar polvon edik, uka. Mana endi gavdamizni zoʻrgʻa koʻtarib juribmiz.

– Esingizda boʻlsin, qizning oti Robiya.

Mamat polvon bu nomni bir-ikki takrorlab, xotirasiga joylagach:

– Agar xabari chiqsa, sizni qayerdan tovaman? – dedi.

– Qosimbekning navkarimen. Otim Tohir.

– Xoʻp, Tohirbek, men sizni qidirib tovamen. Bizning odamlar sizga jamanliq qilgan boʻlsa, siz menga jaxshiliq qildingiz. Bu jaxshiligʻizni albatta qaytaraman. Xayr!

Tohir uning orqasidan qarab qoldi. «Quvada ukasining balchiqqa botib oʻlganiga men sababchi boʻlganimni bilsa nima qilarkin?» deb oʻylandi.

Mamat esa nariroqqa borib, shosha-pisha qoʻyniga qoʻl tiqdi-yu, issiq nondan bir burda uzib olib, tez ogʻziga soldi.

#### 4

Andijonlik bek va navkarlar «Samarqandni olsak hamma mushkullarimiz oson boʻladi», deb oʻylagan edilar. Biroq eng katta ishkalliklar Samarqand olingandan keyin boshlandi. Uch ming kishilik qoʻshinning besh-olti ming ot-ulovi bor. Qahraton qishda qamaldan abgor boʻlib chiqqan shaharda na ochlarni toʻydirib boʻladi, na qoʻshinga oziq-ovqat yetkazib boʻladi, na otlarni yem-xashak bilan taʼminlab boʻladi. Shahar darvozalari ochilgan, bu

yog'i O'ratepagacha, bu yog'i Qarshigacha barcha tomonlarga tuya karvonlari jo'natilgan, bozor va rastalarni tiriltirish uchun turli choralar ko'rilayotgan bo'lsa ham poytaxtda hayot hali-beri izga tushadiganga o'xshamas edi. Samarqand so'nggi yillarda ko'p marta qo'ldan-qo'lga o'tib, dahshatli talon-torojlardan qashshoqlanib qolgan edi.

– Bu mushkulotlar ko'z ochib-yumguncha o'tib ketgay, – deb, mashvaratlarda Boburning ustози Xo'ja Abdulla andijonlik beklarni sabr-qanoatga chaqirar edi: – Bahor yaqin, pishiqchilikka yetsak, og'ir kunlarni ko'rmagandek bo'lib keturmiz. Tanqisliklar o'tur, ammo bu yog'i Qarshi-yu Shahrizabzgacha, u yog'i O'sh-u O'zgangacha – shunday ulug' mamlakat qolur. Tangrim bizga shunday katta kishvarni inoyat qilgani uchun, biz Samarqandday olamshumul dorussaltanaga muyassar bo'lganimiz uchun shukronalar aytmog'imiz kerak. Bobur mirzoning orzulari shulkim, Movarounnahr yana Ulug'bek davridagi kabi birlashsa, poytaxt asliga qaytsa, hamma viloyatlar hamjihat-u obod bo'lsa. Amirzodamning bu orzulari siz-u bizning muqaddas maqsadimizdir. Ilohi omin, Parvardigori olam bizni bu maqsadimizga ham yetkazsin!

Bu gaplar Xonqulibek va Ahmad Tanbalga o'xshagan beklarning g'ashiga tegsa ham, ular mashvaratga to'plangan boshqa beklar qatori:

– Ilohim omin! – deyishib, yuzlariga fotiha tortadilar. Chetdan qaragan odam buni yakdillik belgisi deb o'ylaydi.

Ammo beklar mashvaratdan yangi bir vazifani zimmalariga olib, uy-uylariga tarqalganlaridan keyin xilvatda ikkita-uchtadan bo'lib olib, g'iybatga tushib ketishadi:

– Xullasi kalom, Bobur mirzongiz Ulug'bekdek ulug' odam bo'lmoqchi ekanlar-da, Ahmadbek? – so'raydi Xonqulibek istehzo qilib.



Ular baxmal ko'rupa yopilgan issiq sandalning ikki chetida o'tirib, kechki taomni birga emoqda edilar. Ahmad Tanbal qazidan bir parra olib, kinoya bilan kuldi:

- Ha, Bobur mirzoyingiz ulug' odam bo'lishlari uchun yana birgina narsa etmay turganmish...

- Xo'sh?

- Bugun mashvaratda aytdilar-ku! Samarqand dehqonlari ocharchilikda urug'lik donlarini yeb qo'ygani emishlar. Biz Qarshiga karvon yuborib, olib kelgan donlarimizni dehqonlarga qarz berur emishmiz.

- Dard ustiga chipqon!

- Iloj qancha, Xonqulibek! Yosh podshohimiz ulug' bo'lishlari uchun hammasiga chidaysiz. Yana bu kishim Samarqandga kuyovlar, qalliq-lari bor. Domod raiyatga o'zlarini yaxshi ko'rsatmoqlari zarur. Bu ham etmaganday, yosh podshohimiz har haftada shoirlarni to'plab mushoira o'tkazmoqdalar.

- Shoir ham bo'lmoqchilar shekilli-da!

- Ha, bizning nasibamizga qayoqdagi shoirlarni ham sherik qilganlari ana shu sababdan!

Xazinadagi oltinlarni sovurib, qator-qator qimmatbaho kitoblar olishlari ham ana shundan!

Xonqulibek soqolini g'ijimlab:

- Etak silkib, Andijonga ketay desam, ruxsat bermaydir, - dedi. - Tangri haqi, Boburingizdan to'ydim, Ahmadbek!

Ahmad Tanbal zaharxanda qilib kuldi-da, o'rnidan turib eshikni zichlab yopdi. Joyiga kelib o'tirgach:

- Xonqulibek, - deb tovushini pasaytirib gapira boshladi, - beklar bo'lmasa, podshohlarning ilkidan hech ish kelmaydir. Navkarning ko'pchiligi bizniki. Jangni biz qildik. Azobni biz tortdik. Endi bunday mute bo'lib, yosh yigitchadan ruxsat so'rab o'tirmog'imiz ne kerak?

– Gapingiz rost! – shivirladi Xonqulibek. – Podsho bo'lsa o'ziga! Ruxsat bermasa bermasin, men baribir keturmen!

– Men ham bu yerda xor bo'lib yurmoqchi emasmen. Omon bo'lsam, podshoh topilur. Axsida Jahongir mirzo bor. Buxoroda Sulton Ali mirzo bor. Bularning urug'i ko'p. Hammasiga siz-u bizdek beklar kerak. Sizga mening maslahatim – Andijonda ko'p turmang. Ilikka tushib qolursiz.

– Axsiga boraymi?

– Ha, Axsida Uzun Hasanga uchrang. Sizni Jahongir mirzoning xizmatiga olur.

– Olurmikin? Balki Jahongir mirzo Boburga qarshi borolmas?

– Siz-u bizday beklari ko'paysa borur! Jahongir mirzo Andijon taxtiga ishqiboz...

... Ikki bek shu kuni gapni bir joyga qo'ydilar-u ertasi kuni kechasi Ahmad Tanbalning ishonchli odamlari Feruza darvozasida soqchilik qilayotgan paytda Xonqulibek elliktacha navkari bilan sekin shu darvozadan chiqib qochdi. Oradan bir hafta o'tgach, Ahmad Tanbalning o'zi Zomonga karvonni kuzatib borish bahonasi bilan navkarlarini ergashtirib ketdida, Samarqandga qaytmay, to'g'ri Axsiga yo'l oldi. Shundan keyin shahardan tashqariga zarur ish bilan yuborilgan bek va navkarlarning qaytib kelmaslik hollari tobora ko'paydi. Kechalari qal'a devorlaridan oshib tushib qochayotganlar buning ustiga qo'shildi. Qishning oxiriga borib, Samarqandga Bobur bilan kelgan bek va navkarlarning yarmi ham qolmadi.

Odami juda siyraklashib qolgan Bobur ketganlarni qaytarib kelish uchun eng sodiq beklardan birini Andijonga yubordi. Biroq oradan yigirma kun o'tgach, bu bekni Ahmad Tanbal va uning tarafdorlari Andijon bilan Aysi oralig'ida tutib olib o'ldirganligi haqida xabar keldi.

Farg'ona vodiysida yomon bir fitna boshlanganiga endi shubha yo'q edi.

Fitnachi beklarning bir qanchasi Xo'ja Abdullaga qo'l berib, unga murid bo'lganliklari ma'lum edi. Bobur Qosimbek bilan maslahatlashib, oxiri Xo'ja Abdullani Andijonga yubordi.

Bobur taxtga o'tirgan kezlarda Xo'ja Abdullaning gapiga kirgan Uzun Hasan va boshqa fitnachi beklar bu gal uning nasihatlari-yu va'dalariga mutlaqo quloq solmadilar. Nihoyat, fitnachilar Andijonga hujum qildilar. Xo'ja Abdulla boshliq sodiq beklar shahar darvozalarini berkitib, qamalda qoldilar.

\* \* \*

Bu mudhish xabar Samarqandga yetib kelganda, Bobur qattiq betob bo'lib, Bo'stonsaroyning ikkinchi qavatidagi xobgohda isitmalab yotgan edi. Andijondan kelgan chopar o'ram qilib, so'rg'ichlangan maktubni yasovulga ko'rsatdi-yu, ammo bermadi:

– Hazrati xonim «amirzodaning o'z iliklariga bering», deb buyurganlar!

Bobur har kuni necha qayta: «Andijondan chopar bormi?» – deb so'rar edi. Yasovul choparni darhol yuqoriga boshladi.

Xobgoh eshigi oldida ularni Boburning shaxsiy tabibi bo'lgan kichik jussali mo'ysafid to'xtatdi:

– Bu kitobatni avval Qosimbek o'qimoqlari kerak. Agar xushxabar bo'lsa, keyin amirzodamga berursiz.

– Onalari, buyurganlar, ustodlari Xo'ja Abdulla ham tayinlaganlar, amirzodamning o'zlari o'qimoqlari kerak.

– Yomon xabar Mirzo hazratlarini xarob qilishi mumkin! – dedi tabib kuyunib. – Asli o'zlari tumovlab tuzalish arafasida edilar. Tashvish ustiga iztirob, iztirob ustiga kulfat, hammasi qo'shildi-yu, muolajani

oxiriga yetkazmay, turib ketdilar. Mana bugun uzlikib, ahvollari og'irlashib yotibdilar!

– Andijon xavf ostida. Agar tezroq bildirmasak, keyin kech bo'lur, bizdan norozi bo'lurlar!

– Yo'q, men hozir ijozat bermaydirmen!

– Janobi tabib...

– Yo'q, yo'q!

Bu bahs ichkarida yotgan Boburning qulog'iga chalindi. U baland tovush bilan:

– Chopar bo'lsa kirsin! – deb buyurgandan keyin, tabib choparga yo'l berdi.

Bobur katta tanobiy xonaning to'rida yerdan bir gazcha baland qilib solingan parqu to'shakda yotgan edi. Chopar to'shakdan ancha berida yukundi-da, tizzasida sirg'alib borib, maktubni Boburga ikki qo'llab uzatdi. Isitmaning zo'ridan bo'g'riqib yotgan Bobur yonboshga turib, maktubni titroq qo'llari bilan ochdi. Ichma-ich ikkita xat. Birida Xo'ja Abdullaning imzosi. Birini Qutlug' Nigor xonim yozgan. Ular ikkovi ham Andijonning dahshatli ahvoli, qamal tafsilotlari haqida yozishgan. Boburdan boshqa najotkorlari yo'qligini aytishib, tezroq yetib kelishini iltijo qilishgan edi. Andijon qurshovda! Fitnachi beklar Andijon taxtiga Jahongir mirzoni o'tkazmoqchilar. Ahmad Tanbalni lashkarboshi qilishib, Boburdan ota yurtini tortib olmoqchilar! Bobur ularni bunchalikka boradi, deb hech o'ylamagan edi. To'satdan uning ustidan bir chelak sovuq suv quyilganday bo'ldiyu, a'zoyi badani muzlab, bo'shashib, boshi yostiqaqa «shilq» etib tushdi. Tamom! Tanbal bilan Jahongir g'alaba qilsa, ularning tomoniga qochib o'tuvchilar yana ko'payadi. Bobur kim bilan qoladi? Balki hozir ham Tanbal tomonga qochib o'tayotganlar bordir? Balki Qosimbekning o'zi ham... Kutilmaganda xayoliga kelgan bu o'ydanda Bobur shunday dahshatga tushdiki, butun kuchini to'plab, o'rnidan sapchib turdi:

– Qosimbek qani?

– Hozir kelurlar, odam yubordik, – dedi tabib mu-loyim tovush bilan. – Amirzodam, yoting, sizga orom kerak!

Boburning xasta xayolida birdan qilich tutgan Tanbal gavdalandi. Bobur bu qilichni tanidi. O‘shda Tanbal shu qilichni o‘pib: «To o‘lgunimcha sodiq qulingizman», degan edi. Tanbal o‘sha qilichni hozir go‘yo Boburning boshi ustida o‘ynata boshladi... Tanbalning oyog‘i ostida tog‘dan xurjunga solib kelingan kallalar yumalab yotipdi. Ularning biri tanishga o‘xshadi. Qutlug‘ Nigor xonimning boshi... Bobur alahsirab ko‘z oldiga keltirgan bu qo‘rqinchli xayol uni go‘yo to‘shakdan otib yubordi. U gilam ustida ichki kiyimda oyoq yalang turganicha:

– Shamshirni bering! – deb qichqirdi. – Menga shamshirni bering!

Tabib uni mahkam quchoqlab oldi:

– Amirzodam, xastasiz, yotmog‘ingiz kerak... Amirzodam! – Tabib Boburni go‘yo Tanbalning qilichiga tutib bermoqda edi. Bobur uning quchog‘idan yulqinib chiqib, eshikka intildi:

– Ot keltiring! Men Andijonga boramen! Shamshir qani? Beklarga xabar bering! Tezroq tayyorlansinlar!

Tabib uning ketidan yugurdi. Dastorpech Boburning kimxob to‘nini olib borib yelkasiga yopdi, oyog‘iga kavushini berdi. Bobur kavushning bir poyini kiydi-yu, ikkinchisini kiyishga toqati yetmadi. Uning boshi gir-gir aylanar, havo yetishmay, nafasi qisilar edi. Ko‘z oldida hamon o‘sha qonli qilich va kesik kallalar.

– Xoin! – dedi u Tanbalga qarata. – Qonxo‘r!

Bobur ayvon eshigiga qarab chopdi. Lekin eshik oldida gandraklab yiqildi. Tabib bilan dastorpech uni behush ahvolda to‘shakka ko‘tarib kelib yotqizishdi.

So‘ng u yarim kechaga borib sal hushiga keldi. Ko‘zini ochib, og‘ziga paxtadan suv tomizayotgan

tabibni ko'rdi. Nazarida, tili shishib, shunday katta bo'lib ketgan ediki, butun tanasini tog'day bosib yotardi. Bobur ko'zini ochganini sezib, Qosimbek uning tepasiga keldi:

– Xayriyat-e!.. Amirzodam, bizni muncha qo'rqitdingiz?

Bobur ko'zlari mo'ltirab, nimadir demoqchi bo'ldi, ammo behad og'irlashib ketgan tilini qimirlatolmadi.

– Endi yaxshimisiz, amirzodam?

Bobur jim. Qaraydi-yu, gapirolmaydi. Uning tildan qolganini sezgan Qosimbek ko'zidan tirqirab chiqqan yoshni ko'rsatmaslik uchun yuzini chetga burdi.

## ANDIJON, XO‘JAND

### UVOL BO‘LGAN ORZULAR

#### 1

Tun qorong‘isi ustiga osmonni quyuq bulut qopladi-yu, qal‘a ichini zulmat bosib ketdi. Andijon ko‘chalari tahlikali bir sukutga cho‘mgan. Jimjit kechada ark darvozasining g‘iyqillab ochilgani uzoqlarga eshitildi. Darvozaxonadan tushgan xira yorug‘da arkdan chiqib kelayotgan bir to‘p qurolli otliqlar ko‘rindi. Oldinda erkakcha to‘n va bo‘rk kiygan, beliga kamar bog‘lab, xanjar osgan Xonzoda begim. Uning navkarlari orasida kelayotgan mavlono Fazliddin ham to‘nining ustidan harbiycha kamar bog‘lab, beliga qilich taqib olgan.

Samarqanddan qaytgan chopar Boburning hayot bilan o‘lim orasida behush bo‘lib yotganini aytib bergandan keyin qal‘a himoyachilarining bir qismi fitnachilar tomonga qochib o‘tib ketdi.

Qo‘rg‘on devorlarining har bir gazini qo‘riqlab turishga odam yetishmay qoldi. Qorong‘i tunda dushmanning devorga narvon qo‘yib, oshib tushish xavfi kuchaydi. O‘n olti yoshida sho‘xlik bilan yigitcha kiyinib, chavgon o‘ynab yurgan Xonzoda begim endi chinakamiga qurollanib, hayot-mamotlari qil ustida turgan qal‘a himoyachilariga ko‘makka boryapti.

Quyuq qorong‘ilikda otlarning taqalari ko‘cha toshlariga urilib, uchqun chiqaradi. Havodan yomg‘ir hidi keladi, mayin shabada esadi. Mavlono Fazliddin bahor kirganini, qal‘a ichidagi bog‘chalarda o‘rik va bodom gullaganini esladi va atrofiga sinchiklab qaradi, ammo bironta oqargan narsa ko‘ziga chalinmadi. Tun butun borliqqa qop-qora parda tortib qo‘ygan edi.

Mavlono Fazliddin mana shu shaharda qurmoqchi bo'lgan madrasa va saroy tarhini Xonzoda begimga ko'rsatib, uning maqtovini eshitgan yorug' kunlarini esladi-yu, yuragini armon g'ijimlab o'tdi. Bobur Samarqandni olgani haqida xabar kelgandan keyin mavlono Fazliddin orzusi endi amalga oshishiga astoydil ishongan edi. Xonzoda begim ham uni bir necha marta o'z huzuriga chaqirib, bo'lajak qurilishlarga qayerdan o'rin tanlash va tayyorgarlik ishlarini qanday boshlash haqida uzoq-uzoq gaplashgan edi.

Arkdan chiqqan otliqlar qorong'ida tusmol bilan qal'aning Mirzo darvozasi tomonga borar ekanlar, mavlono Fazliddin oldinda xomush ketayotgan Xonzoda begimning o'sha suhbatlar paytidagi ma'sum va shod qiyofasini eslay boshladi.

Odatda Xonzoda begim uni kanizlari bilan istiqomat qiladigan olti xonalik sirkor uyning tashqi bo'lmasida qabul qilar edi. Begim erkaklar bilan gaplashganda maxsus ishlangan ipak pardaning ortida o'tiradi. Loyihaning ba'zi joylarini so'z bilan izohlash mushkul bo'lib qolsa, Xonzoda begim oradagi pardani ochib:

– Qani, gumbaz bilan minoralar orasida nelar bo'lur? – deb so'raydi.

Ular ikkovi ikki tomondan qog'oz ustiga engashganlarida goh nafasleri bir-birlarinikiga qo'shilib ketganday bo'ladi. Mavlono Fazliddin O'shda, qoyatosh ustida birinchi marta boshdan kechirgan ajoyib tuyg'u yana borlig'ini mast qiladi. U ishdan boshqa narsa haqida gap ochishga qo'rqadi, atroflarida yuradigan kanizlarga hayajonini sezdirmaslikka tirishadi. Qutlug' Nigor xonim duch kelib qolsa, egilib ta'zim qilish bilan ko'zini undan yashiradi. Biroq so'nggi marta uchrashganlarida Xonzoda begimning o'zi to'satdan:

– Mavlono, nechun shu yoshgacha uylanmagansiz? – deb so'rab qoldi.



Qiz asilzodalarga xos bir nazokat bilan o'zini erkin tutib, kulimsirayotgan bo'lsa ham, ko'zining hayodan yaltillab ketganini mavlono Fazliddin payqadi. Mavlono siri ochilib qolishidan qo'rqib, hazil bilan qutulmoqchi bo'ldi:

- Begim, faqir dunyodan toq o'tmoqchimen.

- Menga o'xshabmi?

- Yo'q, begimning toq o'tishlariga aqlim bovar qilmaydir.

- Ne sababdan?

- Axir siz... bu dunyoda... ne-ne shahzodalar, asilzodalar bor.

- Bo'lsa bordir. Ammo mavlono o'zlari bilgan shahzoda-yu asilzodalarning qaysi biriga... meni munosib ko'rurlar?

- Agar bo'lsa, faqat Farhodni sizga munosib ko'rudim.

- Nechun faqat Farhodni?

Mavlono javob topolmay taraddudlangan edi, Xonzoda begim yana savol berdi:

- Farhod ham sizdek me'mor-u binokor bo'lgani uchundir?

- Bunday deyishga faqirning haddim sig'maydir.

Mavlono ma'yus bo'lib aytgan bu so'zlar Xonzoda begimni ham ma'yuslantirib qo'ydi. U og'ir tin oldi-da:

- Xudoyim meni nega shoh qizi qilib yaratdi ekan?

- dedi. - Men ham faqir bir qiz bo'lsam, baxtimni topishim balki osonroq bo'lur edi...

Mavlono Fazliddin begimning bu so'zlarini har eslaganda ko'ngli bir daraja ko'tariladi. Demak, Xonzoda begim uning muhabbat dardini biladi. Biladigina emas, balki o'z qalbida unga hamdardlik ham sezadi. Shoh qizi bilan oddiy me'mor orasidagi tog'day farqlar begimni ham ezadi. Agar Xonzoda begim unga astoydil ko'ngil bersa, mavlono bu to'siqlarni yengib o'tishi mumkin emasmikan? O'shda qurgan

kichik bir hujrasi uchun Bobur mirzo uni shunchalik e'zozlagan edi. Endi agar bu vodiya katta obidalar qursa, mavlononing obro'si ba'zi asilzodalarnikidan kam bo'lmasligi mumkin. Bobur tanti yigit, opasini yaxshi ko'radi.

Balki ularga marhamat ko'rsatar. Bundan qat'i nazar, mavlononing mehriга Xonzoda begimning qarshi emasligi, u bilan uchrashib turishga mayli borligi – mana shuning o'zi ham mavlononing qalbini haroratli, yorug' tuyg'ularga to'ldirib yurar edi.

Biroq Andijon qamalda qolganidan keyin mavlononing orzu-umidlarini mana shu tun kabi qorong'i zulmat o'z qa'riga tortib ketdi. Barcha loyihalari keraksiz qog'ozga aylandi. Mavlono Fazliddin urushni ham, navkarlikni ham butun vujudi bilan yomon ko'rar edi. Biroq bugun arkka borib, Samarqanddan kelgan yomon xabarni eshitdi va Xonzoda begimning qurollanib chiqayotganini ko'rdi-yu, loqayd qarab turolmadi. Bu mushkul vaziyatda titrab-qaltirab, taqdir zarbasini kutib o'tirgandan ko'ra, qurol bilan himoyaga chiqish yaxshiroq ekanini sezib, umrida birinchi marta beliga qilich taqdi. Mana, hozir vahimali qorong'ilikda suv quyganday jimib yotgan shaharni oralab borar ekan, bir necha qadam oldinda Xonzoda begim ham ketayotgani, mavlono uni shu navkarlar qatori himoya qilishi mumkinligi ko'ngliga bir qadar taskin berardi.

Ular Mirzo darvozasiga yaqinlashganlarida, qal'a tashqarisida birdan karnay va nog'ora chalingani, yuzlab navkarlarning qichqiriqlari eshitildi. Xonzoda begim orqaga o'girilib:

– Yog'iy darvozani ochmoqchi! – dedi-yu, otining boshini qo'ydi. Boshqalar uning ketidan ot choptirishdi.

Yovning bir qism kuchlari Mirzo darvozasi qarshisida g'avg'o ko'tarib, qal'aga yonib turgan o'qlar otayotgan paytda boshqa bir guruh navkarlar qal'aning pana tomoniga narvon qo'yib, sekin chiqib kelmoqda

edilar. Devor shinaklaridan birida o'tirgan qorovul yigit buni sezib qoldi-yu, darvozaxona tepasida mash'ala yorug'ida odamlarga ish buyurib turgan Xo'ja Abdullaga qichqirdi:

– Pirim, yog'iyalar bu yoqda narvon qo'yib chiqmoqdalar! Narvon!

Xonzoda begim navkarlari bilan o'sha qorovul turgan joyga borib otdan tushdi. Navkarlardan biri mash'ala yoqdi. Uning yorug'ida devorga chiqiladigan zinapoya ko'rindi. Mavlono Fazliddin devor tepasidagi xatarga Xonzoda begim hammadan avval ro'baro' bo'lishidan qo'rqdi-yu, zinapoyaga birinchi bo'lib qadam qo'ydi. Shinakka yetganlarida, begimning qo'lidagi mash'alasini oldi:

– Ehtiyot bo'ling, begim, yog'iyga ko'rinmang!

Devorga tashqaridan qo'yilgan keng narvonlarning uchlari xiyol chiqib turar edi. Yordamchilar yetib kelganidan dadillangan boyagi qorovul yigit narvonlardan birini ikki qo'llab itarib, ag'darib tashlayotgan paytda pastdan zarb bilan otilgan yoy o'qi uning ko'kragiga qadaldi. Bechora yigitni ushlab qolishga ulgurolmadilar – narvon bilan birga qal'adan tashqariga uchib ketdi.

Shinak atrofiga qirrali toshlar tayyorlab qo'yilgan edi. Xonzoda begim shu toshlardan birini ikki qo'llab oldi-yu, pastga otdi. Boshqa navkarlar ham narvon qo'yilgan joyning pastini mo'ljalab tosh ota boshladi. Pastda eshitilgan dod-voylar va ingrashlarga qaraganda, bu toshlar mo'ljalga tegmoqda edi.

Shu payt qal'aning narigi chetida – Xakan darvozasi tomonda qo'shkarnaylarning g'at-g'ati, tabl va nog'ora tovushlari, allakimlarning g'olibona qichqiriqlari eshitildi. Mavlono Fazliddin shovqin kelayotgan tomonga quloq solib turib, qo'rqib ketdi. Bu galgi g'avgo shahar ichida ko'tarilmoqda edi.

– Begim, quloq soling! Yog‘iy qal‘aga kirganmi?

Shahar ichidan bu tomonga yopirilib kelayotgan shovqindan Xonzoda begim ham seskanib ketdi.

Pastdan No‘yon Ko‘kaldosh jon-jahdi bilan qichqirdi:

– Begim, xiyonatchilar Xakan darvozasini yog‘iyga ochib bermishlar. Tezroq arkka qayting! Arkka!

No‘yon ot choptirgancha Mirzo darvozasi tomonga o‘tib ketdi. Xonzoda begim zinapoyadan pastga chopib tushar ekan, mavlono Fazliddin qo‘lidagi mash‘ala bilan uning izidan yugurdi. Otga minganlaridan keyin Xonzoda begim:

– Mash‘alani tashlang! – deb buyurdi.

Mash‘ala mavlononi yov o‘qiga nishon qilib berishi mumkin edi. Mavlono Fazliddin yonib turgan mash‘alani yerga tashladi-yu, begim bilan birga arkka qarab ot choptirib ketdi.

Ammo ular arkka yaqinlashganlarida, bir necha yuz otliqlar oldilaridan qirqib chiqdilar va darvoza yo‘lini to‘sib qo‘ydilar. Qurolli otliqlar orasida mash‘ala ko‘targan navkarlar ham bor edi. Mash‘ala yorug‘ida beliga oltin kamar bog‘lagan, dubulg‘a va jiba kiygan Ahmad Tanbal ko‘rindi-yu, mavlono Fazliddinning borlig‘i muzlab ketganday bo‘ldi. Tanbalning qo‘shini Xonzoda begimni va uning navkarlarini darhol qurshovga oldi. Ahmad Tanbal yonidagi navkarga sho‘x tovush bilan gapirdi:

– Mash‘alani yaqinroq tut! Iye, Xonzoda begimmilar? Ko‘zlarimga ishonmaymen! Begim, bu ne hol? Nechun mardona kiyim kiyibsiz?

– Nomardlar ko‘payib ketgani uchun mardona kiyindim!

Tanbal bu istehzoni o‘ziga olgisi kelmay kuldi:

– Qo‘rg‘onda mardlar qolmagan bo‘lsa, mana, biz keldik, begim!

Tanbalning ketida turgan Uzun Hasan bu gapni yoqtirib, xaxoladi. Mash‘ala yorug‘i beklar orasida

ayanchli kulimsirab turgan ko'sanamo Ali Do'stbekka tushdi. Bobur Andijonni mana shu odamga ishonib, topshirib ketgan edi. Ali Do'stbek esa Boburni o'lim to'shagida yotipti, deb eshitib undan umidini uzgan edi. Boya Tanbalning qo'shini Mirzo darvozasining oldida jo'rttaga g'avgo ko'targan, devorga narvon qo'yib chiqmoqchi bo'lganlar ham himoyachilarni ataylab chalgitgan edi. Ahmad Tanbal bilan til biriktirgan Ali Do'stbek bugun mana shu to'polon paytida qal'aning narigi chetidagi Xakan darvozasini yovga sekingina ochib bergan edi. Xonzoda begim buni endi fahmladiyu, Do'stbek bilan Ahmad Tanbalga nafрати oshib, jirkanib ko'z tashladi:

– Sizlarmi mardlar?! Sizlar uchun mardlik bilan xoinlikning farqi qolmadimi?! Kechagina Bobur mirzoga sodiqmiz, deb qasamyod etganlar bugun unga shunchalar yomonlik qilmoqdasiz! Men aminmen: ertaga siz Jahongir mirzoga ham xiyonat qilursiz!

Ahmad Tanbal qilichining sopini changallab:

– Haddingizdan oshmang, begim! – dedi. – Bobur mirzo adolatsizlik qildi. Samarqand olingandan keyin Andijon Jahongir mirzoga berilmog'i kerak edi. Bobur mirzo bermadi! Biz adolat uchun jang qilib, mana bugun g'alabaga erishdik! Ammo siz sharm-u hayoni unutib, nechun bizni bunchalik haqorat qilmoqdasiz? Shoh qiziga yarashmaydigan bu qiliqni sizga kim o'rgatdi? Yoningizdagi mullocha o'rgatdimi?

Ahmad Tanbalning g'azabli ko'zlari mavlono Fazliddinga qadaldi. Mavlono Fazliddin ham uning ko'zlariga ko'zini qadab gapirdi:

– Begim sharm-u hayodan siz-u bizga saboq berishga qodirlar! Begimning haq so'zlarini faqat qalloblar haqorat deb tushinurlar!

– Kim qallob? – deb Ahmad Tanbal qilichini sug'urib, mavlonoga qarab ot choptirdi. Shunda Xonzoda begim otini niqtab, uning yo'lini to'sib chiqdi:

– Ilm-u hunar ahliga tig' tortish uyat!

Ikkovining otlari bir-biriga urilib, ayqashib ketdi. Ahmad Tanbal qilichini havoda o'ynatar ekan:

– Begim, bu mullochani ma'shuqalardek himoya qilishlari uyat emasmi? – dedi. – Biz maxfiylardan eshitgan edik, ammo loyiha chizish bahonasi bilan bu mullocha begimni nechog'lik rom qilganini bilmas ekanmiz!

Ko'pchilik oldida Ahmad Tanbal Xonzoda begimning nomiga dog' tushirmoqchi bo'lgani Xonzoda begimni shunchalik g'azablantirdiki, u belidan xanjarini sug'urdi:

– Meni badnom qilolmaysen, alamzada xoin! – deb, bor kuchi bilan Tanbalning ko'kragiga tig' urdi. Xanjar Ahmad Tanbalning to'ni tagidan kiygan zirhli jibasiga tegdi-da, jaranglab, sirg'anib ketdi. Ahmad Tanbal qilichini Xonzoda begimning tepasida sermadi. Qilich zarbidan Xonzoda begimning boshidagi bo'rki uchib ketdi-yu, uzun sochlari yoyilib yelkasiga tushdi.

Shu payt orqadan o'n to'rt yoshli Jahongir mirzo bir to'p mulozimlari bilan kelib qoldi. Buni ko'rgan Do'stbek Ahmad Tanbalni ogohlantirdi:

– Ahmadbek janoblari, bas, bo'ldi!

Xonzoda begim o'gay bo'lsa ham harqalay, Jahongir mirzoning opasi edi, shoh qizini ko'pchilikning oldida sazoyi qilishga yo'l qo'ymas edi. Ahmad Tanbal Jahongir mirzo tomonga otini burdi va o'zini oqlamoqchi bo'lib gapirdi:

– Bu qanday hol, amirzodam? Nahotki egachingiz sizga qarshi qurol ko'tarib chiqsa? Yonlaridagi fitnachi me'mor egachingizni yo'ldan urmish, amirzodam!

– Mavlono Fazliddin sizdek xiyonatchi bekdan ming hissa sofdil, ming hissa olijanob! – dedi Xonzoda begim. – Mavlononing me'morlik san'ati Andijonning iftixori bo'lishi mumkin edi. Ammo sizdek qonxo'rlar uning orzularini uvol qildingiz! Ilohim shu orzularning uvoli tutsin sizni!

Xonzoda begim so'nggi so'zlarini yig'lab aytdi-yu, otini qamchilab, ark darvozasiga qarab intildi. Biroq darvozani devordek to'sib turgan navkarlar unga yo'l bermadilar. Begim yoshli ko'zlar bilan orqaga – mavlono Fazliddinga o'girilib qaradi.

Mavlono Fazliddin belini paypaslab, qilichining sopini topdi-da, uni qinidan uquvsizlik bilan sug'urib olib, Xonzoda begimning yo'lini to'sgan navkarlarga qarab intildi. Ammo Ahmad Tanbalning otliq navkarlari mavlono Fazliddinning yo'lini to'sib chiqdilar. Ikkitasi mavlono mingan otni jilovidan ushlab to'xtatdi. Biri og'ir cho'qmor bilan mavlononing bilagiga urib, qilichini qo'lidan tushirib yubordi. Bu orada Jahongir mirzoning ishorasi bilan narigi navkarlar Xonzoda begimga yo'l bergan edilar. Begim yolg'iz o'zi ark darvozasidan ot qo'yib o'tar ekan, yana orqaga o'girilib qaradi.

Navkarlar yana devordek bo'lib, darvoza yo'lini to'sib olgan edilar. Mavlono Fazliddin yov qo'lida qolganini sezgan begim o'kirib yig'ladi. Uning yig'isiga faqat darvozaxona shifti bo'g'iq bir nido bilan javob berdi, xolos.

Tanbalning odamlari mavlono Fazliddinni otidan tortib tushirdilar va qo'lini orqasiga bog'lab, piyoda haydab ketdilar.

## 2

Cho'qmor zarbidan jarohatlangan bilagi qattiq og'riyotganini mavlono Fazliddin qorong'i bir hibsonada yolg'iz o'zi qolganda sezdi. Uni Andijonning Chaqaridagi tosh istehkom ichiga, o'lim jazosini kutadigan mahbuslar hujrasiga qamab, eshigini tashqaridan qulflab oldilar. Bu bilan ham qanoat qilmay eshik oldiga ikkita soqchi qo'yib qo'yidilar. Boya ark darvozasi oldida Ahmad Tanbal bilan Jahongir

mirzoning o'zaro gaplaridan mavlono Fazliddin shuni aniq sezdi, uni shoh qiziga tama qilishda va oliy zotlarga beadabona munosabatda bo'lishda ayblab, ertaga toshbo'ron qilib o'ldirtirmoqchilar. Shu bilan Ahmad Tanbal Xonzoda begimni ham badnom qilib, bir alamdand chiqsa kerak. Bobur va uning tarafdorlari xalq orasida yomonotliq bo'lishlaridan Jahongir mirzo va uning onasi Fotima Sulton begim ham manfaatdor edilar, bu bilan ular Andijon taxtini narigilardan tortib olib, to'g'ri ish qilganlarini isbotlaganday bo'lardilar.

Rutubatli zax hujrada qorong'ilikka tikilib o'tirgan mavlono Fazliddin orqasiga bog'langan qo'llarini beliga bosib, bilagining og'rig'ini to'xtatmoqchi bo'lar, lekin og'riq pasayish o'rniga tobora zo'rayar edi. Bu hali birgina cho'qmorning zarbi... Ertaga uning ustiga do'lday yog'iladigan toshlarning og'rig'i qanchalik dahshatli bo'larkin? Mavlono buni ko'z oldiga keltirganda eti junjikib, o'rnidan turib ketdi. Go'yo u hozir hibsonada emas, bir-biriga qarab qulayotgan ikki tog'oralig'ida turibdi-yu, endi har ikki tomondan uchib tushgan qoyatoshlar uni ezib majaqlashi kerak. Mavlono bu balodan qutulmoqchi bo'lganday eshikka tomon intildi. Yelkasini yopiq eshikka urib, jon-jahdi bilan qichqirdi:

– Oching! Oching deymen! Oching!

Kutilmagan bu qichqiriqdan cho'chib tushgan bir soqchi qahr bilan so'radi:

– Jin urdimi? Ne gap?

– Ilkimni yechinglar! Jonim kerak bo'lsa ertaga olursiz! Ilkim jarohatlangan! Yechib qo'yinglar!

Soqchilar bu yerda poyloqchi bo'lib o'tirganlaridan juda asabiy edilar. Chunki hozir boshqa g'oliblar Bobur tarafdorlarining mol-u mulklarini talon-toroj qilib boyimoqda edi. Tun yarmidan oqqan bo'lsa ham Andijonning ko'chalari va hovlilaridan otlarning dupuri, itlarning vangillashi, ayollarning dod-voyi,



bemahal qo'zg'atilgan sigir va qo'ylarning ma'rashi eshitilmoqda edi. Bu yerda qolgan soqchilar qanchalik ko'p o'ljalardan mahrum bo'layotganlarini mana shu tovushlardan payqab, ich-etlarini yeb o'tirar edilar. Buning ustiga mahbusning asabiy gaplari qo'shilib, ularning jahlini chiqardi. Xirillagan ovozga qaraganda, yoshi anchaga borib qolgan bir soqchi:

– Ilki jarohatlangan emish-a! – dedi. – Ertaga asfalasofilinga ketadigan haromi, bugun ilkingni o'ylab nima qilasan?

Eshik ortidagi mahbusning nafrat bilan:

– Jallodlar! – degani eshitildi.

Xirilloq soqchi o'rnidan sapchib turib, do'q qildi:

– Jim yot, o'laksa! Hozir kirib, bir jarohatingni o'nga yetkazamen!

«Qanday kunlarga qoldim? – dedi mavlono o'ziga-o'zi. – Odamzod shunchalik shafqatsizmi?» O'lim shunchalik naqd ekan, bugun mana bu maxluqlardan gap eshitib, ertaga tosh bo'ronda xor bo'lib o'lgandan ko'ra, Tanbal bilan olishib, qo'lida qilichi bilan jon bergani yaxshi emasmi? Boya Xonzoda begimning oldida mavlono shunga qodir edi-ku! Nega taqdir uni shundan ham mahrum qildi?

Tashqarida ot taqasining hovli toshlariga urilib, qarsillagani eshitildi.

– Kim keldi? To'xta!

Hovliga kirib kelgan uch otliqdan biri:

– Xo'ja Abdulla, mavlono qozi yosh podshohning farmoyishi bilan keldilar! – dedi.

Kelganlar birin-ketin otdan tushdilar. Ikki soqchi uzun nayzalarini ularga to'g'riladilar:

– Farmoyishni avval o'nboshiga ko'rsatmoq kerak! – dedi xirilloq soqchi.

Uning tepasida xiragina fonus yonib turar edi. Malla chakmon kiygan Xo'ja Abdulla soqchilarning nayzasiga qarab kelar ekan:

– O‘nboshini topolmadik! – dedi. – Nechun bu yerda sizlardan boshqa hech kim yo‘q?

Yoshroq soqchi alamli tovush bilan:

– Boshqalar o‘ljaning ketidan quvib ketgandir-da, – dedi.

Xo‘ja Abdulla qo‘lida o‘ram qilingan qog‘oz bilan ikki soqchining nayzalari qarshisiga kelib:

– Unday bo‘lsa farmoyishni siz bajarmog‘ingiz kerak, – dedi. – Oling, o‘qing!

Narigi ikki navkar otlarini devor tagidagi ustunga bog‘lab, o‘zlari Xo‘ja Abdullaning ketidan kelmoqda edilar.

– Sizlar o‘sha joyda to‘xtangiz! – dedi xirilloq soqchi. Navkarlar to‘xtashdi. Xirilloq soqchi nayzasini ko‘tarib, Xo‘ja Abdullaga yo‘l berdi, so‘ng uning qo‘lidagi qog‘ozni ochib ko‘rdi.

Qimmatbaho qog‘ozdagi qisqagina yozuv tagiga shohona muhr bosilgan edi. Xirilloq soqchi muhrni chiroq yorug‘iga solib ko‘rdi, ammo o‘qiyolmadi. U chalasavod edi.

– Qani, sen o‘qi-chi, – deb yoshroq soqchiga berdi. Biroq unisi butunlay savodsiz edi. Qog‘ozni qo‘lida aylantirib, Xo‘ja Abdullaga qaradi:

– Pirim, bu qanaqa farmoyish?

– Bu yerda yotgan nobakor juda xatarli mahbus. Uni arkka olib ketmog‘imiz kerak.

Orqada turgan navkarlardan biri qo‘shimcha qildi:

– Mavlono qozi arkda u haromini so‘roq qilmoqlari zarur!

Xo‘ja Abdulla Andijonning eng mashhur qozisi va juda ko‘p mo‘tabar odamlarning piri ekanini soqchilar ham bilar edilar. Ular Xo‘ja Abdullani bir ko‘rishdayoq tanigan edilar-u, ammo uning Bobur tarafida turib jang qilganini eslab, ikkilanarlardi.

– Bu o‘zi Jahongir mirzoning farmoyishlarimi? – so‘radi xirilloq soqchi.

– Shubhalansangiz, o‘qib ko‘ring!

– Mahkam saqlanglar, deb buyurgan edilar-da, pirim.

– Mahkam saqlaganlaring shumi? Yuzboshi qani? Nechun faqat ikkovlon qolmishsiz? Bu nobakorning tarafdorlari ko‘plashib hujum qilsa qandoq qilursiz? Yo‘q, buni tezroq arkka olib ketmoq zarur! Eshikni oching!

Yosh soqchi keksasiga qarab: «Bu qozi ham endi Jahongir mirzo tomoniga o‘tibdi-da, bo‘lmasa bunchalik jon kuydirarmidi?» – demoqchi bo‘ldi. Biroq unisi hamon ikkilanardi:

– Biz keyin ne deymiz?

– Siz ikkovingiz hozir biz bilan birga ketursiz! – dedi Xo‘ja Abdulla. – Buni ko‘plashib qo‘riqlab bormasak, oldirib qo‘yishimiz mumkin!

Shundan keyin xirilloq soqchi ham bo‘shashdi. Nayzasini devorga tirab qo‘yib, eshikni ochdi. U ichkariga qadam qo‘yishi bilan Xo‘ja Abdullaning hamrohlaridan biri yosh soqchining boshiga qora bir narsani yopib, o‘zini yerga ag‘anatdi. Ikkinchi navkar xirilloq soqchining boshidagi dubulg‘asiga cho‘qmor bilan qarsillatib urib, uni ichkariga qulatdi-da, ustidan bosib tushdi.

Xo‘ja Abdulla hamrohlariga shivirladi:

– O‘ldirmanglar, uvollariga qolmaylik!

– O‘ldirmasak keyin bular sizni tutib berurlar!

Mavlono Fazliddin jiyani Tohirning ovozini tanib:

– Jiyanim! Tohirjon! – deb qichqirdi.

Qora parda ichida talvasa qilayotgan yosh yigit esa:

– Pirim, shafqat qiling! – dedi. – Pirim! Sizga zinhor yomonlik qilmaymiz! Qutqaring, pirim!

– Bas! – deb shivirladi Xo‘ja Abdulla Tohirga. – Oyoq-qo‘llarini bog‘lasalaring bo‘ldi!

Mavlono Fazliddin Tohir bilan Xo‘ja Abdullaga tomon otildi:

– Ustod!... Jiyanim!.. Najotkorlarim!..

Tohir narigilarning qo‘l-oyog‘ini bog‘lash bilan ovora edi.

– Mavlono Fazliddin, qanisiz? – dedi Xo‘ja Abdulla.

Xo‘ja Abdulla mavlononi bag‘riga bosar ekan, uning qo‘li bog‘liq ekanini sezdi-yu, quchog‘idan qo‘ymay eshikdan tashqariga olib chiqdi. Fonus yorug‘ida belidan xanjarini olib, mavlononing qo‘li bog‘langan ola chilvirni kesib tashladi.

Tohir sherigi bilan narigi ikki soqchini ichkariga qamab, eshikni qulfladi-da, tog‘asining quchog‘iga otildi.

– Jiyanim, Xudo seni qaydan yetkazdi?

– Boya Samarqanddan chopar bo‘lib keldim!

– Bobur mirzo sog‘milar?

– Ha, tuzalib qoldilar. Yordamga yetib kelmoqchilar!

– Andijon qo‘ldan ketganini bilurlarmi?

– Hali bilmaydilar-da!..

Xo‘ja Abdulla ularga shipshidi:

– Endi jim!

Tohir tog‘asining otiga mingashtirib oldi. Chaqardan sekin chiqib, qal‘aning ovloq bir chetiga qarab ketdilar. G‘oliblar hovlilarda hamon talon-toroj bilan band edilar. To‘rtovlon uch otda qal‘a devorining tagiga keldilar. Endi hamma himoyachilar tarqab ketib, devor atrofi huvillab qolgan edi.

– Mana shu yerda oshib o‘tishga qulay joy bor, – dedi Xo‘ja Abdulla.

Hammalari otdan tushdilar. Tohirning sherigi xurjunidan o‘ram qilingan arqon oldi. To‘rtovlon maxsus zinapoyadan devor tepasiga chiqqanlarida, Xo‘ja Abdulla mavlono Fazliddinga yondashdi:

– Mavlono, sizni darvozadan otliq chiqarish xatarli.

Tanib qolurlar.

– Minnatdormen, ustod!

Xo'ja Abdulla qo'ynidan bir narsa olib, mavlononing qo'liga tutqazdi. Bu – ichi oltinga to'la og'irgina charm hamyon edi.

– Buni sizga xonim hazratlari berib yubordilar, – dedi Xo'ja Abdulla.

– Voqeadan xonim hazratlari ham xabar topdilarmi?

– Hazrat xonim yig'lab mendan iltimos qildilar. Ahmad Tanbal siz orqali begim-u xonimlarni sharmisor qilmoqchi ekan. Ammo biz tirik bo'lsak, Bobur mirzoning oilasiga ham, muborak nomiga ham dog' tushirmagaymiz!

Mavlono hamyonni olib qo'yin cho'ntagiga solar ekan:

– Men to'g'ri Bobur mirzoning huzurlariga yo'l olurmen! – dedi.

– Mavlono, – dedi Xo'ja Abdulla ma'yus tovush bilan. – Biz xonim hazratlari bilan sizga boshqa bir maslahat bermoqchi edik.

Andijonda arab tilini Xo'ja Abdullachilik yaxshi biladigan odam yo'q edi. Bir vaqtlar mavlono Fazliddin ham shu odamdan arab tilidan saboq olgan edi va shundan beri uni ustod deb atar edi:

– Qanday maslahat bo'lsa bosh ustiga, ustod!

– Samarqandga Tohirbek borurlar.

– Men tog'amni birga olib ketsam-chi? – dedi Tohir.

– Yo'q, Tohirbek, siz choparsiz. Balki, Bobur mirzo Samarqandni tashlab chiqqandirlar... Mavlono, sizning noyob iste'dodingiz bor. Siz o'zingizni ehtiyot qilmog'ingiz kerak. Movarounnahrda bu fatoratlar<sup>1</sup> hali-beri bosilmasa kerak. Mavlono, siz bir vaqtlar Hirotga ketish fikringiz borligini aytgan edingiz. Endi shu fikrni amalga oshiradigan payt keldi.

Hirotga bir marta borib kelgan mavlono Fazliddin notinch o'lkalardan oylar davomida yurib o'tiladigan behad mashaqqatli yo'llarni ko'z oldiga keltirdi-

---

<sup>1</sup> Fatorat – alg'ov-dalg'ov.

yu, yuragini g'am bosdi. Jarohatli qo'lining og'rig'i boya esidan chiqqan ekan, endi bu og'riq yangi bir kuch bilan qaytib keldi. Mavlono og'riyotgan bilagini changallab:

– Men Vatanni qanday tark etay, pirim? – dedi.

– Hozir Alisher Navoiy yashab turgan Xuroson ham bizga Vatan emasmi, mavlono?

– Vatan, albatta... Ammo men... balki qaytib kelolmasmen. Kulbamda kitoblarim, loyihalarim qolgan, Tohir jiyan!..

– Hoziroq qaytib borib, barchasini yashirtirib qo'yurmen, xotirjam bo'ling, mulla tog'a! Mavlono Fazliddin Xonzoda begimni endi umrbod ko'rolmasligini oldindan sezayotganday yuragi uvushdi. Xo'ja Abdulla bilan Qutlug' Nigor xonim uni Hirotga jo'nata-yotganlarining bir sababi, mavlono bilan Xonzoda begim orasidagi nozik munosabat va shunga oid past-u baland gaplar edi.

Mavlono Hirotga ketishi bilan Xonzoda begim atrofida bo'layotgan gaplar tezroq bosilishi mumkin edi. Mavlono shuni o'yladi-yu:

– Mayli, ustod, – dedi. – Men Bobur mirzoning nomlarini pok tutish uchun har ishga tayyormen. Ammo bir iltimos: xonim hazratlariga ayting, yolg'on ovozalarga ishonmasinlar. Xonzoda begim halol-u pokizalikda benazirlar!

– Siz ham shundaysiz, mavlono, men bilurmen. Biz bunga ishonmaganimizda, jonimizni garovga qo'yib, boyagi soqchilarni aldab yurmas edik. Men umrimda shunday ishlar qilurmen, deb hech o'ylamagan edim. Mana, Tohirbek menga dalda berdi. Ammo yog'iyarning g'alamisligi ham kishini majbur qilar ekan!

– Sizlar menga yangidan jon ato qildilaringiz, ustod! Endi o'zingiz ham ehtiyot bo'ling! Jiyanim, sen ham!..

– Rost, pirim ham Andijondan uzoqroq ketsalar, bexavotir bo‘lur edik! – dedi Tohir.

– Hammamiz ketsak, xonim-u begimlarga kim madad berur? – dedi Xo‘ja Abdulla. – Sho‘rlik mushtiparlar hozir meni kutib o‘tirgan bo‘lsalar kerak.

Osmonning sharq tomonidan bir parchasi xiyol oqarib kelmoqda edi. Mavlono Fazliddin shuni ko‘rib, arqonni beliga bog‘lay boshladi.

– Nasib bo‘lsa hali yana ko‘rishurmiz, mulla tog‘al!

– Tohir, jiyanim, mening tarhlarim... Chizgan suratlarim yo‘qolib ketmasin. Sen harbiy odamsen, asrashing qiyin. Shuning uchun iloji bo‘lsa hammasini Xonzoda begimga bergin.

– Bajonidil!

– Men bu iltimosingizni Xonzoda begimga ham yetkazurmen! – dedi Xo‘ja Abdulla.

Ular quchoqlashib xayrlashdilar. So‘ng mavlononi beliga bog‘langan arqon yordamida o‘n bir gazli devordan pastga tushirdilar.

Mavlono tong yorishganda Quvaning yo‘liga chiqib oldi.

Ammo qo‘rg‘on ichida qolgan Xo‘ja Abdulla ertasi kuni choshgoh paytida Xakan darvozasining yaqinida turadigan bir muridining hovlisida yashirinib o‘tirganda, Ahmad Tanbalning odamlari uni qo‘lga tushirdilar. Chaqarda qo‘li bog‘liq yotgan soqchilar qattiq siquv ostida mavlono Fazliddinni kim ozod qilganini Ahmad Tanbalga aytgan edilar.

Ahmad Tanbal Xo‘ja Abdulla tutilgan joyga ot choptirib kelganda, ko‘chani odam tutib ketgan edi. Qo‘li orqasiga bog‘langan ko‘ylakchan Xo‘ja Abdulla qurolli navkarlar qurshovida sekin yurib bormoqda edi. Uning oyoqlaridan mador ketgan, rangi o‘chgan. Oq sallasi va ko‘ylagining oqligi o‘siq soqolini odatdagidan qoraroq ko‘rsatar edi.

Xaloyiq Ahmad Tanbalga yoʻl berib chetlandi. Xoʻja Abdullani haydab borayotganlar toʻxtadilar. Ahmad Tanbal ham otini jilovidan tortib toʻxtatdi:

– Ha, aldamchi pir! – dedi. – Bizga shuncha yogʻiyliklar qilganingiz ozmidi, endi soqchilarni aldab, haromi mullochani ham qochiribsiz!

– Men bir begunoh hunarpehani adolatsiz oʻlimdan qutqardim, xolos!

– Soqchilarga yolgʻon muhrlar koʻrsatishga uyalmadingizmi, aldamchi pir?!

Oʻnlab koʻzlar Xoʻja Abdullaga tikildi. Agar Xoʻja Abdulla Tanbaldan qoʻrqib, sarosimaga tushsa, oʻzini yoʻqotib qoʻysa, gunohi boʻyniga tushganday koʻrinishi mumkin edi. Shuni oʻylab, Xoʻja Abdulla iloji boricha dadil gapirishga tirishdi:

– Men soqchilarga Bobur mirzoning muhrlarini koʻrsatdim. Chunki Bobur mirzoni Andijonning yagona podshosi deb bilurmen!

– Sen, imonsiz, muridlaringni yana aldamoqdasen! Bobur mirzo Samarqandda vafot etgan. Hozir toj-u taxt Jahongir mirzoniki!

– Musulmonlar, bu gapga ishonmang! Alhamdulillah, Bobur mirzo tiriklar! Andijonga yana kelurlar!

– Yolgʻon! Xaloyiq, sizdek muridlarini aldab yurgan, aybini yashirmoq uchun iflos bir haromini bizdan qochirgan bu imonsiz pir toshboʻron qilib oʻldirilishi kerak! Tosh oting bunga! Savobtalab boʻlsangiz tosh oting!

Ahmad Tanbal egar ustidan uloqchilarga oʻxshab pastga engashdi-yu, uzun qoʻli bilan yerdan mushtday bir toshni oldi. Soʻng qaddini tiklab, toshni Xoʻja Abdullaga qarab otdi. Xoʻja Abdullaning keng koʻkragiga «toʻp» etib tekkan tosh oq koʻylakda changli iz qoldirib, yerga yumalab tushdi. Ogʻriqdan Xoʻja Abdullaning koʻzlari yoshlandi, nafasi qaytdi. Navkarlardan baʼzi birlari ham yerga engashib tosh qidirayotganini koʻrgan Xoʻja Abdulla nafasi titrab:



- Musulmonlar! - dedi va hamon jim turgan xaloyiqqa tikildi. Ularning orasida yigirma besh yoshlardagi gardani yo'g'on bir yigitni ko'rdi-yu, bir vaqtlar yolg'on ovoza tarqatishda ayblanib o'ldirilgan mirob Darvesh govni esladi. Bu yigit o'sha mirobning o'g'li edi. Xo'ja Abdulla o'shanda yosh Boburga bir og'iz: «Buni qatl ettirmang!» - desa, ehtimol mirob hali tirik yurar edi. Xo'ja Abdulla o'shanda Ahmad Tanbalga o'xshash beklarning ko'ngliga qarab, Darvesh govni qutqarib qololmagani endi qalbida armon qo'zg'adi. Hozir o'zi ham o'sha mirobning ahvoliga tushdi-ku! Nechun o'shanda loqaydlik qildi? Mirobning o'g'li otasining qasdi uchun Xo'ja Abdullaga tosh otsa, balki haqli bo'lar!.. Lekin begunoh me'morni qutqarib, o'zi baloga qolayotgan Xo'ja Abdullaga hech kim tosh otmadi.

- Musulmonlar! - kuyunib takrorladi Xo'ja Abdulla.  
- Men adolat yo'lida jon berishdan qo'rqmaymen! Adolat kim tomonda - shuni bir o'ylab ko'ringlar. Inini og'aga dushman qilganlar kimlar? Yaxshilarga baxilligi kelib, poyiga bolta urayotganlar kimlar? Bu qora kunlarni boshimizga solganlar kimlar?

- Sen o'zing! - deb qichqirdi Ahmad Tanbal.

- Men Bobur mirzoga kichikligidan ilm o'rgatdim, lison o'rgatdim, men uni odil podshoh bo'lishga undadim, Movarounnahr yana birlashsin-u yurt ichki urushlardan qutulsin, dedim.

Bobur mirzo mardona ishlar qilib, Samarqand bilan Andijonni birlashtirganda men ezgu orzularimga yetganday suyungan edim. Hayhot, mamlakat yana parchalandi. Yurt vayron bo'ldi! Xaloyiq, agar meni o'ldirish bilan mushkulingiz oson bo'lsa, mayli, o'ldiring!

- Toshbo'ron qiling! - buyurdi Ahmad Tanbal xaloyiqqa.

Odamlar to'pining orqarog'idan yig'lamsiragan tovush eshitildi:

– Shayxulislom fatvo bermaguncha, toshbo'ron qilishga haqimiz yo'q!

Keksa bir kishi:

– Pirning qarg'ishidan qo'rqamiz! – dedi.

Navkarlar ham qo'llaridagi toshlarini Xo'ja Abdullaga otishga jur'at etolmay, Ahmad Tanbalga qaradilar. Ahmad Tanbal yuzboshiga buyurdi:

– Unday bo'lsa, qilichingni ol, kallasini kes! Bo'yniga tig' ur!

Barzangiday qop-qora o'rta yashar yuzboshi kumush sopli qilichini qinidan imillabroq sug'urdi. Xo'ja Abdulla unga tikilib, past tovush bilan dedi:

– Mirbadalbek, xushyor bo'ling, mening qonim yetti pushtingizga sachraydi!

Xaloyiq orasidan qo'rquv aralash nido eshitildi:

– Pirning qoni tutadi hammamizni!

Yuzboshining qo'lidagi qilichi qaltiray boshladi. U Ahmad Tanbalga qarab yalindi:

– O'tinamen, bu ishdan meni ozod qiling!

Ahmad Tanbal unga g'azab qilib yelkasiga qamchi urdi.

– Seni yuzboshilikdan ozod qilurmen, qo'rqqoq!

Ahmad Tanbal boshqa navkarlariga buyurdi:

– Bu imonsizni darvozaxonaga haydang! Xaloyiq shu yerda qolsin! Kim bizga ergashsa, qilich bilan choping! Ayamang!

Navkarlarning bir qismi Xo'ja Abdullani darvozaxonaga haydab ketdi. Qolgan navkarlar xaloyiqning yo'lini to'sib, Xo'ja Abdullaning ketidan borgani qo'ymadi. Oradan yarim soat o'tgandan keyin Ahmad Tanbal odamlari bilan arkka tomon ot choptirib qaytib ketdi. Shundan so'ng darvozaxonaga borgan odamlar Xo'ja Abdullaning shiftdagi yo'g'on to'singa osib o'ldirilganini ko'rdilar. Marhumning oq sallasi oyog'i

tagida chuvalib yotardi, bo'yi esa tiriklik paytidagidan xiyla uzaygan edi. Odamlar uni dordan sekin tushirib oldilar. Kafan o'rniga sallasiga o'rab, shahidlardek ko'mdilar.

### 3

Ustma-ust yoqqan bahor yomg'irlari yo'llarini balchiq qilib yuborgan. Andijonda yuz bergan dahshatlar xabarini tezroq Samarqandga etkazish uchun loy sachratib, ot choptirib borayotgan Tohir endi Quvaga yaqinlashdi. Agar Bobur mirzo tuzalgan bo'lsa-yu, Andijonga ishonib, Samarqandni tashlab chiqsa, ahvol hozirgidan battar bo'lishi mumkin. Tohir shuni o'ylab, tagidagi bedovni qistaydi. Ammo ot qanchalik zo'r va chopqir bo'lmasin, tizzaga chiqadigan loy uning yo'lini bog'laydi, tinkasini quritadi. Chopib kelayotgan ot balchiqqa yiqilib tushadi-yu, qaytib turolmasdan, burnidan qon kelib, jon beradi. Tohir uni yo'l ustida qoldirib, egar-yuganlarini oladi-yu, Quvadan boshqa ot topadi. Ammo bir kun yurmasdan bu ot ham holdan ketib yiqiladi. Naryoqda Xo'jand, Jizzax – yana o'n kunlik yo'l... Tohir osmonda uchib borayotgan qushlarga havas va armon bilan qaraydi.

\* \* \*

Biroq Tohir qush bo'lib uchganda ham endi Boburni Samarqanddan topolmas edi. Bobur xastalik to'shagidan turgan zahoti onasi va ustozini qutqarishga shoshilib, Samarqandni allaqachon tashlab chiqqan edi. Unga kelgan axborotlarga binoan, Andijon qamali hali uzoq davom etishi kerak bo'lib, bir yilga yetarli zaxira bor edi. Shunchalik abgorligi bilan Samarqand yetti oylik qamalga chidaganda o'n ikki ming qo'yi bor Andijon qo'rg'oni Xo'ja Abdulladay dovyurak

odam rahbarligida hali besh-olti oy «qilt» etmay turishi shubhasiz tuyilardi. Shu tuyg'ۇ bilan mingga yaqin odamlarning hammasini Samarqanddan olib kelayotgan Bobur Bulung'ur va Xaliliya<sup>1</sup> qishloqlaridan o'tib, Sangzor daryosiga yaqinlashib qolgan edi.

Og'ir xastalikdan yaqinda turgan Bobur yana uzlikib qolmasligi uchun uni to'rt otliq mahofaga o'tkazganlar, tagiga yumshoq parqular solganlar. Mahofaning eshik va derazalariga osilgan qizg'ish ipak pardalar yo'lning o'nqir-cho'nqirlarida alanga tillariday muttasil silkinib o'ynab boradi. Par yostiqaqqa yonboshlab o'tirgan Bobur har zamonda bir o'rnidan qo'zg'alib, mahofaning orqa tomonidagi pardani ko'taradi-yu, uzoqlarga tikilib qaraydi.

Uning qo'shinidan besh-olti chaqirim orqada yana bir mahofa kelmoqda edi. Bir talay otliqlar qo'riqlab borayotgan bu ko'rkam mahofada Boburning xolasi Mehr Nigor xonim va qallig'i Oyisha begim safar qilmoqdalar. Bobur Samarqandni tashlab ketmoqchi ekanidan Buxorodagi Sulton Ali mirzo allaqachon xabar topgan va poytaxtni darhol egallash uchun Shahrisabzga kelib shaylanib turar edi. Bobur o'z raqibi Sulton Ali mirzodan yaxshilik kutmas va qallig'ini uning qo'li ostida qoldirgisi kelmas edi. Bir vaqtlar Boysunqur mirzodan qattiq jabr ko'rgan Mehr Nigor xonim va Oyisha begimlar ham endigi xavf-xatarlardan tezroq qutulgilari kelar edi. Hozir ular uchun eng bexatar joy – Toshkent edi. Toshkent xoni Mahmudxon – Mehr Nigor xonimning akasi, Oyisha begimning opasi Roziya Sulton begim ham Toshkentga, Mahmudxonga tushgan. Toshkent yo'li Jizzaxgacha Andijon yo'li bilan bir. Mana shu sabablarga ko'ra, Bobur xolasi va qallig'ini butun odamlari-yu ko'ch-ko'ronlari bilan birga qo'riqlab olib ketmoqda edi. Faqat urf-odatni buzmaslik uchun kuyov bilan qallic

---

<sup>1</sup> Xaliliya – hozirgi G'allaorol yaqinidagi qadimiy qishloq.

orasida besh-olti chaqirimlik masofa qoldirib, ikki to'p bo'lib bormoqda edilar. Kechqurun Sangzordan o'tib, ko'm-ko'k adirlarda tunash uchun to'xtaganlarida ham o'sha masofani saqlab, ikki joyga chodir va o'tov tikdilar.

Yon bag'irlarda lolalar ochilgan. Havo nihoyatda yoqimli. Bobur mayin ko'kat ustiga qadam qo'yganda o'zini xiyla yengil sezdi. Samarqanddan chiqayotganda vujudini zilday bosib yotgan g'am-g'ussalar endi asta-sekin tarqab ketayotganday tuyildi. Poytaxtni shuncha mashaqqatlar bilan olib, oxiri o'z ixtiyori bilan boshqaga qoldirib ketishi unga so'nggi yillarda qilgan barcha harakatlarini behuda ko'rsatib, ta'bini tirriq qilgan edi. Hozir mana bu ko'klam adirlarda yayrab nafas olar ekan, u onasi va ustozini qutqarish niyatida ketayotganini, bunda bir olijanoblik borligini, qallig'ini asoratdan qo'riqlab olib borayotgani ham mardlikdan ekanini o'yladi-yu, ko'ngli bir qadar taskin topdi. Temur darvozasi deb atalgan ulug'vor tangidan o'tganlaridan keyin Bobur mahofaning eshigini ochib, miroxo'rni<sup>1</sup> chaqirtirdi.

Miroxo'r mahofaga jips kelganda:

– B-b-bo'z o-o-otimni kel-t-t-tiring, – deb buyurdi.

U sog'ayib ketganday ko'rinsa ham, ammo hali tilida o'sha og'ir xastalikning asorati bor edi. Uning duduqlanib gapirishidan xavotirlangan Qosimbek:

– Amirzodam, ot nechuk kerak? – dedi. – Minmoqchilarmi?

Bobur yana tili tutilishi mumkinligini sezib, tasdiq ma'nosida so'zsiz bosh irg'adi-yu, miroxo'rga: «Aytganimni qiling!» degandek qaradi.

Mahofa yurib bormoqda edi. Miroxo'r:

– Bosh ustiga! – deb otga ketdi.

---

<sup>1</sup> Miroxo'r «amiri oxur» degani. Miroxo'r – podshoh otboqarlarining boshlig'i.

Qosimbek orqaroqda kelayotgan tabibni chaqirtirdi. Kalta oq soqolli o'sha jikkak tabib mahofaga yondashib, Boburdan hali yana uch-to'rt kun ot minmaslikni iltimos qildi. Ammo Bobur o'zini yaxshi his qilmoqda edi:

– B-bir-pas otl-liq yuray!

– Tilingizdan kalolat ketmaguncha sabr qiling, amirzodam!

Egar-jabduqlaridagi oltin bezaklari quyosh nurida yalt-yalt qilayotgan bo'z otni jilovdor yetaklab keldi.

Qosimbek unga:

– Qayt! – dedi-yu, Boburga mahofada tinchgina ketaverishni maslahat berdi.

U bilan tabib Boburning yana uzlikib qolishidan astoydil qo'rqmoqda edilar. Ammo Bobur otni orqaga yetaklab ketayotgan jilovdorga kulib qaradi-yu:

– Yo'-yo'q, otni k-kell-tiring! – dedi.

So'ng Qosimbekka ham kulimsirab gapirdi:

– X-xa-vo-otir olm-mangiz!

Jilovdor otni yana mahofa oldiga etaklab keldi. Mahofa to'xtadi. Bobur uning zinasiga oyoq qo'yib, bo'z otning egaridan oldi-yu, bir sakrab otga mindi. Jilovdor bundan zavqi kelib jilmaydi va jilovning uchini Boburning qo'liga tutqazdi.

Qosimbek Boburni ortdan sinchiklab kuzatib boradi, agar uning behol bo'lgani sezilsa, darhol yordamga yetmoqchi bo'ladi. Ammo Jizzaxga yetib bordilar hamki, ot ustidagi Boburning behol bo'lgani sezilmadi. Kichikligidan ot minib, suyagi qotgan chavandoz so'nggi kunlarda suvorilikni juda sog'ingan edi. Mahofaning yumshoq parqullari unga xastalik to'shagini eslatardi. Tagidagi bo'z otning sho'x qadam olishi va sog'lom bir qudrat bilan o'ynoqlashi esa Boburning a'zolarida anchadan beri mudrab yotgan yoshlik kuchlarini uyg'otganday bo'lardi. U otliq yurgan sari badani yayrab, bahri-dili ochilib borardi.

Jizzaxdan naridagi ko'kalam adirlarga o'tib tunash uchun to'xtadilar va ikki joyga chodir tikdilar. Boburning bugun otliq yurgani va o'zini juda sog'lom sezayotgani haqidagi xabar xolasi bilan qallig'iga ham yetib borgan edi.

Mehr Nigor xonimning kuyovga xola, ayni choqda, qizga ona ekani sovg'a-salom yuborish va bordi-keldi qilish uchun qulay edi. Namozshom paytida Mehr Nigor xonimning eshik og'asi Bobur mirzoga sovg'a olib keldi: chiroyli zarbof to'n, oltin kamar, kumush dastali qimmatbaho qamchi. To'n – Boburning tuzalish shodiyonasi. Kamar – «kuyovning beli yana ham baquvvat bo'lsin», degan tilakni bildiradi. Qamchi – bugun Bobur otliq yurgani tufaylimikin? Yoki «Podshoh otini qamchilab, tezroq Andijonga yetsin-u yog'ylarni savalasin!» degan ma'nosi ham bormikin? Nima bo'lganda ham Bobur bu sovg'alardan juda ta'sirlanib ketdi.

Ertaga ular xayrlashishlari kerak. Toshkent yo'li shimolga burilib ketadi. Bobur tomonidan ham sovg'a yuborilishi lozim. Biroq ayollarga yoqadigan qimmatbaho matolar-u taqinchoqlarni ular qayerdan topishadi? Hammalari erkaklar. Qo'ngan joylari ham cho'l. Qosimbek shuni Boburga aytib:

– Kumush laganlarda oltin pul yubora qolsakmikin?– dedi.

Bobur esa shu lagan va oltinlarni bugun bo'sh qolgan mahofaga solib yuborishni taklif qildi.

– Mahofa ham sovg'a bo'lsinmi? Balki ertaga o'zingiz mahofada yurursiz, amirzodam?

– Xu-Xudo xohl-lasa, yur-masmen. Z-zaifalar yurs-sinlar.

So'nggi gapni Bobur buyruq ohangida aytdi, shuning uchun Qosimbek boshqa e'tiroz qilolmadi. Ertasi kuni ertalab ikki muhtasham mahofa ko'ch ortilgan tuyalar-u aravalari bilan birga shimol tomonga

burilib, Mirzacho'l orqali Toshkentga yo'l oldi. Bobur o'z qo'shinidan yuz kishini qo'riqchilikka ajratgan edi, ular ham mahofalar bilan birga uzoqlashib keta boshladilar.

Andijon yo'lidan chetroqda katta bir qorovultepa ko'rindi. Bobur yolg'iz o'zi shu tepaning ustiga ot qo'yib chiqdi-da, egardan tushdi. Otining jilovidan tutganicha cheksiz cho'lga tobora kichrayib borayotgan mahofalarga ancha vaqt tikilib turdi. Go'yo u shu turishda qallig'i bilan xayrlashdi, unga o'z ehtiromini bildirib, oq yo'l tilagan bo'ldi.

Bobur yuz kun Samarqandda turib, Oyisha begim bilan biror marta yuzma-yuz ko'rishgan emas. Bunga urf-odat ham yo'l bermadi, yoshlik hayosi ham monelik qildi. Ko'ksaroyda yoza boshlagan g'azalining «*Ne kun bo'lg'ay visolingga meni dil xasta etgaymen*» degan satri esiga tushdi. So'ng ot ustida kun bo'yi yo'l yurib borayotib, xayolan o'sha g'azalini davom ettirdi:

*Muyassar bo'lmasa boshimni qo'ymoqlik oyog'iga,  
Boshimni olib, ey Bobur, oyoq yetguncha ketgaymen.*

Kechqurun tunash uchun Qo'shtegirmon degan joyda to'xtaganlarida Bobur bu satrlarni qog'ozga yozib qo'ydi. G'azal – shu satrlar bilan tugallanishi kerak. Lekin o'rtada yana uch-to'rtta bayt bo'lishi kerak. Ularni keyinchalik, xotirjamroq paytda topmoqchi bo'ldi.

\* \* \*

Andijonda bo'lgan voqealar dahshati Tohir qiyofasiga kirib, Boburga tobora yaqinlashib kelmoqda edi.

Bobur odamlari bilan Novdan o'tganda, Tohir Qo'qondan o'tib, Xodarvish cho'lga kirdi. Bobur cho'llarda olti marta tunab, yettinchi kuni kechki payt



Xo'jandga yetganda, qora oti loyga belangan, o'zi tanib bo'lmas darajada qorayib, ozib ketgan Tohir uning qarshisidan chiqdi. Bobur hamma bek va navkarlari bilan kelayotganini ko'rgan Tohir otdan o'zini yerga tashlab, dod solib yig'lab gapirdi:

- Nechun Samarqandni tashlab keldingiz, amirzodam?!

Bobur Andijon qo'ldan ketganini eshitdi-yu, nazarida, butun borliq zilzila ichida qoldi, yer-u ko'k chayqalib, silkinib ketdi. Chapda yaltirab ko'ringan Sirdaryo qirg'oqlaridan toshib, chiqa boshlaganday tuyildi.

Daryodan narida Xo'jand tog'lari. Bu yerdan Andijon naqadar uzoq! Samarqand naqadar uzoq! O'gay taqdir Boburni bu yerga go'yo aldab olib kelgan-u, birvarakayiga Samarqanddan ham, Andijondan ham mahrum qilgan! Endi uning ora yo'lda muallaq bo'lib qolganini Andijondagi Ahmad Tanbal ham, Samarqanddagi Sulton Ali mirzo ham, Turkistondagi Shayboniyxon ham go'yo uzoqdan ko'rib turar edilar-u «Boladay aldanibdi!» deb qah-qah urib, kular edilar. Ularning kulgilari atrofdagi tog'lardan aks sado bo'lib qaytayotganday tuyilar edi.

Tohir Ali Do'stbekning xiyonat qilib, darvozani kechasi ochib berganini, Xo'ja Abdulla esa Boburga sadoqati tufayli shu darvozaxonaga osib o'ldirilganini aytganda, Bobur ortiq bardosh qilolmay otiga qamchi bosdi. Qayoqqa ketayotganini o'zi ham bilmas edi. Chanqagan ot uni daryoning jar bo'lib yotgan baland qirg'og'iga olib keldi. Birdan Bobur Axsida jar qulashidan halok bo'lgan otasini esladi. Nazarida u turgan zamin ham hozir qulab tushmoqda edi. Bobur otini orqaga burdi. Lekin orqadagi past-u baland yerlar ham jahannam qa'riga qulab tushayotganday lopillab ko'rindi.

Bobur otining bo'ynidan quchoqladi-yu, yelkalari silkina-silkina yig'lab yubordi. Qosimbek bilan tabib chol uning yoniga keldilar. Qosimbek qayg'u to'la tovush bilan yig'lamsirab gapirdi:

– Amirzodam, hammamiz ham xonavayron bo'ldik. Mening mol-u mulkimni talatibdilar. O'g'lim og'ir yarador emish...

Bobur boshini ko'tardi. Ko'z yoshidan yuzi nam. Tabib uning yelkasini siladi.

– Amirzodam, shukr, onangiz, egachingiz salomat ekanlar. Ko'p kuyunmang, boshingiz omon bo'lsa, davlat topilur... O'zingizni ehtiyot qiling, yana xastalanib qolmang!

Bobur darvozaxonaga osilgan ustozini esladi-yu, ko'ziga yana yosh quyilib keldi:

– Pirim, meni kimlarga tashlab ketdingiz? Shunday odamni osib o'ldirsalar?! Men ustozim uchun qasos olmog'im kerak! Qasos!

O'rtanib gapirayotgan Boburning tili tutilmayotganidan tabib chol hayratga tushib, unga tikilib qoldi.

– Oxirgi nafasim qolguncha olishurmen!

Boburning yuzi qahr-u g'azabdan bir oqarib, bir qizarib ketayotgan bo'lsa ham so'zlari ravon edi. Samarqandda Boburni tildan qoldirgan kasallik – g'oyat kuchli bir ruhiy larzaning oqibati edi. Endi undan ham kuchliroq ruhiy larza Boburning tilida qolgan duduqlikni birdan yo'q qilib yubordi. Dushmanlariga qarshi cheksiz bir nafrat va g'azab unga kuch-quvvat bermoqda edi.

– Xoinlar jazosini olur! Chekinish yo'q! Odamlarni to'plang! Hammaga ayting! Andijonga borurmiz!

Bobur otini keskin burdi-yu, parishon bo'lib tarqayotgan odamlarga qarab ketdi.

## **XO‘JAND, MARG‘ILON, ANDIJON**

### **AMIR TEMUR SABOQLARI**

#### **1**

Bobur mingan yoldor saman ot egasining iztiroblarini sezganday yugan suvlig‘ini asabiy chaynaydi, jilovni tortib, oldinga uchmoqchi bo‘ladi. Qosimbekning to‘riq qashqasi saman bilan yonma-yon yo‘rg‘alab boradi. Yo‘l Sirdaryoning baland qirg‘og‘idan kunchiqish tomonga qarab ketadi. Bobur tezroq Andijonga borib, ota yurtini Ahmad Tanbal istilosidan xalos qilishga oshiqadi. Qosimbek uni Xo‘jandda to‘xtab, kuch yig‘ishga, vaziyat yetilishini kutishga undaydi.

– Amirzodam, Samarqanddan bemavrid yo‘lga chiqqan ekanmiz. Andijon choparini kutsak bo‘larkan. Endi shoshilmaylik!

– Ustozim Xo‘ja Abdullani osib o‘ldirgan Tanbal onam bilan egachimni sog‘ qo‘ygaymi? Ularni kim qutqargay?

– Parvardigor o‘zi qutqaribdir. Hazrat onangiz bilan egachingiz Andijondan Qo‘qonga kelibdirlar.

– Kim aytdi?

– Tohir ularni Qo‘qondan berida yo‘lda ko‘ribdir. Bir kecha Konibodomda tunab, keyin Xo‘jandga borurmiz deyishibdir.

– Qo‘qon hali bizga tobe‘mi?

– Ha, shukr. Xo‘jand ham sizga xayrixoh!

Bu xabarlar Boburga xiyol taskin berganday bo‘ldi. Qosimbek so‘zida davom etdi:

– Onayizor sizni behad sog‘ingandirlar. Mulozimlar bilan peshvoz chiqib kutib olsangiz, qanchalik shod

bo'lg'aylar. Ungacha men Xo'jand dorug'asi bilan so'zlashib, sizlarga joy hozirlagaymen.

Boburning o'zi ham o'n oydan beri ko'rishmagan onasi va egachisining iliq mehrlariga juda tashna edi. Qosimbekning so'nggi taklifi ma'qul tushib, mulozimlari va ikki yuztacha qo'riqchi navkarlari bilan Xo'janddan Konibodom yo'liga chiqdi.

Qayroqqumdan berida tuya va xachirlarga ko'ch ortgan karvon ko'rindi. Karvon ortida sandiqlar yuklangan katta g'ildiraklik qo'qon aravalar ham kelmoqda. Ularning hammasini to'rt-besh yuz kishilik otliq navkarlar uch tomondan qo'riqlab yo'l yurmoqda. Xon qizi bo'lgan Qutlug' Nigor xonimning besh yuzdan ortiq xos navkari borligi Boburning yodiga tushdi. Oldingi qatordagi qo'riqchilar orasida bo'z ot minib kelayotgan Qutlug' Nigor xonim Boburni sallasiga qadalgan tojdorlik belgisidan tanib, otini o'g'li tomon yeldirdi. Ona-bola va egachiini otlaridan tushib, quchoqlashib ko'rishar ekanlar, goh xonumondan ayrilish alamlarini, goh diydor ko'rishish quvonchlarini ichlariga sig'dirolmay, ko'zlariga dam-badam yosh olishar edi. Yana otlanib, Xo'jandga yetgunlaricha ko'rgan-kechirganlarini bir-birlariga so'zlab berishdi.

– Tanbal asoratidan qanday qutuldilaringiz? – so'radi Bobur onasidan.

– Mana shu qo'riqchi navkarlarim Tanbalni biz turgan joyga yaqin keltirmadi. «Men Yunusxonning qizimen, inim Mahmudxon Toshkent tojdoridir, agar Ahmadbek bizga ziyon yetkizsa, xonlar oldida javob berur!» deb, orada turgan odamlariga aytdim. Harqalay, gapim ta'sir qilibdi, beshikast chiqib keldik.

– Afsus, men bundan bexabar qoldim! Chopar kechikdi!

– Biz ham shunisiga kuyinurmiz, Boburjon! Siz bizni deb Samarqandni jangsiz topshiribsiz!

Shu tarzda dardlashib, Xoʻjandga yetib keldilar. Shahar dorugʻasi nufuzli aʻyonlari bilan qoʻrgʻon darvozasidan chiqib, Bobur va uning onasini ehtirom bilan kutib oldilar. Bu qadimiy shahar xalqi Chingizxon bilan mardona olishgan Temur Malik davridan beri moʻgʻul bosqinchilaridan koʻp jabr koʻrgan. Hozir ham Toshkentda hukmron boʻlib olgan chingiziylar Xoʻjandga xavf solib turardi. Buning ustiga Andijon ham Ahmad Tanbalday zolimlarning qoʻliga oʻtgan paytda xoʻjandliklar Bobur kabi temuriy shahzodalar himoyasiga ehtiyoj sezardi. Shuning uchun shahar dorugʻasi Boburni oliy darajada eʼzozlab, Sirdaryo sohilidagi ulkan bogʻini ikki oshiyonlik qasri bilan uning ixtiyoriga berdi.

Qosimbek Boburga, uning onasi va egachisiga ikkinchi oshiyondagi eng yaxshi xonalarni tayyorlatib qoʻydi. Oʻzi bek-u mulozimlar va qoʻriqchi yigitlar bilan birinchi qavatni egalladi. Hammalari narsalarini joylashtirib, tinchiganlaridan soʻng, ikkinchi oshiyondagi katta tanobiy uyda Bobur onasi va egachisi bilan yakkama-yakka qolib, boshqalar oldida aytilmaydigan dard-u alamlarini toʻkib soldilar.

– Tole bizdan yuz oʻgirdi! – dedi Bobur «uh» tortib, – Tanbalning oʻn ming qoʻshini bor emish, rostmi?

– Rost! Nobakorlar sizni «Samarqandda vafot etdi», deb ovoza tarqatdilar, – dedi Qutlugʻ Nigor xonim. – Behush yotganingizni koʻrib kelgan choparni guvoh qilib koʻrsatib, koʻp odamni bunga ishontirdilar. Shundan soʻng tarafdorlaringiz maʼyus boʻlib, Tanbal bilan Jahongirga boʻyin egdilar.

– Qosimbek ham xato qilganki, meni behush ahvolda koʻrgan navkarni Samarqandda toʻxtatib turmagan. Buni sir tutmoq kerak edi! Hozir bizning bir yarim mingga yetar-yetmas navkarimiz qoldi. Ularning ham koʻpi vodiydagi uylariga, ahli oilasiga talpinur, Xoʻjandda koʻp turolmay tarqab ketgay. Men endi qaysi

kuch bilan Tanbalga qarshi boray? Bu ne ko'rgulikki, birvarakay ham Samarqanddan, ham Andijondan mahrum bo'ldik! Ikki mulk orasida muallaq qoldik! Najot yo'q! Atrofimiz zim-ziyo qorong'ilik! Boshi berk ko'cha!

Bobur jigarbandlariga dil yorib so'zlar ekan, ilojisizlikdan ko'ngli ezilib, ruhi qiynalar, ko'zlariga yosh quyulib kelardi.

Yaqindagina og'ir xastalikdan turgan o'n olti yoshlik o'g'lining bunchalik ezilib qiynalishlari Qutlug' Nigor xonimni iztirobga soldi.

– Boburjon, bolam, shukrki, sog'-salomat ko'rishdik! Xayriyat, tuzalib ketibsiz.

– Bil'aks, tuzalmay turganim ma'qul edi! Samarqandni tashlab chiqmas edik!

Bunday og'ir kayfiyat bilan yolg'iz o'g'li yana uzlikib yotib qolishi mumkin. Xavotirlangan ona Boburga taskin beradigan, uning ko'nglini ko'taradigan chora izlay boshladi. Shunda qizi Xonzoda begim yordamga keldi:

– Onajon, amirzodamni mamnun qiladigan noyob bir tuhfamiz bor edi-ku!

– Qaysi tuhfa?

– Shaxnishinning orqasidan topilgan maxfiy sandiq-chi?

– Ha, aytmoqchi! – Qutlug' Nigor xonim o'g'liga yuzlanib, ovozini sirli tarzda pasaytirdi: – Boburjon, sizga atalgan buyuk bir meros topildi. Yuring, ko'rsatay!

Qutlug' Nigor xonim Boburni va qizini o'zi joylashgan narigi tomondagi xonaga boshladi. Bobur onasi bilan yonma-yon borar ekan, uning bo'yi shu o'n oy ichida xiyla o'sganini, Bobur tez ulg'ayib o'n olti yoshida devqomat, pahlavon yigit bo'layotganini sezgan Qutlug' Nigor xonim ichida Yaratganga yana bir shukrona aytib qo'ydi. Ayvoni Sirdaryoga qaragan

bahavo, keng xonaga kirdilar. Gilamlar, beqasam ko'rpachalar to'shalgan xonaning to'rida silliq charm qoplangan sandiq ko'rindi. Uchovlari shu sandiqqa yaqinlashganlarida, Qutlug' Nigor xonim Boburga qarab dedi:

– Esingizdami, otangiz sizga «Bobokalonimiz Amir Temurdan qolgan noyob meros bor, asrab-avaylab yuribmen, katta bo'lganingizda berurmen» der edilar?

– Ha, otam bizga sohibqiron bobomiz haqida ko'p g'aroyib hikoyalar ham aytib berganlar.

– Bobokalonlariga ixloslari zo'r edi-da. Vafotlaridan keyin o'shal merosni Axsidan izladim, topolmadim. O'tgan hafta Andijonda ko'ch yig'ishtirgan paytimizda xonayi xosning devoriga osilgan turkman gilamini olsak, usti shuvalgan tuynukning izi ko'rindi... Tuynuk orqasidagi maxfiy joyga mana shu sandiq berkitilgan ekan!..

Qutlug' Nigor xonim namoz o'qigan paytidagi kabi ezgu bir tovush bilan sekin:

– Bismillohir rohmanir rohiym! – dedi-da, sandiqni ochdi. Undan nafis ipak matoga o'ralgan oltin soplil qilichni ikki qo'llab olib, o'g'liga ko'rsatdi:

– Sohibqiron Amir Temurning qilichlari!

Bobur quloqlariga ishonmay, ko'zlarini katta-katta ochib, qilichga tikildi:

– Rostdanmi, a?

– Yozuvlari bor! Oling, bolam, o'qib ko'ring!

Qilichning qini yengil bir ma'dan qotishmasidan quyma qilib yasalgan, ustidan oltin suvi yugurtirilgan edi. Qinning yuz tomoniga ikkita yirik yashil zumrad toshi qadalgan, ularning oralig'ida chiroyli xattotlik harflari bilan bitilgan arabcha yozuv bor edi.

Bobur qilichni onasining qo'lidan ikki qo'llab oldida, yozuvini ko'zlariga yaqin keltirib o'qidi: «Bizkim, maliki Turon, podshohi Turkiston Amir Temur Ko'ragon farzandimiz Mironshoh Mirzoga To'xtamish

bilan muhoribada ko'rsatgan jasorati uchun o'z qilichlarimizdan birini in'om etdik».

Bobur bu qilich dastasiga Amir Temurning qo'li tekkanini, balki Sohibqiron uni janglarda ishga solganini ko'z oldiga keltirib hayajonlanib ketdi. To'xtamishxon va boshqa chingiziylar bilan qilingan dahshatli janglar xayolida gavdalandi.

– Qilichning o'zida ham bitik bor, – dedi past tovush bilan Xonzoda begim.

Bobur qilichning oltin sopidan sekin tortib, uni bir qarichcha qinidan chiqardi. Shun-da olmosday yaltiragan qisqa bir yozuv ko'ziga jilvalanib ko'rindi. Amir Temurning muhridagi «Rosti-rasti», ya'ni «Kuch – adolatdadir» degan so'zlar qilichning po'latiga qadama tarzida mustahkam qilib bitilgan edi.

Bu qisqa so'zlarni o'qiganda, negadir Boburning eti jimirlab ketdi, dilida qo'zg'algan kuchli bir tug'yondan entikdi, olmos yozuvni ko'zlariga surib, o'pdi.

Qilich uncha og'ir emas edi. Bobur uni beliga taqqanda, atrofidagi hamma narsa ko'ziga boyagidan boshqacha – allanechuk sokin va salobatli ko'rindi.

– Onajon, siz menga yangi bir ruh ato qildingiz!

– Bobokaloningizning ruhi sizga madadkor bo'lsin, o'g'lim! Bu qilichni Mironshoh bahodirdan so'ng otangizning otalari Sulton Abusayid bahodir taqqan ekanlar. Inshoolloh, siz ham bobolaringizdek bahodir bo'lg'aysiz!

– Aytganingiz kelsin!

– Xudo rahmati Abusayid bobongiz vafot etganlaridan so'ng qolgan meroslari o'g'illari orasida taqsim etilur. Katta o'g'illar oltin-u javohir to'la sandiqlarni talashib olurlar. Ammo sizning jannatmakon otangiz mana shu sandiqdagi qilich bilan xotirotlar bitilgan daftarlarni afzal ko'rurlar. Chunki bu xotirotlarda Amir Temur hazratlarining ko'rgan-kechirganlari bitilmishdir. Xonzoda, qizim, siz o'qib ko'rdingiz, shekilli?



- Ha, Sohibqiron bobomiz yigitlik paytlarida chingiziylar hukmronligiga qarshi chiqqan ekanlar. El-yurt Samarqandda Temurbekni o'z hukmdorlari, deb e'lon qilgan ekan.

Chingiziylarni yurtimizdan quvmoqchi bo'lganlar ko'p ekan. Bundan g'azablangan Tug'luq Temurxon bilan uning o'g'li Ilyosxo'ja Mo'g'ulistondan ellik ming qo'shin bilan kelib, Temurbek tarafdorlarini qirg'in qilurlar. Temurbekning o'zi Qoraqum, Qizilqum sahrolarida, Hisor-u Badaxshon tog'larida olti yil quvg'inda yurib, kuch to'playdirlar.

Bobur bu hodisalar haqida otasidan ham ko'p maroqli hikoyalar eshitganini esladi. Ayniqsa, Temurbekning suyukli yosh xotini O'ljoy Turkon og'a bilan eng og'ir damlarda birga bo'lgani, goho xotinini otiga mindirib, o'zi qum sahrosida piyoda yurganlari yosh Boburga kuchli ta'sir qilgan edi.

Shuni biladigan Xonzoda begim inisiga mehri tovlanib tikildi:

- Sizda ham Sohibqiron bobokaloningizdagi jo'mardlikdan bor, amirzodam! - dedi. - O'shdagi tajovuzdan meni qutqarganingizni umrbod unutmagaymen! Bo'lajak kelinimiz Oyisha begimni siz Samarqanddan yog'iy asoratidan xalos qilib, bizga xayrixoh Toshkentga kuzatib qo'yibsiz. Bu ham bir jo'mardlik emasmi? Yetti oy qamal azobini tortgan samarqandliklarga oshliq tarqatibsiz, urug'ligi qolmagan dehqonlarga bahorda urug'lik keltirib beribsiz. Bu hammasi - dilingizda adolat tuyg'usi kuchli ekanidan dalolatdir. Belingizdagi qilichga Sohibqiron bobokaloningizning: «Kuch - adolatdadir», degan hikmatlari bejiz bitilmagan. Ahmad Tanbalning o'n ming askari bo'lgani uchun u hozir «Men kuchlimen!» deb yuribdir. Ammo yolg'onning umri qisqa! Ahmad Tanbal Andijonni aldanchilik bilan egalladi, sizni «o'ldi» deb ovoza tarqatdi. Siz sog'-

salomat qaytganingizni odamlar hademay bilurlar, Tanbalning yolg'oni fosh bo'lar. Uning zolimligidan hamma bezor bo'ladigan kunlar kelur.

– Ana o'shal kunlar kelguncha sabr-bardoshli bo'ling, Boburjon, – dedi onasi. – Sohibqiron bobongiz mana shu Xo'jandga ham necha bor kelganlar. Sirdaryodan necha marta o'tganlar, vaziyat yetilishini yillar davomida kutganlar, axiyri adolat g'olib chiqqan kunlarga yetganlar. Siz ham yetursiz, ishoning!

– Ishondim, onajon! Siz bilan egachim mening dilimda o'chib qolgan umid chiroqlarini qayta yondirganday bo'ldilaringiz. Minba'd men doim Sohibqiron bobokalonimizdan saboq olib, ish tutgaymen!

Onasi in'om qilgan buyuk meros chindan ham Boburning dilini ravshan qilib yuborgan edi. Ular kelib tushgan bog'da o'riklar oppoq bo'lib gullagani endi uning ko'ziga tashlandi. Daryo bo'yidagi qalin chakalakzorda bulbullar basma-bas sayrayotgani qulog'iga chalindi. Ayvonga chiqqanda kechki shabada yuziga ipakday mayin salqinlik berdi.

## 2

Ammo bu ma'sud damlardan keyin kelgan kunlar, oylar, hatto yillar lomakonlik va sargardonlikda o'ta boshladi. Sohibqiron bobokalonidan saboq olib yashashga ahd qilgan Bobur buning qanchalik qiyin bo'lishini o'z boshiga og'ir kunlar tushganda bildi. U onasi in'om qilgan sandiqdagi xotirotlarni takror-takror o'qib, Sohibqiron bobosini yigitlik paytidagi ismi bilan xayolida Temurbek deb atashga o'rgandi. Temurbek yigirma besh yoshida Samarqand va Shahrisabzdagi xonumonidan judo bo'lgani va ota yurtining to'rt tomoniga bosh urib, najot izlagani Boburning hozirgi ahvolini eslatardi.

To'g'ri, Temurbekka tajovuz qilgan Ilyosxo'ja va Amir Bekchiklar Ahmad Tanbaldan yuz chandon qudratliroq va xatarliroq edi. Ular Temurbekni tutib olib o'ldirish uchun minglab odamlarni safarbar etadilar. O'lim xavfi yillar davomida Temurbek bilan izma-iz yuradi. Qoraqum sahrosidan narida, Xiva bo'sag'asida Temurbek oltmish yigiti bilan ming kishilik yov qurshovini qo'lda qilich bilan yorib chiqib, qutulib ketadi.

Endi o'n yetti yoshga kirayotgan Bobur hali bunday dahshatli xatarlarga duch kelgan emas. Faqat ota yurtidan ayrilib, lomakon bo'lib yurgani va Ahmad Tanbalga bas kela oladigan kuchli qo'shin yig'ish nihoyatda mushkul bo'layotgani uni qiynaydi. Boburning ishongan odamlari yashiriqcha Andijon-u Axsiga, Marg'ilon va O'shga borib kelmoqda. Xayrixohlar ko'p, ammo yurak yutib maydonga chiqadiganlar kam. Boburning o'zi ham bu yog'i Isfara va Konibodomga, u yog'i Zomin va Jizzaxgacha, janubda O'ratepa, shimolda Toshkentgacha hamma joyga bir necha marta borib keldi. Bir yarim yildan beri qishni qish, yozni yoz demay yo'l bosdi. Sirdaryodan qayta-qayta suzib o'tdi. Qishda muzni teshib cho'milgan paytlari bo'ldi. Uning o'ziga o'xshab chiniqqan yigitlari Temurbekning Hisor tog'larida, afsonaviy g'orlarda yashab toblangan yigitlarini eslatadi.

Biroq navkar-u sardorlari bilan bir joyda uzoq vaqt mehmon bo'lib turishga yuzi chidamaydi. Chunki haftalar, oylar davomida yuzlab odamlarga ovqat, otlarga yemish topib berish mezbonlarga juda og'ir tushishini sezadi. Shuning uchun onasi va egachisini Xo'janddan O'ratepaga, xolasi Xub Nigor xonimning uylariga keltirib qo'ydi. O'zi uch yuzga yaqin bek-u navkarlari bilan janubdagi tog'larga chiqib ketdi. Ovchi deb ataladigan bir qishloq yaqiniga chodir va

o'tovlar tikishib, ancha vaqt ov o'ljalari bilan ro'zg'or tebratishdi.

Ovchi qishlog'iga tor bir daradan o'tib boriladi. Daraning tubidan suv hayqirib oqadi. Suv bo'yida besh qavatlik uyday bir bahaybat qoyatosh osmonga bo'y cho'zib turadi.

Bobur shu qoyatoshning ustini tekislatib, chodir o'rnattirgan. Ovdan bo'shagan paytlarida chodirda o'ltirib, kitob o'qiydi, xotira daftariga ko'rgan-kechirganlarini yozadi, she'r mashq qiladi.

Bir kun shu chodirda Bobur Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arbaa ulus» kitobini<sup>1</sup> o'qib o'tirganda, daraning narigi chetidan bir otliq odam jadallab kelayotganiga ko'zi tushdi.

Oti terga botgan bu otliq Marg'ilondan kelgan chopar yigit edi. U Bobur qarshisida tiz cho'kib, arzini aytdi:

– Amirzodam, meni Marg'ilon dorug'asi Ali Do'stbek tog'oyingiz yubordilar.

– Bizga xiyonat qilib, Andijonni Tanbalga yashiriqcha topshirgan tog'oyimizmi?

– Ha, tog'oyingiz bu qilgan ishlaridan hozir ming pushaymonlar. Ahmad Tanbal uning uylariga bostirib kelib, yaxshi ko'rgan qizlarini zo'ravonlik bilan haramiga olib ketibdir. Mol-mulkini talatibdir!

– Qasos qaytar ekan-da! – dedi Qosimbek. – Do'stbekning o'zi Andijonda bizning mol-mulkimizni talatgan edi.

– Janob amiral umaro, Tanbalning amaldor-u soliqchilari ham jabr-zulmni haddidan oshirib yubordi. El-yurt ularga qarshi isyon ko'taradigan bo'lib turibdir. Ayniqsa, marg'ilonliklar hozir jo'sh-u xurushga kelgan. «Bobur mirzo kelsalar qo'rg'on darvozalarini ochib bergaymiz!» deb, tog'oyingiz meni huzuringizga yubordilar.

---

<sup>1</sup> «Tarixi arbaa ulus» – to'rt ulus tarixi demakdir.

– Tog‘oyimiz Tanbal bilan til biriktirib, bizni unga tutib bersalar-chi?!

– Tepamizda Xudo turibdir, amirzodam! – deb qasam ichdi chopar. – Hazrat momongiz Eson Davlat begim Ali Do‘stbekka yaqin qarindosh ekanlar. Momongiz yaqinda Marg‘ilonga boribdilar.

– Siz momomni o‘sha yerda ko‘rdingizmi?

– Ha, maslahatlarini ham oldim. «Ali Do‘stbek bilan Tanbalning yovlashgani rost!» dedilar. Momongiz sizga salom aytdilar, «Tezroq yetib kelsinlar!» deb tayinladilar.

Bobur endi hayajon bilan o‘rnidan ko‘tarildi:

– Janob Qosimbek, tavakkal qilaylik! Odamlarga buyuring. Darhol ko‘ch yig‘ishtirsinlar!

O‘sha kuni qorong‘i tushguncha barcha o‘tovlar qatori Boburning qoyatosh<sup>1</sup> ustidagi chodiri ham yig‘ishtirib olindi. Tuni bilan yo‘l yurib, sahar palla Xo‘janddan berida bir-ikki soat dam oldilar-da, yana yo‘lga tushdilar. To‘rt kunlik yo‘lni bir yarim kunda shitob bilan bosib o‘tdilar. Marg‘ilondan berida Isfayramsoy shovullab oqmoqda. Sahar palla edi. Soy bo‘yida birpas to‘xtadilar. Bobur soy suvidan tahorat olib, ikki rakat namoz o‘qidi. Joynamoz ustida o‘ltirib, Sohibqiron bobokaloniga bag‘ishlab tilovat qildi, ulug‘ ajdodlar ruhidan madad so‘rab, yuziga fотиha tortdi. So‘ng tong qorong‘isida Marg‘ilon qo‘rg‘onining yopiq darvozasi oldiga keldilar.

Ali Do‘stbek darvoza qorovulxonasida ularni kutib o‘ltirgan ekan. Darvozani to‘rt enlik ochib, qo‘rqa-pisa Boburga murojaat qildi:

– Amirzodam, Andijonda qilgan gunohlarim uchun afv so‘raymen! Tanbal hammamizni aldagan ekan!

---

<sup>1</sup> Ovchi qishlog‘i va undan pastroqdagi qoyatosh hozir ham bor. O‘sha joyning turkiyzabon aholisi bu qoyatoshni «Boburtosh» deydi, tojikzabon aholisi esa uni «Sangi Boburxon» deb ataydi.

– Minba'd sadoqat saqlay olurmisiz? – shiddat bilan so'radi Bobur.

– Qur'oni karim oldida so'z berurmen, umrbod sodiq qulingiz bo'lurmen, amirzodam! Faqat meni inoyatlaringizdan mahrum qilmasangiz, bas!

– Inoyatlar istaganingizdan ham ziyoda bo'lg'usidir. Oching, darvozani!

Bu buyruqni Ali Do'stbek darhol ado etdi. Bobur fonus yorug'i tushib turgan darvozaxonaga kirganda, Ali Do'stbek o'zini uning oyog'i tagiga tashlab yukundi. Bobur uni qo'ltig'idan olib turg'izdi:

– Ma'zursiz! Tanbalning sodiq odamlari bo'lsa, hozir uyquda tutdirmoq kerak!

– Uning talonchilari uxlab yotgan joylarini bilurmen!

– Janob Qosimbek, bizning navkarlarimizga siz bosh bo'ling!

\* \* \*

Tong yorishganda Marg'ilon ko'chalarida otliq jarchilar Bobur mirzoning qaytib kelganini e'lon qildilar. Tanbalning ko'pchilik odamlari qurolsizlantirilgani ham shaharliklarga ma'lum bo'ldi. Butun Marg'ilon ahli oyoqqa qalqdi. Shahar a'yonlari Bobur kelib tushgan ko'shkka borib, uni g'alaba bilan qutladilar. Bozorlarda Tanbal soliqchilari uchrab qolsa, odamlar ularni tayoq bilan urib, shahardan quvdilar. Mahallalarda nog'oralar, karnay-surnaylar yangradi. Qosimbek Bobur mirzo nomidan doshqozonlarda palov damlatib, minglab odamlarga osh ulashdi.

Kechagina Tanbal zulmidan motamsaro ahvolga tushgan Marg'ilon bugun Bobur mirzo qaytgani tufayli bayram tusini oldi. Bu hodisa ko'p o'tmay Andijon, Axsi va O'shlarga ham ma'lum bo'ldi. Bobur mirzoning pinjiga kirib olgan Ali Do'stbek Qosimbekning o'rniga

sohibixtiyor eshik og‘a bo‘lish niyatida edi. U Boburni xoli topib, gapning uchini chiqardi:

– Amirzodam, kutganimdan ham ortiq inoyatlar qilmoqchi edingiz...

– Marg‘ilon dorug‘alig‘i sizga yetarlik emasmi?

– Dorug‘alikni menga Tanbal bergan edi. Endi bundan kattaroq inoyatni sizdan kutmoqdamen.

– Qani, Andijon-u O‘shlar ham bizga qayta nasib qilsa. Keyin o‘ylab ko‘rurmiz.

– Ittifoqo, O‘shdan Qambarbek keldi. O‘shliklar ham sizga muntazir emishlar.

– Ammo hozir Andijondan yomon xabar oldik. Ahmad Tanbal katta qo‘shin to‘plab, Marg‘ilon tomonga bostirib kelmoqda.

– Unday bo‘lsa, O‘shga Qosimbek sizdan vakil bo‘lib borsin. O‘zganga ham o‘tib, tarafdorlaringizni ishga solsin!

Ayyor Ali Do‘stbek shunday nozik paytda Qosimbekni Boburdan uzoqlashtirib, sohibixtiyor eshik og‘a vazifasini o‘zi boshqarmoqchi edi. Lekin Bobur barcha mashaqqatlarni birga boshdan kechirgan qadrtoni Qosimbekdan ajrashgisi kelmadi.

– Janob Do‘stbek, Tanbalday yog‘iy bostirib kelayotgan paytda ko‘pni ko‘rgan Qosimbek yonimizda bo‘lmog‘i kerak. O‘shga boshqa bek-u navkarlarni yuborgaymiz.

So‘zi yerda qolgan Ali Do‘stbek qovog‘ini solib, to‘mtayib qoldi.

Qosimbekning o‘z odamlari bilan Marg‘ilonda qolgani yaxshi bo‘lgan ekan. Tanbal Andijondan katta qo‘shin bilan Marg‘ilonga hujum qilib kelganda, barcha kuchlar birlashib himoyaga chiqdilar. Marg‘ilondagi bek-u navkarlar qo‘rg‘ondan tashqaridagi mahallalar va qishloqlardan yig‘ilgan minglab botir yigitlar yordamida Tanbal qo‘shinini uloqtirib tashladilar. Bu orada quvaliklar Tanbalga orqadan zarba berdilar.

O'sh va O'zgan xalqi ham Tanbalga qarshi isyon ko'tarib, Boburga ko'mak yubordi.

To'rt tomonidan o't ketgan Tanbal tezroq Andijon qo'rg'oniga qaytib borib, jon saqlamoqchi bo'ldi.

U Andijonga Nosirbek degan kishini dorug'a tayinlab kelgan edi. Ahmad Tanbal Marg'ilonda Boburdan yengilib, talvasaga tushib kelayotganini eshitgan andijonliklar Nosirbekning qarorgohini o'rab oldilar. To'rt tarafdin hayqiriq va xitoblar eshitila boshladi:

- Ahmad Tanbal daf bo'lsin!

- Darvozadan kiritilmasin bu zolim!

- Bobur mirzoga odam yuboring, tug'ilgan yurtig'a tezroq qaytsin!

- To'ydik chingiziyulardan! Bobur kelsin!

- Agar dorug'a yana Tanbalga yon bossa, qo'rg'on darvozalarini biz o'zimiz Bobur mirzoga ochib bergaymiz!

Toshgan daryoday to'liqinlanayotgan bir necha ming kishilik izdihom Nosirbekni qo'rqitib yubordi:

- Xaloyiq! Tinchlaning! Menga quloq soling! Oralarigizda mo'ysafidlar bor! Mana, mening yonimda Shayxulislom janoblari turibdilar. Mo'ysafidlar jome' masjidiga borsinlar! Qurollangan yigitlar bizga yordamga kelsinlar. Darvozalarni darhol bekitgaymiz. Tanbalni Andijonga kiritmagaymiz. Juma namozida Bobur mirzoning nomini xutbaga qo'shib o'qigaymiz! Keyin buning xabarini mo'tabar odamlar orqali Bobur mirzoga yetkazgaymiz. Toki ul zoti oliy Andijonga izzat-ikrom bilan qaytib kelsinlar. Shunga rozimisizlar?

Bu reja amalga oshdi-yu, ertasi kuni andijonliklar Bobur mirzoni qo'rg'on darvozasi oldida karnay va nog'oralar chalib, kutib oldilar. U minib kelayotgan gulibodom otning oyog'i tagiga gilam poyandozlar to'shadilar. Bobur shodlikdan ko'zlari yoshlanib, yonida kelayotgan. Qosimbekka so'z qotdi:

- El-yurtda adolat bor ekan-a!



– Ha, mehr-u oqibat ham kuchli ekan. Faqat yuzaga chiqishi oson boʻlmas ekan!

– Shukr, masʼud kunlarga yetishdik!

\* \* \*

Shu tarzda Andijondan quvilgan Ahmad Tanbal qolgan-qutgan odamlari va koʻch-koʻroni bilan Axsiga yoʻl oldi. Biroq Axsida ham Tanbalga qarshi isyon koʻtarilgan, Bobur tarafdorlari qoʻrgʻon darvozalarini egallashgan. Tanbalga sadoqat saqlab turgan Axsi dorugʻasi Uzun Hasan arkka kirib bekingan edi.

Bobur va Qosimbekning qoʻshini soʻnggi vaqtlarda besh mingdan ham oshib ketdi. Ular Andijonda koʻp toʻxtamay, Bandi Solor yoʻli bilan Axsiga yetib bordilar va arkdagi Uzun Hasanni asir oldilar.

Bu xabarni eshitgan Ahmad Tanbal mustahkam qoʻrgʻonlardan biri boʻlgan Popga qarab chekindi. Ammo u yetib borgunicha, Bobur tarafdorlari Pop qoʻrgʻonini ham berkitib, Ahmad Tanbalni darvozadan kirgizmay quvdilar.

Ahmad Tanbal Gʻova orqali Chotqol togʻlariga qarab chekindi. Uning soʻnggi umidi – katta akasi Tilba Sultondan va Toshkent xoni Mahmudxondan edi. Tilba Sulton xon saroyida soʻzi oʻtadigan eshik ogʻa ekanini Bobur bilardi. Ahmad Tanbal Fargʻona vodiysini talon-toroj qilib orttirgan boyliklaridan katta bir qismini Ohangaron orqali Toshkentga, Mahmudxonga sovgʻa qilib yuborgani ham xufiyalar maʼlumotidan maʼlum edi. Lekin Mahmudxon – Qutlugʻ Nigor xonimning akasi boʻlaturib, jiyani Boburning ashaddiy dushmani Ahmad Tanbalga yon bosishi mumkin emasday tuyilardi.

Shuning uchun Bobur qoʻshini Ahmad Tanbalni Chotqol togʻi etagigacha taʼqib etib bordi. Kun sovuq, yoʻllar toygʻoq. Kechki payt Tanbal besh yuztacha

askari bilan Arxiyon degan joydagi qo'rg'onga kirib bekindi. Bu qo'rg'on devorlariga shoti qo'yib, oshib o'tish mumkin edi.

– Kech kiryapti, qorong'i tushmasdan tezroq harakat qilaylik! – dedi Bobur. Ammo shotilarni o'n chaqirimcha beridagi G'aznayi Namangandan keltirgunlaricha g'ira-shira qorong'i tushdi.

Kechki izg'irinda og'izdan chiqqan hovur uzoqdan ko'zga tashlanadi, navkarlarning qo'li qovushga kelmaydi, gapirganda lablari ham qiyinlik bilan harakatlanadi.

– Amirzodam, – deb Ali Do'stbek Boburga arz qildi: – Qorong'i tushib qoldi, yovni o'zimiznikilardan ajratish qiyin bo'lg'ay. Qamalni ertalabdan boshlaylik.

– Ungacha Tanbal qochib ketsa-chi? – so'radi Bobur.

– Qochib qayoqqa borgay? Naryog'i tog', dovon bekilgan!

– Tanbalning akasi Tilba Sulton Archakent dovoni orqali inisining oldiga kelib ketibdi-ku! – dedi Qosimbek.

– Ne bo'lganda ham, endi Tanbal ilikka tushmog'i kerak! – dedi Bobur. – Arxiyon qo'rg'oni atrofiga chodirlar tikdiring! Ming kishi tuni bilan qorovullik qilsin! Ertadan besh ming kishi bilan devorga shotilarni qo'yib hamla qilurmiz!

– Bosh ustiga! – deb Ali Do'stbek bu farmonni bajarishga kirishdi.

Qosimbek Bobur uchun shu atrofning eng obod va ko'rkam joyi bo'lgan G'aznayi Namanganda qarorgoh tayyorlata boshladi.

## TOSHKENT, NAMANGAN, ANDIJON

### CHINGIZIYLAR YANA HUKMRON BO'LMOQCHI

#### 1

Qirchillama qishda samur<sup>1</sup> po'stin va qunduz telpak kiygan Mahmudxon xonayi xosda eshik og'a Tilba Sulton bilan yakkama-yakka suhbatlashmoqda. Osmonni quyuvq bulut qoplagan. Kunduz kuni bo'lishiga qaramay, xonayi xosdagi qandillarda shamlar lipillab yonmoqda. Mahmudxon sham yorug'ida Tilba Sultonning yuziga tikilib qaradi-yu, uning ozib ketganini payqadi.

Odob bilan cho'kka tushib o'tirgan Tilba Sulton xonga tomon qaddini bukib, qo'lini ko'ksiga qo'yib so'zlamogda:

- Shu sovuq kunlarda dovon oshib, Farg'ona vodiysiga ikki marta borib keldim, xon hazratlari. Archakent dovoni pastroq ekan, undan oshib o'tib, Kosonsoyga qishda ham borsa bo'lar ekan.

Qorli dovonlardan qayta-qayta oshib o'tish oson bo'lmagani Tilba Sultonning sovuqda qorayib ketgan ko'sanamo yuzidan, qalin lablarining u yer-bu yerini izg'irin yorib yuborganidan bilinib turardi:

- Inim Ahmadbek butun najotni sizdan kutmogda, xon hazratlari! Axir siz bugungi Chig'atoy ulusining eng qudratli hukmdorisiz. Bizning yetti pushtimiz Chingizxon nasliga sodiq xizmat qilib kelmogda. O'zimiz ham aslan hazrati Chig'atoyxonning qiz avlodlaridan tug'ilganimiz sizga ma'lumdir.

- Rost, siz bilan bizning uzoq qarindoshchiligimiz bor.

---

<sup>1</sup> Samur - sobol.

– Shuning uchun inim Ahmadbek Farg‘ona vodiysini Boburga emas, sizga topshirmoqchi!

– Ammo Bobur ham bizga jiyan-da.

– Xon hazratlari, bu jiyanning sizga biron foydasi tekkan yo‘q! Otasi Umarshayx mirzo sizdan Toshkentni tortib olmoqchi bo‘lib, qancha urushlar qildi? Paytini topsa, Bobur ham sizga qarshi qilich yalang‘ochlagay!

– Unchalik emasdir, janob vazir. Bobur Toshkentga kelganda, juda odobli, mehr-u oqibatlik ko‘ringan edi.

– Tashqi ko‘rinishdan shundaydir. Ammo qilayotgan ishlari batamom sizga qarshi! Men buni o‘zim borib ko‘rdim, el-yurt orasida aytgan gaplarini o‘z qulog‘im bilan eshitdim, xon hazratlari!

Tilba Sulton yolg‘onni ham rostday qilib gapirishga usta edi. U Bobur aytmagan so‘zlarni ichidan to‘qib chiqara boshladi:

– Boburning o‘zi ham, tarafdorlari ham chingiziylarni «jete»<sup>1</sup> deb kamsitadi. «Yo‘qolsin chingiziylar! Farg‘ona vodiysi Temuriylar mulkidir! Jetelarni qir!» degan baqiriqlarni Farg‘ona vodiysining ko‘p joylarida men o‘zim eshitdim!

– Nahotki Bobur bizga jiyan bo‘laturib shunday gaplarni aytsa?!

– Aytish ham gapmi?! Bobur Amir Temurning qilichini taqib olgan. Bu qilichni To‘xtamishxon tor-mor bo‘lgan paytlarda Temurbek o‘g‘li Mironshohga in‘om qilgan ekan. Endi Bobur boshqa chingiziylarni ham xuddi To‘xtamishga o‘xshatib, shu qilich bilan tor-mor qilmoqchi emish!

Mahmudxon achchiq istehzo bilan kuldi:

– Bu hammasi bekorchi xomxayol! Temuriylar Chig‘atoy ulusida yuz yildan ortiq hukm surgani yetar! Endi ularning davri tugadi! Bir yilda katta yoshlik, tajribali Temuriylardan uchtasi ketma-ket olamdan o‘tdi. Yana Boysunqur mirzo deganini Hisorda

<sup>1</sup> Jete – bosqinchi, talonchi demakdir.

Xisravshoh o'ldirib, taxtini egalladi. Buxoroda Sulton ali mirzo degan bo'sh-bayov bir o'smir hukmron edi. Shayboniyxon Buxoroni osongina undan tortib oldi.

- Shayboniyxonga siz yordam berdingiz-da, xon hazratlari! Bu odam avval temuriyzoda Sulton Ahmad mirzo xizmatida uch yuztagina navkari bilan ponsot darajasida xizmat qilib yurgan edi.

- Yordam berdik, chunki Shayboniyxon bilan ildizimiz bir. Biz sohibqironi a'zam, xoqoni muazzam Chingizxonning o'rtancha o'g'li Chig'atoyxondan tarqagan xonlarmiz. Shayboniyxon Chingizxonning katta o'g'li Jo'jixonidan tarqagan xonlar avlodidandir. Buni bilurmisiz?

- Yaxshi bilurmen, xon hazratlari. Ammo Jo'jixonning o'g'li Botuxon Chig'atoy ulusini Oltin O'rdaga bo'ysundirmoqchi bo'lib, sizning bobolaringizga ko'p jabr-u sitamlar o'tkazgan! Qancha-qancha chig'atoylarni Botuxon begunoh yasoqqa yetkazgan!

- Lekin Shayboniyxon - Botuxon avlodidan emas, Shaybon ulusidandir, shuni unutmang, janob vazir! Shaybon - Jo'jixonning beshinchi o'g'li bo'lgan, Botuxonga qarshi turgan.

- Bunisini bilurmen, xon hazratlari! Shaybon ulusi Yoyiq bilan Irtish daryolari orasidagi yaylovlarda ko'chib yurgan. Shayboniyxonning nevara-chevaralaridan biri Abulxayrxon nomi bilan shuhrat qozongan. Hozirgi Muhammad Shayboniyxon ana o'sha Abulxayrxonning nevarasi ekan. Otasi Shohbudoq sulton xonlik masnadiga yetisholmay o'lib ketgan.

- Ha, rost, Shayboniyxonning asli oti - Shohbaxt ekan. Uni bolaligida Abulxayrxon o'zi tarbiyalagan ekan. Bobosi o'lgandan keyin alg'ov-dalg'ov boshlanib, Shohbaxtxon ko'p azob tortadi. Axiyri Dashti Qipchoqdan Buxoroga ko'chib kelib, jon saqlaydi.

- Tasanno, xon hazratlari! Buxoroda Temuriylar xizmatida bir bek bo'lib yurgan Shohbaxtxon sizning

ko'magingizda qaddini tiklab, kimsan, Shayboniyxon bo'ldi-ya!<sup>1</sup>

– Lekin Shayboniyning o'zi ham kallasi yaxshi ishlaydigan, pishiq, dovyurak odam ekan-da. Chirchiq daryosi bo'yidagi jangda jonini garovga qo'yib, bizga qanday ko'mak bergani yodingizdami?

– Nega yodimda bo'lmasin, xon hazratlari? O'zim kechasi daryo bo'ylariga borib vositalik qilgan edim-ku.

Xon bilan vazir ikkovlari uchun ham yoqimli bo'lgan o'sha voqealarning tafsilotlarini eslab ketdilar.

Bu voqealarning orasida quda-andachilikning alohida o'rni bor edi. Mahmudxonning otasi Yunusxon bir emas, uch qizini aka-uka Temuriylarga uzatgan edi. Ulardan o'rtanchasi Ahmad mirzo – Samarqand podshosi, ikkinchi kuyov – Mahmud mirzo – Hisor hukmdori, uchinchi kuyov – Umarshayx mirzo – Farg'ona tojdori. Xonlar udumiga binoan, Yunusxon har bir qiziga mingdan ortiq mo'g'ul beklari, navkarlari, kaniz va xizmatkorlaridan qo'shib yuborgan edi.

Ular kuyovning dargohiga o'rnashib, kelinning xizmatini qilishar, ayni vaqtda, Temuriylarning ichki ishlariga aralashib, ularning oralarida nizo chiqishiga sabab bo'lar edilar.

Ana shu tarzda chiqqan nizolar tufayli Ahmad va Umarshayx mirzolar bir-birlari bilan Toshkentni talashib ko'p urushdilar. Qaynotalari Yunusxon ularni yarashtirish bahonasi bilan Mo'g'ulistondan Toshkentga kelib-ketib yurdi, axiri bu shaharga o'rnashib oldi. Yunusxonning vafotidan so'ng, uning katta o'g'li Mahmudxon Toshkentni butunlay mo'g'ul xonlarining qarorgohiga aylantirdi.

Chingiziylar hukmronligining qayta tiklanishi ko'pchilik turonliklarni norozi qilmoqda edi. Samarqand podshosi Ahmad mirzo shu norozilar orasidan

---

<sup>1</sup> Shayboniyxon va Mahmudxon munosabatlari Mirzo Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» kitobida keltirilgan.

oltmish ming qo'shin to'plab, Toshkent bo'sag'asida, Chirchiq daryosi bo'yida hal qiluvchi jangga tayyorlana boshladi. Jang arafasida Shayboniyxonning uch yuz kishilik navkarlariga Buxoro hokimi Abduali Tarxon boshchiligida juda mas'uliyatli vazifa yuklandi. Ularga qo'shin markazida bo'lish va Ahmad mirzoning tug'larini, bayroqдорini qo'riqlash topshirildi.

O'ttiz olti yoshlik Shayboniyxon jang paytida bayroq va tug'lar qanchalik ulkan ahamiyat kashf etishini yaxshi bilardi. Uning dili – o'zi mansub bo'lgan sulolaning vakili Mahmudxon tomonida edi. Jang arafasida Shayboniyxon ishonchli bir xufiyasini Mahmudxon qarorgohiga yashiriqcha jo'natdi. Bu xufiyaga quyidagi gapni aytib yubordi:

«Men ham Chingizxon naslidanmen, Temuriylarning ichki sirlarini bilurmen, agar Mahmudxon hazratlari lozim ko'rsalar, kechasi yashiriqcha Chirchiq bo'yiga kelsinlar, men bu tomondan o'tib borurmen, ertangi jangda xonga g'alaba keltiradigan bir rejaning maslahatini qilurmiz».

Bu xufiyaning gapi tayinlik ekanini taftish qilib bilgan eshik og'a Tilba Sulton uni Mahmudxon bilan uchrashtirdi. So'ng Tilba Sulton bilan Mahmudxon yarim tunda daryo bo'yiga Shayboniyxon tayin etgan joyga bordilar. Shayboniyxon dadil yigit ekan, otni ham oqizadigan Chirchiq daryosidan kechasi suzib o'tib keldi.

– Ahmad mirzo noshud sarkarda, – dedi u Mahmudxonga. – Uning ishongan amiri Abduali Tarxon ertaga bo'ladigan jangda markazga – g'ulga tayin bo'ldi. Podsho ham, uning tug'lari, bayroqdori ham g'ulda bo'lur. Siz qo'shiningizni daryo qirg'og'idan orqaroqqa olib, go'yo chekinganday bo'lsangiz. Ular daryodan o'tguncha, hammalari ho'l bo'lib, saflari ancha-muncha to'zgiydir. Shunda men uch yuz navkarim bilan ularning bayroqdorlarini urib yiqitib, siz tomonga

qochib o'tgaymen. Bayroq yerga tushib oyoqosti bo'ldimi, qo'shin yengilgan hisoblangay! Shunda siz hujumni kuchaytirursiz. Men ham navkarlarim bilan sizlar tomonda Ahmad mirzoga qarshi jang qilgaymen. Yog'iyning orqasida toshqin daryo. Qochganlarining allaqanchasi suvga cho'kib halok bo'lor.

Shayboniyxonning bu rejasi Mahmudxonga ma'qul tushdi. Ertasi kuni jangda o'sha rejaga amal qilgan Mahmudxon Ahmad mirzo ustidan g'alaba qozondi. Shundan keyin Mahmudxon dadillanib, O'ratepani ham Ahmad mirzodan tortib oldi-da, u yerga o'zining qadrdoni bo'lgan mo'g'ul-dug'lat amiri Muhammad Husaynni hokim qilib qo'ydi.

Chirchiq bo'yidagi jangda katta xizmat ko'rsatgan Shohbaxt – Shayboniyxon Mahmudxondan mukofot kutmoqda edi. Mahmudxon uni o'z huzuriga chaqirib shunday dedi:

– Turkiston shahri hamon Temuriylar ilkida. Holbuki biz, chingiziylar, bu joylarni Chig'atoyxondan meros olgan edik!

– Xon hazratlari, mening bobom Abulxayrxon ham Turkiston shahrini o'ziga mulk qilgan edi.

– Chunki po'lat varaqqa bitilgan ahdomaga binoan, xonlik masnadiga faqat Chingizxon avlodlari munosib ko'rilgan. Temurning bobokaloni Qorachor nuyon bu ahdomaga imzo chekkan, ilohiy Tangri oldida xonlik da'vosidan voz kechgan. Doim xonlar xizmatida lashkarboshi amir bo'lib xizmat qilishga so'z bergan. Amir Temur ham o'zini xon deb atamaganku!

– O'zini xon deb atamagan-u, lekin xonlarni qo'g'irchoq qilib o'ynatgan! – dedi Shayboniyxon alam bilan. – Chingizxon naslidan bo'lgan Suyurg'atmishxon, Mahmudxon deganlarni xo'jako'rsinga oq kiygizga solib xon ko'targan. Aslida bu xonlar uning xizmatini qilgan.



Faqat To'xtamishxon Temur bilan dadil olishgan, ammo omadi kelmay yengilgan. Oltin O'rda yer bilan yakson qilingan. Temur Mo'g'uliston xonlariga qarshi bir emas, yetti marta yurish qilib, Chingizxon avlodlarini Chig'atoy ulusidan butunlay siqib chiqardi. Uning o'g'li Shohruh bilan nevarasi Ulug'bek chingiziylarni Turonga yo'latmay qo'ydi. Mana endi, oradan yuz yil o'tgandan keyin Temuriylar davlati parchalanib, o'zaro urushlardan batamom zaiflashdi-yu, siz-u bizga omad keldi.

– Gapingiz to'g'ri, janob Shohbaxton, Chig'atoy ulusidan Temuriylarni siqib chiqarib, Chingiziylar hukmronligini qayta tiklash siz bilan bizning zim-mamizga tushadir. Sayram-u Turkistonlar ham ikki yuz yil davomida Chingiziylar tasarrufida bo'lgan. Keyin Amir Temur Yassaviy maqbarasini qurib, bu yerlarga ega bo'lib oldi. Hozir ham Turkiston Temuriylarga sadoqat saqlab turibdir. Men sizga uch ming kishilik sara qo'shin beray. Bobongiz Abulxayrxonning mulkini Temuriylardan qaytarib oling!

– Minnatdormen, xon hazratlari! Turkistonni Temuriylardan tortib olib, sizning davlatingiz tarkibiga qo'shish – mening orzuyimdir! Siz barcha Chingiziylarga rahnamo bo'lgaysiz! Mening ezgu niyatim – sizning yo'lbooshchiligingizda Chingiziylarning ulug' saltanatini qayta tiklamoqdir!

– Mana bu niyat – tahsinga sazovor, janob Shohbaxton. Ammo zamonlar o'zgardi. Siz bilan biz ham Chingizxon davridagi mo'g'ullar emasmiz. Islomni qabul qildik. Turkiy til – ona tilimizga aylandi. Mana, siz madrasada o'qidingiz. Biz ham forscha, arabcha o'rgandik. Kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy tutish, hayot tarzi – hammasi o'troq turkiy aholinikidan farq qilmagani yaxshi bo'ldi. Chunki bu hammasi bizning Turonzaminda otgan yangi ildizlarimizga aylandi.

– Ammo o‘q ildizimiz – Chingizxon naslidan ekanligimizdir! – gap qo‘shdi Shohbaxton.

– Ha, ana shu o‘q ildizni mahkam tuting, ammo Turonzaminga otgan yangi ildizlaringizdan ham oziqlaning!

– Mening dilimdagi gapni aytdingiz, xon hazratlari. Men o‘z atrofimga Turondan ham, Dashti Qipchoqdan ham barcha turk-mo‘g‘ul qavmlarni yig‘moqdamen. Bularning biri qipchoq, biri nayman, biri qo‘ng‘irot, biri jaloyir, ammo hammalarini «o‘ziga-o‘zi bek – o‘zbek» degan chiroyli nom bilan atasam, ko‘pchiligiga ma‘qul tushdi. Oralarida Qur‘onni menchalik yaxshi qiroat qiladigan imomlari yo‘q. Shuning uchun hammalari meni «Imomi zamon!» deb tan olurlar!

– Ko‘pchilikning boshini qovushtirish uchun nimayiki zarur bo‘lsa, hammasini qiling. Eng muhimi, ahillikdadir. O‘zaro urushlar Temuriylarning boshiga yetmoqda. Siz bilan biz bir yoqadan bosh chiqarsak, Islom bayrog‘ini Temuriylardan ko‘ra balandroq ko‘tarsak, barcha musulmonlar bizga ergashgay!

– To‘g‘ri aytdingiz, hazratim! Hozir bobokalonimiz Chingizxonning mafkurasi bilan ish yuritib bo‘lmagay! Endi faqat islomning sunniy mazhabi bizga mos kelur. Mahmudxon Shayboniyxonning bu fikrini ham ma‘qul ko‘rdi. Ularning maslakdosh ekanliklari, ayniqsa Shayboniyxonga qo‘l keldi. Mahmudxonning yordami bilan Shayboniyxon avval Turkistonni, so‘ng Buxoroni noshud temuriyzoda Sulton Ali mirzodan tortib oldi. Vaziyat yetilishi bilan Shayboniyxon Samarqandni ham egallaydi. Uning homiysi Mahmudxon bundan mamnun. Shayboniyxonga rahnamo bo‘lib butun Turonda, undan so‘ng Xuroson-u Eronlarda ham Chingizxon avlodlarining shon-u shuhratini, davlat-u hokimiyatini qayta tiklash Mahmudxonning eng ulkan orzusidir. Buni yaxshi biladigan Tilba Sulton:

– Ilohim, ana shu orzuingiz tezroq ro‘yobga chiqsin, xon hazratlari! – deb tilyog‘lamalik qila boshladi. – Siz Sohibqiron a‘zam Chingizxonning dahosini meros olgansiz. Ona tomondan Iskandar Zulqarnayn avlodlaridan ekansiz! Muhtarama validangiz Shohbegim menga so‘zlab berdilar.

– Ha, ona tomondan bobomiz Shoh Muhammad hazratlari buyuk yunon podshosi Iskandar Zulqarnaynning Pomirda qolib ketgan avlodlaridan ekanlar. Rahmatlik otamiz Yunusxon Shoh Muhammad hazratlari bilan Badaxshonda tanishgan ekanlar.

– Qarang, xon hazratlari, Xudo suygan bandasiga qo‘sha-qo‘sha qilib berar ekan-da! Hali kelajakda Badaxshon ham sizga meros bo‘lib qolg‘ay. Toshkent-u Andijon-u Farg‘onalar sizga buyuk Chingizxondan merosdir. Inim Ahmadbek Farg‘ona vodiysida orttirgan boyligini to‘qqiz tuyaga yuklab, sizga in‘om qilib yuborgani shu boisdandir. Oltin-u javohir, kimxob-u atlas...

– Ko‘rdim! Ahmadbekning saxovati durust. Lekin u haligacha norasida bir temuriyzoda Jahongir mirzo xizmatida yurgani g‘alati.

– Bu hammasi noilojlikdan, xon hazratlari. Qani edi, siz katta o‘g‘lingiz Xonikaxonni inim Ahmadbekka yordamga yuborsangiz. Birgalashib temuriyzodalarni daf qilsak. Ana unda Farg‘ona vodiysi sizning o‘g‘lingizga tobe bo‘lg‘ay. Ahmadbek to‘lguncha sizga-yu o‘g‘lingizga sodiq xizmat qilg‘ay.

– Mana bu reja haqida o‘ylab ko‘rsak bo‘ladi, – dedi Mahmudxon. – Boburga avom xalq tarafdor bo‘lib isyon ko‘targani, bizning odamlarni vodiyning shahar-u qishloqlaridan quvib chiqargani menga yoqmaydi!

– Siz ming bora haqsiz, xon hazratlari! Mening inim Ahmadbek o‘sha avomlarning yo‘lini to‘sib turibdir. Agar Ahmadbek mag‘lub bo‘lsa, bu isyonlar shunday tog‘dan oshib, Toshkentga yetib kelishi muqarrar!

Bu yerda ham Temuriylar davrini qoʻmsab yurgan alamzadalar oz emas. Buni xufiyalar axborotidan ham bilursiz. Xudo koʻrsatmasin, agar ichkarida pusib yotgan gʻanimlaringiz bosh koʻtarsa, naryoqdan Bobur Amir Temurning qilichini yalangʻochlab kelsa...

– Yoʻq, yoʻq, bunga mutlaqo yoʻl qoʻymasligimiz kerak! Ayting-chi, Ahmadbek Fargʻona vodiysini bizning davlatimiz tarkibiga qoʻshmoqchi ekani – shunchaki gapmi yoki asosi bormi?

– Asosi bor! Mana, Ahmadbek oʻz ilki bilan sizga maktub yozgan! Agar uni hozirgi xavf-xatardan saqlab qolsangiz, inim umrbod sizning xizmatigingizni qilgusidir. Andijon-u Axsini Temuriylar nomidan emas, sizning nomingizdan idora etishga soʻz bergan!

Mahmudxon Ahmad Tanbalning imzosi qoʻyilgan va muhri bosilgan maktubni oʻqib koʻrdi-da, oʻzining maxsus qogʻozlari saqlanadigan juzdonga solib qoʻydi.

Xonning yon berayotganini sezgan Tilba Sulton qoʻlini koʻksiga qoʻyib, iltijo qildi:

– Xon hazratlari, oʻn besh ming lashkaringiz koʻpdan beri kuch yigʻib yotibdir. Katta oʻgʻlingiz Xonikaxon ham yigit boʻlib qoldi. Ulkan gʻalabalarga erishgilari kelur...

– Qish kunida oʻn besh ming qoʻshinni boshqarish oson emas. Farmon hozirlang, Xonikaxon olti ming lashkar bilan harbiy yurishga otlansin. Ammo bu yurishning butun masʼuliyati sizning zimmangizga tushadir, janob eshik ogʻal!

– Boshim bilan javob berurmen, xon hazratlari!

– Ana shu soʻzlaringizni ahdnoma tarzida yozib, imzo cheking!

– Bosh ustiga!

Mazkur ahdnomaga binoan Mahmudxonning olti ming kishilik qoʻshini Ahmad Tanbalni qutqarish uchun Archakent dovonidan oshib, Kosonsoy atroflariga bostirib keldi.

Arxiyon qo'rg'onini qamal qilayotgan Bobur endi asosiy kuchlarini Kosonsoy tomonga burishga majbur bo'ldi. U Ahmad Tanbalga keladigan har qanday ko'makning yo'lini to'smoqchi, kerak bo'lsa, tog'asining o'g'li Xonikaxon bilan ham olishmoqchi edi.

Bu xabar Axsida turgan Qutlug' Nigor xonimga va uning keksa onasi Eson Davlat begimga ham yetib bordi. Onalar tog'a-jiyan orasida urush boshlansa juda ko'p begunoh qonlar to'kilishidan iztirobga tushib, avval Axsidan Kosonsoyga bordilar, Tilba Sulton bilan Xonikaxonni yaxshilikcha Toshkentga qaytishga undab ko'rdilar. Biroq olti ming qo'shinning kuchiga ishongan Tilba Sulton Mahmudxonning nomidan bir qancha og'ir shartlarni o'rtaga qo'ydi:

- Bobur mirzo qo'shinini Andijon tomonga olib ketsinlar. Axi bilan Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi hamma joylar avvalgiday Jahongir mirzo ixtiyorida qolsin. Ana undan so'ng biz qo'shinni Toshkentga olib qaytgaymiz.

Qutlug' Nigor xonim onasi bilan Kosonsoydan Namanganga, Bobur qarorgohiga keldilar. Sakkiz burchaklik katta oq o'tovda Bobur o'ng yoniga onasi va buvisini e'zozlab o'tqazdi. Uning chap yonidan Qosimbek va Ali Do'stbek o'rin oldilar. Onalar keltirgan noxush xabardan otashin bo'lgan Bobur kuyunib so'z boshladi:

- Biz Tanbal tufayli shuncha jabr ko'rdik, ikki yil sargardon bo'ldik, xon tog'amiz bizga bironta ham navkarini yordamga yubormadi. Tanbal o'z qilmishiga yarasha hamma joydan quvilib, tor-mor bo'layotgan paytda xonning olti ming qo'shini uni qutqarish uchun tog' oshib, yetib kelibdi! Buni qanday tushunmoq kerak, hazrat momojon? Qani bu yerda adolat?!

Qutlug' Nigor xonim xon og'asining qilmishidan xijolat bo'lib yerga qaradi.

Eson Davlat begim tomoq qirib qiynalib gapirdi:

– Amirzodam, adolat siz tomonda. Lekin Mahmudxonning eshik og'asi Tilba Sulton o'ta mug'am-bir odamda. Xonni shu odam qo'shin yuborishga ko'ndirgan. Biz Kosonsoyda ular bilan so'zlashdik. Maqsadlari urushish emas. Iningiz Jahongir mirzo bilan sizni yarashtirib qo'yishmoqchi.

– Men Jahongir bilan emas, Tanbal bilan olishmoqdamen. Mayli, Jahongir hali bola, uzr so'rab kelsa u bilan yarashaylik. Ammo Tanbalni qamaldan bo'shatmagaymiz! Bu qotil o'z qilmishlari uchun javob bermog'i kerak!

– Biroq Tanbal Jahongirning otalig'i-ku! Biri bilan yarashsangiz, ikkinchisi bilan ham yarashmog'ingiz kerak bo'lur, – dedi Ali Do'stbek. – Bundan tashqari, Ahmad Tanbal ham Chig'atoyxon avlodlaridandir. Xon tog'oyingiz shuning uchun uning himoyasiga katta qo'shin yubormishdir!

– Ha, ana, kosa tagidagi nimkosa endi ko'rindi! – dedi Qosimbek. – Mahmudxon hazratlari Temuriylarga o'gay ko'z bilan qaraydirlar. Amirzodam, men buni ko'pdan beri kuzatib yuribmen. Toshkentda, Buxoroda, Turkistonda sizning tarafdorlaringiz, bizga haqiqatni yetkazib turuvchi xufiyalarimiz bor. Ular Mahmudxonning Shayboniyxonga yon bosayotganligi bejiz emasligini ma'lum qilmoqdalar. Asli Chingizxon naslidan bo'lgan bu xonlar hozir Temuriylarga qarshi til biriktirganlar. Ular nafaqat Toshkent-u Farg'onada, balki butun Turonda Chingizxon avlodlarining hukmronligini qayta tiklamoqchilar!

Bu gaplardan Qutlug' Nigor xonimning yuzi qizarib, ko'zlari chaq nab ketdi:

– Men ham Chingizxon naslidanmen! Siz bizni Mahmudxonga qo'shib o'g'limiz Bobur mirzodan begona qilmoqchimisiz?!

– Meni afv eting, xonim hazratlari! Siz Bobur mirzoga Amir Temur qilichini, uning ruhiy madadini yetkazib berib, olijanob ishlar qildingiz!.. Salkam ikki yil barcha sargardonliklar azobini siz amirzodam bilan birga tortdingiz. Shunchalik qiynalgan paytlaringizda Mahmudxon ogʻangiz sizga ham yon bosmadi-ku!

– Bu rost! – dedi Eson Davlat begim. – Mahmudxon boshqa onadan tugʻilgan. Uning onasi Shohbegim Badaxshi menga kundoshlik qilur, bizni koʻrarga koʻzi yoʻq. Ana shuning taʼsirida Mahmudxon bizga oʻgaylik qilishi mumkin. Ammo buning uchun barcha Chingiziylarni Temuriylarga dushman qilib koʻrsatishingiz notoʻgʻri, janob Qosimbek!

– Meni maʼzur tuting, «barcha xonlar» deganim yoʻq. Faqat Mahmudxon bilan Shayboniyxonni, yana Ahmad Tanbalni nazarda tutdim!

– Bular ham siz-u biz kabi turkiy tillik musulmonlar-ku! – deb gap qoʻshdi Ali Doʻstbek. – Ayirmachilik qilish kimga kerak?

– Ayirmachilikni biz emas, ular qilishmoqda! – dedi Bobur. – Men tarix kitoblarida oʻqidim. Eng qadimiy bobokalonimiz Oʻgʻizxonning Kunxon, Oyxon, Togʻxon degan oʻgʻillari boʻlgan ekan. Shulardan boʻlgan farzandlardan biri Yulduzxon deb atalgan. Qarang, hammasi turkiy nomlar! Ana shu Yulduzxonning nevarasi – afsonaviy ayol Alanquva qurlos urugʻidan ekan. Qurlos barlosga qon-qarindosh. Nomi ham uyqash. Men buni Mirzo Ulugʻbekning «Toʻrt ulus tarixi» kitobida oʻqidim. Ilohiy ruhdan homilador boʻlib oʻgʻil tuqqan Alanquva turkiy qavmlarning afsonaviy onasi sanalarkan.

– Ha, rost, – deb bu gapni Eson Davlat begim maʼqulladi, – otalari moʻgʻul qavmidan boʻlgan Chingizxon ham Alanquvani oʻzining momokaloni deb bilgan. Shunday boʻlgach, Chingiziylarni Temuriylarga

ashaddiy dushman deb ta'riflash adolatdan emas-da, janob Qosimbek!

– Ammo bu ikki sulola tarixda bir-biri bilan ozmuncha yog'iyashganmi, hazrat begim? Hokimiyat uchun kurashda og'a-ini, qarindosh-urug' bir-birini ayamaganligi hech kimga sir emas-ku!

– Bobur mirzo o'z ajdodlarining yog'iyashgan davrlaridan emas, inoq bo'lgan davrlaridan ibrat olmoqlari kerak! – dedi Eson Davlat begim. – Hazrati Amir Temurning bobokalonlari Qochuvli bahodir bilan hazrati Chingizxonning bobokalonlari Qobulxon inoq bo'lish haqida ahd-u paymon qilishib, po'lot kitobga buni o'yib yozdirgan ekanlar.

– Xo'p, bu ahdnomani kimlar mudom buzib kelmoqda, hazrat momo? Sohibqiron bobokalonimiz Amir Temur Jo'jixon avlodidan bo'lgan To'xtamishxonga qancha yaxshiliklar qilganini bilurmisiz?

– Bilurmiz, ammo...

– Endi shoshmang! To'xtamishxon nechun bu yaxshiliklarga yomonlik bilan javob berdi? Nechun Amir Temur davlatiga qarshi tajovuzlar qildi? Chunki To'xtamishxon Oltin O'rdaga xon bo'lgandan keyin atrofidagi xushomadgo'ylari uni hovliqtirdi. «Siz Chingizxon naslidansiz, sizning martabangiz Temurbeknikidan baland, davlatni faqat siz bosh-qarishingiz kerak, Temurbek lashkarboshi bo'lib, sizga xizmat qilishi kerak!» degan aqidaga uni ishontirishdi!..

– Axiyri, bu aqida To'xtamishxonning boshiga yetdi, buni biz yaxshi bilurmiz, – dedi Eson Davlat begim.

– Ammo, siz bu aqidaning hali ham tirik ekanini bilmasangiz kerak, hazrat begim! – deb Qosimbek Boburga yon bosa boshladi: – Bizga kelgan maxfiy axborotlar bor. Tilba Sulton hazrati Mahmudxonga xushomadlar qilib, Ahmad Tanbalning hadyalarini berib, xuddi shu aqida asosida bizga qarshi qo'shin yuborishga xonni ko'ndiribdur!



– Ayg‘oqchilarning axborotiga muncha inonmang, janob eshik og‘a, – deb e‘tiroz qildi Ali Do‘stbek. – Hazrati Mahmudxon Tilba Sultonning aqli bilan ish qiladigan zaif tojkor emaslar. Ul zot bugungi Chig‘atoy ulusining eng qudratli sultonidurlar!

– Bugungi Chig‘atoy ulusi? – hayron bo‘lib so‘radi Bobur. – To‘g‘ri, ona tomondan biz ham Chig‘atoyxonga avlodmiz. Men hazrat onamni ardoqlab, boshingga ko‘tarurmen. Ammo Chig‘atoyxondan ming yillar oldin Turon, Turkiston deb nomlangan muazzam zaminni hanuzgacha Chig‘atoy ulusi deb atashga hech bir asos ko‘rmaymen! Axir Chig‘atoyxon Turonda biron yil yashamagan, biron ta tarixiy obida qurdirmagan, biron joyni obod qilmagan! Aksincha, obod joylarni xarobaga aylantirgan, to‘g‘onlarni buzdirib, shahar-u qishloqlarni suvga bostirgan!

– To‘g‘onlar hazrat Chingizxonning farmoni bilan buzdirilgan, shekilli, – deb gap qo‘shdi Eson Davlat begim.

– Harqalay, barcha qirg‘inlar, buzg‘unchiliklarga Chig‘atoyxon ham katta ulush qo‘shgan, – davom etdi Bobur. – Tarix kitoblaridan o‘qidimki, Chingizxon o‘ziga ham biron ta yodgorlik qurdirmagan ekan. «O‘lsam, tekis yerga dafn qilinglar, qabrim ustidan mingta ot yurib o‘tsin, toki ko‘milgan joyimni hech kim topolmasin», degan ekan. Vafot etganidan keyin xuddi uning aytganini qilishibdi. Mingta ot uning qabrini toptab o‘tibdi. Haligacha uning qabrini hech kim topolmas emish.

– E‘tiqodi shunday bo‘lgan ekan-da, – dedi Eson Davlat begim. – Doim o‘tovda yoki otda, tabiat bag‘rida bo‘lishni istarkan. Shaharlarni, qo‘rg‘onlarni yomon ko‘rarkan.

– Begunoh shaharliklarni-chi? – so‘radi Bobur. – Tabiat bilan hamkorlik qilib cho‘llarga suv chiqargan, bog‘-rog‘lar bunyod qilgan butun o‘troq aholini

nechun ayovsiz qirgan? Turon xalqining dodi Parvardigorga yetgan ekanki, Amir Temurdek bir najotkorni yuboribdir. «Biz Chingizxon naslidanmiz!» deb ko'kraklariga urib, maqtanib yurganlar bilsinlar! Nasl-nasab bilan maqtanish zaiflik belgisidir! O'zining ilkidan yaxshi ish kelmaydiganlar mudom nasl-nasablari bilan kerilurlar. Ammo odamning kimligini qilgan ishi-yu avlodlarga qoldirgan merosi ko'rsatgay. Chingizxondan, Chig'atoyxondan, To'xtamishxondan qanday meros qoldi-yu, Amir Temurdan, Shohruxdan, Ulug'bekdan qanday meros qoldi? Bir qiyoslab ko'ring! Adolat kim tomonda ekani shunda darhol bilinur! Bahsga aralashmay boshini egib jim o'ltirgan Qutlug' Nigor xonim o'g'liga mehr to'la ko'zlar bilan qaradi-da:

– Siz haqsiz, Boburjon! – dedi. – Bugun bo'lmasa ertaga haq joyida qaror topgay. Men shunday pahlavon, haqgo'y, bahodir o'g'lim borligi bilan iftixor qilurmen. Siz o'z nomingizga munosib sher yigitsiz. Ammo Ahmad Tanbal bilan uning og'asi chiyabo'riga o'xshaydilar. Siz o'shalar bilan teng bo'lmang, ular tufayli xon tog'oyingiz bilan orani buzmang, sulh taklif qilishsa, yarasha qoling, bolam!

– Qaysi shart bilan yarashaylik? – so'radi Bobur.

– Axsi Jahongir mirzoda qolsin, mayli deng. Saxiy bo'ling!

– Iye, ikki yil jon chekib olishganlarimiz bekor ketgaymi? – norozi bo'lib so'radi Qosimbek Boburdan. – Otangizdan qolgan yaxlit davlat yana parchalansinmi?!

– Agar bunga ko'nmasangiz Mahmudxon yuborgan qo'shin bilan jang qilurmisiz?! – tahdid qilib so'radi Ali Do'stbek.

Qosimbek ham unga tik javob berdi:

– Agar amirzodam buyursalar, jangga tayyormiz!

– Oldinda Mahmudxon! Orqada Tanbal! Siz amirzodamni ikki o't orasiga tashlamoqchimisiz?! – so'radi Eson Davlat begim ham qizishib.

– Siz

Bobur mirzoga nuqul xonlarni yomonlab, ikki orani buzmoqdasi-ku, janob Qosimbek!

– Men haqiqatni aytdim, xolos, hazrat begim!

– Siz haqiqat degan narsa ayg‘oqchilarning yolg‘on-yashiq ig‘volaridir!

Ali Do‘stbek bu da‘voni yana bir parda baland ko‘tardi:

– Janob Qosimbek shu ig‘volarga tayanib, xonlarga tuhmat qilmoqdalar!

Bobur oraga tushdi:

– Janob Do‘stbek! Hazrat momo! Qizishmangizlar!

«Tuhmat!» degan gap Qosimbekka juda og‘ir botdi.

U Boburdan himoya istardi. Ammo Bobur momosi bilan Do‘stbekni yanada asabiylashtirmaslik uchun Qosimbekni ochiqchasiga yoqlay olmadi:

– Janob Qosimbek, o‘ylab ko‘raylik, – dedi. – Balki biron murosa yo‘li topilar!

Qosimbek o‘zini bosolmadi:

– Men Tanbal bilan murosa qilolmagaymen! Amirzodam, menga ijozat bering, bu yerdan ketay! Sizga qachon kerak bo‘lsam, chaqirtirsangiz yana kelgaymen! Ammo hozir... tuhmat balosidan Xudo asrasin! Hazrat begim, xonim hazratlari, uzr so‘raymen!

Qosimbek borgohdan cho‘g‘day qizargan, asabiy bir alpozda chiqib ketdi.

Yana Qutlug‘ Nigor xonim o‘g‘liga muloyimlik bilan gap qotdi:

– O‘ylab ko‘ring, Boburjon! Kosonsoyda xon tog‘oyingizning olti ming qo‘shini turibdir. Agar siz bu qo‘shin bilan jang qilib, uni yengsangiz... tog‘oyingiz jim qarab turmagay... Orqadan yana o‘n ming, balki yigirma ming qo‘shin bilan o‘zi yetib kelgay!.. Unda ne qilursiz?..

– Men tog‘oyim bilan jang qilmoqchi emasmen... Faqat Tanbalning qanday xoin ekanini xonlar ham bilsalar edi!..

– Vaqt o‘tishi bilan bilib qolarlar, – dedi Qutlug‘ Nigor xonim. – Sizga xiyonat qilgan Tanbal xonga ham xiyonat qilmay turolmagay. Xo‘ja Abdulladay pirni osib o‘ldirgan qotilga qasos qaytmay qolmas!

Bobur o‘ylanib jim qolganidan foydalangan Ali Do‘stbek gapni kutilmagan tomonga burdi:

– Ikki yildan buyon siz ko‘p azob tortdingiz, amirzodam! Endi bu dunyoning rohatini ham ko‘rishingiz kerak. Yoshingiz o‘n sakkizda, alpqomat yigitsiz. Ayni uylanadigan paytingiz. Qaylig‘ingiz Oyisha begim ham o‘n oltiga to‘lib, sep yig‘moqda emishlar.

Mavzu o‘zgarganidan jonlangan Eson Davlat begim Oyisha begimni ta‘riflay ketdi:

– Borib ko‘rganlar mahliyo bo‘lib gapirganlarini men o‘zim eshitdim! Egachilari Qorako‘z begimning go‘zalligi ta‘rifga sig‘mas edi. Oyisha begim egachisidan ham ko‘hliroq bo‘lib yetilibdur!

Boburning urush-janjallar qahratonidan junjikkan qalbiga birdan bahorning iliq shabadasi tekkanday bo‘ldi. O‘zi yozgan g‘azalning satrlari:

*«Jamoling vasfni, ey oy, necha eldin eshitgaymen?  
Ne kun bo‘lg‘ay visolingga meni dilxasta yetgaymen?»*

degan savollar dilida go‘yo nay navosiga qo‘shilib eshitildi. Agar tog‘asi Mahmudxon bilan yovlashsa, Toshkentdagi Oyisha begimning taqdiri nima bo‘ladi? Yana Samarqanddagi kabi arosatga tushadimi?

– Xudo saqlasin! – dedi Eson Davlat begim. – Urush boshlansa, Qaylig‘ingizni garovga olib, azob bergaylar! Lekin sulh tuzilsa, xon tog‘angiz kelinimiz Oyisha begimni seplari bilan Andijonga xush-u xursand jo‘natmoqchi ekanlar!

– Oh, qani, yolg‘iz o‘g‘limning to‘ylarini ko‘rsam! – deb orziqib xitob qildi Qutlug‘ Nigor xonim.

Bobur shuncha vaqtdan beri bir ko'rishga mushtoq bo'lib yurgan qallig'iga yetishadigan kunlarni ko'z oldiga keltirdi-yu, muloyim bo'lib qoldi. Onalar Andijonda bo'ladigan to'y shodiyonasidan el-yurt ham tinchib, bir yayrab olishini aytishdi va nihoyat Boburni Ahmad Tanbal bilan sulh tuzishga ko'ndirishdi.

### 3

Javzo oyining iliq oqshomlaridan birida Andijon arkidagi haramda ikki oylik kelinchak Oyisha begimning xobgohida kanizlar shohona to'shakka gul atri sepdilar. Oltin-kumush buyumlar va ipak gilamlar bilan bezatilgan tanobiy uyning eshigi oldiga chiroyli poyandoz to'shaldi. Oyisha begimning qo'llariga xina, qoshiga o'sma qo'yilgan edi. Go'zal kelinchakning boshqa pardozlari endi tugaganda kanizlardan biri quvonib shivirladi:

– Keldilar!

Ayvonda boshiga oltin jig'a kiygan Bobur ko'rindi.

So'nggi yillarning tinimsiz olishuvlari uni xiyla pishitgan. Yelkalari to'lishib, o'n sakkiz yoshli durkun yigitga aylangan. Xobgoh oldida Boburni ta'zim bilan kutib olgan o'n olti yoshli Oyisha begim kuyovga nisbatan kichkinagina, ingichkagina ko'rinadi. Uning boshiga kiygan serbezak baland toqisi, bo'yniga taqilgan zebigardon va marjonlar nozik qomatiga og'irlik qilayotgandek tuyiladi. Kanizlar ta'zim qila-qila chiqib ketdilar. Bobur ulardan ba'zilarining ko'zlari sho'x chaqnaganini payqab, o'ng'aysizlanadi. Kuyov haramda tunaydigan tunni kanizlar-u savdarlar oldindan bilib, maxsus tayyorgarlik ko'rishi, xobgohga shuncha odamning kirib-chiqishi unga noxush tuyiladi.

Buning ustiga Oyisha begim haddan ortiq uyatchan. U Boburni:

– Marhabo, hazratim! – deb to‘rga taklif qilganda, ovozi hayodan titrab, zo‘rg‘a eshitildi.

Uyning to‘rida – harir parda ortida ikki kishilik baland to‘shak bor. Oyisha begimning uyatchanligi Boburni battar o‘ng‘aysizlantirdi. U yuqoriga o‘tib o‘tirayotganda, to‘rdagi to‘shakka qaramaslikka tirishdi. Ko‘zini dasturxonga tikib:

– Xushvaqt yuribsizmi, begim? – deb so‘rashdi.

– Shukr.

Oyisha begim azbaroyi tortinganidan dasturxonning Boburdan eng uzoq chetiga o‘tirdi. So‘ngra oraga noqulay jimlik cho‘kdi.

Oyisha begim xushsurat bo‘lsa ham, hali yetilmagan norasida qiz edi. Ota-onasidan erta ajralgan bu qiz ko‘p kasalga chalinib ozib ketgan. Bir vaqtlar Bobur uni ko‘rmasdan oldin xayolida tasavvur etib yurgan afsonaviy parizod butunlay boshqa edi. Xayol bilan hayot orasidagi farq qanchalik katta bo‘lishini Bobur endi bildi.

Urf-odatga binoan ular bir-birlarini to‘ydan so‘ng go‘shangada birinchi marta ko‘rdilar. Ular hali biror marta hamsuhbat bo‘lmaslaridan va ruhan yaqinlashishga ulgurmaslaridan oldin boshlangan jismoniy yaqinlik Boburga uyat ishdek tuyilar va uning ilgarigi musaffo tuyg‘ularini poymol qilayotganday bo‘lardi. Shuning uchun kechalari davlat ishlari bilan bo‘lib, ko‘pincha o‘zining xobgohida tunab qolardi... Hukmdorlik udumiga binoan uning faqat ba‘zi tunlarni xotini bilan o‘tkazishi rasm-rusumga xilof hisoblanmas, Boburning otasi Umarshayx mirzo ham shunday qilardi. Lekin yosh kelin-kuyov orasida avvalgi xayoliy orzu bilan hozirgi ahvolning keskin farqidan kelib chiqqan noxush bir murakkablik borligini Oyisha begim ham payqar va o‘zini Boburga nomunosib sezib ich-ichidan iztirob chekardi. Oyisha begim oraga

tushgan noqulay jimlikda qirmizi choynakdan piyolaga choy quyib, tavoze bilan Boburga uzatdi.

Bobur piyolani olayotganda, Oyisha begimning hali uncha to'lishmagan ozg'in qo'llari titrab ketganini ko'rdi.

- Rahmat, - deganda, unga o'z ovozi ham gunohkorona tovlanib eshitildi.

Bobur bir vaqtlar xayolida ardoqlab, oyog'iga bosh qo'ygisi kelib g'azal yozgan qallig'ini endi bunchalik uyaltirayotgani uchun o'zini ham gunohkor sezardi.

Choshnagir ayol chinni laganda zira hidi kelayotgan kabob ko'tarib kirdi. Yoshi ellikka borgan bo'lsa ham durrani chakkasiga qiya qilib o'ragan bu shaddod ayol kelin-kuyovdagi uyatchanlikni sezib, hazil qildi:

- Amirzodam, yigit kishi yosh kelinchakni gapga solib o'tirishi kerak emasmi? Qiziq-qiziq hangomalardan so'zlab bering. Samarqanddan elchilar kelgan emish. Qanday xushxabarlar bor?

Choshnagir ayol laganni kelin-kuyovning o'rtasiga qo'yib, kumush sovrini<sup>1</sup> ochdi. Oq kiyik go'shtidan tayyorlangan toza kabobning hidi zira hidiga qo'shilib atrofga taraldi.

- Begim, siz ham ochilibgina o'tiring. Bunday baxtli yoshlik bir marta keladir. Zavqini surib qoling, aylanay begim, bizga o'xshab keksayganingizda eslab yurarsiz!

Choshnagir ayol kulib, chiqib ketdi. Uning: «Zavqini surib qoling» degan so'zlari Oyisha begimdagi uyatchanlikni kamaytirish o'rniga battar oshirgan edi. Bobur esa bir oz dadillanib:

- Qani, begim, - dedi. Lagan ustiga qo'l cho'zdi-yu, lekin Oyisha begim kabobga qo'l uzatishini kutdi.

- Siz boshlang, - shivirladi kelinchak.

- Xo'p, mana. Qani, endi, siz...

---

<sup>1</sup> Sovri - ovqat sovib qolmasligi uchun ustiga yopiladigan maxsus idish.

Shu tarzda bir oz kabob yeganlaridan keyin yana choyga oʻtdilar.

– Begim, shahringizni sogʻinganingiz yoʻqmi?

Oyisha begim endi Boburning yuziga botinibroq qaradi:

– Samarqandnimi?.. Sogʻindim.

– Agar nasib qilsa, yozda Samarqandga qaytursiz.

– Koshki edi... Biroq men... oʻzim keturmenmi?

– Yoʻq, Samarqand nasib boʻlsa, bu yerdan ham-mamiz koʻchib keturmiz.

– Koʻchib?.. Andijon kimga qolur?

Bobur horgʻin tovush bilan:

– Hozircha Ahmad Tanbal bilan Jahongir mirzoga, – dedi.

Oyisha begim hech narsaga tushunolmay taajjublanib qoldi. Bobur Andijonni qayta qoʻlga kiritguncha ozmuncha aziyat chekdimi? Endi nechuk Andijonni ixtiyoriy ravishda tashlab ketmoqchi?

– Men Samarqandni sogʻingan boʻlsam ham, – dedi Oyisha begim, – lekin sizning ota yurtingizda osuda yashashni afzal koʻrurmen!

Oyisha begim boyagi uyatchanligini unutib, ochilib gapira boshlaganida, Boburga uning yuzi avvalgidan jozibaliroq koʻrindi.

– Sizdan ham oʻtinamen, hazratim, – davom etdi Oyisha begim, – koʻp azob tortgansiz. Samarqand sizga jangsiz darvoza ochmas. Endi oʻzingizga rahm qiling. Urushga bormang, oʻtinamen!

– Begim, bu yerdagi hozirgi ahvolimiz sizga ham munosib emas, menga ham.

– Nechun bunday dedingiz? Axir siz oʻz yurtingizda podshohsiz-ku.

Bobur kinoyali kulimsirab, bosh chayqadi:

– Hozir faqat nomim podshoh, – deb qoʻynidan bir varaq buklangan qogʻoz oldi-da, Oyisha begimga uzatdi.



So'nggi oylarda Bobur ko'ngil dardlarini qog'ozga tushirishga ko'p ehtiyoj sezar va deyarli har kuni she'r mashq qilar edi. Bu qog'ozda uning shu bugun yozgan bir qit'asi bor edi. Oyisha begim qog'ozni ochib, satrlarga ko'z yugurtirdi:

*Qolmadi hurmat ahli olamda,  
Olam-u olam ahlidan yuv ilik.  
Boburo, ikki podshohlig'din  
Yaxshiroq bu zamonda bir beklik.*

– Hazratim, she'ringiz muborak bo'lsin!

– Qulluq. Endi mening dardimni tushungandirsiz?

– Tushundim. Siz Jahongir mirzoning Axsida ikkinchi podshoh bo'lib olganidan dard chekmoqdasiz. Ilgarigi yagona davlat ikkiga bo'lingan...

– Begim, gap faqat Jahongirda emas, hozir Ali Do'stbek bilan Ahmad Tanbal bizni o'rgimchak to'riday chirmab kelurlar, – dedi Bobur Oyisha begimga. – Agar biz shu o'rgimchak to'rini yorib chiqib ketmasak, keyin bularga yemish bo'lurmiz!

– Hazratim, Samarqandda ham yog'iymlaringiz behisob. Yana urush boshlansa...

– Samarqandda hozir do'stlarimiz ham oz emas.

– Kelgan elchi sizni poytaxtga chorladimi?

Bobur elchi bilan bo'lgan gaplarni hozircha juda maxfiy tutishi zarur edi.

Samarqand beklari bilan Sulton Ali mirzo orasida nifoq kuchaygan. Mazid tarxon boshliq beklar mingdan ortiq navkarlari bilan shaharni tashlab chiqqanlar. Ular Urgutda Boburga muntazir turgan emishlar. Yaqinda Buxoroni zabt etgan Shayboniyxon endi Samarqandga ko'z tikkan emish. Agar Bobur tezda yetib bormasa, Sulton Ali mirzo poytaxtni Shayboniyxoniga berib qo'yishi aniq. Shayboniyxonning berahmliklarini ko'p eshitgan odamlar undan qo'rqib, endi shahar

darvozalarini Boburga pinhona ochib bermoqchi emishlar. Bobur mana shu qulay paytdan foydalanib qolishni istaydi.

– Elchi bizni chorlagani rost, – deb, u Oyisha begimga umumiyroq javob qildi. – Ammo Sulton Ali mirzo taxtni bizga osonlikcha bermas.

– Demak, yana urush! Yana xavf-u xatar!..

– Begim, togʻning boshi qorsiz boʻlmas, yigit boshi – xatarsiz.

– Hazratim boya oʻrgimchak toʻridan gap ochgan edilar. Agar siz ketsangiz, oʻrgimchak toʻrida biz qanday qolurmiz?

– Istasangiz, sizni birga olib keturmen!

– Jang maydonigami?

Oyisha begimning savolida ozgina kinoya ham bor edi. Buni sezgan Bobur xijolatdan xiyol qizardi.

– Urush tugaguncha onam bilan Xonzoda begim uchovlaringiz Oʻratepada turishlaringiz mumkin. Bahavo joy. Shahar hokimining xotini onamning tugʻishgan singlisi. U yerdan Samarqandga borishlaringiz ham oson.

– Oʻratepa togʻliq joymi? Yoʻllari juda yomondir? Men otliq yurolmaymen.

– Mahofada borishingiz mumkin.

Shahar qizi boʻlgan Oyisha begim bir joyda muqim yashashni yaxshi koʻrardi, yoʻl azobini koʻtarolmas edi. Boburning soʻnggi gapiga bosh chayqab:

– Mahofadan qoʻrqamen, – dedi.

«Oʻgay taqdir menga bu borada ham kinoya qilmish!– dedi Bobur ichida. – Mendek qoʻnimsiz sayyohtabiat kishiga buningdek nozig-u muqim tabiat rafiq bermish!»

Oyisha begim hozir himoyaga muhtoj bir mushtipar qiz boʻlib koʻrindi. Bobur uning koʻnglini koʻtargisi kelib, quvnoq ohangda gapirdi:

– Otda yurolmasangiz, begim, mahofadan qo‘rq-sangiz, unda men sizni... kaftimda olib yururmen!

– Kulmang, mirzo hazratlari! Men kaftingizda yurishga munosib emasmen...

Oyisha begimning so‘nggi so‘zlari Boburga allanechuk shirin tuyildi. Uning yigitlik qoni ko‘pirgandek bo‘lib, o‘rnidan ko‘tarildi-yu:

– Yo‘q, munosibsiz! – dedi.

– Kulmang...

– Munosibligingizni isbot etaymi?

Oyisha begim hurkovich kiyikdek chaqqonlik bilan o‘rnidan turdi va qochishga hozirlandi. Bobur to‘y kechasi uni mahofadan qanday oson ko‘tarib tushirgan bo‘lsa, hozir ham o‘shanday ko‘tarib oldi. Uni to‘rdagi to‘shak tomonga olib o‘tayotib, pastki qandilda yonib turgan shamlarni puflab o‘chirdi.

Hozir shu daqiqalarda Oyisha begim Boburning ko‘ziga olovli jozibaga to‘lib ko‘rindi. O‘zining bu xobgohda uch-to‘rt kunda bir marta tunashi endi tushunib bo‘lmaydigan anglashilmovchilikday tuyildi. «Minba‘d har kuni shu xobgohga kelurmen! – deb o‘zicha ahd qildi. – Men Samarqandga ket-sam, necha oy, necha haftalar ayriliqda o‘tgay. Undan ko‘ra Andijonda murosa-yu qanoat bilan yashayversammikin?»

\* \* \*

Tong otdi. Kechasi Boburning rejalarini o‘zgartir-moqchi bo‘lgan sehrli tuyg‘ular ertalab oftobdan qochgan yulduzday qayoqqadir yashirindi. Er-xotin nonushta qilib o‘tirganlarida, Ahmad Tanbal bilan Ali Do‘stbekning o‘rgimchak to‘rlari yana uning xayolini chirmab oldi. Bobur kecha elchiga «Samarqandga albatta borurmiz», deb va‘da bergan, Qosimbek boshliq

sodiq kishilar yangi yurish tayyorligini boshlab ham yuborishgan edi. Bobur va'dasidan qaytishi mumkin emasligi ertalabki yorug'likda aniqroq ko'rinayotganga o'xshadi.

Oyisha begim undagi xomushlikni sezib, sukut saqlab o'tiribdi. Bobur uning yuziga botinib qaray olmay, ko'krigidagi oltin bargaklariga ko'z tashladi:

– Begim, O'ratepaga boradigan bo'ldingizmi?

Boburning yana Samarqandga yurish qilishi qat'iy ekani uning gap ohangidan sezildi.

Oldindagi bir necha oylik hijron Oyisha begim uchun behad og'ir edi. Bu og'irlikni Bobur unchalik sezmayotgani Oyisha begimga xuddi bemehrlik nishonasidek tuyildi-yu, birdan alamini keltirdi.

– Hazratim, avval Samarqand sizga muyassar bo'lsin. Keyin borsam birato'la shahrimga borurmen. O'ratepaga emas!

Boburning nazarida, Oyisha begim uning Samarqandni qayta egallashiga ko'p ham ishonmayotganday ko'rindi. Shuning uchun Bobur haramdan chiqib keta turib:

– Mayli, begim, – dedi sovuq ohangda: – Xudo xohlasa, shahringizda ko'rishganda bu gaplarni yana davom etkarurmiz.

## SAMARQAND

### HAL QILUVCHI OLISHUV

#### 1

Bo'stonsaroyning bir chetida rang-barang toshlar bilan sangfarsh<sup>1</sup> qilingan marmar hovuzli hammom bor edi. Kechki payt shu hammomga Sulton Ali mirzoning haramidagi eng chiroyli qizlar cho'milishga keldilar.

Hammomning ichida gilamlar va ko'rpachalar to'shalgan, shohona dasturxon tuzab qo'yilgan maxsus bir xona bor edi. Bir vaqtlar Sulton Mahmud mirzo tirikligida shu xonadan qizlar cho'miladigan bo'lmaga maxfiy bir tuynuk ochilgan edi. Shahvoniyparastlik bilan dong chiqargan Sulton Mahmud mirzo o'sha tuynukdan qizlarning cho'milishini tomosha qilar edi.

Sulton Mahmud mirzo o'lib ketganiga besh yil bo'ldi. Hammomda maxfiy tuynuk borligini uning o'n etti yashar o'g'li, hozir Samarqand taxtida o'tirgan Sulton Ali mirzo yaqinda bilib qoldi. Uni bu sirdan voqif qilgan Abu Yusuf Arg'un haramga bir qancha chiroyli qizlar keltirib berib, yosh podshoning sohibixtiyor, sirdosh bekiga aylandi.

Hozir Sulton Ali mirzo qo'lida may to'la billur qadah bilan maxfiy tuynuk oldida o'tiribdi. Marmar hovuzda qiy-chuv qilib cho'milayotgan yalang'och qizlar uning ko'zlarini yondirib, vujudini jingak qilayotganday bo'ladi. U tomog'i quruqshaganda may ho'plab qo'yadi-yu, ammo ko'zini tuynukdan olmaydi.

Bir payt uning bu tomoshasiga kimdir xalaqit berdi.

---

<sup>1</sup> Sangfarsh – go'zal toshlardan gul yasash.

– Mirzo hazratlari, xufiyalar favqulodda xabar keltirmishlar.

Sulton Ali mirzo Abu Yusuf Arg‘unning mayin ovozini taniydi-yu, ammo unga o‘girilib qaragisi kelmaydi:

– Nima xabar bo‘lsa onamga aytavering.

– Begim hazratlari meni sizga yubordilar, amirzodam!

Sulton Ali mirzo endi Abu Yusuf Arg‘unga o‘girilib qaradi. Uning quyuq ta‘zimi ham, pastki tishlari tushib ketgan kemtik og‘zining tabassumi ham ko‘ziga juda yomon ko‘rindi:

– Janob bek, o‘zingiz-ku, bizga mehribonchilik ko‘rsatib go‘zal qizlarni peshkash qildingiz... Endi nega orom olgani qo‘ymaysiz?

– Mirzo hazratlari, saltanatingiz xavf ostida! Men shuning uchun oromingizni buzishga jur‘at etdim!

– Yana qanday xavf? Onam qayerdalar?

– Devoni xosda sizga muntazirlar.

Sulton Ali mirzo kayfini buzganlaridan achchig‘i kelib, qo‘lidagi qadahni mayi bilan marmar devorga otib urib, chil-chil sindirdi. So‘ng barvaqt semirgan yo‘g‘on gavdasi kayfdan xiyol chayqalib, tashqariga chiqdi.

Qorong‘i tushib qolgan edi.

Devoni xosning kiraverishida, ellik yoshlardagi qovoqlari qalin, jingalak soqolli bir bek qo‘l qovushtirib, bosh egib turibdi. Uy to‘rida tikka turgan Zuhra begimning yuzi qahrdanmi, qo‘rquvdanmi oqarib ketgan:

– Amirzodam, siz aysh-u ishrat bilan bandsiz. Xiyonatchilar poytaxtni yog‘iyga pinhona topshir-moqchilig‘idan bexabarsiz!

Sulton Ali mirzodan norozi bo‘lib shaharni tashlab chiqqan mingdan ortiq bek va navkarlar Andijondan qo‘shin tortib kelgan Bobur bilan birga Darg‘om bo‘ylarida fursat kutib yurganlari ma‘lum edi. Ammo

Sulton Ali mirzo barcha darvozalarga eng ishonchli kishilarini qo'yib, shaharni mahkam berkitib yotar edi. Shuning uchun onasiga zarda qilib:

– Yana nima vahima? – dedi.

– Menga ishonmasangiz, mana Muhammad Sulton janoblaridan so'rang. Bu bek hozirgina Boburning qarorgohidan qochib kelmishlar. Shahar ichidagi fitnachilar bugun kechasi So'zangaron darvozasini Boburga yashiriqcha ochib bermoqchi emishlar. Piringiz Xo'ja Yahyo ham sizdan yuz o'girib, Boburga tarafdor bo'lgan emishlar.

– Ishonmaymen! – deb Sulton Ali mirzo qo'1 qovushtirib turgan Muhammad Sultonga tikildi.

– Amirzodam, gapim yolg'on bo'lsa bugun kechasi tekshirib ko'ring! Men yog'iymlaringiz bilan Darg'om bo'yida ikki hafta yurdim. Xo'ja Yahyoning rizoligini Bobur rosa o'n bir kun kutdi. Nihoyat, bugun ertalab Mamadali kitobdor xo'janing rizoligini olib boribdir. «Tun yarmida kelsinlar, shaharga kiritgaymiz», deganmish. Bobur bugun peshinda ishongan beklarini to'plab, mashvarat o'tkazdi. Xayriyatki, uning ishongan beklaridan biri, men – sizning sodiq qulingiz edim!..

Sulton Ali mirzo qovog'i qalin bekka endi mamnun nazar tashladi-yu:

– O'g'rini qarochi urganday bo'libdir! – deb xaxolab kuldi.

Uning kayf bilan beparvo kulishi Zuhra begimning g'ashini keltirdi:

– Amirzodam, har bir daqiqa g'animat. Xosnavkarlaringiz otlangan. Hammasi farmoyishingizga muntazir.

– Farmoyishmi? – deb Sulton Ali mirzo bir lahza o'ylanib oldi. – Mayli, Bobur darvozadan kirsin. Keyin tuttirib ko'ziga mil torttirmoq kerak! Toki, bizga qasd qilgani uchun abadiy ko'r bo'lib qolsin!

Abu Yusufbek oq oralagan qalin soqolining uchini tutamlab, bosh chayqadi:

– Tuttirolsak yaxshi edi-yu, ammo bu reja ancha qaltis, amirzodam. Darvozani ochsak, so'ngra yopib bo'lmas. Boburning ulkan qo'shini bor. Qal'a ichida ham tarafdorlari ko'p. O'tgan safar Samarqandga kirganda, ochlarga non ulashib, dehqonlarga urug'lik qarz berib, avomning ko'nglini ovlagan ekan. Bir yoqdan Xo'ja Yahyoning fatvosi bilan avom ko'tarilsa, tashqaridan qo'shin kirs...

– Yo'q, bu – juda xatarnok! – dedi Zuhra begim.

– Ha, undan ko'ra tezroq So'zangaron darvozasiga borib, u yerdagi soqchilarni almashtirish lozim, – dedi Abu Yusuf va zarhal jildga solingan bir qog'oz keltirdi. – Amirzodam, mana bu – sizning muborak nomingizdan yozilgan nishon<sup>1</sup>. Bunda fitnachi beklarning nomlari ham ko'rsatilgan. Shular bugun kechasi qo'lga olinmog'i lozim.

– Fitnachilarning mol-u mulklari mana bu Muhammad Sulton kabi sadoqatli beklarga olib berilsin! – deb qo'shimcha qildi Sulton Ali mirzo.

Qovog'i qalin bekning josuslik qilishdan maqsadi ham shu edi. U Sulton Ali mirzoga ikki bukilib ta'zim qildi:

– O'lgunimcha xizimatingizdamen, amirzodam. Ijzat bering, mana bu muborak farmoyishingizni bajo keltirishda faqir ham navkarlarim bilan ishtirok etay.

Bu bek fitnachilarning hovlilarini talashda bevosita ishtirok etsa, ko'proq o'lja olishi mumkinligini sezib, shunday demoqda edi.

– Ijzat berdik.

Muhrdor chaqirtirildi va qog'ozdagi farmoyishga podshohning muhri bosildi.

– Qolgan ishni biz bajo eturmiz, – dedi Abu Yusuf Arg'un.

---

<sup>1</sup> Nishon – farmon, buyruq.



Sulton Ali mirzo til uchida:

– Men ham birga boray, – dedi.

– Yo‘q, yo‘q! – dedi Zuhra begim tez. U yolg‘iz farzandini qorong‘i tunda dushman ko‘payib ketgan shaharga chiqarishni istamas edi. Mirzo onasining yuzidan o‘tolmaganday bo‘lib saroyda qoldi.

So‘ng ona-bola Bo‘stonsaroyning ikkinchi qavatidagi ochiq ayvonga chiqib, So‘zangaron darvozasi tomonga quloq sola boshladilar.

Tun sukunatida otlarning dupuri quloqqa baralla chalinardi. Amir Temur maqbarasidan sal nariroqda joylashgan So‘zangaron darvozasi Bo‘stonsaroyga ko‘p ham uzoq emas edi. Yarim kechada Boburning ilg‘orlari darvozaga sekin yaqinlashganda, Abu Yusuf va Muhammad Sultonning navkarlari darvozaxona ustidan ularga kamondan o‘q otib, bir qancha kishini yarador qildi.

Qorong‘ida devor tepasidan tusmol bilan otilgan ba‘zi o‘qlar otlarga ham tekkan edi. Og‘riqdan asabiylashgan otlarning qattiq kishnagani Bo‘stonsaroyga ham eshitildi.

Darvozaxona ustidagi qo‘riqchilar Boburning odamlarini masxara qilib kulishardi:

– Mirzolaring barakni<sup>1</sup> xom sanabdir!

– Ha-ha-ha!

– Samarqandni endi tushlaringda ko‘ringlar!

– Keyin tushlaringni suvga aytursanlar?

– Ho-ho-ho!

Boburning qo‘shini orqaga qaytib ketishi bilan darvoza oldida shovqin tindi-yu, keyin shaharni u yer-bu yerida itlarning jon-jahd bilan hurgani, odamlarning achchiq faryodi eshitila boshladi. Abu Yusuf Arg‘un boshliq xos navkarlar darvozani tinchitib, endi fitnachilarni ovlashga kirishganini

---

<sup>1</sup> Barak – chuchvara.

ayvonda o'tirgan Sulton Ali mirzo shu uzuq-yuluq dod-voylar tovushidan sezdi.

– Endi tinch uxlasak bo'lar, – deb xobgohiga kirib ketdi.

Ammo Zuhra begim qandillar yonib turgan o'z xonasiga kelib, tong otguncha uxlamay o'tirdi. Hozirgina bir falokatning oldi olingan bo'lsa ham, ammo kelajakdagi mushkulotlar uning uyqusini qochirmoqda edi. Bobur Samarqandni yana qamal qilishi mumkin. Uning o'tgan galgi qamali hali ko'pchilikning esidan chiqqan emas. Ichkarida Zuhra begim ishonadigan odamlar tobora kamayib boryapti. Bugun fitnachi beklar jazolansa va talansa, Sulton Ali mirzodan norozi bo'luvchilar yana ko'payadi. Ularning boshchisi – Xo'ja Yahyo juda nufuzli ruhoniy. Sulton Ali mirzo Xo'ja Yahyoga qarshi keskin chora ko'rolmaydi. Chunki butun dindorlar Xo'janing tomonida. Agar Xo'ja avom xalqqa fatvo berib, butun mullolarni ishga solsa, g'ulu ko'tarilib ketishi mumkin.

Zuhra begim xayolida o'ziga tayanch izlar ekan, yaqinda Buxoroni olgan, endi Samarqandga qo'shin tortib kelishi kutilayotgan Shayboniyxon esiga tushdi. Bundan uch kun burun darvishlardan biri Zuhra begimga Shayboniyxondan maxfiy bir xat keltirib bergan edi. Begim pardali maxsus tokchada turadigan oltin sandiqchasiga kalit solib ochdi-da, o'sha xatni olib, qandil yorug'ida qayta o'qiy boshladi.

Zarvaraqqa bitilgan chiroyli yozuvda Zuhra begimning aqli va husni ustalik bilan ta'riflangan, yosh umrini o'g'liga fido qilib ersiz yurgani alohida ehtirom bilan tilga olingan edi. Xatning eng g'alati joyi – Shayboniyxonning Zuhra begimga g'oyibona ko'ngil qo'yib, unga uylanmoqchi ekanini she'r bilan aytgani edi:

*«O'g'lingiz o'g'lim-u o'zingiz yorim,  
Dilbar-u hamnafas-u dildorim».*

Hozir shu satrlarni o'qiyotganda, Zuhra begim zabardast bir erkakning o'tli nafasini o'z yuzida his qilganday bo'ldi. Zuhra begim olti yildan beri mana bu to'shakda yolg'iz yotadi. Uning gulday umri bevalikda so'lib boryapti. Zuhra begim tegaman, desa uni oladigan zodagonlar topilar edi. Axir u ta'rifi ketgan go'zal qiz bo'lgani uchun Sulton Mahmudxonday podshohning suyuqli xotiniga aylangan edi. Biroq o'g'li taxtda o'tirgan Zuhra begim faqat o'ziga munosib podshohga tegishi mumkin, udum shunday.

Mana endi unga xaridor podshoh ham topildi. Begim Shayboniyxonning she'ridagi ikkinchi satrni yana bir bor o'qiganda, xayoliy bir erkak uni quchib, «Dilbar yorim, dildorim!» deb erkalayotganday bo'ldi-yu, badani qizib ketdi.

U o'rnidan turib, katta toshoyna oldiga bordida, o'zining aksiga tikilib qaradi. Uyqusiz tundan ko'z ostilari xiyol ko'karib salqigan. Ammo qoshlar – qaldirg'och qanoti. Qora ko'zlari uchqun sochib porlaydi. Ko'kraklar baland. Bo'yni oq marmarday silliq, lablari ehtirosli. Shayboniyxonning yoshi ellikka yaqinlashgan, xotinalari va bolalari bor, Zuhra begim buni biladi. Ammo begim o'zining oynadagi aksiga mamnun tikilib turgan shu daqiqalarda: «Shayboniyxonning sahroyi xotinalari nima bo'lipti? – deb o'ylandi. – Men xonni o'zimga shunday rom qilayki, hammasi og'zini ochib qolsin!»

Ertasiga o'sha darvish kelib, begimning javobini olib ketishi kerak. Begim Shayboniyxonga xat yozish uchun qog'oz-qalam oldi.

Biroq qandillarda ko'pdan beri yonayotgan sham-larning tutunidan uy sal xira tortib qolgan edi. Zuhra

begim havorang barqut darpardalarni ochdi-yu, sahar salqiniga yuzini tutib, ayvon eshigi oldida birpas turdi.

Shunda arkka yaqin bir mahalladan er kishining jon achchig'i bilan qichqirgani eshtildi. Ayol kishining o'kirib yig'lagani unga jo'r bo'ldi.

Abu Yusuf Arg'un bilan Muhammad Sulton hamon fitnachilarni ovlab yurgani, ularning uylarini talab boyiyotgani, allakimlar o'q yoki tig' zarbidan jon berayotgani Zuhra begimning ko'z oldiga keldi. Shunda xayoli birdan boshqa yoqqa burildi.

Shayboniyxon Samarqandni jangsiz olish uchun Zuhra begimga yolg'ondakam ishq izhor qilayotgan bo'lsa-chi? Samarqandni olganidan keyin so'zidan qaytsa-yu, Zuhra begimni mana bu qorong'i tunda o'kirib yig'layotgan ayolning ahvoliga solsa-chi?

Bu shubhadan begimning borlig'i muzlab ketdi. U orqasiga qaytib, Shayboniyxonning maktubini yana qo'liga oldi. Xon uning shunday shubhalarga borishini oldindan sezganday, maktubning yana bir joyida she'r aytgan edi:

*«Men Samarqandni sensiz netayin,  
Jasadi tiyrani jonsiz netayin?»*

Bu satrlarning taftidan Zuhra begimning qalbiga yana iliqlik yugurdi. Shu tobda begimning o'ziga ham yorsiz Samarqand – jonsiz tanaday sovuq tuyilardi. Shayboniyxon uning bevalik hayotiga issiq jon bo'lib kirib kelishi ko'z oldida gavdalandi-yu, qalamni qo'liga olib, xonga javob yozishga kirishdi. Satr boshidan xonning ta'rifini yuksaklarga ko'tarib:

«Hazrati imomi zamon, xalifayi Rahmon», deb yoza boshladi...

Samarqand qal'asining tashqarisidagi bog' ko'chalar, Ulug'bek rasadxonasining atroflari, Obi-rahmat arig'ining bo'ylari behisob qo'shinga to'lib ketgan. Cho'ponota tog'ining etaklarida, naryog'i Zarafshon sohilida yuzlab o'tovlar va chodirlar paydo bo'lgan.

Bu qo'shinning sarkardasi Shayboniyxon Bog'i Maydonga, Ulug'bek qurdirgan mashhur Chilsutun ko'shkiga kelib tushgan edi. Shayboniyxon ko'shkning yuqorigi qavatida to'rt tarafi ayvonlik katta uyda peshin namozini o'qib bo'lgan ham ediki, yasovul kirib, Sulton Ali mirzo bir necha ichkilari bilan qal'adan xon huzuriga kelganini aytdi.

Shayboniyxonning kichik-kichik ko'zlari quvonchdan yaltillab ketdi.

- Sultonlarni bu yerga chorlang. Keyin mirzoni boshlab kiring.

- Hazratim, taxtingiz pastki oshiyonda.

- Joynamozim taxtimdan baland!

- Lutf qildingiz, hazratim!

Yasovul ikki bukilib ta'zim qilganicha, orqasi bilan yurib chiqib ketdi. Shayboniyxon bo'taloq junidan to'qilgan mayin malla joynamoz chetiga qaytib o'tirdi. Yasovul poygakdagi eshikdan Sulton Ali mirzoni boshlab kirganda, Shayboniyxon hali ham shahnishinda o'sha joynamoz ustida o'tirgan edi. Shahnishin pastida uning o'n chog'li sultonlari cho'kkalab o'tirishibdi.

Shayboniyxon bezaksiz jo'n kiyingan edi. Sulton Ali mirzo eshikdan kirgan zahoti uning sallasiga qadalgan dur-u gavharlar, to'niga tikilgan oltin-u marvaridlar dabdaba bilan yaltirab ko'zga tashlandi. Ammo Mirzoning ko'zlari besaranjom, semiz gavadasi bo'shshagan. U onasining va Abu Yusuf Arg'unning gapiga kirib, qal'adan qo'shinsiz chiqib kelgan edi. Bu

yerda xonning behisob qo‘shinini ko‘rib, yuragi takapuka bo‘lib ketdi.

Shayboniyxon bilan avvaldan til biriktirib yurgan Abu Yusuf Arg‘un Sulton Ali mirzoni xon huzuriga avrab olib kelish uchun boya tushki ovqat paytida mirzoga yaxshi ko‘rgan maylaridan ancha ichirgan edi. Hozir Sulton Ali mirzo Shayboniyxonga tomon ta‘zim bilan borayotganda, oyoqlari gilamda qoqinib, gavadasi gandarab ketdi. Abu Yusuf Arg‘un suyab qolmaganda, yiqilib tushardi.

Shayboniyxon o‘rnidan turib, Mirzo bilan ko‘rishar ekan, xushbo‘y may hidi dimog‘iga urildi. U Mirzoning kayfi borligini darrov sezdi-yu, uni o‘g‘li Temur Sulton va kuyovi Jonibek Sultondan quyiroqqa o‘tqazishni yasovulga imo qilib buyurdi.

Shayboniyxon boshiga qizil bo‘rk ustidan oq salla o‘ragan, ko‘k movutdan abo kiygan. Oltin tugmali abo tagidan kiygan yashil ko‘ylagi musulmon bayrog‘ining rangini eslatadi. Joynamoz ustida o‘tirgani ham uni Xudojo‘y bir odamga o‘xshatib ko‘rsatar edi. Buning hammasi Sulton Ali mirzoning vahimasini sal bosdi-yu, ammo quyidan joy ko‘rsatilgani uning izzat-nafsigaga tegdi. Boshqa sultonlar Shayboniyxonning oldida cho‘kkalab o‘tirganda, Sulton Ali mirzo ataylab chordana qurib oldi. Shayboniyxonning o‘g‘li unga g‘ashi kelib, qarab qo‘ydi.

– Siz menga farzanddek yaqin bo‘lmoqchimisiz, Mirzo? – so‘radi Shayboniyxon muloyim tovush bilan.

– Xon hazratlari ittifoq tuzish uchun chorlabdirlar...

– Volidayi muhtaramangiz kelmadilarmi?

– Onam meni yubordilar.

– Ammo o‘zlari ham kelmoqchi edilar.

– Ayol kishi, tortinurlar.

– Odam yuboring, Mirzo, onangiz ham kelsinlar.

Sulton Ali mirzo yonida cho‘kkalab o‘tirgan Abu Yusufbekka qaradi. Abu Yusuf Arg‘un darhol o‘rnidan turib, Shayboniyxonga ta‘zim qildi:

– Ijzat bering, xon hazratlari, men hozir borib Zuhra begimni aytib kelay.

Bu nozik ishlarning hammasi Abu Yusuf Arg‘unning harakatlari bilan bitayotganini yaxshi biladigan Shayboniyxon yasovulga buyurdi:

– Abu Yusufbekka mening eng chopqir otlarimdan birini in‘om qiling!

– Minnatdorman, hazratim!

– Bek, qaytishda Xo‘ja Yahyoga ham xabar qiling. Sulton Ali mirzo kelgan joyga Xo‘ja kelmasa, ora uzilur.

– Haq gapni aytdingiz, xon hazratlari!

Abu Yusuf Arg‘un bu topshiriqni bajarish uchun ketgandan keyin Shayboniyxon o‘rnidan turdi-yu, sultonlariga qarab:

– Mirzo bilan suhbatlashib o‘tinglar, – dedi, o‘zi esa orqa eshikdan ayvonga chiqib, pastga tushib ketdi.

Sulton Ali mirzo atrofidagi sultonlarning adovatli yuzlariga qarab, ular orasida yolg‘iz qolishga qo‘rqdi va o‘rnidan turib, yon eshikka qarab yo‘naldi. Shunda turkistonlik sultonlardan biri o‘rnidan sakrab turib, uning yo‘lini to‘sdi.

– Amirzoda, buyruq bo‘di<sup>1</sup>, endi bizing yanimizdan ketmaysiz!

Barvasta bir navkar qo‘lini xanjarining sopiga qo‘yib, eshikka ko‘ndalang bo‘lib oldi. Sulton Ali mirzo qopqonga tushganini endi sezdi-yu, kayfi birdan tarqab ketdi. Yuzi bo‘zdek bo‘lib, boyagi joyiga qaytib o‘tirdi.

Oradan bir-ikki soat o‘tgandan keyin Zuhra begim ham to‘rt kanizi bilan Bog‘i Maydonga kirib keldi. Uning boshida kelinchaklarni eslatuvchi oq harir ro‘mol, peshonasiga esa tillaqosh taqilgan. Egnida xipcha belli gulgun qabo. Uning tagidan kiyilgan oq atlas ko‘ylagining etagi shunchalik uzunki, ikki kaniz ikki tomondan ko‘tarib kelyapti.

---

<sup>1</sup> Bo‘di – «bo‘ldi» degani.

Zuhra begimni Chilsutunning pastki oshiyonida maxsus bezatilgan xonayi xosga boshlab o'tayotganlarini Shayboniyxonning qirq yoshlardan oshgan katta xotini ko'rib qoldi:

– Bu ne degan yuzsiz xotin? – deb yonidagi ayolga shipshidi: – Ersiragan megajin izzatini bilib uyida o'tirmaydimi? Sovchi borib ishni bitirganicha shoshmay turmaydimi? Iloyim kasofati o'zidan beriga kelmasin!

Zuhra begim xonayi xosga kirganda, Shayboniyxon taxt ustida o'tirar edi. Zuhra begim ikki bukilib ta'zim qilar ekan, Shayboniyxon u bilan taxt ustidan tushmasdan so'rashdi.

– Xush keldingiz, begim.

Xondan boshqacha muomala kutgan Zuhra begim to'satdan ko'ngli buzilib, ko'ziga yosh oldi.

– Xon hazratlari, men o'zimni sizga qurbon qildim. Farzandimni, xonumonim – hammasini marhamatingizga ishonib topshirdim!

Zuhra begimning yuzi oq ipak to'r ortidan aniq ko'rinmas edi. Xon uning gavhar ko'zli oltin uzuklar taqilgan qo'llariga qaradi. Tomirlari bo'rtib turgan bu titroq qo'llar begimning ancha yoshga borganidan dalolat berardi. Shayboniyxon yaqinda Buxoroda nikohlab olgan o'n to'qqiz yoshli kichik xotinini esladi. So'ng Zuhra begimning kattagina o'g'li Sul-ton Ali mirzo ko'z oldidan o'tdi.

– Xotirjam bo'ling, begim, Sizning maqsadingiz bizga ma'lum. Xudo xohlarsa, murodingiz hosil bo'lmay qolmas.

Shayboniyxon boshqa hech narsa demadi. Yasovul Zuhra begimni xonayi xosdan olib chiqib ketdi. Uni kanizlari bilan boshqa bir kichikroq xonaga kiritib, eshiklarini tashqarisidan yopib oldilar.



\* \* \*

Shayboniyxonning nima qilmoqchiligini hech kim tushunmas, ammo bugun Bog‘i Maydonda favqulodda bir hodisa bo‘layotganini sezgan barcha lashkarboshilar va a‘yonlar Chilsutun koshonasining yon-verida ikki-uchtadan bo‘lib aylanib yurishar edi. Ular orasida shoir Muhammad Solih ham bor edi. Uning ipak sallasi nozik qilib o‘ralgan, kalta yengil ipak abosi o‘ziga juda yopishib turadi. Yozda ham telpak kiyib yuradigan, urushdan boshqa narsani bilmay qo‘pollashib ketgan ko‘chmanchi sultonlar uning ziyolicha nozik kiyinishini yoqtirmaydilar, Temuriylar xizmatida o‘tgan og‘ir o‘tmishini eslatib turishni yaxshi ko‘radilar. Nayman urug‘ining boshlig‘i Qambarbiy bog‘da Muhammad Solihga tegishdi:

– Ha, janob shoir, Samarqanddan mirzongiz minan chechangiz<sup>1</sup> kelib, suyunib turibsizmi?

– Qambarbiy janoblari, Zuhra begim asli o‘zbekning nayman urug‘idan bo‘lurlar. Begimni mendan oldin siz checha deyishingiz lozim.

Mang‘it, do‘rmon va qo‘shchi urug‘ining sultonlari bu gapni yoqtirib, xaxolab kuldilar.

Qambarbiyning achchig‘i keldi. Muhammad Solihga o‘shqirib:

– Siz-chi? – dedi. – Siz barlos turkidanmisiz?!

Temur va Temuriylardan chiqqan barloslar Shayboniyxonning eng yomon ko‘rgan urug‘i edi. Muhammad Solih Xusayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan, Sulton Ali mirzoga ham mulozim bo‘lgan, axiri mirzolardan aynib, Shayboniyxon tomoniga qochib o‘tgan edi. U Sulton Ali mirzoning harbiy sirlarini Shayboniyxonga aytib berib, Buxoro va Dabusiya qal‘asining olinishiga ko‘maklashgani uchun xon uni

---

<sup>1</sup> Checha – bu yerda kelinoyi, yanga ma‘nosida.

yoqtirib qolgan edi. Ammo Qambarbiy ichida uni: «Xiyonat yoʻli bilan obroʻ orttirgan beqaror turk!» deb yomon koʻrar edi.

Muhammad Solih Qambarbiyning bu nafratini oʻziga olgisi kelmay, gapni hazilga burdi:

– Janob Qambarbiy, men hozir – oʻzbek turkidanmen!

– Quvlik qilmang, oʻzbek boshqa, turk boshqa!

– Lekin oʻzbekda «ota yurtim Turkiston» degan naql bor-ku, bunisiga ne deysiz?

– Voy-boʻy, – dedi Koʻpakbiy, – manav shoiring bizning Turkistonni ham turklarga berib jubormoqchi-ku!

Dashti Qipchoqdan chiqqan omi Koʻpakbiy Turkistonday madaniy shaharni oʻziniki qilib gapirganidan Muhammad Solihning kulgisi keldi:

– Janob Koʻpakbiy, siz avval Turkiston degan soʻzning maʼnosini tushuning! Turkiston – turklar makoni degani-ku!

– Ne demoqchisan? Biz Rum<sup>1</sup> turkidan tarqagʻan-mizmi?

– Aksincha, Rum turklari ham Turkistonni «ota yurtim» derlar. Ular bilan bizning ildizimiz bir. Samarqand qoʻrgʻonidan berida turgan hu ana u tepalarga bir qarang. Ana oʻsha yerda bundan ming yil avval Afrosiyob degan ulkan shahar boʻlgan. Afrosiyob esa Movarounnahr turklarining afsonaviy qahramoni edi. «Uning asli oti Alp Er Toʻngʻa boʻlgan» deb, «Qutadgʻu bilig»da Yusuf Xos Hojib yozmishdir.

– Bu shoir oʻzbekning nonini yeb, nuqul turkni maqtaydi-ya!

– Janob Qambarbiy, oʻzbek, qozoq, turkman, qirgʻiz – barchasi ham turkiy uluslardir. Bir otaning bolalaridek yerimiz bir, tariximiz bir. Sizlar oʻzbek urugʻlarining tarixini Oʻzbekxondan<sup>2</sup> boshlaysizlar. Bu toʻgʻri emas.

<sup>1</sup> Rum – Turkiya.

<sup>2</sup> Oʻzbekxon – Oltin oʻrda xoni, 1312–1342-yillarda hukmronlik qilgan, uning poytaxti Saroy Berke Volga boʻyida, hozirgi Volgograd yaqinida boʻlgan.

- Nega to'g'ri bo'lmas ekan? - o'shqirdi Ko'pakbiy,  
- O'zbekxondan tarqalgan emasmizma?

- Janob Ko'pakbiy, sizning qipchoq urug'ingiz O'zbekxondan ming yil oldin mashhur bo'lgan. Qo'ng'iroq urug'ining tarixi ham olti-yetti asrga boradi. Mang'it, nayman, do'rmon, qushchi urug'lari ham qadimdan beri bor. Bu urug'larning hammasi hozir onhazratim Shayboniyxon qo'l ostiga birlashib, «o'zbek ulusi» degan umumiy nom olgan ekan, sizlar bu ulusning tarixini esdan chiqarmanglar. O'zbek degan ism turkiy xalqlarda O'zbekxondan necha yuz yil oldin ham mavjud bo'lgan. Men Xorazmda o'smishmen. Qadimiy kitoblardan o'qidimkim, Chingizxondan oldin shoh bo'lgan Xorazmshoh Muhammad o'z o'g'illaridan biriga O'zbek deb nom qo'y mishdir. Shundan ma'lumki, bu nom yurtimizda Chingizxon kelmasidan oldin ham mo'tabar bo'lgan. O'zbek nomini bizning ulusimiz O'zbekxondan olgan emas. Aksincha, bu qadimiy nomni O'zbekxon bizning turkiy uluslardan olmishdir!

- Yana turkiy deydi-ya! Xon hazratlarining bobokalonlari ulug' Chingizxon turk bo'lmag'an-ku!

Qambarbiy qaltis mavzuda gap ochganini sezib, hamma jim bo'lib qoldi. Chunki Chingizxonning g'ayridin bo'lganini, Buxoroning jome masjidiga ot minib kirganini Turonning ko'pchilik aholisi bilardi. Shayboniyxon bu aholini cho'chitmaslik uchun Chingizxon naslidan ekanini oshkor qilmasdan dil tubida saqlardi. Ammo xonning turkiy tilli musulmon ekanligi, islom bayroqdori bo'lib maydonga chiqqanligi katta bir siyosat shaklida ochiqchasiga targ'ib qilinardi. Muhammad Solih ham ana shu siyosatga mos keladigan so'zlarni izlab topdi:

- Janob Qambarbiy, Shayboniyxonning bobolari Abulxayrxon, otalari Shohbudoq Sulton islom dinidan bahramand bo'lishib, xoqoni a'zam Chingizxondan

ham balandroq ma'naviy yuksaklikka ko'tarilganlar. Shayboniyxon hazratlari hozir ana shu yuksaklikda turib, Turonning pok musulmon xalqiga rahnamo bo'lmoqdalar!

– Ob-bo, sartting bolasi-ey, endi Turonni o'rtaga solib, so'zini o'tkazmoqchi-da!

– Tarix shunday bo'lsa men ne qilay, janob Qambarbiy? Ming yillardan buyon Xurosondan naryog'i Eron-u berigi yog'i Turon deb yuritilur... Xon hazratlari buni yaxshi bilurlar. Imomi zamon Buxoro madrasasida tahsil ko'rganlarida juda ko'p turkiy she'rlarni yod olganlar.

O'zlari ham turkiy tilda g'azallar yozganlar. Men onhazratning g'azallaridan bir bayt keltiray, eshiting:

*«Firqat otidan yiqildim, yor keldi so'rg'ali,  
Ey Shayboniy, yor dardingga davo qildi yana».*

– Xon hazratlarining bu she'rlari turkiycha emas, o'zbekcha! – dedi Qambarbiy.

– Lekin barcha turkigo'y shoirlar xuddi shu tilda she'r yozganlar-ku! Agar bu o'zbek tilida bo'lsa, demak, Navoiy ham o'zbek tilida yozgan. Demak, kamina ham hozir sizlar bilan o'zbek tilida so'zlashmoqdamen. Demak, Movarounnahrning turkiy tili-yu o'zbek tili, aslida bir til. Janoblari, endi dilimiz ham bir bo'lmog'i kerak. Temuriylar turk-u o'zbek deb ulusni ulusdan ajratib, xalqni parokanda qildilar, mamlakat parchalanib, xarob bo'ldi. Endi imomi zamon, Iskandari soniy<sup>1</sup> yana shu ulusni birlashtirib, mamlakatga yagona jon ato qilmoqchilar! Ilohim hazrat xonimiz shu maqsadlariga yetsinlar!

Muhammad Solihning bu gapiga endi hech kim e'tiroz qilolmadi. Munozarada ustalik bilan g'olib chiqqan shoir ko'shikka qarab ketdi.

---

<sup>1</sup> Iskandari soniy – Ikkinchi Iskandar, Shayboniyxonga berilgan yuksak ta'riflardan biri.

Ko'pakbiy Qambarbiyga qarab:

– Sartting bolasini ko'rdingizma? – dedi. – Bularni gap bilan jengib bo'lmaydi!

– Gap bilan yengmasak qilich bilan yengamiz! – dedi Qambarbiy. Hammalari xaxolab kuldilar.

\* \* \*

Ko'shkdan yasovul chiqib, bog'da muntazir turgan lashkarboshi va a'yonlarni xon hazratlari yuqorigi qavatga kengashga chaqirganini aytdi. Bog'dagi arkoni davlat ko'shkning to'rt burchiga minoraga o'xshatib ishlangan va torgina yo'lak ichidan o'tgan zinapoyalar bilan yuqoriga ko'tarila boshladilar. Xonning o'zi hali ham pastdagi xonayi xosda yana nimanidir kutmoqda edi. Kechki payt Samarqanddan besh-olti nafar muridini ergashtirib, Xo'ja Yahyo ham chiqib keldi. U Bog'i Maydonga kirib otdan tushayotganda sarosima bo'lib, oyog'i uzangi qayishiga o'ralib qoldi. Muridlari uni suyab tushirdilar.

Katta oq salla, malla saqarlot delagay kiygan Xo'ja Yahyo Shayboniyxon o'tirgan taxtning oldigacha ta'zim qilib bordi. Qiroatga o'rgangan jarangdor tovush bilan:

– Assalom-u alaykum, xon hazratlari, – dedi. – Samarqand darvozalari siz ulug' zot uchun ochiqdur!

Shayboniyxon Xo'ja Yahyo bilan o'rnidan turmay so'rashdi-yu, kinoya qilib dedi:

– Samarqand qopqalarini biz uchun siz ochib keldingizmi?

– Hazratim, har ish Xudoning xohishi bilan bo'lur.

– Biroq sizning xohishingiz – Samarqandni Boburga berish edi-ku?

– Osiy bandalarmiz, xon hazratlari. Xatolik o'tgan bo'lsa, afv eting, huzuringizga bosh egib keldim...

Xo'ja Yahyo ko'ziga yosh oldi.

Shayboniyxon yasovulga buyurdi:

– Yuqoriga olib chiqib mirzosining qaptaliga<sup>1</sup> o'tirg'izing!

Xo'ja Yahyoni olib chiqib ketganlaridan keyin Shayboniyxon o'zining eng yaqin maslahatgo'yi bo'lgan oltmish yoshli mo'ysafid mulla Abdurahimni chaqirdi va u bilan nima haqdadir yakkama-yakka gaplasha boshladi.

Xonning shoshilmayotgani ba'zi sultonlarni ta'ajjubga solmoqda edi. Samarqand darvozalari ochiq paytda nega poytaxtga ot qo'yib kirmasdan, bu yerda imillab o'tirishibdi?

### 3

Shayboniyxon to'rdagi eshikdan kirganda hamma o'tirganlar o'rinlaridan sapchib turib, xonga egilib ta'zim qildilar. Xon shahnishinga to'shalgan kimxob ko'rpacha ustiga chordana qurib o'tirdi. Uning o'ng yoniga cho'kka tushgan mulla Abdurahim Qur'ondan qisqa bir oyat o'qib, xon hazratlariga eng oliy tilaklar bildirdi-yu, nihoyat maqsadga o'tdi:

– Imomi zamon, xalifayi Rahmonning niyatlari faqat shahar olish emas, din-u millat dushmanlarini fosh etib, siz-u bizni Muhammad alayhissalom yurgan muqaddas yo'lga yetaklashdir. Agar faqat mol-u mulkni o'ylaydigan podshoh bo'lsa, Samarqand qopqalari ochilgan zahoti urho-ur, deb qal'aga ot qo'yib kirur edi, karnay-surnay chaldirib, o'z g'alabasini tezroq xalqqa oshkor qilur edi. Ammo bizning ulug'xonimiz – donolikda Iskandari zamon Shayboniyxon mol-u mulkdan avval insof-u imonni o'ylayurlar.

– Barhaq! – deb qo'ydi mulla Abdurahimdan past-roqda o'tirgan Muhammad Solih.

---

<sup>1</sup> Qaptali – yoni, qatori.

- Podshoh insof-u imonni unutsa, nechog'liq murdorliklar yuz berishi, mamlakat nechog'liq xarob bo'lishi Temuriylarning kirdikorlaridan bizga ayon. Abdullatif mirzo o'z otasi Ulug'bek mirzoni o'ldirtirdi. Hirotda Husayn Boyqaro o'z nevarasi Mo'min mirzoni o'ldirtirdi. Mana hozir biz bilan o'tirgan Sulton Ali mirzo o'z og'asi Boysunqur mirzoni tuttirib o'ldirmoqchi bo'lganda, og'asi qochib qutuldi. Keyin Boysunqur mirzo bu inisini tuttirganda, ko'zini ko'r qilmoqchi bo'ldi. Ammo jallodni oltinga sotib olib, bu Mirzo ham qochib qutuldi. Mirzolarning saroyida sotqinlik, xiyonat, buzuqlik avj oldi. Qur'oni karim mayni makruh deb qat'iy taqiqlagan. Ammo davramizda o'tirgan mana bu yosh Mirzo joynamoz ustida o'tirgan imomi zamon huzuriga may ichib, shirakayf kelmish. Bu Mirzoning shahvoniyparastligi, shu yoshdan harom yo'lga yurishligi imomi zamon xonimizga avvaldan ayon edi!

Ko'pakbiy g'azablanib gap qo'shdi:

- Osib o'ldirish kerak bunday Mirzoni!

- Ayb faqat bu navjuvon Mirzoda emas, - deb Muhammad Solih unga e'tiroz qildi. - Buning otasi Mahmud mirzo bag'oyat imonsiz, buzuq odam edi. Samarqandda podshohlik qilganda xotinbozlikka qanoat qilmay, bachchabozlikni ham avjiga chiqargan edi. Bechora xalq chiroyli yosh o'g'lonlarini ko'chaga chiqartirishga qo'rqib, qizlarni yashirgandek ichkariga yashirar edi.

- O'g'il otasiga tortibdir-da?

- Onasi-chi? Mirzoning onasi qalay?

Bu qaltis savoldan hamma bir lahza jim bo'lib qoldi. Chunki «Shayboniyxon Zuhra begimni nikohlab olmoqchi emish», degan ovoza ko'pchilikning esiga tushdi. Xon bu ayolga uylansa, obro'si tushishini boyayoq sezgan va uylanmoqchi emasligini mulla

Abdurahimga aytgan edi. Hozir mulla Abdurahim mish-mishlarni bartaraf qilishga shoshildi:

– Mirzolarning kasofati xotinlariga ham urmish. Bu Mirzoning onasi o‘z nafsi uchun yolg‘iz o‘g‘lini qurbon qiladiganga o‘xshaydi!

Mulla Abdurahimning bu gapidan keyin xonning Zuhra begimga munosabati ham ko‘pchilikka ayon bo‘ldi. Sultonlardan biri:

– Quturgan biyaga sudratib o‘ldirish kerak unday xotinni! – dedi.

Yana biri:

– Qopga solib, eng baland minoradan tashlash kerak! – dedi.

Shayboniyxon munozaraga erk berib, o‘zi hammaning gapiga zimdan quloq solib o‘tirardi. Bir-biridan qo‘rqinchli takliflar ko‘payib ketgandan keyin Shayboniyxonning ishorasi bilan mulla Abdurahim hammani jim qildi.

Xon gapirar ekan, o‘nlab kishilar uning salmoqdor, vazmin ovozidan, dona-dona qilib aytayotgan so‘zlaridan sehrlanganday qotib, quloq sola boshladi. Shayboniyxon mirzolarning insofni, imonni unutganlari, el-ulusni vayron qilganlariga yana bir talay misollar keltirdi-yu, birdan Xo‘ja Yahyoga yuzlandi:

– Bu mirzolaringning piri – sizning otangiz Xo‘ja Ahror edi. «Men valiyman» deb, podshohlarga hukmini o‘tkazib, juda katta boylik orttirgandi. Bizning xabarimiz bor, otangizdan sizga juda ko‘p oltin qolg‘an. Otangiz o‘lgandan keyin, mana, o‘n bir yildan beri siz Samarqandg‘a ruhoniy ota bo‘lib yuribsiz. Siz ham nafsga berilib, juda ko‘p siym-u zar to‘plag‘ansiz. Baliq boshidan buziladi. Pir qanday bo‘lsa, murid ham shunday bo‘ladi. Qaptalingizda o‘tirg‘an mana shul shahvoniyparast yosh Mirzo sizning muridingiz, Xudo oldida siz shung‘a javob beraman deb qo‘lini olg‘ansiz!



Shayboniyxon shahodat barmog'ini bigiz qilib, avval Mirzoni, so'ng Xo'ja Yahyoni ko'rsatdi-da, keyin o'sha barmog'ini pastga qaratib silkitdi:

– Sizning yana bir muridingiz ayol boshi bilan er istab kelib, pastda o'tiripti. Sizning qanday pirlig'ingizni mana shular ko'rsatib turipti! Siz avval muridlaringizga xiyonat qilib, Samarqandni Boburga bermoqchi bo'ldingiz. Keyin bular pirlariga xiyonat qilib, mening oldimga keldi. Xiyonat ustiga xiyonat! Biri u yoqqa tortsa, biri bu yoqqa tortadi! Podshoh o'zicha-yu, din rahnamosi o'zicha! Biri birini aldaydi. Biri birining go'shtini yemoqchi bo'ladi! Muhammad alayhissalom ham payg'ambar edilar, ham podshoh edilar, ham lashkarboshi edilar. Kim shunga qodir bo'lmasa, kim payg'ambarimizning muqaddas yo'lidan yurmasa, mana shu pir bilan muridga o'xshab, kofirlik jariga yiqiladi!

Shayboniyxon bu gaplarni o'zining qo'l ostidagi a'yonlariga ham tekkizib gapirmoqda edi. Chunki ularning ba'zisi: «Xonimiz taxt-u tojga qanoat qilmay imomi zamon, xalifayi Rahmon ham bo'lib oldilar», deb shivirlashar edi. Temuriylarning ishini ko'pdan beri kuzatib yurgan Shayboniyxon ularning saltanatlarida Xo'ja Ahror kabi diniy rahbarlar o'zlaricha mustaqil hukmdor bo'lib olib, mirzolarning hokimiyatini ichdan zaiflashtirganini yaxshi bilar edi. Shayboniyxon xonlik hokimiyati bilan diniy hokimiyatni o'z qo'lida birlashtirib, Temuriylarga nisbatan katta bir ustunlikka erishmoqda edi. U Buxoroda madrasada o'qib yurganda, shariat va tariqat ilmini yaxshi o'rgangan, Qur'onni yod bilar edi. Hozir Shayboniyxonning qarorgohida islom dinini undan yaxshi biladigan, Qur'onni qiroat bilan o'qishda undan o'tadigan odam yo'q edi. Uning imomlik va xalifalik unvonlari shundan ham kelib chiqqan edi. Shayboniyxon markazlashgan ulug' bir davlat

tuzishga intilar ekan, bu maqsadga tezroq yetish uchun qo'l ostidagi odamlarning ixlos va e'tiqodini ham qozonishga, ularning mafkurasini o'ziga bo'ysundirib, hammasini bir dohiy atrofiga jipslashtirishga alohida e'tibor berar edi. U o'z davrining eng zo'r mafkurasi – diniy mafkura ekanligini yaxshi bilardi. Shuning uchun hozir o'zi erishayotgan muvaffaqiyatlarni ham dinga va ilohiy kuchlarga bog'lab, gapira boshladi:

– Bizning Samarqanddagi dushmanlarimiz yetti boshliq ajdarhoday zo'r edi. Bu ajdarho ne-ne qo'shinlarni komiga tortib, yutib yuborgan. Ammo bizning imonimiz pok, niyatimiz xolis. Olloh Taolo shu ajdarhoni inidan tortib chiqarib, bizning huzurimizga olib keldi. «Nima qilsang qil!» deb qo'limizga berdi. Xudoning qudrati bilan Samarqanddek shaharning qopqalari bizga jangsiz ochildi!

Samarqand urushsiz taslim bo'layotganligi, uning podshohi va diniy rahbarlari o'z oyoqlari bilan Shayboniyxon huzuriga kirib kelganligi naqadar ulkan bir zafar ekanini barcha a'yonlar go'yo endi astoydil his qildilar. Bu zafarning Xudo tomonidan berilganligi esa Shayboniyxonni ularning ko'ziga Xudoning nazari tushgan bir avliyo qilib ko'rsatar edi. Shayboniyxon nafasi o'tkir valiy bo'lmasa, bu qadar murakkab, bu qadar qiyin ishni shunchalik donolik va ustalik bilan amalga oshirolarmidi?

Mulla Abdurahim o'rnidan sakrab turib:

– Imomi zamonimiz ming yil umr ko'rsinlar! – deb olqish aytdi.

Boshqalar ham oyoqqa qalqdilar. Ustma-ust olqish yangradi:

– Iskandari soniyga ofarin!

– Hazrati valiyga ming rahmat!

– Xalifayi Rahmon dunyo turguncha tursinlar!

Hamma a'yonlar o'rinlaridan turganlaridan keyin Sulton Ali mirzo bilan Xo'ja Yahyo ham joylaridan

ko'tarildilar. Ammo ular tirik murdadek oyoqda zo'rg'a turishar edi. Agar hozir Shayboniyxon mana bu olqish aytayotganlarga bir og'iz buyursa, ular Mirzo bilan Xo'jani tilka-pora qilib tashlashlari aniq edi.

Xonning ishorasi bilan olqishlar tindi, hamma joyiga qaytib o'tirdi.

– Manavi xo'ja bilan mirzog'a, – dedi Shayboniyxon, – ming azob berib o'ldirsak haqimiz bor. Biroq insof-u imon qanchalik bo'lishini bularga yana bir ko'rsatib qo'yaylik. Mayli, qonlaridan kechaylik, jonlari omon qolsin!

Boyatdan beri o'limni bo'yinlariga olib, jonlaridan umid uzib o'tirgan Mirzo bilan Xo'ja endi birdan egilib, xonga minnatdorchilik bildirdilar. Xo'ja Yahyoning ko'ngli yumshab, ko'ziga hatto yosh keldi:

– Xudo umringizni bersin, xon hazratlari!..

– Biroq, – dedi xon ovozi ko'tarib, – janob Xo'ja Yahyo mol-u dunyoga hirs qo'yib, tavfiqni unutkan. Imonlarini poklash uchun Makkayi mukarramaga safar qilsinlar. Xo'jaga ertalabgacha muhlat beramiz. Kerakli narsalarini yig'ishtirib, ikki o'g'illari bilan birga hajga jo'nasinlar. Ko'pakbiy!

– Labbay, xon hazratlari!

– Xo'ja Yahyoni o'g'illari bilan erta ertalab Samarqanddan chiqarib qo'yishni sizga topshirdik!

– Bosh ustiga, xon hazratlari!

– Mana bu yosh Mirzo, – deb Shayboniyxon Sulton Ali mirzoga qarab davom etdi, – bizga o'g'il tutingisi kelibdi. Mayli, dindan qaytganni yana din yo'lga solish – savob ish. Shahzoda Temurxon uni o'z odamlari qatoriga olsinlar.

Otasiga yaqin o'tirgan yigirma yoshli xushbichim Temurxon semiz Mirzoga nafratli bir nazar tashladi-yu, ammo xonga ta'zim qilib, buyruqni bajarajagini aytdi.

– Yaxshi bo'lsa oshini yer, – qo'shib qo'ydi Shayboniyxon, – yomon bo'lsa boshini!

Sulton Ali mirzo vaqtincha tirik qolayotganini ko'p odam shu so'zlardan sezdi. Endi pastki qavatda o'tirgan Zuhra begimning taqdirini hal qilish kerak edi. Shayboniyxon bir vaqtlar Zuhra begimni juda go'zal deb eshitib: «O'zimga g'unchachi<sup>1</sup> qilib olarman», deb o'ylagan edi. Shuning uchun begimga yozgan xatiga bir necha satr she'r qo'shgan edi.

Ammo uni bugun o'z ko'zi bilan ko'rgandan keyin begimdan ixlosi qaytdi. To'g'ri, she'r yozib begimni aldagani ko'nglining bir chetini xira qilib turar edi. Ammo bu yerda Zuhra begimdan nafratlanib gapirgan a'yonlar u xotinning buzuqligiga xonni ham ishontirdiyu, ko'nglidagi bu xiralikni tarqatib yubordi. «O'zi shunday aldanishga munosib xotin ekan, – deb o'ylandi xon. – Agar hozir qo'yib bersam, sultonlar uni quturgan biyaga sudratib o'ldiradi. Lekin men «Murodingizga yetasiz!» – dedim. Murodi – erga tegish ekan. Zo'r bir er topib berib, so'zimning ustidan chiqayin!»

Xonning ko'zlari davrada o'tirgan sultonlarni oralab o'tib, poygacroqda o'tirgan yo'g'on gavdali, cho'tir yuzli qora kishida to'xtadi. Mansur baxshi deb ataladigan bu odam tabiblik qilar edi. U childirma chalib, «ko'chiriq» qilishni ham bilar edi, «ko'taruvchi» degan laqabi bor edi. Unga xotin chidamas – olgan xotinlari yo bir-ikki yil umr ko'rmay o'lar yoki qochib ketar edi.

– Mansur baxshi, siz xotinga yolchimay yuribsiz, – dedi Shayboniyxon. – Pastdagi begim kelinchak yanglig' yasanib kelibdi. Shuni sizga uzatayikmi?

Mansur baxshi o'rnidan sakrab turdi, quvonganidan og'zi qulog'iga yetguday kulib, ta'zim qildi:

– Marhamatingizdan aylanayin, hazratim, jon deyman!

Hamma kulib yubordi. Shayboniyxon bu tugunni ham sulton va a'yonlarga yoqadigan bir ustalik bilan yechganidan ko'pchilik mamnun edi:

<sup>1</sup> G'unchachi – muvaqqat xotin.

- Xon hazratlari dono yo'l topdilar!
- Mansur ko'taruvchi endi begimni quchog'idan qo'ymay, rosa ko'taradi.
- Biri biriga munosib!
- Biroq, - Shayboniyxon yana so'z boshlagan edi, o'zaro gaplar va kulgilar darhol bosildi, - baxshining to'yini Samarqandda qilamiz. Hammamiz shaharga tartib bilan kiramiz...

Samarqandda bir necha marta bo'lgan va qayerda nima borligini yaxshi biladigan xon qo'shinlarning shaharga kirish va joylashish tartibini oldindan o'ylab qo'ygani edi. Hozir shuni buyruq shakliga keltirib, lashkarboshilarga aniq ko'rsatmalar bera boshladi. Shayboniyxonning besh ming kishilik qo'shini Chorraha darvozasidan Samarqandga kirib borganda, shaharning narigi tomonidagi So'zangaron darvozasidan yuzlab odamlar qochib chiqib ketmoqda edilar. Bobur hozir Shahrizabzda edi. Samarqanddan qochib chiqqan uning tarafdorlari Shahrizabzga qarab shoshilmoqda edilar.

Ammo Shayboniyxonning quyunday yugurik otliqlari ularning ko'pini quvib yetib, ko'chlarini talashdi, ko'plarini ayovsiz o'ldirishdi.

Kechasi shaharda talonchilik avjiga chiqdi. Faqat Xo'ja Yahyoning hashamatli uyiga va keng hovlisiga talonchilar yo'latilmadi. Ko'pakbiyning yuztacha navkari Xo'ja Yahyoning hovlisini qo'riqlab turdi. Biroq Ko'pakbiy qo'ygani maxsus odamlar Xo'ja Ahrordan qolgan boyliklar, oltin va javohirlarning qaysi sandiqlarga joylashtirilayotganini pana-panadan kuzatib, ko'z tagiga olib qo'yidilar.

Xo'ja Yahyo ikki o'g'li, uch xotini, o'n beshtacha xizmatkori yordamida tuni bo'yi ko'ch yig'ishtirdi. Tong otganda barcha sandig'-u bo'g'chalarini, ko'ch-ko'ronini to'rtta aravaga va o'n ikki tuyaga yuklatdi. Ayollarni soyabon aravaga chiqarishdi. Xo'ja Yahyoning

o'zi, ikki o'g'li va o'nta qo'riqchi xizmatkor yigiti eng yaxshi otlarini mindilar, Samarqand bilan g'amgin xayrlashib, qal'adan chiqdilar. Ko'pakbiy o'z navkarlari bilan birga Xo'ja Yahyoni Ohaklik tog'igacha kuzatib qo'ydi. Termiz yo'liga tog' oshib o'tish kerak edi. Bir tog' darasining ichida Ko'pakbiy Xo'ja Yahyoga qarab:

– Biz onhazratimning buyrug'ini bajardik, endi u yog'iga o'zingiz ketavering! – dedi-yu, navkarlari bilan orqaga burildi.

U ko'rinishidan Samarqandga qaytmoqchiga o'xshardi. Ammo daradan chiqqandan keyin yo'lni o'ngga burdi, boshqa bir dara orqali Xo'ja Yahyoning o'ng tomonidan aylanib o'tdi. G'ira-shira qorong'ilik tushib, odam odamni yaxshi tanimaydigan payt bo'lganda, Ko'pakbiy barcha askarlari bilan yuqoridan ko'chkiday yopirilib tushdi. Qiy-chuv, dod-voylarga qaramay, Xo'ja Yahyoning o'zini ham, ikki o'g'lini ham, qo'riqchi yigitlarini ham qilichdan o'tkazishdi. Tirik qolgan ayollar Ko'pakbiyning o'nboshilariga boshqa o'ljalar qatorida ulashildi. Sandiqdagi javohirlar va oltinkumushlarning yarmi kechasi xonning xazinasiga eltib topshirildi. Chunki Ko'pakbiyning Xo'ja Yahyoni hajga jo'natish bahonasi bilan tog' ichida o'ldirishi va boyligini musodara qilishi Shayboniyxonning imo-ishorasi bilan qilingan edi.

Bu voqeadan xabar topgan Sulton Ali mirzo o'lim xavfi o'ziga ham yaqinlashib kelayotganini sezdi-yu, qanday qilib bo'lsa ham qochib qutulishning payiga tushdi. Quyuq tuman tushgan kuni azonda ikki navkari bilan Feruza darvozasidan yashiriqcha chiqib, Panjakent tomonga qochdi. Biroq Temur Sulton uning ketiga qo'ygan xufiyalar bu voqeadan xabardor edilar. Sulton Ali mirzo qal'adan qochib chiqquncha, uni ataylab qo'yib bergandilar. Chunki uning aybini bo'yniga qo'yib qochib ketayotgan paytida tutib o'ldirmoqchi edilar. Sulton Ali mirzo Siyob bo'ylariga

bormasdanoq ketidan Temur Sulton ikki yuz navkari bilan uni quvib yetdi va darhol o'rab olib, bir qilich zarbi bilan boshini tanasidan judo qildi.

Mansur baxshiga nikohlab berilgan Zuhra begim yolg'iz o'g'lining tobutda boshsiz yotgan tanasini ko'rganda, o'zining kallasiga mushtlarini urib, dod soldi, yuzini qo'li bilan tirnab, qonatib yubordi, ko'ylagining yoqasini yirtib chinqirdi. Lekin g'oliblar buning hammasiga: «Battar bo'l, o'zing sababchisan!» degandek bir zaharxanda bilan qarashdi.

#### 4

Suvlarning yuzi xazonlarga to'lib oqadigan sershamol kuz kunlari boshlandi. Samarqanddan o'ttiz chaqirimcha sharq-janub tomonda, Panjakentdan quyida Zarafshon daryosini kechib o'tgan ikki yuzdan ortiq qurolli suvoriylar qorong'i tushganda, Siyob bo'yiga yaqinlashdilar. Ular yo'llarida uchragan qishloqlarni chetlab o'tishar, hech qayerda to'xtamasdan, shovqin-suron ko'tarmasdan, mumkin qadar sukut saqlab kelishar edi. Ularga birda-yarim duch kelib qolgan dehqonlar qo'rqib, o'zlarini chetga olar edilar. Shayboniyxonning askarlari hammaning yuragini olib qo'ygani edi. Hozir Samarqand atroflarida xonning besh mingdan ortiq qo'shini bor edi. Odamlar mana bu otliqlarni ham shu qo'shinning bir bo'lagi deb o'ylab, ulardan balodan qochganday qochar edilar.

Biroq otliqlarning o'zlari allanarsadan xavotiri borday ehtiyot bilan bormoqda edilar. Qorong'ida Siyobdan o'tayotganlarida, otlarning besh-oltitasi balchiqqa tiqilib qoldi. Ularni balchiqdan chiqarishga urinib, o'zlari loyga botgan, yuzlarini qamishlar tirnagan navkarlar achchiq ustida baland ovoz bilan so'zlashgan edilar, tanish ovoz ularni urishib berdi:

– Muncha dodlaysiz? Yog‘iyga xabar bermoqchimisiz? Boburning ovozi tanigan bir navkar:

– Ma‘zur tuting, amirzodam, – dedi. – Harom o‘lgur ot yomon tiqildi!

Buloq suvlaridan yig‘ilgan Siyob sovuq kuz kechasida bug‘lanib oqmoqda edi. Tun qorong‘isi ustiga suv bug‘lari ham qo‘shilib, balchiqni quruq yerdan ajratib bo‘lmas edi. Loyga botgan otlar ancha odamni yo‘ldan tutib qolayotganini ko‘rgan Bobur:

– Bas, chiqarib bo‘lmasa, qolsin! – dedi.

Qosimbek darhol uning so‘zini quvvatladi:

– Piyoda qolganlar mening otlarimdan olsinlar!

Oti loyga tiqilgan navkarlardan biri Tohir edi.

– Tog‘larda qancha ot-u tevalar qoldi, uchmalardan o‘tib kelgan otim endi shu balchiqda qolsinmi-a? – dedi Tohir otiga achinib.

– O‘zimizning jonimiz ham qil ustida! – dedi Bobur.

Tohir Qosimbek uchun yetaklab kelinayotgan otlardan biriga mindi. Yana ikki navkar piyoda qolgan edi. Ularga Bobur o‘zining to‘rtta otidan ikkitasini berdi. Hozir uning ko‘ziga ot-ulov ko‘rinmas edi. Eng muhimi, uning Samarqandga yaqinlashayotganini Shayboniyxon mutlaqo sezmasligi kerak.

Bobur yozi bilan tog‘larda yurdi, Shahrisabzdan Hisorga, undan Fondaryo bo‘ylariga oshib o‘tdi. Samarqand beklari butun navkarlari bilan Hisor hokimi Xisravshoh tomoniga o‘tib ketdi. Andijondan Bobur bilan kelgan odamlarning ko‘pchiligi Iskandarko‘l bo‘ylaridan O‘ratepa orqali Farg‘ona vodiysiga qayt-dilar.

Jangdovullar bu xabarlarning hammasini Shayboniyxonga allaqachon yetkazgan edilar. Boburning bir necha yuz kishi bilan tog‘ orasida qiynalib yurganini aniq biladigan Shayboniyxon endi uning Andijonga qaytib ketishiga yoki O‘zgandan narida xonlik qilayotgan tog‘asi Olachaxon oldiga borishiga



shubha qilmas edi. Shayboniyxon yov hujum qilishini kutmas, shuning uchun shaharda besh yuz kishilik qo'shin qoldirib, qal'a tashqarisidagi Xo'ja Diydor degan joyni qarorgoh qilgan edi.

Shayboniyxonning bexavotir yurganidan xabar topib, Samarqandga tavakkal qilib borayotgan Bobur juda qaltis bir ishga bel bog'laganini sezardi. Shayboniyxonning josuslari ko'pligi unga ma'lum edi. Xon o'zini sezmaganga solib, Boburni shaharga yaqin kelguncha qo'yib berishi, keyin qurshovga olishi mumkin edi. Shahar ichidagi qo'shin ham Boburning odamlaridan ikki-uch barobar ko'p. Bobur Shayboniyxonning qo'liga tushsa, tirik qutulolmasligini biladi. Navkarlar, beklar omon qolishi va xon askarlari safida xizmat qilib ketishi mumkin – Sulton Ali mirzoning ko'pchilik bek va navkarlarini xon o'z lashkarlariga qo'shib olgani hammaga ma'lum. Ammo yangi bir sulolaga asos solmoqchi bo'lgan Shayboniyxon Temuriylarni ayovsiz o'ldirishga qasd qilganini Bobur bilar edi. Shuning uchun agar biron falokat bo'lsa-yu, qutulib ketolmasa, oxirgi nafasigacha jang qilishga, xonning qo'liga tirik tushmaslikka ahd qilib bormoqda edi.

Qorong'ida yana bir talay ariqlardan o'tdilar, kuz kirib, egalari ko'chib ketgan kimsasiz bog'otlarni oralab borib, Samarqanddan beriroqdagi Puli Mag'oq ko'prigi oldida to'xtadilar. Bundan ikki kun oldin to'rtta ishonchli navkar dehqon kiyimida shu yerga yuborilgan, ular qal'a devoriga qo'yib chiqish uchun ulkan shotilar tayyorlagan, shu bilan birga, vaziyatni o'rgangan edilar. Oldindan tuzilgan rejaga binoan, navkarlardan yetmish-saksontasi shu yerda otdan tushdilar va shotilarni ko'tarishib, sekin G'ori Oshiqon deb ataladigan baland jarlikka tomon piyoda ketdilar.

Bobur qolgan navkarlar bilan Feruza darvozasiga yaqin borib, daraxtzor tepalik panasida to'xtadi.

Atrof jimjit. Uzoqdan xo‘rozning birinchi qichqirig‘i eshitildi. Osmon ola bulut. Qorayib turgan baland qo‘rg‘on ko‘zga zo‘rg‘a chalinadi. Bobur yonidagi Qosimbekning yutoqib, titrab nafas olganini sezdi-yu, o‘zining ham eti ucha boshladi.

Qal‘adan ajal sovug‘i esayotganday tuyilardi. Bundan to‘rt oy oldin mana shunday qorong‘i tunda Xo‘ja Yahyo shahar darvozasini yashiriqcha ochib berishiga ishonib, dushmanning masxarasini eshitib qaytgani esiga tushdi. Undan oldin G‘ori Oshiqonga kechasi borgan yigitlarning aldanib, qo‘lga tushib halok bo‘lgani ko‘z oldiga kelib, qalbiga tahlika solib o‘tdi. Bobur bu gal yana aldanmaslik uchun shahar ichidagi tarafdorlarning hech biriga xabar bermasdan, faqat o‘z kuchiga ishonib, tavakkal qilib keldi. Ammo uning ikki yuz qirq kishilik bir dasta qo‘shini Shayboniyxonning besh-olti ming kishilik lashkarlariga qanday bas kelishi mumkin? Yana xon qo‘shini mustahkam qal‘a ichida. Tarixda bunchalik tavakkalchilik bo‘lganmikin? Qo‘rg‘onga pinhon yetib oldilar. Agar Shayboniyxon ichkariga «qopqon» qo‘ygan bo‘lsa-chi? Bobur bu «qopqon»ga o‘z oyog‘i bilan kirib boradimi? Ba‘zi beklar mana shu andishalarni aytib, Boburni qaltis niyatidan qaytarmoqchi ham bo‘ldilar.

Ammo bu niyatdan qaytish – Andijonga shumshayib borib, yana Ali Do‘stbekka mute bo‘lish degan so‘z edi. Yoki uysiz, joysiz, kuz izg‘irinlari-yu qish sovuqlarida xor-u zor bo‘lib yurishlari kerak edi. Bobur mutelig-u xor-zorlikdan ko‘ra, bir o‘limni bo‘yniga olib, Shayboniyxonga yo‘lbarsday dadil tashlanishni afzal ko‘rgan va beklarni ham shunga ko‘ndirgan edi. Agar ishlari chappasidan kelsa-yu, Shayboniyxonning qopqoniga tushsalar, ajal sirtmog‘i eng avval Boburning bo‘yniga tushishini hammalari bilardilar. Boburning barcha harakati – yov «qopqoni»ning qopadigan joyiga tegmasdan o‘tishga qaratilgan edi. Shu yergacha

sharpalarini yovga sezdirmay keldilar. Endi bu yog'i qandoq bo'larkin?

Bobur butun vujudi bilan atrofga quloq solar ekan, tun sukunatida o'z yuragining dukillab urishini baralla eshitdi. Bu dukillashda go'yo taqdir otining dukuri ham bor edi.

\* \* \*

Og'ir shotilarni sekin ko'tarib, qadimiy Chaqardiza<sup>1</sup> qabristonini aylanib o'tayotgan navkarlarning biri – Tohir edi. Ular qorong'ida turtina-turtina Shohi Zindaning orqa tomonidagi bahaybat bir o'ngirga yaqinlashdilar. O'ngirning tepasi baland jar. Uning etagida g'or ham bor. Bu vahimali joylarga kunduzlari ham hech kim kelmaydi. Oyoq osti chakalakzor. Qo'rg'onning devori mana shu jar ustidan o'tadi. Shotilarni devor tagiga ko'tarib borguncha, yigitlar qora terga botib ketishdi.

Ularga boshchilik qilayotgan No'yon Ko'kaldosh devor tepasiga tikilib, birpas kutdi. Terak bo'yi keladigan g'ishtin devor juda enli bo'lib, uning tepasidan bir necha kishi bemalol yurib o'tishi mumkin edi. Biroq tepada hech bir sharpa sezilmas, qorovullar sovqotib pastga tushib ketganga o'xshardi.

Shotilarni sekin tikladilar, uchini devor qirrasiga tirab qo'ydilar.

– Qani, chiqinglar! – shivirladi No'yon Ko'kaldosh g'uj bo'lib turgan navkarlarga. Ammo o'n uch gaz balandlikdagi devor juda vahimali, undan yiqilgan odam tirik qolmasligi aniq edi.

Ehtimol, qorovullar sezib qolishar-da, chiqayotganlarga tosh otar, o'q yog'dirar? Sal itarib yuborsa ham tamom. Shuni sezgan navkarlarga birinchi bo'lib chiqish juda dahshatli tuyilardi.

---

<sup>1</sup> Chaqardiza – keyinchalik «Shakarjiza» deb aytiladigan bo'lgan.

Oxiri No'yon Ko'kaldosh o'zi shotining poyasiga oyoq qo'ydi-yu:

– Bir o'lim bo'lsa hamma vaqt bor, mardona bo'linglar, qani! – dedi.

Tohir ikkinchi shotidan chiqa boshladi. Shotilar keng, mustahkam qilib ishlangan, har biri olti-yetti kishini bemalol ko'tarar edi.

Yigitlar oldinma-keyin yuqoriga chiqar ekanlar, No'yon hammadan oldin devor tepasiga yetdi. Devorning usti yo'lkaday keng, otliq yursa ham bo'ladigan. Yaqin orada hech kim yo'q. Tohir ham chiqib, o'zini devor kungurasining panasiga oldi va pastdan chiqqan navkarni qo'lidan tortib shivirladi:

– Bolta qani?

– Mana.

Ikkinchi navkar beliga qistirilgan boltani Tohirga olib berdi.

– Shinakka bekin! – shivirladi No'yon kimgadir.

Kungura va shinaklar bo'lmasa, devor ustidagi odamning qorasi pastdan ko'rinib qolishi mumkin edi. Shuning uchun pastdan chiqqan navkarlar shinaklarga bekinib turdilar. Hamma chiqib bo'lgandan keyin, sekin-sekin yurib, engashib, devor usti bilan Feruza darvozasi tomonga bora boshladilar.

Devorning ma'lum bir joylarida qorovulxonalar bor edi. Bir qorovulxonaga yaqin kelganlarida ichkaridan kimdir naymancha talaffuz bilan uyqu aralash:

– Irisbay, keldingma? – deb so'radi.

Devor ustidan kelayotganlar taqqa to'xtashdi. Tohir qo'lidagi boltaning sopini ikki qo'llab qisdi-yu:

– Ha, – dedi.

Ammo ichkaridagi qorovul uning ovozini tanimay hadiksiradi shekilli, uyquasi birdan o'chib:

– Kimsan? – dedi.

No'yon Ko'kaldosh qorovulxonaga qarab otildi. Qorovul ichkaridan shoshib chiqayotganda ko'kragiga

g'archillatib xanjar sanchdi. Qorovul jon achchig'ida chinqirib yubordi. Pastdagi qorovullar ham uyg'onib ketdi.

– Tohir, to'xtamasdan darvozaga yugur! – dedi No'yon Ko'kaldosh. U yigitlarning besh-o'ntasini pastda uyg'ongan qorovullarni bir yoqli qilish uchun qoldirdi-yu, o'zi boshqa navkarlarni ergashtirib, Feruza darvozasiga tomon yugurib ketdi.

Shayboniyxon bu darvozani qo'riqlashni Fozil Tarxon bilan uning yuz ellik yigitiga topshirgan edi. Hozir bu yigitlarning ko'pchiligi uy-uyiga tarqab ketgan, darvoza qorovulxonasida yigirmatacha odam uxlab yotar edi. Ular to uyg'onib, qurol-yarog'larini qo'llariga olgunlaricha bolta ko'targan Tohir darvoza qulfiga yaqinlashdi. Otning kallasiday keladigan qulf bir-ikki zarbani pisand qilmadi. Uyi bu yerga yaqin bo'lgan Fozil Tarxon mash'ala ko'targan yigitlari bilan darvozaxonaga yetib keldi. Ularning biri darvoza qulfiga bolta urayotgan Tohirga qarab, nayza otdi. Nayza Tohirning dubulg'asiga yonlama tegib sirg'alib o'tdi-yu, darvoza yog'ochiga qadaldi. Darvozaxonada nayzabozlik va qilichbozlik boshlandi. No'yon Ko'kaldosh boshliq yigitlar ko'pchilik edi. Fozil Tarxon bo'ynidan qilich yeb, otdan yiqilib tushdi.

Tohir boltani ikki qo'llab ko'tarib, goh qulfga, goh darvoza zanjirining zulfiga urar, temirdan uchqun sachrar, ammo zo'r qulf «qilt» etmas edi. Nihoyat, zulfin sindi-yu, zanjir sharaqlab tushdi.

Qo'rg'on atrofida suv to'ldirib qo'yilgan enli choh bor edi. Chohdan darvozaga o'tiladigan ko'prik ham maxsus zanjir bilan darvoza tomonga ko'tarib qo'yilgan edi. Tohir darvozani ochayotganda, yigitlardan biri ko'prikning zanjirini ham bo'shatdi. Bobur va Qosimbeklar ichkaridagi olishuv shovqinini eshitib, choh labiga kelib turgan edilar. Darvoza ochilib, ko'prik tushishi bilan ular ichkariga ot qo'yib,

qilich yalang'ochlab kirdilar. Fozil Tarxonning tirik qolgan navkarlari shahar ichiga qarab qochdilar. Qosimbek boshliq otliqlar ularni quvib ketdi. No'yon Ko'kaldoshga otini keltirib berdilar. Tohir ham, boshqa piyodalar ham yana otlandilar. Bobur navkarlarning bir qismini No'yon Ko'kaldosh bilan birga Chorraha darvozasini egallashga yubordi. O'zi qolgan navkarlar bilan So'zangaron darvozasiga qarab ot choptirib ketdi. Agar darvozalar tezroq egallanmasa, tashqaridan Shayboniyxon butun qo'shini bilan kirib kelishi mumkin edi. Feruza darvozasi oldidan boshlangan jang shovqini birpasda butun shaharni qamrab oldi. Shahar dorug'asi Jonvafo Shayxzoda darvozasi tomonda - Xo'ja Yahyodan tortib olingan hashamatli hovlida uxlab yotgan edi. To'polondan cho'chib uyg'onib, bor navkarlari bilan hovlidan otlanib chiqqunicha, Qosimbekning yigitlari Fozil Tarxonning odamlarini quvib keldi. Chorraha darvozasidan quvilgan Ko'pakbiyning navkarlari ham dorug'a yotgan joyga qochib kelmoqda edilar. Qorong'ida yov qaysiyu o'zining odamlari qaysi, dorug'a ajratolmay qoldi. Uning ko'ziga hamma chopib kelayotgan yov bo'lib ko'rindi. Nazarida, Samarqandga bir necha ming kishilik yov bostirib kirganga o'xshadi.

Dorug'a: «Behisob yovga bas kelolmayman», deb o'ylab, otini Shayxzoda darvozasi tomonga burdi. Boburning odamlari hali bu darvozaga yetib kelmagan edilar. Dorug'a o'z navkarlariga buyurib, darvozani ochtirdi-yu, yuztacha odami bilan xon qarorgohiga tomon ot choptirib ketdi. Sahar palla mast uyqudan qo'rqib uyg'ongan ko'pchilik samarqandliklar xon navkarlarini Boburning odamlari quvib yurganini tong yorishganda fahmladilar, Shayboniyxondan norozi kishilar juda ko'p edi. Kosiblar talangan, dehqonlarning ekinlarini ko'chmanchi qo'shinining behisob mollari toptab tashlagan. Haj yo'lida ikki begunoh o'g'li bilan

vahshiylarcha o'ldirilgan Xo'ja Yahyoning tarafdorlari qotillardan qasd olish uchun kosib va dehqonlarni qo'zg'atdilar. Hokimiyat o'zgargandan keyin amalidan ajralgan ilgari amaldorlar:

«Shayboniyxonning odamlari Sulton Ali mirzoni ham nomardlarcha o'ldirdilar», deb xun talab qilib chiqdilar. Boburning ikki yuz-u qirq kishisi yoniga besh-olti ming kishilik qasoskor olomon qo'shildi. Selday dahshatli olomon xonning odamlarini yashiringan joylaridan topib chiqar, ko'chada qochib borayotganlarning oldini to'sib qurshab olar, pichoqmi, boltami, tayoqmi, toshmi, g'ishtmi, qo'llariga nimaiki tushsa, hammasi bilan zolimlarni ura-ura o'ldirib, yanchib tashlardi. Olomon orasida avvalgi mirzalar va beklardan jabr ko'rgan odamlar ham ko'p edi, ular besh-o'n yil oldingi qasoslarini ham endi mana bu zolimlardan olmoqda edilar.

Kun chiqayotganda shahar tashqarisida bir qism qo'shini bilan Shayboniyxon paydo bo'ldi, ammo suv to'la chohdan beriga o'tolmadi. Barcha darvozalar Boburning odamlari tomonidan bekitib olingan, chohlarning ko'priklari ko'tarilgan, ichkarida intiqom davom etmoqda edi.

## 5

Tohir kechasi bilan uxlamay yugurib-yelib yurgan bo'lsa ham g'alabaning shodligidan charchaganini sezmas, faqat qorni ochqab, Samarqandning novvoylik va oshpazlik rastalari dam-badam esiga tushar edi. Ertalab hamma darvozalarga qorovullar tayin bo'lgandan keyin Qosimbek Tohirga javob berdi. Tohir otiga minib, yana ikkita otliq o'rtog'i bilan novvoylik rastasiga keldi. Bu yerda ham bir necha yuz kishilik izdihom besh-oltita xon navkarlarini o'rab olib, toshbo'ron qilmoqda edi. Navkarlarning ba'zilari

yiqilib, tosh-kesaklar ostida jon bergan, bir-ikkitasi qo'li bilan yuzini to'sib dod solar, ingrar edi. Yalang boshidan qon oqayotgan, yirtilgan ko'ylagi orasidan momataloq badani ko'rinib turgan, o'zi cho'kka tushib, odamlardan shafqat so'rayotgan yigirma yoshlardagi yigitga Tohirning rahmi keldi. U olomon orasiga ot solib:

– Xaloyiq, Bobur mirzo farmon berdilar! – deb qichqirdi. – Taslim bo'lganlarni asir olmoq kerak! Bular ham musulmon! Xaloyiq, bas qiling! Biz ham navkarmiz! Navkar aybdor bo'lmasligi mumkin! Hamma ayb bularning xonlarida! Xaloyiq, to'xtang! Bobur mirzoning farmonini bajaring!

Odamlar Boburning nomini eshitib, otliq yigitning gapiga quloq sola boshladilar. Shunda narigi ikki otliq ham olomon orasiga yorib kirdi. Uchovlashib, toshbo'ronni to'xtatdilar.

Tohir bu yerga nega kelganini ham unutdi. Chala tirik yigitlardan uchtasining qo'lini orqasiga bog'latib, asir qilib, olib ketmoqchi bo'ldi.

Shunda olomon orasida turgan sarg'ish mo'ylovli, baland bo'yli bir kishi:

– To'xta, yigit, sen... Tohir emasmiding? – deb qoldi.

Tohir yo'g'on so'yil ko'tarib olgan bu odamga tikilib qaradi-yu, bundan uch yil oldin mana shu ko'chada ochlarga non ulashgan paytini esladi.

– Mamat og'a! Siz nega so'yil ko'tarib yuribsiz? O'zingiz ham o'zbek urug'idan emasmisiz?

– E, uka, bular o'zbekka ko'p jamanliq qildi. Mening bechora xotim shularning dastidan o'lib ketdi!

Mamatning ko'zlarida yosh yiltiradi. Tohir bu odam bilan Robiya haqida gaplashganini esladi-yu, unutilgan alamlari birdan yangilandi. U asirlarni narigi ikki sherigiga haydatib yuborgach, o'zi otini yetaklab, Mamatni chetga boshlab chiqdi.

– Mamat og'a, men tayinlab ketgan gap esingizdami?



– Qaysi?.. Ha, ha... Aytmoqchi, bechora xotinim tirikligida bir gap eshitib kelgan ekan... Siz aytgan qiz andijonlikmidi?

– Quvalik.

– Bilmadim, ishqilib, o'sha tomondan obqochib kelishgan ekan. Keyin turkistonlik bir savdogar tarxon sotib olib ketgan ekan.

– Turkistongami?

– Ha, keyin shu tarxon Shayboniyxon bilan birga Samarqandga ko'chib kelipti.

– Qiz bilanmi? Qiz tirikmi, yo'qmi?

– Tirik!

Tohir Mamatning so'yil tutgan qo'llaridan mahkam ushladi-yu, shoshilib so'radi.

– Oti Robiyami, a, Robiyami?

– Rahmatlik xotinim otini bilmas edi.

– O'zini ko'riptimi? Qaerda ko'ripti?

– Fozil tarxonning uyida.

– Qaysi Fozil tarxon?

– Bugun kechasi uni o'zlaring o'ldiribsizlar-ku?

– Uyi qayerda, uyi?

– Juring, men ko'rsatib qo'yayin!

Tohir bir sakrab, otiga mindi-yu, Mamatni orqasiga mingashtirdi. Mamat so'yilini tashladi, Tohirning qo'ltig'i tagidan ushlab, uni qing'ir-qiyshiq ko'chalardan boshlab bora boshladi. Otini yo'rttirib borayotgan Tohir: «Ilohim noumid qilmagin-da, Parvardigor! – derdi ichida. – Ilohim Robiya bo'lsin-da!» U olti yildan beri Robiyani qidira-qidira, axiri, endi topilmaydi, degan fikrga kelgan va bu fikrga ko'nika boshlagan edi. Hozir chaqmoqday chaqnagan umid uning vajohatiga momaqaldiroq larzasini solyapti. Bu umidning chaqinday tez so'nishi mumkinligi yuragini taka-puka qilardi, a'zoyi badanini zir titratardi.

– Ana o'sha uy! – deb Mamat orqasida katta bog'i bor ikki qavatlik g'ishtin imoratni ko'rsatdi.

Darvoza lang ochiq, qurolli yigitlar ichkaridan jimjimali sandiqlar va cho'g'day gilamlar ko'tarib chiqmoqda edilar. Yaqinroq borib, Tohir Qosimbekning navkarlarini tanidi. Ularga katta savdogar boy va Shayboniyxonning yaqin kishisi Fozil Tarxonning mol-mulkini musodara qilish topshirilgan edi.

Tohir darvoza oldida otdan tushdi-yu, tanish navkarlarning hayhaylashlariga e'tibor bermay, to'g'ri ichkari hovliga yo'naldi. Ravonda Fozil Tarxonning qonga belangan murdasi yotipti. Yuqorigi qavatdan ayollarning yig'i-sig'isi eshitildi. Fozil Tarxonning xotinalari erlari uchun aza ochgan, ba'zilar boylik to'la sandiqlardan ajralayotganlari uchun ham dodlashar, ba'zilar esa yovdan qo'rqib yig'lashar edi.

Tohir pastki qavatdagi ochiq eshiklarga bosh tiqib qaradi. Hech kim yo'q. Faqat ayollarning kiyimlariyu bezaklari turibdi. Bu tarxonning nechta xotini bo'lganikin? Robiya shunga tushgan bo'lsa, uni ham xotin qilib olganmikin? Tohirning xayoliga to'satdan kelgan bu fikr qalbini o'rtab o'tdi. U ayvondan pastga sakrab tushib, hovlining o'rtasiga keldi-yu, yuqorida yig'layotgan ayollarga qarata qichqirdi:

– Hey, Robiya bormi? Robi-ya! Quvalik Robiya shu yerda bormi?

Xotinalarning yig'isi birdan tindi. Yuqoridagi qavatning ayvonidan yashil durrali bir juvonning boshi ko'rindi. Uning qosh-ko'zi Robiyanikiga o'xshardi. Tohir yuqoriga talpinib, qaltirab:

– Robiya! – dedi. – Robiya!

Yashil durrali juvon uni ko'rdi-yu, o'zini orqaga oldi, so'ng yana ayvon chetiga chopib keldi. Tohir endi uning baxmal nimchasini, bo'ynidagi marjonlarini ham ko'rdi. Juvonga yigitning tovushi tanish tuyilar, ammo qilich va xanjar taqqan, yuzida katta chandig'i bor, soqol-mo'ylovi o'siq bahaybat navkar uning vahmini keltirardi. Juvon aldanishdan qo'rqib, yana orqaga

qochdi. Tohir yuqorigi qavatga qarab chopdi, ammo sarosima bo'lganidan, ayvon chetidagi zinapoyani topolmadi. Negadir o'pkasi to'lib, ko'ziga yosh keldi:

– Robiya, men Tohirmen! Tohir!

Yuqoridan juvonning chinqirig'i eshitildi:

– Tohir og'a!

So'ng yashil durrali juvon chochpopugini shildiratib, zinapoyadan o'zi chopib tusha boshladi. Yuz-ko'zi Robiyaniki, ammo marjonlari, kiyimlari, yana nimasidir begona. Tohir uni ko'rib, joyida qotib qoldi. Robiya ham zinapoya oldida to'xtadi, ko'zlarini chaqchaytirib, qo'rquv aralash shivirladi:

– Siz Tohir og'amning arvohisiz!

Robiya Tohirni o'sha nayza zarbidan o'lib ketgan deb o'ylar, uning arvohiga bag'ishlab, duolar o'qir edi. «Endi tirik ko'rmaymen, arvohini ko'rsam ham rozi edim», deb Xudodan astoydil so'ragan paytlari ko'p bo'lur edi. Uning shu iltimosiga farishtalar omin degan ekanmi?

– Arvohingiz ham jonimdan aziz, Tohir og'a!

– Men tirikmen, Robiya! Seni olti yildan beri izlab yuribmen!

– Tiriksiz?! – deb, Robiya Tohirga yaqin keldi. Uning chakmonini, qilichini, qo'llarini bir-bir ushlab ko'rdi. Tohir uni yelkasidan quchib, bag'riga bosgan edi, Robiya uning arvoh emasligiga endi ishonib, yig'lab yubordi: – Tirik! Tirik! Xudoga shukr, tirik!

Tohir uning sariq atlas ko'ylagi ustidan yelkasini silab:

– Robiyam, jonim! – dedi. – Xayriyat, o'zing ham tirik ekansen! Men seni olti yil izladim, qayerlarda yurding? Nima bo'ldi?

Robiya Fozil Tarxonning yettinchi xotini bo'lib o'tkazgan yillarini esladi-yu, birdan orqaga siltanib, Tohirning qo'llaridan yulqinib chiqdi:

– Meni quchmang, Tohir og‘a! Men sizga munosib emasmen!

Robiya alamli ko‘zlari bilan ayvonda yotgan o‘likka qarab qo‘ydi. Fozil Tarxon uni o‘sha bosqinchilardan bir hamyon oltinga sotib olgan edi. Robiya ellikdan oshgan bu choldan hazar qilar edi. Fozil Tarxon Turkistonning Yassi shahrida uni nikohlab olgandan keyin besh-o‘n kun turar-turmas, savdo ishi bilan Buxoroga jo‘nadi, u yerdan boshqa bir ko‘hlik qizni olib, keyin o‘sha bilan bo‘lib ketdi. Robiya olti yildan beri uning haramida bevaday yashaydi. Lekin buni endi Tohirga qanday tushuntiradi? Tohirga fotiha qilingan Robiya keyin birovga xotin bo‘lgan, buning dog‘ini qanday yuvish mumkin?

Robiya yuzini qo‘llari bilan to‘sisib, yum-yum yig‘lay boshladi. Uning bo‘ynidagi marjonlari, sochiga taqilgan chiroyli kumush chochpopuklari, egnidagi atlas ko‘ylagi – hammasi o‘sha boy savdogarning puliga kelgan. Tohir shuni o‘yladi-yu, uning nazarida, Robiya o‘lgan eriga kuyunib yig‘layotganday ko‘rindi.

– Robiya, rostini ayt, sen eringga... sodiqmisen?!

– Meni pulga sotdilar! Zo‘rlab nikohladilar!

– Bo‘lmasa nechun muncha kuyunib yig‘laysen!

– Men sizga vafo qilolmaganingam kuyunamen! Sizni unutganim yo‘q edi, Tohirjon og‘a! Mana, tepamiz-da Xudo turipti! Bu savdogar sizning tirnog‘ingizga ham arzimasi edi! Lekin meni unga qul qilib berdilar.

Tohir tishini tishiga bosib so‘radi:

– Bolang bormi?

Robiya yig‘i aralash bosh chayqadi:

– Men nomiga xotin edim... Aslida beva...

Bir vaqtlar gulday qiz bo‘lgan Robiyaning o‘zini «xotin», «beva», deb atashi Tohirning borlig‘ini qaqshatib yubordi. Robiyaday qizga olti yildan beri «it tegmay» yurishi mumkin emasligini u ilgari ham

xayolida ko'p o'tkazardi. «Faqat tirik topsam bas!» deb qidirardi.

Biroq Robiyani topgani bilan yoshlikdagi beg'ubor, sodda baxti endi abadiy topilmasligini u ilgari bilmas edi. Badandagi og'ir jarohat tuzalganda ham chandig'i umrbod qolganiday, boshlariga tushgan savdoning dahshatli izi ko'ngillaridan osonlikcha ketmasligini Tohir endi sezmoqda edi. Robiya ham abadiy yo'qolgan beg'ubor yoshligiga kuyunib, yig'lamoqda edi.

– Robiya, bas! Omon qolganimizga shukr qil, qani, yur!

Tohir Robiyaning bilagidan olib, tashqariga boshladi. Qiz yig'idan to'xtab:

– Qayoqqa? – dedi.

– Sen hali ham mening qallig'im sen. Yur, tezroq!

– Axir men... men narsalarimni olay!

– Hech narsa olmaysen. Hammasini unut. Ikkinchi yodimga solma!

Tashqi hovliga chiqqanlarida, Robiya yuk tashiyotgan navkarlarni ko'rdi-yu:

– Ko'chada... uyalamen! – dedi. – Yopinchig'im yo'q.

Tohir chakmonini echib berdi. Robiya tovoniga tushadigan uzun simobi chakmonni boshiga yopindi-yu, Tohirning otiga mingashib, chiqib ketdi.

Keyin Tohir Qosimbekka arz qilib, Faqih Abullays mahallasidan Shayboniyxonning odamlari tashlab ketgan durustgina bir hovlini oldi. Robiyaning iddasi o'tgach, mahalla imomi uni Tohirga nikohlab berdi.

## 6

Kechasi yoqqan qalin qor har bir tomni, devorni, har bir daraxt va gumbazni mayin oq hoshiya bilan bezab chiqqan.

Bobur Bo'stonsaroyning yuqorigi qavatidan shaharga qarab turibdi. Toza qor orasidan jimjima bo'lib

ko'rinayotgan daraxt shoxlari hozir uning nazarida xuddi oq qog'ozga bitilgan nasta'liq xatiga o'xshab ketadi. Bugun Hirotdan, Alisher Navoiydan kelgan xat ham nasta'liq<sup>1</sup> bilan yozilgani esiga tushdi-yu, qalbidagi quvonch va faxr tuyg'usi yangi bir kuch bilan mavjlana boshladi.

Bobur Samarqandni Shayboniyxondan tortib olgandan beri uning jasoratiga tan berib, she'r yozganlar, satrlardan abjad hisobi bilan g'alabaning aniq sanasini chiqargan tarixnavislar ko'p edi. Alisher Navoiydan Boburga kelgan tabrik esa hammasining gultoji bo'ldi. Hirot Samarqanddan qanchalik uzoq, Navoiyning diqqat-e'tiborini band qiladigan mashhur odamlar-u muhim ishlar qanchalik ko'p! Shunga qaramay, Navoiy Boburni ham bilar ekan, uning taqdiriga uzoqdan qiziqib qarar ekan, Samarqandni avval bir marta olganidan xabardor ekan. «Bu dafa Samarqandni o'z nomingizga munosib hamla bilan olmishsiz», debdi.

Boburning o'tgan dafa Samarqandni yetti oy qamal qilganda, shahar xalqi ochlikdan nechog'liq azob tortganini Navoiy ham eshitgan bo'lsa kerak. Bunday qamallarni u Boburga munosib ko'rmagani uchun shunday deb yozganmikin?

Bobur qimmatbaho javonlariga kitoblar terib qo'yilgan xonayi xosning to'riga o'tdi. Xushbo'y sandal daraxtidan ishlangan miz ustida Navoiydan kelgan oltin bog'ichli xat turipti. Bobur miz oldiga to'shalgan zarbof ko'rpachaga o'ltirib, xatni boshqatdan o'qishga tushdi. Har bir satr turkiy tilning go'zal jilvalari bilan to'lgan. Bobur birinchi o'qishda uncha e'tibor bermay o'tkazib yuborgan bir necha jumlagi bu gal qayta-qayta tikildi. Navoiy Boburning shoirlik

---

<sup>1</sup> Nasta'liq – arab yozuvidagi husnixatning keng tarqalgan bir turi.

orzusi borligini andijonlik bir me'mordan eshitib, uni dadilroq yozishga undagan edi. Bu me'mor mavlono Fazliddin bo'lsa kerak. Agar mavlono Hirotga yetib borib, Navoiyning huzuriga kirgan bo'lsa, boshqa ko'p narsalarni ham aytib bergan bo'lishi kerak. Bobur Navoiyga yo'llamoqchi bo'lgan javob maktubiga yaxshi bir she'rini ham qo'shib yubormoqchi bo'ldi-yu, mashqlari yozilgan qalin daftarni olib varaqlay boshladi. Ko'pchiligi yo'lda, ot ustida xayoliga kelgan, jang-u jadallar orasida daftarga uzuq-yuluq yozib qo'yilgan, ammo hali tugallanmagan she'rlar. Xiyonat ustiga xiyonat bo'lgan, Bobur xonumonidan ayrilgan, atrofida bironta sirdosh do'st topolmay o'zini nihoyatda yolg'iz sezgan og'ir kunlarda bir g'azal boshlagan edi:

*«Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,  
Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim».*

Ammo bu g'azal chala yotipti. Balki shuni bitirib yuborish kerakdir? Alisher Navoiy ham atrofidagi kishilardan ko'p bevafoqlik ko'rganini, hatto yaqin do'sti Husayn Boyqaro ham uning sir-u asroriga mahram bo'lolmayotganini Bobur ishonchli bir odamdan eshitgan edi. Qani endi Bobur Navoiyning ko'nglidagini ham topib aytolsa!

Bu g'azal Navoiyga yoqishi mumkin. Uni tezroq tugallash kerak. Bobur qog'oz-qalam oldi.

Shu payt savdarboshi eshikdan hovliqib kirib, ta'zim qildi:

- Mirzo hazratlari, qulingizni ma'zur tuting.
- Xo'sh? - dedi Bobur norozi bo'lib.
- Xonim hazratlari qabulingizga muntazirlar.
- Onammilar? - deb Bobur sakrab o'rnidan turdi.
- Keldilarmi?

– Begimlar ham keldilar!  
– Voajab! – deb Bobur quvonib, eshikka tomon shoshildi.

\* \* \*

Ular salkam olti oydan beri ko‘rishmagan edilar. Qutlug‘ Nigor xonim Oyisha begim va Xonzoda begimlar bilan O‘ratepada qolgan edilar. Keyin Samarqanddan Bobur yuborgan ishonchli odamlar ularni O‘ratepadan bu yerga ko‘chirtirib keldilar.

Bobur ular bilan Bo‘stonsaroyning birinchi qavatidagi katta tanobiy uyda ko‘rishdi. Onasi uni bag‘riga bosganda, Bobur onasining ozib, qo‘llari yengillashib qolganini sezdi. Opasi Xonzoda begim esa sovuqdan kirgani uchunmi, yuzlari cho‘g‘day yonib, ko‘zlari chaqnab turipti. Uzoq yo‘l uni hech qancha qiynamagandek quvnoq. Avvalgidan ham chiroyli. Bobur unga o‘ng yelkasini tutib so‘rashar ekan:

– Nechun bu qadar hayal qildilaring? – dedi. – Necha haftadan buyon muntazirmiz!

– E, so‘ramang, amirzodam, uzrli sabablarimiz bor, – deb Xonzoda begim Oyisha begimga ko‘z tashlab qo‘ydi.

Bir vaqtlar Oyisha begimni ko‘rmasdan sevib yurgan paytlarida uning oyog‘iga bosh qo‘ygisi kelib g‘azal yozganlari endi Boburga ta‘biri xato chiqqan bir tushday tuyilardi... U Oyisha begimni oylar davomida ko‘rmasa ham sog‘inmasdi... Shunday bo‘lsa ham u Oyisha begimga iloji boricha yaxshi muomala qilar edi. Hozir ham kichik jussali qotma kelinchakka yaqinlashib:

– Xush ko‘rdik, begim! – dedi-da, unga o‘ng yelkasini tutdi.

Oyisha begim ozg‘in qo‘lini uning yelkasiga qo‘yib ko‘rishar ekan:



– Hazratim, g‘alabangiz muborak! – dedi.

Hamma Boburni «amirzodam», desa Oyisha begim uni yana ham ulug‘lab, «hazratim», derdi.

– Sizga ona shahringiz muborak, begim!

– Qulluq, – deb Oyisha begim ta‘zimga bosh egdi.

– Kelinimiz yo‘lda ko‘p azob tortdilar, – dedi Xonzoda begim.

Bobur xotining beli yo‘g‘onlashib, qorni do‘ppayib qolganini ko‘rdi. Ajabo, Bobur ota bo‘ladiganmi? Ko‘rishmaganlariga olti oy bo‘ldi. Demak, kamida olti oylik...

Oyisha begimning ozg‘in yuzida homilador xotinlarda bo‘ladigan dog‘lar paydo bo‘lgan edi. Ilgari ham otda yurolmaydigan, mahofada boshi aylanadigan begim endi og‘rioyoqligida qanchalik qiynalganini, unga qarab qanchalik sekin yo‘l bosganlarini Bobur o‘zicha tasavvur etdi.

– Xudo xohlasa, endi barcha mashaqqatlardan xalos bo‘ldilaringiz, – dedi. – Hammalaringiz uchun maxsus joylar-u jihozlar tayyorlanmishdir. Yana neki darkor bo‘lsa buyurursiz. Bo‘stonsaroyda kimki bor, hammamiz xizmatlaringizda bo‘lurmiz!

Xonzoda begim quvnoq kulib:

– Minnatdormiz! – dedi. – Amirzodam bilan diydor ko‘rishib, boshimiz osmonga yetdi. Endi shu osmonda suhbatingizdan bahramand qilsangiz bas.

– Kamina ham suhbatlaringizni sog‘inganmen. Sizlar joylashgunlaringizcha osmonda dasturxon hozirlanur, – deb, Bobur qo‘li bilan yuqorigi qavatga ishora qildi.

Uning osmonni payrov qilib hazillashganidan hammalari kulib oldilar.

Bobur yuqorigi qavatga chiqar ekan, qalbini to‘ldirgan shodliklar orasida surnay navosidek jarangli va yoqimli bir tuyg‘u yangrab eshitilayotganini sezdi. Bu uning dilida birdan uyg‘onib ketgan otalik tuyg‘usi

edi. Uning bo'lajak farzandini bag'rida ko'tarib yurgan Oyisha begim yuzidagi qo'ng'ir dog'lari bilan Boburga avvalgidan qadrondroq tuyilardi. Buni sezgan Oyisha begim avvalgidan dadilroq muomala qilar edi. Er-xotin xobgohda chiroqni o'chirib yotganlarida, begim ko'rpani yuziga tortib:

– Men faxrlanamen, – deb shivirladi.

Bobur o'z so'zining ustidan chiqqanligi uchun, «endi Samarqandda uchrashamiz», deb ketib, axiri shu aytganini qilgani uchun xotini undan iftixor qilmoqda edi.

U Boburning bo'lajak farzandiga ona bo'lish bilan faxrlanishini ham aytmoqchi edi. Bobur buni tushundi-yu, homilaning necha oylik bo'lganini bilgisi keldi, ammo ro'yi-rost so'rashga tili bormay, gapni aylantirdi:

– Endi... shodiyonasi qachon?

– Salkam uch oy bor. O'ylasam, vahmim kelur.

– Vahmni qo'ya turing. Hozir faxrdan gap ochdingiz-ku.

– Ha, agar Xudo o'g'il bersa, ismini Faxriddin qo'yurmizmi?

Oyisha begim Boburning nomi Zahiriddin ekanini o'ylab, shunga ohangdosh nom topgan edi.

Bobur mamnun tovush bilan:

– Xo'p, o'g'il bo'lsa, Faxriddin, – dedi. – Agar qiz bo'lsa, Faxrinisomi?

Oyisha begim qiz bo'lishini istamas edi, chunki o'g'il tug'ib, taxt vorisiga ona bo'lishni orzu qilardi. Shunday bo'lsa ham Boburga:

– Mayli, – dedi. – Lekin men Xudodan o'g'il tilaganmen.

– Aytganingiz kelsin!

Faxriddin... Faxriniso... Shu kunlarda Boburning ko'nglini to'ldirib-toshirgan iftixor tuyg'usiga bu nomlar juda mos edi.

\* \* \*

Omad ham bir kelsa, qo'sha-qo'sha bo'lib kelishini Bobur endi bilmoqda edi. Samarqand uning qo'liga o'tgandan keyin bu yog'i Urgut, u yog'i Sug'd va Dabusiya qal'asi birin-ketin Shayboniyxonning ixtiyoridan chiqib, Boburning hokimiyatini tan oldi. Mana bugun Qarshi va G'uzordan xushxabar keldi – bu shaharlar Shayboniyxon qo'yg'an dorug'alarni quvibdi. Boburga sovg'a-salomlar yuborib, uning ixtiyoriga bir necha yuz navkar ham yo'labdi. Bobur bu navkarlarni boshlab kelgan beklarni devoni xosda qabul qilib, hammasiga sarpo kiydirdi va ulufa tayinladi.

So'ng kecha tamomlanmay qolgan maktubining davomini yozish uchun ikkinchi qavatga ko'tarilar ekan, keng marmar zinapoyada opasi Xonzoda begimga duch keldi.

– Amirzodam, Hirotdan kitobat kelgani rostmi?

Bobur to'xtab, opasining yuziga sinovchan ko'z bilan qaradi-yu:

– Rost, hazrat Alisherbekdan, – dedi.

– Muborak bo'lsin!

– Qulluq.

Xonzoda begim inisidan yana qandaydir murakkab bir xabar kutib, uning yuziga termilib qaradi. Bobur opasining ko'nglidagi dardni sezib, bir lahza taraddudlandi. So'ng rost gapni yashirsa, yolg'on gapirganday bo'lishini o'yladi-yu:

– Yuring: kitobatni ko'rsatay, – dedi.

Xonzoda begim xonayi xosda Boburning qarshisida o'tirib, Alisher Navoiyning maktubini o'qir ekan, andijonlik me'mor tilga olingan joyiga yetganda, ko'zida yosh yiltiradi.

– Nechun ko'zingiz yoshlandi, begim? Men sizni suyuntirmoqchi edim-ku!

– Qandoq qilay, toleyim past ekan.  
– Iningiz podshoh bo'la turib, nahotki sizga yordam berolmasa?

– Siz hali ham meni deb ko'p jafo chekdingiz. Agar o'sha yili... O'shda men rozi bo'lsam, ehtimol keyin Ahmad Tanbal sizga buncha yog'iylik qilmas edi.

Opasining bunchalik tantilik bilan aytgan so'zlari go'yo Boburni yana tanti bo'lishga undar edi. Ko'ngli yaxshi tuyg'ularga to'lib yurgan shu kunlarda nahotki tug'ishgan egachisiga katta bir yaxshilik qilolmasa?

Mana, hozir ular Samarqandning muhtasham bir koshonasiga ko'chib kelishdi. Bu yerda qancha asilzoda-yu shahzodalar yashagan. Ammo ko'pchiligi iz qoldirmay ketgan. Faqat me'morlar yaratgan go'zalliklar hali ham ko'rgan ko'zni quvontirib, yal-yal yonib turibdi. Yaxshi bir me'mor – hunarsiz asilzodaning yuztasidan afzal emasmi?

– Begim, siz Tanbalning yog'iyliigi uchun xijolat chekmang. Ilon baribir ilonligini qilur edi.

– Minnatdormen, amirzodam.

– Hazrati Alisherbek ham bizdan ulug' ishlar kutib kitobat yubormishlar. Nasib qilsa, biz ham umrboqiy obidalar qururmiz, hunarpehalar yana yig'ilib kelurlar. Men bu muborak kitobatning javobini maxsus elchidan berib yuborurmen. Agar Hirotga borgan o'sha andijonlik me'mor – mavlono Fazliddin bo'lsalar, elchi topib, Samarqandga taklif qilur.

Xonzoda begimning hali yoshi qurimagan ko'zlarida endi shodlik uchqunladi. U inisiga zavq bilan tikilib shivirladi:

– Siz Movarounnahr osmonida bizning yagona umid yulduzimizsiz!

– Endi Parvardigor Shayboniyxonni tezroq daf qilsin-u yurt tinchisin, deng. O'shanda nafasni rostlab, O'shda qilgan orzularimizning ijrosiga kirishurmiz.

Mavlono Fazliddin Andijonda qurmoqchi bo'lgan me'morlik obidalarining tarhlarini, loyihalarini Xonzoda begim onasidan olib, hamon asrab yurar edi. Hozir buni Boburga aytishdan iymandi-yu:

– Amirzodam, men endi kecha-yu kunduz Xudoga iltijo qilurmen – dedi, – ilohim shu orzularimiz ro'yobga chiqsin!

Xonzoda begim ruhi ko'tarilib chiqib ketganidan keyin Bobur sandiqchadan she'r daftarini oldi-yu, kechagi mashqini davom ettirmoqchi bo'ldi. Daftardagi bir matla' uning hozirgi ruhiga mosroq edi:

*«Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir,  
Har kimki jaf o qilsa, jaf o topqusidir...»*

Alisher Navoiyga shu she'rni bitirib yuborsa yaxshiroq bo'larmidi? U yana bir satr yozdi, o'ziga yoqmagandan keyin o'chirib, yana yozdi, yana o'chirdi, nihoyat uchinchi urinishda:

*«Yaxshi kishi ko'r magay yomonliq hargiz»*

degan satrni topdi-yu, uni ich-ichidan yoqtirib, ilhom hayajonidan nafasida titroq paydo bo'ldi. Nazarida, Navoiy uning yelkasi osha bu yangi satrni o'qiyotgandek edi. U odamlarga Navoiydek ko'p yaxshilik qilgan siymoning hech qachon yomonlik ko'rmasligini istar, endi shu istagini she'riga ham singdirmoqchi bo'lardi.

Bobur to'rtinchi satrni boshlaganda, savdarboshi eshikdan bosh egib, qo'rqa-pisa:

– Mirzo hazratlari, – dedi.

– Meni tinch qo'ying demabmidim?

– Qulingizni afv eting...

– Yana ne tashvish?

– Amirzodam buyurgan edilar. Agar mulla Binoiyni keltirsalar, darhol xabar bering, degan edingiz.

– Shoir Binoiy Shahrisabzdan kelibdirmi?

– Qosimbek janoblari keltirmishlar.

Bobur bu xabarni eshitdi-yu, yozishdan to‘xtab, qalamni miz chetiga qo‘ydi. Pastdagi qabulxonaga tushib borayotganda, Binoiyning taqdiriga oid murakkab voqealar xayolidan takror o‘ta boshladi.

\* \* \*

Bobur hirotlik mashhur shoir Kamoliddin Binoiy bilan bundan uch yil oldin Samarqandga birinchi gal kelgan paytlarida tanishgan edi. Binoiyning san’atkor xattotlar tomonidan ko‘chirilgan nodir bir qo‘lyozma kitobi bor ekan. Kitob yig‘ishga havasmand Bobur bu kitobga juda havasi keldi. Binoiy kitobini unga sovg‘a qilmoqchi bo‘ldi. Bobur Binoiyning Samarqandda musofir ekanini, tanqislik tortib qiynalganini bilar edi. Shuning uchun Bobur sahhoflarni chaqirib, bu kitobning eng baland narxi qancha bo‘lishini so‘radi. Sahhoflar «eng baland bahosi besh ming dirham», deyishdi. Bobur bu pulni Binoiyga yuborishga ulgurmay, qattiq betob bo‘lib yotib qolgan edi.

Keyin u kasallikdan turib, Andijonga jo‘nash uchun yo‘l hozirligini ko‘rayotganda, «Majmuati Rashidi» deb ataladigan o‘sha kitobni ko‘rdi-yu, Binoiyga hali haqini bermagani esiga tushdi. Darhol xazinachini chaqirib, besh ming dirham oltinni sanatdi, so‘ng pulni kitobdorga berib, Binoiyga yubortirdi.

Bir vaqt kitobdor Binoiyini topolmay qaytib keldi. Musofir shoirning Samarqandda muqim turadigan uyi yo‘q, u bugun qayoqqadir mehmonga ketgan edi. Boburning odamlari Andijonga tezroq jo‘nash va kuch yig‘ish tashvishi bilan nihoyatda band bo‘lganliklari uchun hozir Binoiyini qidirib yurish ularga juda malol keldi. Lekin Bobur:

– Shu qiyomatlik qarzni uzmaguncha Samarqanddan qo‘zg‘almaymen! – deb turib oldi.

Shundan keyin savdar-u navkarlar shaharning har tarafiga ot choptirishib, nihoyat Binoiyni topdilar, unga bo‘lgan voqeani aytib, besh ming dinor pulini topshirdilar.

Kishi moliga suq podshohlarni ko‘p ko‘rgan Binoiy o‘n olti yoshli Bobur mirzoning bunchalik halolligidan juda qattiq ta’sirlandi-yu, unga atab bir she‘r yozdi. Bu she‘rdan bir nusxasini xattotga ko‘chirtirib, Bobur jo‘nayotganda, unga esdalik qilib berib yubordi. Qirq to‘rt yo‘llik bu she‘rda u Boburni ko‘p maqtagan:

*«Shoh sultoni Zahiriddin Bobur,  
Ki jahon shud zi siti adlash pur!»*

– deb, go‘yo jahon Boburning adolat bobidagi shuhratidan nurga to‘lganini aytgan edi. Bobur, «Jahon qayda-yu, mening shuhratim qayda!» deb, bu satrlardagi mubolag‘adan kulgan bo‘lsa ham, lekin zamonadan ko‘p jabr ko‘rgan Binoiy uchun shu kichik yaxshilik tufayli, ehtimol, butun jahon adolatga to‘lib ko‘ringandir, deb o‘yladi.

Biroq keyinchalik Samarqandga Shayboniyxon xon bo‘ldi va shahar shoirlarini yig‘ib, bir mushoira o‘tkazdi. Bu majlisida Binoiy ham qatnashib, she‘r o‘qidi. Xon uning she‘rini yoqtiradi-yu, Binoiyni o‘ziga mulozim qilib oladi va erishgan g‘alabalarining tarixini yozishni topshiradi. Binoiy «Shayboniynoma» degan asarini endi yoza boshlagan paytda Samarqand yana qaytadan Boburning qo‘liga o‘tadi. Shayboniyxon atrof tumanlardan ham quvilib, Buxoroga qarab chekingan kunlarda Binoiy uning qarorgohidan qochib, Samarqandga keladi. U Bobur bilan uchrashmoqchi bo‘ladi, lekin Qosimbek uni Shayboniyxon tarafdori deb, Boburning huzuriga kiritmay, Shahrisabzga

jo'natib yuboradi. Bobur bu hodisadan yaqinda xabar topib, Qosimbekka:

– Chakki qilibsiz, – dedi. Mulla Binoiy – katta shoir.

O'zi kelgan bo'lsa ruxsat bermoq kerak edi.

Qosimbek vaj ko'rsatdi:

– Katta shoiringiz Shayboniyxonni maqtab she'r yozgan.

Bobur kuldi:

– Bizni maqtab she'r yozganini bilmasmisiz?

Tojidorlar maqto'vni suysalar, shoir ne qilsin!

Qosimbek jiddiy turib, e'tiroz qilmoqda edi:

– Amirzodam, bu odam Shayboniyxonning xufiyasi bo'lishi mumkin.

Bobur o'ylab turib:

– Yo'q, – dedi. – Hirotda Boyqaroday shohga xufiya bo'lmagan kishi Shayboniyxonga xufiya bo'lmas.

– Ammo bu shoir Xo'ja Yahyoning hovlisida turib, uning tuzini ichgan, keyin Xo'ja Yahyoni noinsoflarcha o'ldirtirgan Shayboniyxonga mulozim bo'lgan. Shu yaxshimi?

– Bu yaxshi bo'lmasa, yaxshilik qanday bo'lishini biz ko'rsatmog'imiz kerak. Odam yuboring, mulla Binoiyning Samarqandga beshikast olib kelsinlar.

So'nggi so'z farmoyish tarzida aytilgani uchun Qosimbek uni bajarishga majbur bo'lgan edi.

...Bobur pastga tushib, devonxonaga to'rdagi eshikdan kirdi. Ko'p o'tmay poygakdagi eshikdan Qosimbek Binoiyning boshlab kirdi.

Binoiyning Bobur bundan ikki-uch yil oldin ham bir ko'rgandi. O'shanda u juda salobatli edi. Hozir esa juda ozib, gavadasi allanechuk kichrayib qolgan. To'ni ham, sallasini ham eskirib ketgan. Faqat yirik-yirik ko'zlari avvalgiday mag'rur chaqnaib turibdi. Bobur unga peshvoz chiqib uy o'rtasida qo'l berib ko'rishdi. O'ng yoniga Qosimbekni, chap yoniga Binoiyning o'tqazib, hol-ahvol so'radi. Shunda Binoiy yodaki bir ruboiy



aytib, yegulik g'allasi yo'qligini, kiyay desa g'allaning gopi ham topilmasligini aytdi:

*Ne g'alla marokaz tavonam no'shid,  
Ne muhmali g'alla to tavonam po'shid,*

– degan satrlardagi nozik so'z o'yinini sezib, Bobur beixtiyor jilmaydi. «Muhmal» aslida noaniq degan ma'noni bildirardi. Bu so'z bilan mulla Binoiy o'z ahvolining noaniqligiga ishora qilmoqchi edi. Ayni vaqtda, «muhmali g'alla» – ya'ni qop kiyadigan darajaga yetganini ham aytib, o'z ahvoliga kinoya qilmoqda edi. «Xon huzurida topgan martabamiz shu bo'ldi!» demoqchi edi.

Bobur buning hammasini tushungan ma'noda bosh irg'adi-yu, panjasini peshonasiga tirab, bir lahza jim qoldi. Uning avzoyidan she'rga she'r bilan javob bermoqchi ekanligini sezgan Qosimbek Binoiyga «Shoshmay turing!» deganday ishora qildi. Nihoyat, Bobur qo'lini peshonasidan oldi-yu, Binoiyga kulimsirab qaradi:

*In'om-u vazifa bori buyrulg'usidir,  
Muhmalga bo'yu g'allaga uy to'lg'usidir.*

Boburda bunchalik she'riy iste'dod bor deb o'ylamagan Binoiy bir lahza hayratlanib turdi-yu, so'ng tojikcha talaffuz bilan:

– Yana bir takrorlang, amirzodam, faqir radifini uqib olmoqchiman! – dedi.

Bobur she'rni ikkinchi aytishda ba'zi joylarini silliqlab, «g'allaga uy» jumlasini «g'alladin uy to'lg'usidir», deb to'g'riladi. «Bo'ý» va «uy» degan ichki qofiyalar o'ziga ham yoqimli tuyilib, zavqini keltirdi.

– Tab'i nazmingizga tan berdim, amirzodam! – dedi Binoiy. So'ng u oq oralagan qalin soqolining uchlarini

tutamlab, birpas javob qidirdi. Topdi shekilli, boshini tez ko'tarib, qaddini tikladi:

*Bir muhmal uchun muncha inoyat bo'ldi,  
Musta'mal agar desam nelar bo'lg'usidir!*

Binoiyning turkiy she'rga ham bunchalik ustaligi endi Boburni hayratga soldi. Bu yerda «muhmal» so'zi uchinchi bir ma'noda ishlatilgani – Binoiy avvalgi ruboiysiga kamtarona baho berib, uni «muhmal», ya'ni «xom» deb atagani ham ajoyib edi. «Muhmal»ga «musta'mal», ya'ni «pishiq», «mukammal» so'zining ichki qofiya qilingani ham Boburga juda yoqdi, u munshiyni chaqirib, mulla Binoiy aytgan ruboiylarni yozib olishni buyurdi.

Ikki orada bo'lib o'tgan mushoiradan Qosimbek ham xiyla ta'sirlangan edi. U o'sha kuniyoq Binoiyni yaxshi bir hovliga joylashtirdi, Boburning buyrug'i bilan aravada un, guruch, bir qo'y, issiq barra po'stin berib yubordi. Binoiy podshoh mulozimlari qatorida ulufa ola boshladi.

Oradan ikki kun o'tgach, yangi zira beqasam to'n ustidan barra po'stin kiygan Binoiy yana Bo'stonsaroyga keldi. Bobur bu gal uni ikkinchi qavatdagi mehmonxonada qabul qildi. Ular dasturxon atrofida yakkama-yakka suhbatlashdilar. Binoiy Boburning Shayboniixon haqida savol berishini kutib, xon saroyida ko'rganlarini kinoya bilan gapirib berishga tayyorlanib kelgan edi.

Lekin Bobur Binoiyni o'ng'aysizlantirmaslik uchun o'tgan gal ham, bugungi suhbatda ham, Shayboniixonni ataylab tilga olmadi. So'nggi kunlarda Navoiydan kelgan xatning ta'sirida yurgan Bobur Hirotdan gap ochdi. U Navoiy bilan Binoiyning o'zaro munosabatlari haqida ba'zi bir gaplar eshitgan, endi buning tafsilotlarini bilgisi kelar edi.

Shayboniixon tilga olinmaganidan yengil tortgan Binoiy kulib gap boshladi:

– Alisherbekning quloqlari og‘riganda, ko‘k qiyiq bog‘lagan ekanlar. Buni bazzoz eshitib, ko‘k ro‘molga «Nozi Alisheriy» deb nom qo‘yib sotadigan bo‘ldilar. Alisherbek – ulug‘ siymo, nomlariga yarashadigan ulug‘ ixtirolar qilganlar. Bachkana kishilar arzimagan narsalarga ham «Alisheriy» deb nom qo‘yib, pul ishlashlari faqirning g‘ashiga tegdi. Eshaginga g‘aroyib bir egar yasatdim-u, bunga ham «Alisheriy» deb ot qo‘ydim. Keyin shu egar ham mashhur bo‘ldi! Men bu bilan savdogarlarning bachkana gaplariga kinoya qilgan edim. Ammo ig‘vogarlar buni «Alisherbekka behurmatlik» deb ovoza qildilar, ikki oraga g‘ubor soldilar.

Mulla Binoiy hazilomuz boshlagan gapini hasratli tovush bilan tugatdi:

– Amirzodam, mening Alisher Navoiyga ehtiromim cheksiz! Faqir u zotning suhbatlaridan bahramand bo‘lgan paytlarimni eslasam, yuragim ezilur.

– Yomon odamlar solgan g‘uborni oradan olib tashlash mumkin emasmikin?

– Men hozir shu g‘uborni tarqatish harakatidamen. Musofirotda yurib, Alisher Navoiyga atab bir qasida yozdim. Joiz bo‘lsa, ba‘zi joylarini amirzodamga o‘qib beray.

– Marhamat!

Mulla Binoiy o‘zi yozgan she‘riy asarlarning hammasini yoddan bilar edi. Hozir ham bir burchakka tikilib, «Majma‘ul g‘aroyib» degan qasidasini yodaki ayta boshladi. Mulla Binoiy Navoiydan uzoqda uning suhbatini sog‘inib:

*Be tu chun obi Darg‘amam dar g‘am,  
Be tu chun rudi Ko‘hakam giryon<sup>1</sup>,*

– deganda Bobur zavqdan bosh irg‘ab:

– O‘h! – deb qo‘ydi.

---

<sup>1</sup> Sensiz Darg‘am suvidek dard-u g‘amdamen,  
Sensiz Ko‘hak (Zarafshon) daryosidek giryonman.

Qasida o'qib tugatilganda, Bobur ta'sirlanganidan qasrda o'tirganini ham unutgan edi. U atrofiga qarab, go'yo mehmonxonaga uzoqlardan qaytib kelganday bo'ldi.

– Mavlono, bu qasidani Alisherbekka nega yubormaysiz?

– Hirotga boradigan tayinlik odam yo'q, amirzodam.

– Biz yaqinda Hirotga elchi yubormoqchimiz. Kaminaga Alisherbekdan kitobat kelgan edi. Javobini yozib yubormoqchimen.

– Amirzodam, qani edi, qulingizning bu qasidasini ham...

– Marhamat, xattotga berib ko'chirtirmoq zarur bo'lsa, men buyururmen. So'ng elchidan berib yuborurmiz.

Gap shunga qaror topdi-yu, mulla Binoiy xursand bo'lib chiqib ketdi.

Bobur yana xonayi xosga kirib, chala qolgan she'rini qo'lga oldi. Biroq endi katta shoir bilan bo'lgan uzoq suhbatdan so'ng, avvalgi she'rlari Navoiyga yuborishga munosib emasdek tuyildi. Unga ilgari jo'n tuyiladigan narsalar ham aslida juda murakkab ekani hozir juda aniq sezilayotganday bo'lardi. Hamma narsani muhit, ahli jahon murakkablashtiradi. Hirotida yashayotgan Alisher Navoiy ham, hozir Boburga ko'p narsalarni kuyunib aytib bergan Binoiy ham muhitdan, zamona aholidan norozi bo'lganlaricha bor edi. Boburning o'zi bu zamonadan ozmuncha jabr ko'rdimi?

*Kim ko'ribdir, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilik!*

Bu haroratli satr qog'ozga tez va ravon tushdi. Bobur o'z zehning go'yo qayralib, o'tkirlashib qolganini sezib turardi. U hozir xayol ko'zi bilan Hirotidagi Alisher Navoiyni aniq ko'rayotganga o'xshardi. Bobur muhitdan, zamonadan, faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan jahon

ahlidan yaxshilik kutgan odam aldanishi muqarrarligini Navoiyga aytib dardlashgisi kelardi:

*Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilik.*

Ya’ni, o‘z muhitidan baland turolmaydigan odam birovga yaxshilik qilolmaydi. Alisher Navoiyning odamlarga shuncha ko‘p yaxshilik qilayotgani – Boburga uning jahon ahlidan beqiyos darajada yuksak ekanini yaqqol ko‘rsatayotganday bo‘lardi. U o‘z ko‘nglini ham mana shu yuksaklikka undab, yana bir bayt yozdi:

*Bori elga yaxshilik qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik.*

Shu kuni kechasi Bobur Navoiyga atalgan maktubini ham, she‘rini ham yozib tugatdi. Oradan ikki kun o‘tgach, bu maktub maxsus elchi bilan Samarqanddan Hirotda jo‘natildi. Bobur Navoiydan qish chiqquncha javob olish umidida edi. Biroq qish chiqib, endi boychechak ochilgan kunlarda Hirotdan musibatli xabar keldi: qish chillasi paytida hali Bobur yuborgan elchi yo‘lda ekanida, Alisher Navoiy vafot etgandi. Bobur o‘ziga ulug‘ bir murabbiy topdim, deb suyunib yurganda, o‘gay taqdir uni bu madadkoridan ham judo qilgan edi.

## 7

Tepalikka uchib chiqayotgan chopqir otning tuyog‘i yerdan bosh ko‘tarib, bugun-erta ochilay deb turgan lola g‘unchasini ezib-yanchib o‘tdi. Bu ot ustida o‘tirgan Shayboniyxonning ko‘zlari esa pastdagi keng tekislikda chug‘urchuqday yopirilib, poyga o‘tkazayotgan otliqlarda edi. Tiniq bahor osmonining bir chetida Samarqand bilan Buxoro oralig‘ining eng

mashhur qo'rg'oni bo'lgan Dabusiya<sup>1</sup> qal'asi savlat to'kib turibdi. Kech kuzda bu qal'a ham Shayboniyxon qo'lidan chiqib, Boburga o'tib ketganda, qo'shini Buxoroga chekinib, og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Ruhi tushgan ba'zi sarkardalar: «Esimiz borida etak yopib, Turkistonga qayta qolaylik!» deyishgan edi. Ammo Shayboniyxonning Samarqanddagi xufiyalari Boburning shoirlar va olimlar suhbatiga berilib, yangi janglarga sust tayyorlanayotganini bildirib turar edilar. Qo'ldan-qo'lga o'tib, juda ko'p talangan Samarqand bahorga chiqib yana ochlik va qahatchilik balosiga yo'liqqan edi. Buning hammasi Shayboniyxonni dadillashtirdi. Yaqinda u Buxorodan Dabusiya qo'shin tortib keldi. Qal'aning baland devorlariga ulardan ham baland shotilar qo'ydiridi. Qal'a himoyachilari tepadan o'q va tosh yog'dirishayotgan bo'lsa ham xon o'z askarlariga tap tortmay chiqaverishni buyurdi. Odamlar o'lgan-qolganiga qaramay, chiqib kelayotganini ko'rgan himoyachilar tepadan katta yog'och bolorlar otishdi, yonib turgan yog'larni chiqayotganlarning boshidan quyishdi. Devor taglari o'liklarga to'lib ketdi. Xon navkarlari qo'rqib, chekina boshladilar. Shunda Shayboniyxon o'zining tug'ishgan ukasi Mahmudxonni va suyuqli o'g'li Temurxonni butun navkarlari bilan jangga soldi. Xon ukasi va o'g'lini ham ayamayotganini ko'rgan jangchilar yana shotilarga yopishdilar. Yuqoridan yog'ilayotgan ajal shotiga chiqqanlarni tutday to'kayotgan bo'lsa ham, bir necha yuz kishi shovqin-suron bilan devor tepasiga chiqib bordi. Devor tepasidagi jangda ikki tomondan ham juda ko'p odam qirildi, o'liklar tuynuklarni bekitib qo'rganidan pastga o'q otish mumkin bo'lmay qoldi. Xon qo'shini son jihatdan bir necha barobar ko'p bo'lib, shotilardan

---

<sup>1</sup> Dabusiya – «Temir qo'rg'on» demakdir. Ziyoviddin degan joyda hozir bu qal'aning xarobalari bor.

orqama-orqa chiqib bormoqda edi. Boburdan yordam so'rab ketgan chopar Samarqandga yetib borguncha bo'lmay Shayboniyxon Dabusiyanini qonga belab axiri oldi-yu, himoyachilarni bitta qoldirmay qilichdan o'tkazdi. Bu zafar xon qo'shinining ruhini ko'tardi.

Endi Shayboniyxon Dabusiyanini tog'day bir tayanchga aylantirib, undan Samarqand ustiga yurish tayyorligini ko'ryapti.

Hozir pastda o'tkazilayotgan poyga ham – shunchaki ko'ngil ochish uchun emas, Bobur bilan bo'ladigan hal qiluvchi janglarda Shayboniyxonga eng zo'r, eng chopqir otlar tanlash uchun kerak.

Kuni kecha Samarqanddan kelgan darvish kiyimidagi bir maxfiy Boburning xotini qiz tuqqanini, otini Faxriniso qo'rganlarini aytib bergan edi. Shayboniyxon poygada bir-biridan o'zib, sor burgutlarday uchib borayotgan yigitlariga zavq bilan tikildi-yu, o'zicha dedi, «Mayli, Bobur kuzdagi g'alabasidan faxrlanib, qiziga Faxriniso deb ot qo'ysin, kerilib, she'rini yozib yotaversin! Ungacha men burgutlarimning hammasini ovga o'rgataman».

Shayboniyxon hali hech qaysi jangga bunchalik jon-jahdi bilan tayyorlangan emas. U Boburni yengish oson emasligini sezardi. Bobur endi o'n to'qqizga kirgan yosh yigit bo'lsa ham nihoyatda iste'dodli, nihoyatda dovyurak sarkarda ekanini Shayboniyxon amalda ko'rdi. Hozir bu atrofdagi shahar-u qishloqlarning ko'pchiligi Boburga yon bosadi. Shayboniyxonning dushmanlari esa behisob. Sulton Ali mirzoning ko'pchilik bek va navkarlari bultur Shayboniyxonga qo'shilgan edi, Bobur Samarqandni olgandan keyin hammasi uning tomoniga qochib o'tib ketdi. Boburning qo'shini kun sayin ko'payib boryapti. Hatto Andijondagi Ahmad Tanbal ham ukasi Sulton Xalilni ikki yuz navkari bilan Boburning ixtiyoriga yuboripti. Shayboniyxon shuni eshitgandan keyin,

hozir Boburning obro'si juda baland ekanini, undan, hatto Ahmad Tanbal ham qo'rqib qolganini sezdi. Bu ketishda yozga borib Boburning qo'shini yana ham ko'payadi. Shayboniyxon hal qiluvchi jangni tezlatmasa, keyin yutqizadi.

\* \* \*

Shayboniyxon sultonlari bilan kengashib, erta bahorda Buxoro va Dabusiya qal'asini ishonchli odamlariga qoldirdi-yu, o'zi Samarqand tomonga qo'shin tortib kela boshladi. Shundan sal oldin Shayboniyxon Boburga maktub yo'llab, uni masof urushga<sup>1</sup> chaqirgan, «Mardlar maydonda sinalgay, qal'ada bekinib yotish yosh bolaning ham qo'lidan kelur!» degan mazmunda achchiq kinoyalar qilgan edi.

Nihoyat, Bobur ham Samarqanddan qo'shin bilan keldi-yu, Saripulda<sup>2</sup> Shayboniyxon askarlaridan bir tosh berida to'xtab, jangga tayyorlana boshladi. Bobur Zarafshon daryosi ko'rinib turgan bir joyni o'rda qilib, atrofiga chuqur xandaqlar qazitdi, shox-shabbalardan o'q o'tmaydigan ihotalar yasatdi.

Shunga qaraganda, Bobur masof urushga uncha tez kirishmoqchi emas edi, orqadan yana yangi kuchlar yetib kelishini kutmoqchi edi.

Biroq Shayboniyxonning yig'iladigan askarlari yig'ilib bo'lgan, endi uzoq Turkistondan yangi kuchlar yetib kelolmasligi aniq. Shahrisabzdan kelgan maxfiy xabar xonni iztirobga solib qo'ydi. O'sha yoqda Boqi tarxon ikki ming qo'shin to'plab, yana ming nafar askar yig'ib, keyin hammasini Boburga yordam bergani olib kelmoqchi emish. Agar bu qo'shin ham Boburga kelib qo'shilsa, Shayboniyxon yengilishi

---

<sup>1</sup> Masof urush – ochiq joyda yuzma-yuz olishish.

<sup>2</sup> Saripul – hozirgi Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi bir qishloq.



mumkin. Xon urushni tezroq boshlashning chorasini izlab, Bobur qarorgohida munajjimlik qilib yurgan yashirin kishisiga xabar yubordi. «Osmondagi yulduzlarga qarab, Boburni tezroq jang qilishga ko'ndirsin, agar ishni cho'zsa, josusligini fosh qilib, boshini kestirgaymen!» deb munajjimga tahdid qildi.

Bu munajjim ham shoir Binoiyga o'xshab, xon qarorgohidan Bobur huzuriga qochib borgan edi. Xon Boburning rahmini keltirish uchun munajjimni Bobur huzuriga qochirishdan oldin kaltaklatib, og'iz-burnini qon qilgan, kiyimlarini yirttirgan edi. Mavlono Shahobiddin ismli bu munajjim hozir Bobur saroyida izzat-ikromda ekani ham Shayboniyxonga ma'lum edi. Xonning yashirin topshirig'i qalandar kiyimidagi kishi orqali munajjimga yetkazilgan kuni kechasi Shayboniyxon o'n ming qo'shini bilan Bobur o'rdasiga bostirib bordi, nog'oralar, karnaylar chaldirib, istehkom devorlari orqali o'qlar yog'dirdi.

Otlar xandaqlardan o'tolmas, ammo xon askarlari-ning haqoratomuz qichqiriqlari o'rdada o'tirgan Boburga va uning odamlariga baralla eshitilardi:

- Joning bo'lsa maydonga chiq!
- Qo'rqoqlar, kurk tovuqday moyak bosib o'tira berasanmi?!
- Boburingda yurak bo'lsa ulug' xonga o'zini ko'rsatsin!
- Mard bo'lsa chiqsin maydonga!

Himoyada yotgan odamlarga tungi hujum va shovqin-suron og'ir ta'sir qilishini Shayboniyxon yaxshi bilar edi. Boburning o'rdasi atrofida uning yuzlab otliqlari urra-ur qilishib, borliqni larzaga keltirishdi, ihota qilingan shox-shabbalarga yonib turgan yoy o'qlarini otishib, bir-ikki joyini yondirib yuborishdi. Ichkaridan ham o'qlar otildi, achchiqlangan navkarlarning haqoratlari eshitildi, ammo xon qo'shini bilan olishish uchun hech kim yurak yutib chiqolmadi.

Shayboniyxon Boburning kecha qo‘qqisidan maydonga qo‘shin tortib chiqolmasligini oldindan bilardi, chunki hech bir esli-hushli sarkarda bu qorong‘i tunda selday yopirilib kelgan lashkar qarshisiga tayyorgarliksiz betartib otilib chiqmasligi o‘z-o‘zidan ayon edi. Bu tungi shovqin-suron Shayboniyxonga o‘z lashkarining ruhini ko‘tarish uchun kerak edi. U o‘zining hech narsadan qo‘rqmasligini, Bobur esa go‘yo tizzasi qaltirab, istehkomdan beriga chiqolmayotganini har ikki tomonga namoyish qilmoqchi, shu bilan yosh dushmanining izzat-nafsini qo‘zg‘atmoqchi edi. Ayni vaqtda, bu tungi hujum – Bobur qarorgohida ish olib borayotgan munajjimni ham dadillashtirishga qaratilgan edi.

Chindan ham bu tungi hujum Boburning izzat-nafsiga qattiq tegdi. Munajjim esa osmondagi yulduzlar tartibini murakkab bir tarzda unga tushuntirib: «Hozir sakkiz yulduz siz tomonda rost turur, – dedi. – Yana ikki kun o‘tgach, bu sakkiz yulduz g‘animingiz tomoniga og‘ib ketgay. Agar erta-indin jangga kirishsangiz, g‘alaba sizniki bo‘lishidan butun falakiyot dalolat bermoqda!»

Axiri shu sabablar bir bo‘lib, Bobur Shahrisabz va Toshkentdan keladigan katta ko‘makni kutib o‘tirmasdan, indin chorshanba kuni jang maydoniga chiqishga qaror qildi. Munajjim buni o‘sha aloqachi qalandar orqali Shayboniyxonga yetkazdirdi.

Shayboniyxon chorshanba kuni hayot-mamoti hal bo‘lishini sezib, bor iste‘dodini, butun tajribasini ishga sola boshladi. Kuni bo‘yi bo‘lajak jang maydonining har bir past-u baland joyini ko‘zdan kechirib chiqdi, oftob qayoqdan chiqib, shamol qayoqdan esishigacha e‘tibor berdi. Kechasi esa otlarni egarlatib, hamma narsani taxt qilib yotishni buyurdi, yov maydonga chiqqan zahoti darhol qulay tomonni egallashning rejasini tuzib qo‘ydi. Ikki kecha deyarli uxlamadi. Yarim tunda

ham, sahar pallada ham uning oq o'tovidan kuchli ovoz va katta ixlos bilan yodaki qiroat qilinayotgan Qur'on tovushi eshitilib turdi. Shayboniyxon joynamoz ustida sajdaga bosh qo'yib, Xudoga munojot qilar, ko'zlariga yosh olib, «Sharmanda qilma, Parvardigor!» deb pichirlardi.

Jangdovullar azon palla Bobur qo'shinining shoshilinch saflanayotganini va tug' tikayotganini aytib kelgan zahoti Shayboniyxon ham bor askarlarini oyoqqa turg'izdi. Chavkar otda saflarni aylanib chiqdi.

– Shunqorlarim! – deb jarangli ovoz bilan qo'shinga murojaat qildi. – Bu atrofda bizning Xudodan bo'lak suyanchig'imiz yo'q. Ota yurtimiz uzoq, yengilsak yetolmaymiz. Birdan-bir najot –yengish! Mening Parvardigordan umidim katta. Tushimda ayon bo'ldi – nasib qilsa, g'alaba bizniki!

– Inshoollo! – dedi o'nlab ovoz birdan.

Shayboniyxon Qur'ondan qisqa bir surani ohangdor tovush bilan ta'sirli qilib o'qidi-yu, diniy rahbarlarga xos sirli va salobatli tarzda fatvo berdi:

– Omin, Olloh-u akbar!

Minglab odam birdan:

– Olloh-u akbar! – deb takbir tushirganda osmon titrab ketganday bo'ldi. Shayboniyxonning valiyligiga ishonadigan, uning fatvosidan ruhlangan qo'shin avvaldan o'ylangan aniq reja bilan yov tomonga yo'naldi.

Uzoq mashqlar bekor ketmagan edi. Xonning qo'shini go'yo bir tan-bir jon bo'lib harakat qilar, xuddi tarang tortilgan yoyday o'rtasi xiyol oldinga chiqib borar edi.

Chap tomon daryo. Shayboniyxon qo'shinini o'ng tomondagi kengliklardan daryo tomonga qiyalatib yo'naltirdi. Chunki daryo tomon nishabroq edi, bugun shamol ham janubdan esmoqda edi. Yo'l

nishab bo'lsa-yu, shamol orqadan essa, chopqir otlar yanada tezroq uchishi mumkin. Shayboniyxon bugun qo'llamoqchi bo'lgan to'lg'ama usuli – yashin tezligida harakatlanishni talab qiladi. Shuning uchun u otlarning chopqirini avvaldan tanlab qo'ygan, bugun esa shamolning yo'nalishi-yu yerning nishabligini ham hisobga olgan edi.

Shayboniyxon qo'shinining Janubdan qiyalab yaqinlashayotganini ko'rgan Bobur qo'shini yov bilan yuzma-yuz to'qnashish uchun o'ng qanotini oldinroq chiqarib, daryoga orqa o'girdi-yu, Janubga tomon burila boshladi.

Orada ikki-uch chaqirimcha masofa qolganda, Shayboniyxon xosnavkarlari, ichkilari va tug'bardori bilan birga baland bir tepalikda to'xtadi. Bobur ham shunaqa bir tepalikda otliq turar, uning orqasidagi daryoning suvi ertalabki quyosh nuridan tovlanib ko'rinardi.

Boburning qo'shinlari orasida to'ra<sup>1</sup> ko'targan, dastasi uzun nayzalar va oyboltalar bilan qurollangan piyodalar ham ko'p edi. Agar otliqlar ularga to'g'ridan ro'para bo'lsa uzun nayzalar otga yoki otliqqa sanchiladi. Shayboniyxon piyodalarning markazda kelayotganini ko'rib, o'zining qo'shiniga yov markazini ochiq qoldirishni, yovning ikki qanotini aylanib o'tib, ikki biqinidan va orqadan zarba berishni buyurgan edi.

O'ng qanotdagi Mahmud Sulton, Jonibek Sulton va Temur Sulton xonning buyrug'iga amal qilishib, yovga bir chaqirim qolganda otlarini to'satdan o'ng tomonga burishdi va Bobur qo'shinining chap qanotini aylanib o'ta boshlashdi. Shayboniyxon qo'shinining chap qanotidagi mashhur lashkarboshilar Hamza Sulton va Madhi Sulton ham markazga tegmay, Boburning o'ng qanotini aylanib o'tmoqda edilar.

---

<sup>1</sup> To'ra – qalqonning bir turi. Otliqlarning qalqonidan kattaroq bo'ladi.

Eng zo'r kuchlarini markazga qo'yg'an Bobur avval tuzgan rejasini shoshilinch ravishda o'zgartira boshladi. Bobur markazga qo'yg'an qo'shinning bir qismi o'ng qanotga qo'shib, Shayboniyxonning chap qanotiga tashlandi.

To'lg'amaning bir qaltis joyi shunda ediki, markazga tegmay o'tgan ikki qanot bir-biridan ajralib qolishi mumkin edi. Yov ularni ikkiga bo'lib tashlashi, so'ng orqadan hujum qilib to'lg'ama ishlatmoqchi bo'lganlarning o'zlarini to'lg'ab, qurshab olishi mumkin edi. Hozir Shayboniyxon qo'shinining chap qanoti xuddi mana shu ahvolga tusha boshladi.

Ammo ana shu yerda eng yugurik otlarning tanlangani ish berdi. Boburning otliqlari oldindan qirqib chiqishga ulgurmadilar. Mahmud Sulton boshliq uch-to'rt yuz chavandoz yov qo'shinining orqasiga o'tib olishga muvaffaq bo'ldi. O'ng qanotdan Hamza Sultonning ikki yuz otlig'i ham chopqir otlarda yovni aylanib o'tib kelib, Mahmud Sultonning yigitlariga qo'shildi. Bobur qo'shini kutilmaganda ham ikki yondan, ham orqadan zarba yeb, esankirab qoldi. Jon achchig'ida baqirayotgan, qilich va o'q zarbidan yiqilayotgan, oyoq ostida majaqlanib chinqirgan vahimali ovozlari, tig', nayza zarbalari, «Urho, ur!» degan nidolar otlarni ham quturtirib yuborgan edi. Bobur qo'shinining dastlabki yasog'i buzilib ketdi, ikki tomonning otliqlari aralash-quralash bo'lib, piyodalar ustiga otda bostirib keldi. Piyodalarni endi o'z qo'shinining otliqlari ham bosib-yanchib keta boshladi.

Ochiq qolgan markazdan Bobur askarlarining bir qismi alanga tiliday otilib chiqdi-yu, Shayboniyxon turgan tepalikka hamla qilib kela boshladi. O'ng qanotdagi Temur Sulton bilan Jonibek Sultonning yigitlari hali ham qurshovdan chiqolmas edi. Shayboniyxon tomonga bostirib kelayotgan ikki

yuzdan ko'proq otliqning raftori juda vahimali edi. Ko'pakbiyning uch-to'rt yuz yigiti qirg'in bo'layotgan joydan chiqib, yov otliqlarining ketidan tushdi. Ammo oradagi masofa ancha uzoq, Ko'pakbiy yetib kelguncha berigilar Shayboniyxonni butun ichkilari bilan yanchib o'tishi mumkin edi. Buni sezgan xonning ichkilari sarosimaga tushib qolishdi.

Yuvoshgina ot minib chiqqan mulla Abdurahim:

– Hazrati imomi zamon, vaqt o'tdi, bexatar joyga chekinaylik! – dedi.

Shayboniyxonning rangida qon qolmagan. U ham bexatar joyga ketishni istardi. Ammo bu tepalikda u tug'lar bilan turibdi. Agar pastga tushib ketsa-yu, askarlari o'girilib qarab, uni va tug'larni ko'rmasa, «Yengilbmiz!» – deb o'ylashadi. Xonning chekinishi – yengilish alomati bo'ladi. Shuning uchun Shayboniyxon titrab-qaqshab:

– O'lim bor, chekinish yo'q! – deb qichqirdi. So'ng u yuz qadamcha narida turgan xosnavkarlariga buyurdi:

– Chiq hammang! Ana u kelayotgan otliqlarning yo'lini to's!

Bu xosnavkarlar xonning eng so'nggi tayanchi hisoblanar, ular odatda yengilib qochish kerak bo'lganda xonni qo'riqlab, olib ketish uchun saqlanar edi. Xon buyruq bergandan keyin yopirilib kelayotgan narigi yovning qarshisidan chiqib, yoylardan o'q ota-ota ularga yaqinlashdilar. Xosnavkarlar narigilarga qaraganda ikki barobar oz bo'lsalar ham dadil savasha boshladilar. Naryoqdan Ko'pakbiy ham uch-to'rt yuz otlig'i bilan yetib keldi. Endi yov ilg'orlari qurshovda qoldi. Bir vaqt shu qurshovni o'ntacha otliq yorib chiqdi. Xuddi ko'pkari paytida uloq talashib to'satdan tomoshabin ustiga bostirib kelib qoladigan uloqchilarga o'xshab, Shayboniyxon turgan tepalikka chiqib bordi. Mulozimlardan bir nechasi «gur» etib orqaga qochdi. Ammo Shayboniyxon o'z navkarlarining

qo'li baland kelayotganini ko'rib turar edi. Kamonga o'q o'rnatib, tepani qiyalab qochib o'tayotgan yov otliqlariga qarab otdi. O'q hech kimga tegmagan bo'lsa ham xon shaxsan o'zi jangga qo'l urganini ko'rgan navkarlar avvalgidan ham qattiqroq qichqirishib, yov ilg'orini bitta qo'ymay qirib tashladilar.

Naryoqda yov qo'shinini o'rab, chulg'ab, to'lg'ama usulini xon aytganday amalga oshirayotgan sultonlar mingga yaqin yigitlari bilan Bobur turgan tepalikka yetib bordilar. Piyodalar Boburga ish bermay qo'ydi. Yaqinda Toshkentdan kelib qo'shilgan mo'g'ul otliqlari Boburning jangni boy berayotganini sezishdi-yu, o'ljasiz ketmaslik uchun egasiz qolgan otlarni jilovidan tutib, yetaklab, jang maydonidan chiqib keta boshladilar. Ba'zi mo'g'ullar esa o'zlari bilan bir safda jang qilayotgan andijonlik va samarqandlik yigitlarni egarlaridan ag'darib tashlab, otlarini o'lja qilib olib qochishga tushdilar.

Bir vaqt Shayboniyxon Boburning o'n-o'n beshta ichkilari bilan tepalikdan tushib, daryo tomonga qarab chekinayotganini ko'rib qoldi. Bu bir hiyla emasmikin, deb tikilib qarasa, Bobur to'lib-toshib oqayotgan daryoga ot solib kirdi. Qirg'oqda qolgan uning bir necha yuz navkarlari Bobur ketidan intilgan yovning yo'lini devorday to'sib oldi. Bobur Samarqandga qarab qochayotganiga endi astoydil ishongan Shayboniyxon qo'llarini osmonga cho'zib, hayajon bilan:

– Xudoyo, o'zingga shukr, o'zingga shukr! – dedi. Ammo yovi yengilib qochayotgani endi unga ozlik qiladigan tuyildi. Shu tobda u o'z g'alabasining yana bir daraja baland bo'lishini istardi.

Shuning uchun ortda turgan chopar tomonga o'girildi:

– Tez borib shunqorlarimga ayt. Boburning boshini kesib kelgan odamga boshi barobarlik oltin beraman!

Chopar endi otining jilovini bo'shatib, joyidan siltanib qo'zg'alganda Shayboniyxon:

– To'xta! – dedi. U mag'lub bo'lgan Boburni asir olib, tavbasiga tayantirsa, g'alabasining shuhrati yana bir daraja oshishini sezdi: – Shunqorlarimga yana bir buyrug'imizni yetkiz! Boburni tirik tutib kelganga bo'yi barobarlik oltin beraman! Yo tirik, yo o'lik, albatta, olib kelinglar!

Chopar tepalikdan ot choptirib tushib ketayotganda, Shayboniyxon ko'zlarining nam ekanini sezdi. G'alaba zavqidan ko'ziga yosh kelganini u endi payqadi-yu, kulimsirab, kafti bilan ko'z yoshini sekin artib qo'ydi.

## 8

Saraton o'tib, asad oyi kirdi. Samarqand atrofidagi bog'larda mevali daraxtlarning shoxlari yetilgan hosildan egilib, yerga salom bera boshladi. Shahar ichida ham mevali daraxtlar, toklar juda ko'p, ammo ular hammasi hozirdanoq ship-shiydam bo'lib qolgan. Hali sarg'aymagan ko'm-ko'k barglar orasida birorta olma, birorta shaftoli, biror shingil uzum qolmagan. Besh oydan beri qamal azobini tortayotgan shahar xalqi bor mevalarni pishar-pishmas yeb tugatgan. Qo'rg'onning hamma darvozalari yopiq, shahar atrofini Shayboniyxonning qo'shini qurshab yotibdi. Ichkaridan ham hech kimni chiqarmaydi, tashqaridan yordam bermoqchi bo'lganlarning ham yo'lini to'sadi.

Ulug'bek madrasasining baland tomi ustidagi tekis sahnga Boburning oq o'tovi o'rnatilgan, bu yerdan qo'rg'on devorlari, atrof mahallalar, shahar darvozalari yaxshi ko'rinadi. Bobur goho och odamlarning tom bo'g'otlariga in qurgan musichalarni ovlab yurganini ko'radi. Qanotli qushlar sillasi qurigan ochlarga tutqich bermaydi. Shahar ichida qushlar yeydigan



don-dun, ovqat qoldiqlari ham topilmaydi. Shuning uchun bu yerdan qushlar ham o'zini olib qochadi. Goho atrof ko'chalarda biror kishi it yoki mushuk tutib olsa, ochlar shuni ham talashib, g'ijillashib qolishadi.

Madrasaning orqa tomonida podshohning katta otxonasi bor. Ilgari bu yerda saroyning yetmish-saksonta oti boqilar edi. Hozir shulardan to'rttaginasi qolgan. Bir qismi Saripulda qo'ldan ketdi. Ko'pchiligi so'yib yeyildi. Biroq shu to'rtta otga ham yemish topilmaydi. Don yuzini ko'rmaganlariga bir oydan oshdi. Pichan-u bedalar allaqachon tugagan. Atrofdagi daraxtlarning barglarini ham yulib, qoqib, ot va tuyalarga yedirishgan. Hozir bargsiz daraxtlar yozda ham xuddi qishdagiday yalang'ochlanib, ko'zga juda xunuk ko'rinadi. Ot-ulovlarga barg ham topilmay qolgandan keyin daraxtlarning qurigan yog'ochlarini randalab beradigan bo'lishgan.

Bobur otxona hovlisida yog'och randalayotgan Tohirni ko'rdi. Saripulda bu yigit Boburning xosnavkarlari orasida edi, daryodan o'tishda ham, keyin ham jonbozlik ko'rsatgan edi. Bobur yaqinda uning uylanish tarixini eshitdi. Shuncha azoblar bilan qayta topib olgan xotini ocharchilikda nobud bo'lib ketmasin deb, Robiyani onasi Qutlug' Nigor xonimga kaniz qilib qo'ydi.

Tohir mayda qilib randalagan yog'ochni sarg'ish mo'ylovli Mamat suvga ivitib, yumshatmoqda edi. Shunday qilinmasa, uni ot yeyolmas edi.

Saripul jangiga Mamat ham navkar bo'lib qatnashgan edi. O'sha qirg'indan eson-omon qaytgan bu yigit o'tgan hafta qo'rg'on tashqarisiga meva o'g'irlashga chiqib, bir qulog'idan ajralib qaytdi.

Qo'rg'on devoridan bo'y cho'zib, tashqariga qaragan ochlar tashqi bog'larda pishib, shoxlarda tiralib turgan, yerlarga to'kilib yotgan olmalar, noklar,

shaftolilarni ko'rib, chidab turolmas edi. Kechasi el uxlaganda Mamat uch-to'rtta eski kosib oshnalari bilan qal'a devori tagidagi obmo'ridan tashqariga chiqadi. Chohdan ham bir amallab o'tib pishgan mevalardan to'yganicha yeyishadi. Keyin qo'llaridagi xalta va xurjunlarni ham mevaga to'ldirishadi, ammo qo'rg'onga tomon qaytayotganlarida, shafqatsiz Ko'pakbiyning yigitlari ularni tutib olishadi. Mamat ham o'zini kosib deb tanitdi. Agar «Boburning navkariman» desa tirik qolmas edi. Ko'pakbiy «meva o'g'irlagisi kelganlarga ibrat bo'lsin», deb tutilganlardan uchtasining burnini, ikkitasini qulog'ini kestiradi-yu, qo'yib yuboradi. Bir siqim meva uchun qilingan bu vahshiylik tufayli Mamat endi yozda ham telpagini kesik qulog'idan pastgacha bostirib kiyadigan bo'lgan. Ba'zida u o'ziga-o'zi tasalli beradi:

– Quloqni-ku, jashirsa bo'ladi, burnim kesilsa nima qilar edim?

Bobur ko'chadan o'tayotib, goho burni kesilgan bechoralarni ham ko'rib qoladi.

U bir vaqtlar o'zi Samarqandni yetti oy qamal qilib yotganda, odamlarning boshiga qanchalik og'ir kulfatlar tushganini mana endi chinakam bilyapti. O'sha ocharchilikda sahhoflik rastasiga borganlarida, o'g'li kunjara yeb shishib o'lgan, o'zi jinni bo'lib qolgan bir kampir dushmani qarg'ab, «Ilohim o'zi ham shu ko'yga tushsin!» – deganini Bobur endi qasoskor taqdirning hukmiddek eslaydi...

Kambag'allar kulbasidan boshlangan ochlik asta-sekin navkarlar, beklar qarorgohiga ham, podshoh saroyiga ham o'rmalab keldi. Mana, o'n kundirki, Bobur non yuzini ko'rmaydi. Un allaqachon tugagan, unga oltin-kumush idishlarda ertalab bir siqim mayiz bilan choy, kechqurun tuya go'shtidan pishirilgan bir kosa sho'rva yoki uch-to'rt tuyur kabob beradilar.

Bobur oltinlari yaltiragan shohona idish-tovoqlarga termilib qaraydi-yu, hozir shularning hammasidan bir parcha nonni afzal ko'radi. Lekin non oltinga ham topilmaydi.

Oyisha begimning olti oylik emizikli qizchasi big'illab yig'laydi. Chunki ozib, madordan ketib qolgan Oyisha begimning siynasidan sut kelmaydi. Yaqinda bola ko'rgan boshqa bir onani topib, Faxrinisoni besh-o'n kun emizdirgan edilar, falokat yuz berdi, u ona vaboga uchragan xonadondan ekan. Dahshatli kasallik Faxrinisoga yuqdi-yu, ikki kun ichida bola mumday erib, jon berdi.

Bobur kafanga o'ralgan go'dakni yangi qazilgan qabr oldigacha ko'tarib borar ekan, uning burishgan yuzchasiga yuzini bosib, yig'lab yubordi: «Mayli, shu vabo menga ham yuqsin-u bu azoblardan birato'la xalos bo'lay!» – degan alamli o'y bilan go'dakning sovuq lablaridan o'pdi.

G'alaba kunlari dunyoga kelib, Faxriniso nomini olgan qizchani qabrga qo'yib, ustiga tuproq tortganlarida, Bobur bir lahza o'zini uning o'rnida ko'rdi, hali tirik bo'lsa ham hayotining bir bo'lagi, avvalgi zafarlari-yu quvonchlari bilan birga umrbod tuproq tagida qolganini butun vujudi bilan his qildi.

Ichkarida Bobur kulfat chekib g'am-g'ussaga botgan sari tashqarida uning dushmanlari tantana qilishmoqda edi. Bobur Hirotdagi amakisi Husayn Boyqarodan, Toshkentdagi tog'asi Mahmudxondan besh oy davomida yordam kutdi, kelmadi. Endi kelmasligi aniq. Shuni payqagan Shayboniyxon har kuni kechasi darvozalar tashqarisida nog'ora chaldiradi, karnay-surnaylar bilan shahar ahlini uyg'otadi. So'ng xon jarchilari qo'rg'on tashqarisidagi ko'tarmalarga chiqib, shahardagilarni xon tomoniga o'tishga chorlaydi, och odamlarga turli noz-ne'matlar va'da qiladi. Bobur endi urushni boy berganini sezgan

bek va navkarlar devorlardan oshib tushib, suv mo'riilaridan o'tib, qamal balosidan qochadi.

Bir kun kechasi Boburni qo'riqlab yuradigan qo'rchi begi ham qal'adan yashirincha chiqib qochdi. Xos qo'riqchilar orasida Tohir bor edi. Ertasi kuni kechasi Bobur uni o'z huzuriga chaqirib oldi.

Tohir ozib ketganidan yelkalari puchayib qolgan, ko'zlari ichiga o'prilib tushgan. Yuzidagi chandig'i esa bo'rtib, go'yo avvalgidan xiyla katta bo'lib ketgan.

– Tohirbek, – dedi Bobur, – Amir Temur maqbarasi-ning hoshiyasiga arab tilida bir hikmat bitilmishdir. Bu hikmatda «Jahon sendan yuz o'girmasdan oldin sen jahondan ko'ngil uza bilgin» deyilmishdir. Men endi jahondan ko'ngil uzmoqchimen. Vabo meni olib ketsa, balki tez qutular edim. Lekin meni vabo ham chetlab o'tdi...

– Xudo saqlasin, amirzodam! Bizning suyangan tog'imiz o'zingizsiz!

– Suyangan tog'ingiz hozir yer bilan yakson bo'lmishdir, Tohirbek! Kecha bir bayt bitmishmen:

*Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,  
Tangri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?!*

Tohir she'rdan ta'sirlanib:

– Rost, hozirgi kunlarimizda safo qolmadi, amirzodam! – dedi. – Lekin oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'. Shukr, hali tanda jon, belda shamshirimiz bor!

Bobur o'ylanib turdi-yu:

– Endi so'nggi ilinj yog'iy ilkiga tirik tushmaslik! – dedi. – Bor kuchlarni to'plab, qulay bir paytda qal'adan chiqaylig-u yog'iy halqasiga hamla qilaylik! Kunimiz bitmagan bo'lsa yorib o'turmiz, bitgan bo'lsa qilich bilan jon berurmiz!..

– Xudo xohlasa yorib o'turmiz, amirzodam!

– Bu sirni hozircha faqat Qosimbek bilur, siz ham sir saqlang, tayyorgarlik ko'ring!

– Jonim bilan!

Tohir o'sha kuni kechasi Qosimbekka uchrashdi. Ikkovlari qal'a devorining xokrezlari orqali tashqarini kuzatib, yovning asosiy kuchlari Ohanin, Feruza va Chorraha darvozalari tomonda joylashganini, Shayxzoda darvozasining atroflarida esa yov halqasi zaiфроq ekanini aniqladilar. Navkarlar va otiqlarning eng baquvvatlarini tanlab, ularni hamlaga tayyorlay boshladilar.

Bobur Bo'stonsaroyda xonayi xosda kitoblari va qog'ozlarini ko'zdan kechirib, ularning eng keraklilarini olib ketmoqchi bo'lib saralayotganda, eshikdan Qutlug' Nigor xonim, Eson davlat begim va Qosimbek kirib kelishdi. Vajohatlaridan favqulodda bir gap bo'lgan.

\* \* \*

– Amirzodam, – deb Boburning buvisi, so'nggi yillarda ancha bukchayib qolgan Eson Davlat begim gap boshladi: – Shayboniyxon sulh taklif qilib odam yubormish!

Sulh so'zi Boburning qulog'iga najot ohangiday eshitildi. Ammo najotni hech qachon Shayboniyxondan kutmaganligi uchun quloqlariga ishonmay, ko'zlarini buvisi bilan onasiga tikdi. Qutlug' Nigor xonim negadir qattiq iztirobga tushgan. Eson Davlat begimning qo'lida zarhal hoshiyali qog'oz. Kampir allanarsadan xijolat chekkanday bo'lib:

– Xonning nomasi, – dedi-da, qo'lidagi qog'ozga istar-istamas qarab qo'ydi.

Xonning nomasi nega eng avval buvisining qo'liga kelib tushganidan Boburning taajjubi oshdi:

– Nomani kim keltirdi?

– Nufuzli bir darvish. Naqshbandiylardan. Rahmatlik Xoʻja Yahyoga qoʻl bergan moʻysafid ekan.

Bobur onasiga qaradi:

– Sizga keltirib berdimi?

– Yoʻq, – deb Qutlugʻ Nigor xonim maʼyus bosh chayqadi.

Eson Davlat begim nomani Boburga uzatar ekan, uyalinqirab qoʻshib qoʻydi:

– Aslida bu noma Xonzoda begimning nomlariga kelmishdir.

– Ajabo! – deb Bobur xatni jirkanibroq qoʻliga oldi.

– Amirzodam, – dedi buvisi, – sizga aytishga ham uyalurmen... Shayboniyxon Xonzoda begimning taʼriflarini eshitib, gʻoyibona dard chekarmish. Nomasida bir pora sheʼr ham bor.

Bobur Shayboniyxonning bu yil ellik yoshga kirganini, oʻgʻillarini allaqachon uylantirib, nevaralik ham boʻlganini bilar edi. Zaharxanda bilan nomani ochar ekan, eng avval sheʼriy satrlarga koʻzi tushdi:

*«Sifatingni eshitib, zor oʻldim,  
Ishqing ilkiga giriftor oʻldim».*

Boburning gʻashi kelib, nomani gilam ustiga otdi:

– Bu xon bultur Sulton Ali mirzoning onasi Zuhra begimga gʻoyibona oshiq boʻlib noma yuborganini nechun unutdilaringiz? Nahotki, ishonib boʻlsa?!

Qutlugʻ Nigor xonim uh tortdi. Eson Davlat begim esa iloji boricha sovuqqonlik bilan gapira boshladi:

– Amirzodam, boshqa vaqt boʻlsa dushmaningizning bu nomasini oʻqishga ham hazar qilur edik. Lekin hozir jonimiz qil ustida. Men-ku, yoshimni yashab, oshimni oshaganmen, besh kun oldinmi, keyinmi, baribir keturmen. Lekin siz farzandimning yolgʻiz oʻgʻli, koʻzimizning oq-u qorasi...

– Men ham taqdirimda borini ko‘rurmen. Nasib qilsa yov halqasini yorib chiqurmiz!

Boburning qaltis qarorini Qutlug‘ Nigor xonim Qosimbekdan eshitgan ekan shekilli, tahlika to‘la tovush bilan gapirdi:

– Taqdir deb o‘zingizni o‘tga tashlamang, amirzodam! Bizni ham o‘ylang! Siz yov tig‘iga o‘zingizni ursangiz, biz ne qilurmiz? Umr yo‘ldoshingiz Oyisha begim ne qilur?

Bobur bunday xatarli jangga ayollarni olib chiqib bo‘lmasligini endi o‘yladi-yu, onasining so‘zlariga javob topolmay qoldi. Bir lahzalik sukutdan so‘ng Eson Davlat begim gilam ustida yotgan nomaga ishora qilib, istehzoli kulimsiradi:

– Buning kelganiga ikki kun bo‘ldi. Meni bilursiz, amirzodam. Ko‘p balolarni ko‘rib pishgan tadbirkor kampirmen. Noma keltirgan darvishni gapga soldim. Shubhalarimizni aytdim.

Darvish qasam ichdi. «Xon astoydil sulh tuzmoqchi», deb birtalay dalil keltirdi. Baribir ishonmadim. «Bo‘lmasa vakil yuboring, xon o‘z niyatini qo‘lida Qur‘on bilan tasdiqlasin!» – dedi. Biz buni sizga aytishdan oldin o‘zimiz taftish qilmoqchi bo‘ldik. Rahmatlik Xo‘ja Yahyoga qo‘l bergan halol-u pokiza bir mo‘ysafid bor edi. O‘shani darvish bilan birga xon o‘rdusiga chiqardik. Bugun ertalab qaytib keldi. Xon barcha sultonlarning oldida qo‘liga Qur‘on olib aytibdir: «Shuncha qon to‘kilgani yetar, endi Xonzoda begim rozi bo‘lsinlar, inilariga, onalariga, boshqa odamlariga tegmaymiz, qal‘adan bexavotir chiqib ketsunlar», debdi. Katta to‘y-tomosha bilan uylanmoqchi emish. Samarqand xalqiga ham avfi umumiy bermoqchi emish! Bir qancha mo‘ysafidlar buni eshitib, bizdan iltimos qildilar. Nachora?

Bobur chakkalarini ikki qo‘li bilan qisib, bir lahza jim turdi-yu, so‘ng birdan alami kelib gapirdi.

– Gulday Xonzoda begim nevaralik xonning haramida... Yo‘q, yo‘q! Bu insofsizlik!

– Amirzodam, – deb endi Qosimbek gapga aralashdi.

– Shu ketishda Shayboniyxon Samarqandni baribir olur. O‘shanda zo‘rluk bilan bo‘lsa ham o‘z niyatiga yetur.

Bobur onasidan himoya kutib, Qutlug‘ Nigor xonimga yuzlandi:

– Onajon, Xonzoda begim ham sizning suyuqli farzandingiz-ku. Shunday jigarbandimizni qaysi vijdon bilan o‘tga solurmiz?!

O‘zi zo‘rg‘a turgan Qutlug‘ Nigor xonim o‘g‘lining bu gapidan kuyunib yig‘lay boshladi:

– Xudo mening boshimga bu qora kunlarni solguncha jonimni olsa bo‘lmasmidi?! Xonzoda begim – mening to‘ng‘ichim! Yolg‘izligimni bildirmay yurgan sirdoshim, mehribonim! Men undan qandoq ayrilgaymen, ey, Parvardigor? Men shunday qizimni yog‘iy panjasiga qanday topshirurmen?!

Eson Davlat begim qizining yelkasidan silab, uning iztirobini bosishga tirishar ekan:

– O‘zingizni bosing, bolam! – dedi. – Sizdan ko‘ra qizingiz aqliroq. Xonzoda begim hamma narsani tushundi. Mushkilotlarga fahmi yetdi. Yig‘lab-siqtab, axiri ko‘ndi.

Bobur hang-mang bo‘lib, Qosimbekka yuzlandi:

– Nahotki shu gap rost? Xonzoda begim rozi bo‘ldilarmi?

– Ha, amirzodam!

– Ishonmaymen! – dedi Bobur. So‘ng kaftini kaftiga asabiy urib, savdarboshini chaqirdi-yu:

– Xonzoda begimni chorlang! – deb buyurdi. Keyin onasi, buvisi va Qosimbekka qarata dedi:

– Meni ma‘zur tutingiz, begim bilan yaklama-yakka so‘zlashmoqchimen.

Uchovlari indamay chiqib ketishdi. Anchadan keyin yashil qabo kiygan Xonzoda begim eshikdan motamsaro bir alpozda sekin kirib keldi.



Bobur uni qarshisiga o'tqazib, bir lahza yuziga tikilib turdi. Ilgarigi gulgun yonoqlar endi sarg'ayib ichiga botgan. Lablar so'lg'in. Faqat yirik-yirik ko'zlarida qandaydir qat'iyat alomati bor.

– Begim, siz... Shayboniyxon taklifiga rizolik bergan emishsiz. Shu rostmi?

– Rizo bo'lmay ne ilojim bor?

– Mening mag'lubiyatim sizni ilojsiz qoldirgani rost. Lekin iningiz hali tirik. Men asir tushmoqchi emasmen. Bir o'lim bo'lsa, hamma vaqt bor. Ajal yetmagan bo'lsa, sizlarni olib chiqib keturmiz. Kunim bitgan bo'lsa, ilkimda qilich bilan jon berurmen. Ana undan keyin rizolik bersangiz mayli. Unda hech kim: «O'zi omon qolib egachisini qurbon qildi», deyolmas. Menga bunday malomatdan o'lim afzal. Rizo bo'lmang!

Xonzoda begimning ko'ziga yosh quyulib keldi. U Boburni yov halqasini jang bilan yorib chiqib ketolmasligini bilardi. Bobur bir o'limni astoydil bo'yniga olib, shunday deganini sezardi. U Boburni mana shu mardligi va dovyurakligi uchun ham jonidan ortiq ko'rar, o'zini yov qo'lga tutqazib, ukasini naqd o'limdan olib qolishni istardi.

Lekin u o'zining bu niyatini Boburdan yashirishga majbur edi. Chunki Bobur, hozir o'zi aytganday, opasini qurbon qilib qutulib ketish malomatidan o'limni afzal ko'rardi. Agar u Xonzoda begimning asl niyatini bilib qolsa, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham opasini niyatidan qaytaradi. Undan keyin najot yo'li butunlay bekiladi!

– Boburjon, siz meni deb bevaqt o'limni bo'yingizga olmang. Men sizning ulug' istiqbolingizga ishonurmen. Sizdek nodir iste'dodlar dunyoga kam kelishini boshqalar bilmasa ham men bilurmen. O'zingizni ehtiyot qiling! Taqdiringizni toleyi past egachingizning taqdiri bilan tenglashtirmang!

– Nechun bunday deysiz? Hammamiz ham bu o'tkinchi dunyoga mehmonmiz! Siz bilan men bir onaning farzandlarimiz!

– Lekin men qiz tug'ilganmen, farqimiz shunda! Yoshim yigirma beshga kirdi-yu, hamon yolg'izmen. Men ko'ngil qo'yg'an odamni taqdir menga ravo ko'rmadi! Omadingiz kelib, Shayboniixonni yengganingizda, balki mening orzularim ham ro'yobga chiqur edi! O'shanda, balki mening ham baxtim ochilarmidi? Yo'q, hamma umidlarim tarixning g'ildiragi tagida yanchildi! Qachongacha dargohingizda qari qiz bo'lib yurgaymen, izzatimni bilishim kerak!

– Nahotki, siz nevaralik cholni o'zingizga munosib ko'rsangiz?

– Munosibimni topishdan umidim uzilgan! Endi keksami, yoshmi, menga baribir!

– Bir vaqtlar O'shda siz menga nelar degan edingiz? «Ko'nglingizga ishonning», demagan edingizmi? Nahotki, sizning ko'nglingiz shu berahm xonga moyil bo'lsa? Bultur bu odam Zuhra begimga qanchalik noinsoflik qilganini bir eslang. Nahotki, siz shunday odam tufayli bizdan ajralib ketmoqchi bo'lsangiz?!

Xonzoda begim o'kirib yig'lab yubordi:

– Ne qilay?! Boshqa najot yo'q! Yo'q!!!

– Bir onadan tug'ilganmiz, endi taqdirimizda neki bo'lsa birga ko'rurimiz! Bizdan ajralmang! Tunda yov halqasiga hamla qilurimiz! Tayyor turing!

Xonzoda begim ham yana erkakcha kiyinib, ukasi bilan jangga kirishni butun vujudi bilan istardi. Hozir unga ham dushman asoratidan ko'ra qo'lida qurol bilan o'lish afzal tuyilardi.

Xonzoda begim to'satdan shu tuyg'uga berilib:

– Qachon? – deb so'radi.

Bobur ovozini pasaytirib:

– Shu bugun kechasi! – dedi.

Xonzoda begim bugun kechasi suyukli ukasining yov qurshovida halok bo'lishi muqarrarligini go'yo oldindan sezdi-yu, seskanib o'rnidan turdi:

– Bugun emas! Yo'q, yo'q!

Bobur ham o'rnidan turdi:

– Begim, mening inilarcha aytgan so'zim inobatga o'tmasa, buni podshohlik farmoni deb biling!

Xonzoda begim indamay, Boburga yaqinlashdi. Yuzini ukasining ko'kragiga bosib, yelkalari silkina-silkina o'rtanib yig'ladi. Shu tarzda u Bobur bilan so'zsiz vidolashdi-yu, keyin go'yo uning farmoniga bo'ysunganday bosh egib, chiqib ketdi.

\* \* \*

Yarim tunda Bobur, Qosimbek, Qutlug' Nigor xonim, Oyisha begim, Tohir xotini Robiya bilan birga, yana o'ttiz-qirq nafar bek va navkarlar Shayxzoda darvozasiga yig'ildilar. Biroq ularning orasida Xonzoda begim yo'q. Bobur Xonzoda begimni birga olib chiqishni onasiga topshirgan edi.

Qutlug' Nigor xonim yig'layverib, ovozi oldirib qo'ygan. Uning hazin tovush bilan bergan uzuq-yuluq izohidan Bobur shuni bildiki, Xonzoda begim buvisi bilan birga Chorraha darvozasiga qarab ketgan.

Shayboniyxonning qarorgohi o'sha tomonda. Nahotki, Xonzoda begim o'sha niyatidan qaytmagan?

Bobur orqaroqda turgan navkarlariga o'girildi-yu, ko'zi Tohirga tushdi:

– Tez Chorraha darvozasiga boring! Xonzoda begimni topib, mening buyrug'imni yetkazing! Darhol bu yoqqa yetib kelsinlar! Begim kelmagunlaricha biz qo'zg'almaymiz! Shuni borib ayting!

– Amirzodam!.. – deb Qosimbek Boburga e'tiroz qilmoqchi bo'lgan edi. Bobur unga quloq solmay, yana Tohirga buyurdi:

– Tezroq boring!

Shiddat bilan chopayotgan otning taqalari toshlarga qarsillab urilib, ko'chalarning tungi sukutini buzib o'tdi. Tohir Chorraha darvozasiga yetib borganda Xonzoda begim tushgan mahofa mash'al ko'targan otiqlar qurshovida qo'rg'ondan chiqib ketmoqda edi.

Ko'pdan beri davom etayotgan qamal yov qo'shinini ham toliqtirgan, hamma urush tugashini sabrsizlik bilan kutar, agar Boburning opasi xonning shartini qabul qilsa, sulh tuzilishini ko'p odam bilar edi. Endi shahardan mash'alalar yoqib, darvozani ochib chiqqan shohona mahofa va uning ichida o'tirgan Xonzoda begim xon qo'shiniga tinchlik alomati bo'lib ko'rindi-yu, hammani uyg'otib yubordi. Sulh keltirayotgan malika sharafiga nog'oralar va karnay-surnaylar chalindi.

Mahofa atrofiga mo'ri-malaxday qo'shin to'planib borayotganini Tohir ochiq darvoza orqali ko'rdi-yu, otini tez orqaga burdi. Shayxzoda darvozasi oldiga uchib borib, hamma ko'rganlarini Boburga aytib berdi.

Shodlikka to'lib yangrayotgan nog'ora sadolari, karnayning «vah-vaha-hu-u»si, surnay navosi bu yerlarga ham eshitilmoqda edi. Boburning nazarida, Xonzoda begim qari qiz bo'lishdan qo'rqib va ukasi dargohida tortgan kulfatlaridan bezib, Shayboniyxon huzuriga rohat-farog'at izlab ketgan edi.

– Dunyoda sadoqat yo'q ekan! – dedi u alam bilan va otining jilovini siltadi: – Darvozani oching!

Darvoza sekin ochildi. Choh ko'prigi tushirildi. Olti oydan beri qo'rg'ondan chiqmagan bir dasta otlig'-u piyoda odamlar qorong'i tunda yuraklarini hovuchlab, choh ko'prigidan o'tdilar.

Atrof tahlikaga to'la. Go'yo har daraxt ortida bir o'lim kutib turibdi. Yo'llarda yov jangdovullari uchrab qolishidan xavotirlanib, yo'lsiz joylardan yurdilar,

chuqur ariqlardan oʻtdilar. Lekin biror joyda yovga duch kelmadilar.

Samarqand qoʻrgʻoniga oʻralib, uning olti darvozasini olti boshli ajdarhoday qoʻriqlab yotgan yov qoʻshinining butun diqqat-eʻtibori xon qarorgohidan kelayotgan karnay-surnay tovushiga va qalʼadan goʻyo sulh timsoli boʻlib chiqqan malikaga jalb boʻlgan edi. Xonzoda begim xonning shartini qabul qilgandan soʻng Boburni taʻqib etmaslik haqida butun qoʻshinga farmon berilgan edi.

Xonzoda begim hamma balolarga oʻzini tutib berib, ukasini yov qurshovidan xalos qilganini Bobur bilmasa ham Qutlugʻ Nigor xonim yaxshi bilar edi. Uzoqdagi nogʻora va karnay-surnaylar toʻy shodiyonasini eslatuvchi quvnoq kuylar chalgan sari Qutlugʻ Nigor xonimning yuragi qon boʻlib, koʻzlaridan duv-duv yosh toʻkildirdi.

## **TOSHKENT, O'RATEPA, SO'X**

### **KO'CHKI BOSGAN BULOQ**

#### **1**

Toshkent... O'n besh-yigirma yildan beri urushning sovuq nafasi tegmagan bu shahar Samarqandga nisbatan osuda hayot kechirmoqda edi. Toshkent qo'rg'onining har o'n ikki darvozasidan odamlar bemalol kirib-chiqib turibdi. Bo'zsuv va Solor arig'ining bo'ylaridagi mevali daraxtlar kuz yomg'irida yuvingan. O'rik, olcha barglari o'z butoqlari bilan vidolashish oldidan shafaqday qizil tus olgan. Uzoqdan ko'rinib turgan Chotqol tog'lariga qor tushgan. Qamal dahshatlarini boshdan kechirib kelayotgan Boburga Toshkentning to'kin-sochin kuzi, bag'ri kengligi, tog'dan esgan sarin shabadasi mas'ud o'smirlik davrini eslatdi. U o'n olti yasharligida kelganida, Xadradan pastdagi Hazrati Ukkosha bulog'idan suv ichgan. O'qchi mahallasida Toshkentning jahonga mashhur o'q-yoylarini yasagan ustalarga oltin bezakli «Kamoni Shoshiy» buyurtma bergan, Shayxontohurga ko'milgan bobosi Yunusxonning qabrini ziyorat qilgan edi.

Hozir u elliktacha bek va navkari bilan (qolganlari uni O'ratepada kutib turadigan bo'lishdi) Beshog'och darvozasidan kirib, Qoratosh mahallasi orqali xon saroyi tomon borar ekan, yonidagi Qosimbek birdan bezovta bo'ldi:

– Nechun dorug'a peshvoz chiqmadi?

Bobur Toshkent xonining jiyani edi, o'tgan gal kelganlarida, shahar dorug'asi ularni qo'rg'ondan tashqarida izzat-ikrom bilan kutib olib, saroyga boshlab borgan edi.

– Bu gal biz xonumondin ayrilib, magʻlub boʻlib kelmoqdamiz, janob Qosimbek! – dedi Bobur maʼyus kulimsirab. – Shuning uchun ortiqcha ehtirom kutmang.

Chindan ham Mahmudxon saroyida Boburni juda sovuq qarshi olishdi. Uning navkarlarini, hatto arkka kirgizishmadi. Bunday munosabatdan Qosimbek goʻyo oʻzini izzat-nafsi toptalgan odamday his qilib, gʻururi ogʻringaniday asabiylashayotganini koʻrgan Bobur:

– Siz bilan biz Samarqandda naqd oʻlimni zim-mamizga olgan edik, hatto oʻlimdan najot izlagan edik! – dedi. – Oʻshal dahshatlarning oldida bu mayda behurmatliklar hech gap emas. Kecha Oʻratepada bir bayt bitdim, aytaymi?

– Bajonidil!

– Eshiting:

*Davlat uchun koʻngulni zor etma,  
Izzat uchun oʻzingni xor etma!*

– Haq gapni bitibsiz, amirzodam. Bu bevafo dunyo gʻam yemakka arzimaydir!

Shu bilan ikkovlari bir-birlariga sal tasalli bergan boʻldilar-u, Bobur xonning qabulxonasiga qarab ketdi.

Qoʻliga oltin dastali hassa ushlagan, zarbof toʻn kiygan shigʻovul Mahmudxonning Shayboniyxon elchisi bilan band ekanini aytganda, Boburning qalbida birdan noxush tuygʻular qoʻzgʻaldi. U qamaldan chiqqandan soʻng ikki oycha Oʻratepada xolasinikida turgan, Shayboniyxon Mahmudxonga elchi yuborib, Movarounnahrni boʻlib olish haqida bitim tuzishga intilayotganini oʻsha yerda eshitgan edi. Mish-mishlarga qaraganda, Shayboniyxon Fargʻona vodiysini Toshkent xoniga berib, Oʻratepani oʻzi ishgʻol qilmoqchi emish. Agar shu gap rost chiqsa,

Boburning bu atrofda jon saqlaydigan joyi qolmaydi, Movarounnahrda bosh olib chiqib ketish kerak bo'ladi.

Uning bugun Toshkentga kelishidan maqsadi – tog'asini Shayboniyxonning makr-u hiylalaridan ogoh qilish va uni bosqinchilarga qarshi mudofaaga chorlash...

Bobur qabulxonada ancha vaqt muntazir turgandan keyin shig'ovul chiqib, uni xonning huzuriga boshlab kirdi. To'rdan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan shatranj donalari ko'rindi. Shayboniyxonning elchisi yo'g'on gavdali, bahaybat Jonibek Sulton xonga ta'zim qilib turibdi. Sarg'ish yuzli, xushbichim Mahmudxon tillarang mo'ylovini dikkaytirib, mamnun kulimsirayotganiga qaraganda, hozir Jonibek Sultonni shatranjda yutgan edi. To'rt yildan beri jiyanini ko'rmagan tog'asi shuncha uzoqdan boshiga kulfat tushib kelgan Boburni kuttirib qo'yib, o'zi Shayboniyxonning elchisi bilan shatranj o'ynab o'tirganida qandaydir yashirin ma'no bor edi. Mahmudxon mag'lub bo'lgan jiyanidan ko'ra, g'olib Shayboniyxonni ortiqroq hurmat qilishini elchiga sezdirib qo'ymoqda edi.

Buni payqagan Bobur Jonibek Sultonga ataylab salom bermadi, unga xuddi devorga qaraganday beparvo bir nazar tashladi-da, tog'asiga yuzlandi:

– Xon hazratlari, men sizni yog'iylaringizning makr-u hiylalaridan ogoh qilgali keldim!

U Jonibek Sultonning chiqib ketishini kutib, bir lahza sukut qildi. Oraga tushgan noqulaylikni tarqatish uchun Mahmudxon elchiga maxsus ehtirom bildirib, uni eshik og'zigacha kuzatib qo'ydi. So'ng Boburni zarbof ko'rpacha ustiga taklif qilib, o'ng yoniga o'tqazdi:

– Xush kelibsiz, Mirzam! Ko'p otashin bo'lmang. Bu kunlar ham o'tar. Siz hali yoshsiz, o'ng gulingizdan biri ham ochilgan emasdur.



– Mening ko‘p gullarim ochilmay xazon bo‘ldi, hazratim. Mening bir qanotim Ahmad Tanbalning olovida kuydi-yu, ikkinchi qanotimni Shayboniyxon kuydirdi. Ilohim, endi siz shu mash‘um olovlarning orasida qolmang!

Mahmudxon bu gapni sal boshqacha tushundi:

– To‘g‘ri, Tanbal bizga ham xiyonat qildi. Shuning uchun biz Tanbal elchisini emas, Shayboniyxon elchisini qabul qildik.

– Ammo siz uchun Tanbaldan ko‘ra Shayboniyxon yuz chandon xatarliroq, hazratim! Chunki Tanbalga Farg‘ona vodiysi yetib ortadir. Ammo Shayboniyxon butun Movarounnahrni egallamoqchi. Xuroson bilan Eronni ham olmoqchi. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, uning unvoni: «Xalifayi Rahmon, Iskandari soniy!». Shayboniyxon Iskandar Zulqarnayndek barcha mamlakatlarni fath etmoqchi, yana bu bilan qanoatlanmay, butun musulmon olamining diniy rahbari – xalifayi zamon bo‘lmoqchi!

Shayboniyxonning niyati uning unvonidan ham ko‘rinib turishiga Mahmudxon ilgari uncha e‘tibor bermagan edi. Hozir Boburning so‘zlari ta‘sirida bir lahza o‘ylanib oldi, so‘ng boyagi xon elchisining so‘zlarini esladi:

– Nazarimda, Shayboniyxon bizga qarshi yurish qilmoqchi emas. Elchisining aytishicha, ular Hisorni, so‘ng Xuroson bilan Eronni egallashmoqchi.

– Xon hazratlari, bu hammasi sizni g‘aflatda qoldirish uchun keltirilgan yolg‘on dalillardir! Tarixni bir eslang: qaysi fotih avval Toshkent bilan Farg‘onani olmay turib, Xuroson-u Eronga yurish qilgan? Chingizxonmi? Yo‘q! Amir Temurmi? Yo‘q! Axir butun Movarounnahrni, Samarqand-u, Toshkent-u, Farg‘onani egallamasdan, ularning kuchiga tayanmasdan turib, Xuroson-u Eronga yurish qilish ahmoqlik bo‘lur-ku! Buni Shayboniyxon bilmagay deysizmi?

Shayboniyxonning Toshkentga hujum qilish ehtimoli Mahmudxonni anchadan beri tahlikaga solib kelardi. Shuning uchun u Issiqko'ldan narida hukmronlik qilib yurgan ukasi Olachaxonni o'n besh ming qo'shini bilan yordamga chaqirgan. Bu qo'shin hozir yo'lda, biror oy ichida Toshkentga yetib keladi. Shayboniyxonning odamlari bundan allaqachon xabar topgan bo'lishlari kerakki, Toshkentga elchi yuborib, murosa yo'lini izlab qolishdi. Mahmudxon Shayboniyxonning sarkardalik qobiliyatini yaxshi biladi va u bilan urushishni istamaydi. Jiyani Bobur esa urush bo'lishini juda naqd qilib qo'yyapti. Nega? Mahmudxon jiyaning niyatini aniqroq bilmog'chi bo'ldi:

– Xo'sh, Mirzam, Shayboniyxonning urushishi aniq bo'lsa, biz ne qilmog'imiz kerak?

– Shayboniyxonga qarshi turgan barcha kuchlar to'planib, ittifoq tuzmog'imiz lozim!

Mahmudxon qo'ng'ir ko'zlarini Boburga sinovchan nazar bilan tikdi.

– Siz bilan ittifoq tuzaylikmi, Mirzam?

– Faqat biz emas, kichik xon dodam Olachaxon hazratlari borlar-ku.

– Ha, Olachaxonning qo'shini bilan mening qo'shim birlashsa, o'ttiz ming bo'lur. Keyin biz sizning qo'shiningiz bilan birlashurmiz – shunda qancha bo'lg'ay?

Boburning ikki yuz-u elliktagina odami qolgan edi. Buni yaxshi biladigan Mahmudxon Boburni kulgi qilmoqchi bo'lib, shu savolni bermoqda edi. Chindan ham o'ttiz ming qo'shini bor xonlar bir dasta askari qolgan, xonumonidan ayrilgan Bobur bilan ittifoq tuzib o'tirarmidi?

Bobur Mahmudxonni o'ziga yaqin olib, shu gapni aytganidan izza bo'ldi.

– Hazratim, o'gay taqdir hozir meni shu ko'yga soldi. Ammo biz mag'lubiyat zahrini ichishdan oldin g'alaba

sharobini ham tatib ko'rgan edik. Shuning uchun sizga ko'nglimni ochib gapirishga jur'at etdim!

– Ochiq gapirganingiz ma'qul, albatta. Qalay, iloj bo'lsa, Shayboniyxon bilan yana olishmoqchimisiz?

Mahmudxonning savolida: «Yiqilgan kurashga to'ymaydi, chamasi-da!» degan kinoyali ma'no bor edi.

– Olishishga mening haqim bor, – dedi Bobur. – Chunki birda yiqilgan bo'lsam, birda yiqitganmen! Ammo siz Shayboniyxonga ko'p yordamlar bergansiz!..

– Bu – rost, rost! – dedi Mahmudxon. Shu tobda uning ko'nglidan: «Agar og'a-ini ikkovimizning o'ttiz ming qo'shinimizga Boburni sarkarda qilib qo'ysak, jiyanimiz Shayboniyxon bilan urushib, ancha tajriba orttirgan, o'zi ham dovyurak yigit, yengib chiqishi mumkin», degan fikr kechdi.

Mahmudxonning o'zida sarkardalik iste'dodi yo'q edi. Agar Bobur uning qo'shiniga bosh bo'lib Shayboniyxonni yengsa, keyin odamlar Mahmudxonni emas, Boburni va uning iste'dodini ulug'laydi. Undan so'ng, Bobur Toshkentni ham tog'asidan tortib olishga haqli bo'ladi. Chunki azaldan ma'lum: qo'shin kimning qo'lida bo'lsa, hokimiyat o'shaniki.

Mahmudxon shuni o'yladi-yu, o'z qo'shiniga Boburni sarkarda qilish fikridan darhol qaytdi.

Gapni boshqa yoqqa burib:

– Sho'rlik Xonzoda begim... ne ko'ylarga tushdi-a? – dedi. – Shayboniyxon makkor tulki-da. Xonzoda begim ona tomondan bizga avlod, ota tomondan Temuriylarga mansub. Begimni olsa, obro'si oshishini bilgan. Samarqandda dabdabali to'y berib uylanganmish.

Mahmudxonning gap avzoyidan, Bobur go'yo opasini qurbon qilib, o'zi qutulib chiqqan edi. Bobur voqeaning boshqacha bo'lganini ayta boshlaganda, Mahmudxon ishongisi kelmay bosh chayqadi:

– Juda uyat bo'ldi-da, Mirzam, hammamiz malomatga qoldik!

– Davron mening boshimga toj kiydirgan edi, – dedi Bobur yana otashin bo‘lib. – Endi shu toj o‘rnida ta’na toshi! Hammasidan to‘ydim, xon hazratlari! Endi borsa kelmas bo‘lib bosh olib ketishdan boshqa ilojim qolmadi!

– Undoq demang, Mirzam! Minba’d siz bizning aziz mehmonimizsiz. Egachim Qutlug‘ Nigor xonim sizga muntazir edilar. Zaifangiz Oyisha begim ham shu yerdalar. Borib ular bilan ko‘rishing, dam oling. Ertaga Shayboniyxon elchisi sharafiga qabul marosimi o‘tkazmoqchimiz. Siz ham ishtirok eting!

Bobur xon huzuridan chiqar ekan, hamma gapi bekor ketganini, Mahmudxon Shayboniyxondan tahlikaga tushib qolganini va u bilan dadil olishishga jur‘at etolmay, xushomad yo‘liga o‘tganini endi aniq sezdi. Ark hovlisidan o‘tib borayotganda, Toshkentdagi osudalik hozir unga dovul oldidan bo‘ladigan xatarli sukunatdek tuyildi. Yaqinlashib kelayotgan dovuldan onasi va xotinini olib chiqib ketish niyati bilan arkning to‘ridagi ayollar turadigan ichki hovlilarga qarab ketdi.

\* \* \*

Oyisha begim Toshkentga bundan ikki oy avval kelgandi. Samarqandda ilk farzandining o‘limi ustiga qamal azoblari qo‘shilib, yosh juvon kasalmand bo‘lib qolgan edi. Mahmudxonning suyukli xotini Roziya Sulton singlisiga o‘zi turgan qasrdan joy berib, uni eng yaxshi tabiblarga qaratgan va yaxshi parvarish qilib, oyoqqa turg‘izgan edi.

Bobur shuning hurmatini qilib, avval Roziya Sulton begim huzuriga kirdi. Oyisha begimga qilgan parvarishlari uchun qaynegachisiga minnatdorchiлик bildirdi-yu, endi xotinini O‘ratepaga olib ketmoqchi ekanini aytdi. Laqabi «Qorako‘z begim» bo‘lgan o‘ttiz

yoshlardagi bu chiroyli juvon shahlo ko'zlaridan uchqunlar sochib:

- Amirzodam, Oyisha begim sargardonlikdan to'ygan, endi uni chekka joyga yubormagaymiz! - dedi.

- Taqdirimizda bori shu bo'lsa, nachora, hazrat begim?

- Meni ma'zur tuting, amirzodam, ammo har kimning taqdiri o'z peshonasiga bitilur.

- Biroq... kemaga tushganning joni bir bo'lmasmi?

- «Jonimiz bir» deb bechora singlinga shuncha azob berganlaringiz yetar. Ozib cho'p bo'lib keldi. Endi sog'ayganda yana sarsonlik, yana lomakonlik!

Bobur bugun mayda-chuyda behurmatliklarga bardosh berishni zimmasiga olib kelgan bo'lsa ham, lekin xonning boyagi kinoyalari ustiga qaynegachisining bu beandisha gaplari qo'shilib, jon-jonidan o'tib ketdi.

- Hazrat begim, maqsadingizni ochiq ayting - endi singlingizni mendan ajratib olmoqchimisiz?!

- Men undoq deganim yo'q! Siz ham sargardonlikni bas qiling, amirzodam. Endi Toshkentda muqim turing!

Bobur: «Sizga sig'indi bo'libmi?» degisi keldi-yu, lekin yana o'zini bosib:

- Taklifingiz uchun tashakkur! - dedi va xayrlashib chiqib ketdi. O'sha kuni oqshom u Oyisha begim bilan yolg'iz qolganda, Roziya Sulton begimning gaplaridan norozi bo'lganini aytdi:

- To'n ilig'ini egasi bilur, deydilar. Roziya Sulton begim bizni o'zimizchalik bilmasalar kerak. Ko'p aralashmasalar yaxshi bo'lur edi.

- Ammo men egachimga hamma gapni aytib berganmen, Mirzam.

- Er-xotinning hech kimga aytmaydigan sirlari bo'lmagaymi?

Oyisha begimning ilgarigi uyatchanliklari endi qayoqqadir yo'qolgandi. U ham opasiga o'xshab, Boburga tik gapirdi:

– Mening egachimdan yashiradigan sirim yo'q, Mirzam!

Bir vaqtlar Boburni ulug'lab, «hazratim» deydigan Oyisha begim endi xonga o'xshab, balandroqdan kelib, «mirzam» deyishi ham g'alati edi.

Bobur kinoya bilan so'radi:

– Demak, endi sizga men kerak emasmen, faqat egachingiz kerak?

– Nechun unday deysiz? Men hali ham sizning nikohingizdamen!

– Unday bo'lsa, men sizni bu yerdan olib keturmen. Safar tayyorgarligini ko'ring!

Yo'l azobiga chidami yo'q Oyisha begim ozorlanib so'radi:

– Yana O'ratepagami? Men o'sha yo'llarni eslasam, ko'nglim behuzur bo'ladir. Hazratim, mening jonimni yo'l oldi! Samarqandga bejon bo'lib bormasam edim, jigarporam o'lmas edi. Mana hozir bir yoshga kirib tetapoya bo'lib yurib ketur edi!

Oyisha begim go'dak o'lgan qizalog'ini eslab, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. O'shandagi o'limning sovuq nafasi Boburning ham yuziga tegib o'tganday eti uvushdi.

– Ajalga davo yo'q ekan, begim. Lekin undan berida bir boshga necha qayta oftob tegib, necha marta kulfat tushar ekan. Yosh bo'lsak ham buni ko'p ko'rdik. O'lmasak, hali yana yorug' kunlarga yetishurmiz, farzandlik ham bo'lurmiz. Shu mushkul damlarda bir-birimizni tark etmaylik. Men bilan birga yuring.

– Birga yurgan paytlarimda siz menga qaradingizmi, Mirzam? Hamisha saltanat tashvishi-yu urush-yurishlar... Men sizni deb shuncha sargardon bo'ldim. Siz meni oylar davomida ko'rmasangiz ham sog'inmas

edingiz... Balki, men sizga munosib emasdurmen?.. Suymagan xotiningizning sizga ne keragi bor?!

Bobur xotiniga ko'ngilsizroq bo'lib yurgan paytlarini esladi. Hozir ham Oyisha begimni birga olib ketishga urinayotgani – uni ortiq darajada suyganidan yoki usiz yashay olmasligidan emas, balki Oyisha begimni yaqinlashib kelayotgan xavf-xatar girdobiga tashlab ketishni o'z sha'niga munosib ko'rmaganidan edi.

– Xonzoda begimni yog'iyga oldirganimiz ozmi? – dedi Bobur. – Shuning malomati ham menga yetib ortadir, begim! Endi sizni bunday balolardan uzoqqa olib ketmoqchimen!

– Hozir men uchun Toshkentdan tinch joy yo'q!

– Bu hammasi – muvaqqat tinchlik, inoning! Ko'p o'tmay, Shayboniyxon bu yerga ham bostirib kelur!

– Men egachimning qanoti ostida hech narsadan qo'rqmaymen! Dargohingizdan adoyi tamom bo'lib kelib, egachimning yonida yana tirildim!

– Mening dargohimda qiynalغانingiz rost. Lekin... yaxshi kunlarimiz ham bo'lgan edi-ku!.. Insof bilan bir eslang axir!..

Oyisha begimning barcha alamlari yangilanib, xotirasi loyqalanib turgan shu daqiqalarda birorta yaxshi kun esiga tushmadi.

– Dargohingizda qachon yaxshi kun ko'ribmen, Mirzam! Mudom safar! Mudom tahlika! Mudom sarsonlik! Mudom bemehrlik!

Bobur Oyisha begimdan bunchalik adolatsiz gap kutmagan edi. Axir u Samarqandni birinchi marta olganida, Oyisha begim «najotkorimizga» deb sovg'a yubormaganmidi? Keyingi g'alabasida, «faxrlanamen» deb shivirlagan kim edi? Bobur bularni eslab o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi-yu, xotiniga hayrat bilan tikilib:

– Nahotki hammasini unutgansiz? – dedi.

– Yo'q, ko'rgan azob-uqubatimni umrbod unutmasmen!

– Faqat azob-uqubat?!

– Bu ozmi? Oz bo'lsa, xo'rlanib yig'laganlarimni ham unutmashmen! Endi qolgan umrimni egachimning duoyi jonini qilib o'tkazurmen. Sargardonlik bas! Xo'rlik bas! Men ham shoh qizimen!

Bobur oltin kamariga osilgan charm hamyonini titroq qo'llari bilan ochib, nimanidir qidirdi, ammo topolmadi. So'ng indamay tashqari chiqdi-yu, mulozimlari turadigan xonaga o'tdi. Dastorpech ertaga bo'ladigan qabul marosimi uchun Boburning shohona kiyimlarini sandiqdan olib, dazmollamoqda edi. Oltinlar, qimmatbaho gavharlar bilan bezatilgan ipak kiyimlar Bobur hozirgina xotini va qaynegachisidan eshitgan beandisha gaplar alamini yanada oshirib ko'rsatganday bo'ldi. Shuning ustiga Qosimbek Boburga ro'para bo'lib, shikoyat qildi:

– Xon shig'ovuli ertangi qabul marosimida Jonibek Sultonni sizdan balandroqqa o'tqazmoqchi emish! Bu ne surbetlik! Axir siz shohsiz! Nahotki dashtiy bir bekni sizdan ortiqroq e'zozlasalar?!

Qosimbek hali ham o'zini Boburning eshik og'asidek tutar va uning obro'-izzatini himoya qilishni o'zining burchi deb bilardi. Xon bugun Boburni qabulxonasida muntazir qilib qo'yib, Shayboniyxonning elchisi bilan shatranj o'ynab o'tirganda ham dashtiy sul-tonni jiyanidan baland qo'ygan emasmidi? Bir kunda shuncha kamsitish!.. Ertaga bunday maydachuyda kamsitishlar yanada ko'payishi aniq. Buning hammasiga chidab, sig'indi bo'lib yurishga bardoshi yetmasligini endi aniq sezgan Bobur:

– Yo'q! – dedi. – Hammasidan kechdim! Janob Qosimbek, men endi shoh emasmen! Kerak emas menga xon qabuli! Bas! Uloqtiring hammasini!

Bobur dastorpechning qo'lidagi oltin bezakli to'nni yulqib olib, yerga otdi. Nariroqda gavhar va yoqutlar bilan bezatilgan shohona salla turgan edi. Bobur sallaga qadalgan ikkita gavhar donasini – bir vaqtlar



Oyisha begim bergan sovg'ani sitib, yulib oldi, so'ng sallani eshikka qarab otdi. Salla chuvalib ketib, bir uchi ostona ustiga uzala tushdi.

Qosimbek sarosima bilan Boburning yelkasiga qo'lini qo'ydi:

– Amirzodam, sizga ne bo'ldi? Amirzodam!

Rangida qon qolmagan Bobur hansirab, xitob qildi:

– Minba'd men bir darvish bo'lib kun ko'rmoqchimen!

Janob Qosimbek, onamga ayting! Men hozir O'ratepaga keturmen! Yuz chumchuqqa bir kesak! Toj-u taxt da'vosidan voz kechdim! Kim shunga ko'nsa, men bilan yursin! Qolganlarga javob!

Bobur salladan yulib olgan ikkita gavharni siqimlaganicha ark hovlisiga chiqdi. «Suymagan xotiningiz sizga ne kerak?» degan so'zlar qulog'iga qaytadan eshitilib ketdi. Chindan ham yulduzi to'g'ri kelmagan begimni endi o'z ixtiyoriga qo'ygan ma'qul emasmi? Ammo bu begim endi til chiqarib, shuncha achchiq gaplarni aytishi, eridan bironta ham yaxshilik ko'rmadim, deyishi, Boburning qalb yaralariga sepilgan tuzdek vujudini achishtirmoqda edi. U o'z xonasiga kirib, qog'oz va daftarlari saqlanadigan sandiq tagidan Oyisha begim bir vaqtlar ipak bilan tikkan xaltachani qidirib topdi. Yillar davomida xaltachaning oq matosi sarg'ayib, xiralashgan, ammo qizil ipak bilan tikilgan «Najotkorimizga» degan kashtasimon yozuv asliday turgan edi. Bobur gavharlarni xaltachaga solib, Oyisha begimning oldiga bordi.

– Begim, siz meni najotkor bilib, bu gavharlarni «Taxtga chiqqanda, tojga qadab chiqsinlar», deb yuborgan edingiz. Hozir mening toj-u taxtim yo'q... Shohlik da'vosidan ham butunlay voz kechdim. Darvish bo'lib, tog'larga chiqib ketmoqchimen. Siz esa shoh qizisiz... Oling gavharlaringizni!.. Balki yana boshqa biron... najotkoringizga sovg'a qilursiz!

Oyisha begim xaltachani olar ekan, achchiq bilan dedi:

– Meni yana tashlab ketadigan bo‘lsangiz, javobimni berib keting!

– Shundoqmi? Ajrashmoqchimisiz?

– Ha. Ajrashamen!

– Bo‘lmasa... bugundan boshlab menga xotin emassiz! Boshingiz ochiq! Shariat bo‘yicha uch taloqsiz!

## 2

O‘ratepaning janubidagi Turkiston tizma tog‘i etaklariga bahor ancha kechikib keladi. Hamal oyining oxirlarida dalalarga endi qo‘sh chiqadi. Qorli Piryax cho‘qqisining tagida to‘rt tomoni baland tepaliklar bilan o‘ralgan shamolpana Dahkat qishlog‘ida o‘riklar savr oyiga borib gullaydi.

Qishloqning kunbotish tomonida baland tepalikka ko‘tariladigan tik yo‘l – baroz bor. Baroz shunchalik balandki, uning yuqorisidan Dahkatga qaralsa, qishloq teran bir chuqurlikning tubiga joylashganday ko‘rinadi. Barozdan yuqoridagi tekis dalada Tohir yalang oyoq bo‘lib, ho‘kiz bilan yer haydamoqda. Samarqandda Tohirga qo‘shilib, navkar bo‘lib kelgan bir qulog‘i kesik Mamat esa hali haydalmagan zoyak yerga qulochkashlab urug‘ sochyapti. U ham yalang oyoq bo‘lib ishton pochasini shimarib olgan. Ulardan narida uch-to‘rtta dahkatlik tojik dehqonlar ham yer haydab, ekin ekayotir. Yer yumshoq, havo yoqimli, ishning unumi yaxshi. Shuning uchun hammalarining ruhlari ko‘tarinki. Shuncha vaqt jang-u jadalda yurib, dehqonchilik kasbini sog‘ingan Tohir endi yayrab, yer haydaydi va birda-yarim ashula xirgoyi qilib qo‘yadi.

Barozdan piyoda ko‘tarilib kelgan Bobur tog‘da qo‘y boqib yurgan, dalada qo‘sh haydayotgan

yosh-yalanglarga qarar ekan, bir narsadan taajjublandi. Tog'-u toshga poyabzal chidamagani uchun kambag'allarning ko'pisi yalang oyoq yurardi. Ust-boshlari ham yupun, lekin ruhlari tetik, qorinlari to'yib ovqat yeyishsa, kayflari chog'.

Bobur o'zini shu yoshlarga qiyos qiladi: uning ham to'rt muchasi sog', o'zi kuchga to'lgan yigirma yoshli yigit, qishloq yigitlaridan kamligi yo'q. Lekin nega u bunchalik g'amgin? Mana bu ulug'vor tog'lar bag'rida nega u go'zal tabiatning tirik bir bo'lagiday yayray olmaydi? Hamma gap yalang oyoq yurishda bo'lganiday, Bobur ag'darma etigini yechib marzaga qo'ydi-yu, haydalgan yer ustida sarpoychan yurib ko'rdi.

Tuproq baxmalday mayin, undan bahor va yoshlikning hidi keladi. Odamning tuproqdan yaratilgani haqidagi rivoyat esga tushadi.

Navkarlar va dehqonlar Boburning yalang oyoq yurganini avval hazilga yo'yib kulishdi. Keyin Bobur etigini marzada qoldirib, Dahkatning barozidan yalang oyoq tushib ketayotganini ko'rishdi-yu, hayron bo'lishdi.

Barozning mayda toshlari Boburning tovonlariga botar, tik joylardan tushayotganda, chaqir toshlar oyog'iga tikan bo'lib kirib ketayotganday og'riq qo'zg'ar edi. Lekin Bobur tishini tishiga qo'yib, og'riqqa chidab borar edi.

Barozning yarmigacha tushganda ketidan ag'darma etikni qo'liga olib, sakrab-sakrab Tohir yetib keldi:

– Amirzodam, etikni kiying! To'xtang. Bu toshlar oyog'ingizni yara qilmasin!

Bobur to'xtab, Tohirning tovonlari qoraygan katta-katta oyoqlariga qaradi:

- Sizning oyog'ingiz jarohatsiz-ku!
- E, amirzodam, biz o'rganib ketganmiz.
- Men ham o'rganmoq istaymen.
- Nechun?

– Sizlarga havasim kelur, – dedi Bobur yoʻlida davom etib.

Tohir undan sal keyinroqda borar ekan, kuldi:

– Amirzodam, podshohning navkarga havasi kelishi mumkin emas.

Bobur Tohirdan xiyol ranjib:

– Siz ham menga ishonmadingizmi? – dedi. – Toshkentda podshohlik daʼvosidan voz kechganimni aytgan edim-ku!

Bu hodisaga Qosimbek ham, boshqa koʻpchilik bek va navkarlar ham «achchiq ustida shunchaki aytilgan gap», deb qarashgan va oʻsha ikki yuz ellik kishining hammasi Qutlugʻ Nigor xonim bilan birga Boburning ketidan Dahkatga kelishgan edi.

Tohir ogʻir tin oldi-yu:

– Amirzodam, men sizga oʻzimdan ham ortiq ishonurmen, – dedi. – Ammo sizning shohlik tashvishidan qutulishingiz mumkin emas.

– Nechun? Axir shahzodalarning toj-u taxtsiz oʻtganlari yoʻqmi?

– Bor. Ammo siz undaylardan emassiz.

– Ammo men toj-u taxtning bevafoqligini bilganlardanmen. Shoh Jamshiddek, Iskandar Zulqarnayndek tojdorlar ham orttirgan davlat-u mol-u dunyolarini tashlab, qabrga bitta kafan bilan ketgan emaslarimi?

Tohir yaqinda togʻning narigi tomonidagi Obburdon qishlogʻiga borganlarini esladi.

Boburning toj-u taxtdan ixlosi qaytganligi behazil boʻlsa kerakki, shoh Jamshidning tilidan aytilgan tojikcha sheʼrni chashma boʻyidagi toshga oʻydirdi. Toʻrt satrlik bu sheʼrning ikki satri Tohirning esida turibdi:

*Giriftem olam ba mardi-yu zo‘r,<sup>1</sup>  
Va lekin naburdem bo xud ba go‘r.*

Olamni zabt etgan jahongirlarning saltanati ham omonat – o‘zlari dunyodan ketishlari bilan tugaydi. Lekin shoirning yaxshi so‘zlari toshga bitilgan harflarday asrlar davomida o‘chmaydi. Shunday ekan, Bobur qolgan umrini shoirlikka bag‘ishlasa yaxshi emasmi?

– Men jon der edim-u, lekin beklar sizni qo‘ymaslar, – dedi Tohir.

– Beklarga ijozat berurmiz, keturlar.

Bobur shu so‘zining ustidan chiqa olishini yalang oyoq yurish bilan isbot qilmoqchi bo‘lganday, yana mayda toshlar ustidan sarpoychan yurib ketdi. Biroq uning qiynalib borayotgani mayishib yurishidan sezildi. Tohir uni quvib yetdi-yu:

– Amirzodam, etikni kiying, – dedi. – Yalang oyoqlikni havas qila ko‘rmang. Xudo sizni hech vaqt bu ko‘ylarga solmasin.

– Qaysi ko‘ylarga?

– Yalangoyoqlarning ahvoliga tushmang!

– Ajabo! Yalangoyoqlar odam emasdirlarmi?

– Odam. Lekin siz shoh bo‘lib tug‘ilgansiz!

– U holda – shoh odam emasdirmi?

Tohir javob topolmay qoldi. U shoh bilan navkar orasida tog‘day baland devor borligini bilar, Bobur bu devordan bir sakrab oshib o‘tmoqchi bo‘layotgani g‘alati tuyilardi. Tohirning nazarida, Bobur qayta shoh bo‘lishdan umidini uzgan-u tushkunlikka uchragani uchun shu gaplarni aytyapti.

---

<sup>1</sup> «Olamni mardlik va zo‘rlik bilan oldik, lekin o‘zimiz bilan birga go‘rga olib ketmadik». Bobur 1502-yilda toshga o‘ydirdan bu satrlarni oradan 452-yil o‘tgandan keyin 1954-yilda tojik olimi A.Muxtorov Obburdon qishlog‘idagi bir quduq yonidan topib oladi. Toshga bitilgan bu she‘r hozir Dushanbedagi muzeyda saqlanmoqda.

– Amirzodam, agar siz shohlikdan shoirlikni afzal ko'rsangiz, unda men ham... ahli ayolim bilan tinch bir go'shada dehqonchilik qilib, sizga sadoqat bilan umr o'tkazgan bo'lar edim... Lekin buning iloji bo'lmas...

Bobur etigini Tohirning qo'lidan oldi.

– Siz qayting, – dedi Tohirga. – Ammo bu gaplar oramizda qolsin. Keyin yana kengashurmiz. Boring!

Tohir barozdan qaytib chiqar ekan, Boburning unga o'zini yaqin olib, shuncha g'alati gaplar aytganidan ko'ngli ko'tarilib, kulib qo'ydi. Biroq Bobur bir go'shada tinchgina yashaydigan miskintabiat odamlardan emas edi. Uning yalang oyoq yurishga o'rganmoqchi bo'lgani esa Tohirga shoirona bir sho'xlik bo'lib ko'rinardi.

Tohir barozning tepasiga chiqqanda, orqasiga o'girilib qaradi. Bobur hamon etigini qo'liga olib, pastlab bormoqda edi. Tohir uning chidamiga tan berib: «Lekin so'zidan qaytmaydigan odati ham bor!» deb qo'ydi.

Bobur oyog'ining bir-ikki joyi qavarib shilinganini sezsa ham og'rig'iga chidab, qishloqning berigi chetidagi chashma bo'yiga sarpoychan bordi. Undan narida yumshoq tuproqli so'qmoq bor edi. Lekin qishloq odamlari uning yalang oyoq yurganini ko'rib, past-u baland gap qilishlari mumkin edi.

Unga uyini bergan qishloqning kadxudosi ham, bek va mulozimlar ham «Mirzo hazratlari» deb, Boburga hamisha ta'zim qilishar edi. Agar Bobur kambag'al dehqonga o'xshab sarpoychan yursa, bular oddiy yalang oyoqqa ta'zim qilganday ko'rinib, izzat-nafsga borishlari va xafa bo'lishlari mumkin edi. Shuning uchun Bobur a'yonlar uchraydigan joylardan odatdagiday etik kiyib o'tar edi-yu, Dahkatning atrofidagi yon bag'irlarga borgach, yana yalang oyoq bo'lib olardi. Oyog'iga botib ozor beradigan g'adirbudur toshlar, butalar dilini o'rtayotgan alamli o'ylarning taftini oladiganday bo'lar edi. Kunlar o'tishi

bilan uning tovonlari sag'ri charmiday qalinlashib tosh-poshlar, yog'in-sochinlar kor qilmaydigan bo'lib ketdi.

\* \* \*

Dahkatdan uch-to'rt chaqirim quyida Qorazov deb ataladigan baland jarlar tagidan odamni oqizadigan ulkan Oqsuv yelib o'tadi. Bu suvning o'ngga burilib, yoyilib oqadigan sokinroq bir joyida kechuv bor.

Tog' bag'ridan qiyalab o'tgan so'qmoq bilan archalar orasidan yurib kelayotgan Bobur tushga yaqin Oqsuvning shu kechuvi oldidan chiqdi va daryodan o'tib kelayotgan yigirmatacha qurolli otliqlarga ro'para kelib qoldi. Oldinda piyozi chakmon va qizil bo'rk kiygan Qosimbek. Unga ergashib kelayotgan navkarlar ham tanish.

Bobur ularga yalang oyoq yurganini ko'rsatgisi kelmadi-yu, yo'ldan chetlanib, baland bir archaning soyasiga borib o'tirdi.

Lekin bu orada Qosimbek ham uni ko'rib qoldi. Kechuvda qornigacha ho'l bo'lgan otini Boburdan ancha narida to'xtatib, tez yerga tushdi. Navkarlar ham Boburni hurmat qilib apil-tapil otdan tushdilar. Qosimbek otining jilovini navkariga berib, egilib ta'zim qilgan ko'yicha Boburga yaqinlashdi. Musibatli tovush bilan dedi:

– Amirzodam, bir qoshiq qonimdan keching! Yana bir shumxabar!...

Boburning xayoli Toshkentga ketdi. Qosimbek uch oydan beri o'sha yoqlarda yurgan edi. Boburning tog'asi Mahmudxon Shayboniyxonning elchisi sharafiga ziyofatlar berib yurib, axiri xon bilan bitim tuzgan edi. Bu bitimga binoan Shayboniyxon O'ratepani Mahmudxonga berib, o'zi Hisorga qo'shin tortib ketgan edi. Paytdan foydalangan Mahmudxon ukasi

Olachaxon bilan birga Farg'ona vodiysidagi Ahmad Tanbalga qarshi urush ochgan edi. Ular vodiyni Ahmad Tanbaldan tortib olib, Toshkent xonligiga qo'shmoqchi edilar. Shayboniyxon avval bu niyatga qo'shilgan edi. Nahotki endi so'zidan qaytgan bo'lsa?!

– Ne bo'ldi? So'zlang!

– Shayboniyxon manfurlik bilan so'zidan qaytmishdir, amirzodam! Tog'alaringiz Farg'ona vodiysida Ahmad Tanbal bilan olti oy olishib, uni yengolmay, ko'p talafotlar berib, zaiflashib qolgan paytda Shayboniyxon bitimni buzib, kutilmaganda ketlaridan bostirib kelmishdir! Oldinda Ahmad Tanbal qo'shini, ketlarida yolg'on ittifoqchi Shayboniyxon qo'shini! Tog'angiz bu ikki baloning orasida qolib tor-mor bo'lдилar! Shayboniyxon uni asir olmishdir.

Bobur joyida o'tirolmay o'rnidan turib ketdi.

– Yo alhazar! Toshkent ham ketdimi, a?

– E, so'ramang, amirzodam! Toshkentda ikki ming qo'riqchi askar bor edi. Olti oyga yetgulik zaxira bor edi! Qo'rg'onni qattiq turib himoya qilsa bo'lur edi. Biroq asir tushgan Mahmudxon behad uyatlik bir ish qilmishdir. Shayboniyxon uni qatl ettirmoqchi bo'lganda, Mahmudxon: «Qonimdan keching, ne talabingiz bo'lsa bajaray!» dedi. Shunda Shayboniyxon shart qo'yurki, Toshkentdagi qo'riqchi askarlaringizga buyruq yozib yuboring, toki qo'rg'onni jangsiz tashlab chiqib ketsinlar, ammo xazina bilan haram qo'rg'onida qolsin. Jon shirinlik qilib, Mahmudxon bu shartni qabul qilmishdir!

– Nahotki butun haram Shayboniylar ilkiga tushgan bo'lsa?!

– Ha, amirzodam, g'oliblar qo'riqchisiz Toshkentda uch kun elni talamishdir! Tog'oyingiz Mahmudxonning eng ko'hlik singlisi Davlat begim Shayboniyxonning o'g'li Temur Sulton haramiga uchinchi xotin bo'lib kirmishdir. Ellik uch yashar Shayboniyxonning o'zi



Mahmudxonning o'n olti yoshlik go'zal qizi Mo'g'il xonimni nikohlab olmishdir! Mahmudxonning suyuqli xotini Roziya Sulton begim ilgarigi elchi Jonibek Sultonga g'unchachi qilib nikohlanmishdir! Bultur Xonzoda begim uchun bizni shunchalar malomat qilgan Mahmudxon endi suyuqli xotinini, qizini, singlisini o'z joni uchun bunchalik sharmandali ahvolga solgani butun el-ulusning nafratini keltirmishdir!

Boburning xayoli Oyisha begimga ketdi. Undan ko'ngli qolib, ajrashib ketgan bo'lsa ham, lekin bir vaqtlar ilk yoshlik mehri bilan suygan xotining Shayboniyxon haramiga tushishi ehtimoli uni dahshatga keltirdi. Opasi Xonzoda begimning Shayboniyxon haramiga tushgani ozmi?

Bobur Qosimbekka dahshat to'la ko'zlarini tikib so'radi:

- Nahotki Oyisha begim... Egachim Xonzoda begimning kundoshiga aylantirilgan bo'lsa?!

- Yo'q, amirzodam! Ne til bilan aytayki, Oyisha begim xonning amakisi - ellik besh yoshli Ko'chkinchixonga to'qol xotin qilib nikohlanmishdir!

Bobur yuzini qo'llari orasiga olib, nido qildi:

- O, bu ne razolat? Ne sharmandalik?!

Qora ko'zlaridan uchqunlar sochib, Boburga achchiq gaplar aytgan o'sha Roziya Sulton begim bugun Jonibek Sultonning quchog'ida! Bu yo'g'on gavdali makkor bek Mahmudxon saroyida elchi bo'lib, xon bilan shatranj o'ynab, ataylab yutqizib yurgan paytlaridayoq uning suyuqli xotinini ko'z ostiga olib qo'yan bo'lsa ehtimol. Oyisha begim-chi?

Qosimbek armon to'la tovush bilan so'zida davom etdi:

- Koshki Mahmudxon shuncha uyat ishlar qilib, tirik qolgan bo'lsa!

- Tog'oyim o'ldirildimi?!

– Shayboniyxon birinchi martasida uni o'ldirmagan edi. Lekin haligi sharmandaliklar bilan ruhan o'ldirgandan battar qilib Movarounnahr chegarasidan sharqqa – Oltoy tomonga quvib yuborgan edi. Bundan alami kelgan Mahmudxon o'sha yoqlarda o'ziga tarafdorlar topib, qo'shin yig'ib, Shayboniyxondan qasd olish uchun yana Sirdaryo bo'yiga keladi. Xo'jand yaqinida ikkinchi marta jang bo'lib, Mahmudxon yana yengiladi-yu, ikki yoshli o'g'li bilan asir tushadi. Bu gal Shayboniyxon Mahmudxonning o'zini ham, yosh o'g'illarini ham ayovsiz qatl ettirmishdir!

– Yo alhazar!.. Yo Rab!..

Bir vaqtlar Boburga oqibatsizlik qilib, alam o'tkazgan yaqinlarining taqdir tomonidan bunchalik shafqatsizlarcha jazolanishi Boburni qora bosiriqday ezib, karaxt qilib qo'ydi. Bobur ulardan har qancha ranjiganda ham bunday og'ir jazolarni ularning hech biriga ravo ko'rmas edi.

Boburning rangi quv o'chib, yuz muskullari titrayotganini ko'rgan Qosimbek shumxabar keltirgani uchun yana bir marta uzr so'radi. Boburning sal taftini oladigan chora qidirib:

– Amirzodam, qani, o'tirsinar, marhumlarning arvofiga tilovat qilaylik, – dedi.

Tizzalari bo'shshib, oyog'ida zo'rg'a turgan Bobur archa tagidagi boyagi joyiga qaytib o'tirdi. Qosimbek uning qarshisiga tiz cho'kdi. Navkarlar ham birin-ketin cho'nqaydilar. Qosimbek shirali, yo'g'on ovoz bilan Qur'on suralarini ohangdor qilib aytib, uzoq tilovat qildi. Daryoday bir zaylda oqadigan bu ohanglar Boburga dunyoning bebaqoligini, o'tib turgan har bir daqiqa umr qaytib kelmaydigan ne'mat ekanini, hayotning g'animatligini eslatdi-yu, u o'zini sal bosib, yalang oyoqlarini to'nining etagi bilan bekitib qo'ydi. Tilovat tugab, yuzlariga fotiha tortganlaridan so'ng Qosimbek navkarlarga qo'li bilan nariroq borib turish

ishorasini qildi. Ular uzoqlashgach, Boburga yanada yaqinroq kelib, past ovoz bilan dedi:

- Shayboniyzodalar bu g'alabalardan quturib, Andijonga ko'z tikmishlar. Bosqinchilar erta-indin O'ratepaga ham kelurlar. Endi bu yerlarda yurish xatarli, amirzodam. Tog' oshib, Hisorga ketmoq kerak.

Hisor hukmdori Xisravshoh taxtni Boburning amakivachchasi Boysunqur mirzodan tortib olib, taxtga da'vogar bo'lmasin, deb, o'ldirtirgan edi. Bobur shuni esladi-yu:

- Mening qordan qochib do'lga tutilishim ne darkor, janob Qosimbek? - dedi.

- Mening maqsadim boshqa, amirzodam. Kamina Hisor beklari bilan bulturidan beri maxfiy muzokara olib bormoqdamen. Ularning ko'pi Xisravshohdan norozi ekan. O'zi bir navkardan chiqqan tagi past hukmdor. Taxtda o'tirishga haqi yo'q. Borsak, yaxshi beklari sizga yon bosgaylar.

- Yana taxt talashishmi? Yo'q, janob Qosimbek! Men bu talashlardan juda to'ydim! Hozir menga tinch bir go'sha bo'lsa, darvishona hayot kechirsam, ash'or yozsam - shuning o'zi bas!..

Qosimbek boyadan beri ko'zini Boburning yalang oyoqlaridan olib qochmoqda edi. Shahzodaning bunday yurishi unga juda erish tuyilardi.

- Amirzodam, siz bizning taqdirimizni ham o'ylang! Ikki yuz ellikta sodiq odamlaringiz - beklar-u mulozim-u navkarlaringiz sizga omad tilab, avvalgidan ham katta martabalarga yetishingizga ishonib, tog'-u toshda sargardon bo'lib yurishi nechun?

Qosimbekning gapi tagida: «Chindan darvish bo'lamen desangiz sizga buncha bek-u navkarlarning ne keragi bor? Nechun javobini bermaysiz?» degan ma'no yotar edi.

- Siz keltirgan mudhish xabarlardan ko'nglim vayron bo'lib turgan paytda yana bir mushkul gapni qo'zg'adingiz, janob Qosimbek!

– Gustohligim uchun meni kechiring!

– Ammo siz haqsiz. Men sizdek sodiq kishilarimning taqdirini ham unutmashim kerak. Rostini ayting, janob Qosimbek, Xisravshohning o‘zi ham sizni xizmatga chorlaganmi?

– Chorlagan. Ikki qayta maxsus odam yubormishdir.

Bobur Qosimbekning mardona yuziga, qirq yoshga bormasdan oq oralay boshlagan kalta soqol-mo‘yloviga ma‘yus bir nazar tashladi.

– Sizdan mahrum bo‘lish men uchun behad mushkul! – dedi. – Otam o‘lgandan beri menga otadek g‘amxo‘rlik qildingiz. Men sizdan ko‘rgan sadoqat-u yaxshilikni hali boshqa hech qaysi bekdan ko‘rgan emasmen!

– Sarafrozmen, amirzodam!

– Endi shu yaxshiliklaringiz hurmati, men sizga javob berurmen. Mayli, Hisorga boring!

– Sizni tark etib ketishga ko‘nglim yo‘q, amirzodam! Birga ketaylik!

– Men o‘zim ham shohlik zanjiridan butunlay ozod bo‘lishga intilmoqdamen, janob Qosimbek. Bu zanjirning bir uchi tobe odamlarga bog‘langan bo‘lsa, uning ikkinchi uchi shohning o‘ziga bog‘lanur ekan! Shu sabab, tobelarni zanjirdan bo‘shatmaguncha podshohning o‘zi ham zanjirband bo‘lur ekan. Men endi mana shu tabiat bag‘rida zanjirsiz yashashga qasd qildim. Shuning uchun sizga javob! Boshqa bek-u mulozim-u navkarlar ham vaqt-soati bilan javob olurlar!

Bobur Qosimbek bilan xayrlashmoqchi bo‘lib o‘rnidan turdi. Samarqandda suyukli opasidan, Toshkentda xotinidan ayrilgan, bugun esa shuncha mash‘um xabarlar eshitib, yana eng ishongan bekidan ham ajrashishga majbur bo‘layotgan Bobur o‘zini har qancha tetik tutishga urinsa ham tizzalari bukilib, gandraklab ketdi. Qosimbek uni quchoqlab xayrlashar ekan, ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi.

Bobur o'ziga azob beradigan og'ir tuyg'ularni tog'lardan ko'rinadigan kengliklarga sochib yubora olsa yoki go'zal she'riy satrlarga joylay olsa bir qadar yengil tortadi.

*Ne yerda sokin o'lay? Ne qilay? Qayon ketayin?  
Ne dayrdin eshigim ochilur, ne masjidin.  
Necha eshikdin eshikka gado kabi yetayin?*

Kuyib-yonib yozgan bu satrlari qalbining taftini olar, dunyoda uning uchun hamma eshiklar bekilganda ham bir muqaddas qopqa – she'riyat qopqasi doim ochiq ekanini ich-ichidan sezib, ko'ngli ko'tarilardi. U o'z qalbidagi hali sarf etilmagan qudratli kuchlar borligini, opasi Xonzoda begim Bobur bilan vidolashgan paytida: «Sizning nodir iste'dodingiz bor, bu buyuk ne'matni hayf qilmang!» degan so'zlari ko'p esiga tushadi. Kecha mana shu Oqsuv bo'yidagi bir qishloqda to'y bo'lgan, shunda yosh bir xonanda sehrli tovush bilan Boburning «Ko'nglimdan o'zga yori vafodor topmadim» deb boshlanadigan g'azalini ashula qilib aytganini u o'zi ko'chadan o'tayotib eshitgan edi. O'sha daqiqalarda uning qalbidagi eng zo'r kuch junbishga kelib, yuzaga chiqish uchun yo'l axtargan edi. Bu ichki kuch unga Dahkatning kunchiqish tomonidan uch ming gaz balandlikdagi Osmon Yaylov tog'ining uchidan otilib chiqib turgan mo'jizaviy buloqni eslatdi. Jilg'alar bo'yidan, tog' yon bag'rilarining tagidan ko'z ochgan buloqlar ko'p. Lekin shunday yuksak tog'ning eng baland bir nuqtasidan yorib chiqqan bunday g'alati chashmani Bobur birinchi marta shu yerda uchratdi.

Janubda mangu qorga burkangan ulug'vor Piryax cho'qqisi yaltirab turibdi. Ammo u cho'qqi bilan Osmon Yaylov tog'ning orasida behad chuqur jilg'alar,

katta-katta balandliklar bor. Bu buloqning suvi o'sha cho'qqidan tushib, yana Osmon Yaylovga chiqib kelguncha ikki oradagi chuqurliklardan ham teranroq joyga tushib, so'ng yana yuksak toqqa ko'tarilgan bo'lishi kerak. Buloq buncha kuchni qayerdan olganikin? Uni shunchalik baland joyga chiqishga, shunday toshlar orasidan ko'z ochishga nima majbur qilgan ekan? Ehtimol, ilgari uning ko'zi pastdagi tog' kamarlarida bo'lgandir? Balki buloqning ustiga tog' ko'chib tushib, avvalgi ko'zini bekitib qo'ygandir?

Boburga birdan o'z hayoti ham ko'chki bosgan buloqqa o'xshab ko'rindi. Axsida qulagan jar ham shu buloqning ko'ziga tushgan. Ko'chmanchi sultonlarning Samarqanddagi g'alabasi ham... Ichki bir kuch bilan qaynab chiqayotgan buloq ko'chkining tuproqlarini yuvib, toshlar orasidan yo'l topib o'ta boshlaganda, Movarounnahrda ijtimoiy zilzilalar zarbidan yangi yangi jarlar qulaydi, qoyalar ko'chadi-da, yana shu buloqning ko'ziga tushadi.

Buloq hamon tug'ilgan zaminining boshqa joylariga bosh urib, yorug' dunyoga olib chiqadigan yangi yo'llar izlaydi. Agar Osmon Yaylov bulog'i toshlar orasidan yo'l topib, mana shunday baland qoyani yorib chiqqan bo'lsa, Bobur umidsizlanmasligi kerak. Ehtimol, uning toleyi ham mana shu buloqqa o'xshab, baland bir nuqtadan qayta ko'z ochar. Balki bu baland nuqta she'riyatdadir?

Bir kuni peshin kechroq Bobur Osmon Yaylov bulog'i bo'yida mana shu xayollarga g'arq bo'lib yolg'iz o'tirganda, katta-katta ikkita bo'ribosar itni ergashtirib, bir cho'pon yigit kelib qoldi. Oyog'ida choriq, boshida qizil hoshiyali oq qalpoq, beliga katta pichoq osib olgan, qo'lida qizil irg'ay tayoq. U tosh ustida o'tirgan Boburga salom berdi-yu, itlarni orqaroqda qoldirib, o'zi buloqdan kaftida suv olib ichdi. Keyin ho'l qo'llarini qalami yaktagining qo'ltiqlariga arta turib, Boburga gap qotdi:

– Ha, jo‘ra, poshshong ziqnalik qildimi, toqqa yalang oyoq chiqibsen?

Cho‘ponning «sen-sen»lab gapirgani Boburning qulog‘ini tirnab o‘tganday bo‘ldi. Ammo o‘zini bosiq tutib:

– Qaysi podshohim? – deb so‘radi.

– Bobur degan bir podsho Dahkatda yurgan emish. Sen o‘shaning odamlaridanmisen?

Bobur eski kiyimlarini kiyib chiqqan, o‘zi tog‘ oftobida kuyib qoraygan, ammo uning yuzida, qo‘llarida asilzodalarga xos bir nazokat borligi bilinib turardi. Cho‘pon uni podshohning mulozimlaridan deb o‘ylamoqda edi. Bobur o‘zini tanitgisi kelmay:

– Ha, – dedi.

Cho‘pon irg‘ay tayog‘iga keng ko‘kragini tirab, Boburga sinovchan nazar bilan tikildi:

– Podshongga juda sodiqmisen?

Bobur miyig‘ida kulib:

– Men o‘zimga sodiq bo‘lsam bas, – dedi.

– Podshong ham seni yomon ko‘rsa kerak-da, xor qilib qo‘yibdi.

Endi Bobur cho‘ponning yuziga tikilib qaradi. Betiga hali ustara tegmagan yigirma yoshlardagi yigit. Lekin chuqur ko‘zlari qirq-ellik yoshga kirgan va ko‘p g‘am chekkan odamnikiday so‘lg‘in, keksanamo.

– Podshohimni muncha ko‘p so‘roqlading, biron arzing bormi? – dedi Bobur kulimsirab.

Cho‘pon qovoqlarini uyib:

– Men uni mana shu tog‘da yakkama-yakka uchratmoqchimen, – dedi.

– Agar uchratsang... Ne gaping bor?

Cho‘pon yigitning ko‘zlari g‘azab bilan qisildi:

– Otam bilan akamning boshini ne qilgan, shuni so‘rab bilmoqchimen.

– Boshini? Bobur-a?! Sen... sen kimsan o‘zing?

– Chagraklardanmen!

Bobur Andijon tog'larida yashaydigan chorvador turkiy qabila – chagraklarni eslab, hayrat bilan so'radi:

– Bu yerda ham chagraklar bormi?

– Biz bu yerga O'sh tomonlardan qochib kelganmiz. Men o'shanda o'n to'rt yashar bola edim. Bobur kelib, otam bilan akamning qo'ylarini, yilqilarini tortib olmoqchi bo'lgan. Cho'ponlar: «Bermaymiz!» deb g'alayon qilgan. Keyin Bobur hammasini o'ldirib, boshlarini kesib ketgan. Onam bilan borsak, o'n besh-yigirmata o'lik yotibdi. Boshlari yo'q. Tanasidan tanib olish qiyin bo'larkan. Onam dam u tanani quchoqlab yig'laydi, dam bu tanani...

Bobur O'sh janubida bundan olti yil avval Ahmad Tanbalning qonli xurjunidan lolaqizg'aldoqlar ustiga yumalab tushgan kallalarni yana ko'z oldiga keltirdi. O'shanda uni seskantirib yuborgan yoshgina yigitning kallasi va ustara tegmagan yuzi ko'z oldida qaytadan gavdalandi. Mana bu turgan cho'ponning yuzi Boburga birdan o'sha yuzni eslatdi-yu, kesik bo'yinning qon aralash go'shtlari xayolida takror paydo bo'lib, borlig'ini dahshatga keltirdi. U cho'ponga sarosima ko'zlar bilan qarab:

– Ahmad Tanbal o'ldirgan! – dedi. – Sulton Ahmad Tanbal!

Cho'pon tayog'ini ko'krigidan olib, Boburga yaqinroq keldi:

– Sen o'sha boshlarni ko'rganmiding?

– Ha, yaylovda... O'shning yaylovida Ahmad Tanbal o'sha boshlarni keltirib ko'rsatgan. Bunga olti yil bo'ldi... Cho'ponlar g'ulu ko'tarib, navkarlardan uch-to'rttasini o'ldirmishlar. Tanbal o'shanning qasdig'a bosh kesib kelgan edi!

– Tanbal emas! Menga ko'rgan odamlar aytgan! Otamning boshini Bobur kesib ketgan!



– Odamlar yolgʻon aytmishlar! Men... aniq bilamen. Bobur norasida oʻsmir edi. Toqqa Sul-ton Ahmad Tanbal borgan!

Bobur oʻzini oyoqalayotgan odamga oʻxshab shoshilib gapirayotgani uchun choʻpon yigit endi undan gumonsiradi. Zugʻum qilib:

– Sen oʻzing kimsen? – dedi. – Bobur sening kiming?

Bu savol Boburning etini junjiktirdi. Goʻyo choʻpon hozir undan otasining xunini talab qiladigandek tuyildi. Egasining ovozidagi gʻazab va tahdidni payqagan itlar birdan irillab, Boburga tashlanishga tayyorlanishdi. Bobur oʻrnidan sapchib turdi. Qoʻli beixtiyor belidagi xanjarning sopiga bordi. Lekin uning oyoqlari yalang edi. Itlar eng avval uning oyogʻidan oladiganday koʻrindi. Shu payt u oʻzining yalang oyoq yurganidan qattiq pushaymon boʻldi.

– Nega indamaysen? – dedi choʻpon yana tahdid bilan.

Bobur oʻzini iloji boricha vazmin tutib:

– Ne deyin? Gapimga ishonmasang! – dedi.

Choʻpon itlariga oʻgirilib:

– Toʻrtkoʻz, Boʻynoq, yotinglar! – dedi. Soʻng yana Boburga yuzlandi: – Xoʻsh, gaping chin boʻlsa, mening otamni Boburning oʻzi emas, Tanbal degan beki oʻldirgan. Shundaymi?

– Shundoq.

– Oʻsha bekka kim farmon bergan? Boburmi?

– Bobur bunday boʻlishini bilmagan... Yoshlik qilgan!

– Yana poshshoyingning tarafini olasan-a! Agar men hozir mana bu itlarimga «ol!» – desam, seni tilka-pora qilib tashlagay. Shunda faqat itlar aybdor boʻlgaymi? Bularni olqishlaganim uchun men gunohkor boʻlmasmenmi?

Bobur choʻponning bu gapiga eʼtiroz qilib boʻlmasligini sezdi-yu, boshini quyi soldi:

- Balki sen haqlidirsən...
- Kimsən o'zing? Ayt rostini!

Cho'ponning ovozidagi tahdidni sezishib, itlar yana irillashdi. Bobur qo'rqqanini sezsa, itlar unga tashlanadiganga o'xshardi. U bor kuchini go'yo ko'zlariga yig'ib, cho'ponga tik qaradi-yu, dadil turib:

- Men Boburmen! – dedi.

Cho'pon quloqlariga ishonmay, uning yalang oyoqlariga yana bir qaradi:

- Nahotki podshoh Bobur sen bo'lsang?!
- Ha, men podshoh edim!
- Hozir-chi?

– Hozir... toj-u taxt da'vosidan voz kechdim. Endi faqat shoirona hayot kechirmoqchimen.

- Shoshma, shoshma!

Oqsuv bo'yida bo'lgan kechagi to'yda cho'pon ham bor edi. U xushovoz yosh hofizning Bobur g'azali bilan aytgan ashulasini tinglab, g'alati bo'lib ketgan edi. Ashula oxirida:

*Bobur, o'zungni o'rgata ko'r yorsizki, men  
Istab jahonni, muncha qilib yor topmadim! –*

degan satrlar uning esida qolgan edi.

Hozir Bobur bir o'zi tog'-u toshda yolg'iz yurgani ham uning o'sha baytini tasdiqlagan ko'rindi-yu, cho'pon itlariga qarab:

– Yot! Bo'ynoq, yot! – deb buyurdi. Itlar tinchlangach, yana Boburga ko'z tikib so'radi: – Shoirliging rost bo'lsa, shu yerda yozgan she'rlaringdan birini ayt-chi?

- Bobur yerga qarab o'ylanib oldi-da, boshini ko'tardi.
- Eshit:

*Ne xesh meni xushlar-u ne begona,  
Ne g'ayr rizo mendin-u ne jonona.  
Har nechaki yaxshilikda qilsam afsun,  
Xalq ichra yomonlik bilan men afsona.*

Ichki tugʻyon bilan oʻrtanib aytilgan bu satrlarning tafti choʻponning birdan yaltirab ketgan koʻzlarida aks etdi.

– Sen ham kuyganlardan ekansen, shoirliging tan berdim! Agar shu shoirliging boʻlmasa, seni rahmatlik otam qasdiga itlarimga talatib yuborar edim! Xayr, shoir, omon boʻl!

Choʻpon itlarini ergashtirganicha chagʻatda yoyilib yurgan qoʻylariga qarab ketdi.

Bobur shu kuni Osmon Yaylovdan Dahkatga qanday tushib kelganini bilmaydi. U mashʻum oʻtmishidan osonlikcha qochib qutulolmasligini, yomon beklar Boburning nomidan qilgan zolimliklarni odamlar undan koʻrishini oʻylab, vujudini yangi bir bezovtalik chulgʻab oldi. Yoshlikda beklarning raʻyiga qarab qilgan xatolari boyagi ikkita vahimali itning qiyofasiga kirib, hali ham ketidan quvib kelayotganga oʻxshardi.

Dahkatda esa uni yana bir tahlikali xabar kutib turardi. Shayboniyxon qoʻshinlari Oʻratepaga yetib kelgan, shaharga bozor qilish uchun borgan dahkatlik kadxudoni xon kishilari tutib olib kaltaklashgan.

– Bobur yashirinib yurgan joyini koʻrsatasan! – deb talab qilishgan edi. Yuzlari qamchi izidan qontalash boʻlib shishib ketgan ellik yoshlardagi kadxudo tojikchalab:

– Men mehmonimni tutib beradigan ablah emas! – dedi Boburga. – Yovlaringizni Oqtangi degan daraga boshlab borib, adashtirib, oʻzim togʻma-togʻ qochib keldim!

Oqtangi Dahkatdan oʻttiz chaqirimcha gʻarbda edi. Xonning iskabtoparlari bugun boʻlmasa, ertaga bu yerlarga yetib kelishi muqarrar. Shayboniyxon Boburning boshini kesib kelganlarga katta oltin vaʻda qilgan.

Ichki hovlidan Qutlugʻ Nigor xonim chiqdi:

– Boburjon, hammamiz najotni sizdan kutmoqdamiz! Darvishona yurishlarni endi bas qiling. Hamma sizni quvg‘indagi shoh deb bilur, boshqa gapga hech kim ishonmagay. Xon kishilari ham sizni taxtga da‘vo qilishi mumkin bo‘lgan bir shahzoda deb izlab yururlar. Dahkatliklar ham shuncha vaqt bizga non-u tuz berdilar. Endi bu qishloqni xavf-xatardan qutqarish ham sizning burchingizdir, jonim!

Bobur agar yov bilan bu yerda to‘qnashsa, qishloq oyoqosti bo‘lishini o‘yladi. Bu yerda u bilan birga yurgan onasini, bek va navkarlarini yovdan omon saqlash uchun ham, o‘zi boyagi cho‘ponga o‘xshash qasoskorlarning tasodifiy qurboni bo‘lib ketmasligi uchun, dahkatlik kadxudoning tuzini oqlash uchun ham Bobur yana qaytadan qurol-yarog‘ taqishga va odamlariga boshchilik qilishga majbur ekanini, hozir shundan boshqa iloji yo‘qligini his qildi-yu, og‘ir «uh» tortdi:

– Shohlik taqdirimdan yalang oyoq qochib qutulolmas ekanmen! Janob Sherimbek! Siz endi Qosimbekning o‘rnida amiral umarosiz!

Boburni o‘n ikki yoshida Olatog‘ tomonlarga olib qochib ketib qutqarmoqchi bo‘lgan kekxa Sherimbek tog‘oyi quvonib, ta‘zim qildi:

– Inoyatingizdan sarafrozmen, amirzodam! – dedi.  
– Buyuring!

– Odamlarimizning barchasiga amrimizni yetkazing. Ko‘ch-ko‘ronni yig‘ishtirsinlar! Shu bugun kechasi Dahkatdan jo‘nab ketgaymiz!

– Muborak buyrug‘ingiz alhol ado etilur, amirzodam!

Yana zirhli kiyimlar kiygan, qurol-yarog‘ taqqan Bobur o‘sha kecha tog‘dan-tog‘ga oshib kun chiqish tomonga – Isfaradan naridagi So‘xga qarab ketdi.

Tog'dan tushib kelayotgan So'x soyi toshlarga bosh urib shovullaydi. Bobur archazor so'qmoqdan Oynatog' tomonga ko'tarilib boradi. Tog'larda ko'p yurib har qancha chiniqqan bo'lsa ham, tik so'qmoq yo'lda hansirab qoladi. Oynatoqqa yetguncha ikki-uch marta to'xtab, nafas rostlaydi. Tabiat mo'jizasi bo'lgan bu tog'ning silliq toshlarida atrof xuddi oynadagi kabi akslanib turadi. Bobur bu toqqa chiqqanda, uning sehrli oynasida o'z taqdirini ko'rishga intiladi. Qachongacha tog'dan-toqqa o'tib, chet qishloqlarda Shayboniyxon qilichidan jon saqlarkan? Ana, yashil bog'larga burkangan So'x, Hushyor qishloqlari. Bular ham Chingiziylar xurujidan himoya istab, Boburni uch yuztacha navkari bilan yil bo'yi mehmonday e'zozlab yurishibdi. Bosqinchilarning shum qadamlari hali bu yerlarga yetib kelgan emas. Ular Sirdaryo bo'ylarida va Andijon tomonlarida o'zaro urushlar bilan band.

Bobur quyoshli kunda Oynatog' tepasiga chiqib, Qo'qon tomonlarga oqib ketayotgan So'x soyiga tikiladi. Bu soyning suvida tillarang shu'lalar o'ynaydi. Aytishlaricha, So'x suvining tarkibida oltin bor ekan, shuning uchun bu suvni ichgan odamning vujudi yayraydi. Nahotki shu Oynatog' ham, shu tilloli soy ham - hammasi yana Chingiziylar istilosiga giriftor bo'lsa? Boburning ortidagi qorli tog'lardan sovuq shamol esadi. Uzoqdagi yashil vodiylarga osmondagi oqish bulutlarning soyasi to'shalib yotadi.

Hozir avji bahor, Farg'ona vodiysi yashil libosda.

Ufqning harir pardasi ortida - ko'z ilg'amas uzoqliklarda Chotqol tog'lari-yu Toshkent vohasi bor. Jizzax va Samarqandni, Marg'ilon va Andijonni Bobur hozir go'yo xayol ko'zi bilan ko'rdi-yu, bir vaqtlar shunday keng dunyoda bexavotir, erkin yurgan paytlarini eslab, yuragini armon timdaladi.

Hozir mana shu ulkan Vatanda uning osuda yashaydigan makoni, tayinli bir uyi yo'q. Hammasi Tanbal bilan Shayboniyxonning qo'liga o'tib ketgan. Eshik og'a Sherim tog'oyi Boburni Xurosonga ketishga undaydi.

Biroq Bobur ketsa, Vatanidan umrbod ayrilishi mumkinligini go'yo oldindan sezadi. Ilgari tug'ilgan yurtida bemalol yurganda unchalik bilinmaydigan Vatan tuyg'usi endi Vatanidan ayrilish xavfi tug'lganda uning butun vujudini qamrab olgan. U mana shu o'lkani necha qayta u chetidan-bu chetigacha kezib chiqqan, uning har bir chaqirimiga ko'z nurini to'kib, yoshligini urug'day sochib o'tgan. Uning butun umri, butun borlig'i mana shu muazzam zaminga ildiz otgan. Endi bu ildizlarning hammasini qanday yulib olib ketadi? Buning og'rig'iga qanday chidash mumkin?

Ahmad Tanbal bilan Shayboniyxon avval bir-biri bilan ittifoq tuzib, hozir bir-birining payini qirqishga tushgan. Shu kunlarda ular jang qilayotganini Bobur aniq biladi. Zora bu ikkalasi bir-birining boshini yesayu, Boburning bekilgan yo'llari ochil-sa...

Bobur shu umid bilan Andijon tomonga maxsus odamlar yuborgan. U erta-yu kech shu odamlarning xushxabar bilan qaytishini kutadi.

Lekin yuborilgan odamlar bir yarim oydan beri qaytmayapti. Nima bo'ldiykin? Kutish og'ir. Kunlar benihoya sekin o'tadi. Bobur nima qilishini bilmay tog'yon bag'irlarida yolg'iz kezgani-kezgan. Tadbirkor Qosimbek ketib qolmaganda, balki undan yaxshi bir maslahat chiqarmidi? Jonkuyar safdoshi No'yon Ko'kaldosh ham yo'q – bultur Toshkentning janubidagi Ohangaronda bir nomard uni baland jordan tashlab o'ldirgan. Bir-biridan mash'um xotiralar Boburning xayolida muttasil charx uradi. U intihosiz g'am-g'ussalar qurshovidan chiqib ketishga intilib, xayolida she'r mashq qilib ko'rdi. Ammo uni bu ko'ylarga solgan

dahshatli voqealarni qofiyaga solib, ohangdor qilib aytishga xushi kelmadi.

\* \* \*

Kechki payt tog'larga tuman tushdi. Archazor yonida xayol surib yurgan Bobur pastdagi vodiy yo'llarini ham tuman to'sib qo'rganini ko'rdi-yu, soy bo'yiga keldi.

Quyuvq tuman dunyoni allanechuk tor va sovuq qilib qo'ydi. So'x soyining yuqori-pastlari ham ko'zdan yo'qoldi. Tezoqar tog' daryochasining qayoqdan kelib, qayoqqa ketayotgani endi faqat uning toshlarga urilib, shovullashidan bilinar edi, xolos.

Boburning hozirgi qarorgohi mana shu soyning yaqinida – keng bir sayhonlikda edi. Balandroq bir joyda uning qizil movut chodiri bor. Chodirning o'ng yonida Qutlug' Nigor xonimning sakkiz burchakli oq o'tovi turipti. Qolgan yigirma-o'ttizta o'tov va chodirlar ularning nari-berisiga o'rnatilgan. Sovuq tuman ichida chodir va o'tovlar go'yo bir-birlaridan uzoqlashib ketganday va hammasini mog'or bosayotganday ko'rinardi.

Bobur yo'lida uchragan odamlarning ta'zimlariga indamay bosh irg'ab o'tdi-yu, Mamadali kitobdorning o'tovi tomonga burildi. Bu yerda Bobur doim o'z ko'chi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi. Besh-olti tuyaga yuk bo'ladigan nodir kitoblar qalin charm qoplangan maxsus sandiq va qutilarga yog'in-sochin o'tmaydigan qilib joylangan edi. Keksayib qolgan bo'lsa ham hamma safarlarda Bobur bilan birga yuradigan zahil yuzli ellik besh yashar Mamadali kitobdor kitoblarni xuddi chaqalog'ini avaylaydigan onaday avaylab-asrar edi. U Boburga ta'zim qilib:

– Buyuring, amirzodam! – dedi.

Bobur tarixiy kitoblardan bir-ikkitasining nomini aytdi.

Mamadali kitobdor kitoblarga qo'l urishdan oldin qo'lini yaxshilab yuvadigan odati bor edi.

– Siz muntazir bo'lmang, qulingiz elturmen!

Bobur o'tovdan chiqib, o'z chodiriga kirdi. Oradan ancha vaqt o'tganidan keyin Mamadali kitobdor aytilgan kitoblarni ipak matoga o'ragan holda ikki qo'llab ko'tarib kirdi-yu, to'rdagi miz ustiga sekin qo'yib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Bobur mashhur sarkardalar va shohlarning hayotlari haqidagi tarixiy kitoblarni varaqlar ekan, murakkab jumlar, jimjimador o'xshatishlar, afsona va rivoyatlar orasidan chinakam bo'lgan va odamni ishontiradigan voqealarni izlardi. Lekin ko'pchilik kitoblarda nuqul g'alabalar dabdabali uslub bilan kuylanardi.

Ehtimol, hozir Shayboniyxon haqida ham mana shunday dabdabali kitoblar yozilayotgandir. Bobur Binoiyning yana Shayboniyxon tomoniga o'tib ketganidan, Muhammad Solih esa «Shayboniynoma» degan she'riy kitob yozayotganidan xabardor edi. Ular Shayboniyxonning Bobur bilan olishuvlarini qanday yozisharkin? Mana bu kitoblardagi kabi g'olibni ko'klarga ko'tarib maqtashsa, Boburga bo'lmagan ayblarni taqib, uni yomonlashsa, keyin odamlar haqiqatni qayerdan biladi?

Bobur nuqul zafar tantanalarini kuylagan jan-gomalarni bir chetga surib qo'ydi. So'ng o'rnidan turib, o'zining «Vaqoye» deb atalgan xotira daftarlarini sandiqdan oldi. Qiziq: so'nggi marta daftarga Bobur o'zining Samarqandni Shayboniyxondan qanday tortib olganini yozgan-u keyin unga qo'l urmagan edi. Demak, keyingi mag'lubiyat va sargardonliklarni uning o'zi ham yozishni istamagan ekan! Ammo bular daftarga yozilmagani bilan Boburning xotirasida



muttasil takrorlanib yuribdi-ku. «Isitmani yashirsang, ichga urar», deyдилar.

Bobur qilgan xatolarini daftaridan yashirgani bilan ular har kuni necha qayta yangi-yangi tafsilotlari bilan xayolidan o'tib, qalb yarasini tirnagani-tirnagan. Bundan ko'ra hamma voqealarni rostgo'ylik bilan mana bu daftarga yozsa, balki o'shanda isitma tashiga chiqib, dili xiyol yengillashar?

Bobur daftariga Saripulda qanday mag'lub bo'lganini, keyin qanday xo'rliklar ko'rganini yoza boshladi.

U bu ishni go'yo o'zi uchun, o'z vijdoni oldida hisob bergisi kelib qilardi. Shuning uchun boya o'qigan kitoblaridagi jimjimador, balandparvoz uslub bu yozuvlarga mutlaqo yarashmasligini sezardi. Shu sezgi ta'sirida kitoblari orasida turgan Shomiyning «Zafarnoma»sini qo'liga olib varaqladi.

Bu kitob muqaddimasida Shomiyning Amir Temurdan qanday topshiriq olgani hikoya qilingan edi. Sohibqiron jangnomalar va tarix kitoblarida ko'p uchraydigan hashamdor takalluflarni suymas ekanlar, ortiqcha lof urishlar, mubolag'alar ichida haqiqat yo'qolib ketishini, dabdabali uslub chindan sodir bo'lgan voqealarning ma'no va mohiyatini odamlardan to'sib qo'yishini aytgan ekanlar. «Shuning uchun siz bor haqiqatni aniq ravon qilib yozing, toki uning ma'nosini avom xalq ham anglagay, xos kishilar ham maqbul ko'rgay», – deb sohibqiron Shomiyga maxsus tayinlagan ekanlar.

Afsuski, Shomiy bu topshiriqni to'liq uddalay olmagan ekan. Amir Temur uning «Zafarnoma»sini o'qiganda qanoatlanmaganini Bobur onasi in'om qilgan sandiqdagi boshqa qo'lyozma manbalardan bildi. Ehtimol, shundan so'ng Amir Temurning ko'rgan-kechirganlari va yaratgan tuzuklari uning o'z tilidan aniq, iliq va ravon uslubda bayon etilgandir?

Hozir Boburning diliga eng yaqin uslub mana shu edi. U xotira yozishda ham sohibqiron bobokalonidan saboqlar olar, boshidan kechirgan barcha hodisalarni, yutuq va xatolarini eng ishongan sirdoshiga aytib dardlashgan kabi samimiyat bilan qalam tebratardi. Faqat uning endigi sirdoshi – o‘zi-yu mana shu daftari edi. «Ko‘nglimdan o‘zga mahrami asror topmadim!» deb g‘azal bitgan Bobur endi barcha ko‘rgan-kechirganlarini mana shu mahramiga roz aytganga o‘xshab xotira yozardi.

Bu rozlar orasida faqat jabr-u jafolar emas, yodga tushganda ko‘ngilni ko‘taradigan voqealar ham yo‘q emas edi. Boshiga tushgan ko‘rguliklar Boburni nihoyatda chiniqtirgan, goho yalang oyoq qor kechib yurar, ammo shamollash nimaligini bilmas edi. Shu haqdagi bir lavhani daftariga yozib qo‘ydi:

«Xashtiyak kenti yaqinida mahkam zarb sovuq edikim, ikki-uch kishi sovuqning shiddatidan o‘lub edi. Manga g‘uslga ehtiyoj bo‘ldi. Bir ariq suvidakim chekkalari qalin muz to‘ng‘ib edi, o‘rtasi suvning tezligidan yax bog‘lamaydur edi, bu suvga kirib, g‘usl qildim, o‘n olti qatla suvga cho‘mdim».

O‘shandagi sovuqning ta’siri yodiga tushib, eti yana bir junjikdi, lekin o‘n olti marta muz orasiga cho‘mgan bo‘lsa ham, sog‘-salomat qolgani – vujudida qanchalik pahlavonona kuch-quvvat yig‘ilganidan dalolat berishini o‘ylab suyunib qo‘ydi.

Ammo shundan keyingi voqealarni qalamga olganda, Ahmad Tanbalga in‘om qilgan bag‘dodiy qilichi aylanib kelib, Boburning joniga qasd qilgani ko‘z oldida tahlikali tarzda gavdalandi.

O‘sha yili Bobur Ahmad Tanbal bilan qaytadan jangga kirishib, O‘sh va O‘zganni qo‘lga kiritgan, Andijon yaqinida uning askarlariga shikast yetkazib, qo‘rg‘on ichiga chekinishga majbur qilgan edi.

Biroq kechasi Bobur qorovullikka tayin etgan navkarlar beparvolik qilib uxlab qolganmi yoki tunda Tanbal bilan yashiriqcha til biriktirganmi, harqalay, tong qorong'isida kimdir «Yog'iy bosdi!» deb qichqirdida, ura qochdi. Xakan arig'i yaqinida ochiq joyda uxlab yotgan odamlar cho'chib uyg'onishdi-yu, vahima ichida tum-taraqay bo'lib ketishdi. Bobur tez otga minib, yoni-veriga qarasa, o'ntacha odami qolibdi. Nariroqda yovning jangdovullari qochganlarning ketidan o'q otyapti:

– To'xta! Qaytinglar! – deb qichqirdi Bobur o'z odamlariga. Ammo hech kim qaytmadi.

Yov jangdovullari ozdek ko'rindi. Bobur yoydan ularga qarab o'q otdi. Jangdovullar qochdi. Bobur ularni quvish bilan bo'lib, daraxtlar orasidan chiqib kelgan yuzga yaqin otliqlarni ancha kech ko'rdi.

Tong yorishib qolgan edi. Hammadan oldinda qo'lida qalqon tutgan, qilich yalang'ochlagan Ahmad Tanbal kelmoqda edi.

Bobur uni tanigach, otining jilovini tortib, yon-veriga qaradi. U bilan faqat Tohir va yana ikkita yigit – uchtagina jangchi qolgan edi. «To'rt kishi bularga bas kelolmaysen, qoch!» dedi ichki bir ovoz.

Ammo shuncha xiyonatlar qilgan, doim qochib qutulib yurgan Ahmad Tanbal endi birinchi marta yuzma-yuz kelganda, undan qo'rqib qochishga oriyat yo'l bermadi. Oriyat o'limdan yomon deb, bejiz aytmagan ekanlar. Bobur darhol jilovini qo'yib yuborib, kamoniga o'q o'rnatdi. Ahmad Tanbal qilichini sug'urayotganda, Bobur uning qisiq ko'zlarini mo'ljalga olib o'q otdi. O'q Tanbal boshiga kiygan zirhli dubulg'aga qarsillab urildi, uni teshib o'tolmagan bo'lsa ham, Bobur xiyonatkor dushmanining boshiga musht tushirganday bo'ldi. Bobur chapdastlik bilan yoyga yana o'q o'rnatib, uning bezraygan yuziga

to'g'rilab otdi. Tanbal yuzini qalqoni bilan to'sishga ulgurdi.

Bobur otgan ikkinchi o'q qalqon orqali Tanbalning yuziga urilgan tarsakidek ovoz chiqardi. Bu orada Tanbalning yonidagi kishilar Boburga ham yoydan o'q yog'dirdilar. Bir o'q uning tizzasidan pastroq boldiriga qadaldi. Ahmad Tanbalning o'zi otini «chu-chulab» qo'lida qilichi bilan Boburga baqamti keldi. Bobur yarador oyog'ining «jizillab» kuyib og'rganini va Ahmad Tanbalning qo'lidagi qilich allanechuk tanish ekanini bir vaqtda his qildi. Bu – Boburning nomidan Ahmad Tanbalga in'om qilingan egik bag'dodiy qilich edi. Bu qilichni o'pib, Boburga sadoqatli bo'lish haqida qasamyod qilgan Ahmad Tanbal nahotki endi uni egasiga qarshi ko'tarsa? Bobur buni o'ylashga ham ulgurmasdan qilich uning boshidagi dubulg'aga kelib tushdi. Boburning ko'zlaridan go'yo olovli uchqunlar sochilib ketdi, boshi birovning boshidek hissiz bo'lib qoldi. Qilichning tig'i dubulg'a kiygizini kesib o'tolmagan bo'lsa ham bosh yaralangan edi. Boburning bo'yniga dubulg'a chetidan qon sirqib tushdi. Boldiridagi yaradan etigi issiq qonga to'lmoqda edi.

Ahmad Tanbal g'olibona hayqirib, qilichini yana ko'tardi. U endi o'tkir qilichini Boburning zirhli kiyimlari orasidan sal-pal ko'rinib turgan bo'yniga urmoqchi va boshini kesib tushirmoqchi edi. Shu payt ortdan Tohir yetib keldi-yu, Bobur mingan bo'z otning jilovini siltab tortdi. Bedov ot o'rnidan sakrab qo'zg'alar ekan, Ahmad Tanbal bo'ynini mo'ljallab urgan qilich Boburning yoy-o'qlari solingan saqdog'iga tegib, uni shart kesib tushdi.

– Amirzodam! Jilovni oling! – qichqirdi Tohir.

O'zi esa Boburning otiga qamchi bosdi.

Qamchi yeb o'rganmagan uchqur bedov oldinga o'qday otilib, egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. Yarador Bobur O'shga qaytdi, ancha kungacha boshi

g'uvillab, oyog'i cho'loqlanib yurdi. Lekin uni yara og'rig'idan ham ortiq qiynagan dard – Qosimbekning taklifi bilan Tanbalga in'om etilgan bag'dodiy qilichning aylanib kelib o'z boshiga tushganligi edi. Qotilga kim qilich bersa, o'zi uning tig'iga duchor bo'larkanmi? Biroq dunyoda adolat bo'lsa, shuncha qotilliklar, shuncha xiyonatlar qilgan Ahmad Tanbalga nega qasos qaytmaydi? Bobur shu o'ylar bilan xotira yozishga berilib ketib, qorong'i tusha boshlaganini ham sezmedi. Savdarlar oltin qandildagi shamlarni yoqdilar. Boburga kechki ovqat keltirdilar. U yolg'iz o'tirib ovqatlandi. Xotira yozganda unga o'z hayoti avvalgidan iliqroq va ma'noliroq tuyilgan edi. Bekor o'tirganda esa yana o'sha og'ir o'ylar, sovuq pushaymonlar xayoliga bosib kela boshladi. Bobur ulardan tezroq qutulgisi kelib, yana qalamini qo'lga oldi. Keyin yarim tungacha daftaridan bosh ko'tarmay so'nggi yilning voqealarini yozdi.

\* \* \*

Atrofdagi o'tovlar jim, hamma uyquda.

Tun sukunatida otning dupuri, itlarning hurishi eshitildi. Qarorgohning chetiga qo'yilgan qorovul zarda qilib:

– To'xta! Kimsen? – dedi. – O'ronni<sup>1</sup> ayt!

– O'ron – Andijon.

Qorovulning ovozi yumshadi:

– Andijon bo'lsa kelaver. Ovozingdan Tohir chopuqqa o'xshaysenmi?

– Ha, Tohirmen.

– Bemahalda yolg'iz yuribsen?

– Meni gapga tutma. Mirzo hazratlariga shoshilinch xabar keltirdim.

---

<sup>1</sup> O'ron – parol.

Tohir qorong'ida Boburning chodirini tasmollab topdi-yu, otini beriroqdagi qoziqqa bog'ladi. U avval soqchilarni yoki mulozimlarni uyg'otmoqchi bo'lib, chodirning ro'parasidagi o'tovga qarab o'ta boshladi. Shunda chodirning ichi yorug' ekanini, eshik o'rniga tutilgan parda ochilib, Bobur chiqib kelganini ko'rdi. Tohir Boburning qarshisiga kelib yukundi. Past tovush bilan:

– Amirzodam, muntazir qilganim uchun afv eting,  
– dedi. – Yog'ylaringizning urushi endi tugadi.

Bobur sabrsizlanib so'radi:

– Xushxabar bormi? Nechun yolg'iz qaytdingiz?

Tohir boshini quyi solib, hazin tovush bilan dedi:

– Bir qoshiq qonimdan keching, amirzodam!..

Bobur sovuq xabarlar izg'irini oldindan sezganday eti uvushdi:

– Qani ichkari kiring.

Savdarlar uxlab qolgan. Bobur hech kimni uyg'otgisi kelmadi. Baland, keng chodirning to'rida to'rt-beshta sham lipillab, yonib turibdi.

Bobur sham yorug'ida Tohirga endi zehn solib qaradi. Chakmonining etaklariga loy sachragan. Ozib ketganidan yelkalari puchayib qolgan, ko'zlari ichiga o'pirilib tushgan. Yuzidagi chandig'i esa bo'rtib, go'yo avvalgidan xiyla katta bo'lib ketgan. Lablari pirpirab, o'pkasi to'lib gapirdi:

– Amirzodam, Andijon ham Shayboniyxonning ilkiga o'tdi. Behisob ko'p odam qirildi. Hamrohim qirg'inda halok bo'ldi.

Tohir shunchalik charchagan ediki, gavdasi chayqalib, oyoq ustida zo'rg'a turar edi. So'nggi umididan ham ayrilib bo'shshagan Bobur ko'rpacha ustiga o'tib o'tirdi-yu, Tohirni ham o'tirishga taklif qildi.

Tohir gilam ustiga cho'kkalab o'tirgach, Bobur undan voqeaning tafsilotini va Ahmad Tanbal nima

boʻlganini soʻradi. Tohir Andijon yaqinidagi Xoʻja Katta degan qishloqda boy bir odamga aravakash boʻlib yollangan, oʻzining kimligini bildirmay butun hodisalarni odamlardan soʻrab bilgan, boyning shahardagi doʻkoniga mol olib borganda, koʻp narsani oʻzi ham koʻrgan edi. Ahmad Tanbal Andijon etagida boʻlgan jangda shikast yegandan keyin qoʻrgʻonga kirib bekinadi. Qamal boshlanadi. Qoʻrgʻon ichida ochlik, kasallik va nifoq kuchayadi. Bir vaqtlar Samarqandda Boburni tashlab, Ahmad Tanbalga ergashib qochgan bek va navkarlar endi uning oʻzini tashlab, Shayboniyxon tomoniga qochib oʻtadilar. Xonning qoʻshini devorga shoti qoʻyib chiqib, qoʻrgʻonni bosib oladi. Ahmad Tanbal akasi Bek Tilba, ukalari va boshqa odamlari bilan arkka kirib bekinishadi. Biroq arkning atrofida uylar koʻp, ularga orqadan shoti qoʻyib, tomiga chiqish oson. Ahmad Tanbal arkda jon saqlayolmasligini sezadi-yu, Shayboniyxondan shafqat soʻrashga qaror beradi. «Yiqqan barcha oltinlarimni hazrati xonga moli amon tariqasida toʻlamoqchimen, umrbod xizmatlarida boʻlmoqchimen, qonimdan kechsinlar!» deb arkdan bir moʻysafidni vakil qilib chiqaradi. Ammo moʻysafid arkka qaytib kelmay yoʻq boʻladi. Xon askarlari arkning tomlari ustiga shoti qoʻyib chiqa boshlaydilar. Talvasaga tushgan Ahmad Tanbal aka-ukalari bilan birga ark darvozaxonasiga boradi. Taslim boʻlganlarini koʻrsatish uchun qilichlarini boʻyinlariga osib, darvozadan tashqariga shafqat soʻrab chiqadilar. Ark darvozasi oldida Shayboniyxonning oʻgʻli Temur Sulton turgan ekan. Navkarlariga: «Asir olma, arzimaydi, qir hammasini!» – deb buyruq beradi. Ahmad Tanbalni aka-ukalariga qoʻshib, qilich bilan chopib, burdalab tashlaydilar. Keyin boshlarini kesib, bir qopga tiqadilar-u Shayboniyxonga koʻrsatgani olib ketadilar.

Tohirning hikoyasi shu yerga kelganda Bobur:

– Yo Xudoyo tavba! – deb beixtiyor yoqasini ushladi.

So‘nggi paytlarda Boburni ezib yurgan javobsiz savollardan biriga hozir go‘yo momaqaldiroqday vahimali javob kelgan edi. Xo‘ja Abdulladay mard, fidokor odamni qo‘rg‘on darvozasiga osib o‘ldirgan Ahmad Tanbalning o‘zi endi o‘sha qo‘rg‘ondagi ark darvozasi oldida itday xor bo‘lib o‘lgan edi! Bobur in‘om qilgan qilichni uning boshiga razilona urgan Tanbal endi boshqa qilichlar zarbidan burdalangan edi!

Tog‘dagi chagraklarning boshini vahshiylarcha kesib, xurjunga solib kelgan Tanbalning o‘z boshini yanada vahshyroq bir tarzda kesib, qopga solib ketgan bo‘lsalar, uni, albatta xonga eltib ko‘rsatganlar.

Bobur qopdan Shayboniyxonning oyog‘i tagiga yumalab tushgan tanish kallalarni ko‘z oldiga keltirdi. Mahmudxonda eshik og‘a bo‘lib yurgan Tilba Sultonning yo‘g‘on bo‘yinli semiz boshini Shayboniyxon tanigan bo‘lsa kerak. Ammo xon Ahmad Tanbalning kallasini tanimaydi.

Shayboniyxon o‘zini shuncha ovora qilgan Ahmad Tanbalning basharasini ko‘rib qo‘ygisi keladi, ammo yuztuban tushgan qonli kallaga qo‘l urgisi kelmaydi. Ahmad Tanbalning qonli kallasini oyog‘ining uchi bilan yumalatib o‘nglab, siyrak soqoliga, suyagi bo‘rtgan keng yuziga qaraydi.

Bobur o‘zicha tasavvur etgan bu hodisadan aqli shoshib:

– Obbo! Obbo! – deb bir necha marta takrorlab qo‘ydi.

Bu hodisalarda qandaydir o‘zgacha bir adolat borligini sezgan Bobur boshqa voqealarni aqliga sig‘dirolmay lol bo‘lib qoldi. Shayboniyxon berahmlikda Ahmad Tanbaldan ham o‘tib tushgan-ku. Nahotki falak intiqom qilichini shunday shafqatsiz xonning qo‘liga berib qo‘ysa? Bir vaqtlar Bobur orzu qil-



gan, ammo yetisholmagan ulkan maqsadga – Movarounnahrdagi parokanda viloyatlarni birlashtirib, yagona kuchli davlat barpo etish maqsadiga – endi Shayboniyxon yetishmoqdami? Nahotki buning uchun Shayboniyxonday makkor, zolim va shafqatsiz bo'lish kerak edi? Tohir Andijonda xonning buyrug'i bilan bo'lgan qirg'inning tafsilotini aytib berganda, Boburning sochlari tikka bo'lib ketdi. Minglarcha ayollar, o'smirlar, chollar Ahmad Tanbalning odamlari qatorida bekordan-bekorga nobud qilingan edi. Nahotki hozirgi zo'rlar zamonasida yengib chiqish uchun Shayboniyxonday zo'ravonliklar qilish shart bo'lsa?!

Bobur ma'rifatli shoh bo'lishga urinib, she'r-u san'atga ko'p vaqt berib, insof-u diyonatni o'ylab, nahotki shu tufayli Shayboniyxonga yutqizgan bo'lsa?!

– Amirzodam, xon kishilari sizni so'roqlab yurganlarini eshitdim. Ayg'oqchilari hid olib, So'xga kelib qolsalar ham ajab emas!

Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi. Ahmad Tanbalning mag'lubiyati buloqning ko'ziga tushgan yangi bir ko'chki edi. Tog'ning bu tomonida buloq qaytadan ko'z ochishi mumkin bo'lgan yo'llarning hammasi bekildi. Agar Bobur tezroq tog' oshib Xurosonga ketmasa, Shayboniyxon aylanib o'tib, uning so'nggi yo'lini ham bekitadi!

Bobur iztirob ichida Tohirning oddiy bir navkar ekanligini ham unutdi-yu, unga hasrat qilib gapirdi:

– Xonumondin ayrilganimiz ozmidi? Endi Vatandin ham judo bo'lurmizmi?!

Boburning ko'zi yoshlanganini ko'rgan Tohirning ham ko'ngli buzilib, lablari pирpiradi:

– Amirzodam, musofirlik g'ami mening ham yurakbag'rimni o'rtaydi. Bizning Quvalar ham xonning poshnasi tagida majaqlandi. Agar borsam mendan

Fozil tarxonning qasdini olishlari aniq. Biz ham kindik qoni tomgan joydan ayrildik, amirzodam. Musofirlik taqdirimizda bor ekan. Soʻxda ham musofirmiz. Hisorga borsak ham, undan nariga ketsak ham shu musofirlik... Yoʻlda kelayotib oʻylanib keldim. Men sizdan ajralmayman, amirzodam!

Tohir butun najotni odil podshohdan izlaydigan dehqontabiat yigit ekanini Bobur bilardi.

– Lekin men siz kutgandek odil podshoh boʻlmadim!  
– dedi Bobur. – Kelgusida boʻlamenmi, yoʻqmi, hali nomaʼlum...

Oraga bir lahza sukunat choʻmdi. Tashqarida Soʻx soyi goʻyo tun sukunatidan figʻoni chiqib shovullardi.

Chodir ichida quvgʻindagi shoh bilan uning oddiy navkari yuzma-yuz oʻtiribdi. Vatandan ajralish musibati oldida ularning oralaridagi katta farq goʻyo kichrayib, ahamiyatsiz boʻlib qolgan. Boshlariga tushgan koʻrgiliklar ularning taqdirlarini bir-biriga oʻxshash qilib qoʻygan. Shuncha yil jang-u jadallarda birga yurib, qanchadan-qancha oʻlim xavflarini birga kechirgan bu ikki yigit bugun birinchi marta sirdoshlarcha ochiq soʻzlashmoqda edilar. Tohir boshqa vaqtda Boburga aytolmaydigan soʻzlarini hozir koʻngli yumshab, erib turgan paytda aytdi:

– Amirzodam, men bir navkaringiz boʻlsam ham sizga tugʻushqonimdek mehr qoʻyganmen. Botirligingizgami, shoirligingizgami, odamgarchiligingizgami, ishqilib, mening... sizga ixlosim zoʻr! Sizning shuncha xavf-u xatarlardan omon qolganingiz ham katta davlat!

Shu tobda Tohir suyukli inisiga mehri toblanib, ogʻir paytda uning koʻnglini koʻtarayotgan jonkuyar akaga oʻxshar edi. Darhaqiqat, u Boburdan yetti yosh katta edi. Bobur ham bir lahza shohligini unutib, Tohirla xuddi akasiga qaraganday qaradi:

– Meni juda koʻp xatarlardan siz olib qolgansiz. Men sizdan koʻrgan yaxshiliklarimning oʻndan birini ham qaytargan emasmen. Siz menga ogʻamdek qadrdonsiz.

– Rahmat sizga.

– Lekin hozir mening ko'nglim yer bilan yakson. Taqdir menga iste'dod bergan, kuch bergan, g'ayrat bergan, ammo nechun baxt bermagan?!

– Bu zamonda baxt o'zi yo'q, amirzodam! Axir sizdek nodir iste'dodlar dunyoga har kuni kelmaydiku! Nodon tojdorlardan qon yig'lagan el-yurtimiz sizdek ma'rifatli sarkardaga mushtoq. Lekin baxil zamona g'alabani zolim xonga berib, bizni, mana Vatanimizdan ham judo qilmoqchi. Ilohim bu baxil zamonaning bog'lari qurib ketsin-u siz-u bizning qadrimizga yetadigan yaxshi zamonlar ham kelsin! Endi... amirzodam, bu yerdan tezroq ketish kerak. Hirot ham bizga begona yurt emas. Podshoh Husayn Boyqaro sizning qarindoshingiz. Mening tog'oyim mavlono Fazliddin ham Hirotida ekan...

Bobur Xurosonga ketmay iloji yo'qligini o'yladi-yu, oshib o'tishi kerak bo'lgan tog'larni ko'z oldiga keltirdi. Uzoqdan moviy tusga kirib behad jozibali ko'rinadigan bu tog'lar tik dovonlardan, xatarli uchmalardan o'tishi kerak bo'lgan odamga qanchalik tund va berahm ko'rinadi! Hozir Boburning tasavvurida baland cho'qqilarning asriy qorlari kafanday beharakat va sovuq, o'limday abadiy bo'lib gavdalandi.

– Xatarli yo'llarda men o'z jonimni avval Xudoga, so'ng sizga ishonib topshirmoqchim. Bugundan boshlab siz mening qo'rchiboshimsiz. Ichki beklarim qatorida bo'lursiz.

– Inoyatingizdan minnatdormen, amirzodam!

– Hozir bu inoyatning sharafidan azobi ko'proq. Yo'lda charchagansiz. Borib dam oling. Ertadan safar tayyorligi boshlanur.

Tohir ta'zim qilganicha chiqib ketdi.

Boburning uyqusi kelmas edi. U yana chodirdan chiqdi. Kunduzgi tuman tarqab ketgan, lekin osmonda bulut bor. Yulduzlar onda-sonda ko'rinib qoladi. So'x

soyi osmonni boshiga ko'tarib shag'irlaydi. Tunda tog'larning qorasi kunduzgidan haybatliroq ko'rinadi. Bobur qop-qora tog'larga tikilib turganda yana ko'chki bosgan buloq esiga tushdi. Tog'larning bu tomonida hamma yo'llari bekilgan buloq endi tog'larning naryog'idan ko'z ochib chiqa olarmikin? Ulug' tog'dan narida bahaybat Pomir. Undan narida Himolay va Hindikush... Buloq bu tog'larning hammasidan o'tib borib, naryoqlarda qaytadan ko'z ochishi uchun qanchalik katta kuch-qudrat kerak!

# TAQDIR TAQOZOSI

*Ikkinchi qism*

## HIROT

### DOVULDAN OLDINGI OSUDALIK

#### 1

Xazonrezlik payti. Hirot bog'lariga suv beradigan Hiriyrud daryosi va Injil anhorining qirg'oqlariga za'faron yaproqlar to'kilgan. Qal'a tashqarisidagi mashhur Bog'i Jahonoro, Bog'i Muxtor, Bog'i Zubayda, Bog'i Chamanlardagi uzumzor va anorzorlar yoz bo'yi ko'tarib turgan mevalaridan ayrilib, yakkam-dukkan qovjiroq barglar bilan so'ppayib qolganlar. Biroq bu janubiy shaharda kuzning xazonrezlik odatiga bo'ysunmaydigan daraxtlar ham ko'p. Hirotga Qandahor tomonidan kelishda yo'l bo'yidagi xiyobon va sayrgohlarda o'sgan minglarcha sarvlar, sanobar<sup>1</sup> daraxtlari kuzda ham bahordagidek yashnab turibdi. «Husayn Boyqaro hovuzi» deb atalgan ulkan toshhovuz bo'yida kumushrang jajji yaproqlari qush tilini eslatadigan baland va go'zal lisonittayr daraxtlari bor – bular ham xazon nimaligini bilmaydi.

Lisonit-tayrning barglari yara-chaqaga doriligini eshitgan Tohir hovuzdan beriroqda otdan tushdi-yu, jilovini yoshgina navkariga tutqizdi. So'ng o'zi hovuzning xilvatroq tomoniga o'ta boshladi. U dorivor barglardan yulib olib ketmoqchi bo'lib tepadagi shoxlarga tikilib borayotganda, qarshisidan kimdir:

---

<sup>1</sup> Sanobar – nina bargi och havorang tUSDagi go'zal qara-g'aysimon daraxt. Bizda masalan, Sayrobda uchraydi.

– Menga qarang, bek yigit! – deb qoldi.

Tohir daraxtning yo‘g‘on tanasi ortidan chiqib kelayotgan mullanamo kishini ko‘rdi. Nimasidir Fazliddin tog‘asini eslatib, yuragini hapriqtirdi. Ammo soqolining uzunligi-yu, yuzining keksanamo ko‘rinishi Tohirni shubhaga soldi. U odob bilan:

– Labbay, – deb salom berdi.

Tohirning yuzidagi xanjar iziga tikilib turgan haligi kishi endi uning ovozini ham tanidi-yu:

– Tohir! Jiyanim! – deb qichqirib yubordi.

Tohir ham endi tog‘oyisini tanib, quchoq ochganicha unga qarab otildi. Hovuzning shishaday tiniq suvida ularning akslari bir-biriga qo‘shilib ketdi.

– Vatanimning hidini olib kelgan jiyanim! Xudoga shukr, eson-omon ekansen!

Mavlono Fazliddin jiyanini quchog‘idan qo‘ydi-yu, ko‘zidan yuziga oqib tushgan quvonch yoshlarini artib, Tohirning kumush kamariga, beklar taqadigan qimmatbaho xanjariga va saqorlot chakmoniga endi razm solib qaradi. Tohirning boshidagi dubulg‘aning tepasida ham beklarga xos kichkina bayroqcha bor edi.

– Jiyanim, martabang oshibdimi?

– Ha, tog‘a, qo‘rchibegimen.

– Muborak bo‘lsin. Ilohim senga yomon beklarning ta‘siri urmasin!

– Bobur mirzo ham yomon beklaridan bezgandan keyin bittasining o‘rniga meni qo‘ydi... Xo‘sh, o‘zingiz qalaysiz, mulla tog‘a? Kelganimdan beri qidiramen. So‘roqlab-surishtiray desam, tanish-bilish yo‘q.

Yoshi qirqqa kirar-kirmas yuziga ajin tushgan mavlono Fazliddin ma‘yus tovush bilan dedi:

– Yuribmiz... Tuproqdan tashqarida. Xudo bizni omadsiz yaratgan ekan-da, jiyanim. Bu yerga kelib, endi Navoiy hazratlarining marhamatlaridan bahramand bo‘lay deganimda, u zoti oliy vafot etdilar. Katta qurilishlar Husayn Boyqaro zamonida ham

uncha-muncha bo'lib turgan edi. Mana shu yil Husayn Boyqaro ham olamdan o'tdi. Qurilishlar taqa-taq to'xtagan. Bizga o'xshaganlarga yana ish yo'q!

– Unday bo'lsa, Bobur mirzoga bir uchrang.

– Bobur mirzo ham bu yerda mehmon... Meni qabul qiladimi, yo'qmi? Orada nozik gaplar o'tgan.

Tohir mavlono Fazliddin bilan Xonzoda begim orasida bo'lgan murakkab voqealarning bir uchini eshitgan edi.

– Bo'lmasa, avval men u kishini xoli topib, siz to'g'ringizda gap ochib ko'raymi, mulla tog'a?

– Mayli, buni keyin yana maslahatlashurmiz. Obbo jiyanim-ey! Men Bobur mirzoning Hirotga kelganlarini eshitganimdan beri «sen ham bormikinsen, yo'qmikinsen», deb har bir navkarga ko'z tikib yurgan edim... Qani endi, yur, uyga boraylik! Agar senga mana bu dorivor yaproqlar kerak bo'lsa, uydan topib beraman. Bizning bog'chada ham shu daraxtdan bor.

– Bog'chada... bir o'zingizmisiz yoki uylandingizmi, mulla tog'a?

– Uylanganmiz, jiyan. Navoiy hazratlari maslahat berdilar. U kishida bog'bon bo'lgan durust bir odamning qizi bor ekan...

– Muborak bo'lsin! Farzandlar ham bormi?

– Ha, bir o'g'il, bir qiz.

– E, ajoyib-ku! Unday bo'lsa, men uyingizga to'yonalar bilan borurmen!

– O'zingni ko'rganim ming to'yonadan afzal, jiyan! Qani, yur!

Tohir bir necha qadam yurdi-yu, keyin nimanidir eslab, osmonga qaradi. Oftob og'ib borar edi.

– Mulla tog'a, uyingiz yaqinmi?

– Yo'q, uzoqroq. Shahar chetidagi Nazargoh mahallotida. Nima edi?

– Men hozir bir soatdan so'ng xizmatda bo'lmog'im kerak edi. Podshoh buyurgan edi.

– Obbo!.. Undoq bo'lsa... Shu yerda birpas o'tiraylik. Men sal diydoringga to'yay! O'zing qalaysen, jiyanim, uylanganmisen?

Tog'a-jiyan hovuzdan chetroqdagi tosh kursiga borib o'tirdilar. Tohir Robiyani qanday topganini aytib berdi-yu:

– Kobulga kelib bitta o'g'ilcha ko'rdik! – dedi. – Otini Safarбек qo'ydik.

– E, xayriyat! Men bir vaqtlar hamma narsadan umidimni uzgan edim. Seni ham qayta ko'rolmasmen, deb o'ylagan edim. Bosh omon bo'lsa, hammasi o'tar ekan... Sen bilan biz-ku, qutulib keldik-a! Andijondagilarning ahvoli ne bo'ldi?

– Buni so'ramang, mulla tog'a! Shayboniyxonning qirg'ini kechalari tushimga kirsa, bosinqirab chiqamen!.. U yoqda rosa abgor bo'lib, ikki yuz qirqtagina odam bilan Xurosonga qarab jo'nadik. Hisor tog'larining orasida rosa qiynaldik. Ot-ulovlar o'lib-so'yilib tamom bo'lgan. Bobur mirzo ham otini onasiga berib, o'zi piyoda yuradi. Oyoqlarimizda choriq. Qo'llarimizda tayoq. Turadigan joyning tayini yo'q. Birov beri kel, demaydi. Arzimagan amaldorlar Bobur mirzoday odamga behurmatlik qilib: «Yo'llaringdan qolmanglar, Hisordan tezroq o'tinglar», deydi. Bizning g'azabimiz kelib, qo'pol gapirgan amaldorlarni chopib tashlasak, deymiz.

Lekin Bobur mirzo: «Bardosh qilinglar, tezroq Amudaryodan o'tib olaylik», deb shoshiradi.

– Lekin shoshirganicha bor ekan-da, jiyan. Sizlardan sal keyin Shayboniyxon Hisorni ham bosibdi-ku.

– Ha, keyin bilsak, Bobur mirzo uzoqni o'ylab shunday qilgan ekanlar. Hisor podshosi Xisravshoh umrida bir mushuk bilan ham urushib ko'rmagan qo'rqq odam ekan. Beklarning ko'pchiligi undan norozi ekan. Bobur mirzoga maxfiy odamlar yuborib: «Keling, Hisorni sizga beraylik!» der ekanlar. Lekin



Bobur mirzo fitnaga aralashmadi. «Keling», degan haligi beklarga: «Xoqon bo'lsalaring o'zlarining kelinglar», deb yaxshi gaplar aytib odam yubordilar.

Biz Amudaryodan bu yoqqa o'tganda, Shayboniyxon Hisorga bostirib kiribdi. Qo'rqoq Xisravshoh xon bilan jang qilishga yuragi betlamay, poytaxtni tashlab qochibdi. Uning o'ttiz ming qo'shini tarqab ketibdi. O'zingiz bilasiz, mulla tog'a, bunday paytda beklar nomi ulug'roq bir podshoh izlab qolishadi. Bobur mirzo Shayboniyxon bilan dadil jang qilgani, birda yengilgan bo'lsa, birda uni yenggani eslariga tushadi. Ilgarigi eshik og'a Qosimbek o'sha paytda Hisor qo'shining orasida edi. Uning Bobur mirzoga ixlosmandligini bilasiz. Xullas, ini buzilgan ariga o'xshab tarqalgan Hisor qo'shini Amudaryo bo'yida bizga kelib qo'shilaverdi. Eng avval Boqibek Chag'oniyoniy degani to'rt yuz askari bilan keldi. Bobur mirzo unga kutganidan ziyoda hurmat ko'rsatdi. Boqibekni eng baland martabali eshik og'a qilib qo'ydi. Keyin Xisravshohning boshqa beklari-yu, navkarlari ketma-ket kelib bizga qo'shilaberdi-da. O'zimiz daryodan ikki yuz qirqtagina odam o'tgan edik. Bir oy ichida to'rt mingga yetdik... Mavlono Fazliddin jiyanining so'nggi yillarda bir qadar o'zgarib qolganini endi aniqroq sezdi. Tohir ilgari bunchalik so'zlay olmas edi. U gapdon asilzodalar orasida ko'p yurib, mulozimlarga xos murakkab iboralar ishlatishga o'rgangan edi.

- Biz Kobulga kelsak, arg'in degan urug'dan Muqimbek hokim bo'lib o'tirgan ekan. Taxt da'vo qilishga haqi ham yo'q, biz bilan olishadigan kuchi ham yo'q. Kobulni bizga jangsiz berdi. Keyin Husayn Boyqarodan Bobur mirzoga xat berdi. «Cherik bilan keling, Shayboniyxonga qarshi ittifoq bo'lib chiqaylik», debdi. Otda qirq kun yurib, shuncha joydan kelsak, Husayn Boyqaro olamdan o'tibdi.

– Bir jihatdan Kobulni poytaxt qilib, bu yerga obro‘ bilan kelganlarning yaxshi bo‘libdir, jiyanim. Aks holda, Husayn Boyqaroning kalondimog‘ o‘g‘illari Bobur mirzoni pisand qilmagan bo‘lur edi.

– Lekin hozir hurmatimiz juda joyida. Shahar hokimini bizga qo‘shib qo‘yganlar. Hirotni aylantirib rosa tomosha qildirdi. Katta dargohlarda har kun ziyofat. Bugun kech Bobur mirzo yana saroyga borishlari kerak edi...

Tohir osmonga ko‘z tashlab, oftobning ancha pasayib qolganini ko‘rdi-yu, bezovtalanib o‘rnidan qo‘zg‘aldi:

– Mulla tog‘a, men kech qolsam bo‘lmas. Sizning uyingizga ertaga borsam maylimi? Qanday topib boramen? Shuni ayting.

Ular Tohirning otini jilovidan tutib turgan navkarning oldiga borgunlaricha mavlono Fazliddin uyining qayerdaligini Tohirga batafsil tushuntirdi. Tohir otining jilovini navkarining qo‘lidan olar ekan:

– Mulla tog‘a, otingiz qani? – dedi.

– Jiyanim, men piyoda yuramen.

– Uyingiz uzoq bo‘lsa ham-a?

– O‘rganib ketganmen.

Tohir tog‘asining kambag‘allashib qolganini endi sezdi-yu, otining kumush bezakli yuganini mavlono Fazliddinga tutqazdi:

– Bo‘lmasa mana shu ot sizniki.

– O‘zing-chi, jiyanim?

– Otxonada mening yana ikkita otim turibdi. Mining!

Tohir tog‘asini qo‘ymasdan otga mindirdi-yu, beliga qistirilgan qimmatbaho qamchini ham tog‘asiga berdi.

– Siz O‘shda menga mindirib yuborgan otning quluni bu, mulla tog‘a. O‘shanda meni boshdan-oyoq kiyintirgan edingiz-a, esingizdami?

– E, bosh omon bo‘lsa do‘ppi topiladi, jiyan! Buni eslatib o‘tirma.

«Ammo ertaga kelin ayamga ham, bolalariga ham bosh-oyoq kiyimlik olib borib, tog'amni yana bir suyuntirishim kerak!» – dedi Tohir o'zicha.

Ikkinchi ot ustida o'tirgan yoshgina navkar nima bo'layotganiga unchalik tushunmasa ham, tog'a-jiyanga angrayib qarab turardi.

Mavloni Fazliddin xo'shlab, keta boshladi. Tohir navkariga qarab shipshidi:

– Farosating bormi?

Bekni piyoda qoldirib, navkarning otliq turishi chindan ham odobga to'g'ri kelmas edi. Yosh navkar buni ertaroq sezmaganiidan izza bo'lib, otdan sakrab tushdi va jilovini Tohirga tutdi:

– Afv eting, bek janoblari.

Mavloni Fazliddin o'girilib qaradi-yu, Tohir navkarning otida beklarcha savlat to'kib borayotganini, navkar esa uning yonida yo'rg'alab piyoda ketayotganini ko'rdi. Navkardan chiqqan ba'zi beklar obro'talab bo'lishi mavlononing esiga tushdi. «Ishqilib, Tohir o'shalarga o'xshamasin-da!» deb qo'ydi ichida.

## 2

Bugun o'n yetti kundirki, Bobur Hirotda Alisher Navoiy istiqomat qilgan muhtasham Unsiyada<sup>1</sup> yashaydi. Unsiyaning baland peshtoqlari, niliy gumbazi, oftobda jilolangan rang-barang koshinlari Boburga Samarqanddagi Ulug'bek madrasasini eslatadi. Lekin Unsiyaning to'rt tomonidagi to'rtta minorasi Ulug'bek madrasasinikidan balandroq, binoning hajmi ham kattaroq edi. O'zi bundan o'n besh yilchagina oldin qurib bitirilgan, hali hamma bezaklari yap-yangi edi.

Unsiyaning ichidagi xonalardan bir qanchasini Navoiyning shaxsiy kutubxonasi egallagan. Bobur

---

<sup>1</sup> Unsiya – «Do'stlik uyi» demakdir.

kutubxonadagi kitoblarni varaqlaganda, ularning ba'zi joylarida ulug' shoirning dastxatini ko'rdi-yu, Samarqandda undan olgan maktubni esladi. Navoiyni ko'rishga muyassar bo'lolmagani uchun yuragini ma'yus tuyg'ular chulg'adi.

Kutubxona eshigi oldiga chiroyli bir javonga o'xshash katta soat qo'yilgan. Belgili vaqtlarda bu soatning tepasidagi jaji haykalcha harakatga keladi-yu, oltin bolg'achalar bilan ohangdor qilib zang chaladi. Bunday soat yasash g'oyasini soatsozga Navoiyning o'zi aytib, maxsus buyurtma bergan edi. Keyin Hirotda «Alisheriy» deb ataladigan zang chaluvchi soatlar rasm bo'lib ketgan edi.

Bobur kutubxonadan chiqar ekan, ustma-ust zang chalayotgan soatga qarab turib, o'zicha o'ylandi: «Ajab! Alisherbekning o'zlari vafot etgan bo'lsalar ham ixtirolari tirik. Umri soniy shulmikin? Bu soat o'z egasining ikkinchi umrini o'lchab zang chalmoqdamikin?» Unsiyaning ich-tashida bu binoni qurgan va unda hayotining oxirgi kunigacha yashagan noyob insonning ruhi kezib yurganga o'xshardi. Bobur Navoiyning qo'li tekkan eshiklarni ehtiyot bilan ochar, marmar zinalarda uning ko'zga ko'rinmas izlarini bosib o'tayotganini his qilib, mumkin qadar sekin qadam tashlar edi.

Hovlida toshhovuz bo'yidagi chinorlar tagida farrosh yigit xazon supurmoqda edi. Bobur ikki tomonida to'q yashil shamshod daraxtlari qator turgan chiroyli yo'lkaga burildi. Bu yerda uni Navoiyning shogirdi Xondamir va uning eng yaqin nadimlaridan<sup>1</sup> Sohib Doro kutib turar edilar. Hassa tayangan kekxa Sohib Doro Bobur bilan ko'rishayotib:

– Amirzodam, – dedi. – Hazrat Mirning vafotlaridan beri Unsiya ruhsiz tanadek edi. Siz kelganingizdan so'ng bu tanada yangi jon, yangi ruh paydo bo'ldi!

---

<sup>1</sup> Nadim – qurdosh-suhbatdosh.

Yoshi o'ttizlarga borgan tiyrak ko'zli Xondamir Boburga sinovchan nazar bilan kulimsirab tikildi: «Andijondan kelgan yigirma to'rt yoshlik shahzoda bu mubolag'ali gapga yarasha kamtarona javob toparmikin?»

Qalbi ezgu va ma'yus tuyg'ularga to'lib turgan Bobur shoirona o'xshatishlar qilib o'tirgisi kelmay jo'n javob berdi:

- Mavlono, hazrat Alisherning makonlari mening o'zimda yangi bir ruh paydo qildi. Bu yerda men san'at-u ma'rifatning hali umrimda ko'rmagan kamolotini ko'rmoqdamen.

Xondamir Boburning javobidan qanoatlangandek mamnun bosh irg'adi. Sohib Doro ham:

- Siz haqsiz, amirzodam, - dedi. - Hazrati Mir neki yaratgan bo'lsalar, hammasida o'zlarining oliy ruhlaridan bir nishona qoldirmishlar. Mana bu minoralarga bir nazar tashlang!

Bobur uchi osmondagi oq bulutlarga tegay deb turgan baland koshinkor minoralarga tikildi. Odatda, yuksak minoralarning odam chiqib atrofqa qaraydigan usti yopiq halqasi, ya'ni shiyponchasi eng tepasida bo'ladi. Unsiya minoralarida esa tepadagi halqadan tashqari o'rta belida ham maxsus halqalar bor edi. Sohib Doro buning sababini aytdi:

- Hazrati Mir Hirot manzaralariga baland bir joydan qarab o'tirib hordiq chiqarar edilar. Keksaygan paytlarida minora tepasidagi halqaga chiqishlari mumkin bo'lmay qoldi. Shundan so'ng me'morga o'zlari aytib, pastroqqa ham halqa qurdirdilar.

- Iloj bo'lsa, shu halqalardan biriga biz ham chiqsak, - dedi Bobur.

- Bajonidil!

Sohib Doro Boburni Xondamir bilan birga g'arbiy minoraga tomon boshladi. Ammo minora ichidagi tik, aylanma zinalardan chiqolmasligini aytib, o'zi pastda

qoldi. Minoraning oʻrta halqasiga Boburni Xondamir boshlab chiqdi.

Ular atrofga koʻz yugurtirishdi. Uzoqda qorli Muxtor va Iskalja togʻlari. Pastda kuz kirib, suvi jildirab qolgan Injil anhuri. Uning chap sohilida mashhur Gavharshodbegim madrasasi savlat toʻkib turibdi. Navoiy qurdirgan Ixlosiya madrasasi Injilning oʻng qirgʻogʻida – Gavharshodbegim madrasasiga yuzma-yuz tushgan edi. Ixlosiyadan narida bemorlar davolanadigan, ayni vaqtda, mudarrislar yoshlarga tibbiyot ilmini oʻrgatadigan Shifoia nomli shifoxona – madrasa. Undan narida ulkan gumbazli Xalosiya xonaqohi. Katta bir mahallaning oʻrnini oladigan joy Alisher Navoiy qurdirgan nodir obidalarga toʻlib, Hirotning salobatiga salobat qoʻshgan edi. Shaharning narigi yoqlarida ham moviy togʻlarga oʻxshab yuksalib turgan minora va gumbazlarning koʻpligi Boburga birdan Samarqandni eslatdi-yu, yuragini dard aralash sogʻinch tuygʻusi chulgʻadi.

– Mavlono, – deb Bobur Xondamirga yuzlandi.

– Hirot obidalarini qurgan meʼmorlar orasida Movarounnahrda kelganlari ham bormidi?

– Amirzoda, Siz Hirotda Samarqand sayqali ham borligini sezib turganga oʻxshaysiz.

– Ha, savolimning boisi ham shu.

– Hirotning koʻp ulugʻ zotlari Samarqandda tahsil koʻrmishlar. Ular Samarqand sayqalini qalblarida olib kelmishlar, yana Movarounnahrda fatoratlardan bezib qochgan talay isteʼdodlar Hirotga kelib, hazrat Alisherdan panoh topmishlar. U oliy zotning fazilatlarini behisob edi. Lekin faqirga eng ulugʻ tuyilgan fazilatlarini – hazrat Mirning isteʼdodshunosliklari-yu, zakovatparvarliklari edi. Ulugʻ ishlarini ulugʻ isteʼdodlarsiz qilib boʻlmasligini hazrat Alisher yaxshi bilur edilar. Shuning uchun hamisha el-ulus orasidan

nodir iste'dodlar izlab o'tdilar. Yonlarida yurgan nadimlariga, musohiblariga, biz kabi shogirdlariga aytar edilarki, baxillik doim nursiz, layoqatsiz, iste'dodsiz odamlardan chiqur. Xususan, oliy jamiyatda layoqatsiz baxillar doim iste'dodlarning yo'lini to'surlar, Xudodod zakovatlarini yuzaga chiqarmay, hayf qilurlar, bundan butun xalq zarar ko'rur.

Dunyodagi eng mash'um baxillik, iste'dodlarning yo'lini to'sguvchi baxillikdir. Dunyodagi eng oliy saxovat esa nodir iste'dodlarni yuzaga chiqaruvchi saxovatdir.

– Ayni haqiqat! – zavqlanib, xitob qildi Bobur.

Xondamir bu xitobdan ruhlanib, ovozi xiyol ko'tarib davom etdi:

– Biz biron safardan qaytsak yoki hazrat Alisherga bir-ikki kun ko'rinmay yurib, keyin huzurlariga kelsak: «Qani, xo'sh, yana qanday ajoyib iste'dod uchratdingiz?» – deb so'rar edilar. Biz uchratgan nodir iste'dodlarning ba'zilari o'n besh-o'n olti yoshlik o'spirinlar bo'lar edi. Hazrat Alisher: «Bo'ladigan bola o'n besh yoshida bosh bo'lur, bo'lmaydigan odam qirq yoshida ham yosh bo'lur», der edilar-u topilgan iste'dod o'spirin bo'lsa ham huzurlariga chorlar edilar. «Sohib Doro iste'dodli shoir Zayniddin Vosifiyni o'n besh yoshida hazrat Mirning huzuriga keltirgan edi. Hazratning saxovatlaridan bahramand bo'lgan bu yosh shoir juda tez ulg'ayib, butun Hirotga mashhur bo'ldi. Ulug' musavvir Kamoliddin Behzod ham yoshlikdan hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulg'aydilar. Shoir Hiloliy, xattot Sulton Ali Mashhadiy ham hazrat Alisher kashf etib, tarbiyat qilgan iste'dodlardandir. Ko'z o'ngimizda turgan Hirot so'nggi o'ttiz-qirq yil mobaynida avvalgidan o'n barobar go'zalroq, ulug'vorroq bo'lib ketganini barcha fozil kishilar ayturlar.

– So‘zingiz chin, mavlono. Men ko‘rgan Rub‘i-maskunda<sup>1</sup> Hirotdek shahar yo‘qdir!

– Amirzodam, bugungi Hirotni shunchalik go‘zal, shunchalik ulug‘ qilganlar – el-ulus orasidan chiqqan iste‘dodlar emasmi?

– Rost! Ko‘z o‘ngimizda turgan barcha nodir obidalar – ulug‘ iste‘dodlar xazinasidan chiqqan gavharlardir.

– Lutf qildingiz, amirzodam. Hazrat Alisher – gavharday bebaho iste‘dodlar xazinasini ochgan eng ulug‘ kashfiyotchi edilar. Buni sulton Sohibqiron Husayn Boyqaro ham tan olgan edilar. Eshitgandirsiz amirzodam, hazrat Alisher bilan Husayn Boyqaroning oralariga nifoq solgan baxillar ko‘p edi. Ma‘lumingizkim, sulton Husayn mastlikda ko‘p yomon ishlar ham qilgan edilar... Ammo ichmay yurgan ta‘blari tiniq kunlarda hazrat Alisherga shundoq ehtiromlar ko‘rsatar edilarki, hammamiz hayron qolar edik.

Bobur Xondamirning zavqli bir voqeani eslagandek mamnun kulimsiraganini ko‘rdi-yu, uning hikoyasini kutib, yuziga tikildi.

Xondamir hali yigit yoshida bo‘lsa ham ko‘p o‘tirib ishlash oqibatida bir oz semirib qolgan to‘la gavgali o‘rta bo‘y kishi edi. U go‘shtdor barmoqlari bilan qoshining ustini silab qo‘ydi-yu:

– Hazrat Alisher «Xamsa»larini bitirib Sulton Husayn Boyqaroga o‘qishga berdilar, – deya hikoya qila boshladi. – Sulton Husayn ta‘bi nazmi o‘tkir zot edilar. «Xamsa»ni o‘qib, hazrati Alisherni saroylariga chaqirmishlar, butun a‘yonlari oldida tabrik aytmishlar. Sulton Husaynning yaxshi ko‘rgan bebaho bir oq otlari bor edi. Miroxo‘rga: «O‘shal otni keltiring!» – deb buyurmishlar. Mir hazratlari hayratga tushib: «Menga ot in‘om qilmoqchilarmi? – deb o‘ylamishlar. Otni keltirgunlaricha podshoh Mir Alisherga qarab: «Endi siz she‘riyatda menga ustoz pirsiz, men sizga murid

<sup>1</sup> Rub‘i maskun – dunyoning inson obod qilgan qismi.



bo'Imoqchimen», deganlar. Mir Alisher iztirob bilan e'tiroz qilganlarki: «Hazratim, siz podshohdirsiz, sizga men murid bo'Imog'im kerak». Shu asnoda oq otni oltin anjomlari bilan keltirurlar. Sulton Husayn kulib turib so'rabdilar: «Murid pirning amrini bajarmog'i kerakmi?» Mir Alisher, albatta, deya tasdiq javob bermishlar. Shunda podshoh u oliy zotga aytmishlarki: «Bo'lmasa, mana shul otga mining!» Shohning amri vojib. Mir Alisher otga yaqinlashurlar. Oq otning bir fe'li bor ekan: Sulton Husayndan boshqa odam minmoqchi bo'lsa, belanglab qo'ymas ekan. Mir Alisher yaqinlashganda, ot belanglashga tushmish. Shunda Sulton Husayn otni jilovidan olib: «Tinch tur!» – deb o'shqirurlar. Ot tinchlangach, hazrat Mir unga minurlar. Saroy ahli: «Endi nima bo'larkin?» deb nafasini ichiga yutib sukutga ketmish. Sulton Husayn otning jilovini ilklaridan qo'ymay hovli bo'ylab yurib ketmishlar. Hamma hayron. Shunda podshoh ot ustidagi hazrat Alisherga ayturlarki: «Turkiy tilda birinchi bo'lib yozgan ulug' «Xamsa»ngiz uchun mendek Sulton Sohibqiron sizga jilovdor murid bo'lsa arzir!» Saroy ahli bu so'zni eshitib, lol bo'lib qolmish. Hazrat Alisherning o'zlari shu darajada mutaassir bo'lmishlarki, hushlaridan ketib qolmishlar. Keyin mulozimlar chopib borib hazratni otdan tushirib olmishlar... Ana, amirzodam...

– Fikringizga tushundim, mavlono, – dedi Bobur o'ychan tovush bilan. – Qayerdagi iste'dodlarga baxillar zavol keltirolmasa-yu, saxiylar yo'l ocha olsa, o'sha joy bugungi Hirot kabi kamolot cho'qqisiga ko'tarilar ekan.

Xondamirning ko'nglidagi gapni Bobur bunchalik yaxshi topib aytgani mavlonoga g'alati ta'sir ko'rsatdi. Xondamir Boburda o'zining maslakdoshini topganday quvonib:

– Tasanno, amirzodam! – dedi. – O'shal ulug' zotlar davrida Hirotning kamolot quyoshi osmonning eng baland nuqtasiga chiqqani rost! Lekin... afsuski,

quyosh eng baland nuqtadan so'ng pastga og'ar ekan. So'nggi yillarning mudhish voqealarini ko'rib, qalbimni bir vahm titratur: «Hirotning tole quyoshi asta-sekin og'ib tushmasdan, birdan zulmat qa'riga qulab ketsa... unda ne qilg'aymiz?

Xondamir Movarounnahrdagi to'polonlar va qirg'inlar Shayboniyxonning qo'shini bilan birga Hirotda ham yaqinlashib kelayotganini sezgani uchun shu iztirobli savolni bergan edi. Uning nazarida, bu savolga Shayboniyxon bilan yuzma-yuz olishgan Boburgina javob berishi mumkin edi.

– Iztirobingiz bejiz emas, mavlono, – dedi Bobur. – Hirotdagi bugungi osoyishtalik dahshatli to'fon oldidan bo'ladigan muvaqqat sokinlikni eslatur. Toshkent ham men so'nggi marta borganimda, xuddi hozirgi Hirotda o'xshar edi. Men ming balolarni boshdan kechirib, jahannam qa'ridan chiqib borgan edim. Marhum tog'oyim Mahmudxonga: «Bu balolar sizning ham boshingizga tushmasin, birga chora topaylik», deganimda, istehzo qilib kulgan edi. Rahmatlik siz aytgan iste'dodsiz, layoqatsiz tojdorlardan edi... Xiyla baxilligi bor edi... Mahmudxon axiri Shayboniyxonning oyog'i tagida qandoq toptalganligi ma'lumingizdir.

– Nahotki, o'sha hodisalar Hirotda yana takrorlansa, amirzodam?

Bobur Hirotning shimol-g'arbida g'ubor ichida ko'rinayotgan Soqi Solmon cho'lining xira ufqiga tikilib, o'ylanib qoldi. U Hirotda Temuriylarning boshini qovushtirib, Shayboniyxonga qarshi mustahkam ittifoq tuzish uchun kelgani, bu mavzuda qariyb yigirma kundan beri muzokara borayotgani Xondamirga ma'lum edi. Bobur tezda javob beravermagach, Xondamir andisha qilib dedi:

– Amirzodam, muzokaralar maxfiy bo'lsa, faqir davlat sirlarini bilishga haqim yo'q. Faqat...

– Mavlono, minora ustida biz faqat ikkimiz turibmiz. Mening sizdan yashiradigan sirim yo‘q. Hirot taxtida ikki og‘a-ini birga podshohlik qilishlarini bilursiz.

– Ha, asli o‘zi taxt Badiuzzamon mirzoniki edi-yu, lekin Xadicha begimning tarafdorlari Muzaffar mirzoni ikkinchi podshoh qilib ko‘tardilar. Tarixda hargiz misli ko‘rilmagan hodisa.

Xondamirning bu hodisadan norozi ekanligi sezilib turardi. Bobur bosiq tovush bilan so‘zida davom etdi:

– Har ikki podshohlaringiz ham mehmondo‘stlikda, suhbatdorlikda, orasta bazm o‘tkazishda benazirlar. Ammo jang-u jadalga xohishlari yo‘qmi, harqalay, Murg‘ob bo‘yida uchrashganimizda g‘alati bir hodisa bo‘ldi. Xonning bir pora qo‘shini Xurosonning Chechektu navohisini<sup>1</sup> bosgani to‘g‘risida xabar keldi. Xonning o‘zi Amudaryodan narida edi. Xondan ko‘ra biz turgan joy Chechektuga yaqinroq edi. Men taklif qildimki, Chechektuni besh-olti yuz kishilik yog‘iy bosgan bo‘lsa, darhol otlanib ularning o‘zlarini bosmoq kerak. Toki, xon qo‘shini Xurosonga osonlikcha kelolmaydigan bo‘lsin. Badiuzzamon mirzo inilari Muzaffar mirzoni Chechektuga yubormoqchi bo‘ldilar. Ma‘lumingizkim, har ikkovlarining o‘z eshik og‘alari, o‘z mulozimlari, o‘z cheriklari-yu alohida sarkardalari bor. Muzaffar mirzo jang ko‘rmagan yigit. Chechektuga borishga jur‘at qilmadi. «Hazrat og‘am borsalar, biz boshqa chegaralar himoyasida bo‘lurmiz», dedi. Badiuzzamon mirzo: «Men jangda nobud bo‘lsam, bu taxtni yolg‘iz o‘zi egallaydimi?» deb o‘yladi nazarimda, Chechektuga borgisi kelmadi. Ko‘p sansalor bo‘lgandan so‘ng men aytdimkim: «Ijzat bergaysizlar, men yigitlarim bilan borib, Chechektuni yog‘iydan ozod qilishga urinib ko‘ray». Og‘a-ini bir-birlariga qaradilar-u el-ulusdan nomus qildilar. «Siz

<sup>1</sup> Navohi – kichik o‘lka, tuman.

mehmonsiz» deb, meni bu niyatimdan qaytardilar. Qo‘ymasdan Hirotga boshlab keldilar. Chehektu yog‘iy ilkida qoldi.

Xondamir kuyunib, «uh» tortdi:

– Bu hammasi – Xurosondan tole yuz o‘gira-yotganining nishonasi! Amirzodam, boshimiz ustida qanday balolar to‘planayotganini bizning podshohlarimizdan ko‘ra siz yaxshi bilursiz. Chunki barchasini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rmishsiz. Biz bu haqda mavlono Behzod bilan ham ko‘p gaplashdik. Hirotning barcha jonkuyar fozil kishilari umid ko‘zini sizga tikkanlar. Xatar qanchalik kuchli ekanligiga shoyad podshohlarimizni ishontirsangiz. Barcha yaxshi kuchlar birlashsa-yu, shoyad falokatning oldini olishga muyassar bo‘lsalar.

Bobur minoradan pastga tikilib:

– Bilmadim, mavlono, – dedi. – Bugun-erta podshohlar bilan yana shu haqda gaplashmoqchimen.

– Ilohim, kushoyishi koringizni bersin-u muzokarangiz biz istagandek tugasin, amirzodam!

Bobur tashakkur aytib, minora zinapoyasiga tomon yo‘naldi. Pastga tushayotib, Hirot qal‘asining ichida-baland tepalik ustida turgan ulkan arkka noxush nazar tashladi.

### 3

Kuz iliq kelgani uchunmi, Hirot tojdorlari hali ham qal‘a tashqarisidagi bog‘larda yashamoqda edilar. Shaharning shimoli-sharqidagi Qipchoq darvozasidan narida Shohruh mirzo davrida mashhur bo‘lgan Bog‘i Safidda Muzaffar mirzo Bobur sharafiga katta ziyofat berdi. Hirotning eng zo‘r pazandalari tayyorlagan g‘izol<sup>1</sup> kaboblari, ishtaha ochuvchi nordon ocharlar<sup>2</sup>, mohicha

<sup>1</sup> G‘izol – kiyikning Xurosonda ko‘p uchraydigan bir turi.

<sup>2</sup> Ochar – zira va sirka qo‘shib tayyorlangan go‘shltli taom.

nomi bilan mashhur bo'lgan o'ta nozik xushta'm suyuq oshlar Muzaffar mirzo o'z mehmoni bilan o'tirgan tillakori ko'shkning yuqorigi qavatiga ketma-ket olib chiqilmoqda edi. Sozandalar poygastroqda o'tirib, qonun va udda, g'ijjak va nayda etni jimirlatuvchi kuylar chalishardi. Hirotning mashhur hofizlari ovozlarini uncha baland ko'tarmasdan, yurakning qat-qatiga singadigan sokin mayin tovush bilan ashula aytishar, bu hammasi Boburga juda ulug'vor bir san'atning namunasi bo'lib tuyilardi.

Bazm avjiga chiqqanda, soqiy Bobur qarshisiga kelib, bir tizzasini gilamga tirab cho'kkaladi, so'ng yigirma yildan beri xumda kuch yig'ib yotgan va bugungi ziyofat uchun ochilgan tiniq xushbo'y maydan Boburga uzatdi. Bobur hali may ichmagan edi. Ammo hozir eshitgan kuy va ashulalarining ta'sirida birdan uning may ichgisi keldi-yu, o'ng yonidagi Qosimbekka qaradi.

Obburdonda Boburdan ajralib, Hisorga ketgan Qosimbek Qavchin bultur Kobulda barcha navkari bilan birga Bobur xizmatiga qaytib kelgan va yana uning eng yaqin maslahatgo'yiga aylangan edi. Qosimbekning o'zi umrida may ichmagan Xudotars kishi bo'lgani uchun Boburni ham ichkilikka yo'latgisi kelmas edi.

– Amirzodam, – shivirladi Qosimbek. – Badiuzzamon mirzoning chog'ir majlisida may taklif qilganlarida ichmagan edingiz. Bu yerda ichsangiz, narigi mirzo eshitib, ko'ngliga olmasmikin?

Bu so'zlar Boburni sergaklantirdi. U bitmay yotgan murakkab va chigal ishlarini esladi-yu, Muzaffar mirzoga qarab:

– Faqirni ma'zur tuting, mirzo hazratlari, – dedi. – Men umrimda may ichmaganmen!

Muzaffar mirzo Boburning may ichishdan qo'r-qayotganini sezib, qah-qah urib kuldi. Uning

anchagina kayf qilgani shu beandisharoq kulgisidan bilindi:

– Amirzodam, nahotki butun Andijon-u Samarqand may zavqidan bexabar bo'lsa?

– Mirzo hazratlari, may zavqi Samarqand-u Andijonda ham keragidan ortiq. Ammo faqir boshqa zavqlardan ortmas edim. Uzrimni hazrat og'angiz Badiuzzamon mirzo qabul qilgan edilar... Faqir andisha qilmoqdamen...

Badiuzzamon mirzo tilga olingach, Muzaffar mirzo ham jiddiylashdi. Boburning andishasi unga asosli tuyildi-yu, soqiyga: «Bas, qistama!» ishorasini qildi. Bazmda Badiuzzamon mirzoning eshik og'asi Zunnunbek arg'un ham bor edi. Soqiy podshosining ishorasi bilan Boburga qo'yilgan mayni o'sha Zunnunbekka berdi.

Odamlarning kayfi oshgan sari bazm qizib borar, ba'zi beklar ham o'rtaga chiqib, raqs qilishar, Mir Sarbarahna, Burxon gung degan mashhur qiziqchilarning askiyalaridan ko'tarilgan qahqahalar shiftdagi naqshlarni ham titratayotganday bo'lar edi. Husayn Boyqaroning o'limiga hali ko'p vaqt bo'lmagan. Hirot xavf ostida turgan og'ir bir vaziyatda shunchalik xushchaqchaq bazm o'tkazilayotgani Boburdan ham ko'ra Qosimbekning g'ashini keltirmoqda edi. Qosimbek kulgi, shovqin orasida Boburga shivirladi:

– Bu shirakayf shoh bilan endi muzokara qilib bo'lmaz. Buning ixtiyori onasi Xadicha begimda emish. Hozir begimning huzuriga chiqaylik, amirzodam.

– Ziyofat tugamasdan chiqib ketsak, behurmatlik bo'lmasmi?

– Qulingiz kelishib qo'yanmen. Begim o'z qasrlarida bizga muntazirlar.

Askiyachilar musobaqasi tugab, kulgilar bosilgach, Bobur Muzaffar mirzodan hazrat begimning huzurlariga borish uchun ijozat oldi.

\* \* \*

Oq marmardan qurilgan uch qavatli ulkan qasrda o'nlab oltin qandillar yonmoqda edi. Bobur, Qosimbek, Zunnunbek va ularni boshlab borayotgan Burundubek zinalarga to'shalgan mayin guldor poyandozlardan tovushsiz qadam tashlab, uchinchi qavatga ko'tarildilar. Qasrning devorlariga Shohruh mirzo o'zining san'atkor o'g'li Boysunqur mirzo uchun ishlatgan go'zal rasmlar hali ohori to'kilmay, yap-yangi turar edi.

Xadicha begim Boburni qasrning muhtasham qabulxonasida kutib oldi va olti oyog'i ham quyma oltindan ishlangan, ustiga yaxlit sadaf qoplangan miz yoniga o'tqazdi.

Salobatli, xushqomat begimning orqarog'ida – qabulxonaning eng ko'zga ko'rinarli joyida bir tup atirgul yarqirab turibdi: poyalari oltindan, barglari zumraddan, to'q qizil gullari yoqutdan. Gul shoxiga qo'nib turgan kichkina oltin bulbulning tumshuqchasida – don o'rnida sof gavhar jilolanib turibdi. Qabulxonaning eshik va derazalariga osilgan shohi darpardalarga ham durlar, la'llar va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan edi.

Faqat Xadicha begimning o'zi qoramtir kumushrang parchadan bezaksiz kabo kiygan, uning boshidagi ko'kish toqida ko'zga uncha tashlanmaydigan siyrak marvarid donalari ko'rinar edi. Aqlni shoshiradigan bunday javohirot orasida go'zal qiz-juvonlar qurshovida o'tirgan ellik yoshli ulug'sifat malika Boburni ham, Qosimbekni ham ancha dovdiratib qo'ydi. Bobur ko'ngliga tugib kelgan murakkab gaplarini begimning musohabalari va kelinlari oldida qanday aytishni bilmay bezovtalandi. Xadicha begim buni sezib osoyishta kulimsiradi:

– Amirzodam, siz bizga qarindoshsiz. Shuning uchun mening kelinlarim, musohabalarim sizni ham o‘z mirzolaridek e‘zozlab, suhbatingizda ishtirok etmoqchilar. Tortinmay erkin o‘tiring.

– Mutashakkirmen!

Yuzlarida yupqa oq pardalari bor qiz-juvonlarning yuz-ko‘zlari sham yorug‘ida uncha aniq ko‘rinmas edi. Ammo xina qo‘yilgan nafis qo‘llar, ipak kiyimlar og‘ushidagi ingichka bellar va baland ko‘kraklar ko‘pchilik ayollarning yosh juvonlar ekanidan dalolat berardi. Muzaffar mirzoning eng ko‘hlik xotinlaridan Qorako‘zbeğim degani qaynonasining qulog‘iga labini yaqinlashtirib, yengil bir kulgi bilan allanarsa dedi. Xadicha begim ham sho‘x kulib, bosh irg‘adi-yu, Boburga yuzlandi:

– Amirzodam, Hirotning asilzoda qizlari sizga maroq bilan ko‘z tikar emishlar. Shunday bahodir shoh, shunday ko‘hlik yigit, shunday iste‘dodli shoir haramsiz bo‘ydoq yashar emishsiz. Rostmi?

Bobur qip-qizarib, yerga qaradi-yu, bu to‘g‘rida gap ochilganidan ozorlanib:

– Hazrat begim, rost, – dedi. – Taqdir-u nasibim shundoq bo‘ldi.

– Taqdiringiz endi tag‘ayyur topsin, amirzodam. Hirotda qolib, Muzaffar mirzoga ini bo‘ling. Siz ham temuriyzodalardansiz. Hirot dan sizga munosib go‘zal-u oqila qizlar topaylik, to‘y-tomosha bilan uylaning.

Muzaffar mirzoga ini bo‘lish – uning tarafdoriga aylanish degan so‘z edi. Bir vaqtlar nevarasi Mo‘min mirzoning o‘ldirilishiga sabab bo‘lgan Xadicha begim, ehtimol, kelajakda Badiuzzamon mirzoni ham yo‘q qilish va o‘g‘lini yakka podshohga aylantirish maqsadidadir. Bobur uning o‘g‘liga ini bo‘lsa, albatta, begimning bu maqsadini amalga oshirishda ishtirok etishi kerak.



– G'amxo'rligingizdan minnatdormen, hazrat begim,  
– dedi Bobur. – Faqat mening bir andisham bor.

– Qanday andisha, amirzodam?

– Faqirni ma'zur tuting.

Bobur sukut qilib, yerga qaradi. U gapini faqat Xadicha begimning o'ziga aytmoqchi ekanini sezgan ayollar ta'zim qila-qila chiqib ketdilar. Shundan keyin Bobur Shayboniyxonning Hirot ustiga bostirib kelishi muqarrarligi haqida, hozir to'y-tomoshaga emas, hayot-mamot janglariga tayyorlanish kerakligi to'g'risida gapira boshladi.

– Shayboniyxon Andijondan Xorazmgacha, Marvdan Turkistongacha barcha joyni olib, behisob qo'shin to'plamishdir. Men uning har bir jangga qanchalik astoydil shaylanishini bilurmen. Balo-qazoday bostirib kelsa, ancha-muncha cherik tit-pit bo'lib ketishini ko'rganmen! Bobur Shayboniyxonning harbiy qudratini va shafqatsizligini isbotlaydigan dalillar keltira boshladi. Xadicha begim sabrsizlanib:

– Bu baloning balogardoni nedur? Shuni ayting, amirzodam! – dedi.

– Buning balogardoni barcha temuriyzodalarning birlashuvidir. Hamma viloyatlarga tavochilar yuborib, ellik-oltmish ming qo'shin to'plamoq kerak. Qish bo'yi bu qo'shinni mashq qildirib, yagona bir sarkarda boshchiligida jangga tayyorlamoq kerak.

– Yagona sarkarda kim bo'lishi mumkin? – dedi Xadicha begim sergaklanib.

Qosimbek «yalt» etib, Boburga qaradi. Hozir tirik qolgan Temuriylar orasida Boburdan boshqa odam bu ishni eplolmasligi uning ko'nglidan o'tdi. Ammo qo'shin kimniki bo'lsa, hokimiyat ham o'shaniki ekani azaldan ma'lum. Xadicha begim o'g'lining hokimiyatiga hech kimni yo'latmasligi ham aniq.

Bobur uning ko'ngli uchun: «Yagona sarkarda – Muzaffar mirzo bo'lsinlar!» demoqchi bo'ldi-

yu, orqaroqda Zunnunbek o'tirgani esiga tushdi. Zunnunbek bu gapni Badiuzzamon mirzoga yetkazsa, ikki oraga nifoq tushadi.

– Bosh sarkarda kim bo'lishini hazrat og'a-inilar o'zlari hal qilmoqlari kerak, – dedi. – Bazmlarni to'xtatib, butun e'tiborni mudofaaga qaratmoq kerak. Har bir kun g'animat, hazrat begim!

Xadicha begim Zunnunbek bilan Burundubekka murojaat qildi:

– Janob amirlar, sizlarning fikrlaringiz qalay?

Zunnunbek o'siq qoshlarini dikkaytirib, ko'zlarini Boburga qat'iyat bilan tikdi:

– Amirzodam, Shayboniyxonning Movarounnahrda g'alabalari-yu xunxo'rliklaridan bizni ogoh qilganlari yaxshi. Ammo Shayboniyxonning Movarounnahrda sinmagan qilichi Xurosonga kelib, albatta sinur! Men bunga aminmen, hazrat begim! Shuning uchun ortiqcha tashvish-u tahlikaga o'rin yo'q, deb hisoblaymen.

Zunnunbek ishonch va e'tiqod bilan aytgan bu so'zlardan Xadicha begim darhol yengil tortdi. Bobur esa Zunnunbekka taajjub bilan tikilib dedi:

– Karomatingiz iloho to'g'ri kelsin, janob amir! Ammo bu karomatga qanday asoslar bor?

– Bu karomatni men emas, Hirotning eng obro'li valiylari qilmishlar.

Zunnunbek shunday deb, Xadicha begimga iymanibroq qarab qo'ydi. Bu qarashning ma'nosini tushungan Xadicha begim Boburga kulimsirab, izoh berdi:

– Hirotning Qutb nomli mashhur valiysi bor. Shu vaqtgacha Qutb nimani karomat qilgan bo'lsa, hammasi to'g'ri chiqmish. Qutbga tushida ayon bo'lurki, Shayboniyxonning qilichini amir Zunnunbek sindirurlar. Mo'tabar munajjimlar yulduzlarga qarab, bu karomatni tasdiq qildilar. Shundan so'ng valiylar

Zunnunbekning yelkalariga muqaddas fo'ta solib, nomlariga Hizabrulla unvonini qo'shib, aytadigan bo'ldilar.

«Hizabrulla» – arabcha «Oллоhning arsloni», ya'ni «yengilmas botir» degani edi. Arabchani yaxshi biladigan Bobur bu unvonning ma'nosini tushunib, istehzoli kulimsiradi:

– Janob Zunnunbekda arslonning yuragi borligiga shak-shubha yo'q. Ammo hazrat begim valiylar-u munajjimlarni tilga olganlarida, faqir Saripulda Shayboniyxon bilan masof urushga chiqqan kunlarimni esladim. Mana, janob Qosimbek ham bor edilar. Shahobiddin nomlik munajjim kechasi osmonga qarab: «Sakkiz yulduz yelkangizda rost turur, ertaga urushga kirsangiz, zafar, albatta, sizniki bo'lg'ay!» – deb valiylilik qildi. Biz shunga ishonib, Shahrisabzdan keladigan ko'makni ham kutmasdan, maydonga chiqdik... Mana, haligacha o'shal xatomyizning azobini tortib yuribmiz.

Boburning gaplaridan Xadicha begimning yuzlari tundlashib, lablari atrofida burushiqlar paydo bo'ldi. Zunnunbek esa o'tirgan joyida asabiy to'lg'anib:

– Amirzodam, niyatni yaxshi qilmoq kerak! – dedi. Hirotning valiylari Samarqand munajjimlaridek nodon emaslar! Saripuldagi xatoni Hirotday ulug' shaharda hech kim takror etmagay!

Zunnunbek ko'zlari yonib, telbalanib gapirganini ko'rgan Burunduqbek uni bosishga tirishdi:

– Janob Zunnunbek, oliy mehmon bizga yaxshilik istab, Kobulday joydan kelmishlar. Vaziyat xatarli ekanligi rost. Shoshilinch choralar o'ylamoq kerak!

Xadicha begim bahslashuvchilarni muloyimlik bilan yarashtirib qo'yishga harakat qildi:

– Janob Zunnunbek, vaziyat chindan ham jiddiy, beparvo bo'lmaslik kerak. Ammo janob Burunduqbek ham bir narsani unutmashinlar: mag'lubiyatni ko'p

koʻrgan odamga xatar goho aslidan kattaroq koʻrinur. Amirzodam, siz koʻp tashvish chekmang. Shayboniyxon bizga tajovuz qilsa, oʻz tajovuzidan halok boʻlur!

\* \* \*

– Xadicha begimdek koʻpni koʻrgan malika shayxlarning xushomad gapiga ishonib yurganlaridan men hayron, – dedi Bobur ertasi kuni Bogʻi Jahonoroda Badiuzzamon mirzo bilan gaplashib oʻtirganda.

Gavdasining shertaxlitligi va koʻzining qisiqligi otasi Husayn Boyqaroga oʻxshab ketadigan Badiuzzamon mirzo istehzo bilan kulimsiradi:

– Hayron boʻlmang, amirzodam. Ne qilsa ham ayol kishida, qisqa oʻylab oʻrgangan.

– Ammo bu kaltabinlikning kasofati hammaga urishi mumkin-ku, hazratim?

– Nachora? Suyukli farzandimiz Moʻmin mirzo ham shu begimning kasofatidan halok boʻlib ketdi!

– Hazratim, rahmatlik otangiz kayf ustida qilgan fojiaiy xatoni endi unuting!

– Unutolmaymen, chunki ayb marhum otamda emas edi! Sulton Sohibqiron Moʻmin mirzoni behad yaxshi koʻrar edilar, sheʼrlarini yod bilar edilar. Avvallari otamning menga ham mehrlari yaxshi edi. Axir men – taxt vorisi edim! Xadicha begim men bilan otamni dushman qilishning yoʻlini izlar edi. Moʻmin mirzo asir tushgach, bu yoʻl topildi – uni shirakayf podshohning farmoni bilan oʻldirdilar-u men bilan otamni xundor dushmanga aylantirdilar. Shundan keyin begimning oʻgʻli Muzaffar mirzo mening oʻrnimga valiahd boʻldi. Bugungi sheriki podshohlik ham ana shu begimning ixtirosi! Men aniq bilamen: begim meni muvaqqat tojdor deb bilurlar. Meni yoʻq qilib, Muzaffar mirzoni yagona podshohga aylantirishning qulay paytini poylamoqdalar!

Bobur Badiuzzamon mirzoga Shayboniyxonni eslatdi:

– Hazratim, Shayboniyxon haqida ne yangi xabarlar bor?

– Xon Xorazmni olib, Samarqandga qaytgan emish...

– Undoq bo‘lsa, xon endi Xuroson yurishiga chiqmoqchidir? – so‘radi Bobur.

– Darhol-a? Xorazm yurishidan so‘ng biror yil dam olmasmikin?

Badiuzzamon mirzoning tusmol gaplari – uning dushman orasidan aniq xabar yuborib turadigan maxfiysi yo‘qligidan dalolat berardi. O‘z inisining barcha mayda-chuyda sirlarini bilib turish uchun behisob maxfiylar yuborib qo‘ygan podshoh bu ishni ashaddiy dushmani Shayboniyxonga nisbatan qilmayotgani Boburni tang qoldirdi.

– Hazratim, Shaybonixonning rev-u rangini<sup>1</sup> faqir ozroq ko‘rganmen. Xonning maxfiylari hozir Hirotda darvish, yo savdogar, yoki navkar qiyofasida yurib, barcha zarur xabarlarini Samarqandga yetkazib turgan bo‘lsalar kerak.

Boburning koyinib gapirganini sezgan Badiuzzamon mirzo kinoyamuz kuldi:

– Amirzodam, siz ham shohsiz, ehtimol, sizning maxfiylaringiz Samarqanddan yangi xabar yuborgandirlar?

– Men sizni otamdek e‘zozlaymen, hazratim. Gap maxfiylarda emas. Faqir tajribadan shuni bilamenki, Shayboniyxon charchagan askarlarini bosib olgan viloyatda dam olish uchun qoldirib, avvaldan dam olib yotgan qo‘shini bilan darhol yangi yurishga otlanur. Uning butun kuchi shundaki, barcha og‘a-ini, qarindosh-urug‘lari bilan bir tan-bir jon bo‘lib, maydonga chiqur. Biz bu xatarli yog‘iy qarshisida ichki nizolarni unutmog‘imiz kerak. Biz ham bir tan-

---

<sup>1</sup> Rev-u rang – shumlik, o‘z ishiga puxtalik.

bir jon bo'lib, yagona sarkarda boshchiligida jangga astoydil tayyorlanib kirmasak, oqibati yomon bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

– Yagona sarkarda, dedingizmi? Kim bizga sarkarda bo'lmoqchi, amirzodam?

Birinchilikni talashayotgan bu ikki og'a-ini «Menga bo'lmasa, unga ham bo'lmasin!» deyishga tayyor ekanligi Boburga hozir aniqroq sezildi. Raqib og'a-ini talashayotgan mamlakat ulardan faqat biriga yoki amakivachchalari Boburga tekkanidan ko'ra yetti yot begonaga tekkani afzalroq. Chunki begonalar ularning bunchalik baxilligini keltirmas edi.

– Nahotki jangga ham alohida-alohida chiqmoqchisizlar? – dedi Bobur.

– Nachora? Har kimning o'z cherigi, o'z sarkardasi bor. Men Muzaffar mirzoga ishonmaymen. Ammo siz bilan har qanday jangga birga kirishga tayyormen. Chunki sizga ishonamen. Amirzodam, siz Hirotda qoling! Neki darkor bo'lsa ayting! Muhayyo qilurmiz. Bobur og'a-inining faqat shu nuqtada yakdil ekanini sezdi. Jang ko'rgan Bobur butun bek va navkarlari bilan Hirotda qolsa-yu, vaqti kelib, jangga birga chiqsa, ularning mushkullari osonroq bo'ladiganga o'xshardi.

Ammo og'a-inining qo'sh hokimiyati Boburga tagi chirib teshilgan kemaga o'xshab ko'rinardi. U bu kemada qolsa paymonasi to'lgan og'a-iniga qo'shilib, g'arq bo'lishi muqarrarligini tobora aniq his qilmoqda edi.

Ertasi kuni peshin namozidan keyin Unsiyaga Boburni ko'rish uchun kelgan mavlono Fazliddin navkar-u savdarlarning ko'ch yig'ishtirayotgan va safarga hozirlanayotganlarini sezdi. Yo'lakda tog'asiga duch kelib qolgan Tohir:

– E, xayriyat, o'zingiz keldingiz, mulla tog'a! – dedi.

– Ha, ne gap jiyanim?

– Ertaga tongda Hirotdan jo'nab keturmiz.

– Kobulgami?

– Ha, – deb shivirladi Tohir. – Lekin podshohlar buni bilmasinlar. Ruxsati oliy shahar tashqarisida qishlamoq uchun berildi. Hammaga: «Xurosonda qishlagaymiz», deb eʼlon qilindi. Siz ham bildirmang.

Mavlono Fazliddinning ruhi tushib:

– Obbo, – dedi. – Bizni sagʻirdek mungʻaytirib ketar ekansizlar-da?

– Qish chiqsa, siz ham Kobulga koʻchib boring. Oʻtgan gal uchrashganingizda, Bobur mirzo oʻzlari taklif qildilar-ku.

– Koʻchib borish osonmi, jiyanim? Bir oy-qirq kunlik yoʻl... Ayolmand odammiz...

Mavlono Fazliddin xomush boʻlib, Boburning qabulxonasiga qarab ketdi. Bir vaqtlar Alisher Navoiyning qabulxonasi boʻlgan koʻrkam tanobiyning zarrin oʻymakor eshigi oldida yasovul yigit turgan edi. U ichkariga kirib, tez qaytib chiqdi-yu, eshikni ochib, mavlonoga yoʻl berdi. Uy toʻrida Bobur bilan suhbatlashib oʻtirgan kishilarni mavlono bir qarashda tanidi. Navoiyning nadimlaridan boʻlgan qirq besh yoshlardagi koʻsa odam – shoir Sulton Muhammad edi. Undan beriga mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy choʻkkalagan. Boburning oʻng tomonida Kamoliddin Behzod va Xondamir oʻtirishibdi.

Bobur mavlono Fazliddin bilan oʻrnidan turib koʻrishar ekan, boshqalar ham oyoqqa turdilar. Mavlono Fazliddin poygakga oʻtirmoqchi edi, yoshi undan kichikroq boʻlgan Xondamir:

– Siz oliy mehmonimizning vatandoshisiz, – deb uni oʻzidan yuqoriga oʻtkazdi.

Maʼyuslanib oʻtirgan Xondamir suhbatni toʻxtatgan joyidan davom ettirib:

– Ajab kajraftor falak bu! – dedi. – Amirzodam, siz Hirotning yuksak sanʼati-yu ajoyib isteʼdodlariga havasingiz kelib soʻzladingiz. Biz esa bugungi Hirotga

Xudo sizdek ma'rifatli, sizdek iste'dodli podshoh bermaganidan dog'damiz!

Bobur o'zini shuncha izzat-ikrom bilan mehmon qilgan podshohlarning sha'niga tegadigan gap aytishni istamas edi.

– Mavlono, podshohlaringiz ham ma'rifatli zotlar, – dedi.

Kalta jingalak soqoli o'ziga yarashgan nafis yuzli ozg'in Behzod kinoya bilan dedi:

– Amirzodam, podshohlarimizning biri oftob bo'lsa, biri mohtob. Xalq orasida hozir bir she'r tarqalmish. Mazmuni shuki, Husayn Boyqaro haqiqiy podshoh edi. Uning ikki o'g'li ikki taxt ustida o'tirib, biri «oymen» desa, biri «kunmen» derlar, erta-yu kech bir-biri bilan raqobat qilurlar. Bularning o'zaro kurashlari xuddi shatranj taxtasi ustidagi shohlarning kurashlariga o'xshaydir. Chunki bu ikkovi otalaridek haqiqiy shohlar emas, balki shatranj taxtasi ustidagi yasama shohlardir.

Bu o'xshatish Boburning ikki podshohdan olgan ta-assurotlariga shu darajada mos kelar ediki, u beixtiyor kulib yubordi.

– Lekin og'a-inining raqobati – shatranj o'yiniga o'xshashligi rost!

– Falokat shundaki, – dedi Xondamir, – bu o'yinda ular Xurosonni boy bermoqdalar! Buni ularga so'z bilan uqtirish esa imkondan xoli!

Shoir Sulton Muhammadning ko'zlari isyonkorona chaqnadi.

– Ularga buni so'z bilan emas, faqat shamshir bilan uqtirish mumkin!

Xondamir eshik tomonga xavotirli ko'z tashlab qo'ydi. Bir vaqtlar Alisher Navoiydek odamga maxfiylarini yuborib qo'ygan podshohlar Boburning ketiga ham odam qo'ygan bo'lishlari mumkin edi.



Sulton Ali Mashhadiy suhbatni xatarli mavzulardan nariroq olib ketish uchun yonida turgan charm juzdonni ochdi-da, bir dasta zarvara qoldi.

– Faqir oliy mehmonimizning g‘azallaridan bir nechasini ko‘chirib kelgan edim.

Varaqlar qo‘ldan-qo‘l o‘ta boshladi. Xattotning ajoyib san‘ati tufayli har bir harf nafis va tirik tasvirga aylangan edi. Xondamir satrlarga ko‘z yugurtirib:

– O! – dedi hayrat bilan. Ko‘p shoirlar «yor»ni ilohiylashtirib, butun najotni «yor» dan izlab o‘rganmishlar. Amirzodam, bu odatiy aldanishlarga qarshi isyon qilgan kabi yozmishlar:

*Jonimdan o‘zga yori vafodor topmadim,  
Ko‘nglimdan o‘zga mahrami asror topmadim...  
Bobur, o‘zingni o‘rgata ko‘r yorsizki, men –  
Istab jahonni, muncha qilib yor topmadim!*

– Mardona so‘zlar! – dedi Behzod Boburga qarab. – Siz ming marta haqsiz! Odam o‘ziga ham ishonmog‘i kerak!

– Minnatdormen, mavlono.

Shoir Sulton Muhammadga ikkinchi she‘rning matlayi yoqqan edi.

– Eshiting, janoblar:

*Sendek menga bir yori jafokor topilmas,  
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.*

Mavlono Fazliddin og‘ir tin oldi:

– Hozirgina so‘zlashgan dardimizni aytmishlar!

Bobur maqtovlardan xiyol o‘ng‘aysizlanib:

– Janoblar, – dedi, – men sizlardek san‘atkorlar bilan uchrashib, suhbatlashganim uchun Tangriga shukr qilamen. Faqirning qog‘ozni qoralab yozgan satrlarim mavlono Mashhadiyning tengsiz san‘atlari

tufayli sizlarga shunchalik manzur bo'ldi. Joiz bo'lsa, g'azallardan xotira uchun mavlonolarga bir nusxadan bermoqchimen.

– Ayni muddao! – dedi Xondamir quvonib.

Bobur g'azallaridan ataylab uch-to'rt nusxadan ko'chirtirgan edi. Xondamirga, Behzodga, Sulton Muhammadga o'zlari yoqtirgan g'azallardan bir nusxadan berdi. Ular shoir va xattotning hurmatlari uchun g'azal bitilgan zarvaraqlarni olib, non kabi ko'zlariga surtib qabul qildilar. Bobur so'nggi g'azaldan bir nusxasini mavlono Fazliddinga uzatib:

– Mavlono, biz siz bilan faqat vatandosh emasmiz, hamdard-u hasratdoshmiz, – dedi.

Mavlono Fazliddin g'azalni olib, ko'ziga surtdi-yu:

– Men aminmen, Hirotida bitilgan ushbu g'azal tez kunda Samarqand-u Andijonga ham yetib borur, – dedi. – Xudo amirzodam bilan bizni ham Vatanga sog'-salomat qaytgulik qilsin!

– Aytganingiz kelsin, mavlono!

Bobur Qosimbekni chaqirtirdi va Sulton Ali Mashhadiyga g'azallarni san'atkorona ko'chirganligi uchun oltin tugmalik kimxob to'n kiydirdi. So'ng u mavlonolarni hovliga kuzatib chiqdi. Hammalari xayrlashayotganlarida, me'morga qarab:

– Balki, kelgusi yilda Kobulga borursiz, mavlono? – dedi. – Rost, katta me'morlik obidalari qurishga hali imkonimiz yo'q. Kobul hozir Hirotga nisbatan chekka bir viloyat. Ulug' san'atkorlarga makon bo'larlik saroyimiz yo'q. Lekin Xudodan umidimiz borki, kelgusida tole bizga ham kulib boqgay, biz ham ulug' san'atkorlarga makon beradigan kunlarga yetgaymiz!

– Taklifingizni bajonidil qabul qilurmen! – dedi mavlono Fazliddin.

– Amirzodam, – dedi Xondamir. – Alisher Navoiyning dargohlarida qilgan pokiza niyatingiz ilohim ro'yobga

chiqsin! Ilohim hazrat Alisherning ruhlari hamisha sizga madadkor bo'lsin!

Bu tilakka hammalari sidqidildan qo'shilib, yuzlariga fотиha tortdilar.

\* \* \*

Ertalab kun chiqayotganda, Bobur xosnavkarlari va beklari bilan Hirotning tashqarisidagi keng bog'ko'chadan ketib borar edi. Ko'chaning ikki tomonida Hirot a'yonlarining g'ishtin devorli, koshinkor gumbazli ko'shk va chorbog'lari bor edi. Salobatli bir bog'hovlining baland devori yonidan o'tayotganlarida, devor tepasidan kimdir uch-to'rtta atirgul tashladi. To'q qizil rangli gullardan biri Bobur mingan saman otning o'siq yoliga kelib tushdi. Gulning tikanlari ot yoliga ilinib qolganini ko'rgan Bobur devor tepasiga qaradi-yu, yosh bir qizning qiyg'och qoshlarini va qosh ustiga bostirib kiygan guldor toqisini ko'rdi. Keyin u ot yoliga ilinib qolgan gulni qo'lga olib, labiga yaqinlashtirdi.

Uzoqda yastanib turgan Zanjirgoh tog'larining baland cho'qqilariga qor tushgan edi. Hirotning kech kuzida nima ham bo'lib ochilgan bu gulning ajib hidi bor edi. Bobur gulning xush bo'yi dimog'iga urilgan zahoti jilovni beixtiyor tortib, otini to'xtatdi. Uzangiga oyoqlarini tirab, egardan bo'y cho'zdi-da, devor tepasidagi qizga tikilib qaradi. Endi unga qizning olov chaqnatib turgan qop-qora ko'zlari, bu ko'zlarga nihoyatda yarashgan gulrang yonoqlari aniq ko'rindi. Bobur bu ko'chadan avval ham o'tgan edi. Qiz avvallari ham uni ko'rib, tanib qolgan ekanmi, ko'zlari mo'ltirab va uyalib bosh egdi. Bu uning salom berganimidi yoki xayrlashganimidi? O'n yetti-o'n sakkiz yoshlardagi bu qizning jozibasi-yu mo'ltirab bosh egishi Boburga shunday ta'sir qildiki, u bir lahza nima qilishini

bilmay esankirab turdi. Bu orada boshqa mulozimlar ham qizni ko'rib, otlarini to'xtatgan edilar. Boburni Muzaffar mirzoning Hirot bo'yicha dorug'asi Yusuf Alibek kuzatib bormoqda edi. Qirq yoshlardan oshgan ko'ngilchan bu bek devor tepasidagi qizni tanib kuldi-yu:

– Iye, Mohimmisiz! – dedi. – Obbo, Mohchuchuk-ey, katta qiz bo'lib qolibsiz-a!

Qiz go'yo endi o'ziga keldi, «lip» etib, boshini devor ortiga oldi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yuzi qandaydir ichki olovning taftidan qizargan, ko'zlari g'alati chaqnagan Bobur Yusuf Alibekdan shoshib so'radi:

– Kim? Kim dedingiz?

– Amirzodam, bu hovli Sulton Sohirqironning uzoq qarindoshlaridan biriga qarashli. Qizning otasi Husayn Boyqaroning nufuzli devonboshilaridan edilar. Bordi-keldimiz bor edi.

– Hozir bormilar?

– Borlar-u, lekin... davlat ishidan chetlanmishlar.

– Nechun?

– Bilmadim, hozirgi podshohlarimiz bilan oralari yaxshi bo'lmasa kerak. Qandahorgami, G'aznagami ko'chib ketish taraddudida emishlar, deb eshitdim.

Otlar yurib bormoqda edi. Bobur Mohim deb atalgan qizning tobora uzoqda qolayotganini o'ylab, ko'nglida kuchli bir armon sezdi. Yigirma kun Hirotda yurib, bu qizni nega faqat endi, jo'nab ketayotgan paytda ko'rди?

Bobur hali ham qo'lida ushlab borayotgan gulga qaradi. Boyagi go'zal qiz Hirotning butun nafosatini o'z jozibasi bilan birga mana shu gulga muattar hid kabi joylab berganga o'xshar edi.

Bobur gulni yana bir hidladi-da, boshidagi sallasining qatiga ko'zga uncha tashlanmaydigan qilib qistirib qo'ydi. Lekin undagi nafis bir hayajonni Qosimbek zimdan kuzatib bormoqda edi. Boburga otadek g'amxo'r bo'lgan bu odam shunday ko'hlik

yigitga munosib bir qiz uchrashini ko'pdan beri kutib yurardi. Bobur esa ko'z ochib ko'rgan yostiqdoshi Oyisha begimning bevafoolidan qattiq ozor chekkani uchun ayol zotidan tortinar, ancha-muncha qizlarga moyillik bildirmas edi. Hirot malikasi Xadicha begim uni asilzoda xonadonlarga kuyov qilishga urinib ko'rdi. Bobur ro'yxushlik bermadi.

Marhum Sulton Ahmad mirzoning kichik qizi Ma'suma begim onasi bilan Samarqanddan Hirotga kelib qolgan ekan. Kayvoni ayollar oraga tushib, bir mehmondorchilik paytida Boburni Ma'suma begim bilan uchrashtirdilar. Qiz juda nazokatli va go'zal edi. Ammo Qosimbek uni ko'rganda Toshkentda qolgan Oyisha begimni esladi. Chindan ham Ma'suma begim – Oyisha begimning singlisi edi. Bobur orada turgan hirotlik amma-xolalarning ko'ngliga qarab, qizga moyillik bildirgan bo'ldi, lekin to'yni paysalga soldi. Qosimbek orqali shunday javob aytirdi:

– Ma'suma begim onalari bilan Kobulga borsalar...

Qizning onasi:

– Xo'p, Kobulga borgaymiz, – deb va'da berdi.

Lekin Qosimbek bu nozikkina qizning Hindikush tog'lari osha Kobulga yetib borishiga uncha ishonmasdi. Yetib borganda ham Boburning boshi ustida charx urib yurgan intihosiz mushkulotlariga bardosh berolmasa kerak, deb o'ylardi.

Ammo bog' ko'cha devoridan gul tashlagan Mohim ismlik olov qizning yuz-ko'zlarida nafis go'zallikka yo'g'rilgan qudratli bir ohanrabo bor edi. Ana shu ohanrabo Boburni hamon o'ziga tortib turar edi.

Bog' ko'chadan keng dalaga chiqqanlarida, Bobur sallasi qatidagi pushti rang atirgulni sekin qo'liga olib, yana bir hidlab ko'rdi. Shunda devordan mo'ralagan qiz uning ko'z oldida qaytadan gavdalandi-yu, butun borlig'ini nafis va shirin tuyg'ularga to'ldirdi. «Shuncha qilib, istab jahonni yor topmadim!» degan Boburga,

balki shu qiz yor bo'lar? Nega undan bu qadar tez ayrildi? Nahotki bu qizni qayta ko'rish nasib qilmasa?

Qosimbek otini Boburning otiga yaqin keltirib, past tovush bilan so'radi:

– Amirzodam, bu atirgul qaysi gulzorda o'sganini surishtirib ko'raymi?..

– Ixtiyoringiz, – dedi Bobur uyalinqirab.

– Qizning otalari Husayn Boyqaroga xesh bo'lsalar, men bu xonadon bilan albatta aloqa bog'lagaymen.

Bobur bu rejani ma'qullagan ma'noda bosh irg'adi.

– Amirzodam, agar yulduzi yulduzingizga to'g'ri kelsa, men Mohim bonuni Hirotdanmi, Qandahor yoki G'aznadanmi, qayerdan bo'lsa ham, albatta, izlab topgaymen!

## **HINDIKUSH, KOBUL**

### **O'LIM BILAN YUZMA-YUZ**

Hirotidan uzoqlashganlari sari go'zallik va nafosat nuriga yo'g'rilgan iliq tuyg'ular o'rnini Hindikush tog'ining bahaybat qoyatoshlari va uning sovuq muzlariga o'xshaydigan xavotirliklar egallay boshladi. Boburning Kobuldan chiqib kelganiga uch oydan oshyapti, lekin u yerdagi ishonchli odamlardan xabar kelmayapti. Ora uzoq – otda bir oy-qirq kunlik yo'l. Karvon bilan Kobuldan kelgan savdogarlar noxush ovozalari eshitibdi. Go'yo Bobur mirzo Hirot tojidorlari bilan yovlashib qolganmish, uni Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'yg'anmishlar.

Hisorda Xisravshohdan ajralib kelib, Bobur xizmatiga kirgan yigirma ming mo'g'ul sipohilari bu xabarga asoslanib, Kobulda o'z hokimiyatlarini o'rnatish harakatiga tushganmish. Mo'g'ullarning dug'lat qavmidan bo'lgan Muhammad Husayn (avvalgi O'ratepa hokimi) fitnachilarga bosh bo'lmoqda emish. Ammo Kobul dorug'asi Mulla Bobo Boburga sadoqat saqlab, qo'rg'on darvozalarini berkitib olganmish. Agar shu gaplar rost bo'lsa, qo'rg'on qamalda qoladi. Ammo tashqaridan yigirma ming qo'shin hujum qilsa, qo'rg'onni egallashi hech gap emas. Unda Bobur Samarqand tufayli Andijondan ayrilgani kabi, Hirot sababli Kobuldan ham ajralib, yana aro yo'lda muallaq qolishi mumkin.

Bu xatarning oldini olish uchun Bobur Kobulga tezroq yetib borish harakatiga tushdi. Aksiga olib, qish erta boshlandi. Qavs oyidayoq tog' etaklariga yoqqan qalin qor otlarning tizzasiga yetib bordi. Chaxcharon degan joyda Bobur beklarni mashvaratga to'pladi.

– Dovonlar bekilgandir, – dedi Xo‘ja Kalonbek. – Qandahor orqali borsak, yo‘l tekis.

Hindikushni aylanib o‘tgaymiz.

– Aylanib o‘tganingizgacha qirq-ellik kun vaqt ketgay! – e‘tiroz qildi Qosimbek. – Ungacha mo‘g‘ullar Kobul qo‘rg‘onini egallab olsa, keyin ne qilgaymiz?

– Xudo ko‘rsatmasin! – dedi Bobur. – Ilohim bu mish-mish yolg‘on chiqsin!

– Ammo shamol bo‘lmasa terakning uchi qimirlamagay, amirzodam! Kobulga tezroq yetib bormog‘imiz shart! To‘g‘ridagi Ko‘tali Zarrindan oshsak, Qandahor yo‘liga nisbatan masofa ikki barobar qisqargay. Bir oy vaqt yutgaymiz!

– Unday bo‘lsa, mayli, janob Qosimbekning taklifini qabul qilaylik. Faqat dovon yo‘lini yaxshi biladigan yo‘lboshchi topish kerak.

– Bunisi menga tan! – dedi Qosimbek.

Ertasi kuni yana qor yog‘a boshladi. Bobur qo‘riqchi yigitlari bilan otlanib chiqayotganda, Qosimbek afg‘onlarning poshoyi qabilasi yashaydigan qishloqdan Sul-ton degan bir yo‘l ko‘rsatuvchini topib keldi. Olachipor salla o‘ragan, baland bo‘yli, burni uzun, jingalak soqoliga oq oralagan bu odamning yuzi Boburga allanechuk tund ko‘rindi. Bobur u bilan ot ustida turib, dariy tilida so‘zlashdi:

– Qishda Ko‘tali Zarrindan o‘tish mumkinmi, yo‘qmi?

– O‘tganlar bor, – dedi Sul-ton. – Ammo bu yil qor juda ko‘p. Ko‘chki bosib qolishidan qo‘rqmasangiz...

– Siz qo‘rqmasangiz biz nechun qo‘rqaylik?..

– Men qishda o‘tsam, bir o‘limni zimmamga olib o‘taman. Ketishda uydagilardan rozi-rizolik so‘rab yo‘lga chiqaman. Qaytib kelmasligim mumkin.

Bobur Qosimbek tomonga o‘girilib, turkiy tilda so‘radi:

– Nafasi muncha sovuq? Boshqasi yo‘qmidi?



- Boshqalari unamadi. «Dovon bekilgan, jon kerak!» deyishdi.

- Bizga jon kerak emasmi?

- E, bular shunaqa vahima qilib, qadrini oshirgay! Mana shu Sulton qishda ham Ko'tali Zarrindan o'tgan ekan. Kadxudosi aytdi!

Sulton poshoi soqoliga ingan qor zarralarini kafti bilan sidirib tashlar ekan, istehzoli kulimsirab qo'ydi. Bobur uning turkiychani tushunishini sezdi, ammo istehzosini yoqtirmadi. Sultonning dilida ortiqcha g'ururmi, kuduratmi, sovuq bir narsa bordek tuyildi.

- Janob Qosimbek, odamlarimizni ortiqcha xatarlarga giriftor qilmaylik. Hali ham bo'lsa Qandahor yo'lga qaytaylik!

- Ammo vaqtni boy bersak, Kobul ilikdan ketgay, amirzodam! Siz bilan biz qancha xatarli dovonlardan oshganmiz! Hisor tog'laridan qor bo'ronlari tagida dahshatli uchmalar, sekirtmalardan o'tib, Iskandarko'lga tushganimiz yodingizdami? Xudo asraymen desa, hech gap emas!

- Xayr, bu gal ham Xudo o'zi asrasin! - deb Bobur Sultonning yo'l ko'rsatuvchi bo'lishiga rozilik berdi.

Sulton uyiga borib, chindan ham onasidan, xotini va bo'y yetgan farzandlaridan rozi-rizolik so'rab chiqdi. Uning o'ziga to'q, badavlat oilasi bor, sayisxonasidagi sakkizta otiga maxsus otboqar qaraydi. Bu gal qishda yo'l ko'rsatuvchi bo'lishdan maqsadi faqat pul ishlash emas. Yoshlikdan unga tinchlik bermay kelayotgan alam va intiqom tuyg'usi uning shu ishga bosh qo'shishiga sabab bo'ldi.

U Qosimbekka rozilik berishdan oldin, dovondan o'tmoqchi bo'layotganlarning kimligini surishtirib bildi. Bobur - Temuriylardan ekani, Abusaid mirzo uning bobosi bo'lgani Sultonning o'n yosharlik paytida boshdan kechirgan fojialarni esiga soldi. Sultonning ota-bobolari Shohruh mirzo bilan yaxshi hamkorlik

qilgan badavlat odamlar edi. Shohruhning o'limidan keyin boshlangan alg'ov-dalg'ovlarda Turondan Abusaid mirzo o'g'li Mahmud mirzo bilan Xurosonga bostirib keldilar. Sultonning otasi Shohruh mirzodan ko'p yaxshilik ko'rgani uchun uning nevaralariga yon bosdi.

Lekin Abusaid mirzo g'olib kelib, Shohruhning ko'pchilik nevaralarini qilichdan o'tkazdirdi. Sultonning otasi va akasini ham Shohruhiylar tomonida turgani uchun boshlarini kesdirdi. Hovlilarida bor mol-hollarini, onasining bo'xchalaridagi narsalarigacha talab ketishdi. Bu ham ozlik qilganday, Sultonning o'n besh yoshlik chiroyli opasini asira qilib olib ketdilar. Keyin eshitsalar, uni Abusaid mirzo haramiga bir necha kunlik joriya qilib beribdilar... Ustma-ust kelgan bu baxtsizliklardan Sultonning onasi kasal bo'lib, yotib qoldi. Lekin ularning badavlat qarindoshlari bor edi. Og'ir paytda ular yordam qo'lini cho'zdilar. Sulton yigit yoshiga yetguncha zamonlar ham bir qadar tinchidi, karvonlar ko'p qatnaydigan bo'ldi. Sulton karvonlarga yo'l ko'rsatuvchilik qildi, savdo-sotiqdan ham yaxshi daromadlar olib, ro'zg'orini butlab oldi.

Hozir qahraton qish kunida uyida oilasi bilan tinchgina o'tirishi mumkin. Lekin Bobur ham bu yerlarga bobosi Abusaid mirzoning izidan kelganligi Sultonning dilidagi qasoskor tuyg'ularni uyg'otib yubordi. Nohaq o'ldirilgan otasi va akasi, nomusi toptalgan opasi uchun mana bu Temuriyrodadan xun talab qilib qasd olishga haqi yo'qmi? Bu ham o'sha kelgindi fotihlarning biri-ku. Turondan kelib, bu yerlarda xo'jayin bo'lib yuribdi. Qani, Hindikush tog'iga ham xo'jayin bo'lib ko'rsin-chi?! Sulton o'z xundor dushmanini eng mashaqqatli yo'llardan boshlab boradi, uning azob tortganlarini ko'rib, bir alamdand chiqadi. Ilojini topsa, dovon yo'llarida qor bo'ronlariga ko'mib qaytadi. Shu bilan otasi va akasining ruhlari oldidagi qiyomatlik burchini bajargan bo'lmaydimi?

Sulton shu o'ý bilan sayisxonaga kirdi. Tog'larda yaxshi yuradigan eng baquvvat qora qashqa otini egarladi. Jun xurjunga ikki haftaga yetadigan qilib qovurdoq go'sht, yog'liq patir va boshqa eguliklar soldirdi. O'zi qalin po'stin kiyib, yana ikkita jun chakmon, issiq quloqchin, «jo'rab» deb ataladigan qalin paypoqlar oldi. Otlarga yem-xashakni ham unutmadi. Po'stin tagidan beliga xanjar taqib oldi. Hamma yuklarini qizg'ish rangli miqti otga orttirdi-da, uni yetovga oldi.

Bobur va Qosimbek boshliq bek-u navkarlar uch yuz kishidan ortiq. Ko'pchiligining yetovda oti bor. Tuyalarga turli yuklar, chodir va yig'ma o'tovlar ortilgan. Qish kuni bularning hammasini oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta'minlash oson emas.

Avvalgi hokimlarning odatini yaxshi biladigan Sulton: «Bular ham aholining mol-holini zo'ravonlik bilan tortib olib, zaxira yig'sa kerak», deb o'yladi.

Ammo Bobur xazinachiga buyurib, hamma zaxiralar uchun oltin-kumush tanga to'latdi. Hatto yem-xashakni va qor kuraydigan yog'och kuraklarni ham tangaga sotib olishdi.

Ko'z ilg'agan hamma joy oppoq qorga burkangan. Sulton qora qashqa otda oldinda yo'l boshlab boradi. Bobur va Qosimbeklar uning ketidan otliq kelishmoqda. Orqada yuzlab bek-u navkarlar yetovdagi otlar va yuk ortilgan tuyalari bilan turnaqator bo'lib, tizilib yo'l yuradi. Bir haftadan beri har kuni qor yog'adi. Goho qalin bulutlar yirtig'idan o'tob xiragina bo'lib ko'rinadida, ko'p o'tmay yo'q bo'lib ketadi.

Oppoq toza qor ko'zni oladi. So'ng yana maydalab qor yog'ishga tushadi.

Yo'llar qor tagida ko'rinmay ketgan. Sulton bolalikdan yaxshi biladigan tepaliklar, jilg'alar va qoyatoshlarga qarab, tusmol bilan yo'l boshlab boradi. Tog' etaklarida ularga bironta qo'y suruvi, bironta

qoramol uchramaydi – chorva yeydigan o‘t-o‘lanlar qor tagida qolib ketgan. Hatto kakliklar ham bu qorda don topolmay, pastliklarga tushib kelgan. Ular qalin qorda durust ucholmay qolarkan, qanotlarini yozib, qorga tiqilib qolgan kakliklardan besh-o‘ntasini yigitlar yo‘l bo‘yidan tutib oldilar:

– Kechqurun tunashga to‘xtaganda, kabob qil-gaymiz! – deyishib, xurjunlariga joyladilar.

Tog‘ oraliqlariga kirganlarida, qor otning tizzasidan balandga chiqdi. Qish chillasi qahrli, sovuqning qattiqligidan oyoq taglarida g‘archillagan qorning tovushi tog‘ yonlaridan aks sado bo‘lib qaytadi. Yuqoriga ko‘tarilganlari sari yurish qiyinlashadi, ot-uloqlar burunlaridan hovur chiqarib, og‘ir-og‘ir nafas olishadi, horg‘in pishqirishadi. Bek-u navkarlarning og‘izlaridan chiqqan hovur yog‘ayotgan qorga qo‘shilib, soqol-mo‘ylovlarga oppoq qirov bo‘lib yopishadi va hammani mo‘ysafidga o‘xshatib ko‘rsatadi.

Qish kuni qisqa, dovonga yetib borolmadilar. Kech kirganda nina bargli bolut daraxtlari o‘sib yotgan o‘rmonda to‘xtadilar. Tekisroq joylar topib, qorini kurab tashladilar-da, o‘rmondan o‘tin kesib kelib, gulxanlar yoqdilar. Gulxan atroflarini erigan qorlardan tozalab, Bobur, Qosimbek va boshqa e‘tiborli a‘yonlar uchun chodirlar tikdilar. Yigit-yalanglar qori kuralgan yerlarga qalin kigizlar to‘shab o‘tirdilar. Yuklar orasida qozon-tovoqlar ham bor ekan. Kunduz kuni tutilgan kakliklardan qilingan kabobning oldi Bobur va Qosimbekka suzildi.

Gulxan olovida qovurdoqlar ham tayyorlandi.

Sulton mayxo‘rlik ham bo‘lishini kutgan edi. Lekin u hamroh bo‘lib borayotgan bek-u navkarlarning o‘zaro gap-so‘zlaridan shuni bildiki, yigirma besh yoshlik Bobur hali umrida may ichmagan namozxon yigit. Uning shunday qor sovuqlarida ham tahorat olib, namoz o‘qiganini safar paytida bir necha marta

koʻrgan Sul-ton oʻzicha taajjublanib qoʻydi. Ertasi kuni yana dovon tomonga koʻtarilib borayotganlarida, qorning qalinligi otning oʻmrovigacha chiqdi. Otlar sal ilgari-laganlaridan soʻng oyoqlari yerga tegmay, qorga botib toʻxtab qolishdi.

Qosimbek yigitlarga kurak bilan yoʻl ochishni buyurdi. Besh-olti kishi kurak olib oldinga oʻtdi. Ammo qalinligi odamning koʻkragiga chiqadigan qorni kurak bilan uddalab boʻlmas, ikki-uch qadam yoʻl ochguncha bir dunyo vaqt ketardi.

– E, bu boʻlmas ekan, – dedi Bobur. – Bir kunda ikki chaqirim yoʻl bossak qachon yetgaymiz?

Sulton oldinga oʻtdi-da, qorni tepa-tepa shibbalab, birpasda toʻrt-besh qadam yoʻl qildi.

– Buni biz tajribada koʻrganmiz, – dedi Sul-ton Bo-burga. – Yigitlaringizga buyuring, mana shunday qor tepib, yoʻl ochsinlar. Boshqa iloj yoʻq!

Qosimbek «Qandahor orqali tekis yoʻl bilan boraylik!» degan taklifga koʻnmagani va dovon yoʻlidan yurishga sababchi boʻlgani uchun Boburdan xijolat chekmoqda edi. Shu sababli oʻgʻillari Tangiberdi va Qambaralini ikki yoniga olib, hammadan oldin oʻzi qor tepishga kirishdi. Orqadan yana Tohir boshliq toʻrt-besh yigit oldinga oʻtib, qorni gʻarchillatib, shibbalashga tushdilar. Birpasda yuz qadamcha soʻqmoq yoʻl hosil boʻldi. Undan otlarni yetaklab oʻtishga toʻgʻri kelardi. Qor tepayotgan Qosimbek hansirab dedi:

– Otni zoʻr jonivor derdik, bunday qorga odam otdan ham zoʻr boʻlarkan!

Orqada yoʻl ochilishini kutib, otliq turgan bek-u navkarlar koʻpchilik edi. Bu qattiq sovuqda ularning otdan tushgilari kelmasdi, chunki otning badanidan ozgina boʻlsa ham issiqlik chiqib, suvoriyga iliq tafti urib turar, pastdagi odam boʻyi qor esa kafanday sovuq tuyilardi. Juda sekinlik bilan ilgari-lab borishar, bu ketishda bir kunlik yoʻl bir haftaga choʻzilishi muqarrar

edi. Ishboshi bo'lib turgan Sulton har zamonda Bobur tomonga ko'z tashlab qo'yardi. «Qor qamalida qolayotgan bu temuriyzoda endi ne qilarkin?» deb uni zimdan kuzatardi.

Sulton Boburning sovqotib asabiylashishini, yo'l juda sekinlab qolganidan tajang bo'lishini, odamlariga baqirib-so'kinib ish buyurishini, aytganini qilmaganlar bo'lsa qamchi bilan savalashini kutmoqda edi. Otasi va akasini o'limga buyurgan hukmdorlar qiyofasida Sulton ana shunaqa zolimlarni ko'rgan, bugun esa ulardan birining talvasaga tushishiga guvoh bo'lib, bir alamdan chiqqisi kelar edi.

Biroq Bobur jim. U oldinda qor tepayotgan keksa Qosimbekning hansirab, holdan ketib qolayotganini ko'rdi-da, indamay otidan tushdi. Oldinga o'tib, Qosimbekning yoniga bordi:

– Bas, siz endi nafasni rostlang! – dedi, so'ng uning o'rniga qor tepib, yo'l ochi boshladi.

Orqada yo'l ochilishini kutib, otdan tushmay o'tirgan bek-u navkarlar endi bunga loqayd qarab turolmadilar. Boburning indamay, ko'p qatori ishga tushib ketgani orqadagilarga zug'um qilib buyruq bergandan ko'ra kuchliroq ta'sir qildi. Yigitlardan yigirma-o'ttiztasi apil-tapil otlaridan tushib, Bobur tomonga shoshildilar.

Balandga ko'tarilganlari sari havo siyraklashib, nafas olish qiyinlashar, qirchillama sovuq buning ustiga qo'shilar, eng baquvvat yigitlar ham yigirma-o'ttiz qadam yo'l ochguncha charchab, hansirab chetga chiqardi. Ikki-uch marta bu ishni qilib chiqqan odamlarning ko'pi to'rtinchi-beshinchi daf'a qor tepishga yaramay qolardi.

Ammo Bobur eng pahlavon yigitlar qatori qayta-qayta oldinga o'tib, bir hafta davomida odamlariga yo'l ochib borgani Sultonni lol qoldirdi. Bek-u navkarlar o'zaro gaplashganda:

– Amirzodamga ko‘z tegmasin, alplarday pahlavonligi bor! – deb qo‘yishardi.

– Sarkardang bo‘lsa, shunday bo‘lsin!

Sulton ham ichida: «Xudo bu yigitga kuch-quvvatni ham, himmatni ham ayamay berganga o‘xshaydi», deb qo‘ydi. Kech kirganda baland bir yalanglikka ko‘tarildilar. Bundan narida dovon boshlanishi kerak edi. Lekin bu balandlikda qor bo‘roni boshlandi. Qattiq shamol qor uchqunlarini yuz-ko‘zga keltirib ura boshladi. Sovuqning shiddati bir necha barobar oshib ketdi.

Havoli Kutiy deb ataladigan bu baland joyda shamol-pana tog‘ kamarlari borligini Sulton bilardi. U kichikroq bir kamarga Qosimbekni boshlab kirdi. Ammo bu kamarga to‘rt-beshta odam zo‘rg‘a sig‘ardi. Qosimbek Boburni ham ichkariga taklif qildi.

Yuzlab odam tashqarida qor bo‘roni ostida diydirab turibdi. Suyak-suyaklargacha yetib borayotgan achchiq sovuqning zahriga dahshatli qor bo‘ronining zarbi qo‘shilyapti. Agar odamlar shu ochiq joyda tunashga majbur bo‘lsa, ularning ko‘pi muzlab qolishi muqarrar. O‘lim xavfini sezgan navkarlardan biri:

– E-voh, jasadimiz qor tagida qolsa, bizni kim topib, dafn etgay? – dedi.

– Qordan kafan kiygaymizmi-a? – dedi ikkinchi navkar.

– Hindikush deb bejiz aytmas ekanlar! Bu tog‘ odamkush toqqa o‘xshaydir!

Bobur bu navkarlarning ovozidan tanib, ularning oldiga keldi.

– Mirzoquli, niyatni yaxshi qilinglar! Xudo xohlasa, bu qor qamalidan eson-omon chiqib ketgaymiz. Mamatbek, kuraklaring bormi?

– Bor! – deb Tohirning samarqandlik do‘sti Mamat otining egariga tang‘ib bog‘langan kurakni Boburga olib berdi.

Bobur eniga va bo'yiga uch-to'rt qadam keladigan joyning qorini kuray boshladi. Mamat podshohga qor kuratib, o'zi qarab turishga uyaldi, kurakni Boburning qo'lidan oldi:

– Bu yerda ne qilmoqchisiz, amirzodam?

– Qordan ihota yasamoqchimen. Yerto'la qaziydilar-ku. Biz qorto'la qazisak bo'lasmikan?

– Qani, ko'raylik... E, yo'q, qor hali juda yumshoq ekan, uvalib tushdi...

– Yerga yetguncha qaziylik-chi! – dedi Bobur.

Qorni ko'kraklari barobar qazisalar ham, kurak yerga tegmadi:

– Ob-bo, qor bo'roni bu yerga qorni uyib tashlagan bo'lsa kerak! – dedi Mamat umidsizlanib.

– Mayli, bas, – dedi Bobur va Tohir qo'rchibegini chaqirdi: – Bitta kigiz bilan joynamoz keltiring!

Ko'krak bo'yi keladigan qor devori shamolning shiddatini biroz pasaytirganday bo'ldi. Ammo tepada yana qor quyun bo'lib yog' ilmoqda edi. Tohir keltirgan kigizni oyoq ostiga to'shadilar.

Yoshlikdan sovuq suvlarda yuvinib chiniqqan, hatto muzni teshib g'usl qilishga o'rgangan Bobur hozir qor bilan ramziy tahorat olgan bo'ldi-da:

– Tayammum! – deb qo'ydi.

Tohir esa Mirzoquli va boshqa yigitlarga murojaat qildi:

– Beharakat turaversak, sovuqda to'ng'ib tamom bo'lurmiz! Undan ko'ra amirzodamga o'xshab qorni qazib, shamolpana joylar yasaylik. Harakatlanib tursak, sovuq urmagay!

Bu gaplarga zimdan quloq solib turgan Sulton: «Ko'raylik-chi, qani bu temuriyzodaning chidami qanchaga yetarkin?» dedi o'zicha. Bobur esa sohibqiron bobokalonidan olgan saboqlariga binoan hayot-mamoti hal bo'ladigan paytlarda ikki rakat namoz o'qib, Xudodan najot tilardi.



Hozir kigiz ustiga joynamoz to'shab namoz o'qir ekan, egnidagi po'stinining yelkalari, gardishli qunduz telpagi bo'ralab yog'ayotgan qordan oppoq bo'lib qoldi. Sulton buni ko'rdi-yu, Bobur panalab o'tirgan joyni bo'ron tuni bilan qorga ko'mib tashlashini o'zicha tasavvur etdi. Dilida tugun bo'lib turgan intiqom tuyg'usi: «Qo'yib ber, – dedi, – shahid bo'lgan otam bilan akamning oldiga bu temuriyzoda ham borsin! Qor tepib charchagan odam sovuqdan karaxt bo'lib, uyqusi eltsa, keyin qaytib uyg'onmay, ertalabgacha narigi dunyoga ketadi!..»

Lekin Boburning shunday mushkul ahvolda ham o'zini yo'qotmay, odamlarga dalda berayotgani, keksa Qosimbekni kamarga joylab, o'zi ko'pchilik navkarlar qatori ochiq yalanglikda qor bo'roni tagida o'tirgani Sultondagi insof va diyonat tuyg'usini uyg'ota boshladi. Ayniqsa, Boburning namoz o'qiyotganini ko'rganda va sajdaga bosh qo'yib, Parvardigordan najot so'raganini eshitganda, ichki bir ovoz «Xudodan qo'rqmaysanmi, Sulton? – deb so'raganday bo'ldi. – Axir Xudo oldida har bir odam o'z gunohi uchun o'zi javob beradi-ku. Yomon Temuriyzodalar qilgan gunohlar uchun nechun Bobur javob berishi kerak? Axir buning o'zi senga yomonlik qilgani yo'q-ku. Bir hafta qor tepib, senga ham yo'l ochib kelmadimi? Yaxshilikka javoban yomonlik qilsang, keyin qasosi o'zingga qaytmaydimi?»

Bobur namozini tugatgandan so'ng, Sulton uning oldiga keldi:

– Hazrat shoh, tuni bilan qor bo'roni ichida muzlab qolishdan qo'rqmaysizmi?

– Nachora? Siz bizni ogohlantirgan edingiz. Dovon yo'li chindan xatarli ekan...

– Qosimbek o'tirgan kamarga siz nechun kirmaysiz? Axir shohlar doim to'rda o'tirishi kerak-ku!

– Hayot-mamot oldida shoh-u gado barobar, janob Sulton. Qosimbek keksa odam, menga otadek aziz. Men

tashqarida qolgan bu yigitlarim bilan hayotning barcha achchiq-chuchuklarini birga tatib kelmoqdamen. Qancha xavf-u xatarlarni birga boshdan kechirganmiz. Bugun ham biz o'lim bilan yuzma-yuz turibmiz. Shunday paytda men eng qadrdon odamlarimni tashqaridagi xatar ichiga tashlab, o'zim qaysi yuz bilan ichkarida jon saqlagaymen?

– Hazrat, men sizni faqat podshoh deb o'ylagan edim. Lekin sizda darvishlik ham bor ekan. Bu so'zimni ko'nglingizga olmaysizmi?

– Nechun ko'ngilga olay? Shohlardan ko'ra darvishlarda adolat ko'proq... Axir siz ham musulmonsiz-ku.

– Alhamdulillah muslimman. Barcha musulmlar bir-birlariga birodardirlar. Yuring, men sizga hamma odamlaringiz sig'adigan ulkan hovalni ko'rsatay!

Bobur quvonib, tez o'rnidan turdi-da, Tohir bilan Mamatni chaqirdi.

– Qani, janob Sulton bilan boringlar-chi, boshqa kamarlar bor emish!

Chindan ham orqasi ulkan g'orga tutashib ketgan ikkita kamar bor ekan. Ularga tashqarida qolgan hamma odamlar kirib, tuni bilan shamolpana, quruq joyda gulxanlar yoqib isinishdi. Ertasi kuni qor bo'roni to'xtab, havo ochilib ketdi. Kechagi kuchli shamol qorlarni uchirib, hamma o'ngir va jarlarni qorga to'ldirgan va tekislab ketgan edi. Bo'ron va sovuqning shiddatidan bu qorlar shibbalanib, qalin qatqaloq hosil bo'lgan edi. Ana shu qatqaloqdan va o'ydinchuqurlarni to'ldirib, tekislagan qorning qalinligidan Sulton ustalik bilan foydalandi, Boburni barcha odamlari bilan tog'ning narigi tomoniga boshlab ketdi. Yana kuni bo'yi yo'l yurib, kerak bo'lganda qor tepib, kechki payt Yakka o'lang<sup>1</sup> degan qishloqqa yetib bordilar.

---

<sup>1</sup> O'lang – yaylov degani.

Bu turkiyzabon qishloq odamlari:

– Osmondan tushdilaringizmi? – deb hayron qolishdi: – Umrimiz bino bo‘lib, qish chillasida bu dovondan tirik o‘tib kelgan shuncha ko‘p odamni ko‘rmagan edik!

Yakka o‘langliklar Bobur va Qosimbekning oyog‘i tagiga qo‘ylar so‘yib, katta ziyofatlar berishdi. Bir kecha dam olganlaridan so‘ng, Sulton qaytib ketishga ruxsat so‘radi.

– Bir o‘zingiz tog‘dan qanday o‘tasiz? – dedi Bobur.

– Kelgan yo‘limiz hali bekilmagandir. Otlarim bor-ku.

– Balki, biz bilan qolursiz? Mamlakatning to‘rt tomoni tog‘. Bizga sizdek yo‘l ko‘rsatuvchi doim kerak.

– Taklifingiz uchun tashakkur, hazrat shoh. Men sizdek mard podshohni umrimda birinchi ko‘rishim. Uyga qaytib, barcha poshoyilarga sizning to‘g‘ringizda so‘zlab bermoqchiman. Xizmatigingizga kelsam ham, yuz-ikki yuzta yigitlarni boshlab kelamen. Xudo hofiz! Bobur xazinachiga buyurib, Sultonga kutganidan ham ortiq mukofotlar berib jo‘natdi.

\* \* \*

Kobulda ularni boshqa xavf-xatarlar kutmoqda edi. Fitnachilar Boburni «Hirotda qatl etilibdi» deb ovoza tarqatganlari rost ekan. O‘ratepaning sobiq hokimi Muhammad Husayn dug‘lat fitnachilarga bosh bo‘lib, Boburning o‘rniga uning amakivachchasi – marhum Mahmud mirzoning yigirma yoshlik o‘g‘li Mirzoxonni Kobul podshosi, deb e‘lon qilibdi. Buning xabarini Kobulda qolgan sodiq navkarlardan Muhammad Andijoniy Langari Temur degan joyda Boburga yetkazib keldi. Ma‘lum bo‘lishicha, Kobul qal‘asini Bobur uchun berkitib turgan Mullo Bobo va Ahmad Yusufning ahvoli juda og‘ir. Qo‘rg‘onni

qamal qilayotgan Mirzoxon boshliq mo'g'ullarning yigirma ming odami bor, devorlarga naqb solib borut bilan portlatib o'tishga harakat qilishyapti. Qo'rg'on himoyasida ikki yuztagina odam turibdi. Ularning ham zaxiralari tugab boryapti. Shu ketishda fitnachilar ketma-ket hujum qilaversa, qo'rg'onni bir hafta-o'n kunda olib qo'yishlari ehtimolga yaqin.

– Biz Langari Temurdan Kobulga to'rt kunda yetib borgaymizmi, a, janob Qosimbek? – so'radi Bobur.

– Ildam yursak, uch kunda ham yetgaymiz. Ammo Qandahor yo'li bilan kelganimizda, Kobulga yana bir oyda zo'rg'a yetgan bo'lardik.

Muhammad Andijoniy bu gapni ma'qullab qo'shimcha qildi:

– Fitnachilar sizlarning qish chillasida Hindikushdan oshib kelishlaringizni mutlaqo bilmaydi, amirzodam! Axir bu – aql bovar qilmaydigan ish! Shuning uchun fitnachilar asosiy kuchlarini Qandarhordan keladigan yo'l bo'ylariga joylashtirganlar. Qorovullari ham Qandahor tomonda poyloqchilik qilmoqda emish. Menga buni Mullo Bobo tayinlab aytib yubordi. «G'azna tomondan kelmasinlar, Manor tog'i tomondan kelsinlar», deb iltimos qildi.

– Ammo janob Qosimbek, siz uzoqni ko'zlab, dovon yo'lini tanlagan ekansiz. Men sizning haqligingizga endi astoydil tan berdim.

– Tashakkur, amirzodam. Endi hamma gap Kobulga yog'iyalar kutmagan tomondan bilintirmay borishimizga bog'liq. Ularni g'aflatda bosmoq kerak!

Bobur, Qosimbek, Xo'ja Kalon va boshqa ishonchli amirlar maslahatni bir joyga qo'yishdi. Kobul qo'rg'onidagi Mullo Bobo boshliq sodiq kishilariga Bobur o'z qo'li bilan maxfiy maktub yozdi.

«Mardona bo'ling, najot yaqin, Xudo xohlasa, seshanba kuni tunda biz Manor tog'ida ulkan o't yondirg'umizdir. Sizlar ham arkda, eski ko'shkning

ustidakim, hozir xazinadur, ulug' o't yondiringiz, toki bilg'aymizki, bizdan xabardor bo'libsiz...»

Muhammad Andijoniy Boburning maktubini Kobul qo'rg'onidagilarga vaqtida yetkazib borgan ekan. Seshanba kuni kechasi Bobur odamlari bilan Manor tog'iga yetib, Kobul qo'rg'oni ko'rinadigan joyda ulkan olov yondirdilar. Ko'p o'tmay Kobul arkida xazinaning tomi ustida ham kattakon olov yaltillab ko'rindi.

Shundan keyin Bobur odamlari bilan Kobulning shimol tomonidagi G'urband Tangisidan sahar palla chiqib, eng avval fitnachilarning boshliqlari uxlab yotgan qasrlarga yaqinlashdilar. Tun juda sovuq, izg'irin shamol esadi, ko'pchilik qorovullar ham shamolpana iliq joylarga kirib ketishgan. Muhammad Husayn bilan Mirzoxon g'aflat uyqusiga yotgan paytda qo'rg'on ichkarisidan Mullo Bobo va Ahmad Yusuf o'z odamlari bilan Ohanin darvozasidan qurollanib chiqdilar. Qo'rg'onni qamal qilib yotgan mo'g'ullarning halqasi shimol tomonda siyrak edi, chunki ular Boburning janubi-g'arb tomondan kelishini kutmoqda edilar. Bobur shimoldagi G'urband tomondan, qo'rg'ondagilar qal'a tomondan birvarakay zarba berishib, mo'g'ullar halqasini sindirib o'tdilar.

Kobul podshosi deb e'lon qilingan Mirzoxon qo'rg'on tashqarisidagi hashamatli bir qasrda uxlab yotgan paytda Boburning Xo'ja Kalonbek boshliq yigitlari qasr hovlisiga tig' yalang'ochlab kirdilar. Mirzoxonning qo'riqchi yigitlari ham qilichlarini qindan sug'urdilar. Qilichbozlik jangidan bir necha navkar yaralanib yiqildi. Cho'chib uyg'ongan Mirzoxon:

– Bobur bostirib keldi! – degan xabarni eshitib, o'zini yo'qotib qo'ydi. «O'ldiga» chiqarilgan odamning birdan tirilib kelishi Mirzoxonni shunchalik vahimaga soldiki, u tarafdorlarini to'plab, jang qilishni xayoliga ham keltirmadi. Qantarib qo'yilgan egarlog'liq bir otga sapchib mindi-da, kunchiqish tomondagi tog'larga

qarab qochdi. Buni eshitgan Bobur Yusufbek boshliq bir to'da yigitlarni Mirzoxonning ketidan quvg'inchi qilib yubordi. O'zi Bog'i Bihisht deb ataladigan bog'ning ikki qavatlik qasriga tomon ot surib ketdi.

Fitnachilarning boshlig'i Muhammad Husayn dug'lat shu qasrda edi. Darvozaning tomi ustida o'tirgan qo'riqchilar Boburga yoydan o'q yog'dirdilar. O'qlardan biri uning po'lot dubulg'asiga, yana biri ko'kragidagi zirhli «chor oynaga» o'ralib, qapchib ketdi. So'ng Bobur kamondan otgan o'qlar tom ustidagi soqchilardan birini yerga qulatdi.

Darvozani qo'riqlab turgan otliq mo'g'ul beklari qilich yalang'ochlab, Boburga hamla qilishdi. Ulardan biri yaqin kelib, qilich urganda Bobur o'zini qalqoni bilan to'sdi. So'ng fitnachining bo'yniga shunday qilich urdiki, egardan yerga uchirib, yumalatib yubordi. Yana ikkinchi, uchinchi... beshinchisini otidan qulatdi...

Qilich yalang'ochlab kelayotgan har bir dushman unga yuzma-yuz kelgan o'lim timsoli bo'lib ko'rinardi. Yovni qilich bilan urib yiqitganda, o'ziga chang solayotgan o'limni bartaraf qilganday yengil tortardi.

Boburning o'zi tig' bilan yovlarini urib, yiqitib kelayotganini eshitgan Muhammad Husayn dug'lat hovliga chiqishga ham jur'at etolmadi. Xotinlarning ko'rpa-to'shak yig'ib qo'yiladigan xonasiga kirib, bo'g'jamaaning ichiga yashirindi.

Mehr Nigor xonim – Boburning xolasi edi. Bultur Qutlug' Nigor xonim olamdan o'tgandan beri Bobur bu xolasini ona o'rnida hurmat qilib yurardi. Boburning odamlari ichkarilarni axtarib, Muhammad Husaynni topib chiqqanlaricha Bobur shu xolasi oldida farzanddek ta'zim qilib ko'rishdi.

Toshkentda xon bo'lgan marhum Mahmudxonning onasi Shohbegim ham shu qasrda ekan. Boburga o'gay bo'lsa ham, harqalay momo hisoblangan Shohbegim

to'satdan paydo bo'lib qolgan Bobur oldida sarosima bo'lib, duduqlanib biron so'z ayta olmadi. Bobur uning ham hurmatini joyiga qo'yib, ta'zim-u tavoze bilan so'rashdi.

Ichkaridan ikki yigit qo'ltig'idan mahkam ushlab olib chiqqan Muhammad Husayn esa:

– Menda ne ayb?! – deb peshgirlik qildi.

– Sizda ayb bo'lmasa nechun mendan qochib to'shakxonaga bekindingiz? – so'radi Bobur.

– Qilich yalong'ochlab kirganlardan qo'rqdim, rost!

– Ammo mening o'rnimga Mirzoxonni podshoh ko'targanda Xudodan qo'rqmadingizmi? Bir podshohga qarshi fitna uyushtirib, boshqa podshohni taxtga chiqarish – davlat to'ntarishi ekanini bilmasmisiz? Bunday xiyonatlar uchun eng og'ir jazolar berilishi, tanasi pora-pora qilinib, ming qiynoqlar ichida qatl etilishi sizga ma'lum emasmidi?!

– Meni... mo'g'ul beklari yo'ldan urdilar!.. Kechiring, amirzodam, kechiring – deb Muhammad Husayn ho'ngrab, yig'lay boshladi va Boburning oyog'i ostiga o'zini tashladi.

Soqoliga oq tushgan bu odamning O'ratepadagi uyida Bobur ko'p marta mehmon bo'lgan, uning o'g'illari bilan birga o'sgan edi. Ayniqsa, Muhammad Husaynning kichik o'g'li Haydar Mirzo Boburga juda mehribon, zehni o'tkir, yetti-sakkiz yoshdayoq kitob o'qib, she'r aytadigan zakovatli bola edi<sup>1</sup>.

Mehr Nigor xonim ham, Shohbegim ham Muhammad Husaynning shu bolalarini o'rtaga solib, Boburdan shafolat so'radilar. Bobur Muhammad Husaynga nafrat bilan ko'z tashlab dedi:

– Mana shu onalar-u begunoh bolalar hurmati... Men sizning qoningizdan kechdim... Ammo endi

---

<sup>1</sup> Kelajakda Muhammad Haydar Mirzo Bobur tarbiyasini olib, ulkan adib bo'lib yetishadi va mashhur «Tarixi Rashidiy» kitobini yaratadi.

siz bilan oramiz uzildi... Ko'chingizni olib, mening qalamrovimdan chiqib keting! Tamom!

Bobur bu yerdan o'tlanib chiqqanda, fitnachi qo'shinlar Kobul qo'rg'onining atroflarini tark etib, tog'larga qarab chekinmoqda edi. Qamal paytida qo'rg'onni ajdahoday o'rab yotgan minglab mo'g'ul askarlari endi o'z sardorlaridan ajralib, boshi kesilgan ilondek talvasa ichida go'yo dumalab ketmoqda edi.

Mirzoxonning ketidan yuborilgan quvg'inchilar uni Qarg'a Buloq degan joydan tutib olib, arkda devonxonada o'tirgan Boburning oldiga olib kirdilar. Yengil kiyingan Mirzoxon sovuqda diydirab, ko'karib ketgan. Boburga egilib ta'zim qilayotganda, yerga gursillab yiqilib tushdi. Yigitlar uni o'rnidan turg'izdilar. Yig'lab iltijo qildi:

– Meni afv eting, hazratim! Siz mening yagona podshohimsiz!

– Ammo o'zingizni ham podshoh deb e'lon qilibdilar-ku!

– Meni aldadilar! «Temuriylardan Kobulda faqat Siz qolgansiz, – dedilar. – Bobur mirzo qaytib kelguncha elga bosh bo'lib turing», deb ko'ndirdilar! Mana, Xudoga shukr, eson-omon qaytib kelibsiz!

– Bizga peshvoz chiqib kutib olish o'rniga, nechun toqqa qarab qochdingiz?

– Xom sut emgan banda, vahimaga berilibmen! Ammo men mo'g'ul bek-u navkarlaridan himoya istab qochganim yo'q. Sizing huzuringizga jang tugagandan so'ng qaytmoqchi edim. Bobur uchun ham Mirzoxonning mo'g'ul beklari tomonga qochib ketmagani yaxshilik alomati edi. Agar Mirzoxon ular tomonga o'tib ketganda, ikki oradagi urush uzoq davom etishi, yana ko'p behuda qonlar to'kilishi mumkin edi.

– Men sizning qahramonligingizga tan berib, tiz cho'kurmen, hazratim! – deb Mirzoxon yana yukundi.



– Sizda Sohibqiron bobokalonimizning qilichi borligini bilurmen! Bu qilichga «Kuch–adolatdadir» degan muqaddas yozuv bitilganini o‘zingiz menga aytgan edingiz. Bugun siz ana shu qilich bilan bahodirona jang qilib, g‘alabaga erishdingiz. Chindan ham, kuch – adolatda ekaniga men endi astoydil imon keltirdim! Buyuring, toki umrim boricha sizga xizmat qilay!

Bobur Mirzoxonga o‘ng tomonidan joy ko‘rsatdi.

– Sharbat keltirilsin! – deb buyurdi.

Savdarboshi oltin kosada keltirgan sharbatdan Bobur avval o‘zi ichdi-yu, keyin Mirzoxonga berdi.

– Hozir Kobulda Temuriylardan faqat ikkimiz qoldik, – dedi Bobur. – Bu mo‘g‘ullar azaldan Temuriylar bilan olishib kelurlar. Qunduzda Shayboniyxonning qo‘shini turibdir. Ora yaqin. Kobulda xonning josuslari yolg‘on ovozarlar tarqatib, meni ataylab «o‘ldiga» chiqargan bo‘lsalar kerak.

– Bu rost! Qunduz hokimi Qambarbiy Kobuldagi mo‘g‘ul beklari bilan til biriktirganini men ham sezdim.

– Kimlar o‘sha til biriktirgan beklar?

Mirzoxon bir necha mo‘g‘ul beklarining nomlarini aytdi.

– Ana shularni siz bizga tutib berishingiz kerak! – dedi Bobur. – Bo‘lmasa bular yana paytini topib, siz bilan meni Shayboniyxonga sotgaylar!

– Kemaga tushganning joni bir, hazratim! Men to o‘lgunimcha Temuriylar kemasida sobit turgaymen! Agar o‘limga buyursangiz ham so‘z qaytarmay borurmen!

Mirzoxon devqomat yovqur yigit edi, uning tomirida ona tomondan bobokaloni Iskandar Zulqarnayn qoni ham borligiga Boburning ishongisi kelardi.

– Sizni o‘limga buyurmoqchi emasmen. Mirzoxon, balki hamkorlikka chorlamoqchimen!..

– Jon-u tanim, butun borlig‘im bilan hamkoringiz bo‘lurmen, hazratim!

Mirzoxon shu soʻzining ustidan chiqib, Bobur buyurgan barcha ishlarni sidqidil bilan ado etadigan boʻldi.

Muhammad Husayn dugʻlat esa koʻch-koʻronini tuya va otlarga ortib, joʻnab ketdi va Murgʻob boʻylarida Shayboniyxonga borib qoʻshildi. Ammo oʻrgangan koʻngil oʻrtansa qoʻymas, deganlaridek, oʻsha yerda ham fisq-u fasod ishlarga bosh qoʻshgani uchun Shayboniyxon tomonidan oʻldirildi.

Oʻsha qish Bobur koʻrsatgan mardlik va dovyuraklikning mukofoti shu boʻldiki, Qosimbek Hirot chorbogʻida uchragan goʻzal qizni izlab topdi. Bobur Kobulda katta toʻy qilib, Mohim bonu ismli bu olov qizga uylandi va oradan bir yil oʻtar-oʻtmas undan ajoyib oʻgʻil koʻrdi. Baxtli istiqbol orzusi bilan bu toʻngʻich oʻgʻilni Humoyun deb atadilar.

## HIROT, MARV

### PAYMONASI TO'LGANLAR

#### 1

Hirot atroflarida qish osoyishta o'tdi-yu, ayji bahor kunlarida Shayboniyxon ellik ming qo'shin bilan Murg'ob daryosidan o'tib, Xurosonga bostirib kirdi. Badiuzzamon mirzo bilan Muzaffar mirzo Hirotning shimolida Qorarabot va Tarnob degan joylarda ikki bo'lak qo'shin, ikki alohida sarkarda bilan lanj bir ahvolda o'tirgan edilar.

Shayboniyxonning Ubaydulla Sulton va Temur Sulton boshliq otliq askarlari bu ikki qo'shinning orasiga tig'day yorib kirdi-yu, kuchli bir zarba bilan ikki podshohni ikki tomonga uloqtirib tashladi. Mirzolar ko'pchilik bek va navkarlari bilan tumtaraqay bo'lib qochdilar. Faqat Zunnunbek arg'un o'zining Hizabrulla bo'lishiga va Shayboniyxonning qilichini sindirishiga hali ham ishongani uchun bir necha yuz navkarini xon qo'shini qarshisiga boshlab chiqib, oxirgi nafasi qolguncha olishdi. Ubaydulla Sultonning otliqlari hayal o'tmay uni egardan urib tushirdilar, boshini kesib nayzaga sanchdilar-u Shayboniyxon mingan otning oyog'i tagiga eltib tashladilar.

Jang maydonidan halloslab qochgan Badiuzzamon mirzo Hirotga hammadan oldin yetib keldi, ammo shahar ichiga kirmadi. Bog'i Jahonoroda bir necha soat to'xtab, otlariga dam berdi-yu, oltin-kumush va javohirlaridan ko'targanicha oldi. Uning xotin-bolalari shahar ichida - arkda edi. Orqadan quvib kelayotgan yov tahlikasidan qo'rqqan Badiuzzamon mirzo shahar dorug'asini chaqirib, qal'a darvozalarini bekitib

olishni buyurdi. «Qamalda qolishdan qo'rqmanglar, biz Qandahor tomondan qo'shin to'plab kelib, sizlarni xalos qilurmiz», degan quruq va'da bilan xotinlari va bolalarini qo'rg'on ichida qoldirib, o'zi Janubga qarab shoshildi.

Hirotda kechasi yetib kelgan Muzaffar mirzo, hatto yengilish va qochishda ham akasi bilan musobaqalashgan kabi ish qildi. U ham shahar tashqarisidagi Bog'i Safidda bir necha soat to'xtab, nafasini rostlagach, eng kerakli narsalarini oldi-yu, yov yetib kelib qolishidan qo'rqib, arkka kirmadi, onasi va xotinlarini qal'a ichida qoldirib, darvozalarni bekitishni buyurdi, u ham «Qamalda qolsalaring o'zim kelib qutqaramen!» deganicha Astrobodga qarab qochdi.

Mirzolarini kutganidan ham oson yenggan Shayboniyxon shahardan o'n besh chaqirimcha Sharqdagi Qahdiston degan xushhavo o'tloqqa tushib, shohona chodirlarini tiktirdi.

Xadicha begim Hirotda bor a'yonlar va qo'riqchi askar sarkardalarni to'plab, qo'rg'on darvozalarini bekitishga urinib ko'rdi. Ammo ikki og'a-ini podshodan birontasi Hirotda mudofaasiga bosh bo'lmasdan qochib ketganligi hammaning ruhiga yomon ta'sir qilgan, qamal azobini hech kim zimmasiga olishni istamas edi. Xonning g'azabida qolmaslik uchun Hirotni unga jangsiz topshirishni ma'qul ko'ruvchilar ko'p edi. Axiri Hirotda shayxulislomi Taftazani bir necha nufuzli kishilarni yoniga olib, Hirotda shahrining kalitlarini qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan birga xonga eltib topshirdi.

Qahdistonning orombaxsh bahor havosida ulkan g'alabadan ta'bi ochilib yurgan Shayboniyxon endi jozibali bir ayol bilan qovushgisi kelar edi. U Hirotda eng ta'rifi ketgan go'zal juvoni – Muzaffar mirzoning yigirma yoshlik suyukli xotini Qorako'z begim deb eshitgan edi. Toshkentda va Andijonda

Qorako'z begim deb ot chiqargan qiz-juvonlar qanchalik chiroylik bo'lganini xon yaxshi bilar edi. Hirotlik Qorako'z begimning asl nomi boshqa bo'lsa ham qora ko'zli go'zallar orasida eng chiroylisi bo'lgani uchun el orasida shu ism bilan tanilgan edi. Shayboniyxon doimiy odatini qilib, bu juvonga g'oyibona oshiq bo'lgani haqida qisqa bir g'azal yozd-yu, shoir Muhammad Solihni oraga qo'yib, she'rini begimga yetkazdirdi. Muzaffar mirzo nomardlik qilib xotinlarini tashlab ketganidan qahri kelgan Qorako'z begim xonning g'azalini xush qabul qildi. Xadicha begim boshliq boshqa kelinlar Hirotning eng mustahkam istehkomi bo'lgan Ixtiyoriddin qal'asiga kirib bekinganlarida, Qorako'z begim ulardan ajralib qoldi va otasining shahar tashqarisidagi chorbog'iga ketdi. Keyin begimni hammomda yuvintirishib, kelinlarday yasantirishdi-yu, xon yuborgan shohona mahofaga solishib Qahdistonga olib ketishdi. Kechki payt Hirotning shayxulislomi va qozisi xon qarargohiga chaqirildi.

Bugun odatdagidan yoshroq ko'rinayotgan Shayboniyxon shariat peshvolarini mahfuri gilam to'shalgan borgohda qabul qildi. Xonning yonida turgan mullo Abdurahim Qorako'z begimni bugun imomi zamonga nikohlash haqida gap ochdi.

– Bugunmi? – deb shayxulislom qoziga sarosima bo'lib ko'z tashladi. Qozi bu qarashning ma'nosini tushundi.

Qorako'z begim Muzaffar mirzoning nikohida edi. Erining tashlab ketganiga besh kun ham bo'lgani yo'q. Holbuki, bir musulmonning nikohidagi xotinning iddasi bo'ladi, uch oy o'tmaguncha boshqa kishiga nikohlash mumkin emas. Shariat buni qat'iyman qilgan!

Shayxulislom xonning oyog'i tagidagi gilamni o'pib, shu to'g'rida gap boshlagan edi, xon uning so'zini kesdi:

– Shariatni bizga o‘rgatmang! Begimning hezalak eri bundan to‘rt oy oldin uch taloq qo‘ygan. Siz uch oy deysiz! Begim to‘rt oy boshi ochiq yurgan! Nahotki, siz, shariat peshvolari bundan bexabarsiz?!

Xonning qahridan qo‘rqib ketgan shayxulislom oppoq soqolini mahfuri<sup>1</sup> gilamga surkab, yana yer o‘pdi.

– Xabardormiz, hazratim!

– Xabardormiz! – dedi qozi ham gilamni o‘pib. Ular Muzaffar mirzoning bundan to‘rt oy burun achchiq ustida xotini uch taloq qo‘yganini bilar edilar. Biroq keyin mirzo xotini bilan yana yarashganda, shayxulislom bilan qozi begimni eriga qaytadan nikohlab bergan edilar. Lekin begimning avvalgi yosh eri tilga olinganidan rashki kelib, sabr kosasi to‘lib turgan xonga buni aytish – o‘limni bo‘yniga olish bilan barobar edi.

Shariat peshvolari endi bu to‘g‘rida «churq» etmasdan nikoh o‘qishga hozirlandilar...

\* \* \*

Sallasiga la‘l va gavhar bilan birga ukpar ham qadalgan Shayboniyxon kechasi begimning xobgohiga shahdam qadamlar bilan kirib ketdi. Xobgohning tashqi bo‘lmasida xonning haramiga qaraydigan keksa beka, ikki bichilgan habash qul va begimga ergashib kelgan ikki kaniz navbatchilik qilib qolishdi.

Bir vaqt xobgoh eshigi shaxt bilan ochildi-yu, yelvagay to‘n kiygan, boshidagi oq shabpo‘shi<sup>2</sup> bir yonga og‘ib ketgan Shayboniyxon chiqib keldi. Uning rang-quti o‘chgana, lablari pirqiraydi.

---

<sup>1</sup> Mahfuri – gullariga she‘riy baytlar qo‘shib to‘qilgan nodir ipak gilam.

<sup>2</sup> Shabpo‘sh – kechasi kiyib yotiladigan do‘ppisimon yengil bosh kiyimi.

– Behayo ekan! Buzilib ketgan ekan! Bezbet!

Haram bekasi begimning kanizlari bilan birga shosha-pisha ichkariga kirdilar. To‘shak chetida yuzini qo‘llari bilan bekitib olgan go‘zal juvon yelkalari silkinib, piq-piq yig‘lar edi. Ma‘lum bo‘lishicha, Qorako‘z begim Hirotning so‘nggi podsholari yaxshi ko‘radigan va oliy tabaqa ayollari «g‘alvira» deb ot qo‘ygan sho‘x bir qiliq qiladi. Bu bilan u ellik olti yoshlik xonni qoyil qilmoqchi, balki uning ilhomini oshirmoqchi bo‘ladi. Biroq ko‘p marta uylangan, qancha qiz-juvonlar bilan bir yostiqaqa bosh qo‘ygan xon umrida bunday qiliqlarni ko‘rmagan ekan. U avval sarosimaga tushadi, keyin Qorako‘z begimning avvalgi yosh erini eslaydi. Begim bunday qiliqlarni avvalgi eriga ham qilganlarini ko‘z oldiga keltiradi-yu, hafsalasi birdan pir bo‘ladi va so‘kinib o‘rnidan turib ketadi.

Begim bu sho‘xlikni xonga yoqish uchungina qilganini, Hirot asilzodalari orasida bu joiz ekanini kanizlar haram bekasiga tushuntirdilar. Begimga rahmi kelgan haram bekasi xonning oldiga chiqib, uni jahlidan tushirishga tirishdi:

– Hazratim, ayb faqat bu begimda emas! Ayb unga shu qiliqni o‘rgatganlarda! Hirotda behayolar ko‘p ekan.

– Bu shahar – dindan qaytgan rofiziylar<sup>1</sup> uyasi!– dedi xon ham endi g‘azabini boshqa tomonga yo‘naltirib. – Bu juvonning qaynonasi Xadicha begim – bezbetlarning eng kattasi! Eng avval o‘shani tutib jazosini berish kerak.

Shayboniyxon xobgohga qaytib kirmadi. Qorako‘z begimni tavfiq va hayo yo‘liga qaytarishni haram bekasi bilan habash qullarga topshirdi-yu, o‘zi borgohga joy soldirib yotdi. Ammo tong otguncha uxlay olmadi.

Ertalab azonda borgohdan hirgohga o‘tdi-yu, lash-karboshilardan Ubaydulla Sultonni, mulozimlardan

---

<sup>1</sup> Rofiziylar – islomning sunniy mazhabidan shia mazhabiga o‘tganlar va umuman, musulmonchilikdan chiqqanlar.

Muhammad Solihni, mavlono Binoiyini va Mansur baxshini chaqirtirdi. Eng avval jiyani Ubaydulla Sultonni so'roqqa tutdi:

– Ixtiyoriddin qal'asi olindimi, yo'qmi?

– Xon hazratlari, bugun-erta oling'usidir!

– Bitta buzuq xotin bekitib yotgan qal'ani shuncha lashkar bilan haligacha ololmaysan! Yo o'zim borib olaymi?

Xonga kechasi bir balo bo'lganini hamma sezdi. Yigirma yoshli devqomat Ubaydulla Sulton ulkan gavdasini egib, xonga ikki bukilib ta'zim qildi:

– Hazratim, qal'ani shu bugun olamiz. Hozir men o'zim borib, hamla qilamen!

– Hamla qilamen deb, lashkaring dehqonlarning ekinini toptab ketibdi. Biz Hirotga mehmon bo'lib kelganimiz yo'q. Dehqonning hosili o'zimizga kerak! Bog'larni ham ot bosmasin! Mevasini o'zing yeysan! Sen temuriyzodalarning urug'ini qurit! O'shalarga xizmat qilib quturgan shialarni bos!

– Barcha aytganlaringizni bajo keltiramiz, hazratim!

Ubaydulla Sulton ketishga chog'landi. Shunda Shayboniyxon:

– Agar qal'ani bugun oladigan bo'lsang, Mansur baxshini ham olib ket! – dedi. – Bu baxshi yana bo'ydoq yuribdi. Bunga xotin chidamaydi. Xadicha begim shunga o'xshagan zo'r bir er topolmay yurgan emish. Qal'ani olsang, o'sha xotinni Mansur baxshiga nikohlab berasan!

Semirib, avvalgidan battar yo'g'onlashib ketgan o'tovday katta Mansur baxshi:

– Aynalayin sizdan, xon hazratlari! – dedi. – Samarqandda nikohlab bergan Zuhra begimingiz o'lgandan beri so'qqaboshlik jonimga tegib yurgan edi!

– Lekin sen baxshi hadeb nafsingni o'ylay berma!

– dedi xon. – Hirotning eng katta boyliklari Xadicha begimning qo'lida. Menga axboroti kelgan, bu xotin



oltindan gul yasatgan emish, barglari zumraddan emish. Gulga qo'nib turgan bulbulning og'zida gavhari bor emish.

- Xon hazratlari, bunisini men sizga toptirib beraman! - dedi Mansur baxshi. - Xazinasi ham sizniki! Menga o'zi bo'lsa bas!

Bu sho'x gaplardan keyin Shayboniyxonning chehrasi sal ochildi-yu, Ubaydulla Sulton bilan Mansur baxshiga ketish uchun ruxsat berdi. Muhammad Solih bilan mavlono Binoiy xon qarshisida hamon qo'l qovushtirib, oyoq ustida sukut saqlab turishardi. Qizil kimxob ko'rpacha ustida chordana qurib o'tirgan xon Muhammad Solihga qarab:

- Sen, shoir, nuqul Hirotni maqtar eding, - dedi. - Hiroting hayosini yo'qotgan betavfiqlarning uyasi ekan-ku!

Muhammad Solih xonning boshiga kechasi qanday hangoma tushganini allaqachon payqagan edi. Shayboniyxon hozir keksalik zaifligiga chora topolmay alami kelayotgani ham sezilib turardi.

Muhammad Solih uning yarasiga tuz sepmaslik uchun gapni boshqa yoqqa burdi:

- Hazratim! Hirotning axloqini Temuriylar buzgan. Siz Temuriylarni jangda jismonan yengdingiz, endi ularni ma'nan yengmoqdasiz! Imomi zamonamizning axloqiy pokliklari hirotliklarga ibrat bo'lmog'i kerak.

- Gapga chechansen! Lekin Hirotning axloqini shoirlar ham buzganini nega aytmaysen! Temuriylarni maqtab, behayo she'rlar yozib, lagan-lagan oltin olgan shoirlaring bo'lmag'anmi?

- Bo'lgan, xon hazratlari. Mana mavlono Binoiy hirotidan ana o'shanaqa shoirlar ketkizib yuborgan! Shayboniyxon mavlono Binoiyga yuzlandi:

- Shundaymi?

- Shundoq, hazratim! - dedi Binoiy ta'zim bilan.

– Unday bo'lsa mavlono Binoiy adolat qilichini beliga taqib, yomon shoirlardan qasdini olsin! – dedi xon. – Bizning g'olib navkarlarimizdan ellik-oltmishtasini mavlononing ixtiyoriga bering. Temuriylarning oltinidan quturib yurgan shoirlarning mol-u mulki musodara qilinsin! Barcha oltinlarini tortib olib, xazinaga topshiring! Keyin bu shoirlarning ko'zi ochilib, tavfiq-u hayo yo'liga qaytishi oson bo'ladi!

Mavlono Binoiy bezovtalanib, Muhammad Solihga qaradi. U bir vaqtlar o'ziga alam o'tkazgan ba'zi Hirot shoirlarini har qancha yomon ko'rsa ham, lekin yoniga askar olib, birovlarining uyini tintishni, mol-u mulkini musodara qilishni o'ziga munosib ko'rmas edi. Biroq buni xonga ro'yi-rost aytish ham mumkin emas edi.

– Hazratim, shunday ulug' vazifani faqirga ishonib topshirmoq niyatingizdan sarafrozmen!.. Faqat bir andisham bor.

– Xo'sh?

– Hazratim, men umrimda qilich chopmagan keksa odammen. Yoshim ellikdan oshgan. Bu farmoni oliyni jangovar bek shoir Muhammad Solih janoblari faqirdan yuz hissa yaxshi bajarurlar! Faqir bu janobga kuchim yetganicha yordam beray!

Muhammad Solih bu ishni o'ziga yo'latgisi kelmadi.

– Mavlono, men Hirot shoirlarini sizchalik yaxshi bilmaymen!

Buyrug'i sansalor bo'layotganini sezgan Shayboniyxon, ko'zlari tahdidli yaltirab, Binoiyga tikildi.

– Ot in'om qildik – mindingiz. To'n in'om qildik – kiydingiz. Ulufa berdik – yo'q demadingiz. Endi ish buyursak, yo'q deysizmi?!

Boshqa e'tirozga o'rin qolmadi. Olti yildan beri xon xizmatida yurgan Binoiy uning hozirgi buyrug'ini bajarishga majbur edi...

\* \* \*

Shayboniyxonning o'ng qo'l vaziri – oltmish besh yoshlik mulla Abdurahim Hirot allomalaridan oltin undirishning boshqa bir yo'lini o'ylab topdi. Hirot atroflaridan g'oliblarning qo'liga tushgan o'ljalar orasida suruv-suruv qo'ylar ham bor edi. Mulla Abdurahim shu qo'ylardan oltmishtasini Hirotning Qipchoq darvozasi tashqarisidagi bozorga haydab tushishni xizmatkorlariga buyurdi. So'ng shaharga bir to'p navkar yuborib, Temuriylar davrida mashhur bo'lgan Xondamirni, Boburga yaqinligi bilan tanilgan mavlono Fazliddinni, Husayn Boyqaroga atab she'rlar yozgan «ko'ksa» laqablik shoir Sulton Muhammadni, yana shularga o'xshash besh-olti kishini qo'y bozoriga majburan olib keltirdi. Keyin mulla Abdurahimning o'zi ham bir to'p mulozimlari bilan bozorga o'ynoqi bir arg'umoqni minib kirib keldi. Mulozimlardan biri piyoda qo'l qovushtirib turgan Xondamirga va uning hamrohlariga shunday dedi:

– Sudurlar sadri Nizomiddin Abdurahim hazratlari o'zlarining bu qo'ylarini faqat sizlarga sotmoqchilar!

Xondamir sheriklariga: «Shu bilan qutulsak koshki!» deganday qilib qaradi-yu, keyin sudurlar sadriga ta'zim qildi:

– Bajonidil olurmiz. Narxini aytsinlar.

Mulozim ovozigaga tantanali tus berib dedi:

– Bu qo'ylar – sudurlar sadrining nafasi tekkan tabarruk qo'ylardir. Sizlar Temuriylar xizmatida haromxo'rlikka o'rganib, buzilib ketgan odamsizlar. Bu qo'ylarni so'iyib, yeb halqumlargini poklashlaring kerak. Shuning uchun qo'ylardan har birining narxi olti yuz dinor!

Olti yuz dinorga bitta emas, yetti-sakkizta qo'y olish mumkin edi. Biroq qo'ylarni sudurlar sadri

aytgan narxda olmaslik – uning g‘azabiga uchrash va shafqatsiz jazoga giriftor bo‘lish demak edi.

Puldan qiynalibroq yurgan mavlono Fazliddin bezovtalanib so‘radi:

– Janoblar, yaqinda moli omon ham to‘lagan edik-ku!

Shoir Muhammad Sulton istehzoli kulimsiradi:

– Mavlono, bu noyob qo‘ylarga hazratimizning muborak nazarlari tushgan ekan. Shuning uchun endi bu moli omon emas, balki moli imondir!

Mulla Abdurahim istehzoni payqab, qahri keldi va navkarlariga buyurdi:

– Bularning har biriga qo‘ylardan o‘nta-o‘nta qo‘shaloqlab beringlar! Bularni Temuriylarning oltini quturtirgan! Hammasining dimog‘i juda baland! Bularni osmondan yerga tushirib qo‘yish kerak. Qo‘ylarni uylarigacha o‘zlari haydab ketsin! Hech kim haydashmasin! Uylarigacha kuzatib borib, pulini undirib kelinglar. Qaysi biri buyruqni bajarmasa, mol-u mulkini musodara qilib, o‘zini zindonga tashlanglar!

Navkarlar buyruqni bajarishga kirishdilar.

Hirotda ko‘pchilik taniydigan shoir, olim va me‘mor issiq kunda halpillab, sertuproq, serchang ko‘chalardan qo‘y haydab ketdilar. Keyin bu «tabarruk» qo‘ylarning pulini qarz havola qilib bo‘lsa ham, to‘lab qutuldilar.

## 2

Ubaydulla Sultonning bir yarim ming navkari o‘n kundan beri Ixtiyoriddin qal‘asining atrofida g‘ivirlar, ammo o‘q ham, shoti ham yetmaydigan balandlikdagi qal‘ani olishning hech ilojini topolmas edi. Temir darvozalarga to‘pdan o‘q otib ko‘rishdi, bo‘lmadi. Keyin yer tagidan g‘or qazishga tushishdi.

Shuni hisobga olmaganda, Hirot hozir bir qadar tinchib bormoqda edi. Musodara qilinadigan xazinalar bo'shab qolgan, talanadigan mol-u mulklar talanib bo'lgan edi. Shayboniyxon Qahdistondan Bog'ı Jahonoroga ko'chib kelib, Hirotning mashhur san'atkorlarini o'z huzuriga chaqirtirdi. San'at ishlarini boshqarayotgan Muhammad Solih vositachi bo'lib, Behzodni xon bilan bir-ikki marta uchrashtirdi. Xonning maslahatgo'yi mulla Abdurahim rasm chizishni shialar va rofiziylarning ishi deb yomon ko'rsa ham Shayboniyxon Behzodning rasmlari Husayn Boyqaroni qanchalik mashhur qilganini bilarsen, endi bu musavvirning iste'dodidan o'z shuhrati uchun foydalanishni istarsen edi. Behzodga Shayboniyxonning rasmini chizish topshirildi.

Musavvirning iltimosi bilan xonni qip-qizil kimxob ko'rpa ustiga o'tqazdilar, uning orqasiga qora baxmal bolish qo'ydilar, beliga ingichka oltin kamar bog'latdilar, oldiga oltin muqovalı kichik daftar, qalam va siyohdon qo'ydilar. O'ttiz yildan beri rassomlik qilib yurib, ko'pgina podshohlarni ko'rgan va ular bilan muomala qilishni yaxshi biladigan Behzod Shayboniyxonga ham faqat maqtov yoqishini allaqachon payqagan edi:

- Hazratimni arg'umoq ot ustida qilich yalang'ochlagan paytlarida tasvirlashim mumkin. Biroq hozir sizning eng zo'r lashkarboshi ekanligingiz hammaga ayon. Ammo olam ahli sizning ko'p yil madrasalarda o'qigan fozil imomi zamon ekanligingizni ham suratda ko'rmog'ı kerak. Shu sababli faqir sizni muqaddas kitob-u oltin qalam bilan tasvir etmoqchimen!

- Ma'qul, - deb xon bunga rozilik berdi.

Surat tayyor bo'lgandan keyin Shayboniyxon, Muhammad Solih va boshqa bir necha mulozimlar Behzod ishlagan xonaga to'plandilar. Mulla Abdurahim rasmga, so'ng xonga qaradi-yu, hayron bo'lib:

– Hazratimning xuddi o‘zlari-ya! – dedi.

Suratda Shayboniyxonning ko‘pni ko‘rgan tajribali odam ekanligi ko‘zga aniq tashlanib turardi. Bo‘yoqlar Behzodga xos ulug‘ bir mahorat bilan xillangan edi. Oddiy odam rasmdan hech bir kamchilik topolmas, Behzod xonni izzat-ikrom bilan tasvirlabdi, deb o‘ylar edi. Lekin Muhammad Solih xonning tagidagi ko‘rpaning rangi qip-qizil qon rangida ekanini sezdi. Xon ko‘rpa ustida emas, go‘yo qon daryosi ustida o‘tirganga o‘xshardi. Xonning beliga bog‘langan ingichka oltin kamarning uchi chalmashgan oyoqlar tagidan xuddi qoramtir boshli sariq ilonga o‘xshab buralib turar edi. Xon suyangan qora bolish ham qora kuchlarning timsoliga o‘xshardi.

Shayboniyxonning barcha ishlaridan xabardor Behzod bu yashirin ramziy bo‘yoqlar bilan nimalar demoqchi bo‘lganini Muhammad Solih payqadi-yu, qo‘rqib ketdi. Agar u sezgan ma‘noni xon sezib qolsa, Behzod ham omon qolmaydi, orada vositachi bo‘lgan Muhammad Solih ham! Shuning uchun u suratga xomush tikilib turgan Shayboniyxonning fikrini xatarli ramziy ma‘nodan uzoqroq olib ketishga intildi:

– Muhammad alayhissalom yashil rangni yaxshi ko‘rar ekanlar. Imomi zamon xon hazratlari ham yashil rangni suyishlarini musavvir durust payqabdir. Qarang, hazratimning ko‘ylaklari yashil rangda. Suyangan devorlari ham yashil.

– Bunisi ma‘qul, – deb xon endi og‘zini ochdi. – Lekin... biz mavlono Behzodning boshqa suratlarini ham ko‘rgan edik...

Shayboniyxon Behzod tasviridagi shertaxlit Husayn Boyqaroni esladi. Husayn Boyqaroning safarga chiqqan paytini tasvir etgan boshqa bir rasmda go‘yo bulutlar ham, osmon ham, hatto tog‘- u toshlar ham podshoning ketidan ergashib, u ketayotgan tomonga intilib borayotganday ko‘rsatilgan edi. Temuriylarni

bunchalik ulugʻlagan Behzod Shayboniyxonni joʻn bir odam qilib tasvirlaganga oʻxshardi. Xon suratni koʻrganda koʻnglida qoʻzgʻalgan murakkab tuygʻularni aytishga munosib soʻz topolmadi-yu, Behzodga qarab:

– Moʻyqalamni menga bering! – dedi.

Xonning avzoyi yomonligini hamma sezdi. Behzod maxsus qalamdonda turli boʻyoqlar bilan birga turgan moʻyqalamlarni xonga taʼzim bilan tutdi. Shayboniyxon qoramtir qoʻngʻir boʻyoqqa botirib qoʻyilgan moʻyqalamni oldi. U Buxoroda madrasada oʻqib yurgan paytlarida surat chizishni ham ancha mashq qilgan, moʻyqalam tutishni sal-pal bilar edi. Behzod chizgan suratda Shayboniyxonning soqol-moʻylovi haddan tashqari qisqa va siyrak koʻrsatilgan, xonning nazarida, tasvir shuning uchun joʻnlashib ketganga oʻxshardi.

– Soqolni durustroq chizmoq kerak! – deb Shayboniyxon oʻzining suratida – quloq yaqinida juda siyrak koʻrsatilgan soqolni biroz qalinlashtirmoqchi boʻldi. Ammo moʻyqalamda boʻyoq koʻproq ekan, quloq oldidagi soqol birdan kigizday qalinlashib ketdi. Behzod sogʻ tishi sugʻurib olinayotgan odamday:

– Ih! – dedi.

Ammo Muhammad Solih Behzodning bilagini maʼnodor qilib qisdi-yu:

– O! O! Hazratim moʻyqalam tekkizishlari bilan suratga yana fayz kirdi! – dedi.

U Behzodni falokatdan faqat xonni maqtab qutqarish mumkin ekanligini sezib, shunday demoqda edi, buni Behzodga ham sezdirgisi kelib:

– Mavlono, tarixiy bir hodisa yuz berdi! – dedi. – Siz chizgan suratga imomi zamon, Iskandari soniy oʻz muborak qoʻllarini tekkizdilar! Buni odamlar asrlar davomida bir-birlariga aytib yurgaylar!

Behzod xonning qilgan ishini – sanʼatkorga ahmoqona xoʻjayinlik qilishning namunasi deb bilmoqda edi. «Shu maʼnoda chindan ham buni

tarix unutmaz, odamlar bir-birlariga kulib aytib yururlar», degan fikr Behzodning xayoliga endi keldi. Muhammad Solih rasmdagi ramziy ma'noni allaqachon payqaganini, endi xondan baloga qolmaslik uchun ataylab shu gaplarni aytayotganini Behzod tushundi-yu, ichki bir istehzo bilan xonga ta'zim qildi:

– Qulingiz chizgan suratga xalifayi zamonamizning nazarlari tushganidan boshim ko'kka etdi!

– Barakalla! – deb xon uni endi maqtadi.

Xonning qo'li bilan chaplangan soqol quloq yaqiniga yopishtirib qo'yilgan po'stak parchasiga o'xshar edi. Behzod ichida: «Battar bo'lsin!» dedi-yu, xon bu soqolni qanday xunuk chaplangan bo'lsa, shundayligicha qoldirdi.

### 3

Xadicha begim kirib bekingan Ixtiyoriddin qal'asi Ubaydulla Sultonni o'n etti kun o'zida qildi. Nihoyat, qal'a devorining otbozoriga tutashgan nochorroq bir joyini tagidan kavlab, naqb solib<sup>1</sup> buzib kirdilar. Qal'ani mudofaa qilib turgan ellik-oltmish yigit bitta qolmay qirib tashlandi. Qo'lga tushgan qiz-juvonlar g'olib qo'shinning bek va navkarlariga ulashildi.

Xadicha begimning o'zi haramning ichma-ich eshiklarini orqasidan tamlatib, eng to'rdagi bir xonaga kirdi-yu, yonida qolgan kanizlarga buyurdi:

– Tantanali marosimlarda kiyadigan kiyimlarimni keltiring!

Ubaydulla Sultonning navkarlari haramning ichida tamlangan eshiklarini buzib kirgunlaricha Xadicha begim katta gavhar qadalgan binafsharang toqisini boshiga kiyib, yasanib, oxirgi eshikdan o'zi chiqib keldi. Oltin aralash ipakdan to'qilgan qabosi ko'zni

---

<sup>1</sup> Naqb solish – tagi kavlangan devorni olov va borut (porox) bilan portlatib qulatish.



qamashtirar edi. Qaddini tik tutib kelayotgan barvasta ayol malikalarga xos ulug'vorlik bilan shoshilmay eshikdan chiqar ekan, qilich yalang'ochlagan, hansiragan navkarlarni uning salobati bosdi. Xadicha begim boshini mag'rur tutib, yaqin kelganda navkarlar beixtiyor o'zlarini chetga olib, unga yo'l berdilar. Begim ularning sarkardasini so'radi.

Navkarlar uni hovlida otliq turgan Ubaydulla Sultonning oldiga boshlab chiqdilar. Hamon kanizlar qurshovida kelayotgan begim yengil bir ta'zim bilan shoshilmay gap boshladi:

– Sulton janoblari, taqdir ekan, biz taslim bo'ldik. Endi men Shayboniyxon hazratlarining huzuriga yo'llashingizni iltimos qilamen!

Ubaydulla Sulton beklarining orasida turgan Mansur baxshi bilan ma'noli ko'z urishtirib oldi-yu, masxaraomuz kulimsiradi:

– Xon hazratlari begimga aytadigan gaplarini bizga tayinlab yubordilar.

– Unday bo'lsa qulog'imiz sizda, sulton janoblari!

Ubaydulla Sultonning beklari orasida oq sallalik bir eshon ham bor edi. Ubaydulla Sultonning ishorasi bilan Mansur baxshi va eshon otdan tushdilar. Mansur baxshi zar yoqalik to'n, qizil etik kiyib, kuyovlarday yasanib kelgan edi. Yigitlardan yetti-sakkiztasi uning atrofini kuyovnavkarlar kabi o'rab oldilar. Shundan keyin Ubaydulla Sulton Xadicha begimga yuzlandi:

– Imomi zamonning farmoni bilan siz bugun Mansurbekning nikohiga o'tursiz!

– Begimning o'zlari ham bilganday yasanib chiqibdilar! – deb kuldi mulozimlardan biri.

Xadicha begim qop-qora yo'g'on Mansur baxshining cho'tir yuziga qaradi-yu, dahshatga keldi:

– Men... men xon hazratlari bilan o'zim so'zlashamen!

– Xonning siz bilan so'zlashishga vaqtlari yo'q!

– Axir men ham podshoh oilasidanmen! Bu qanday xoʻrlik?!

– Siz rofiziylar oilasidansiz! Rofiziylarni jazolash – savob!

– Sulton janoblari, sizning ham mendek keksa onangiz bordirlar. Hech boʻlmasa onaligimni hurmat qiling!..

– Mening onam siz qilgan razilliklarni qilgan emas! Qaysi ona oʻz nevarasini oʻzi oʻldirtiribdi?! Siz nevarangiz Moʻmin mirzoning oʻlimiga sabab boʻlgan xunxoʻrlardansiz!

Xadicha begimning boyagi ulugʻvor va magʻrur qiyofasi endi birdan ayanchli tusga kirdi, qaddi bukchayib, qoʻllari osilib qoldi.

Ubaydulla Sulton navkarlariga buyurdi:

– Ichkariga olib kiringlar. Endi buning koʻzini Mansur baxshi ochsin!

Xadicha begimning boʻshashib, goʻyo toʻkilib ketayotgan gavdasini ikki kaniz ikki tomonidan suwab, ichkariga olib kirib ketdilar.

Nikoh oʻqilgach, Mansur baxshi kanizlarni haramdan chiqarib yubordi-yu, Xadicha begim bilan yakkama-yakka qoldi.

Tun sukunatida qandaydir mislsiz qiynoqlardan chinqirgan begimning faryodi haram atrofidagi uylarga ham eshilib turardi. Yarim kechada Mansur baxshi oyoqda zoʻrgʻa turgan Xadicha begimni oldiga solib, haramdan chiqdi. Ikkovi oydin qalʼaning bir chetiga qarab ketishdi.

– Oltin gul, – deb shivirladi Mansur baxshi. – Oltin bulbuli bor. Ogʻzida gavhari bor. Ana shuni topib bermasang, hozirgidan beshbattar qilamen. Top tezroq! Hozir jonidan boshqa narsa koʻziga koʻrinmayotgan Xadicha begim Mansur baxshini qoʻrgʻon chetidagi yashirin xazinaga boshlab keldi. Yer ostidagi bu xazinaga salqin suv saqlanadigan

sardobaning chetidagi maxfiy yoʻldan kirilar edi. Mansur baxshi qoʻlida yoqmasdan olib kelayotgan mashʼalani yer tagiga tushganda yoqdi.

Yer ostida besh-oltita temir sandiq qator turibdi. Xadicha begim madorsiz qoʻllar bilan ularga bir-bir kalit solib, ochib koʻrdi. Ikkitasida kumush tangalar, bittasida oltin tangalar. Bittasida qilich va xanjarlarning oltin dastalari. Yana bir sandiqda ayollarning qimmatbaho taqinchoqlari. Mansur baxshi koʻzlari yonib, bu boyliklarga bir-bir qoʻl urib koʻrdi-yu:

– Oltin gul qani? – dedi. – Barglari zumrad gul qayerda?

Yer ostini agʻdar-toʻntar qilib qidirsalar ham bu gul topilmadi. Xadicha begim:

– Voh! – dedi musibatli tovush bilan. – Eng ishongan odamlarim ham menga xiyonat qilmishlar. Gulni oʻgʻirlab ketmishlar! Soʻnggi najotimni ham oʻgʻirlatibmen! Oh!

– Sen oh-voh deb, Husayn Boyqaroni aldab oʻrgangansen. Lekin meni alday olmaysen. Top gulni! Qani, qayerga yashirgansen?

– Mana shu chetki sandiqda edi...

– Yolgʻon! Sen uni boshqa joyga yashirgansen! Koʻrsat oʻsha joyni!

Mansur baxshi Xadicha begimni zinapoyadan yuqoriga sardoba boʻyiga olib chiqdi.

– Meni alday olmaysen! Koʻrsat!

– Men sizni aldaganim yoʻq? Oʻzim aldandim! Mening paymonam toʻlgani rost ekan. Meni oʻgʻlim aldab ketdi! Muzaffar mirzoni deb men nimalar qilmagan edim! Oqibati shu boʻldi! Meni bu qiynoqlarga oʻgʻlim tashlab ketdi! Oʻgʻlim!!!

– Lekin sen oltin gulni oʻgʻlingga ham bermagansen! Uni oʻzing yashirgansen! Xon hazratlari menga aytdilar. «Gavhar donasini tishlab turgan bulbuli

bor», dedilar. Men bu gulni oltin bulbuli bilan xonga peshkash qilamen deb soʻz berganmen. Top hozir!

– Oʻgʻirlatgan boʻlsam qanday topay?!

– Topmaysenmi hali? Topmaysenmi?! Mana topmasang!

Devday zoʻr Mansur baxshining bir zarbi bilan Xadicha begim suvi muzday sardobaga shaloplab qulab tushdi. Mansur baxshi uni sochidan tortib chiqarib oldi-yu, haramga tomon sudrab ketdi.

Bu qiynoqlar uch kun davom etdi, ammo oltin gul topilmadi. Xadicha begimning joni qattiq ekan, tirik qoldi. Mansur baxshini esa kelajakda boʻladigan janglardan birida ajal kutmoqda edi...

#### 4

«Nahotki mening ham paymonam toʻlgan boʻlsa?»– degan qoʻrqinchli oʻy Shayboniyxonning xayoliga Murgʻob daryosining boʻyida toʻsatdan Shoh Ismoilning qoʻshinlari qurshoviga tushib qolgan paytda keldi.

Achchiq izgʻirin esib, qor uchqunlab turgan bu badqovoq kunda Shayboniyxon Murgʻob boʻyiga Shoh Ismoil Safaviyni taʻqib etib borib qolgan edi. Bundan bir necha soatgina oldin Shoh Ismoil bor qoʻshini bilan Marv qoʻrgʻonidan orqaga chekingan paytda Shayboniyxon oʻzining yana ulkan gʻalabaga erishishiga mutlaqo ishongan edi. Chunki Marv qoʻrgʻoni ichida koʻpdan beri kuch saqlab oʻtirgan Shayboniyxonning oʻn besh ming qoʻshini bor edi. Xonga kelgan aniq axborotlarga qaraganda, Shoh Ismoilning Marv qoʻrgʻonini qamal qilib, qish sovuqʻida izgʻib yurgan qoʻshini oʻn ikki mingdan oshmas edi. Sovqotib, orqaga betartib chekingan lashkarga ichkarida issiqqina joyda kuch toʻplab yotgan lashkar hamla qilsa – Shayboniyxonning gʻolib chiqishi muqarrardek tuyilardi.

So'nggi yillarda Shayboniyxonning eng zo'r istagi – Shoh Ismoil ustidan uzil-kesil g'alaba qilish edi. O'zini «xalifayi Rahmon» deb e'lon qilgan Shayboniyxon musulmon olamiga yagona diniy rahbar bo'lish niyatida edi. Eron va Ozarboyjonda shia mazhabini davlat dini qilib ko'targan Shoh Ismoil Safaviy esa o'zini «sohibi zamon» deb e'lon qilgan edi. Demak, u ham musulmon olamiga rahbar bo'lishga intilardi. «Bir qinga ikki qilich sig'magay, musulmon olamiga yo men rahbar bo'lishim kerak yoki Shoh Ismoil!» Shayboniyxon shu e'tiqod asosida Shoh Ismoil bilan bultur astoydil bellashmoqchi bo'ldi. Hirotdan ellik ming qo'shin bilan Eronning Kermon va Gurgon shaharlarigacha bostirib bordi. O'shanda Shoh Ismoil G'arbdagi turk sultoni Boyazid II bilan jang qilib yurgan edi. Gurgonda va ayniqsa, Kermonda shialar harakati juda avjiga chiqqan, Shayboniyxon bu shaharlardagi shialarning boshliqlarini ayovsiz qatl ettirdi, ularning masjid va ziyoratgohlarini buzdirdi, mol-mulklarini talattirdi. Bu hammasi shialar peshvosi Shoh Ismoilni darg'azab qilishi va darhol jangga otlantirishi kerak edi. O'sha paytda hal qiluvchi jang bo'lsa, Shayboniyxon g'olib chiqishi muqarrar, chunki Shoh Ismoilning yarim kuchi turk sultoni bilan urushda band edi. Buni shohning o'zi ham sezgan bo'lsa kerakki, hamma alamini ichiga yutib, Shayboniyxonga yaxshi muomala qildi, maxsus elchi yuborib, uni Movarounnahr va Xurosonning oliy hukmdori, deb tan oldi va oradagi adovatni urushsiz bartaraf qilishga istak bildirdi.

Shayboniyxonning o'g'li Temur Sulton, jiyani Ubaydulla Sultonlar shoh elchisiga iloji boricha yaxshi muomala qilishni, unga shirin gaplar aytib, shohga sovg'a-salomlar yuborib, uni Samarqanddagi Sulton Ali mirzo va Toshkentdagi Mahmudxon kabi g'aflatda qoldirishni, keyin, payti kelganda o'shalarga o'xshatib, yo'q qilib yuborishni istar edilar. Lekin

orada din-u mazhab nizosi ajdahoga o'xshab og'zini ochib turardi. Shayboniyxon Xurosonda turgan o'z qo'shinining shialar ta'sirida shu ajdahoning domiga tortilib ketishidan qo'rqar, «din-u imon yo'lida murosa yo'q, kimki shialarga qo'l bersa, dindan qaytib, rofiziyo bo'lg'ay», degan gapni ko'p takrorlardi. Endi agar Shayboniyxon o'g'li va jiyanining so'ziga kirib, Shoh Ismoilni tan olsa, unga yaxshi muomalada bo'lsa, shu bilan beixtiyor shia mazhabini tan olgan bo'lmaydimi? Odamlar: «Xonimizning o'zi ham rofiziylilik yo'lga kiryapti!» demaydimi? Yo'q! Shayboniyxon o'zining pok e'tiqodiga dog' tushirishni istamaydi! Uningcha, g'ayridindan ham rofiziylilik yomon. Chunki g'ayridin – hali musulmonchilikdan bexabar. Rofiziylar esa avval musulmon bo'lgan, keyin choryorlar nomiga xiyonat qilib, ulardan yuz o'girgan. Shayboniyxon bunday odamlarga shafqatsiz munosabatda bo'lishi kerak. Shu fikr asosida u shoh elchisini behurmat qilib qaytardi. Shohning maktubiga esa osmondan kelib javob yozdi. «Sen bir shayxning o'g'lisan, toj-u taxtni senga kim qo'yibdi, belingga kashkulingni bog'lab, qalandarligingni qilsang-chi!» degan ma'noda unga kashkul va hassa «sovg'a» qilib yubordi. Bu voqeadan keyin Shoh Ismoil turk sultoni bilan sulh tuzdi-yu, Shayboniyxonga qarshi jangga tayyorlana boshladi. Xonning Kermondagi shia masjidlarini buzdirgani ustiga endi Shoh Ismoilning elchisini behurmat qilib qaytargani qo'shilgach, Shayboniyxondan qasos olishni istovchilarning soni ko'payib ketdi.

Xuddi shu paytlarda Movarounnahrdan ham tashvishli xabarlar kela boshladi – ko'chmanchi sultonlar zulmiga chiday olmagan Toshkent, Farg'ona, Buxoro aholisi ularga qarshi isyon ko'taradilar. G'alayonlar Samarqandda ham, Hisorda ham bo'layotganini eshitgan Shayboniyxon Hirotidagi qo'shinlaridan o'ttiz mingini Movarounnahrdagi sultonlarga yordamga

yubordi. Bu g'alayonlarning sababini bilishiga yuborilgan maxsus kishilar Turkiston, Hisor va Buxoro sultonlarining o'zboshimchalik yo'lga o'tganlarini aniqlab keldilar. Shayboniyxon uch yildan beri Hirotida yashamoqda edi. Uning uzoqdaligidan foydalangan sultonlar o'zlarini xon, ko'lankalari maydon bilib ish olib bormoqda edilar. Xufiyalar ularning ig'vo gaplarini ham Shayboniyxonga yetkazib turar edilar. Xususan, Ubaydulla Sulton, Ko'chkinchixon va Hamza Sultonlar Shayboniyxonning Shoh Ismoil bilan qaltis siyosat olib borayotganidan norozi edilar: «Jangni biz qilamiz, g'alabani biz keltiramiz, xonimiz faqat yosh qizchalarni nikohiga olib, lazzatlanishni biladi, hech qaysimizning maslahatimizni olmaydi, shunday bo'lgach, biz ham bu yerda istaganimizcha davron suraylik-da». Sultonlarning bu gaplari Shayboniyxonning g'azabini avjiga chiqardi. U ichki nizolarni bir zarba bilan bartaraf qilmoqchi bo'ldi-yu, Ubaydulla Sultonni Buxoro hokimligidan, Ko'chkinchixonni Turkiston hokimligidan, Hamza Sultonni Hisor hokimligidan olib tashladi va ularning o'rinlariga boshqa itoatkor odamlarni qo'ydi. Albatta, bu keskin tadbir xon qo'shini orasida katta obro'ga ega bo'lgan Ubaydulla Sulton va Hamza Sultonlarning tarafdorlarini qattiq norozi qildi. Movarounnahrdagi g'alayonlar va xon saroyidagi ichki nizolardan xabar topgan Shoh Ismoil bu qulay fursatdan foydalanib qolishga intildi. Odatda, katta harbiy yurishlar bahor va yoz oylarida boshlanar, Shayboniyxon ham shohning hujumini «bo'lsa, qish o'tgandan keyin bo'lar», deb o'ylar edi. Ungacha Movarounnahrga jo'natilgan o'ttiz ming qo'shin Hirotga qaytib ulgurishi mumkin edi. Lekin Shoh Ismoil xon kutmagan kech kuz paytida Hirot ustiga qo'shin tortib kelayotgani ma'lum bo'ldi. Xurosonda Shayboniyxondan norozi odamlar juda ko'p, Shoh Ismoil yaqinlashsa, ular bosh ko'tarishi muqarrar.

Xonning asosiy kuchlari esa Amudaryodan narida. Shayboniyxon shoshilinch ravishda Murg'ob bo'yiga – Marv qo'rg'oniga chekinishga majbur bo'ldi. Xonning bunday seskanib chekinishini ko'pdan beri ko'rmagan a'yonlari qattiq sarosimaga tusha boshladilar. Shunda xon ularning o'pkasini bosadigan bitta vaj ko'rsatdi:

«O'sha g'addor rofiziylar yurtidan uzoqroq ketganimiz ma'qul. Shoh bizga ergashib Movarounnahrga yaqinroq borsin. O'zimizning pok mazhabli sunniylar yurtidan madad olurmiz. Ungacha o'ttiz ming lashkar yetib kelgay. Biz shohga Marvda qopqon qo'yib, tumshug'idan ilintirgaymiz!»

Xonning bu rejasini barcha mulozimlari va a'yonlari darhol: «Dono tadbir!» deb maqtadilar. Biroq ular Marv qal'asida bekinib o'tirgan paytlarida Shoh Ismoil qo'rg'onni qamal qilib, Shayboniyxon nomiga kinoyali maktublar yo'lladi. «Xon yuborgan hassaga suyanib, kashkulni belimizga bog'lab keldik, qani endi xonda yurak bo'lsa qo'rg'ondan chiqsin, shayxning o'g'li bilan bellashsin!» degan zaharxanda gaplar Shayboniyxonning izzat-nafsigaga qanchalik qattiq tegmasin, u tishini tishiga qo'yib, haftalar davomida qo'rg'onda o'tirdi. U tajribali lashkarboshi sifatida shuni yaxshi bilar ediki, yigirma to'rt yoshli Shoh Ismoil qanchalik urinmasin, ertami-kechmi qish sovuqlari va izg'irinlari uni iliq joy izlashga majbur qiladi. Ochiq havoda diydinab yurgan askarlar qo'li qovushga kelmay qunishib chekinishga tushsa, ana o'shanda Shayboniyxon issiq qo'rg'onda kuch to'plab yotgan o'z askarlarini boshlab chiqadi. Ungacha albatta Movarounnahrdagi lashkar ham kelib qoladi. Ikki tomondan berilgan zarba Shoh Ismoilni tamom qilishi aniq. Ana undan keyin Eron ham Shayboniyxonniki bo'ladi, naryog'i Bag'dodga va Makka-yu Madinaga yo'l ochiladi... Shayboniyxon chindan ham butun



musulmon olamiga xalifayi Rahmon va Iskandari soniy bo'ladi!..

Xonning bu shirin o'ylarini faqat bir narsa taxir qilmoqda edi. Chopar ketidan chopar borib, Movarounnahrdaqi qo'shinni tezroq Marvga yetib kelishga undayotgan bo'lsa ham o'ttiz ming lashkar hamon Amudaryodan narida imillab yurar edi. Xon bu imillashning sababini bilardi. Qo'shinda hali ham Ubaydulla Sulton va Hamza Sultonlarning ta'siri zo'r. Ular hokimlikdan tushirilganliklari uchun xondan juda xafa. «Mana endi onhazratimiz bizsiz jang qilib ko'rsinlar!» degandek arazlab yurishibdi. «Lekin men bo'lmasam hammang kuchukbachchaday xor bo'lib o'lasan-ku!» – ichida sultonlarini so'kardi Shayboniyxon.

– Hozir butun davlatimiz, butun sulolamiz xavf ostida-ya, nahotki shuni fahmlamasanglar?

Hayot-mamoting hal bo'ladigan paytda, yo shoh meni yo'q qiladigan, yoki men shohni nest-nobud qiladigan asnoda shunday arazlab yurishlaring itlik emasmi? Sen itlar hali ko'rasenlar, shu qamaldan eson-omon qutulsak, hammangni tavbangga tayantirgaymen!»

Nihoyat, izg'irinli sovuq kunlarning birida, Shoh Ismoil xonga yana bir maktub yo'llab, uning qo'rg'ondan chiqmaganini qo'rqqoqlik deb atadi, bahorda yana qaytib kelajagini bildirdi, so'ng Marvning janubi-g'arbiy tomonidagi Mahmudi degan qishloq tomonga chekina boshladi. Shayboniyxon o'n besh ming qo'shinni darhol otlantirdi. Uch yuztacha navkarni qal'ada qo'riqchilik qilish uchun qoldirdi-yu, qolganlarini qo'rg'on darvozalaridan tashqariga boshlab chiqdi. Uzoqda shoh askarlari chodir va o'tovlarini aravalarga ortib, betartib chekinib bormoqda.

Shayboniyxon baland bir joyga chiqib, Amudaryo tomonga uzoq tikilib qaradi. Qani endi o'sha o'ttiz ming qo'shini hozir yetib kelsa! Lekin o'sha yoqdan

otini eldirib kelgan chopar qo'shinning hali ham Amudaryodan narida yurganini aytdi.

Shoh Ismoil askarlari hamon chekinib bormoqda. Nahotki Shayboniyxon shunday qulay fursatni boy berishi kerak? Odamlar: «Xon qo'rqoqlik qilgan, bo'lmasa uning qo'shini shohnikidan ko'p, dadil hamla qilsa yengar edi», deyishmaydimi? Narigi sultonlar esa: «Ana, bizzsiz xon hech vaqt jang qilolmaydi!» deyishi ham turgan gap. Eh, agar shu gal xon g'alabani narigi Ubaydulla Sulton va Temur Sultonlarsiz qo'lga kiritisa edi, qolgan butun umri shon-shuhrat ichida o'tmasmidi?

Xon ikkilanib turganini ko'rgan mulla Abdurahim izg'irinda lablari ko'karib, iltimos qildi:

– Hazratim, biz sizning ulug' joningizni xavf-xatardan uzoqroq tutmog'imiz darkor.

Movarounnahrardan keladigan qo'shinni kutaylik.

Xon qahr bilan so'radi:

– Qani o'sha qo'shin! Qani?!

– Qish izg'irinida daryodan o'tmoq mushkul. Biroq Ubaydulla Sulton bilan Temur Sultonlar hademay kelib qolurlar.

– Shoh Ismoil Tabriziga yetganda kelurmi? Agar bu it sultonlar istasa, allaqachon yetib kelmasmidi? Bu sultonlarning jo'rttaga meni yolg'iz tashlab qo'ydi! «Hamma g'alabani biz qo'lga kiritamiz!» deb maqtanar emishlar, ablahlar! Men bo'lmasam g'alabani tushlarida ham ko'rishmas edi!

– Haq gapni aytdingiz, hazratim!

– Men mana bu shunqorlarim bilan erishganmen butun g'alabalarga! – Shayboniyxon shunday dedi-yu, jangga shay bo'lib turgan o'n to'rt mingdan ortiq qo'shinning saflari orasiga ot choptirib kirdi: – Shunqorlarim, yog'iyning safi buzilib chekinganini ko'rdilaring. Ular son jihatdan ham bizdan oz! O'zlari sovuqda diydirab, holdan ketgan. Men ishonamen,

Oллоh-u Taolo bizga yana bir ulkan g'alabani in'om etgusidir! Muhammad alayhissalomning arvohlari pok sunniy mazhabidagilarni qo'llab-quvvatlagusidir! Choryori bosafolar madadkoringiz bo'lsin, shunqorlarim. Dushman o'z safflarini qayta tuzib ulgurmasdan yetib boringlar! Xudo omadlaringni bersin! Omin, Oллоh-u akbar!

Minglab ovozlarning:

- Oллоh-u akbar!

- Oллоh-u akbar! - degan hayqirig'i barcha safflar bo'ylab taraldi.

Ko'pakbiy va Qambarbiylar oldinda, Shayboniyxon qo'shinning o'rtarog'ida qizilboshlar ketidan ot choptirib ketdilar.

Ilgari xonga aniq axborotlar berib turadigan maxsus odamlar bu gal Shoh Ismoilning yolg'ondakam chekinayotganini va harbiy nayrang ishlatmoqchi ekanini bilmay qolgan edilar. Shoh Ismoil Marvni qamal qilish uchun askarlarning ozroq bir qismini boshlab borgan edi. Uning yana yigirma ming kishilik saralangan askarlari Marvdan yigirma chaqirimcha naridagi qumtepalar ortiga pistirma qilib qo'yilgan edi.

Bunday harbiy nayrangni Shayboniyxonning o'zi o'n ikki yil muqaddam Buxoroning Qorako'l shahrida qo'zg'olon ko'targan isyonchilarga qarshi ishlatgan edi. U ham qo'shinning asosiy qismini Qorako'lning sharqidagi pana joylarga bekitib qo'yib, ozgina askari bilan hujumga borgan, qal'a ichidagi isyonchilar yovning ozligidan dadillanib, tashqariga chiqqan edilar. Shunda xonning qo'shini jo'rttaga tumtaraqay bo'lib qochgan, isyonchilar esa ularni «Yengdik» deb ketlaridan quvgan edi. Biroq qal'adan besh-olti chaqirim uzoqlashganlaridan keyin pistirmadagi xon askarlari yopirilib chiqqan va isyonchilarni qirib tashlagan edi. Keyin Shayboniyxon qal'a ichida qolganlarni ham qatl qilib, Qorako'lning otbozorida odam kallasidan ulkan minora yasatgan edi.

Hozir o'z kuchiga ortiq darajada ishonadigan Shayboniyxon bu hiylani boshqa lashkarboshilar unga nisbatan ham ishlatishlari mumkinligini xayoliga keltirmas edi. Shoh Ismoilning Marvga ko'rinish bergan o'n ming chog'lik qo'shini Mahmudi degan joyda Murg'ob daryosi ustiga qurilgan ko'prikdan shosha-pisha o'tib ketdi. Shoh Ismoil go'yo bu ko'prikni himoya qilib turish uchun uch yuztacha askar qoldirgan edi. Shayboniyxon ko'prikka yaqinlashgach, bu uch yuz qizilbosh xo'jako'rsinga tiraqaylab qochdi. Daryodan faqat shu ko'prik orqali o'tish mumkin edi – har ikki qirg'oq ham baland jar, kechuv yo'q, buning ustiga, qishki daryoning suvi juda sovuq, to'ng'ib qolish hech gap emas edi. Shayboniyxonning butun qo'shini ko'prikdan o'tib bo'lguncha Shoh Ismoilning pistirmada yotgan kuchlari o'zini sezdirmedi. Shayboniyxon uzoqda «qochib ketayotgan» Shoh Ismoil qo'shinining izidan tushib, ko'prikdan ancha uzoqlashgandan keyin pistirmada yotgan kuchlar birdan maydonga chiqdi. O'qlab qo'yilgan zambaraklar xon ustiga to'satdan o'q yog'dirdi. To'rt tarafni qizilboshlar tutib ketdi. Shayboniyxon o'zining Qorako'lda ishlatgan harbiy hiylasini endi esladi-yu, orqada qolgan ko'prikka qarab chekindi. Ammo yog'och ko'prik allaqachon buzib tashlangan edi. Chekinib borgan qo'shinning bir qismi jardan daryoga qulab tushdi. Daryoning o'zanini otlar va odamlarning o'ligi tutib ketdi. Xonning o'zi saralangan xosnavkarlari bilan mollar qishlaydigan atrofi yopiq bir qo'raga kirdi. Qo'rani qizilboshlarning olov halqasi o'rab oldi. Xonning xosnavkarlari qizilboshlar qurshovida o'lgan-qolganlariga qaramay jang qildilar. Qo'ra darvozasining oldilari, paxsa devorlarning taglari har ikki tomondan qirilganlarning jasadiga to'lib ketdi. Xon himoyada qattiq turganini ko'rgan Shoh Ismoil zambaraklarni qo'raning atrofiga o'rnattirib, devor osha o'q ottira boshladi. Zambarak gumburlashidan hurkkan, yarador bo'lib quturgan otlar bir-birlarini urib, yiqitib o'zlarini u yoqdan-bu yoqqa tashlay boshladilar.

Qo'ra ichida dahshatli tiqilinch, ur-sur boshlandi. Shayboniyxon qo'lida qilichi bilan odamlariga hayqirib, to'polonni bosmoqchi bo'layotganda, to'pning tosh o'qlaridan biri xon mingan otning boshiga kelib tegdi. Ot gandaraklab bir yoniga yiqildi-yu, egasini ham yerga otib urdi. Shayboniyxon oyog'ini uzangidan chiqarishga ulgurmasi – bir oyog'i otning tagida qoldi. Shu zahoti yana bir ot surinib yiqildi-da o'mrovi bilan xonning ko'krigidan bosib tushdi. Shayboniyxon qovurg'alari sinib, vujudi ezilib, nafas olmay qoldi-yu, hushidan ketdi. Jang tugagandan keyin xonni taniydigan qizilbosh beklardan biri uning jasadini qalashib yotgan ot va odam o'liklari orasidan arang qidirib topdi. Abdurahim Turkistoniy, Mansur baxshi ko'taruvchi va boshqa juda ko'p mulozimlar, navkarlar ham xonning nari-berisida o'lib yotar edilar.

G'oliblar Shayboniyxonning boshini kesib, nayzaga sanchdilar-u Shoh Ismoil minib turgan otning oyog'i tagiga eltib tashladilar. Keyin qizilboshlar Shayboniyxon qirgan shialar qasdiga uning kesik boshidan terisini shilib olib ichiga somon tiqdilar. G'arbda shialarni quvg'in qilayotgan va Shoh Ismoilga alam o'tkazgan sunniyparastlardan yana biri – turk sultoni Boyazid II edi. Shoh Ismoil Shayboniyxonning somon tiqilgan boshini turk sultoniga: «Men bilan qasdlashgan sunniylar qay ahvolga tushishini ko'rib qo'y!» degan ma'noda «sovg'a» qilib yubortirdi. Sunniy – shia dushmanligi shu darajaga yetgan ediki, qizilboshlar bunga ham qanoat qilmay, Shayboniyxonning bosh suyagiga oltin qoplatib, undan may ichadigan kosa yasaydilar<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Aql bovar qilishi qiyin bo'lgan bu tafsilotlar Shoh Ismoilning dushmanlari tomonidan yozib qoldirilsa, mubolag'a deb o'ylash mumkin edi. Lekin bu tafsilotlar Shoh Ismoilning xayrixohlari yozgan «Tarixi olam oroyi Abbosiy»da va Xon-damirning «Habib us-siyari»da ham keltirilgan.

## **QUNDUZ. SAMARQAND**

### **IKKI QILICH ORASIDA**

#### **1**

Zarrin popuklar bilan bezatilgan oq tuyaning ustida malikalar o'tiradigan baxmal soyabonli kajavada Xonzoda begim to'qqiz yashar o'g'ilchasi Xurramshoh bilan Balxdan tog' oshib, suv kechib Qunduzga bormoqda edi. Begimni besh-oltita kanizlari, xizmatkorlari va yuzga yaqin shoh navkarlari kuzatib kelmoqda edilar.

Shayboniyxondan shunchalik shafqatsiz o'ch olgan Shoh Ismoil xonning Marvda asir tushgan xotinlaridan biri – Bobur mirzoning egachisi ekanligini eshitib, unga alohida iltifot ko'rsatgani tasodifiy emas edi.

Marvdagi voqealarni Qunduzda turib eshitgan Bobur Shoh Ismoilga maxsus maktub yo'llab, uni Shayboniyxon ustidan erishgan katta g'alabasi bilan tabriklagan, so'ng xon haramidagi egachisi Xonzoda begimni beshikast Qunduzga jo'natib yuborishni iltimos qilgan edi. Boburni Shayboniyxon bilan dadil olishganligi uchun hurmat qiladigan Ismoil Safaviy endi uni o'ziga ittifoqdosh qilgisi keldi-yu, Xonzoda begimga qo'shib, eng ishongan kishilaridan biri – Muhammadjon eshik og'asini Bobur huzuriga elchi qilib jo'natdi. Xonzoda begim shohning yashirin niyatlarini bilmasa ham yana allaqanday xatarlar uni yosh o'g'ilchasi bilan birga o'z girdobiga tortmoqchi ekanini elas-elas sezar va noma'lum bir tahlikadan yuragi dam-badam uvushar edi.

Shohning elchisi va navkarlari butun yo'l davomida Xonzoda begimni ham, uning o'g'li va kanizlarini ham

o'z odamlari kabi astoydil avaylab va qo'riqlab kelmoqda edilar. Ularning ayollar bilan muomaladagi odoblarini, olijanob ehtiromlarini begim ko'p marta sezdi. Shoh Ismoilidan boshqa podshoh bo'lsa, Shayboniyxonday ashaddiy dushmanning norasida o'g'lini yo'q qilib yuborishi, xonning xotinini o'z haramining asirasiga aylantirishi yoki birorta bekiga nikohlab berishi mumkin edi. Shoh Ismoil shunday qilmagani, aksincha, Xonzoda begimni malikalarday izzat-ikrom qilib, yoniga mo'tabar elchilar-u o'nlab navkarlarini qo'shib, Boburning huzuriga yuborgani, bu jabrdiyda juvonning qalbida umrbod unutilmaydigan bir minnatdorchilik tuyg'usi uyg'otgan edi.

Xonzoda begimni butun yo'l bo'yi sergaklantirib borayotgan noma'lum xavf go'yo bahaybat tog'lar va o'rmonlarda yashirinib turganga o'xshardi. Qish endi chiqqan, tog'larda hali qor ko'p. Baland dovonlardan, tor-tangilardan o'tayotganlarida, Xonzoda begimning nazarida tog'dan ko'chki tushib, hammalarini bosib qoladiganday bo'lardi. Momaqaldiroqli yomg'irlar yoqqanda, daralarning sellari begimning yonidagi o'g'ilchasini oqizib ketadiganday vahmini keltirardi. Bir kecha Amudaryoning chap qirg'og'idagi o'rmonning chetida – Surbaytal degan joyda tunadilar. Xonzoda begim o'rmonda kiyik ovlab yurgan yo'lbarslarning haybatli bo'kirishlarini eshitib, tuni bilan uxlay olmay chiqdi.

Ilgari Shayboniyxonning ukasi – juda ko'p xatarli janglarda o'lmagan Mahmud Sulton mana shu Qunduzga kelganda allaqanday yomon bezgakka uchrab, bir necha kun ichida o'lib qolgan, keyin uni Qarshiga eltib ko'mishgan edi.

Qunduzga yaqinlashganlarida, G'o'ri daryosi Qunduz daryosi bilan qo'shilib, Amudaryoga qarab ketgan serqamish botqoqlik joyda nafas olish og'irlashib, birdan havoning rutubati kuchayib ketdi.

Xonzoda begim endi o'sha yomon bezgakni eslab, o'g'ilchasiga yana xavotirlanib qarab qo'ydi.

U ilgari «o'lging kelsa, Qunduzga bor», degan afg'oncha maqol eshitgan va buni hazil gap deb kulgan edi. Endi bu maqol unga chindek tuyila boshladi. U o'zidan ham ko'ra murg'ak bolasidan – xon haramida o'n yil arosatda yashab orttirgan mana shu yagona jigarporasidan xavotirlanardi. «Bordi-yu, Bobur mirzo Qunduzda bo'lmasalar, tog' oshib Andijonga o'tgan bo'lsalar yoki Kobulga qaytgan bo'lsalar, unda ne qilurmiz?» derdi Xonzoda begim o'zicha. Shu o'y ta'sirida Pomir va Hindikush tog'lari bilan qurshalgan, Amudaryo va uning asov irmoqlari bo'yiga joylashgan Qunduz vohasi Xonzoda begimning ko'ziga juda badvahima ko'rinardi. Kechki payt yo'l daryodan uzoqlashib, balandlikka ko'tarilib borayotganda, qarshilaridan bir to'p qurolli kishilar chiqib, ularni to'xtatishdi. So'rab-surishtirishlardan so'ng bular – Bobur tomonidan yo'llarga qo'yilgan qorovullar ekani ma'lum bo'ldi-yu, Xonzoda begim birdan yengil tortdi. Qorovullarning boshlig'i mehmonlarning oldiga tushib, ularni Qunduzning baland bir joyidagi qal'aga boshlab borar ekan, endi atrof Xonzoda begimga allanechuk boshqacha ko'rinib ketdi. Moviy tog'lardan esayotgan shabada yuzini yoqimli silab o'tdi. Amudaryo bo'yidagi o'rmonlar uzoqdan nechog'lik xushmanzara ko'rinishini u endi payqadi.

Qunduzning ilgorigi xonlari bahavo bir joyga qurdirgan mustahkam qal'a va uning ichidagi qasr ham Xonzoda begimga uzoqdan xiyla fayzli ko'rindi. Bu qasr ichida hozir u o'zining suyukli inisi bilan uchrashishini o'ylaganda shodligi ko'ksiga sig'may entikdi. Ularni kutib olgan mulozimlar Xonzoda begimni o'g'li va kanizlari bilan birga mehmonxonaning yaxshi bezatilgan alohida bir xonasiga kiritib



qo'ydilar-u Boburga xabar berish uchun qo'rg'onning to'riga qarab ketdilar.

Anchadan keyin Xonzoda begim o'tirgan xonaning eshigidan chiroyli soqol-mo'ylov qo'yg'an o'ttiz yoshlardagi yigit shoshilib kirib keldi. Begim uni Boburning mulozimlaridan deb o'yladi, sekin o'rnidan turib, salomiga alik oldi. Yigit unga tomon yurib kelar ekan, ovozi titrab:

- Begim, qadamingiz qutlug' bo'lsin! - dedi.

Bu - Bobur edi. Lekin Xonzoda begim ukasini soqol-mo'ylov qo'ymagan o'n to'qqiz yoshli silliqqina yigit qiyofasida eslab qolgan edi. Hozir uning qarshisida turgan keng yelkali, soqol-mo'ylovi tekis tarashlangan yigitning kiyimlari ham shohona emas edi: boshida bezaksiz oddiy simobi salla, egnida zira beqasam to'n. Begim yana uni Boburning beklaridan biri deb o'yladi-yu, hayajonlanib aytgan so'zlariga bosiq javob qildi:

- Qulluq!

Devoni xosda yozuv-chizuv ishlarini qilib o'tirgan Bobur opasining xabarini eshitib, xonaki kiyimda chopib kelgan edi. Xonzoda begim esa hali ham podshoh ukasining kirishini kutib, eshikka olazarak bo'lib qarar edi. Bobur opasiga angrayib qarab qoldi. Eshikdan Muhammad Ko'kaldosh degan mulozim kirganda, begim undan:

- Amirzodam qanilar? - deb so'radi.

Muhammad Ko'kaldosh hayron bo'lib, Boburga qaradi. Bobur gap nimadaligini endi tushundi-yu, tomog'iga bir narsa tiqilib, ovozi bo'g'ildi:

- Meni tanimadingizmi?

- Siz... Siz...

- Men Boburmen!

- Nahot?!

- Men sizning iningizmen! Gunohkor iningiz Bobur!

Xonzoda begim Boburning ko'zlarini, boburona ovozni endi tanidi-yu, o'zini inisining bag'riga otdi. Qo'llarini yuzi bilan birga Boburning ko'kragiga bosdi. Bobur opasining yelkalaridan quchdi, uning sog'inch va quvonch bilan aytgan so'zlarini qulog'i bilan emas, go'yo ko'ksi bilan eshitdi:

– Boburjon! Siz... Siz o'shanda mendan ranjigansiz!.. Bilamen... Boshingizga ta'na toshlari yog'ilgan... Men... aytolmagan edim. O'zim uchun emas, siz uchun...

– Men ham buni keyin bildim. Siz meni qutqarish uchun o'zingizni xonga tutib bermishsiz. Men sizdan umrbod qarzdormen!

– O'shal qarzingizni mana endi uzdingiz, Boburjon. Bu dafa meni siz qutqardingiz! Agar Shoh Ismoilga yozgan nomangiz bormasa, meni ham, xon harami bilan asir tushgan ayollar qatori, biron bek yoki mulozimga tutqun qilib berur edilar. Shoh Ismoil siz tufayli meni shunchalar izzat-ikrom bilan ozod qilib, kuzatib qo'ydi. Sizdek inim borligi uchun Xudoga ming shukrlar qildim!

Xonzoda begim yuzini Boburning ko'ksidan oldi-yu:

– Hazrat onamlar qaydalar? – dedi. – Bultur bir shumxabar eshitdim, rostmi?

– Besh yil burun... Xasbadan<sup>1</sup> jon berdilar. Kobulning Bog'i Navro'ziysig'a qo'ydik.

– E voh, ellikka ham to'lmay ketibdilar-a!..

– Menga ham shunisi behad alam qildi! Saksonga, to'qsonga kirganlar ozmi?

– Onamni g'am-u g'urbat ado qilgan, amirzodam! Bizni deb ozmuncha kulfat chekdilarmi!

Muhammad Ko'kaldosh gapni boshqa yoqqa burdi:

– Taqdirga chora yo'q, begim. Mana bugun siz podshoh hazratlari bilan yana topishganingizdan hazrat onangizning arvohlari shod bo'lur! Qani, o'tirsinlar. Fotiha o'qiylik.

---

<sup>1</sup> Xasba – ichterlama, tif.

Zarbof ko'rpachalar ustiga o'tib o'tirdilar. Bu orada tashqaridan begimni ko'rish uchun kirgan Qosimbek qavchin Qutlug' Nigor xonimning ruhiga bag'ishlab, tilovat qildi. Keyin Xonzoda begim kanizlari orasida hammani jimgina kuzatib o'tirgan o'g'ilchasi Xurramshohni imlab chaqirdi.

Bolaning oq-sarg'ish yuzi, ko'zining ko'kimtirliigi, qisqa bo'yni va siyrak qoshlari xuddi Shayboniyxonnikiga o'xshar edi. Bobur Shayboniyxonni ko'rmagan bo'lsa ham Xonzoda begim o'g'lini unga tanishtirayotganda, bolaning qiyofasida xon otasidan meros qolgan alomatlarni aniq ko'rganday bo'ldi.

Xurramshoh yetti yoshga kirar-kirmas otasi uni Balx viloyatiga hokim qilib qo'ygan edi. Hokimlikni bolaga atka qilib belgilangan Madhi Sulton qilsa ham Xurramshoh o'z qarshisida katta-katta odamlarning bosh egib, ta'zim qilishlariga anchagina o'rgangan edi. Xonzoda begim o'g'liga Boburni ko'rsatib:

– Tog'oyingiz mana shu kishilar! – deganda, Xurramshoh Boburning xayolidan o'tgan narsani sezib yotsiradimi yoki uning kiyimlari jo'nligini ko'rib, nazariga ilmadimi, istar-istamas bosh irg'ab salom berdi. Ammo tog'asiga yaqin bormadi. Shunda Xonzoda begim uni yelkasidan sekin itarib, qulog'iga shivirladi:

– Esingizni yig'ing, podshoh Bobur mirzo huzuridasiz! Shoh Ismoil shu hazrat tufayli sizni ozod qildi!

«Podshoh» va «hazrat» degan so'zlardan bolaning ko'zlari go'yo charaqlab ochilib ketdi. Shu payt Bobur jiyanining ko'zlari oyisinikiday yirik-yirik ekanini sezdi. Tojdorlar bilan muomala qilishning mashqini yaxshi olgan bola endi tizzachasini gilamga tirab, Bobur qarshisida yukundi, so'ng ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, egilib ta'zim qilar ekan, chuchuk til bilan:

– Hazratim, men sizga... sizga xizmatqa keldim! – dedi.

Bobur uning burni ham Xonzoda begimniki kabi qirrali ekanini endi ko'rdi va bu bolaga nisbatan qalbida tutun aralashgan olovday murakkab bir ilqlik sezdi.

– Xizmatga kelgan bo'lsangiz xush ko'rdik, shahzoda, – dedi-yu, bolani qo'lidan olib, o'ng yoniga o'tqazdi.

Shu payt tashqaridan ellik yoshlardagi semiz haram bekasi ta'zim qilib kirdi:

– Podshoh hazratlari, Mohim begim olinasab egachingiz huzuriga kelishga ijozat so'radilar!

Bobur Xonzoda begimga qarab, sirli bir tarzda jilmaydi. So'ng bekasiga buyurdi:

– Ayting, kelsinlar! Mirzo Humoyunni ham ola kelsinlar.

Boburning yosh xotini Mohim begim keksa Qosimbek o'tirgan xonaga kirishdan iymanib kelolmayotganini hamma sezdi. Qosimbek va Muhammad Ko'kaldosh Boburdan ruxsat olib, sekin eshikdan chiqdilar.

Mehmonxona oldida odam ko'p. Marg'ilonlik Xo'ja Kalonbek, uning ukasi Kichik Xo'ja, quvalik Tohir ko'rchi, toshkentlik Saidxon, samarqandlik Majid barlos, Yusuf Andijoniy degan bir navkar – hammalari Vatanlarining daragini olib kelgan Xonzoda begimni ko'rmoqchi bo'lishar, ammo ichkariga kirishdan istihola qilib turishar edi. Qosimbek ularga:

– Avval haram ahli bilan ko'rishsinlar, keyin sizlarga ham ruxsat so'rarmiz, – deb, ularni tarqatib yubordi.

## 2

Shaftoli gulli ipak qabosi ingichka beliga, nazokatli qaddi-qomatiga juda yarashgan bir juvon shahzodalarcha yasantirilgan uch yashar bolani qo'lidan yetaklab, eshikdan ohista kirib keldi. Bolachaning yuz-ko'zi Boburga o'xshashini Xonzoda

begim bir qarashdayoq sezdi-yu, tez o'rnidan turdi. Mohim begim kelinlik nazokati bilan egilib, ta'zim qildi. Xonzoda begim unga peshvoz chiqib, avval yelkasiga qo'llarini qo'yib ko'rishdi. So'ng juvonning yuzidagi nafis oq pardani sekin ko'tarib qaradi-da, uning ajib bir latofatini yurakdan his qilib, zavqi keldi. Kelinining peshonasidan, ko'zlaridan quvonib o'pdi, so'ng shodlikdan balqigan yuzini Boburga o'girdi.

- Muborak bo'lsin! Bir-birlaringizga benihoya munosibsizlar! Baxtli bo'linglar!

Kichkina Humoyun bir qo'lchasi bilan onasining etagidan tutib, pastdan yuqoriga maroq bilan qarab turardi. Xonzoda begim uni qo'lga ko'tarib oldi. Bola ammasini birinchi marta ko'rayotgan bo'lsa ham, bu istarasi issiq ayolni ko'pdan beri biladigandek begonasiramas edi. Xonzoda begim bolaning lo'ppi yuziga yuzini qo'yib erkalatganda, Humoyun buni yoqtirib kulimsiradi.

Xonzoda begim uni o'zining o'g'ilchasi oldiga ko'tarib olib bordi-da, yerga qo'ydi:

- Qani, kichkina tog'acha «katta» jiyancha bilan tanishsinlar-chi!

Uch yashar boburiyzoda bilan to'qqiz yashar shayboniyzoda avval bir-birlariga jim tikilib turdilar. Keyin Humoyun Xurramshohning belidagi kichkina bezakdor xanjarchasiga qiziqib, qo'l cho'zdi. Xurramshoh uning qo'lini olib ko'rishdi-yu, ammo xanjarini bergisi kelmay orqaga chekindi. Buni ko'rgan kattalar kulib yubordilar.

Xonzoda begimning boshidan kechgan barcha dahshatlar, Qunduz yo'lida uning yuragini titratgan noma'lum xavf-u xatarlar shu bir quvnoq kulgi bilan go'yo uzoq o'tmishga aylandi. Xonzoda begim iymanib, tabassum qilayotgan kelinini bir yoniga o'tqazdi. Ikkinchi yonida xushchaqchaq kulimsirab bolalarga qarayotgan Boburni ko'rdi. Yaqinginda

o'zlari ham mana shu tog'acha-jiyan kabi yosh bola bo'lgan paytlari esiga tushdi. Og'ir ayriliq yillarida opa-uka ikkovlari ham farzandlik bo'lganlari, dushman xonadonlaridan chiqqan bu bolalar endi go'daklarcha bir ma'sumlik bilan tanishayotganlari qahraton qish ketidan kelgan bahordek behad yoqimli edi. Xonzoda begim keliniga yana bir qarab oldi-da, keyin Boburga sho'x nazar tashladi:

– Toile sizga endi kulib boqibdi, amirzodam! O'zingizga bunchalik munosib malikani qanday uchratdingiz! Mohim begim, qayerliksiz?

– Xurosonlik, hazrat begim.

Mohim begim Boburga: «Bog'ko'cha devoridan gul tashlaganimni aytib, meni uyaltirib qo'ymang yana!» degandek iltimoskorona qarab oldi. Bobur uning bu qarashidagi ma'noni sezib, zavqli jilmaydi. So'ng Mohim begimning Husayn Boyqaroga qarindoshligi borligini, otalari bundan to'rt yil burun Badiuzzamon mirzo bilan chiqisholmay, G'aznaga kelib qolishganini opasiga aytib berdi. Bobur Mohimning ota va og'alarini G'aznadan Kobulga taklif qilgan, keyin bu yerda Mohim bilan yana ko'rishib, unga uylangan edi.

– Hirot bilan Murg'ob oralig'ida Hazrati Jom degan shahar bor, ko'rganmisiz? – so'radi Bobur opasidan.

– Ko'rganmen! Ulug' shoir Ahmad Jomiyning nomlariga qo'yilgan.

– Begimning ona avlodlari ana o'shal Hazrat Jomiyga xesh ekanlar. Ustod Abdurahmon Jomiyga hamshahar ekanlar.

Bobur hazilomuz kulib, qo'shib qo'ydi:

– Begimning o'zlari ham shunday shoirparvar-u she'rshunoslarki, Jomiy bilan Navoiyning barcha g'azallarini yod bilurlar. Ammo biz she'r yozsak, munaqqidlik<sup>1</sup> qilib, nuqsini ko'rsaturlar.

<sup>1</sup> Munaqqidlik – tanqidchilik.

Mohim erining haziliga hazil bilan javob berdi:

– Munaqqid bo‘lmay ilojim yo‘q, chunki hazratim mening ta‘rifimda ko‘p mubolag‘a qilurlar!

Xonzoda begim er-xotinning hazilkashligidan zavqlanib kuldi:

– Lekin ta‘rifingizda qancha mubolag‘a qilsalar ham oz!

– Minnatdormen, hazrat begim! – Mohim endi hayajonli tovush bilan gapirdi: – Men sizning jasoringizni, fidoyiligingizni hazratimdan eshitib, o‘zingizni ko‘rish orzusida edim. Tangrimga shukr, bugun shu orzuyim ro‘yobga chiqdi. Hazrat begim, men sizni afsonaviy bir malika deb o‘ylar edim. Biroq o‘zingizni ko‘rdim-u sizdagi mehriygo afsonaviy malikalarda ham bo‘lmas, deb o‘yladim! Endi uyimizning peshgohi ham, ko‘nglimizning to‘ri ham sizniki!

Mohim begim bu gaplarni samimiy bir ixlos bilan aytganini sezgan Xonzoda begim:

– Bizga sizdek kelin bergan Tangrimga shukr! – deb qo‘ydi.

Xonzoda begim birdan Oyisha begimni esladi va uni Mohim begimga taqqoslab ko‘rdi. «Bir hisobda, Boburjon avvalgi xotini bilan ajrashib ketgani ham yaxshi bo‘lgan ekan», deb qo‘ydi o‘zicha. So‘ng xon haramida o‘zining tortgan azoblarini eslab ketdi.

Bobur o‘ttiz to‘rt yoshli Xonzoda begimning sochlariga bitta-yarimta oq oralab qolganini endi ko‘rdi. Shu turishda opasi Boburga onasining endi beva qolgan o‘ttiz yetti-o‘ttiz sakkiz yasharli paytlarini eslatdi. Xonzoda begim ham endi beva edi. Bobur shuni o‘yladi-yu:

– Siz meni deb ko‘p azob tortgansiz! – dedi. – Sizni eson-omon dargohimizga yetkazdirgan Shoh Ismoilning yaxshiligini hech vaqt unutmashmen!

Shoh Ismoil tilga olinishi bilan Xonzoda begimning chehrasi yana ochildi.

– Shohning Tojli xonim degan yoshgina, koʻhlikkina xotini bor ekan, – deb hikoya qila boshladi. – Shu juvon meni shoh huzuriga boshlab kirdi. «Shoh Ismoil sunniy mazhabidagilarni oʻldirib, terisiga somon tiqtirarmish» degan vahimali gaplarni koʻp eshitgan edim. «Bahaybat bir odam boʻlsa kerak», deb titrab-qaltirab bordim. Qarasam, yigirma toʻrt-yigirma besh yoshli xushsurat bir yigit taxtda oʻtiribdi. Soqol qoʻygan emas, faqat uzun, ingichka moʻylovi bor. Burgut burun. Koʻzlari katta-katta. Ozariy tilda gapirdi, soʻzlarining hammasiga tushundim. Shialarning imomlari Bibi Fotimaning avlodlari boʻlgan emasmi, shuning uchun ular ayol zotini juda hurmat qilar ekanlar. Men buni yoʻlda ham koʻp sezdim.

– Lekin oʻzimizda ham ilgari ayollarga ehtirom kuchli boʻlgan, – dedi Bobur. – Samarqandda Bibi Xonim nomli madrasa qurilgan, Tuman ogʻa maqbarasi bor. Hirotda Gavharshod begim madrasasi mashhur.

– Bilmadim, u zamonlarda ulugʻ ayollar koʻp boʻlganmi yoki ularning ilm-u sanʼatga ishtiroklari katta boʻlganmi? – dedi Mohim begim eriga qarab. – Hozir nechukdir undoq emas-da, hazratim?

– Falakning gardishi ajib! – dedi Bobur. – Ayollarga munosabat hamisha ilm-u sanʼatga munosabat bilan rost kelur. Ilm-u sanʼat barq urgan davrlarda ayollarning hurmati ham baland. Chunki ilm-u sanʼat ayollarning ishtiroki bilangina astoydil yuksalgan. Maʼnaviy inqiroz davrlarida olimlar-u sanʼatkorlar nechogʻlik xor boʻlsa ayollar ham shunchalik kamsitilmishdir.

– Siz aytgan shu inqiroz hozir Movarounnahrni chirmab olgan, hazratim! – dedi Xonzoda begim. – Koʻchmanchi xon-u sultonlar mamlakatning quruq gavdasini egallab olmishlar. Uning ruhi bilan ishlari yoʻq. Oʻlgan odamning arvochini ranjitish adolatdan emas. Shayboniyxon parokanda boʻlib yotgan



o'lkalarni birlashtirdi. Samarqandda o'z nomiga madrasa qurdirdi. Ko'hak<sup>1</sup> daryosining ustiga ko'prik qurdirdi. Savob ishlari shu bo'ldi. Lekin olimlar-u san'atkorlarga muomalasi qandoq durust bo'lsa, ayollarga ham shundoq edi. Temuriylar ayollarning nomiga madrasa-yu maqbaralar qurdirganini aytsangiz, g'azabi kelur edi. Uningcha, Ulug'bek ilm-u san'atga berilib, din-u imonni unutgan emish, ayollarni taltaytirib, xalq axloqini buzgan emish. Xon yozdirgan «Shayboniyнома», «Nusratнома» degan kitoblarning birontasida birorta ayolning nomi tilga olingan emas. Shahzoda-yu sultonlarning onalari yoki xotinlari haqida so'zlash zarur bo'lib qolsa, «falonchining qizi», «falonchining xotini» deb, faqat otasi yoki erining nomini yozurlar. Chunki ayollarning nomini nomahramlar tilga olsalar gunoh bo'lur emish! Hali bu – madrasa ko'rgan ilmlik xonning davrida bo'lgan ishlar. Hozir tirik qolganlarida shu ilm ham yo'q. Faqat dag'al bir kuch-u bid'at-u xurofot. Ilm-u san'at ahli sultonlar zulmidan qochib, biri Xurosonga, biri Istambulga ketdi, biri Kobulga keldi. Endi butun umidimiz sizdan, Boburjon! Siz Movarounnahrning ulug' ruhini tiklarsiz, ilm-u ma'rifat quyoshini yurtimizga qaytarib olib borursiz deb, yo'lingizga ko'z tikkanlar ko'p!

Bobur opasining aytganlari quruq gap emasligini bilardi. Shayboniyxon o'lgandan keyin Samarqanddan, Buxorodan, Toshkentdan Boburga maxfiy xatlar va choparlar kelgan edi. Ko'chmanchi sultonlar zulmidan bezgan odamlar Boburni tezroq yurtiga qaytishga chorlar edilar.

– O'tgan hafta Andijondan xushxabar keldi, – dedi Bobur opasiga mamnun ko'z tashlab. – Farg'ona vodiysidagi barcha xayrixohlarimiz ko'chmanchi

---

<sup>1</sup> Ko'hak – hozirgi Zarafshon.

sultonlarni quvib yuboribdir. Menga kitobot keldiki, «Qorategin orqali Andijonga tezroq yetib keling, ota yurtingiz sizga muntazir!»

Xonzoda begim quvonch bilan:

– Tangrimga ming qatla shukur! – dedi.

– Hazratim bizni Kobuldan Qunduzga olib kelganlarining boisi ham shuki, – dedi Mohim begim ovozinu pasaytirib, – tezroq Vatanlariga qaytmoqchilar!

– Andijongami? – shivirladi Xonzoda begim inisiga.

Bobur o'ychan kulimsirab, bosh chayqadi – u Andijonga ishonchli bir kishisini yubormoqchi, o'zi esa Hisor orqali Samarqandga yurish qilmoqchi edi. Lekin Bobur o'zining bu niyatini tarix sahnasida paydo bo'lgan yangi bir kuch – Shoh Ismoil bilan kelishmasdan amalga oshirolmashligini sezib turardi. Chunki Shoh Ismoil ko'chmanchi sultonlarga qarshi kurashni davom ettirish va ularni Movarounnahrda quvib chiqarish uchun Bobur bilan ittifoq tuzmoqchi edi. Bugun Xonzoda begim bilan kelgan elchining qanday niyati borligini Bobur taxminan bilar edi.

Basharti, u Shoh Ismoil taklif qilayotgan ittifoqni rad etib, Andijonga yoki Samarqandga o'zicha yurish qilsa, shoh undan aynib, shayboniyzodalar bilan ittifoq tuzishi mumkin edi. Shayboniyxonning o'g'li Temur Sulton shohga elchilar va sovg'alar yuborib, muzokara olib borganidan Bobur xabardor edi. Bu ikki zo'r kuchga Bobur yolg'iz bas kelolmasligi esa o'z-o'zidan ayon edi...

U ayollarga bu murakkab muammolarni aytib o'tirmadi-yu, Shoh Ismoilning shoirligidan gap ochdi.

– Mirzoxon menga shohning she'rlaridan keltirib ko'rsatdi, – dedi opasiga. – Ta'bi nazmi baland, ozarboyjon turkiysida juda chiroyli g'azallar bitibdir. Yana kamtarlik bilan «Xatoy» degan taxallus tanlabdir.

– Katta shoirligi rost, – dedi Xonzoda begim. – G'azallarini odamlar qo'shiq qilib aytganlarini eshitdim.

Shoh meni qabul qilganda, «Bobur podshohning shohligini ham, shoirligini ham ehtirom edyurmiz», dedi. Keyin hazratimning Hirotda kuyga solingan gʻazallaridan bir baytini yod aytib, «Choʻx yaxshi!» deb qoʻydi.

Bobur shohning bu maqtovidan koʻngli iyib, uyalinqirab:

– Qaysi gʻazal ekan? – dedi.

Xonzoda begim barmoqlarini lablariga qoʻyib gʻazalni soʻzma-soʻz eslashga tirishar ekan, Mohim begim unga koʻmaklasha boshladi:

– «Mening koʻnglimki, gulning gʻunchasidek tahbatah qondir», deb boshlanurmi?

– Ha, ha, xuddi shu! – deb Xonzoda begim ikkinchi satrini oʻzi aytdi: – «Agar yuz ming bahor oʻlsa ochilmogʻi no imkondir».

– Shohga bu matlaʼning yoqqani bejiz boʻlmasa kerak, – dedi Bobur. – U ham bizga oʻxshab, otasidan yosh qolib, quvgʻinlarga uchrab, koʻp kulfat chekkan ekan. Menga uning tarixini Mirzoxon aytib berdi. Endi Shoh Ismoil dunyoda adolat oʻrnatmoqchi emish.

– Shoh menga ham shuni aytdi, – dedi Xonzoda begim. – «Adolatni sunniylar oʻn ikki imom bilan birga oʻldirmishlar», dedi. Lekin oʻn ikkinchi imom– Hazrati Madhi oʻlgan emas emishlar, hozir osmondan yerga tushib, sunniylarning jazosini berar emishlar. Shuning uchun shialar shohni «sohibi zamon» deb ulugʻlar emishlar.

Bobur bu yasama eʼtiqodlardan gʻashi kelib, bosh chayqadi-yu:

– Taajjub! – deb qoʻydi. – Marhum Shayboniyxon oʻzini «Xalifayi Rahmon, imomi zamon» deb yurib, oxiri nima boʻldi? Dinni siyosatga aylantirish ne hojat?

– Lekin shialar bilan sunniylarning adovati aslida hokimiyat talashishdan kelib chiqqan emasmi, hazratim? – dedi Mohim.

Islom tarixini yaxshi biladigan Bobur sunniylar bilan shialarning qonli kurashlarini xayolidan o'tkaza boshladi.

Bu kurash Bobur yashagan davrdan salkam to'qqiz yuz yil avval – Muhammad payg'ambar o'limi bilan boshlangan edi. Muhammad payg'ambar tuzgan davlatni kim boshqarishi kerak? Kim uning davomchisi – xalifi bo'lishi kerak?

Eng yaqin qarindoshni voris qilish tarafdori bo'lganlar Alini birinchi xalif qilib ko'tarmoqchi edilar. Chunki Ali payg'ambarning amakivachchasi edi va uning yagona farzandi Bibi Fotimaga uylangan edi. Ammo Ali choryorlar orasida eng yoshi edi. Qabila udumi, ya'ni sunnaga binoan eng yoshi ulug' va obro'si baland o'tog'asi musulmon olamiga bosh bo'lishi kerak edi. Shu sababli kekxa Abubakirni birinchi xalif qilib ko'tardilar. Shu bilan birga Ali ham payg'ambarning to'rt eng yaqin salaflaridan – choryorlaridan biri deb tan olindi, faqat yoshiga qarab, uni Abubakir, Umar va Usmondan keyingi to'rtinchi o'ringa qo'ydilar. Dushmanlari avval Umarni, keyin Usmonni suiqasd bilan o'ldiradilar. Nihoyat Ali xalif bo'ladi. Ammo oradan besh yil o'tar-o'tmas dushman taraf qasdma-qasdigina Alini ham o'ldirdi. Ali tarafdorlari uning o'rniga o'g'illari – Bibi Fotimadan tug'ilgan Hasan va Husanni musulmon olamining boshlig'i deb e'lon qildilar. Ammo Imom Hasan kasallanib o'ldi. Imom Husan Karbalo dashtida sunniylar bilan qilingan jangda halok bo'ldi. Shundan keyin xalifalik yana sunniylar qo'liga o'tdi-yu, Alining avlodiga mansub bo'lgan barcha imomlar birin-ketin o'ldirilaverdi. Faqat o'n ikkinchi Imom Muhammad yoshligida sirli bir tarzda yo'qoldi, uning o'lik-tirigi topilmadi. Muxoliflari uni o'g'irlab ketib o'ldirganlari taxmin qilinsa ham, uning tarafdorlari xalq orasida «Imom Muhammad osmonga

chiqib ketgan, bir kun Imom Madhi nomi bilan qaytib tushib, dunyoda adolat o'rnati», degan bir diniy e'tiqodni tarqatdilar. Adolatsizlikdan azob tortib yurgan juda ko'p sodda odamlar bu gapga ishonadilar. Shialar musulmon olamidagi barcha baxtsizliklarga Alidan oldingi uch xalifani va ularning keyingi avlodlarini sababchi qilib ko'rsatdilar. Sunniylar uzoq vaqt davlat tepasida turgan va musulmon dinini juda ko'p mamlakatlarga tarqatgan hokim kuch bo'lganliklari uchun ularning zulmlaridan norozi bo'lgan ko'pgina olimlar, san'atkorlar, dehqonlar, kosiblar va boshqa turli tabaqa vakillari ham shialar tomoniga o'tdilar. Qadimiy madaniyat markazi bo'lgan Eron va Ozarboyjonda shialarning sunniylarga qarshi kurashi tobora o'sib bordi. Shoh Ismoil shialarning mana shu kurashidan foydalanib, davlat tepasiga keldi, tarixda birinchi marta shia mazhabini katta bir davlatning diniga aylantirdi va sunniylarga qarshi g'azavot e'lon qildi.

– Rost, shia-sunniy adovati qanday xunrezliklarga sabab bo'lganini men Hirotda ko'rib dahshatga keldim!  
– dedi Xonzoda begim va bir voqeani hikoya qilib berdi.

Marvdan keyin Hirotda qizilboshlar qo'liga o'tgach, bu yerda Shayboniyxon davrida qatag'on qilingan shialar qasoskorona bosh ko'tardilar. Ular Hirotda Shayboniyxonning barcha ishlariga fatvo bergan sakson yoshli shayxulislom Taftazanini shialarga tutib berdilar. Shialar cholni ko'chaga – xaloyiq orasiga sudrab, olib chiqdilar va darhol sunniy mazhabidan shia mazhabiga o'tishni buyurdilar. Taftazani bunga ko'nmadi. Shundan keyin shialar uni ko'chadagi bir daraxtga osib o'ldirdilar va jasadini daraxt bilan birga yoqib yubordilar. Buni ko'rgan xolis odamlar shia-sunniy dushmanligidan bezor bo'lib, Abdurahmon Jomiy tirikligida yozib ketgan o'tkir ruboiyni bir-birlariga shivirlab aytadilar:

*Ey mug'bachayi dahr, bideh jomi mayam,<sup>1</sup>  
 Ki omad zi nizoyi sunni-yu, shia qayam.  
 Go'yandki, Jomiyo, chi mazhab dori?  
 Sad shukrki, sagi sunni-yu, xari shianayam!*

Bu ruboiyning so'zlari og'izdan-og'izga o'tib, shialarning qulog'iga ham yetib boradi. Ayniqsa, «shianing eshagi» degan ibora ularning jonini chiqaradi. Qizilboshlar bid'atga berilgan hirotlik shialar va yosh bezorilar to'dasini Abdurahmon Jomiyning maqbarasiga boshlab boradilar. Qabr ustiga qo'yilgan marmar toshni ko'chirib tashlaydilar. Toshga o'yilgan «Jomiy» so'zidagi arabcha «جاء»ning nuqtasini o'chirib, «حأ» tarzida harfning yuqorisiga qo'yadilar. Natijada ulug' shoirning nomi «Xomiy» deb o'qiladigan bo'ladi. Johillar bu bilan ham qanoat qilmaydilar. Jomiy maqbarasiga Navoiy o'rnattirgan zarrin o'ymakorlik go'zal eshikni sindirib, maqbara bilan birga yondirib yuboradilar.

Bu voqeani opasidan eshitgan Bobur g'azab aralash hayrat bilan so'radi:

– Nahotki Shoh Ismoil shunday jaholatga yo'l bergan bo'lsa?

– Mening bilishimcha, bu ishdan shoh bexabar qolgan. Hirotidagi mudhish ishlarga shohning Xuroson bo'yicha noibi Najmi soniy boshchilik qilgan.

– Ne bo'lganda ham hazrati Jomiy ming marta haqlar: shia-sunniy nizolari ko'ngilni ozdiradigan darajada xunuk!.. Hayhot, dunyoning ishlari hamisha chigal! Tug'ishganlardan-ku, do'st-yor topolmadim. Endi taqdir menga Shoh Ismoildek bir mard, tanti, fozil do'st berdi, deb suyunsam, buning ham ishkal ishlari bor ekan.

---

<sup>1</sup> Tarjimasi: Ey dunyoning yosh otashparasti, menga mayim jomini bergilki, sunniy va shia nizolaridan qusgim kelmoqda. Desalar: Jomiy, sen qaysi mazhabdansen? Yuz shukrki, sunniyning iti-yu, shianing eshagi emasman!

Mohim begim Boburning ko'ngliga cho'kkan g'uborni tarqatgisi kelib, kulimsirab gapirdi:

– Gul tikansiz bo'lmas ekan-da, hazratim!

Bobur xotining jilmaygan yuziga tikilib qaradi-yu, o'zining ham chehrasi ochila boshladi. Shuncha ayriliqlardan keyin sevimli opasi bilan yana uchrashgani, bu quvonchga Shoh Ismoil tufayli muyassar bo'lgani takror esiga tushdi. Qunduzda shayboniyzodalardan ixlosi qaytgan yigirma ming kishilik qo'shin mo'g'ul beklari boshchiligida Bobur huzuriga kelgani va uning xizmatiga o'tgani yana yodiga tushdi-yu, ko'nglini yayratib o'tdi. Bobur ko'zini Mohim begimdan olib, opasiga qaradi:

– Endi hech bir gulning tikanidan qo'rqmasmiz! Maqol borki, guli uchun tikani ham noiloj sug'orilur... Shoh Ismoil shunchalik odamgarchilik qilibdi! Mayli!

Bobur o'rnidan turdi. U shohdan kelgan elchi bilan uchrashishi kerak edi. Mohim uni eshik oldigacha kuzatib bordi. Bobur eshikdan chiqayotib, Xonzoda begimni qayerga joylashtirish va qanday e'zozlash haqida xotiniga ko'p gapirib o'tirmadi-yu:

– Egachimni onam o'rnida ko'rgaysiz! – dedi. Shu bir og'iz gapdan hamma narsani anglagan Mohim ham:

– Jonim bilan! – deb qo'lini ko'ksiga qo'ydi. – Sizdan ham bir iltimos, hazratim.

– Xo'sh!

– Biz tikan deb o'ylagan narsalar og'uli tig'lar bo'lib chiqmasin. Ehtiyot bo'ling!

Bobur xotining hamma narsaga fahmi yetadigan ziyrak bir do'st ekanini hozir yana bir marta sezdi-yu, unga mehri tovlanib:

– Xotirjam bo'ling! – dedi.

So'ng qalbi uchrashuv quvonchiga, mehribon ayollar nafosatiga va ma'sum bolalar zavqiga to'lib, qo'rg'on hovlisiga chiqdi.

Devonxonaga yaqinlashganda elchilar bilan bo'ladigan muomalani ko'z oldiga keltirdi-yu: «Mol-u dunyoni ayamalik kerak» degan niyatni ko'ngliga tugdi.

### 3

Boburning buyrug'i bilan Vali xazinachi bisotida bor eng qimmatbaho dur-u gavharlardan, Badaxshon la'lilari-yu oltin bezakli kiyimlardan, kamyob tig'lar va buyumlardan shohga alohida, uning elchisiga alohida in'omlar hozirladi. Saroy bo'vurchilari, bakovul va yasovullar ikki kecha-yu ikki kunduz yugurib-yelib, Qunduzda hali misli ko'rilmagan shohona ziyofat va bazmga hozirlik ko'rdilar. Ulkan ziyofat uchun historiy qo'ylarning o'zidan yetmish-saksontasi so'yildi. Tog'lardan, o'rmon va daryolardan ovlab kelingan g'ozlar, kakliklar, ohular soni bundan ko'proq edi.

Shoh Ismoilning mehmondorchiliklarini ko'p ko'rgan odamlardan biri – Boburning amakivachchasi Mirzoxon edi. U Boburga bir necha marta:

– Shoh elchilari chog'irsiz ziyofatni ziyofat o'rnida ko'rmaslar, – deb aytdi.

Boburning eshik og'asi Qosimbek esa ichkilikni juda yomon ko'rardi. Boburning o'zi ham hali beklari bilan biror marta ichkilik bazmi o'tkazgan emas, faqat Kobulda Mohimga uylangandan keyin xushbo'y chog'irlardan bir-ikki marta tatib ko'rgan edi.

Hozir uning ko'nglida ko'pirib turgan quvonch bilan birga Shoh Ismoilga va shialar bilan sunniylarning dushman munosabatlariga borib taqaladigan qandaydir g'ashlik, chigallik bor edi. Bu g'ashlikni bugun faqat may bilan tarqatish mumkinga o'xshardi. Bundan tashqari, mehmonlarning ko'ngli uchun ham Boburning ichishi zarur edi. Uning amri bilan Qunduzdan topish mumkin bo'lgan eng toza chog'irlar, eng o'tkir maylar toptirib keltirildi.



Gulgun parchadan zar yoqali abo kiygan o'spirin soqiylar oltin ko'zalardan oltin-kumush surohiylarga may quyib, avval Boburga, so'ng uning yonida o'tirgan shoh elchisi Muhammadjon eshik og'asiga, elchidan nariga cho'kkalagan Mirzoxonga navbatma-navbat uzatdilar. Ziyofatda Bobur tomonidan yuzdan ortiq a'yonlar, beklar va mulozimlar qatnashmoqda edilar. Avvalgi ziyofatlarda Boburdan va Qosimbekdan yashirib, may ichadigan ko'pchilik beklar endi chog'ir to'la qadahlarini qo'llarida bemalol tutgan holda bir-birlari bilan sho'x-sho'x ko'z urishtirishar, quvnoq iljayishar va podshohning ishorasini kutishar edi. Poygakda kichik beklar orasida o'tirgan Tohir ham qo'lidagi may to'la kumush qadahga jonli bir narsaga qaraganday ehtiyot bilan qarab qo'yardi.

Mirzoxon yonidagi elchiga shivirlab, izoh berdi:

– Oliy mehmon, siz g'aroyib bir hodisaning guvohidirsiz. Bobur podshoh saroyida bugun birinchi marta chog'ir majlisi!.. E'tibor bering: majlisda favqulodda bir hayajon hukmron!

Boshiga qizil jig'alik katta salla o'ragan, soqoli xina bilan bo'yab qizartirilgan burgutburun elchi Boburga maroq bilan tikildi.

Bobur qo'lidagi qadahni uchib ketishi yoki cho'qib olishi mumkin bo'lgan notanish bir qush kabi avaylab ushlab turardi. Odamlar uning so'zini kutayotganlarini sezib, ovozi tovlanib gapira boshladi:

– Oliy zotlar davrasida shodiyona kunlarda uzum suvidan halol-u pokiza qilib tayyorlangan chog'ir ichmoq ota-bobolarimizdan qolgan odatdir. Hayotimizda shodlikdan ko'ra g'am-u g'urbat ko'proq edi, shuning uchun hanuzgacha chog'ir majlisiga mayl ko'rsatmadik. Hirotda Badiuzzamon mirzo bilan Muzaffar mirzodek tojdor xeshlarimiz biz uchun orasta bazmlar berib, chog'ir taklif qilganlari majlis ahliga ma'lum bo'lsa kerak. O'shanda ham

biz uzrlar aytib, chog'irdan o'zimizni tortgan edik, chunki u mahallarda may ichib, xursandchilik qilg'udek shodmon emas edik. Tangrim bizni shod-xurram kunlarga mana endi yetkazdi. Biz bu mas'ud kunlarga Shoh Ismoil hazratlarining sharofatlari bilan yetishdik. Bugungi shod-xurramlikni bizga oliy mehmonimiz Muhammadjon eshik og'asi janoblari keltirdilar! Shuning uchun bizning birinchi chog'ir majlisimiz Shoh Ismoil hazratlariga cheksiz ishonch va ehtiromlarimizdan kichik bir nishona bo'lg'ay! Birinchi qadahimiz esa shohning mo'tabar elchisi Muhammadjon eshik og'asi janoblariga yuksak hurmatimizning isboti bo'lg'ay!

Bu so'zlardan ko'ngli iyib, chuqur ko'zlari olovlanib ketgan elchi o'rnidan turib, Boburga egilib ta'zim qildi. So'ng joyiga o'tirib, qo'lidagi chog'irni oxirigacha sipqardi. Pastda o'tirgan sozandalar «Sarvi navo» kuyini chala boshladilar. Dasturxonga kiyik va kaklik kaboblari tortildi. Eng mazali taomlar orasida yana ikki-uch qayta may ichildi. Odamlar endi o'zlarini boyagidan xiyla erkin seza boshladilar. Qahqaha, o'yin-kulgi avjiga chiqdi. Quvnoq, sho'x kuylar ketidan yana alyorlar aytildi. Nihoyat, so'z navbati shoh elchisiga keldi. Shunda Muhammadjon eshik og'asi yonidagi mulozimga nimadir deb shivirladi. Mulozim bosh irg'ab, yon eshikdan chiqib ketdi-yu, navbatdagi quvnoq kuy tugagan paytda ustiga bir necha qavat oq ipak yopilgan qandaydir sovg'ani oltin barkashga solib ko'tarib kirdi. Muhammadjon eshik og'asi Shoh Ismoilning Boburga berib yuborgan maktubini va oltin-kumush in'omlarini kunduz topshirgan edi. «Endi bu yana nima ekan?» deb hamma o'tirganlar oltin barkashga tikilib qoldi. Umumiy jimlikda qizilbosh bek barkashdagi sovg'a bilan Boburning qarshisiga ta'zim qilib keldi. Boburga yaqin o'tirgan Muhammadjon eshik og'asi o'rnidan turib, gap boshladi:

– Sulton Zahiriddin Muhammad Bobur bahodir hazratlarining sohibi zamon Shoh Ismoil hazratlari ya choʻx yuksak, choʻx semimiy hurmatlari varligʻina alhol bizim ishonchimiz kamil oʻldi. Shu sebebli Shoh Ismoil hazratlari yubormish muqaddas inʻomni Bobur podshoh hazratlariya topshirmogʻa ijozat vergaysiz!

Elchi oltin barkashdagi sovgʻaning ustidan ipak pardani oldi. Bobur yoqut va dur bilan bezalgan nafis oq ipak sallani koʻrdi. Sallaning tepasiga oʻn ikki imomning qonini eslatuvchi qizil jigʻa suqib qoʻyilgan edi. Salla ancha katta – Bobur oʻramlarning soni ham shahid boʻlgan imomlar kabi oʻn ikkita ekanini taxmin qilib bildi. Shialarning eʻtiqodiga binoan, bu oʻramlarning har biri – bir imomning ruhi uchun muqaddas makon edi. Ichgan chogʻirdan yuzi qizarib, koʻzlari yaltillab turgan Bobur oʻzining aʻyonlari orasida shivir-shivir boshlanganini payqadi-yu, kulimsirab Qosimbek tomonga qaradi. Ammo Qosimbek va undan narida oʻtirgan Xoʻja Xalifa nomli shayxulislom oltin barkashdagi dastorga jirkanib va, hatto, qoʻrqib qaramoqda edilar.

Chunki Boburning oʻzi ham, Qosimbek ham, ziyofatda oʻtirgan boshqa sunniy aʻyonlar, mulozimlar ham choryorlarning hurmati uchun boshlariga toʻrt oʻram qilingan salla oʻrar edilar. Kichikligidan Oллоh-u Taologa, paygʻambar va choryorlarga cheksiz ishonch va eʻtiqod ruhida tarbiyalangan odamlar boshlaridagi sallalarining toʻrt oʻramida toʻrt choryorning ruhi yashaydi, deb ishonar edilar. Shialar shu choryorlarning uchtasini tan olmay haqorat qilishar, ularning oʻn ikki oʻramlik sallalari esa Abubakir, Umar va Usmonlarning avlodlariga qarshi kurashgan shia imomlarini ulugʻlar edi.

Shialikni muqaddas choryorlardan yuz oʻgirish, dindan chiqib, rofiziy boʻlish, deb oʻrgangan keksa Qosimbekka oltin barkashdagi sallaning mayin yiltirgan ipagi – ilon terisining yiltirashidek koʻrindi.

Qosimbekning nazarida sallaga qadalgan yoqutlarning cho'g'day yonishi zaharli ilonning qizg'ish ko'zlari qonga to'lib, yonishiga o'xshardi. Muhammadjon eshik og'asi Boburga yana bir marta ta'zim qildi-yu, Shoh Ismoil shaxsan berib yuborgan shu muqaddas dastorni qo'liga olib, boshiga kiyishini undan iltimos qila boshladi. O'nlab ko'zlar Boburga «Ne qilarkin?» deb tikildi. Qosimbek Xo'ja Xalifaga tahlika bilan shivirlab:

– Makr-u hiyla bilan hazratimni shia mazhabiga o'tkazmoqchilarmi? – degani Boburning qulog'iga chalindi.

Bobur agar shu dastorni boshiga qo'ysa shia mazhabiga o'tganday ko'rinishi mumkinligini endi payqadi. U ichgan chog'iridan durustgina kayf qilgan edi. Hozir vaziyat unga Qosimbek qo'rqqanchalik vahimali tuyilmas edi. Choryorlar, o'n ikki imom ham Bobur uchun bundan to'qqiz asr burun o'tgan tarixiy shaxslar edi. Uzoq o'tmishga aylangan qonli dushmanlikni bugun davom ettirish kimga kerak?

Qizilbosh bek hamon Bobur qarshisida tiz cho'kib, oltin barkashdagi sallani unga tutib turibdi. Shoh elchisi unga iltimoskorona ta'zim qilyapti. Ular orqali Shoh Ismoil go'yo Boburga hamkorona qo'l cho'zyapti. Bobur bu qo'lni qaytarsa, shoh bilan orani uzishi kerak bo'ladi. Keyin shayboniyzodalar shoh bilan ittifoq tuzishadi-yu, Boburning Vatanga qaytadigan yo'llarini yana bekitishadi. Bobur esa hozir butun vujudi bilan Vataniga qaytishni istaydi. Bu istagi yo'lida tog' kelsa kemirib, suv kelsa simirib o'tmoqchi bo'ladi.

Bobur elchiga muloyim ko'z tashlab:

– Shoh Ismoil hazratlarining in'omlari biz uchun behad aziz, – dedi va barkashdagi sallaga qo'l cho'zmoqchi bo'ldi.

Shunda Qosimbek og'zini uning qulog'iga yaqinlashtirib, xavotir bilan shivirladi:

– Hazratim, zinhor boshingizga kiymang! Zinhor!

Bu soʻzlar elchiga ham eshitildi va uni ranjitgani avzoyi oʻzgarib ketganidan sezildi.

Suv quyganday jimjitlikda Bobur Muhammadjon eshik ogʻasiga mayin kulimsirab qaradi:

– Oliy mehmonimiz imomiya<sup>1</sup> mazhabidanlar, shundaymi?

Elchi tasdiq maʼnosida bosh irgʻadi. Bobur yana oʻshanday muloyimlik bilan soʻzida davom etdi:

– Imomiyalar ham Muhammad alayhissalomning ummatlarimi?

– Alhamdulillah! – deb elchi darhol kalima keltirdi.

Shundan keyin Bobur Qosimbek tomonga oʻgirildi.

– Siz ham Muhammad ummatimisiz, janobi amirul umaro?

Qosimbek ham kalima keltirdi-yu, oxirida:

– Hazratim, sizni iloho chohoryori bosafolar qoʻllab-quvvatlasinlar! – deb qoʻshib qoʻydi.

Choryorlar tilga olinishi bilan elchining rangi oʻchib, labi asabiy pirpiradi.

– Janob Muhammadjon eshik ogʻasi! – dedi Bobur tez.

– Qurʼoni sharifda aytilganki, «Qulli muslimina ixvatum». Yaʼni, barcha musulmonlar ogʻa-inilardir. Biz hammamiz bir dindamiz. Demak, hammamiz ogʻa-inilardek yaqin boʻlmogʻimiz kerak. Biz sizning musulmonlik eʼtiqodlaringizni hurmat qilganimiz kabi, siz ham bizning, – deb Bobur ikki qoʻlini yoyib, barcha bek va mulozimlarini koʻrsatdi, – musulmonlik eʼtiqodlarimizni hurmat qilursiz, deb ishonamiz!

Elchi endi bir oz yumshab, ustma-ust bosh irgʻadi:

– Ushbu muqaddas armugʻon ham bizni sizlarga buyuk ehtiromimiz alomatidir!

Bobur endi Qosimbekka yuzlandi:

– Hazrati Alini siz-u biz hamisha boshimiz ustida olib yuribmiz, shundoqmi?

---

<sup>1</sup> Imomiya – shia mazhabining rasmiy nomi

Qosimbek – sallasidagi to‘rt o‘ramning biri – Hazrati Alining ruhiga makon ekanini o‘ylab, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi:

– Shundoq, hazratim.

– Muhammad alayhissalomning yagona farzandlari bo‘lgan Bibi Fotima biz uchun ham muqaddas volidadirlar, shundoqmi?

– Shundoq, hazratim.

– Shundoq bo‘lsa, Hazrati Ali bilan Bibi Fotimaning aziz avlodlari bo‘lgan imomlarni biz ham e‘zozlasak musulmonlikka to‘g‘ri kelurmi, yo‘qmi?

Boya Boburga jon kuydirib haligi gapni uning qulog‘iga shivirlagan Qosimbek podshoni niyatidan qaytarolmasligini, shohning bu maxsus sovg‘asini Bobur qabul qilmay iloji yo‘qligini endi sezdi. U ko‘pchilikning oldida Boburga tan berganday bo‘lib, aslida uni yoqlagisi kelib bosh egdi:

– Podshoh hazratlari, siz haqsiz, qulingizni gustohligim uchun afv eting!

Bobur Qosimbekka mamnun ko‘z tashlab:

– Ma‘zursiz, – dedi. So‘ng dastor solingan og‘ir barkashni tutib turaverib qo‘llari tolib ketgan qizilbosh bek tomonga o‘girildi. Bobur dastorni dadil bir harakat bilan ikki qo‘llab barkashdan olganda, uning o‘nlab bek va mulozimlari vahima bilan: «O!» deb yuborishdi. Bobur dastorni qo‘lida tutgan holda:

– Shoh Ismoil hazratlari o‘zi muborak iliklari bilan yuborgan bu armug‘onni biz ko‘zga surgaymiz! – dedi-yu, dastorni ko‘zi aralash peshonasiga tekkizib oldi.

Muhammadjon eshik og‘asining yuzi quvonchdan balqib ketdi:

– Mutashakkiram, podshoh hazratlari, muta-shakkiram!

Lekin Boburning bek va mulozimlari orasida, xususan, yaqinda unga kelib qo‘shilgan mo‘g‘ul beklari

orasida hayrat, qoʻrquv va koyinish ohanglariga toʻla bir shovur-shuvur eshitildi.

Bu gʻovurdan Qosimbekning rangi oqarib ketdi. Muhammadjon eshik ogʻasi esa Boburni shia mazhabiga oʻtkazib, katta gʻalabaga erishganday shodlanib gapirdi:

– Podshoh hazratlari, biz umid edyurmizki, siz shoh hazratlarining buyuk madadlari ila yana Samarqand taxtiya chiqqaningizda aziz boshingizda shu muqaddas dastorni koʻrishga muyassar oʻlurmiz!

– Tangri bizni siz aytgan baxtiyor kunga yetkizsa, bu dastorni toj oʻrnida kiyurmiz. Shoh Ismoil hazratlariga shu ahdimizni borib aytgaysiz!

Bu gaplardan soʻng moʻgʻul beklari orasidagi asabiy shovur-shovur yana kuchaydi. Shoh elchisi esa Boburning dadil odamligiga, Shoh Ismoil bilan mustahkam ittifoq tuzish uchun sunniyparast beklarining har qanday qarshiliklarini yengib oʻtishi mumkinligiga endi ishondi. Mana shu ishonch Boburning shoh elchisi bilan ertasi kuni olib borgan muzokaralarini ancha yengillashtirdi.

Shoh Ismoilning Bobur bilan ittifoq tuzishdan maqsadi – Movarounnahrda u bilan birga qoʻshin tortib borish va shayboniyzodalarni birga tor-mor qilish edi. Bobur shayboniyzodalar ustidan gʻalaba qilishni nechogʻlik istamasin, Movarounnahrda oʻz qoʻshini bilan mustaqil kirib borishni istardi. Chunki agar u asosiy gʻalabani oʻzi mustaqil qoʻlga kiritmasa, Vataniga obroʻ bilan qaytolmasligini, yovlari uni «Shoh Ismoilning nayzasiga minib, kirib keldi!» deb malomat qilishlarini sezib turardi. Bobur Shoh Ismoilning Marvda erishgan gʻalabasi yetarli ekanini, endi ular dam olishlari kerakligini, shayboniyzodalarni Hisordan, soʻngra Samarqanddan quvib chiqarishni endi Bobur zimmasiga olishi kerakligini elchiga qayta-qayta aytib koʻrdi. Lekin Shoh Ismoil ham

Samarqandga intilmoqda edi, agar uning bu intilishi amalga oshmasa, Bobur bilan ittifoq tuzishning qizig'i qolmas edi. Elchining gapidan buni sezgan Bobur muzokarani boshqa yo'nalishga burdi.

Shoh Ismoilning askarlari tog' yo'llarida qiynalib, minglab chaqirim ortiqcha yo'l yurib, Qunduz va Hisorga kelib yurishi ne kerak? Shoh qo'shini karvon yo'li bilan Termiz va Boysun orqali Samarqandga qarab otlansin. Bobur esa hozir Hisorga yaqin turibdi. Bir hamla bilan Hisorni ko'chmanchi sultonlar qo'lidan tortib olishga kuchi yetadi. Keyin u Samarqandga janub tomonidan yo'l ochadi va Shoh Ismoilning qo'shini bilan Shahrisabz – Qarshi atroflarida uch-rashadi.

Mantiqan asosli bo'lgan bu fikrga shoh elchisi e'tiroz qilolmadi-yu, Boburning taklifini qabul qildi.

Bobur elchi bilan tuzgan bu bitimni Shoh Ismoilning tasdig'idan o'tkazish uchun Mirzoxonni Tabrizga vakil qilib yubordi-yu, o'zi Hindikush tog'ining shimoli-g'arbiy etaklariga to'plangan qo'shinlarini jangga tayyorlay boshladi.

Bahor oxirlab qolgan kunlarning birida Bobur Qosimbek bilan adir yo'lidan mo'g'ul beklarining qarorgohlariga otliq ketmoqda edilar. Shunda Qosimbek Boburni yo'ldan chetroqqa boshlab chiqib, bir shumxabarni aytdi. Shoh Ismoil yuborgan shia dastorini Bobur ko'ziga surib, elchiga quyuyq va'dalar berganidan mo'g'ul beklari qattiq ranjigan emishlar, uni «choryorlardan voz kechib, imomiya mazhabiga o'tdi», deb fitna uyushtirgan emishlar. Bundan besh-to'rt yil burun Kobulda Yegu Salim, Sherquli degan mo'g'ul beklari Boburga suiqasd qilmoqchi bo'lgan paytlarida qo'lga tushgan, Bobur ularni yaqin tarafdorlari bilan qatl ettirgan edi. Shayboniyzodalardan aynib, yaqinda Boburga kelib qo'shilgan mo'g'ul beklarining orasida o'sha o'ldirilganlarning urug'doshlari bor bo'lib, ular



kek saqlab yurgan ekanlar. Endi shu beklar yashirinchalik biriktirib, Boburni Qunduzda o'ldirmoqchi yoki Kobulga quvib yubormoqchi emishlar. Uning o'rniga Boburning qo'lida o'sgan tog'avachchasi, marhum Olachaxonning o'n yetti yashar o'g'li Saidxonni taxtga chiqarmoqchi emishlar.

– Kimlar shunday qilmoqchi? Kimlar?! – deb Bobur g'azabdan titrab so'radi.

Qosimbek orqasiga o'girilib qaradi. Mulozim va xos navkarlar uzoqda qolgan, ovoz ularga eshitilmaydi. Shunday bo'lsa ham Qosimbek tovushini pasaytirib:

– Qambarali Salloh, Sayidali Shakma, – deb bir qancha fitnachilarning nomlarini aytdi.

– Iblislar! Qachongacha bular mening yelkamga tig' ururlar?! Andijondagi Ahmad Tanbal ham shu toifadan edi! Bas! Hammasini tuttiring! Pora-pora qilib, go'shtlarini quzg'unlarga tashlaturmiz!

Qosimbek otining jilovini tortib, tog' etaklaridagi minglab o'tovlarga xavotir bilan ko'z yugurtirib chiqdi.

– Hazratim, qarang, bular juda ko'p. Navkarlari bilan yigirma ming!

Ko'p asrdan beri Movarounnahrda yashaydigan, turkiy tilda so'zlashadigan, musulmon dinini qabul qilib, uning xurofotiga qattiq berilgan bu mo'g'ul beklari va navkarlarining kasbi harbiy ish edi. Qaysi podshoh ulufani ko'proq bersa, qaysi jangdan o'lja yaxshiroq tushadigan bo'lsa, bularning ko'pini o'sha podshoh va o'sha jang o'ziga jalb qilar edi. Xisravshoh xizmatidan Shayboniyxonga o'tgan, uning mag'lubiyatidan so'ng Boburga kelib qo'shilgan bu yollanma askarlar beqarorlikka o'rgangan edilar.

Agar Bobur fitnachi beklarni tuttirib jazolatadigan bo'lsa, ularning urug'-aymoqlari arazlab ketib qolishi, so'ng qasd olishning payiga tushishi aniq edi. Agar ichki urush boshlanib ketsa, keyin Bobur shayboniyzodalar qarshisida zaiflashib, yengilishi

muqarrar edi. Bobur shuni o'ylaganda, qalbidagi g'azab o'rnini og'ir xavotirlik tuyg'usi egalladi.

– Mudom insof-u imonga xilof xiyonatlar shu mo'g'ul beklaridan sodir bo'lur! Yana bular din-u mazhabni himoya qilmoqchilarmi?!

– Butun jaholat ana shundoq nodonlardan chiqadida, hazratim! Qulingiz ana shu johillarning kayfiyatini sezib, dastorni olmang, degan edim.

– Lekin olmay ilojim bormidi?

– Yo'q edi, hazratim, siz mutlaqo to'g'ri qildingiz! Endi buni hammaga yaxshilab uqtirish kerak. Mo'g'ullarning orasida ham yaxshilari bor, fitna tayyorlanganini menga mo'g'ul avlodidan chiqqan tog'avachchangiz Saidxonning o'zi kelib aytdi. «Hazratimdan iltimos qiling, iloji bo'lsa meni Andijonga yuborsinlar», dedi.

– Lekin Saidxon... bergan tuzimizni oqlabdir... Durust!

– Boshqa insoflik mo'g'ullar ham ko'p, hazratim. Siz bir pora yomon beklarning fitnasidan ko'p ma'yuslanmang. Faqir chorasini o'ylab qo'ymishmen.

– Xo'sh, qani?

– Saidxon sizga sadoqatini isbot qildi. Uni xon ko'tarmoqchi bo'lgan besh-o'nta fitnachi beklarga bir-ikki ming navkarlari bilan ruxsat beraylik. «Bor, Andijonni shayboniyzodalardan himoya qilib ol!» deylig-u hammalarini Qorategin orqali jo'natib yuboraylik. Shu bilan biz ham fitnachilardan xalos bo'lurmiz, ular ham istagan xonlarning xizmatiga o'tib tinchirlar.

– Qolganlari yana bir kun xiyonat yo'liga o'tsa-chi?

– Qolganlari bilan keyin men o'zim yakkama-yakka gaplashib chiqurmen. «Podshohdan gunohlaringni so'rab oldim, bir marta shafe bo'ldim, ikkinchi marta bo'lmasmen», deb tushuntirurmen. Bu ham kifoya qilmasa, shubhaliroqlarining ketiga ziyrak

xufiyalardan qo‘yib qo‘yganmen. Agar yana buzuqlik qilsalar, unda tutib keltirurmen, keyin istaganingizcha jazo berursiz!

#### 4

Nihoyat, barcha rejalar gaplashilgan tarzda amalga oshdi-yu, Boburning mo‘g‘ullar bilan birgalikda yigirma besh mingdan oshadigan qo‘shini yoz kunlarida Amudaryoning Panj deb ataladigan yuqori oqimidan o‘tib, Ko‘lob orqali Vaxsh vodiysiga yo‘naldi. Shayboniyzodalar Shoh Ismoil qo‘shinining Termiz tomondan kelayotganini, ular Bobur askarlari bilan qo‘shilsa, yengish mushkul bo‘lishini bilar edilar. Shuning uchun ular Ubaydulla Sulton boshliq bir qism qo‘shinlarini Qarshi va Samarqandda qoldirishib, asosiy kuchlarini Hisorga yig‘ib keldilar. Temur Sulton, Jonibek Sulton, Hamza Sulton va Mamat Sulton boshliq o‘ttiz ming otliq qo‘shin cho‘l va vodiylardan chiqib, baland tog‘ oraliqlariga shitob bilan ko‘tarilib kelmoqda edi. Ular Bobur qo‘shinini Vaxsh daryosidan o‘tkazmaslikka intilar edilar.

Biroq yuqoridan tez tushib kelayotgan Bobur butun askarlari bilan Vaxsh bo‘yiga dushmanidan ancha oldin yetib bordi va Puli Sangin<sup>1</sup> degan ko‘prikdan o‘tdi. So‘ng odam oyog‘i tegmagan tik qoyatoshlar va zovlar orasidagi bahaybat daraning dahanasini<sup>2</sup> va harbiy jihatdan qulay balandliklarni egallab oldi. Pastdan yopirilib chiqib kelgan yov qo‘shini torgina yo‘l bilan daraning ichiga kirishga jur‘at etolmay to‘xtadi.

Sultonlar ot ustida turib, ancha vaqt kengashganlaridan keyin Temur Sulton boshliq o‘n mingtacha

---

<sup>1</sup> Puli Sangin – «Tosh ko‘prik». Hozirgi Norak shahrining yaqinida bo‘lgan.

<sup>2</sup> Dahana – daraning og‘zi, kirib-chiqiladigan joyi.

askar daraning o'ng tomoniga o'tdi-yu, Bobur turgan balandlikka orqadan aylanib kelmoqchi bo'ldi. Temur Sultonning orqadan chiqib kelib to'lg'ama ishlatishini Saripul jangida ko'rgan Bobur uning niyatini fahmlab qoldi. Darhol Mirzoxon boshliq o'n ming otliqni yov aylanib o'tayotgan tomonga jo'natdi. Aylanib o'tayotganlardan ko'ra to'g'ridan borayotganlar mo'ljallangan joyga tezroq yetdilar va balandlikning Vaxsh daryosigacha borib taqaladigan hamma muhim nuqtalarini ishg'ol qildilar. Vaxsh uchurimli qoyalar orasidan shunday dahshat solib oqar ediki, uning qirg'og'ini yoqalab o'tib bo'lmas edi. Temur Sulton qarshisidan chiqqan askarlarning safini yorib o'tmoqchi bo'lib, peshingacha jang qildi, lekin muxolif tomon yuqoridan tosh yumalatib, o'q yog'dirib, ularga yo'l bermadi.

Ochiq cho'llarda o'sgan, tekis vodiylarda dadil harakat qiladigan sultonlar hammayog'i bekik daralar va tik qoyatoshli tog'lar orasida juda qiynalib qoldilar. Ularning dashtiy otlari ham tog'da durust chopolmas edi. Ba'zilari tik yonadan tushayotganda tog'da yurishga mo'ljallanmagan quyushqon va ayillari uzilib ketar, egalari otlaridan yiqilib tushishar edi. Shunday yiqilib tushganlardan birini tutib olib, Boburning oldiga «til» tariqasida keltirdilar. Bobur «til»ni so'roq qildirib, shayboniyzodalar orasida ularning eng iste'dodli sarkardasi bo'lgan Ubaydulla Sulton yo'qligini, boshqalari durustroq olishishning epini topolmay, chekinishga ham jur'at etolmay, ikkilanib turganini aniqladi. Bobur yov qo'shini saflanib turgan pastlikning yaqinida suv yo'qligini bilar edi. Havo issiq. Kuni bo'yi yugurib-yelib charchagan odamlar va otlar hali zamon chanqab, suv qidirishga tushishi muqarrar. Suv esa yov turgan joydan besholti chaqirimcha orqada edi. Kech kirib, kun bota boshlaganda Bobur odamlariga: «Bugun endi jang

bo'lmadi, ertani kutamiz», deganday qilib, otdan tushdi. Tepalikda Boburning yonida turgan mingdan ortiq askarlar ham otdan namoyishkorona tusha boshladilar.

Buni daraning tashqarisidagi shayboniyzoda sultonlar ko'rib turardilar. Lekin daraning ichida – sultonlarga ko'rinmaydigan joyda Boburning asosiy kuchlari otdan tushmay, saf tortib, hujumga shaylanib turar edilar.

Tepalikda turgan Bobur yon-veridagi barcha navkarlari bilan kechki paytda otdan tushganini va navkarlar safini tarqatib yuborganini ko'rgan sultonlar «bugun chindan ham jang bo'lmaydi» deb o'ylagan bo'lsalar kerak. Ular ham saflarini buzib, ba'zilari otlarini yetaklagan holda orqaga burilishdi va suv izlay boshlashdi.

Boburga shu kerak edi. U sakrab otiga mindi-yu, dara ichida yovga ko'rinmay tayyor turgan bek va navkarlariga qarab qichqirdi:

– Yog'iy chekindi! Zafar bizniki bo'lur! Ta'qib eting! Bu buyruq og'izdan-og'izga o'tib, bir lahzada butun saflarga tarqaldi. «Yov qochsa, botir ko'payadi» deganlaridek, yov chekinganiga ishongan daradagi askarlar dahana tashqarisiga sherday dadil hamla qilib chiqdilar. Bobur ham qilich yalang'ochlab, tepadagi tug'bardorlari va xosnavkarlari bilan pastga otildi. Shayboniyzodalar dara ichidan va tepadan tog' ko'chkisiday otilib tushib kelayotgan o'n besh ming qo'shin qarshisida shoshib qoldilar. Ular buzilgan saflariga qaytadan tartib berishga ulgurolmay, vahima ichida qochishga tushdilar.

Bu qochishni o'ng tomonda Mirzoxon bilan olishayotgan Temur Sultonning odamlari ham ko'rdilar-u yakkalanib, qurshovga tushib qolishdan qo'rqib, narigi bir daraga qarab chekindilar. Bobur xosnavkarlari bilan birga yovning asosiy kuchlarini

ta'qib qilib bormoqda edi. G'ira-shira qorong'ilik tushganda uning Muhammad Sulton Do'lday degan beki Hamza Sultonning qo'shinini tor-mor qilib, o'zini asir olib keldi. Xufton kechroq Xo'ja Kalon boshliq navkarlar Mahdi Sultonni ham qo'lga tushirib keldilar.

Qorako'l va Andijonda bo'lgan ko'pgina qirg'inlarning sababchilari mana shu sultonlar edi. Bobur ularni o'limga hukm qildi.

## 5

Tiniq kuz osmonida oq ipakdan ham nafis mezonlar uchadi. Samarqand bog'larida katta dona anorlar yetilgan, sohibi uzumlar va naqsh olmalarning eng shirinlari qolgan payt. Shaharning barcha darvozalari ochiq, kirdi-chiqdi bemalol. O'n kundan beri Samarqandda na qo'shin bor, na bir hokimiyat. Shayboniyzodalar Vaxsh bo'yida Boburdan yengilganlaridan keyin G'uzor va Qarshi atroflarida yana astoydil bir jang qilmoqchi bo'lib, kuch to'plab ko'rdilar. Biroq Boysun tog'laridan narida Bobur qo'shiniga Shoh Ismoil yuborgan o'ttiz ming qizilbosh askari kelib qo'shilgani ma'lum bo'lgandan keyin sultonlar ikkinchi marta mag'lubiyatga uchrashdan qo'rqdilar-u Qarshi, Buxoro va Samarqandni jangsiz tashlab chiqdilar. Faqat ular dushmanlariga zaxira qoldirmaslikka tirishib qo'llariga tushgan hamma ot-ulov, mol-hol, don-dunni talab olib ketdilar. Shu munosabat bilan ko'chmanchi qabilalarning yana bir talon-torojini boshdan kechirgan va ularga qarshi nafrati benihoya oshgan o'troq aholi endi butun najotni Boburdan kutib, uning yo'liga umid bilan ko'z tika boshladi.

Bobur ittifoqdoshlari bilan G'uzordan Qarshiga, undan Buxoroga o'tgan, bu qo'rg'onlarga ishonchli

odamlarini qo'yib, endi Samarqandga kelmoqda edi. Bundan xabar topgan samarqandliklar Chorraha darvozasini, unga kelib kiradigan Buxoro yo'lining ikki chetini dorpech, gilam va palaklar bilan bezatdilar. Yo'l bo'yiga o'nlab muvaqqat do'konlar qurildi, hayit kunlaridagi kabi sayil boshlandi.

Shaharning eng obro'li odamlaridan yigirma-o'ttiz nafari qo'rg'on kalitlari va qimmatbaho peshkashlar bilan Boburni bir kunlik yo'lda peshvoz oldilar. Ertasi kuni Bobur saf-saf otliq qo'shin oldida mulozimlari bilan Samarqandga yaqinlashar ekan, yo'ning ikki bo'yini xaloyiq tutib ketganini, hammayoq bayram tusini olganini, tom ustlarida, darvoza oldilarida karnaylar va nog'oralalar chalinayotganini ko'rdi.

Boburning Hisordagi g'alabasi sharafiga yozilgan she'riy ta'rixlar<sup>1</sup>, uning Samarqandga kelishini qutlaydigan satrlar xattotlar tomonidan yirik-yirik harflar bilan oq ipak matolarga yozilib, yo'l bo'ylariga, do'kon tepalariga, qo'rg'on ichining ko'zga ko'rinarli joylariga osib qo'yilgan edi. Bobur xor-zor bo'lib chiqib ketgan Vatanida bunchalik izzat-ikrom bilan qarshi olinishini xayoliga keltirmagan edi. U mavkabi bilan shaharning markaziy xiyobonidan Ko'ksaroyga qarab o'tayotganda, Ulug'bek madrasasining baland peshtoqi va minoralari ustida qo'shkarnaylar chalib, nog'oralarni sayratib, quvonch bildirayotgan vatandoshlarini ko'rdi. Shunda birdan eti jimirlab, ko'ziga yosh keldi. Yonida borayotgan Qosimbekka qarab:

- Ishongim kelmas, tushimmi bu, o'ngim? - dedi.
- O'ngingiz, hazratim! O'ngingiz!

Xosnavkarlardan sal keyinroqda sallalariga qizil o'tag'alar qadalgan Shoh Ismoilning beklari Ahmadbek

---

<sup>1</sup> She'riy ta'rix – maxsus bir janr bo'lib, harflaridan abjad hisobi bilan ma'lum yil va oy kelib chiqadi.

soʻfi oʻgʻli, Shohruhbek Afshar, Muhammadjon eshik ogʻasi oʻz mulozimlari bilan bir toʻp boʻlib kelmoqda edilar. Ular ot ustida gʻoliblarga xos viqor bilan oʻtirishar, yuzlaridan: «Biz boʻlmasak, Bobur Samarqandga qaytib koʻrsin edi!» degan bir maʼno anglashilar edi.

Samarqandliklar esa butun karnay-surnaylarini Boburga qaratib chalishardi. Shoh Ismoilning bek va navkarlari xaloyiq oldidan oʻta boshlaganda, karnaylar va nogʻoralar birin-ketin tinib qolardi. Qizilboshlarning shafqatsiz ishlari va shia mazhabini zoʻrlik bilan tarqatish borasidagi harakatlari Samarqandga juda vahimali ovozarlar tarzida yetib kelgan edi. Shaharning sunniy aholisi saf-saf boʻlib oʻtayotgan qurolli shialarga xavotirli, noxush nazar bilan qarashardi. Xaloyiqning sovuq munosabatidan qizilbosh beklarining qovoqlari osilib borar, Boburga koʻrsatilayotgan izzat-ikromlar ularning gʻashlarini keltirardi.

Bunday murakkab holatlar Qarshi va Buxoroda ham boʻlgan edi. Bobur vatandoshlarining mehmondoʻstlik tuygʻusini uygʻotish uchun shu kuniy oq Samarqandning maydon va koʻchalariga jarchi chiqartirib: «Shoh Ismoilning gʻoziylari bizning moʻtabar mehmonlarimizdandir!» deb eʼlon qildirdi. Soʻng quvonchli ayyom munosabati bilan mehmonlarga va shahar aholisiga uch kungacha osh berishni buyurdi.

Bobur va uning odamlari bundan oʻn yil muqaddam qamalda qolib, ochlikdan intihosiz mashaqqatlar chekkan Boʻstonsaroyda, mahalla va guzarlarda, bogʻ va sayrgohlardagi yuzlab tandirlarda osiyogi nonlar, shirmoylar, patirlar yopildi, minglab tovoq oshlar tortildi, behisob koʻp qoʻylarning goʻshtlaridan qovurdoqlar, kaboblar, shoʻrvalar tayyorlandi, asil chogʻirlarga toʻla xumlar ochildi.



Bobur har kuni mehmonlari va musohiblari bilan chogʻir ichib, xursandchilik qilar edi. Toʻy-tomoshga ustiga yana toʻrt tarafdin xushxabarlar kelib turardi. Andijon, Margʻilon, Oʻsh va Oʻzgan hammasi birin-ketin shayboniyzodalar hukmidan chiqib, Bobur tomoniga oʻtgan edi. Janubda Qunduz, Kobul, Gʻazna barchasi endi Boburning qalamravidagi yagona mamlakatga aylangandi. Uning nazarida, hayotining eng baxtli davri boshlangan, barcha orzulari endi beka-u koʻst roʻyobga chiqishi kerak edi.

Biroq bu baxtning juda omonat, juda muvaqqat ekanligi eng avval masjid bilan bozorda bilindi.

\* \* \*

Samarqand qoʻrgʻonining Ohanin darvozasi yaqinidagi ulkan marmar masjidning tekis tosh toʻshalgan sahniga yigirma ming namozxon toʻplangan. Bugungi juma namozida xutba qanday oʻqilishini koʻpchilik samarqandliklar oʻz quloqlari bilan eshitgilari keladi. Chunki: «Bobur podshoh shialar tomoniga oʻtganmish, choryorlardan yuz oʻgirib, oʻn ikki imomni tan olganmish!» degan mish-mishlar koʻpaygan, Boburni quvonib, qarshi olgan sunniy mazhabidagi odamlar, bu ovozaga ishongilari kelmas, biroq uning muxoliflari aholining asabiga tegadigan mish-mishlarni tobora koʻp tarqatishar edi. Bugun jome masjidida oʻqiladigan xutba bu ovozalarning qanchalik rost, qanchalik yolgʻonligini aniqlab berishi kerak edi – qoidaga binoan, xutbaga yoki choryorlarning nomi, yoki oʻn ikki imomning nomi, albatta, qoʻshib oʻqilar edi. Buni biladigan odamlar jome masjidining ich-tashini toʻldirib yuborgan edilar. Xutba oʻqilishiga bir soat qolganda, masjid sahnida boʻsh joy qolmadi. Shundan keyin eshik va darvozalar oldida turgan qurolli soqchilar ichkariga

hech kimni kirgizmay qo'ydilar. Bir vaqt masjidning orqa eshigidan sadrlar suduri Xo'ja Xalifa, Bobur, Qosimbek va uch-to'rt nafar qizilbosh beklar kirib kelishdi. Bobur masjidning ich-tashiga odam benihoya ko'p to'planganini ko'rib, yuragi iztirob bilan «shig'» etdi. Bu odamlar uning hozir qilmoqchi bo'lgan qaltis ishi muvaqqat bir chora ekanini tushunisharmikan?

Mana shu vaziyatda eng to'g'ri yo'l – shoh qo'shinini «otang yaxshi, onang yaxshi», deb silab-siypab, Vataniga jo'natib yuborish edi. Avvaldan kelishilgan shartlarga binoan, Bobur Shoh Ismoilni oliy hokim deb e'lon qilishi, xutbaga uning va o'n ikki imomning nomini qo'shib o'qitishi, keyin shohning nomidan pul zarb qilishi kerak edi. Shu shartlar bajarilsa, Shoh Ismoilning beklari o'z qo'shinlarini Movarounnahrda olib chiqib ketishga ko'nar edilar.

Yuqoridagi shartlarni xo'jako'rsinga bo'lsa ham bajarib, begona qo'shından tezroq xalos bo'lish to'g'riroq ekanini Qosimbek ham, boshqa sirdosh a'yonlar ham tushungan edi. Xo'ja Xalifa ham bugungi xutbani Bobur istagan tarzda o'qishga rozi bo'lgan edi. Rejaga binoan, Xo'ja Xalifa samarqandlik sunniy namozxonlarning g'azabiga qolmaslik uchun choryorlarni umumiy bir tarzda nomlarini tilga olmay aytib o'tishi, o'n ikki imomni esa qizilbosh beklarni qoniqtiradigan ohangda nomma-nom tilga olishi kerak edi. Uzun mosh-guruch soqoli kindigiga tushadigan Xo'ja Xalifa barcha qavmlarning oldida turib, juma namozini o'qidi-yu, keyin qo'lga hassasini olib, masjid to'ridagi marmar zinapoyali minbarga ko'tarila boshladi.

Yigirma ming namozxon hammasi jim. Masjid sahnini to'ldirgan odamlarning hammasi go'yo o'zlarining sunniy mazhablarini namoyish qilmoqchi bo'lgandek boshlariga to'rt o'ramlik sallalar o'ragan edilar. Sunniy sallalarning sanoqsiz ko'pligidan g'ashi

kelgan elchi Xo'ja Xalifaning boshidagi dastorga qaradi. O'ramlari to'rttadan ko'p, ammo o'n ikkita ham emas. Sanab bo'lmaydi. Muhammadjon eshik og'asi Bobur va Qosimbekning boshlaridagi sallalarga qaradi. Bularning o'ramlari ham to'rttadan ko'p, ammo o'n ikkitadan oz. Bu sallalar shunday o'ralganki, o'ramini sanash mumkin emas. Muhammadjon eshik og'asi bunda qandaydir ma'no borligini sezib, sergaklandi. Nahotki Bobur Qunduzda bergan va'dasini bajarishdan bosh tortmoqchi bo'lsa?

Muhammadjon eshik og'asi Xo'ja Xalifaning harakatlarini sergak turib, kuzata boshladi. Masjid sahnidagi odamlar ham nafaslarini ichlariga yutib, xutbaning boshlanishini kutmoqda edilar. Umumiy jimlikda Xo'ja Xalifaning yo'g'on tovushi allanechuk titrab, iztirobga to'lib eshitildi:

– Bismilla-ah-ir rohmo-onir rohim!

Minbarda turgan Xo'ja Xalifa yigirma ming sunniy namozxonning o'ziga sergaklanib tikilayotganini ko'r-di-yu, tizzasi ham qaltiray boshladi. Mana, u Olloh sha'niga, payg'ambar sha'niga bitilgan surani o'qib tugatyapti. Endi choryorlar tilga olinishi kerak. Nahotki, Xo'ja Xalifa – yoshlikdan sunniy mazhabida choryorlarga zo'r e'tiqod bilan tarbiyalangan odam endi shuncha namozxonning umidini puchga chiqarsa? Uning qarshisida yigirma ming salla turibdi. Bu sallalardan har birining qatlarida, choryorlarning ruhi yashashiga Xo'ja Xalifa bolalikdan ishonadi. Hozir namozxonlarning boshlari sabrsizlik bilan qimirlaganda, Xo'ja Xalifaga salla o'ramlaridagi arvohlar qimirlaganday tuyildi. Agar u choryorlarga hurmatsizlik qilsa, arvoh urib ketadiganday bo'ldi.

Yo'q, Xo'ja Xalifa choryorlarning arvohidan qo'rqadi. Shuning uchun:

– Choryori bosafolar Hazrati Abubakir! Hazrati Umar! – deb hozir aytishi kerak bo'lmagan nomlarini birdan xutbaga qo'sha boshladi.

Boburning orqasida turgan minglab namozxonlarning quvonch bilan yengil nafas olgani eshitildi. Muhammadjon eshik og'asining esa rangi o'chib ketdi. Uning narigi yog'ida turgan Shohruhbeq Afshar qilichining sopini changallab, minbarga tomon intildi.

Shialar Abubakir, Umar va Usmonni bugungi tirik dushmanlaridek yomon ko'rishar, masjidida ularni ulug'lagan har bir sunniyni chopib tashlagilari kelar edi. Hirotning jome masjidida choryorlarni ulug'lagan Zayniddin degan xatibni qizilboshlar namozxonlarning ko'zlari oldida qilich bilan chopib, parchalab tashlaganini Bobur eshitgan edi. Hozir u Shohruhbeqni bilagidan olib, iltimoskorona tovush bilan:

– Bek janoblari, sabr qiling, sabr! – dedi. Bu orada Xo'ja Xalifa choryorlarning nomini aytib bo'ldi-yu, qizilboshlar sevadigan imomlarni xutbaga qo'sha boshladi.

– Hazrati Imom Hasan! Hazrati Imom Husayn! Hazrati Zaynaliddin Ali!

Shohruhbeq Afshar bu nomlarni eshitib qo'lini qilichining sopidan oldi-da, qatorga qaytib kirdi. Ammo orqadagi namozxonlar orasida shunday bir asabiy shovur-shuvur boshlandiki, Xo'ja Xalifa qolgan imomlarning nomini baqirib aytishga majbur bo'ldi.

Orqadan kimdir:

– E, bas, bas! – deb qichqirdi. Biroq namozxonlar orasida tartib o'rnatish uchun qo'yilgan devqomat navkarlardan biri «bas!» deb qichqirgan odamning og'zini ulkan kafti bilan bekitib, bo'ynidan sudrab olib chiqib ketdi.

Xatib o'n ikki imomni nomma-nom sanab bo'lib, ularning muqaddas ishini bugun davom etti-

rayotgan sohibi zamon Shoh Ismoil Safaviyni maqtab soʻzlay boshlaganda, masjid sahni yana ham asabiyroq junbushga keldi. Faqat Xoʻja Xalifa Boburni Movarounnahrning podshosi, deb eʼlon qilganda shovqin xiyol bosildi.

Xutbadan soʻng uy-uyiga tarqalgan namozxonlarning baʼzilari: «Bobur mirzo Movarounnahrning podshosi boʻldi, taxtini kelgindiga bermadi», deb tasalli topmoqchi boʻlsa, boshqalar:

– Pok mazhabimizga rofiziylilik aralashdi, – deb shivirladi. – Harom boʻldik! Choryorlarning qargʻishiga qoldik! Yana qimmatchilik boʻlgay! Yana ocharchilik boshlangay!

\* \* \*

Bobur qizilboshlarning shartlarini ado etib, ularni tezroq joʻnatib qoʻyish uchun Shoh Ismoil inʼom qilgan oʻsha mashhur dastorni taxtga chiqqanda boshiga kiyib koʻrinish berdi. Soʻng Shoh Ismoilning tamgʻasi bilan bir necha ming tanga pul zarb qildirib, bu pullarni qizilboshlarning oʻzlariga tarqatdi.

Shu munosabat bilan shahar-u qishloqlarda har xil mish-mishlar avvalgidan ham koʻpayib ketdi. Goʻyo afsonaviy kitoblarda bitilgan Yaʼjuj-Maʼjujlar mana shu qizilboshlar emish. Bobur qizilboshlarning sallasini Koʻktoshga kiyib chiqqanda muqaddas toshning bir cheti yorilib ketgan emish. Endi Shoh Ismoil Samarqandga kelib, mana shu Koʻktoshga chiqarmish. Oʻshanda qiyomat-qoyim boshlanarmish.

Shayboniyzodalar Samarqandda qoldirib ketgan mulla va darvish kiyimidagi xufiyalar mahalla-koʻylarda, bozorlarda vahimali ovozarlar tarqatib, shiasunniy nizolarini mumkin qadar alangalantirishga tirishar edilar. Bozorda narx-navo oshib ketayotganini ham shialarning kasofatidan koʻrayotgan omi kishilar

qizilboshlarga nafrat bilan qarar edilar. Bitimdagi shartlar bajarilgandan keyin qizilboshlar yurtlariga qaytib ketishga hozirlana boshladilar. Ularning besh-oltitasi Samarqandning Chorsusidagi atlas do'koniga sovg'a sotib olish uchun keldi.

Bozor kuni. Chorsuda odam juda ko'p. Qizilbosh navkarlar yetti xil rang bilan tovlanayotgan Samarqand atlasiga xaridor bo'lib qolishdi. Mulla yoqa ko'ylak kiygan semiz bazzozga qarab, to'rt kiyimlik atlas kesishni buyurishdi.

Bazzoz yog'och gazni qo'liga oldi-yu, qizilbosh navkarlarga istehzoli ko'z tashlab:

– Avval pulingni ko'rsat, – dedi. – Aqchang qandoqa? Tangang?

Katta cho'girma kiygan bir yigit charm hamyonidan uch-to'rtta kumush tanga olib, bazzozga berdi. Bazzoz tangalarning old tomoniga Shoh Ismoilning tamg'asi orqa tomoniga shia imomlarining nomi zarb berilganini ko'rdi-yu, qo'rqib ketdi. U sunniy mullalarning: «Shia puli harom, uni olgan odam choryorlarning qarg'ishiga uchraydi», degan gaplarini eshitgan edi. Shuning uchun qo'liga tangani emas, zaharli chayonlarni olganday jirkanib va shoshib tangalarni egasiga qaytardi.

Beliga qilich va xanjar taqqan devqomat qizilbosh navkar avval kaftidagi yangi kumush tangalarga, so'ng bazzozga taajjub bilan tikildi.

– Ne o'ldi?! Bu oqchada ne illat va-ar?

– Bizda bu tangalar o'tmaydi. Hech kim olmaydi.

– Nechun olmassan? Nechun? – kuyib-pishib so'radi qizilbosh navkar.

– O'tmaydi.

– Nechun o'tmas?!

Bu savolga chetroqda turgan bezorinamo bir yigit javob berdi:

– Kelgindilarning puli harom!

– Harom?! – deb qizilbosh navkar haligi yigitga qarab intildi. Ammo u yigit o‘zini bozor to‘la xaloyiqning orasiga urdi. Shunda do‘konlar orasidan kimdir qizilbosh navkarga tosh otdi:

– Rofziylar, ket yurtingga! – degan tovush eshitildi.

Ko‘zlaridan olov chaqnayotgan ikkinchi qizilbosh bazzozdan tahdid bilan cho‘zib so‘radi:

– Bizim aqchani olmas-sa-an?!

Bazzoz endi uning g‘azabidan qo‘rqib, muloyimroq gapirdi:

– Olsam, kuygaymen, mehmon. Biz eski aqchada savdo qilishga o‘tganmiz.

– Eski aqcha? Shayboniyxonning aqchasi kerakmi?

Hozir Samarqand bozorida chindan ham Shayboniyxon chiqargan tangalar yaxshi o‘tardi. Bu tangalarga sunniylar sig‘inadigan choryorlarning nomi bitilgan edi. Savdogarlar uchun bundan ham muhimi – Shayboniyxon tangalarining vazni og‘irroq, demak, qiymati balandroq edi. Shayboniyxon o‘limidan uch-to‘rt yil burun Hirotdan to Toshkent va Turkistongacha bo‘lgan viloyatlarda pul islohoti o‘tkazgan, raqiblaridan moliya sohasida ham ustun kelish uchun o‘z tangalarining og‘irligini Temuriylar chiqargan tangalarning vazniga nisbatan bir dang<sup>1</sup> oshirgan edi. Shuning uchun hozirgacha butun Xuroson va Movarounnahr bozorlarida Shayboniyxon tangalarining xaridori ko‘proq edi. Lekin bazzoz g‘azabi kelib turgan qizilbosh navkariga buni ochiq aytmadi.

– Shayboniyxon yo‘q, o‘lgan, – dedi.

Shu payt kimdir uzoqdan:

– Samarqandni bo‘shat, kelgindi! – dedi-yu, do‘kon oldida turgan qizilboshga kesak otdi.

Kesak uning telpagiga tegib ushaldi-da, changi

---

<sup>1</sup> Bir dang – «oltidan bir» demakdir. Temuriylar tangasining vazni 4,6 gramm bo‘lsa, Shayboniyxonning tangasi 5,2 gramm bo‘lgan.

yuziga tushdi. Xaloyiq orasidan allakimlarning kulgani eshitildi. Qizilbosh navkar egri qilichini qinidan sug'urib, kesak otgan odamni ko'zlari bilan qidirdi, ammo topolmadi. So'ng yana semiz bazzozga yuzlandi.

So'zining oxirgi bo'g'inini cho'zib so'radi:

– Shoh Ismoilni aqchasin almas-san?

Bazzoz uning qilichidan qo'rqib, titrab gapirdi:

– Men olsam baloga qolamen.

Qizilbosh yana bir marta:

– Almassa-an?! – deb cho'zib so'radi-yu, keyin chetdan otilgan tosh va kesaklarning alamini ham bazzozdan olib uning yelkasiga bor kuchi bilan qilich urdi. O'tkir qilich bazzozning go'shtdor yelkasini bo'ynining oldidan kindigigacha kesib tushdi. Shunda ikkinchi qizilbosh ham qilichini yalang'ochladi-yu, cho'kkalab qolgan bazzozning boshini bir zarb bilan tanasidan judo qildi. Semiz bazzozning boshsiz bo'ynidan sharillab otilgan qon do'kon ichidagi atlaslar va ipak matolarga sachradi. Buni ko'rgan odamlar qiy-chuv ko'tarib, vahima ichida qocha boshladilar.

## 6

Shia-sunniy nizolari bunday qonli to'qnashuvlarni tobora ko'p keltirib chiqarayotgani qizilbosh beklar-ni ham tashvishga solib qo'ydi. Bobur o'zining Shoh Ismoil bilan tuzgan ittifoqiga sodiq ekanini ularga qayta-qayta uqtirib, nufuzli beklarga qimmatbaho sarupolar, otlar, oltin-kumush pullar in'om berib, nihoyat, qish chillasi chiqqanda, o'ttiz ming qo'shinni Movarounnahr-dan Eronga jo'natib yubordi.

Shundan so'ng Samarqand ancha tinchib qoldi. Toshkent, Xo'jand, O'ratepa ham Shayboniyar hukmidan chiqib, Bobur tomoniga o'tganligi haqida xushxabarlar keldi. Qizilboshlarni uch oy davomida



boqish va qimmatbaho sovg'alar bilan kuzatish paytida ancha bo'shab qolgan xazina o'sha shaharlardan kelgan peshkashlar bilan yana ancha to'ldi.

Samarqand bog'lari oq-pushti bodom gullari bilan bezana boshlagan ilk bahor kunlarida Bobur bir to'p yaqinlari bilan o'tlanib, Ulug'bek rasadxonasi tomonga sayrga chiqdi. O'ntacha qo'rchi navkarlarni to'riq qashqa ot mingan Tohir boshqarib bormoqda edi. Oq otliq Boburning ikki yonida Qosimbek bilan marg'ilonlik Xo'ja Kalonbek. Ulardan orqaroqda o'tgan hafta Hirotdan kelgan mavlono Fazliddin yuvosh qora otga minib, o'ychan kelmoqda. Ichki beklar orasida munshi ham, maktab-madrasa ishlari bilan shug'ullanuvchi bir mudarris ham bor. Otliqlar Obirahmat arig'iga yetmay, Bog'i Maydon tomonga burildilar. Ulug'bek zamonida juda obod va mashhur bo'lgan, bundan o'n besh yil oldin ham fayzlik turgan Bog'i Maydon shayboniylar davrida qarovsiz qolib, ichki ariqlari bekilib ketgan, suvsizlikdan ko'pgina daraxtlar qurib qolgan edi. Ikki qavatlik naqshin ko'shk - Chinnixonaning shiftidan tomchilar o'tib, ajoyib rasmlarning anchasi o'ngib ketgan edi.

Bobur buning hammasini ko'rib chiqqach, mavlono Fazliddinga yuzlandi:

- Mavlono, biz sizni Hirotdan chorlab keltirganda yangi qasrlar, chorbog'lar qurdirish umidida edik. Ammo olamga mashhur qadimiy obidalarimizning bu ahvolini ko'rib, o'zingiz ham taassuf etsangiz kerak!

- Hazratim, Ulug'bek mirzoning olamda yagona rasadxonasi ham mana shu Chinnixona kabi tashlandiq ahvoldadir, - dedi mavlono Fazliddin. - Kecha ko'rib ko'nglim vayron bo'ldi. Oltmish yildan beri qarovsiz. Nodir asbob-olotlari talangan. Devorlaridan koshinlari, marmar toshlari ko'chirib ketilgan. Shu ahvolda tashlab qo'yilsa, uch oshiyonlik rasadxona ko'p vaqt o'tmay xarobaga aylanur.

– Demak, shoshilinch choralar ko‘rmog‘imiz darkor, janob Qosimbek. Bizning xos me‘morimiz mavlono Fazliddin qanday mablag‘-u ko‘mak talab qilsalar beraylik, Ulug‘bek mirzodan yodgor qolgan Chinnixonona-yu rasadxonalar darhol ta‘mir etilib, aslidek tiklansin.

Qosimbek yengil bir ta‘zim bilan:

– Hazratim, amringizni jonim bilan ado etgaymen! – dedi. – Chinnixononani ta‘mirlash uncha mushkul emas. Bog‘ning ko‘milib ketgan ariqlarini ham ochgaymiz, gullar o‘stirurmiz.

– Navro‘z bayramigacha ulgurgaymisiz? – so‘radi Bobur. – Bu yilgi Navro‘z bazmini mana shu Chinnixononada o‘tkazaylikmi, a, janob Kalonbek?

Ichkilik bazmlarini yaxshi ko‘radigan Xo‘ja Kalonbek mamnun jilmaydi:

– Dono fikr aytdingiz, hazratim! – dedi. – Samarqandda bog‘bonlar-u naqqoshlar yetarlik.

Hamma hunarpeshalarga mavlono Fazliddin sarkor bo‘lurlar. Navro‘zgacha bu bog‘ obod qilinmog‘i kerak.

Mavlono Fazliddin qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, Boburga yuzlandi:

– Chinnixononani tiklash mumkin, hazratim, ammo rasadxonani ne qilurmiz?

– Uni ham tiklamoq zarur, janob Qosimbek, – dedi Bobur.

Qosimbek rasadxonani tiklashdan qo‘rqardi. Chunki shayxlar so‘nggi o‘n yilliklar davomida rasadxonani dinsizlar makoni deb la‘natlab, avom xalqni shunga ishontirib qo‘ygan edi. Agar Bobur rasadxonani qayta tiklab, yana ishga solib yuborsa, Ulug‘bekning boshini egan qora kuchlar uning joniga ham qasd qilishi mumkin edi. Qosimbek shuni o‘ylab:

– Hazratim, yotgan ilonning dumini bosmaylik, – dedi. – Rasadxonani ta‘mirlaganimiz bilan unda ish olib boradigan yetuk olimlarni qaydan topgaymiz?

Oltmish yildan beri keksa avlod olimlar o'lib, yoshlari boshqa yurtlarga ketib qolmishdir.

– Ketganlarini chorlab keltirish mumkin, janob Qosimbek, – dedi Bobur va munshiga yuzlandi: – Bizning nomimizdan qadag'alar biting.

Munshi darhol qo'ynidan daftar-qalam olib, tikka turgan ko'ycha yoza boshladi.

– Ulug'bek yaratgan falakiyot amaliy ilmidan xabardor olimlar Hirotdami, Rumdami, Tabrizdami, qayerdagi bo'lsalar, bizning nomimizdan ularni Samarqandga taklif eting. Rasadxonani qayta ochmoqchi ekanligimizni, kimda-kim Mirzo Ulug'bekning buyuk ishini davom ettirmoqchi bo'lsa barcha imkoniyatlarni yaratib berajagimizni ma'lum qiling. Agar kelsalar yo'l xarajatlarini biz zimmamizga olurmiz. Bu qadag'alarni elchilarimiz orqali Hirotda ham, Rumba ham tezda jo'natmoq sizga topshirildi, janob munshi!

Munshi Bobur aytganlarini daftariga yozib bo'lib:

– Amringizni bajarishga darhol kirishurmen! – deya ta'zim qildi-da, Chinnixonadan pastga tushib ketdi.

\* \* \*

Mavlono Fazliddin sarkor bo'lib, Bog'i Maydonning ko'milgan ariqlarini qayta kavlatishda, qurigan daraxtlarni olib tashlab, o'rniga maysa va gullar o'stirishda, Chinnixonani ta'mirlab orasta qilishda uncha qiynalmadi – insof bilan haq to'lansa, ishlab charchamaydigan hunarpeşalar, bog'bon va dehqonlar juda ko'p edi. Lekin ustalarni rasadxonaga olib borib ishlatish va uch qavatli ulug'vor doirashakl binoning nuragan, buzilgan joylarini ta'mir etish benihoya mushkul bo'ldi. Tepadan yer qa'riga tushib ketgan yarim doira shaklidagi zinapoyalarga yaqin borgan ustalar xuddi hozir jahannam qa'riga

qulab tushadigandek qoʻrqa boshlardi. Dindorlar rasadxonani: «Doʻzaxiylar makoni, kim unga kirsa jin chalib, arvoh urib ketadi!» deb, aholining katta bir qismini bunga ishontirib qoʻygan edilar. Ulugʻbekning vafotidan soʻnggi oltmish yil ichida juda koʻp maktab va madrasalar bekilgan, savodsiz johil kishilar koʻpayib ketgan, ularga mutaassib shayxlarning taʼsirlari benihoya kuchaygan edi.

Shunday boʻlsa ham mavlono Fazliddin ishsiz yurgan usta va korgarlarga<sup>1</sup> yaxshi haq toʻlab, dastlabki kunlari elliktacha odamni rasadxonadagi taʼmir ishlariga olib chiqdi. Ikkinchi-uchinchi qavatning shift va devorlaridagi nuragan joylarini tuzatish uchun havozalar qurildi. Lekin oʻsha kundan boshlab rasadxona atroflarida johil qalandarlar toʻdasi ham koʻpayib ketdi. Ular davra tortib, zikr tushib, «Haq doʻst yo Olloh!»ni muttasil takrorlab, choryorlarning ruhiga shak keltirganlarini arvoh urishini sheʼrga solib, «karomat» qila boshladilar. Bu qalandarlar orasida shayboniyzodalarning josuslari ham bor edi. Ana shu josuslardan biri korgar boʻlib yollanib, rasadxonaning ichida gʻisht tashib ishlamoqda edi. Bu josus uch-toʻrt kun taʼmirchilar ichida yurib, ularning eng dadili va Bobur mirzoga ixlosmandi, qirq besh yoshlardagi bir koshinkor usta ekanini aniqladi. Xonlar josusi manna shu ustani uchinchi qavatda havozada ustida ishlayotgan paytida kishi bilmas qilib havozadan pastga itarib yubordi. Uchinchi qavatdan tosh uyumi ustiga boshi bilan qulab tushgan usta oʻsha zahoti jon berdi.

Koʻchalarda zikr tushib yurgan qalandarlar: «Ustani arvoh urdi!», «Xudo gʻazabini koʻrsatdi!» deb vaysay boshladilar. Bu falokatdan soʻng qolgan usta va korgarlar rasadxonaga kelmay qoʻyishdi. Mavlono Fazliddin ishga zor boʻlib, yarim och yurgan boshqa

---

<sup>1</sup> Korgar – quruvchi ishchi.

usta va korgarlarni yollamoqchi bo'lsa, nuqul: «Rasadxonada ishlab topilgan pul harom emish! Borgan odamni arvoh urib o'ldirarmish!» degan vahimali gaplar eshitar, omi odamlar undan balodan qochganday qochar edi...

\* \* \*

Bo'stonsaroyning tillakori qabulxonasida Amudaryo bo'yidagi Urganch va Qorako'l shaharlaridan xushxabarlar bilan kelgan bek va a'yonlar sharafiga ziyofat berilmoqda edi. Shayboniyzodalardan ko'p jabr ko'rgan bu shaharlar ham Boburni o'zlariga oliy hukmdor deb tan olishgan va qimmatbaho sovg'alar berib yuborishgan edi. O'z vaqtida Shayboniyxon Qorako'l va Urganchni zabt etish uchun oylar davomida jang qilgan, behad ko'p qon to'kib, ularni olgan edi. Mana endi bu shaharlar jang-u jadalsiz elchi yuborib, Bobur tomoniga o'tganligi unda zo'r bir iftixor tuyg'usini uyg'otdi. Bobur yoshlikdan ko'ngliga tukkan orzusiga – butun Movarounnahrni birlashtirish, Ulug'bek davridagi ulkan davlatni qayta tiklashga mana endi muyassar bo'layotganidan benihoya shod. Qunduzda birinchi marta boshlangan ichkilik bazmlari Samarqandda davom etib, avjiga chiqmoqda. Erishilayotgan g'alabalar sharafiga bek va a'yonlar navbatma-navbat ziyofat berishib, Boburni deyarli har kuni taklif qilishadi, unga eng nodir, eng ajoyib maylarni ichirib, xursand qilishda bir-birlaridan o'zishga intilishadi. Faqat Qosimbek hamon ichkilikni og'ziga olmas, paytini topsa, Boburni ham hushyorlikka undar, mamlakat ichida qora kuchlar bosh ko'tarayotganini, shimoldagi dashtda esa shayboniyzodalar hayot-mamot jangiga tayyorlanayotganini takror-takror eslatar edi.

Lekin Bobur unga javoban so'nggi paytda yozgan bir g'azalidan to'rt satr o'qib berdi:

*Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,  
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.  
Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zgacha holi bor,  
Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa bordir davlati.*

Bu g'azalga kuy bastalanib, qabul marosimlarida ham aytiladigan bo'lgan edi. Shirakayf Bobur:

– Janob Qosimbek! – dedi. – Eshitdingizmi, Samarqand maktablarida bolalar men ixtiro qilgan xat bilan juda tez savodxon bo'lmoqda emishlar. Mana, mudarris janoblaridan so'rang...

Boshida salla-yu qo'lida may to'la qadah bilan ta'zim qilib turgan mudarris:

– Janob Qosimbek, – dedi, – xalqimizni jaholat panjasidan qutqarib olishda hazratim ixtiro qilgan Xatti Boburiy ajoyib bir vosita bo'lishi aniq! Qur'on xati garchi biz uchun aziz, ammo zer-u zabarlari, shikasta usullari savod chiqarishga behad mushkul. Xatti Boburiy esa zer-u zabarsiz, o'rganishga oson.

Qosimbek Boburning bundan uch yil oldin Kobulda ixtiro qilgan xati Sirdaryo bo'yidagi Sig'noqdan topilgan qadimiy turkiy yozuvga asoslanganini bilar edi. Arab yozuvini «Qur'on xati muqaddas», deb hisoblaydigan ruhoniylar islom dinidan oldin tarqalgan qadimiy yozuvlarni qattiq qoralab, topilgan joyida o'chirib tashlashni buyurar edilar. Bobur esa buni jaholat hisoblar, qadim zamonda ixtiro qilingan turkiy yozuvning<sup>1</sup> dinga aloqasi yo'qligini aytar, Xatti Boburiyni shuning uchun xalq orasida tarqatmoqchi bo'lar edi.

<sup>1</sup> Bu yozuv aslida O'rxun-Yenisey runik yozuvining Bobur davrida Sig'noqg'a yetib kelgan bir turi bo'lishi kerak.

Ichkilik bazmi paytida bu murakkab mavzularda gapirishni yoqtirmaydigan Qosimbek oradan ikki kun o'tgach, devoni xosda o'tirgan Boburning huzuriga mavlono Fazliddin bilan Xatti Boburiyni tarqatib yurgan mudarrisni boshlab kirdi.

Ularning uchovi ham allanarsadan juda bezovta ekanini sezgan Bobur:

- Tinchlikmi, janoblar? - dedi.

- Hazratim, - dedi mudarris. - Xatti Boburiyni targ'ib qilib, maktab ochgan bir maktabdorni avboshlar toshbo'ron qilib o'ldirmishlar.

- O'ldirmishlar?! - deb Bobur o'rnidan turib ketdi. - Bu ne jaholat, janob Qosimbek? Bizga qarshi g'ulumi?!

- Hazratim, mutaassib shayxlar bilan qalandarlar hamma joyda bizga qarshi ish olib bormoqdalar. Rasadxonada bir usta havozadan yiqilib o'lgandan beri ta'mir ishlariga odam yollash mumkin bo'lmay qoldi. Masjidda va'z aytgan mullalar Xatti Boburiyni «Shoh Ismoil yuborgan shialar xatti» deb e'lon qilgan emishlar. Shu ovoza butun shaharga tarqalib, oxiri haligi maktabdorning toshbo'ron bo'lishiga olib kelmishdir.

- Bu yolg'on ovozani tarqatganlarni nega hibsga olmadingiz? - qahr bilan so'radi Bobur. - Axir bu xatning Shoh Ismoilga mutlaqo aloqasi yo'q-ku.

- Xo'ja Xalifa shuni masjidi jomeda minbarga chiqib aytmoqchi bo'lgan ekan, «Yolg'on! Kofirlar xati harom! Qur'on ursin sen Xalifani!» deyishib, johillar uni minbardan tortib tushirmishlar. Agar Tohirbek boshliq soqchilarimiz Xo'ja Xalifani qutqarib qolmasalar, johillar uni ham o'ldirishlari mumkin ekan. Avboshlardan yigirma-o'ttiztasini hibsga oldik. Ammo Xo'ja Xalifaga qarshi va'z aytgan mullalar Xo'ja Ahrori valiyning avlodlaridan ekan. Ularni sizdan bemaslahat hibsga olishga jur'at etmadim. Bobur ahvolning naqadar jiddiylashib ketganini endi sezdi.

Xo'ja Ahror avlodini hibsga olish – yonay deb turgan olovni puflab alangalatish bilan barobar edi.

– Qo'shinning kayfiyati ham yaxshi emas, hazratim, – deb davom etdi Qosimbek. – Hozir ichak uzildi payt, narx-navo ko'tarilgan. Shayboniyzodalar chiqargan oltin-kumush tangalarning vazni biz chiqargan tangalar vaznidan ortiq bo'lganligi uchun ularning bozori chaqqon. Bek-u navkarlar ulufani oshirishni talab qilmoqdalar. Ularga ulufa oshirilsa, xazinada pulimiz yetmas.

– Undoq bo'lsa taklifingiz nedur?

– Taklifim shuki, hazratim, beklarni darhol mashvaratga to'plab, favqulodda choralar ko'rmoq lozim.

– Bilamen, beklar dashtda izg'ib yurgan shayboniyzodalarga qarshi urushmoq qasdidadalar. Yangi viloyatlar olinsa, bek-u navkarlar o'ljador bo'lurlar. Besh oydan beri Samarqandda jangsiz turib qilichlari qonsiragan.

– Ularning kasblari urush bo'lgandan so'ng bekor turgilari kelmaydi-da. Hozir shayboniyzodalar shimoldan Buxoroga yaqinlashib kelmoqda emishlar.

– Aniq axborot bormi?

– Ko'rgan odam kelib aytdi. Sarkardalari Ubaydulla Sulton emish. O'n ming qo'shini bor emish. Buni Samarqanddagi shayx-u qalandarlar ham eshitgan bo'lsalar kerak. Shayboniyzodalar tashqarida jonlangan sari ichkarida bular bizni «Shiaga sotilgan rofiziylar!» – deb xalqqa yomonlab, qora kuchlarni qo'zg'atmoqdalar.

Bobur mavlono Fazliddin bilan mudarrisga afsusli bir nazar tashladi-da:

– Janoblar, ma'rifat muammolarini bu ahvolda hal etolmaydigan ko'rinamiz, – dedi. – Xatti Boburiyni maktabda o'qitish hozircha to'xtatilsin. Rasadxonani



ham keyinroq tiklagaymiz... Biz endi butun e'tiborni harbiy ishlarga berishga majburmiz.

Mudarris bilan mavlono Fazliddin ma'yus qiyofada orqalari bilan yurib chiqib ketdilar. Qosimbek bilan Bobur Ubaydulla Sultonga qarshi Buxoro tomonga qo'shin tortib borishning maslahatini qila boshladilar...

\* \* \*

Buxoroga hujum qilgan Ubaydulla Sultonning o'n ming kishilik qo'shini Boburning Samarqanddan o'ttiz ming qo'shini bilan kelayotganidan xabar topib, Qizilqum sahrosiga qarab chekindi. Bobur qo'shini Buxoro atrofida to'xtab, dushmanning yana qaytib kelishini kutishi mumkin edi. Lekin dushman askarlari son jihatdan uch barobar kam bo'lgani uchun Bobur uni dadil ta'qib etishga qaror berdi-yu, qo'shinini qumtepalar orasiga boshlab kirdi. Ubaydulla Sultonga shu kerak edi. Bobur qo'shinining eng sadoqatli qismi tog'lik joyda yaxshi jang qilib o'rgangan, otlari cho'lida, qumtepalar orasida durust chopolmaydigan jangchilar edi. Bundan tashqari, shia-sunniy ziddiyatlari Boburga Qunduzda qo'shilgan yigirma ming kishilik mo'g'ul qo'shinining ruhiga yomon ta'sir qilgan edi. Ularning orasiga kirib borgan sunniyparast mullalar: «Boburshoh shialar bilan ittifoq tuzib, pok mazhabini bulg'adi, endi payg'ambarimiz uni emas, sunniyni pok tutgan shayboniyzodalarni qo'llab-quvvatlagay», degan e'tiqodga ko'plarni ishontirgan edilar.

Barxanlar ichida zambarak ortilgan aravalar qumga botib, otlar yaxshi chopolmay, Bobur qo'shinining safi chuvalib ketdi. Paytdan foydalangan besh mingga yaqin qunduzlik mo'g'ullar Ubaydulla Sulton tomoniga qochib o'tib ketdi.

Qizilqumda ko'p yurib, uning past-u balandini biladigan, Ko'li Malik<sup>1</sup> degan joyda otliq jang uchun eng qulay o'rinlarni egallab yotgan Ubaydulla Sultonning qo'shini yana to'lg'ama usulini ishlatib, Bobur qo'shinining ikki qanotini bukdi-yu, orqasiga o'tib oldi. To'rt tomondan berilayotgan zarbalar ustiga besh ming xoinning birdan yov tomoniga o'tib ketishi jang taqdirini bir necha soatdayoq hal qilib qo'ydi.

Bobur Qizilqumda mag'lubiyatga uchrab, qolgan-qutgan askarlari bilan Samarqandga, undan Hisorga chekinib borganda, qarshisidan Shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy oltmish ming qizilbosh askari bilan tahdidli suratda chiqib keldi.

Og'izda Najmi Soniy Boburga yordamga kelgan edi. Biroq aslida u Boburga jazo bermoqchi edi. U qizilbosh qo'shinlarining Samarqanddan tez qaytarib yuborilganidan norozi edi. Bobur Movarounnahrda mustaqil davlat tuzayotganini, uning shialarga yon bosishi – muvaqqat choraligini xufiyalar Shoh Ismoilga allaqachon yetkazgan edilar. Shoh Ismoil Movarounnahrda oid hamma ishlarni Najmi Soniyga ishonib topshirgan edi. Najmi Soniy shayboniyzodalarni bartaraf qilgandan keyin Boburni ham hokimiyatdan chetlatishi va Samarqand taxtiga boshqa ishonchli odamni o'tqazib, Movarounnahrda qizilboshlar hokimiyatini uzil-kesil barqaror qilishi kerak edi. Bu reja qattiq sir tutilar, Bobur bilan ittifoq hozircha davom etar, ammo kalondimog' Najmi Soniy Boburni ham, uning o'n mingtagina qolgan askarlarini ham nazar-pisand qilmasligi oshkora sezilar edi.

Boburni ikki tomondan chirmab kelgan ikki dahshatli qilich G'ijduvonda bir-biriga zarb bilan urildi. Najmi Soniydan ixlosi qaytgan Bobur shayboniyzodalarning

---

<sup>1</sup> Ko'li Malik – hozir qurib qolgan Buxoro viloyatining Xayriobod degan joyida.

qo'li baland kelayotganini sezdi-yu, qonli qilichlar orasidan chiqib, yana Hisor tomonga chekindi. Bosqinchi qo'shin sarkardasi Najmi Soniy G'ijduvon jangida o'ldirildi. Qizilboshlar tor-mor bo'ldi, oltmish ming qo'shinning bir qismi o'ldi, bir qismi asir olindi, omon qolib qochganlarini esa g'oliblar Amudaryogacha quvib bordilar va daryoga cho'ktirib yubordilar.

## 7

Bundan bir yarim yil avval Xonzoda begim yolg'iz o'g'ilchasi bilan Balxdan Qunduzga kelayotganda, uning yuragini titratgan noma'lum xavf-xatarlar go'yo mana shu og'ir chekinish paytini kutib yotgan ekan.

Tun yarmidan oshgan edi. Boysun orqali Hisorning Qoratog'iga chekinib kelgan Bobur yetti ming askar va ug'rug'<sup>1</sup> bilan sayhon bir o'tloqda tunamoqda edi. Xonzoda begim o'g'li va kanizi bilan uxlab yotgan o'tov Boburning chodiriga yonma-yon edi.

Saharga yaqin birdan to'polon ko'tarildi. Xonzoda begim otlarning tasir-tusir qilib chopishi va itlarning asabiy hurishidan cho'chib uyg'ondi. G'azabli tovushlar:

– Ur! Ur!

– Rofiziylarni ayamay qir! – deb qichqirar edi.

Xonzoda begim sapchib turdi. O'tov to'rida xira qorachiroq lipillab yonmoqda edi. Begim qattiq uxlab yotgan o'g'li Xurramshohni quchoqlab oyoqqa turg'izdi.

– Yog'iy bosdi! Yog'iy! – deb, o'g'liga etigini kiydirib, to'ning yengiga qo'llarini tiqayotganda o'tovning kigiziga allanarsa «tars» etib urildi. Yoy o'qining charxlangan uchi kigizni kesib o'tdi, lekin qanoti kigiz juniga o'ralib turib qoldi. Qo'rqib ketgan Xonzoda begim o'g'lini bag'riga bosdi.

---

<sup>1</sup> Ug'rug' – oila a'zolari, ko'chlari.

Bu yil o'n birga qadam qo'yan Xurramshohning bo'yi onasining yelkasidan oshib qolgan edi. U uchi pastga osilib qolgan yoy o'qiga qiziqib qarab turardi.

Tashqaridan Boburning sarosimali tovushi eshitildi:

– To'fangandozlar qani? Xo'ja Kalonbek! To'fang otilsin! Qosimbek! Tohirbek! Haramga qarang! Bolalar tezroq olib chiqilsin! To'fang!

O'sha zamonning chaqmoqli miltig'i bo'lgan to'fang yaqin bir joyda gumburlab otildi. Bobur qizilboshlar bilan ittifoq bo'lib orttirgan bir narsasi – o'sha davrning eng zamonaviy quroli bo'lgan mana shu to'fanglar edi. Hali juda kam tarqalgan to'fanglar faqat Boburning xosnavkarlarida bor edi.

Bir nechta to'fangning ustma-ust otilgani eshitildi. Xonzoda begim endi sal dadillanib, o'g'lining to'ni ustidan bejirim xanjarchasi osilgan kamarini ham bog'latdi. Xurramshoh o'tovning bir chetiga o'ntacha yoy o'qi solingan kichkina soqdog'ini osib qo'yan edi. Onasining qo'lidan chiqib shu soqdog'ini elkasiga osdi-da, kamonini qo'lga oldi. Onasini vahimaga solgan jang bolada qo'rquv aralash maroq uyg'otgan edi. U kichikligidan jangovar ruh bilan o'sgan, tezroq katta bo'lib, urushda botirliklar ko'rsatgisi kelar edi. Samarqandda turgan paytlarida Xurramshoh Bobur tog'asining Buxoro tomonida qilgan janjalariga qatnashmoqchi bo'lib, onasining oldidan qochib ham ketgan edi. Lekin Bobur uni bek atkasiga qo'shib yo'ldan qaytarib yuborgan edi. Xonzoda begimning Boburga qo'yan mehri o'g'lga ham yuqqan edi. Bolaga dars beradigan va harbiy mashq o'rgatadigan kishilar hammasi Boburning ixlosmandlari edilar. Xurramshoh onasidan va murabbiylaridan Bobur haqida juda ko'p yaxshi gaplar eshitar, o'zi ham tog'asini har ko'rganda, unga bolalarcha jo'shqin bir mehr va ishonch bilan qarar edi. U tog'asini og'ir ahvollarga solayotgan shayboniyzodalarni – garchi

o'zining Shayboniyxonga o'g'il bo'lishini bilsa ham – kun sayin yomon ko'rib borar edi. Uning tasavvurida, hozir Bobur qarorgohiga hujum qilib kelgan, «Ur, qir!» deb qichqirayotganlar ham o'sha ko'chmanchi sultonlar edi. Xurramshoh soqdog'ida bor o'qlarini tog'asining mana shu dushmanlariga qarab otgisi keldi-yu, o'tov eshigini ochib chiqa boshladi.

– Hoy, shahzoda, to'xtang!

Xonzoda begimning keksa kanizi yugurib borib bolani kamaridan tutdi-da, ichkariga tortdi. Bola qarshilik qilib kirmadi. Uni uzoqda bo'lgan janglarga yubormagan edilar. Endi jang o'zi Xurramshoh yotgan joyga yetib kelganda yana qo'yishmaydimi?

– Qo'yvoring meni! Hazrat tog'oyimga ko'mak beramen! Qo'yvoring!

Bu orada Boburning xos navkarlari to'fang ota-ota, yov otliqlarini ayollar va bolalar yotgan o'tovlardan uzoqqa surib tashlagan edilar. Tohir Xonzoda begimning o'tovi oldiga ikkita ot yetaklab keldi:

– Hazrat begim! Shahzoda! Tezroq chiqinglar!

Xonzoda begim sandiq va bo'xchalariga qaradi.

– Ko'ch-ko'ronlar qolurmi?

– E, jon omon bo'lsa, buyum topilur! Chiqing tezroq! Hazratim buyurdilar!

Xonzoda begim kanizi bilan chiqquncha Xurramshoh otlarning kichikroq ko'ringan bittasiga minib oldi.

Osmonda sakkiz kunlik oy bor edi. Shuning yorug'ida oq o'tovdan besh yashar Humoyunni bag'riga bosib chiqqan Mohim begim ko'rindi. Ot ustida turgan Qosimbek tez engashib, bolani onasining qo'lidan avaylab oldi-da, yelkalarini chakmoni bilan o'radi.

Begimning yonida o'n yashar o'g'ilchasi Safarni qo'lidan yetaklab kelayotgan Robiya ham bor edi. Tohir o'g'li bilan xotinini tez bir biyaga mingashtirdi. Qosimbek boshliq ellik-oltmishta xosnavkarlarga

ayollar va bolalar mingan otlarni o'rtaga olib, Janub tomonga yo'naldilar.

Uch tomonni yov halqasi o'rab olgan, faqat Janub tomon ochiqroq edi. To'fang gumburlashi, yarador bo'lganlarning dodlashi, otlarning pishqirishi va kishnashi orasidan kimlarningdir asabiy baqiriqlari eshitilardi:

- Hammamiz shu podshoning kasofatiga qoldik!
- Shialarga sotilib bizni xarob qildi!
- Yo'qolsin Bobur!
- Urug'ini qurit! Qir hammasini!

Xonzoda begim hech narsaga tushunolmay yonida borayotgan Qosimbekdan so'radi:

- Bu qanaqa yog'iy?

- O'zimizdan o't chiqdi, begim! Burnog'i yil Qunduzda shayboniyzodalardan bizga qochib o'tgan mo'g'ul beklari isyon ko'tardi! Quzg'unlar hazratimni uyquda tutib o'ldirmoqchi ekanlar. Xayriyat, Tohirbekning qo'rchilari payqab qolibdi!

- Falokat ustiga falokat!

- Ha, bular bizdan ikki barobar ko'p. Hammasi oldindan tayyorlanib chiqqan! O'rtada yuringlar, o'rtada!

Shu payt isyonchi otliqlar Janub tomonga ham chopib o'tdilar. O'sha tomondan Boburning ovozi eshitildi:

- Ustad Ali! To'fangandozlarni oldinga boshlang! Oldinga!

To'fanglardan otilgan o'qlar jiba va dubulg'alarni bemalol teshib o'tar, shuning uchun fitnachilar to'fang qarshisida turish berolmas edi. Bobur to'fanglar va eng ishongan xosnavkarlari yordamida yov halqasini Janub tomondan yorib o'tmoqchi, so'ng Bobotog'ning sharqidagi Hisor qal'asiga yetib olmoqchi edi. Biroq fitnachi beklar uni qal'aga o'tkazmoqchi emas edilar - ular bu mustahkam qo'rg'onni o'zlari egallash maqsadida isyon ko'targan edilar.

Uch-to'rt marta o'q otilgandan keyin to'fanglarning quvurlari qizib ketib, ish bermay qo'ydi. Yov saflari Sharq tomonda sal siyraklashganini ko'rgan Bobur Xo'ja Kalonbek boshliq mingtacha navkarini o'sha tomonga tashladi. Xosnavkarlar qurshovida borayotgan Xurramshoh goho qilichlarning bir-biriga shaqshuq urilganini eshitib qolardi. Bu tungi jang unga juda qo'rqinchli tuyilsa ham u vahimani yengishga tirishardi. Tog'asiga shunday paytda suiqasd qilgan xoinlarning hech bo'lmasa bittasini soqdog'idagi o'qlari bilan otib yiqitgisi kelar edi. Yov qurshovini yorib o'tayotganlarida, bolalar va ayollarni o'rab borayotgan navkarlar ham jangga tushishga majbur bo'ldilar. Shunda Xurramshoh ularning yoniga kirdiyu, otining jilovini qo'yib yuborib, kamonidan ustmaust uchta o'q otdi. Xonzoda begim tungi to'polonda uni bir lahza ko'zdan yo'qotib qo'ydi. Keyin bolaning navkarlar yonida o'q otayotganini ko'rib, otini unga tomon choptirdi. U o'g'liga yetib borgan ham ediki, qarshidan otilgan bir daydi o'q bolaning o'ng biqiniga «shart» etib sanchildi. Xurramshoh ingrab, kamonini qo'lidan tushirib yubordi va egardan og'ib, tusha boshladi.

– Voy, bolam! – deb Xonzoda begim qichqirib, o'g'liga tomon intildi.

Tohir ham shu yaqin joyda edi, otidan sirg'alib tushayotgan Xurramshohni ushlab qoldi, so'ng uni egari ustiga ko'tarib o'tqazdi.

Bola behush edi. Tohir bilan Xonzoda begim uni Boburning ovozi kelayotgan tomonga olib chopdilar. Bu tomonda yov qolmagan, Xo'ja Kalonbekning navkarlari podshoh uchun yo'l ochib, uning ketidan haram ahlini ham olib o'ta boshlagan, orqadan ta'qib etishga uringan dushmanlarning esa yo'lini to'sgan edilar.

Bobur Hisor qo'rg'onidan voz kechib, Vaxsh vodiysi tomonga yo'l olganini sezgan fitnachilar uni boshqa

ta'qib etmay, orqaga qaytdilar va shohona chodirlar ichida egasiz qolgan boylklarni talashga tushdilar.

Tong yorishib qolgan edi. Bobur yarador jiyanini qo'liga olar ekan, uning biqinidan issiq qon oqayotganini sezdi.

– Tabibni chaqiring! – qichqirdi u. – Tabib!

Podshohning xos tabibi bolani chakmon ustiga yotqizib, yarasiga dori qo'yib bog'ladi. Xurramshoh hamon hushiga kelmas, faqat o'qtin-o'qtin ingrar edi. Uning biqiniga sanchilgan o'q o'pka va qorin oralig'idagi pardani yirtib, ichki a'zolariga yomon zarar yetkazgan edi. Tabib unga mumiyoyi asildan suv bilan ichirmoqchi bo'ldi. Biroq behush bolaning tomog'idan suv ham, dori ham o'tmadi. Xonzoda begim buni ko'r-di-yu, bolasini quchoqlab, qichqira boshladi:

– Xurramjon! Yolg'izim! Xurramim!

Bolaning ko'zlari ola-kula bo'lib, bir ochildi, keyin qorachilari tepasiga qarab ketdi-yu, kipriklari yarim yumuq holda to'xtab qoldi.

Bobur bolaning jon berganini sezdi-da, opasini quchoqlab, jasadning tepasidan olib ketmoqchi bo'ldi. Lekin Xonzoda begim uning qo'lidan yulqinib chiqdi. O'g'lining o'lganiga ishongisi kelmas edi. U bolasini quchoqlab, dast ko'tardi-yu, dod solib, yana uni chaqira boshladi:

– Xurram! Xurramjon, qanisan? Qanisan, bolam! Bolam qani?!

Bobur ho'ngrab yig'lar ekan, bolani opasining qo'lidan oldi-da, yana chakmon ustiga yotqizdi. Qosimbek bolaning yarim ochiq qolgan ko'zlarini yummoqchi bo'lib, qoshlarini siladi, kipriklarini yotqizishga urinib ko'r-di. Lekin kipriklar yotmadi, murg'ak ko'zlar yarim ochiqligicha qoldi. Xonzoda begim o'g'lining o'lganiga endi ishondi-yu, o'zining chakkalariga musht urib yig'ladi:

– Seni bu yerlarga olib kelmay onang o'lsin, bolam! Seni asrab qololmagan onaginang o'lsin!!!



Bobur opasining musht bo'lib tugilgan qo'llarini ikki qo'lga oldi-da, yuzini yuziga qaratdi.

– Qarg'ash kerak bo'lsa, meni qarg'ang! – dedi. – Siz yana mening kasofatimga qoldingiz! Ajalda adolat bo'lsa, bu begunoh boladan avval men gunohkorni olsin edi! Buni ikki qilich orasiga men olib kirdim! Sizlarni din-u mazhab balosiga men giriftor qildim!

Qosimbek Boburning yelkasidan quchoqladi. U burnog'i yil Qunduzda mo'g'ul beklarining Boburga qarshi fitnasi ilk bor ma'lum bo'lganda, oraga tushib, xato qilganini, bugungi g'ilu – o'shanda kesib tashlanmagan yaraning patosi ekanini o'yladi:

– Gunohkorni izlasangiz, hammamiz ham aybdor-miz, hazratim! Dunyo o'zi shundoq yaratilgan bo'lsa biz qandoq qilaylik?!

Xonzoda begim yana o'g'ilchasining jasadini quchoqladi:

– To'ydim bu dunyodan! Bas! To'ydim! Meni bolam bilan birga ko'minglar!..

Xurramshohning jasadini archadan yasalgan tobutga solib, shu kuni kechgacha qo'lma-qo'l ko'tarib bordilar. Keyin uni Pomir tog'ining etaklaridagi ko'kalam bir tepalikka ko'mdilar-u qabri ustiga oq bayroqcha qadab qo'ydilar.

Tirik murdaga o'xshab qolgan Xonzoda begimni bir amallab Qunduzga, undan so'ng Kobulga olib ketdilar.

## KOBUL

### TOSHGAN DARYO O'ZAN IZLAYDI

#### 1

Kechki payt Kobul qal'asining janubidagi ko'ldan bir to'p o'rdak uchdi. Ko'l bo'yidagi bo'liq o't-o'lanlar orasida pisib o'tirgan mirzo Humoyun kamondan ketma-ket ikkita o'q otdi. Osmonga ko'tarilib borayotgan tumshug'i uzun o'rdaklardan biri to'pidan ayrilib, pastlay boshladi, so'ng qanotlarini majolsiz yoyib, ko'lning narigi chetiga qulab tushdi.

Ko'lning o'sha tomonida podshohning sakkiz eshkakli, soyabonli kemasi yurgan edi. Humoyun bu yoqdan to o'tlanib, atkasi va mulozimlari bilan ko'l sohilini aylanib o'tib borgunicha kemadagilar o'q tekkan o'rdakni suvdan olib, qirg'oqqa chiqdilar. Ular orasida Bobur ham bor edi. Humoyun o'zi otgan o'rdakni otasi qo'lga olib qarayotganini ko'rdi-yu, otidan sakrab tushdi va ancha berida ta'zim qilib to'xtadi.

Bobur o'rdakning to'shiga qadalib qolgan yoy o'qini keskin bir harakat bilan sug'urib oldi-yu, o'g'liga ko'zlarini suzib qaradi:

– Bu o'q senikimi?

Humoyun otasinnig kayfi borligini sezdi. Bobur so'nggi paytlarda ko'p ichadigan bo'lgan, bugun ham ulfat beklari bilan kemada chog'ir ichib o'tirgan edi. Humoyun ko'l va uning atroflari podshohning daxlsiz, xos yerlari ekanini esladi. Otasi oldida odobsizlik qilib qo'yganday ko'zlari javdirab:

– Hazratim, – dedi, – afv eting, bemavrid o'q otmishmen.

– Ammo o‘qni yaxshi otmishsen, – deb Bobur o‘g‘liga endi kulimsirab gapirdi. – Ma, haloling bo‘lsin!

Humoyun chap qo‘lini ko‘ksiga qo‘yganicha, o‘ng qo‘li bilan ovini otasidan oldi-yu, mulozimlaridan biriga berdi. Boburdan orqaroqda turgan ko‘zlari katta-katta ozg‘in qora yigit – Hindubek tig‘iz oq tishlarini ochib kuldi:

– Amirzodam merganlikda hazrat otalariga tortmishlar.

Shirakayf Xo‘ja Kalonbek bu gapga darhol qo‘shildi:

– Padari buzrukvorga munosib o‘g‘il!

Bobur esa bir chetda jim qo‘l qovushtirib turgan Qosimbekka mamnun nazar tashladi. Yoshi oltmishdan oshib, eshik og‘aliq lavozimidan ketgan Qosimbek hozir Humoyunga atkalik qilmoqda edi. Boburning o‘ziga shuncha yil sodiq xizmat qilgan bu odam endi bo‘y yetib kelayotgan Humoyunni ham otalarcha mehr bilan tarbiyalayotgani bilinib turardi.

– Janob Qosimbek Humoyunga merganlikdan yaxshi ta‘lim bermishlar, – dedi Bobur. – Biroq amirzodam chavandozlikda nechuklar?

Qosimbek Humoyunga «javob bering» deganday qilib qaradi. Humoyun ko‘zlari go‘yo ilhom bilan yonib:

– Hazratim, ijozat bering, – dedi-da otlarni qo‘li bilan ko‘rsatdi. Bobur uning so‘nggi yillarda o‘rgangan chavandozlik mashqlaridan birini ko‘rsatmoqchi ekanini sezdi.

– Qani, qani, – dedi maroq bilan.

Humoyunning yoshi o‘n uchga borib, bo‘yi otasining bo‘yiga yetay deb qolgan. Yurish-turishi ham Boburning o‘smirlik paytini eslatar edi. Qosimbekning ishorasi bilan navkarlar ikkita yuvoshroq otni bir chetga yetaklab chiqdilar-da, yonma-yon tutib turdilar. Humoyun o‘zining seryol qora qashqa otiga sakrab mindi, jilovni keskin burib, xiyol orqaga ketdi. So‘ng narigi ikki otga shitob bilan yaqinlashdi-da,

jilovini qo'yib yubordi. Otlar jips kelganda ikkinchi otning egaridan ikki qo'llab tutganicha, egardan egarga sakrab o'tdi. Shunda uchinchi ot joyidan qo'zg'alib ketdi. Humoyun mingan otining jilovini tez qo'lga olayotib, uchinchi otning yuganidan tutgan navkariga:

– Mahkam ushlang! – dedi.

So'ng tagidagi otni narigisiga jips keltirdi-yu, ikkinchi egardan uchinchisiga sakrab o'tdi.

Shirakayf beklar davrasidan:

– Ofarin! Tasanno! – degan xitoblar eshitildi.

Humoyun hansirab, otdan tushdi-da, otasi tomonga kela boshladi. Bobur o'zining o'smirlik paytida Andijon chorbog'ida egardan-egarga sakrab o'tolmay oyog'i yerga tapillab tushganini esladi-yu:

– Tangrim Humoyunni yomon ko'zdan asrasin, – dedi. – Chavandozlikda bizdan o'tadigan ko'rinadir.

– Hazratim, mirzo Humoyun har ishda sizdan ibrat olishga intilurlar, – dedi Qosimbek.

Bobur o'ng'aysizlanib, bosh chayqadi:

– Mening shahzodaga ibrat bo'lgudek holim yo'q.

Humoyun otasining ma'yus yuziga taajjub bilan tikildi.

– Nechun, hazratim! Atkam menga barcha janglaringizni aytib berdilar. Rustam-u Suhroblar ham, Go'ro'g'li-yu Alpomishlar ham sizchalik ko'p jang ko'rgan bo'lmasalar kerak!

– Jang hisob emas, amirzodam, jangning natijasi hisob, – dedi Bobur o'zining mag'lubiyatlarini eslab.

Lekin Humoyun uchun eng muhimi – otasining mislsiz dahshatlarga duch kelib, barcha o'limlarni yengib o'ta olgani va hamma qirg'inlardan omon chiqqani edi. Boburga astoydilt ixlos qo'yan Qosimbek: «Hazratimga duo ketgan, u kishini o'q olmaydi, tig' kesmaydi», derdi va bu sodda e'tiqodini Humoyunning qalbiga ham singdirgan edi. Humoyun otasining Kobul bilan Hirot oralig'idagi baland tog'lardan odam zoti o'tolmaydigan

qahraton qish kunlarida yurak yutib o'tganini, ko'pchilik bek va navkarlar holdan ketib, otlar ham yurolmaydigan bo'lib qolgan paytlarda Bobur o'zi oldinga chiqib, ko'kragigacha qorga botib, hammaga yo'l ochib borganini, o'shanda uning qulog'ini sovuq olib, yuzi ko'mirday qorayib, tanib bo'lmas ahvolga kelganini Qosimbekdan yaqinda eshitgan edi.

Humoyun o'sha paytlarda bo'lgan bir g'alati hodisani otasidan tasdiqlatib olgisi keldi:

- Hazratim, Kobul chorbog'ida Do'st degan bir pahlavon navkar sizni tanimay qilich bilan chopgani rostmi?

- Rost. Keyin tanib qolib, qilichini tashlab qochdi. Shukrki, hech shikast yetmadi. Bo'lmasa Do'st pahlavon tig'urgan odam hargiz tirik qolmagay edi.

- Xudoning qudratini qarang-a! - dedi eshik og'a Muhammad Do'lday xushomad ohangi bilan.

Humoyun uning kayfdan qizarib, ko'pchib turgan yuziga noxush nazar tashladi-yu, yana otasiga yuzlandi. U faqat otasi bilan gaplashishni istardi. Bobur to'g'risida Qosimbekdan va boshqa odamlardan shuncha g'aroyib hikoyalar eshitib o'sgan bola endi uning o'zi bilan yurakdan yaqinlashishni istardi.

Lekin Bobur doim davlat ishi-yu yozish-chizish bilan band bo'lar, bo'sh qolganda, beklari chog'ir majlisini boshlashar, Humoyunga esa ular hali hamsuhbat bo'lolmaydigan yosh bola deb qarashar edi. Biroq Humoyunda otasi bilan suhbatlashish ishtiyoqi kun sayin ortib bormoqda edi.

- Hazratim, bultur Sind daryosining bo'yida yo'lbars bilan olishgan ekansiz...

- Qaydan bildingiz?

- Hazratimning xonayi xoslarida yo'lbars terisini ko'rdim.

Bobur orqasida turgan beklarga ishora qildi:

- Yo'lbarsni biz ko'plashib engganmiz.

Hindubek kulib e'tiroz qildi:

– Hazratim bo'lmaganlarida biz yo'lbarsga ro'baru bo'lolmas edik.

Humoyun Hindubekning gapini ma'qullagan kabi bosh irg'adi va otasiga bolalarcha sof bir iftixor bilan qarab qo'ydi. Bobur Buxoro atroflarida va Hisorda boshiga tushgan kulfatlarni hamon unutilmas, o'shandagi mag'lubiyatlar alami avvalgilariga qo'shilib, yuragini haligacha timdalar, dunyo g'amlarini xayolidan uzoqlashtirish uchun ham u tez-tez chog'ir ichar edi. Uning ruhi tushib, o'z taqdiridan ixlosi qaytib yurgan mana shu kunlarda o'g'li otasi qilgan yaxshi ishlarni bunchalik e'zozlab, tilga olishi Boburga g'alati ta'sir ko'rsatdi. Bir lahza u o'zini o'smir o'g'lining ko'zi bilan ko'rganday bo'ldi. Humoyun faxr bilan tilga olgan voqealar chindan ham bo'lgan voqealar ekanligi to'satdan Boburning ko'nglini ko'tardi. Shu daqiqagacha unga butun hayoti qop-qorong'i bir tun bo'lib tuyilgan bo'lsa, endi u bu tunga go'yo Humoyunning ko'zi bilan qaradi-yu, qorong'i osmonning u yer-bu yerida yulduzlar miltillayotganini ko'rdi.

Humoyun otasi bilan yakkama-yakka gaplashgisi kelib, ovozini pasaytirib:

– Hazratim, – dedi, – in'om qilgan devoningizdagi barcha she'rlarni yod olmishmen. Lozim ko'rsangiz imtihon qiling.

Bobur orqaroqda jim turgan bek va mulozimlarga o'girilib qaradi. Ular Boburning o'g'li bilan gapini tezroq tugatishini va kemaga qaytishini kutmoqda edilar. Lekin Boburga endi chog'ir majlisidan ko'ra o'g'li bilan birga bo'lish yoqimliroq tuyila boshladi.

– Janoblar, – dedi u beklariga yuzlanib, – bugun bizga kema sayri bas. Endi mirzo Humoyun bilan she'r mashg'uloti o'tkazmoqchimen. Ot keltirilsin!

Bobur otlangandan keyin Humoyun ham otiga quvonch bilan sakrab mindi. Ota-bola yonma-yon

Kobul arkiga qarab yo'l oldilar. Qosimbek va boshqa mulozimlar orqaroqda odob saqlab jim bormoqda edilar.

Bobur kemada ichgan chog'irning tafti va karaxtligi uning yaltiragan suzuk ko'zlaridan bilinar edi.

– Qani, amirzoda, eshitaylik, – dedi u Humoyunga kayf aralash kulimsirab qararkan.

Otasi birga ketayotganidan o'zida yo'q quvongan Humoyun Boburning devonidan yod olgan bir ruboiyni shoshilibroq o'qidi:

*Ozar ila necha guftigo<sup>1</sup> qilg'aysiz,  
Ozurda bo'lurni justijo<sup>2</sup> qilg'aysiz.  
Munchaki ko'ngullarga yetishdi ozor,  
May bila magarki shustisho<sup>3</sup> qilg'aysiz.*

Humoyun bu she'r bilan otasining may ichish sababini tushunishligini va hozir kayfi borligi ham uzrli ekanini aytmoqchi edi, Bobur buni fahmladi-yu:

– Ma'qul, ma'qul, – deb kuldi. – Faqat avvalgi ikki satrning vaznini buzibroq o'qiding. Aftidan, sen bu satrlardagi kinoyani yaxshi fahmlamagansen.

– Qandoq... kinoya? – deb bu satrlarni kamoli jiddiyat bilan o'qigan Humoyun taajjublandi.

– Kinoyaki, odamlar bir-birlariga ozor beradigan gapni ko'p gapirurlar. Goho ozor beradigan narsani o'zimiz justijo' qilib topurmiz. Undan keyin bu ozorni ko'ngildan may bilan yuvmoqchi bo'lib ichishga ruju qilurmiz.

Otasi o'zining may ichishiga kinoya bilan qarashini Humoyun endi sezdi va yana hayron bo'ldi:

– Nechun shunday?

---

<sup>1</sup> Guftigo' – gaplashish.

<sup>2</sup> Justijo' – qidirish.

<sup>3</sup> Shustisho' – yuvish, ya'ni may bilan dil g'uborini yuvish.

– Sening yoshingda buning sababini tushunib bo‘lmas. Men ham o‘ttiz yoshingacha chog‘irga ehtiyoj sezgan emasmen. Sen qalaysen?.. Ko‘nglingda chog‘irga ishtiyoq bormi?

Humoyun uyalib, bosh chayqadi. So‘ng otasining ichkilikdan shishgan qovoqlariga jiddiy bir qarab oldi-da:

– Men chog‘irni yomon ko‘ramen, – dedi.

O‘n uch yoshida Bobur o‘zi ham ichkilikdan hazar qilishini esladi-yu, o‘g‘lining javobini ma‘qullab bosh irg‘adi.

– Xo‘sh, nelarni yaxshi ko‘rursen?

– Menmi? – deb Humoyun bir lahza o‘ylanib oldi. Uning yaxshi ko‘rgan narsalari ko‘p edi: – Safarda yurishni, sayohatni yaxshi ko‘rurmen, yaxshi kitob bo‘lsa erta-yu kech o‘qigim kelur...

«Bu jihatlari menga o‘xshabdir», dedi Bobur ichida va o‘g‘lining qamchi dastasini tutgan qo‘llariga qaradi. Humoyunning yuz-ko‘zi ham, qo‘llari ham Boburnikidan qoraroq edi. Balki Janubda tug‘ilib o‘sayotgani uchun shundaydir? Lekin panjasining shakli otasinikiga juda o‘xshash. Bobur o‘g‘lining bilagidan olib:

– Qani, kaftingni och, – dedi.

Humoyun qamchini taqimiga qistirdi-da, kaftini otasiga ochib ko‘rsatdi. Bobur uning kaftidagi chiziq'larga qaradi-da, keyin o‘z panjasini ochib, o‘g‘lining kaftiga kaftini yonma-yon tutdi. Katta va kichik har ikki kaftdagi ko‘ndalang chiziq'lar bir-birining aynan takrori edi. Otasiga o‘xshashni juda-juda istaydigan Humoyun mamnun jilmaydi. Bobur chuqur tin oldi-da:

– Ilohim, men ko‘rgan balolarni sen ko‘rmagin! – dedi.

– Lekin men sizning barcha ishlaringizni o‘rganmoqchimen.



Boburning yaxshi-yomon ishlari xayolidan aralash-quralash bo'lib o'ta boshladi. Berahm muhit uni ham shafqatsiz bo'lishga o'rgatardi. Mana shu Kobul viloyatining o'zida xirilchi qabilasiga mansub talay odamlar karvon yo'llarida talonchilik qilganliklari uchun Bobur askarlari tomonidan ayovsiz o'ldirilgan, hazora qabilasining o'nlab jangovar yigitlari chopqin paytida qirib tashlangan edi... Bobur bu qonli lavhalarini umr kitobi bo'lmish «Vaqoye»ga birma-bir yozib borar edi. Ammo hali balog'atga yetmagan va olamga bolalarcha musaffo bir ishonch bilan qarayotgan Humoyunni bunday shafqatsizliklardan mumkin qadar uzoq tutgisi kelardi.

– Sen hushyor bo'l, – dedi Bobur, – mening havas qilib bo'lmaydigan ishlarim ham bor!

– Qaysi ishlaringiz, hazratim?

– Qayg'uli, fojiali ishlarim. Butun taqdirim...

– Buni bir g'azalda ham aytmishsiz.

Humoyun yana yoddan otasining satrlarini ayta boshladi:

*Har yong'aki azm etsam, yonimda borur mehnat,*

*Har soriki yuzlansam, o'trumg'a kelur qayg'u,*

*Yuz javr-u sitam ko'rgan, ming mehnat-u*

*g'am ko'rgan,*

*Osoyishi kam ko'rgan mendek yana bir bormu?*

She'rning g'amgin va sehrli ohangidan ta'sirlangan Bobur:

– Yaxshi o'qiding, – dedi o'g'liga. – Istaymenki, men ko'rgan qayg'ular-u shafqatsizliklarni ilohim sen ko'rmagin.

– Xo'p, hazratim, men faqat siz bilgan ajoyibotlarni bilsam bas!

Ota-bola suhbatga berilib, arkka qanday yetganlarini sezmay qoldilar. Keyin ular darichalari Shohi Kobul

tog'iga qarab ochiladigan xushhavo xonayi xosda o'tirganlarida, Humoyun qo'liga qog'oz va qalam oldi-yu, otasi ixtiro qilgan Xatti Boburiy harflari bilan bir bayt she'r yozdi:

*Turklar xatti nasibing bo'lmasa, Bobur, ne tong,  
Boburiy xatti emasdur, xatti Sig'noqiydurur<sup>1</sup>.*

Bobur so'nggi daf'a Samarqandda yuz bergan mash'um voqealarni va Xatti Boburiyni maktabda bolalarga o'rgatgan muallimning toshbo'ron qilib o'ldirilishini eslab, «uh» tortdi. Bir vaqtlar Ulug'bekni halok etgan yovuz kuchlar uning rasadxonasini qayta tiklamoqchi bo'lgan Boburni ham dinsizlikda va rofiziylilikda ayblab, hatto qo'shinning ko'p qismini shunga ishontirgani Qizilqumdagi mag'lubiyatga zamin yaratgan edi. Shundan beri Bobur o'zi ixtiro etgan xatni joriy etish fikridan butunlay qaytgan edi.

– Senga buni qaysi mualliming o'rgatdi? – so'radi Bobur Humoyunning yozuviga ko'z yugurtirib.

– Mirbadal xattotdan o'rgandim...

Humoyunning yozuvida xato bo'lmasa ham, lekin hali bu xatga qo'li o'rganmaganligidan harflar notekis chiqqan edi.

– Senga manzurmi?

– Juda! Belgilari oz. Tez yozish mumkin. O'qishi jo'n.

– Unday bo'lsa ko'proq mashq qil. Minba'd menga maktub yozsang, shu xat bilan bitgin. Men ham senga shu xat bilan javob yozurmen. Maxfiy tutmoq oson bo'lur.

Humoyun podshoh otasi bilan maxfiy xatlar yozishini ko'z oldiga keltirdi-yu, ko'nglida yana issiq

<sup>1</sup> Sig'noq – Turkistondan shimolroqda Sirdaryo yaqinida joylashgan qadimiy shahar.

bir iftixor tuyg'usi mavj urdi. Otasiga mehri toblanib, uning ko'ngliga yoqadigan yana bir ish qilgisi keldi.

- Hazratim, lozim bo'lsa, endi musiqadan bir imtihon qilib ko'ring.

- Qani, qani!

Humoyun savdarboshiga afg'on rubobini keltirishni buyurdi. So'ng dur va sadaf bilan bezatilgan, tog'lar sadosini eslatuvchi ulug'vor tovush beradigan bag'ri keng rubobni sozlab, avval navo yo'lida bir kuy chaldi, keyin savtga o'tdi. Bobur qulog'iga juda yoqimli tuyilgan bu savtni darhol tanidi.

«Chorgoh savti» deb atalgan bu kuyni bultur Boburning o'zi bastalagan edi. Humoyun buni ham izlab topibdi-da! Yoki murabbiylari unga ataylab otasi yozgan she'rlarni yodlatib, otasi bastalagan kuyni o'rgatib, shu yo'l bilan podshohdan tahsin eshitmoqchimikinlar?

Murabbiylarda shunday bir xushomad bo'lganda ham Humoyunning o'zi kuyni samimiy ixlos bilan chalayotgani bilinib turardi. Bola o'zining boyagi so'zini - otasining ijodidan ibrat olishga havasi zo'rligini hozir chindan isbot qilmoqda edi. Bobur o'g'li chalayotgan go'zal kuyga quloq solib turib, ko'ngli zavqli tuyg'ularga to'lib ketdi. Endi o'zining hayoti ham unga eng yorug' va tiniq tomonlari bilan ko'rina boshladi. Axir u ham bir vaqtlar Humoyun kabi beg'ubor, musaffo yoshlik damlarini boshdan kechirmaganmidi? Uning hayoti ham tiniq bir buloq bo'lib oqmaganmidi? Keyin bu buloqning ustiga jarlar qulab, uni loyqalatdi. Lekin hali bu buloq qurigan emas, uning obi-hayoti Humoyunning qalbini ham obod qilgani mana hozir bilinib turibdi.

Bobur o'zi bilan o'g'lining orasida ajib bir bog'lanish borligini bugun birinchi marta aniq sezdi. Otaning hayoti o'g'lining hayotida aynan takrorlanmasa ham, lekin yangi bir tarzda davom etishi mumkinligiga, agar

o'g'il astoydil otaga sodiq bo'lsa, unga tortsa, otaning umri o'g'ilning umriga ulanib ketishiga Boburning endi ko'zi yetdi. Shunday bo'lgach, Humoyunni atkasi, onasi va murabbiylari Boburga ixlosmand qilib tarbiyalaganlari, unga otasining fazilatlarini saralab olib berishga intilayotganlari katta bir ne'mat emasmi? Boburning o'zi ham o'g'liga faqat fazilatlarini ravo ko'radi-ku. Faqat shundagina o'g'il u qilgan xatolarni qilmasligi, u tortgan azoblarni tortmasligi mumkin. Fazilatlar... Bobur o'z fazilatlarini bugun o'g'li orqali allanechuk saralangan holda ko'rib, ko'ngli ko'tarildi, o'ziga birdan hurmati ortdi.

Keyin u Humoyunning atkasi Qosimbekni saroyga chaqirtirib, unga bosh-oyoq sarupo va ot in'om qildi. Shahzodaning boshqa murabbiylari va muallimlari ham katta-katta hadyalar oldilar.

– Senga ne in'om qilay, ayt! – deb Bobur o'g'liga kulimsirab tikildi.

Humoyun kitob yig'ishni yaxshi ko'rardi. Uning alohida bo'lmani egallagan xos kutubxonasidan tashqari, xobgohida ham kitob to'la javonlar bor edi. To'shagining bosh tomoniga xushbo'y sandal daraxtidan ishlangan javon qo'yilgan, otasining she'riy devoni javonning alohida tokchasida yolg'iz turar edi.

– Yana yangi she'riy kitoblar yozsangiz, – dedi Humoyun otasiga uyalinqirab, ko'z tashlarkan, – mana shu alohida tokcha sizning asarlaringiz bilan to'lsa... O'g'lingizning tilagi shu!

Bobur zavq bilan qah-qah urib:

– E-ha, sening bu tilagingni o'rinlatmoq uchun men bir umr mehnat qilmog'im kerak-ku!.. – dedi. – Mayli, «yaxshi niyat – yarim davlat» derlar. Bugundan boshlab sen uchun bir she'riy kitob boshlagaymen. Qani, daftaringni ber...

Humoyun muqovasi oltin suvi bilan ziynatlangan, nafis varaqlariga hali hech narsa yozilmagan yangi daftarini otasiga ikki qo'llab tutdi. Bobur xona to'ridagi

miz yoniga kelib o'tirdi-yu, birdan o'g'liga mehri toblanib, hayajon ichida:

«*Jigarim bilan jonimga payvand farzandim!*» – deb yozdi.

O'zidagi otalik mehri va Humoyundagi farzandlik sadoqati tojdor otalar va valiahd o'g'illar orasida juda kam uchraydigan nodir tuyg'ular ekanini, Ulug'bek bilan Abdullatif orasida bo'lib o'tgan fojialarga solishtirganda, u o'z o'g'lidagi samimiy hislarni qanchalik qadrlashi, qanchalik asrab-avaylab, kamolga yetkazishi zarurligini shu lahzada butun vujudi bilan his qildi. Qalbini to'ldirgan otalik tuyg'usi she'riy ohang bilan qog'ozga tusha boshladi:

«Davlat-u baxt bila Humoyun bo'l, komron bo'l, jahonda yuz tuman obro'yi izzat ko'r!»

Bobur yozishdan to'xtab, o'rnidan turdi:

– Davomini keyin bitgaymen!.. Kitobning nomi sening ismingga qofiya bo'lg'usidir!..

Bobur o'sha yili yozib tugallagan she'riy kitob – «Mubayyin» – Humoyunning nomiga chindan ham qofiyadosh edi. U o'g'lining daftariga bitgan ezgu tilaklarini ham shu kitobga she'riy satrlar shaklida joylab, hammasini san'atkor xattotga ko'chirtirdi-da, Humoyunga taqdim qildi.

Humoyun shu vaqtgacha otasidan olgan sovg'alar orasida eng ulkani va bebahosi – mana shu she'riy kitob ekanini sezib, uni qayta-qayta ko'zlariga surdi...

U arab tilida yozilgan, murakkab fiqx kitoblarini tushunolmay qiynalib yurar edi. Otasi taqdim qilgan «Mubayyin» fiqxning qonun-qoidalarini ravon turkiy tilda go'zal masnaviylarda ifodalab, Humoyun uchun ham darslik vazifasini bajarar, ham unga she'riy zavq berardi. Eng muhimi, uning otasiga bo'lgan mehri, ixlosi shu kitob tufayli yangi bir kuch bilan o'sib borardi.

Humoyun o'n besh yoshga kiringanda, uning kitob javonida otasining yana bir asari – aruz ilmiga ba-

gʻishlangan «Muxtasar» paydo boʻldi. Humoyunning endigi istagi – otasining oʻsmirlik yillaridan beri yozib yurgan «Vaqoyeʻ» nomli kitobini oʻqish edi. U otasining eng katta, eng maroqli asari mana shu ekanini onasi Mohim begimdan eshitgan edi.

Humoyun oʻn olti yasharligida otasi unga Badaxshon viloyatini berib, askar va savdari bilan Kobuldan kuzatib qoʻydi. Humoyun togʻlar orasida otasi bilan xayrlashayotganda, oila aʼzolari oʻzaro «Boburnoma» deb atay boshlagan oʻsha «Vaqoyeʻ» kitobidan bir nusxa koʻchirtirib yuborishni iltimos qildi.

Oʻgʻlining boshqa koʻp iltimoslarini soʻzsiz qabul qilgan Bobur bu gal yerga qarab bosh chayqadi:

– Hali u kitob bitgan emas. Oʻlda-joʻlda yotgan asarni koʻchirtirib boʻlmas.

– Qachon bitkursiz, hazratim? Men intizormen! Bobur oʻgʻlining yuziga xomush nazar bilan tikildi.

– Koʻp intizor boʻlma. Chunki u kitobning bitishi uchun mening umrim tugashi kerak.

Humoyun seskanib tushdi:

– Nechun bunday deysiz?

«Boburnoma»ning davomi ancha vaqtdan beri yozilmay yurar edi. Qizilboshlar bilan tuzilgan ittifoq, Bobur Vataniga begona qoʻshinni boshlab borib, magʻlubiyatga uchraganlari... buni yozish u yoqda tursin, hatto eslashdan ham yuragi bezillar edi. Nahotki umr kitobining soʻnggi bobi shu boʻlsa? Bobur eng yirik asarini bu tarzda yozib tugatolmasligini sezardi. Uni koʻngildagidek tugallash uchun esa oʻsha magʻlubiyatlar zahrini yuvib ketadigan katta gʻalabalarga erishishi kerak edi. Mana endi oʻgʻli Humoyun ulgʻayib, yoniga kiriyapti.

U Humoyunning soʻnggi gapdan iztirobga tushganini sezib:

– Mening soʻzimdan tashvishlanma, – dedi. – Men «Vaqoyeʻ»ni umrim boʻyi yozmoqchi boʻlganim

uchun shunday dedim. Orzuyim borki, uning kelgusi boblariga sening ham yaxshi ishlaring bitilgay. Zora o‘zim ham... bu kitobning poyoniga yorug‘ yuz bilan etsam.

– Hazratim, undoq bo‘lsa, ilohim «Boburnoma»ni yana ellik yil yozing, yuz yil yozing!

– O‘shangacha kutishga sabr-toqating eturmikin?– deb kuldi Bobur.

Humoyun jiddiy turib:

– Tangrim oldida ont ichib aytamenki, sabr-toqatim umrim yetgunicha yetur! – dedi.

## 2

Kobul daryosining bo‘yida Bobur egachisi Xonzoda begim uchun qurdirgan Bog‘i Dilkushoning ko‘k marmar ko‘shkida mavlono Fazliddin cho‘kka tushib o‘tiribdi. Undan pastroqda mavlononing soqol-mo‘ylovi ko‘zga ko‘rinib qolgan o‘g‘li odob bilan qo‘l qovushtirib, yerdan ko‘zini olmay, sukut saqlaydi.

Nafarmon qabo kiygan, yuziga oq harir parda tutgan Xonzoda begim siniq tovush bilan to‘xtab-to‘xtab so‘zlaydi:

– Hammadan ko‘ra.. o‘lgan odamga qiyin ekan, mavlono. O‘lgan qaytib kelmas ekan... Tiriklar... oh-voh qilib, ming kuyib-yonsalar ham, axiri bir kun... tasalli topar ekanlar. Mana, o‘zimdan qiyos...

– Begim, bu zamonda tiriklarga ham oson emas. Mening Andijondan bosh olib chiqib ketganimga yigirma uch yil bo‘ldi. Shundan beri sizning boshingizga qancha kulfatlar tushdi! Biz qancha balolarni ko‘rdik.

Xonzoda begim Andijonda qolib ketgan yoshlik yillarini ko‘z oldiga keltira boshladi. Mavlono Fazliddin o‘shanda qanchalik ko‘hlik yigit bo‘lganiga hozir ishonish qiyin. Azob-uqubatlarga to‘lib-toshgan so‘nggi o‘n yilliklar uning bo‘yinlariga ham ajinlardan to‘r

solib ketgan, qo'llarini suyakday qotirib, tomirlarini bo'rttirgan, yelkasini bukchaytib, oltmish yoshlik mo'ysafidga o'xshatib ketgan. Holbuki, u endi ellik uch yoshga kirgani Xonzoda begimga ma'lum edi. «O'zim-chi?» deb begim har kuni ko'zguda ko'radigan aksini xayolidan o'tkazdi.

Xonzoda begimning old tishlaridan uch-to'rttasi tushib ketib, lablari burisha boshlagan, sochi siyraklashib, kulrang tusga kirib qolgan edi. Go'zal yoshliklari endi hech qachon qaytib kelmasligi, umrlarining eng yaxshi yillari ochilmay so'lgan gulday umrbod xazon bo'lganligi Xonzoda begimning yurak-bag'rini timdalab o'tdi.

– Mavlono, o'g'lingiz necha yoshdalar?

– Yigirma birda, begim.

Xonzoda begim halok bo'lgan Xurramshohning tirik bo'lsa hozir yigirma ikki yoshga kirishini esladi. Bu yo'qotishning unutilmas alami keyingi dardi ustiga qo'shildi-yu, ko'ziga yosh quyilib keldi:

– Ishqilib, o'g'lingizning umri uzoq bo'lsin. Men ko'rgan musibat sizning boshingizga hech vaqt tushmasin, mavlono. Men endi tirik qolmayman degan edim. Yolg'iz o'g'limning ketidan ketaman degan edim. Lekin jonim qattiq ekan.

Mavlono begimning yig'isidan sarosimaga tushib, o'g'liga bir qarab oldi. So'ng begimning xayolini boshqa yoqqa burish uchun o'zining boshiga tushgan azob-uqubatlardan so'zlashga tushdi:

– Hirotlar ham juda notinch bo'lib ketdi, begim. Shoh Ismoil shaharni olib, sunniylarni quvg'in qildi. Keyin yana shayboniyzodalar shaharni bosib olib, shia tarafdorlarini qatag'on qildi. Shia mozorlarini ochirib, Marvda Shayboniyxonni o'ldirtirgan ruhoniylarning suyaklarini to'plarga solib ottirdilar. Keyin ko'p o'tmay, Hirotni yana qizilboshlar ulardan tortib olishdi. Qasd olish qaytadan boshlandi. Hammayoq alg'ov-dalg'ov.



Kamoliddin Behzod Hirotdan Tabrizga shoh saroyiga xizmatga olib ketildi. Mavlono Xondamir shahardagi to'polonlardan bezib, ota yurtlaridagi uzoq bir qishloqqa chiqib ketdilar. Bizga o'xshagan musofirlarning ahvoli bundan ham battar bo'ldi... O'g'limiz Aloviddin Hirotda sangtaroshlik san'atini o'rgangan edi. Lekin san'at bilan kimning ishi bor? Axiri, shoir Muhammad Sulton bilan maslahatni bir joyga qo'ydig-u Bobur mirzodan panoht istab, Kobulga keldik.

Bu gaplar davomida Xonzoda begim ko'z yoshlarini artib, o'zini ancha bosib oldi:

– Kelib behad yaxshi qilgansiz, mavlono... men sizga bir omonatingizni qanday qaytarishni bilmay yurgan edim.

Mavlono Fazliddin ko'zlari pirpirab:

– Qaysi omonatim? – dedi.

Xonzoda begim ma'yus kulimsirab:

– Hozir, – dedi-yu, o'rnidan ko'tarildi va to'rdagi o'ymakor eshikdan ichkariga kirib ketdi.

Ko'p o'tmay u bir xizmatkorga oq ipak matoga o'ralgan narsani ko'tartirib, qaytib chiqdi.

Begimning ishorasi bilan xizmatkor haligi narsani mavlono Fazliddinning oldiga qo'ydi-da, ta'zim qila-qila orqasi bilan yurib, chiqib ketdi.

– Mavlono, ochib ko'ring, – dedi Xonzoda begim.

Mavlono Fazliddin o'ramni sekin ochdi-yu, chetlari sarg'ayib ketgan chizmakashlik qog'ozlarini ko'rди. So'ng ularni avaylab, varaqlar ekan, o'zining Andijonda qurmoqchi bo'lib, Xonzoda begim bilan bamaslahat chizgan loyihalarini tanidi. Yigitlik orzulari xayolida qaytadan uyg'onib, ko'zlari chaqna b ketdi. Andijonda qurilmay qolgan obidalarining loyahasini shuncha yildan beri asrab olib yurgan Xonzoda begim unga hozir o'sha oshiqlik paytidagidek nafis va jozibali ko'rindi. O'shda, qoyatosh ustida noxosdan begimning

belidan olgan paytidagi shirin tuyg'ulari uyg'ondi-yu, yuragini zavqqa to'ldirdi:

– Hazrat begim, siz menga jonimni qaytarib bergandek bo'ldingiz! Mo'jizani qarang! Orada shuncha yillar! Shuncha yo'llar! Shuncha tog'-u daryolar!

Mavlono Fazliddinni to'lqinlantirgan zavq va quvonch Xonzoda begimga ham o'tdi. Uning tovushida shodlik jarangi eshitildi:

– Rostdan, bu loyihalar menga qo'shilib juda ko'p balolarni boshdan kechirdi. Men qancha joyga borgan bo'lsam, bular ham bisotlarim-u javohirlarim orasida men bilan sargardon bo'lib yurdi. Faqat oxirgi marta Qunduzdan Samarqandga jo'naganimizda, tog'lar-u daryolardan ko'p yuk olib o'tib bo'lmadi. Sandiqlarimdan bir qismi Qunduz qo'rg'onida qoldi. Shular ichida bu loyiha ham qolgan ekan. Samarqandga borib ko'p achindim. Yoz kelsa, Qunduzga odam yuborib olib keltirmoqchi edim... Keyin haligi falokatlar bo'ldi... Qunduzga qolgani yaxshi bo'lgan ekan. Boshqa sandiqlarimning hammasi Hisorda fitnachi mo'g'ullarning ilkida qoldi... Mavlono, qarang-chi, hamma varaqlari joyidami?

Shunday deb, Xonzoda begim yuzidan harir pardasini boshi ustiga ko'tarib qo'ydi-yu, loyihalarga tikilib qaradi.

– Hammasi joyida! – dedi mavlono Fazliddin uning yuziga minnatdorona ko'z tashlab. – Samarqandda faqir sizning huzuringizga kirishga jur'at etolmagan edim.

– O'zim sizni chorlamoqchi bo'ldim. Ammo loyihalar Qunduzda qolganligi uchun andisha qildim...

Mavlono Fazliddin Andijonda Xonzoda begimning suratini ham chizganini, hozir loyihalar orasida o'sha surat yo'qligini begimga eslatgisi kelib:

– Balki... Suratlar yo'qolib ketgandur? – dedi.

Xonzoda begimning yuziga nafis qizillik yugurdi:

– Hali ham musavvirlik qilmoqdamisiz, mavlono?

– Hazrat begim, ko‘p yil mashq qilinmasa qo‘l musavvirlikdan chiqib qolar ekan... Hozir faqat me‘morlik bilan mashg‘ulmen.

– Andijonda chizgan suratlaringizni men alohida saqlamoqdamen, – deb Xonzoda begim mavlononing o‘g‘liga iymanib ko‘z tashladi.

Bo‘y yetib qolgan bu yigit oldida o‘zlarining yoshlik muhabbatlarini eslatuvchi suratni Xonzoda begim ataylab olib chiqmaganini mavlono Fazliddin endi sezdi.

– Lutfan siz haqsiz, hazrat begim... O‘sha suratlar endi umrbod sizniki bo‘lg‘ay!

Buni juda istab turgan Xonzoda begim:

– Saxovatingizdan toabad minnatdormen! – dedi.

Mavlono Fazliddin qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, odob bilan bosh egdi. So‘ng gapni yana ochiq turgan eski loyihalari ustiga burdi:

– Men endi bularni Hirotda o‘rgangan yangiliklarim bilan to‘ldirgaymen. Ana undan so‘ng bemalol amalga oshirsam bo‘lur... faqat... bu madrasa-yu qasrlar qayerga qurilmog‘i mumkin? Andijon... uzoqda qoldi. Kobulgami?

Xonzoda begim ma‘yus bosh chayqadi:

– Kobul – biz orzu qilgandek qudratli davlat emas, mavlono. «Ulug‘ me‘morlik obidalari qurmoq uchun ulkan davlatning qudratiga suyanmoq kerak» deganlar haq ekanlar. Nachora?..

Mavlono Fazliddin oldida ochiq turgan tarhlarga g‘amgin ko‘z tikib:

– Ha, taqdir bizni notavon qilib yaratmishdir, – dedi. Ovozi keksalarnikidek g‘ijirlab eshutilganini o‘zi ham sezdi-yu, qo‘shib qo‘ydi: – Men endi qarib qoldim. Qirg‘inlar, to‘polonlar, fatoratlar bilan umrim o‘tdi. Lekin nahotki bu hammasi uzluksiz

davom etaversa? Axir bir men emas, o'nlab zakovatli olimlar, hunarpehshalar, shoirlar jaholat dovuli bilan Movarounnahr-u Xurosondan quvilmishlar. Ilgari qora kuchlar bizni Andijondan quvsalar, Samarqanddan panohtopar edik. Samarqand johillari kun bermasalar, Hirotidan najot izlar edik. Endi Andijon-u Samarqand ham, Buxoro-yu Hirot ham – barchasi ko'chmanchi sultonlar-u diniy adovatlar dovulidan zir titramoqda. Dovul uchirgan xazonday Vatanidan quvilgan qancha ma'rifatli olim-u san'atkorlar, qancha nodir iste'dodlar behuda hayf bo'lib ketmoqdalar. Bizning Vatandan ayrilishimiz – daryoning o'zanini yo'qotib, dasht-u biyobonga toshib, chiqib ketishiga o'xshaydir. Amudaryo bir vaqtlar shu kuyga tushgan ekan-u to o'ziga yangi yo'l solib, boshqa bir dengizga borib qo'yilguncha u yoqdan-bu yoqqa bosh urib, toshib yurgan ekan. Biz ham umr bo'yi u yoqdan-bu yoqqa bosh urib, munosib o'zanimizni topolmaymiz. Endi bu kajraftor falak hech bo'lmasa farzandlarimizga rahm qilsin! Biz bo'lmasak, bular o'zlariga munosib o'zan chopib, yangi bir madaniyat dengiziga borib quyilsinlar!

Umr bo'yi o'z ijodiy rejalarini amalga oshirolmay, kuyib yurgan iste'dodning bu alamli nidosi Xonzoda begimni titratib yubordi.

– Mavlono, faqat siz emas, Bobur mirzo ham o'zanini yo'qotgan daryodek bezovtalar!

– Bilamen, taqdir ul hazratga ham o'gaylik qilmishdir!

– Ammo Bobur mirzo sargardon bo'lib yurgan iste'dodlar daryosini bir joyga yig'moqchilar, nasib bo'lsa, ilm-u san'atning yangi bir dengizini barpo qilmoqchilar.

– Biz uchun so'nggi umid hali ham Bobur mirzodirlar. Shuning uchun o'g'lim bilan Kobulga keldik.

– Qayerga joylashdilaringiz, mavlono?

– Jiyanim Tohibbeknikiga tushdik. O‘zi safarda ekan...

Ota-bola ikkovlari ham eski kiyim kiyishgan, ranglarini juda oldirib qo‘yishgan. Ularning moddiy jihatdan ham qiynalib yurganlarini sezgan Xonzoda begim yana o‘rnidan turib, ichkari xonaga kirib ketdi. Qabosining cho‘ntagidan kalit olib, tokchada turgan po‘lat sandiqni ochdi. Inisi Bobur mirzo Xonzoda begimga eng nufuzli a‘yonlari qatori ulufa tayinlagan edi. Har oyda xazinadan charm hamyonga solingan ming dinor oltin kelib turar edi. Xizmatkorlar begimga berilgan mulkning ekin-tikini bilan tirikchilik o‘tkazishardi. Begimning bir o‘ziga ko‘p pul ketmas, shuning uchun xazinadan kelgan oltin to‘la hamyonlarning anchasi po‘lat sandiqda taxlanib turar edi.

Xonzoda begim mavlono Fazliddinning kichikroq bir hovli va ot sotib olishi, kiyim-kechagi, uch-to‘rt oylik tirikchiligi uchun qancha pul ketishini chamalab ko‘rdi-da, ming dinorlik hamyonlaridan ikkitasini oldi. So‘ng ularni boyagi xizmatkorga berib, oltin barkashda ko‘tartirganicha ota-bolaning oldiga qaytib chiqdi. Mavlono Fazliddin hamyonni ko‘rib, xijolat cheka boshladi. Xonzoda begimdan pul olish unga og‘ir edi.

– Mavlono, bu hamyonlar Bobur mirzoning xazinalaridan kelmishdir. O‘zlari bo‘lmaganliklari uchun ulufalarini men sizga topshirmoqchimen. Biri – o‘g‘lingiz Aloviddinga. Marhamat! Olingiz!

Aloviddin qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, endi birinchi marta og‘iz ochib gapirdi:

– Rahmat, hazrat begim, biz sizdan behad minnatdormiz!

Uning yoqimli tovushi va so‘zlarni mayin talaffuz qilishi mavlono Fazliddinning yigitlik paytini eslatar edi... Shu tufayli ota-bola ikkovi ham begimga benihoya aziz ko‘rinardi.

Amudaryo tomondan tog‘ oshib uchib kelgan turnalar Kobulning ustidan janubi-sharq tomonga o‘tmoqda edilar. Arkning tillakori ayvonida Mohim begim bilan nonushta qilib o‘tirgan Bobur turnalarning qisqa va sirli tovush bilan «qurey»lashini eshitdi-yu, o‘rnidan turib, ayvon chetiga bordi va osmonning ovoz kelayotgan tomoniga tikildi... Ko‘kda egilib-chayqalib kelayotgan bir shoda qora marjonni ko‘zlari bilan qidirib topgandan keyin turnalarning tovushi unga go‘yo aniqroq eshitila boshladi.

Go‘zal va tiniq «qur-ey», «qur-ey»larda qandaydir horg‘inlik ohanglari borgan o‘xshardi va turnalarning uzoq-uzoqlardan uchib kelayotgani esga tushar edi. Balki ular shu kelishda Andijonning ustidan uchib o‘tirgandirlar? Yoki Toshkent va Samarqand atroflaridagi sokin suvlar bo‘yiga qo‘nib, dam olgandirlar? Bu o‘ydan Boburning qalbini alamli bir sog‘inch tuyg‘usi chulg‘ab oldi. Hatto shu turnalar ko‘rib kelayotgan joylarni u endi borib ko‘rolmaydi. Ko‘li Malikda va G‘ijduvonda yengilib, Hisorda fitnachilar xiyonatidan abgor bo‘lib qaytganiga, mana, o‘n uch yil bo‘lyapti. Bobur shundan beri qaltis harbiy yurishlardan o‘zini tiyib yuribdi. Mo‘g‘ul beklarining xiyonatlarini Qunduzdayoq bila turib, yana o‘shalarga va qizilboshlarga tavakkalchilik bilan suyanib, ish qilgani uning Vataniga qaytadigan barcha yo‘llarini bekitib tashlagan edi. Turnalarning uzoqlashib, so‘nib borayotgan tovushlari ta’sirida Boburning ko‘ngliga: «Endi tug‘ilib-o‘sgan yurtingga umrbod qaytolmaysan!» degan alamli o‘y keldi-yu, yuzi birdan tundlashdi. Orqasiga o‘girilib, savdarboshiga chog‘ir keltirishni buyurdi.

Mohim begim dasturxon yonidan Boburga tomon kelar ekan:

– Hazratim, ertalabdan chogʻir? – deb taajjublandi. Hozir farzandlaringiz salomga kelurlar... Ana, mirzo Hindol atkalari bilan kelmoqdalar.

Boshiga kichkina ipak salla oʻragan, murassaʼ kamariga kichkina qilich taqilgan sakkiz yoshli mirzo Hindol ayvonning baland zinapoyasidan kattalarday qoʻl qovushtirib, taʼzim qilib chiqdi. Otasi buni koʻrib, beixtiyor jilmaydi. Hindolni yelkasidan quchib erkalatdi, keyin uni yoniga olib, zarbof koʻrpacha ustiga oʻtirdi.

– Qilich taqib olibsiz, amirzodam, jangga bormoqchimisiz? – deb hazillashdi.

Hindol katta-katta koʻzlarini chaqnatib, Mohim begimga bir qarab oldi. Mohim begim «Ayting!» deganday bosh irgʻadi. Shunda Hindol burro til bilan otasiga:

– Meni ham olib boring, – dedi.

– Qayerga?

– Hin... Hindistonga.

– Hindistonda nima qilmoqchisiz?

– Yoʻl... yoʻlbarsni koʻramen...

– Ana xolos! – deb Bobur kuldi. – Biz sizga Hindol ismni bersak, siz faqat Hind yoʻlbarsini tomosha qilmoqchisiz xolosmi?

Bola qizarib:

– Yoʻq, – dedi va jajji qilichining sopini qisimiga oldi. – Agar yoʻlbars... «yeyman» desa, men mana shu qilich bilan uni uramen!

Bobur Hindolni yana yelkasidan quchib erkalatdi:

– Barakallo! Unday boʻlsa, sizni Hindistonga, albatta olib borurmiz...

Shu payt ayvon zinapoyasidan oltin koʻzachada chogʻir olib chiqayotgan sharbatchi koʻrindi. Mohim unga qoʻli bilan «Qayting!» ishorasini qildi. Sharbatchi Boburga qoʻrqa-pisa koʻz tashladi-da, uning oʻgʻli bilan ovunib, chogʻirni esidan chiqarganini sezdi va

zinadan sekin qaytib, tushib ketdi. Bobur Hindoldan xat-savodni qanchalik o'rganganini, qanaqa she'rlar yod bilishini so'radi.

– Men qur'on oyatlaridan yod bilurmen. Qul huvallohu Ahad...

– Hindolning she'rga unchalik ishi yo'q, – deb izoh berdi Mohim begim. – Bunga o'yin bo'lsa, yoydan o'q otsa, ot chopsa bas. Kitobga xushi yo'q.

– Balki yoshi kichik bo'lgani uchundur?

– Gulbadan bundan uch yosh kichik. Ammo savodi Hindoldan yaxshi. Hozir ko'rursiz... Qizcha kitobga shunchalik o'chki, taajjubdan yoqamni ushlaymen.

Bobur o'ychan tovush bilan:

– Nahot Hindol o'sha tog'alariga tortsa? – dedi.

Boburning bu so'zlarida qanchalik murakkab ma'no borligini faqat Mohim begim tushunardi. Chunki Hindol Mohim begimdan emas, Boburning kichik xotini Dildor og'achadan tug'ilgan edi. Shariat beradigan ruxsat bo'yicha Bobur ham uch xotinlik bo'lib olgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu berahm odat Mohim begimni qanchalik ezmasin, alamini ichiga yutib, chidab kelar edi. Boburning ikkinchi xotini Gulruh begimdan Mirzo Komron va Mirzo Askariy otliq ikki o'g'il tug'ildi. Bular Humoyundan keyingi taxt vorislari edilar. Gulruh begim shu sababli Mohim begimga kundoshlarcha sovuq muomala qilar edi. Uch xotin Kobulning uch chekkasida har biri alohida ko'shkda tursa ham bir-birlarining ahvollaridan xabardor edilar. Dildor og'acha besh yilda ikki qiz tug'di. Mohim begim esa uch marta farzand dog'ini boshdan kechirdi.

Uning Humoyundan keyin tuqqan ikki o'g'il, bir qizi birin-ketin o'lib ketdi. Keyin umuman bo'yida bo'lmay qoldi. Buning hammasidan Mohim begim juda qattiq kuyib yurganini sezgan Bobur unga qanday tasalli berishni bilmas edi. Bir kuni mana shu ayvonda



o'tirganlarida, Mohim begimning o'zi: «Dildor og'acha yana homilador emishlar, – deb qoldi. – Men kuyib ado bo'ldim. Endi Dildor og'acha shu gal o'g'il tug'sa ham, qiz tug'sa ham, agar menga bersangiz o'z farzandimdek tarbiyalab o'stirar edim».

Dildor og'acha o'z farzandini kundoshiga ishonib topshirishini tasavvur qilib bo'lmas edi. Lekin Mohim begim Humoyunni qanchalik yaxshi tarbiyalaganini hamma bilar, uning yana farzand o'stirish ishtiyoqi zo'rligini Bobur ham sezar edi.

Dildor og'acha Kobulning Bog'i Yo'ng'ichqasida mana shu Hindolni tuqqanida, Boburning maxsus farmoni bilan uch kunlik chaqaloqni arkda turadigan Mohim begimning tarbiyasiga keltirib berdilar. Bu bolani to'qqiz oy qalbi tagida ko'tarib yurgan Dildor og'acha: «O'g'limdan tiriklay judo bo'ldim», deb ancha vaqt yig'lab-siqtab yurdi. Bobur unga:

«Azaldan udum shundoq, – deb vaj ko'rsatdi. – Podshoh oilasida o'g'illarni katta xotin tarbiyat etmog'i kerak. Mohim Humoyunni qandoq voyaga yetkazdi, ko'rdingmi? Hozir Badaxshonda eng obro'lik hokim! Xudo xohlasa, Mohim Hindolni ham shundoq voyaga yetkizgusidir!»

Mohim begim Hindolni o'z farzandidan ham ziyo-da tarbiya qilayotgani Boburga ma'lum edi-yu, lekin bolaning tog'a avlodlari johil va ma'rifatsiz odamlar edi. Dildor og'acha Hisor va Samarqandda ko'p yomon ishlar qilgan Sulton Mahmud mirzoning avlodlaridan edi. Shayboniyxon tomonidan o'ldirilgan Sulton Ali mirzoga ham xeshligi bor edi. Bobur Samarqandda so'nggi gal g'alaba bilan borganda va qizilboshlar bilan may ichib yurgan kunlarida Dildor og'achaning husnini, xususan, dutor chalib, ashula aytgandagi shirin ovozini yoqtirib qolib, kayf ustida uni haramiga olgan edi. Buning hammasidan xabardor bo'lgan

Mohim begim Boburning «Hindol maʼrifatsiz togʻalariga tortmasin, tagʻin!» degan hadigini tarqatishga intildi:

– Hazratim, Humoyunning koʻp fazilatlari Hindolda ham bor. Qalbi toʻla mehr. Ishonamenki, Hindol ham sizga tortgay. Egachingiz Xonzoda begimdan eshitganmen. Siz ham mana shu yoshda «urush-urush» oʻynashni behad yaxshi koʻrar ekansiz.

Bobur yana Hindolga yuzlandi:

– Men senga kitoblar sovgʻa qilsam oʻqurmisen?

– Oʻqu... oʻqurmen! – deb Hindol tutilibroq javob berdi.

Bobur munshini chaqirib, Kobul kutubxonasidan Hindolga kerakli kitoblarni Mohim begimga keltirib berishni buyurdi. Shundan keyin savdarboshi ichki xonadan bolaning boʻy-bastiga moslab ishlangan oltin dastali Kamoni Shoshiy olib chiqdi. Chiroyli soqdoqda oʻn ikkita oltin bezakli yoy oʻqi ham bor edi. Bunday chiroyli oʻq-yoyni birinchi marta koʻrayotgan bola nodir sovgʻani qoʻliga olganda koʻzlari quvonchdan yaltirab ketdi.

– Ana, tirandozliqni mashq qil, ammo kitob oʻqishni ham unutm! – deb tayinladi Bobur.

Hindol taʼzim bilan otasiga qulluq qilib, zinapoyadan pastga tushib ketdi. Oradan sal oʻtmay, ayvonning ichki eshigidan ellik yoshlardagi enaga ayol kichkina Gulbadanni qoʻlidan yetaklab chiqdi. Bu istarasi issiq ayol – Tohirning xotini Robiya edi. Avvallari Qutlugʻ Nigor xonim xizmatida boʻlgan Robiya hozir Mohim begim huzurida besh yashar Gulbadanga enagalik qilmoqda edi.

Bobur oʻz oilasiga yigirma toʻrt yillik qadrdon boʻlgan Robiyaning taʼzim bilan bergan salomiga alik olib, u bilan iliq soʻrashdi. Soʻng qizchasi Gulbadanga yuzlandi. Qoʻgʻirchoqday yasantirilgan jajji qizchanning qosh-koʻzi beixtiyor Dildor ogʻachani eslatdi.

Gulbadanni ham o'sha go'zal juvon tuqqan edi. Mohim begim Hindolni onalarcha suyib parvarish qilayotganini yillar davomida kuzatib yurgan Dildor og'acha bu ayolning tantiliga qoyil bo'lgan va Gulbadanni unga o'zi farzandlikka bergan edi. Bu ikki ayol endi kalondimog' Gulruh begimga qarshi go'yo bolalar orqali ittifoq tuzgan edilar. Gulruh begim esa bir emas, ikki o'g'li bo'y etib kelayotganidan behad mag'rurlanar, Komron mirzo va Askariylarni taxt vorisi Humoyunga qarshi raqobat tuyg'usi bilan tarbiyalar edi. Shu sababli Bobur ham Gulruh begimdan ko'p ranjir, lekin oradagi kundoshlik balosini butunlay daf qilish qo'lidan kelmas edi.

Murg'ak qizchasini ko'rgan zahoti esiga tushgan bu murakkabliklar Gulbadanning egilib ta'zim qilishi va shirin «assalomi» bilan xayolidan uzoqlasha boshladi. Bobur qizchasini qo'lida ko'tarib olib, peshonasidan o'pdi, so'ng dasturxon oldiga kelib, uni tizzasiga olib o'tirdi.

Dasturxon to'la noz-ne'matlarni, Odinapurdagi<sup>1</sup> Bog'i Vafoda o'sgan chiroyli norinjlarni<sup>2</sup> ko'rsatib:

– Ne yeysan? – deb so'radi.

Gulbadan odob bilan bosh chayqadi – u podshoh otasining oldida ovqat chaynab o'tirishdan iymanar edi. Lekin dadasining zar qo'shib to'qilgan qimmatbaho abosidagi tugmalar uni juda qiziqtirib qo'ydi. Bu tugmalardan birining yuz tomoniga kichkina qilib yo'lbars shakli o'yilgan. Yo'lbarsning ko'zlari o'rniga zig'irdan ham kichik yoqut donalari o'rnatilgan. Ikkinchi oltin tugmaning yuzida afsonaviy bir qush qanotlarini yozib, tumshug'ida kichkina gavharni olib, uchib boryapti. Umrida bunday g'alati tugmalarni ko'rmagan qizcha ularning bittasini qo'lchasi bilan sekin ushlab ko'rdi.

---

<sup>1</sup> Odinapur – Afg'onistonning janubidagi shahar, hozirgi Jalolobod.

<sup>2</sup> Norinj – apelsin.

– Senga tugmalar ma’qulmi? – deb so’radi dadasi, Gulbadan «ha», deb jilmaydi. Bobur qizchasi ushlab ko’rgan yuqorigi tugmani yulib olmoqchi bo’lib bir tortdi. Lekin tugma juda mahkam tikilgan ekan, uzilmadi.

– Hazratim, ne qilmoqchisiz? – hayratlanib so’radi Mohim begim. – Qo’ying, tugmani uzming, axir bu sizning shohona libosingiz!

– Hechqisi yo’q. Zargarga buyursalar, yana bitta shundoq tugma yasab bergay.

Bobur kamariga osilgan qindan kichkina qalamtarosh oldi-yu, o’sha tugmani ipidan qirqib olib, qizchasiga berdi:

– Lekin yo’qotma. Bu qush – Humo. Ilohim senga baxt keltirsin.

Gulbadan quvonib va hayajonlanib:

– Rahmat, hazrati... oli... – dedi-yu, lekin jumlaning oxirini uncha kelishtirolmadi.

– Meni ota deya qol, qizim.

Gulbadan onasi Mohim begimga savol nazari bilan qaradi. Mohim «Ha, ayt!» degandek bosh irg’adi. Shunda Gulbadan qo’lchalari bilan otasining bo’ynidan quchdi-da:

– Otajon! – deb uning yonog’idan o’pdi.

Bobur ko’pdan beri his qilmagan bolalarcha bir poklik va ma’sumlik borlig’iga go’yo nur bo’lib taraldi.

– Guli, – dedi Mohim begim, – endi hazrat otangga bitta hikoya aytib bergin.

Gulbadan sekin otasining tizzasidan pastga tushdi-da, xuddi muallimga javob berayotgan talabadek tik turib, toshbaqa va chayon haqidagi mashhur hikoyatni aytib berdi. Xususan, toshbaqa chayonga yaxshilik qilib, uni daryodan o’tkazib qo’ymoqchi bo’lganda, chayon unga zahar solishga tirishganini, so’ng bu yomonligi uchun daryoga cho’kib o’lganini shunday kelishtirib aytdiki, Bobur zavq qilib kuldi-da:

– Siz so’zlab berganmidingiz? – deb Mohimdan so’radi.

– Yo‘q, o‘zi «To‘tinoma»ni bemalol fahmlab o‘qidi. Besh yoshga yetmay, savod chiqargan qizchani men birinchi ko‘rishim.

– Gulbadanga ko‘z tegmasin, zehn-u muhofazasi benazir.

– Sa‘diyning «Guliston»idan xiyla hikoyatlarni yod bilir. Ash‘orga uncha o‘ch emas. Ammo nasriy hikoya xotirasiga so‘zma-so‘z naqshlanib qolur. Bog‘da, ko‘chada ko‘rganlarini ham kelishtirib hikoya qilur. Men o‘zimcha orzu qilurmenki, Gulbadan shoira bo‘lmasa ham hazrat otalarining nasrnavisligini meros olsa ne ajab?

– O, nasr yozmoq uchun qanchalik ko‘p savdolarni boshdan kechirmoq kerak, Mohim!

Gulbadan ota-onasining gaplariga yaxshi tushunayotganday sergaklanib, quloq solmoqda edi. Uning katta-katta shahlo ko‘zlarida qandaydir umid, ayni vaqtda, xavotirlik borgan o‘xshardi. Go‘yo uning otasidan kutgan umidlari puchga chiqsa ko‘ngli qattiq ozorlanishini sezib, xavotirlanayotgandek ko‘rinardi.

– Zukko qizim, hazrat onang sendagi ajib bir qobiliyatni yaxshi payqabdir. Agar Gulining nasrga ishqi zo‘r bo‘lsa, – deb Bobur Mohim begimga qarab davom etdi, – «Vaqoye»ning osonroq boblaridan beray, xattot qizchamizga bir nusxa ko‘chirib bersin.

– Men ham sizdan shuni iltimos qilmoqchi edim. Guli turkiy tilni hazrat otalarining kitoblaridan o‘rganganini yaxshi. Men, ojizangiz, orzumandmenki, faqat Humoyundek o‘g‘illaringiz emas, Gulbadandek qizlaringiz ham tarixda sizga munosib nom qoldirsalar<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Oldinroqqa ketib aytish mumkinki, Mohim begim Gulbadanni chindan ham Bobur nasri ruhida tarbiyaladi. Gulbadan begim voyaga yetganda, «Boburnoma»ning eng yaxshi fazilatlaridan ibrat olib, o‘zining mashhur «Humoyunnoma» asarini yozdi. O‘sha zamonlarda ayollarni kamsituvchi diniy aqidalarga qarshi borib yozilgan «Humoyunnoma» tariximizning nodir madaniy obidalaridan biriga aylandi.

Bu soʻzlarning samimiyligini butun vujudi bilan sezgan Bobur noxosdan toʻlqinlanib ketdi. Mohim begim kundoshi Dildor ogʻachaning bir emas, ikki farzandini shunchalik mehr bilan tarbiyalashi va ularning kelajagiga shu darajada jon kuydirishi uchun qancha katta bardosh, tantilik, bagʻri kenglik kerak boʻlganikin? Bobur yoshi qirqdan oshgan sari kelajak avlod haqida koʻp oʻylar, farzandlar, ayniqsa, shu yoshda odamning hayotida hal qiluvchi kuchlardan biriga aylanishini sezardi. Shu sababdan ham Mohim begimning birgina Humoyunni emas, mana, Hindol bilan Gulbadanni ham otalariga sadoqatli va mehr-oqibatli farzandlar qilib tarbiyalayotgani xotin kishining oʻz eriga qilishi mumkin boʻlgan eng ulugʻ yaxshiligi ekanini hozir butun borligʻi bilan his qildi. Bobur podshohlik udumiga yon berib, Mohim begimning ustiga yana ikki xotin olgan boʻlsa ham Mohim buni bagʻri kenglik bilan kechirgani, yana oʻzini unga shunchalik fido qilayotgani – tengsiz bir muhabbat va sadoqatning nishonalari emasmi? Bobur tez oʻrnidan turib, koʻrpachada oʻtirgan Mohim begimning ustiga engashdi-yu, sochidan, peshonasidan, yuzidan oʻpa boshladi.

– Mohim, siz mening benazir malagimsiz! – deb ehtiros bilan shivirladi: – Men shoh boʻlsam ham ulugʻ qalbingiz oʻtrusida qulmen!

Mohim ham tez oʻrnidan koʻtarildi. Gulbadan otanasiga iymanib qarab turganini koʻrdi-yu, atrofga olazarak boʻlib koʻz tashladi.

Robiya ularni xoli qoldirib, ichkariga kirib ketgan. Savdarboshilar ham yoʻq. Bobur Mohim begimning koʻzlaridan ham oʻpib:

– Buyuring, – dedi, – neki istasangiz men bajo keltiray!

Mohim begim uyaliib shivirladi:

– Gulbadanga javob beraylik...

Bobur yana savdarboshini chaqirdi va Gulbadanga Hindistondan keltirilgan to'tiqushlarni hadya qilishni buyurdi.

Chiroyli oltin qafaslarga solingan to'tiqushlarning kamalakday tovlangan patlari Gulbadanning e'tiborini o'ziga tortdi. To'tiqushlar so'zlashni bilar edi, kattarog'i shang'ii tovush bilan:

– Assalom, begim! – dedi.

Gulbadan bundan zavq qilib, bolalarcha soddalik bilan:

– Assalom, to'ti! – dedi.

Shunda hammalari beixtiyor kulib yubordilar. Gulbadan dadasining oldiga chopib keldi, bu ajoyib sovg'asi uchun uning qo'lini o'pdi. Bu orada ichkaridan chiqqan Robiya qizchani sekin qo'lidan oldi-da, to'tiqush solingan qafas bilan birga zinapoyadan pastga olib, tushib ketdi.

Bobur va Mohim begim ikkovlari ichkari xonaga yo'naldilar. Katta tanobiy uyning to'ridagi shahnishinga eroniy gilamlar va zarbof ko'rpachalar to'shalgan edi. Bobur Mohim begimning xipcha belidan quchib, o'sha tomonga boshlab borar ekan:

– Hali ham kelinchaklik paytlaringizdagidek sarv qomatsiz, Mohim, – dedi.

– Chunki siz men uchun hamon yigirma yoshlik yigitsiz!

Mohim begim shunday deb, ichki uyning ochiq eshigidan ko'rinib turgan shohona to'shaklariga olovli bir nigoh tashlab oldi. Bugungi ehtirosli tun, ikkovlari xuddi alanga tillaridek goh butun borliqlari birlashib, goh yana ajrashib, so'ng qaytadan olov mavjida birlashib, ikki tan bir vujudga aylangan paytlari xayoliga titroq solib o'tdi. O'sha daqiqalarda Mohim erining qulog'iga: «Siz mening ko'z ochib ko'rgan yagona yorimsiz, sochingizdan-tirnog'ingizgacha butun borlig'ingiz menga jonimdan ham aziz, endi

sizni boshqa hech kimga bermasmen!» deb shivirlagan edi. Boburning hozir uni o'pib: «Men shoh bo'lsam ham sizning ulug' qalbingiz o'trusida qulmen!» degani Mohimning o'sha tungi so'zlariga javobdek eshitildi. Bu so'zlar va o'pichlar Mohim bengin borlig'ini shunday yayratib yubordiki, yoshi o'ttiz yettiga borgan bo'lsa ham hozir yigirma yoshli juvondek husni jamoli ochilib, ko'zlaridan o't chaqnab, sho'x ohangda so'radi:

– Men hozir neki tilasam bajo keltirurmisiz?

Bobur Mohimning yangi bir ko'shk qurib berishini yoki katta xarajatlar uchun xazinadan qo'shimcha oltin so'rashini kutgan edi. Uning bunaqa istaklarini so'zsiz bajargisi kelib turgan Bobur:

– Sizdan mol-u jonni ayamasmen, buyuring! – dedi.

Mohim bir lahza taraddudlanib turdi-yu, past va jiddiy tovush bilan dedi:

– Sizdan mol-u jon emas, farzandimiz Humoyunni... Kobulga qaytarishingizni iltimos qilmoqchimen.

Bobur ham endi jiddiylashib:

– Nechuk? – dedi. – Butunlay Kobulga qaytsinmi?

– Ha, sizdan o'tinamen!

– Mohim, Humoyun yonimizda bo'lishiga men ham tashnamen. Biroq shimoliy chegaralarimizni Humoyundek ishonchli odam qo'riqlab turmasa, shayboniyzodalarni o'zingiz bilursiz...

– Bilganim uchun tun-u kun xavotirdamen. Ikki yildan beri Humoyun Badaxshonda. Men uni shunchalik sog'inamenki, turgan xonalariga kirsam, o'qilgan kitoblarini varaqlasam, ko'zimga yosh kelur.

– Mohim, siz bilursizki, tojdorlar-u valiahdlarga ona bo'lishning mashaqqati behisob... Shukr qiling, mening rahmatlik onam tortgan azoblarni Xudo sizning boshingizga solgan emas. Humoyun mirzoning ishlari juda taraqqiyda. Badaxshonlik sodiq yigitlardan to'rt-besh mingi uni asrab-avaylab yururlar. Shayboniyzodalar ham biz bilan murosa



qilishga majbur, chunki hozir ular ichki nizolarni tinchitilmay, o'zlari bilan o'zlari ovora.

- Undoq bo'lsa, Badaxshonga endi Komron mirzoni yubora qoling. Axir u kishi ham o'n oltiga kirdilar. Gulruh begim doim o'g'illarining er yigitga aylanganidan faxrlanib gapirurlar.

Bobur xotinlarining orasidagi raqobatni juda yomon ko'radi. Chunki kundoshlik raqobati bolalarga ta'sir qilsa, ular bora-bora bir-birlariga dushman bo'lib qolishlari mumkinligini bilardi.

- Siz Gulruh begimning gapiga e'tibor bermang degan edim-ku, Mohim!

- E'tibor bermay ilojim yo'q, hazratim! Chunki Gulruh begimning ikki o'g'li ham yonlarida. Men bo'lsam uzoqdagi Humoyunni sog'inib, qon yuturmen!

- Obbo!.. Mayli, men sizning tilagingizni bajo keltiramen, deb so'z berdim. So'zimdagi turmog'im kerak. Humoyunni juda sog'ingan bo'lsangiz, ikki-uch haftadan so'ng uni, albatta ko'kursiz.

- Qayerda ko'rurmen? - ovozi titrab so'radi Mohim.  
- Kobuldami?

Bobur ovozini pasaytirib:

- Odinapurda, - dedi.

Odinapur Hindiston chegarasiga yaqin joyda edi, Mohim begim Boburning o'sha joyda qo'shin to'playotganini eshitgan edi. Aftidan, Humoyunning Kobulga kelib yurmasdan, bor qo'shini bilan Badaxshondan to'g'ri Odinapurga o'tib borishi harbiy maqsadlarga muvofiqroq kelar edi. Mohim begim endi xavotirli ovoz bilan so'radi:

- Hazratim Humoyunni ham Hind yurishiga olib bormoqchilarmi?

Sir saqlanayotgan mavzuda gap ochilgani uchun Bobur atrofga ko'z tashlab, bir lahza jim quloq soldi. Ayvonda ham, ichki uylarda ham ikkovlaridan boshqa odam yo'q edi.

– Siz bilursiz, men Movarounnahrdan umidimni uzganimdan beri yorug‘ bir istiqbolni Hindiston tomondan izlamoqdamen. O‘n yildan beri bir necha qayta ishonchli odamlarimni Hindga elchilikka yubordim.

– O‘zingiz ham Hindga to‘rt qayta borib keldingiz-ku.

– Lekin to‘rt martasida ham Dehliga yetolmadim. Laxo‘r atroflaridan qaytdim.

– Hindda Vatanlarini jon-jahd bilan himoya qiladigan botir yigitlar ko‘p ekan-da.

– Ha, xususan, rajput yigitlari jasur qilichboz kelurlar.

– Ular jangda nechog‘lik beomon ekanini biz ham eshitdik. Shuning uchun har gal Hind yurishiga ketganingizda xavotirlik olovida qovrilib, tunlarni uyqusiz o‘tkazurmen. Har ikki tomondan qancha begunoh odamlar jang qilib, halok bo‘lgani xayolimdan nari ketmaydi. Hatto Bajur qo‘rg‘onida o‘ldirilgan uch ming yog‘iyning boshidan kalla-minora yasatibsizlar!

– Siyosat uchun... zarur bo‘ldi.

– Ammo bunday siyosat sizdek siymo uchun ma‘zur emas, hazratim! Shakkokligim uchun meni kechiring! Hind yurishi endi bas!

– Yo‘q, bas qilolmasmen. Hindiston rojalari menga elchi yubormishlar. Ular Ibrohim Lodining<sup>1</sup> zulmidan bezor emishlar. Mamlakatlari vayron, uluslari parokanda, o‘zaro urushlardan hamma bezgan. «Hindda qudratli davlat tuzib, qadimiy madaniyatni tiklamoq uchun bizga sizdek ma‘rifatli tojdor kerak» deb, panjoblik Davlatxon o‘z o‘g‘li Dilovarxonni bizga vakil qilib yuboribdir.

Mohim begim Boburning Davlatxon bilan ittifoq tuzganini bilar edi. Boburni Ibrohim Lodi zulmiga qarshi chorlayotganlar orasida hindistonlik mashhur

---

<sup>1</sup> Ibrohim Lodi – afg‘on qabilalaridan chiqqan podsho.

roja Sangram Sinx ham bor edi. Bundan uch kun oldin Bobur shu rojaning elchisini qabul qilgan, lekin unga nima javob berganini hali ko'pchilik bilmas edi. Mohim eriga mayin tikilib:

- Bir savolga ijozat bering, - dedi.

- Marhamat.

- Rano Sinx bilan ham ittifoq tuzdingizmi?

Bobur tasdiq ma'nosida bosh irg'adi.

- Men Hindga borsam, uni talab kelish uchun emas, balki umr bo'yi intilib yetisholmayotgan orzularimni o'sha yerda ro'yobga chiqarish uchun bormoqchimen! Hozir shu maqsadga yetishish uchun qulay fursat keldi.

- Biroq bu maqsadingiz yo'lida dahshatli bir choh - qonli urush bor!

- Biz bu chohdan ot sakratib o'tmog'imiz mumkin.

- Hazratim, siz ot sakratib o'tganingizda ham, bu chohga ming-ming beva-yu sag'iralarning ko'z yoshlari to'kilgay! Begona yurtning onalari-yu bevalari siz bilan urushda o'lgan farzandlari-yu erlarining o'limini kechirarmikinlar?

- O'shal onalar-u bevalarning farzandlari-yu erlari parokanda yurtning ichki urushlarida ozmuncha halok bo'lmoqdami? Ibrohim Lodi goh Panjob bilan, goh Gvalior bilan, goh Bangola bilan jang qilur. Narigilar ham bir-birlari bilan taxt talashib urushurlar. Har yili qirq-ellik ming navkar bu o'zaro urushlarda behuda halok bo'lmoqda. Mamlakat bizning Movarounnahrdek xarob. Bu to'polonlardan bezgan hind beklari qochib kelib mendan panoh topdilar. Shulardan biri Hindubek besh yildan beri mening nufuzli amirlarim qatorida yurganini bilursiz. Ular ham meni Hind sari chorlaydirlar, mamlakatni obod qilishni, ilm-u ma'rifatni yuksaltirishni o'ylaydilar.

- Agar bunday ma'rifatli podshoh o'z yurtlaridan chiqsa edi, ulug' davlat tuzish yo'lida noiloj to'kiladigan qonlar osonroq unutilmog'i mumkin edi. Ammo

boshqa yurtdan borgan fotihlarning to'kkan qonlari fotihlik qilichidan yetgan dil yaralari asrlar davomida unut bo'lmag'ay, tuzalmag'ay! Men ana shundan xavotirdamen, hazratim!

Mohimning so'nggi so'zlari Boburning dilidagi eng og'riydigan yarani tirnaganday bo'ldi. U ozorlanib, o'rnidan turdi:

– Taqdir qilichi bizning dilimizni ozmuncha yaraladimi? Qani bu yaralarning unut bo'lgani? Qani tuzalgani?!

Bobur kaftini kaftiga qahr bilan urib, savdarboshini chaqirdi:

– Men boya ayvonda chog'ir keltirishni buyurgan edim! Nechun keltirmadi?

Uning avzoyi keskin o'zgarganini, hozir savdarboshi kirsa, biron jazo olishi mumkinligini Mohim begim sezdi-yu, tez o'rnidan turdi.

– Hazratim, chog'ir ichgingiz kelsa, marhamat, men saqlab qo'ymishmen, – deb ipak parda bilan to'silgan tokchadan oltin ko'zacha to'la may va ikkita nafis chinni piyola oldi. Boshqa tokchada guldor dasturxon bilan bir lagan norinj turgan edi. Dasturxonni apiltapil shahnishinga yozib, norinjni unga qo'ydi-da, Boburni taklif qildi. Ko'zachadan chinni piyolaga xushbo'y mayni quyur ekan:

– Ijizat bersangiz, men hozir soqiylik qilsam! – dedi.

Bobur o'tirar ekan, ijizat ma'nosida bosh irg'adi.

Mohim piyolaga yarmidan oshiribroq may quydi-yu, chap qo'li ko'ksida, o'ng qo'li bilan Boburga uzatdi:

– Oling, hazratim, sizga uzoq umr, baxt-u saodat yor bo'lg'ay!

Piyoladagi tiniq xushbo'y ichimlik Mohimning qo'li bilan birga xiyol titrab turibdi. Bobur piyolani olar ekan, xotini iliq bir gap kutayotganini sezdi. Lekin hozir uning qalbida qandaydir sovuq izg'irin xuruj qilmoqda edi. Harbiy va siyosiy ishlarning qorbo'roni

xayollarini chirmab, goh hazora qabilalari bilan bo'lgan qonli to'qnashuvlarga olib ketar, goh Panjobga bog'liq chigal muammolar, goh karvon yo'llarida talonchilik qilgan qaroqchilarning tashvishlari esiga tushar, goh og'ir zambaraklarni sinovdan o'tkazish paytida ularning yo'g'on mis quvuri yorilib ketgani va to'pchilardan besh kishi o'sha joyda halok bo'lgani ko'z oldiga kelar edi. U sovuq izg'irin changalidan chiqib ketishga va avvalgi iliq ruhiy holatiga qaytishga intilib, dardli tovush bilan dedi:

– Mohim, uzoq umr-u baxtli hayot men uchun ushalmaydigan orzu bo'lsa kerak.

– Nechun? Agar Tangrim nasib qilsa, ushalishi hech gap emas. Ilohim nasib qilsin!

– Aytganingiz kelsin...

Bobur mayni sipqordi-yu, piyolani Mohim begimga qaytarib berdi. Norinjdand bittasining po'chog'ini qo'li bilan archib, yarim pallasini edi. So'ng Mohim begimga «Yana quyung!» ishorasini qildi.

Ikkinchi piyoladan keyin vujudiga mayin bir iliqlik taraldi, boyagi sovuq izg'irin xayolidan uzoqlashganday bo'ldi-yu, Mohimga ko'nglini ochib gapirgisi keldi.

– Bu amirlar, elchilar, ittifoqdoshlar-u yog'iyalar, yana yuz xil davlat ishlari qalbimni yuz bo'lak qilib, yuz tomonga tortadir, Mohim! Goho mening ko'nglim ham parchalanib ketgan, o'zaro urushlarda azob tortayotgan mamlakat kabi alg'ov-dalg'ov bo'ladir! Hayotimda go'yo shunday bir qutb borki, unga barcha amirlar-u elchilar, chopqinlaru urushlar to'planmishdir. Bu qutbda men sovuqqonlikka o'rganmishmen, chunki siyosat bobida odamlarga xuddi shatranj taxtasi ustidagi piyoda-yu sipohiyarlarga qilgan shafqatsiz muomalani qilmasang, ularni aqlu farosat, hisob-u kitob bilan idora etmasang, murodga yetolmassen. Ammo bu shafqatsiz siyosatning sovuq izg'irininidan o'zim to'ng'ib keturmen. So'ng may ichib,

isingim kelur. Bu sovuq qutbda she'r yozishga ham hafsalam qolmas!

– O'shal noxush qutb o'trusida boshqa iliq makoningiz yo'qmi, hazratim?

– Bugun... mana hozir yana bir marta payqadimkim... men uchun olamda eng iliq qutb – Siz, Humoyun, Gulbadan... Sizlar bilan bo'lganda tuyg'ularim jo'shib, ijod qilgim kelur.

– Undoq bo'lsa, doim biz bilan birga bo'ling! Bundan biz ham behad baxtiyor bo'lurmiz!

– Qani edi!.. Ammo buning uchun men davlat ishlaridan butunlay voz kechmog'im kerak.

– Butunlay voz kechishingizga hojat yo'q, hazratim. Axir siz Kobulda katta davlat barpo etdingiz. Qunduzdan Qandahorgacha, Badaxshondan Sind daryosigacha bo'lgan parokanda o'lkalarni bir markaz atrofiga birlashtirdingiz. Kobul o'z tarixida birinchi marta shunday ulkan mamlakatning poytaxtiga aylandi. Bu yerda siz yangi ko'shklar qurdiringiz, yangi bog'lar barpo etdingiz, yangi ariqlar qazdirib, ko'p joylarni obod qildingiz. Shu hammasi siz uchun aziz emasmi?

– Noshukrlik bo'lmasin, men Kobulda ko'p mas'ud kunlarni ko'rdim. Biroq katta orzularimni ro'yobga chiqarishga hamon ojizmen. Shu menga tinchlik bermaydir. Kobul atrofidagi ko'p joylar hali qalamiy<sup>1</sup> emas, sayfiy<sup>2</sup>. Ana, G'aznida necha asrdan beri buzilib yotgan ulug' band bor. Mahmud G'aznaviy bandi derlar. Agar shu band<sup>3</sup> tiklansa, cho'l bo'lib qolgan katta bir vodiy yana yashnab ketgay. Men shu bandni tuzattirmoqchi bo'ldim. Lekin sarfini

---

<sup>1</sup> Qalamiy – amri farmon bilan soliq to'laydigan qalamrav yerlar.

<sup>2</sup> Sayfiy – hali bo'ysunmagan, qilich kuchi bilan soliq to'laydigan yerlar.

<sup>3</sup> Band – suv omborining to'g'oni.

hisoblab ko'rsam, xazinam yetmas ekan... Bu ahvolda men Kamoliddin Behzoddek ulug' iste'dodlarni qaysi davlatimga taklif etamen? Behzodni Shoh Ismoil Tabrizga olib ketmishdir. Chunki hozir shoh mendan qudratliroq. Qanchadan-qancha ilm-u hunar ahli, me'morlar-u muhandislar bor, agar chorlasam, ko'plari kelurlar. Lekin... Kobulga o'zi kelgan me'mor mavlono Fazliddinga munosib ish topib berganim yo'g'-u boshqalarni qandoq chorlay?

Mohim begim Boburning Hindistonga intilishiga naqadar ko'p va murakkab sabablar borligini sezib:

- Xorazmlik vatandoshingiz Beruniy ham Hindistonga borgan - dedi. - Hazratim, siz uning «Hindiston» otliq kitobini qanday o'qiganingiz esingizdami?

Bobur G'aznidan topib kelingan bu kitobning eski arab tilidagi nusxasini qiynalib o'qigan bo'lsa ham mazmunini juda yoqtirgan edi.

- Ha, Hind hayotini Beruniychalik teran tahlil etgan olim kam bo'lsa kerak. Beruniy ham mening Hindni ko'rish ishtiyoqimni oshirdi.

- Bilamen. Hindda sizni ohanraboday o'ziga tortgan yana bir siymo Xisrav Dehlaviydir.

- So'zingiz chin, Mohim. Men Dehlaviyning ko'p ash'orlarini «Muxtasar» kitobimda keltirmishmen. Dehlaviyning otasi amir Mahmud Qarshi bilan Shahrisabz oralig'ida yashagan lochin ismli turkiy qabiladan edi. Men buni yaqinda bildim. Lochin qabilasi Chingizxon istilosidan qochib, Hindga borib qolgan ekan. Xisrav Dehlaviy Davlatnoz ismli hind musulmasidan tug'ilmishdir.

- Hazratim, - dedi Mohim Boburga muloyim tikilib, - siz ham shoirsiz, ham olimsiz. Men orzu qilardimki, barcha el-uluslar sizni ham Beruniydek, Dehlaviydek faqat yaxshi so'zlar bilan tilga olsalar.

Bobur Mohim begimning botinib aytolmagan soʻzlarini tushundi-yu, yuzi tundlashdi. Xayolida yana oʻsha sovuq izgʻirin qoʻzgʻaldi.

– Siz mening podshoh ham ekanimni nechun eslatmoqchi emassiz?

– Chunki men sizni ijodingiz olovi yongan iliq qutbda muqim turishga chorlamoqchimen!

– Men ijod qutbida umrbod qolmoqchi boʻlib, Dahkatda, Osmon Yaylovda yalangoyoq yurganimda nechun uchramadingiz? Endi kech!.. Podshohni barcha el-uluslar faqat yaxshi soʻzlar bilan tilga olishi – ushalmaydigan bir orzu. Men odamlarning maqtoviga ham, taʼna-yu malomatiga ham rosa toʻyganmen!

Bobur yaqinda yozgan bir gʻazalidan ikki satrini joʻn soʻzga oʻxshatib ohangsiz, aytdi:

– Ulusning taʼn-u taʼrifi<sup>1</sup> menga, Bobur, barobardur, bu olamda oʻzimni chun yomon-yaxshidan oʻtkardim.

– Rost, bizning hech birimiz dunyoning achchiq-chuchugini sizchalik koʻp tatib koʻrgan emasmiz... Olamning berahm dagʻal jabr-u jafolarini bunchalik koʻp koʻra turib, shu qadar nafis sheʼrlar bitishingiz, shunchalik nazokatli ohangda kuylashingiz meni doim bir moʻjizadek hayratga solur. Hazratim, siz ulugʻ shoirlar davrasidan joy olmogʻingiz kerak. Men goho qoʻrqamenki, jahongirlik, fotihlik sizning shoirligingizga soya tashlab qoʻymasmikin?

– Hind yurishidan voz keching, demoqchimisiz?!

Mohim begim Boburni bu niyatidan qaytarolmasligini endi aniq sezdi.

– Hazratim, hech boʻlmasa Humoyunni Kobulda qoldiring! Axir siz Hindga ketsangiz, kimdir Kobulni boshqarishi zarur-ku!

– Men yoʻgʻimda Kobulni siz idora etgaysiz, begim!

– Nahot! Axir men ayol kishimen! Shariatga binoan xotinning mavqeidan oʻgʻillarning mavqeyi balandroq

<sup>1</sup> Taʼn-u taʼrif – taʼnasi-yu maqtovi.



bo'lar. Kobulda o'g'illaringiz mirzo Komron bilan mirzo Askariy borlar.

Bobur bu muammoni birpasda sovuqqonlik bilan hal qildi:

– Mirzo Komronga Qandahorni bergaymen. Askariy ikkalasi shu hafta Qandahorga keturlar. Qandahor bu yerdan otda bir haftalik yo'l. O'g'illari ketsa, Gulruh begimning hovuri pasayib qolishi aniq.

– Kobul mening xos shahrim, – deb davom etdi Bobur. – Uni hargiz o'g'illarga bermasmen, faqat sizga topshirib ketgaymen! Qosimbek qavchin xizimatingizda bo'lar. Barcha haram ahli men yo'g'imda sizga bo'ysung'usidir!

Kutilmagan bu inoyatdan Mohim begim endi hayajonga tushdi. Podshoh o'z xotiniga bunchalik katta ishonch bildirishi juda kam uchraydigan hodisa edi. Ayniqsa, butun haram, hatto Gulruh begim ham Bobur yo'g'ida Mohim begimga bo'ysunishi, bunga xalaqit berishi mumkin bo'lgan mirzo Komron va mirzo Askariylarning Qandahorga jo'natilishi Mohim begimni qiynab yurgan ishkal tugunni birdan echib yuborgandek yengillik berdi:

– Hazratim, inoyatingizdan boshim ko'kka yetdi! Ammo bilursizki, ojizangiz hokimlikka tashna emasmen.

– Kimki hokimlikka tashna bo'lmasa, men o'shal zotga ko'proq ishonib hokimiyat bergaymen. Barcha tashqi ishlarga Qosimbek mutasaddi bo'lg'ay. Hindol yoningizda. Siz uning nomidan ham amr-u farmon bersangiz, shariatga mos kelur.

Mohim begimning boyagi iztirobli o'ylari bir lahzaga bo'lsa ham xayolidan uzoqlashdi.

Boburning katta ishonchi qalbiga shunchalik yoqib tushgani begimning o'zini ham xiyol taajjublantirdi. Qandahorga hokim bo'lish Komron mirzoga ham

yoqib tushishini o'yladi. Bobur ikki tomonni ham tinchitadigan nozik bir siyosat yurgizayotganini begim endi sezdi. Odamlardagi ichki manfaat tuyg'usini bexato topib, shu tuyg'uga suyangan holda ularni mohirona boshqara bilish katta bir san'at ekani, Bobur yillar davomida mana shu san'atni qanchalik yaxshi egallaganini begim hozir juda yaqindan ko'rdi va go'yo o'z tajribasidan o'tkazdi. Komron mirzoni Qandahorga jo'natish, Mohim begimga Kobul ixtiyorini berish boshqa ko'p amir-u beklarning ko'nglidagini topib, o'rinlarini almashtirish – bu hammasi shatranj donalarini ularga juda mos keladigan bir mahorat bilan surish va o'rinlarini almashtirishga o'xshab ketardi. Shunday bo'lsa ham Bobur Mohim begimning ko'nglidagi eng nozik dardni payqab, uni kundoshi Gulruh begimning qo'li yetmaydigan yuksak martabaga munosib ko'rgani behad yoqimli edi.

– Hazratim, sizning ulug' ishonchingiz mening tanimga yangi bir jon ato qildi! Biroq... ne qilayki, men dunyodagi barcha ne'matlardan, hatto o'z jonimdan ham siz bilan Humoyunni ortiq ko'rurmen. Siz hozir rahnamolik san'atida benazirsiz. Shunday bo'lsa ham fotihlarning g'animi ko'p bo'lur. Hindda beadam el. Beadam yog'iy. O'ylasam vahmim kelur!

– Jang xatarsiz bo'lmas. Siz muncha iztirobga tushmoqdasiz, Mohim? Sizga ne bo'ldi?

– Men Humoyun uchun ham iztirob chekmoqdamen... Hech bo'lmasa Humoyun Kobulda qolsin, sizdan o'tinamen, hazratim!

Bobur Mohim begimga endi ozorlanib, ko'z tashladi: nahotki u «erim xatarli jangda o'lsa ham o'g'lim yonimda tirik qolsin» demoqchi?

– Humoyun taxt vorisi, – dedi Bobur ranjigan tovush bilan. – Shuning uchun qo'shinda men bilan birga borishi shart... Eskidan odat shundayligini nechun unutdingiz?

Bu odatning ma'nosi shu ediki, agar uzoq yurtdagi jangda podshoh halok bo'lsa, taxt vorisi darhol qo'shinga bosh bo'lishi kerak edi, aks holda, qo'shin boshqa da'vogarlar tomoniga o'tib ketishi mumkin edi. Bobur bu odatni eslatish bilan «men agar olamdan o'tsam, o'rnimga Humoyun qolishini istab, uni birga olib ketmoqchiman», demoqchi edi.

Mohim begim Boburning gapidagi bu ma'noni fahmladi-yu, iztirobi battar oshdi. Nazarida, Bobur Hindistondan umrbod qaytib kelolmaydiganday, oldindagi yurish «borsa kelmas» yurish bo'ladiganday tuyildi. Mohim begimning yuragi ezilib, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

- E Xudoyim! Dunyo nechun bunday beomon yaratilgan? Qachon bexatar kunlarga yetgaymiz?

Bobur jim edi.

## LAXO'R. PANIPAT. DEHLI

### YANGI QIRG'OQLAR

#### 1

Qo'shin ilgarilagan sari o'rmon qalinlashib borar edi. Chinorday baland ban'yan daraxtlarining ochiq ildizlari shoxlaridan pastga osilib tushib, yerga kirib ketgan. Yo'g'on chirmovuqlar daraxtdan daraxtga o'tib, hammayoqni o'rab-chirmab tashlagan. Oyoq tagida o'siq butalar. Havo dim va rutubatli.

Ot ustida kelayotgan Bobur yengil shohi ko'ylak kiygan bo'lsa ham terlab-pishib ketgan. U ban'yanlarning shamoldan shovullayotgan baland shoxlariga termilib qaraydi. Tepada esib turgan shamol changalzor o'rmon ichida borayotganlarga shabadasini ham tekkizolmaydi. O'rmondan maymunlarning sho'x qiy-chuvlari eshitilib turadi. Goho tovuslarning «qo'-o'-o'v» deb keskin va noxush ovoz bilan qichqirgani quloqqa chalinadi.

Bir payt o'rmon ichida tuya yetaklab, piyoda ketayotgan navkarlardan allaqaysisining jon achchig'i bilan chinqirgani eshitildi. So'ng safdan-safga:

– Ilon chaqibdi!

– Ko'zoynakli ilon! – degan shivir-shivir tarqaldi.

To'p ortilgan aravalar tomondan oti loyga botgan usta Aliqul tashvishlanib chiqib keldi-yu, Boburga arz qildi:

– Podsho hazratlari, og'ir to'plarni bu changalzor o'rmondan o'tkazib bo'lmas! Oyoq tagi loy! To'p ortilgan aravalar hammasi tiqilib qoldi!

Bobur orqaroqda kelayotgan Tohirga o'girilib qaradi:

– Rahnamoni chorlang, bek!

Yoʻlboshlovchi Laʼl Chand oldinda fil minib bor-moqda edi. Tohir uni chaqirib kelganda, Bobur mingan saman ot fildan hurkib asabiy pishqirdi. Laʼl Chand filini toʻxtatib, uning qulogʻiga bir nima degan edi, fil xartumini yuqoriga choʻzib, pastga tushirib qoʻydi. Laʼl Chand kaftlarini bir-biriga qoʻyib, koʻzi aralash peshonasiga tekkizdi-da, Boburga taʼzim qildi. Bobur unga forscha gapirdi:

- Bu yoʻl bizga toʻgʻri kelmadi. Boshqa yoʻl topish kerak.

- Hazrat oliylari, boshqa yoʻllarni suv bosgan. Bu yer Panjob. Beshta daryomiz bor. Hammasi toshgan.

- Panjobda aravalar oʻtadigan yoʻl koʻp deb eshitganmiz. Bu yoʻlda aravalar tiqilib, yurolmay qoldi. Biz adashdikmi?

- Adashganimiz yoʻq, hazratim. Aravalar qayerda tiqildi?.. Ruxsat bering, fil bilan chiqaray. Bugun yursak, ertaga yaxshi yoʻllarga chiqamiz. Laxoʻr yaqin.

- Filni boshlab boring, aravalarni chiqarib bersin, - dedi Bobur usta Aliqulga. Kichkina jussali ozgʻin Laʼl Chand togʻday baland qora filga yana uning xartumi yordamida mindi. Soʻng filning supraday katta quloqlariga tizzalari bilan niqtab, qoʻlidagi uchi qayrilgan temir xilla - kajak yordamida uni oʻng-u soʻlga yoʻnaltirib, toʻp ortilgan aravalarga qarab ketdi. Tuyalar tortolmay qolgan aravalarni fil birpasda balchiqdan chiqarib berdi. Aravalarning birida oyogʻini ilon chaqqan navkar koʻm-koʻk koʻkarib, ingrab yotibdi. Uning tirik qolishi gumon boʻlsa ham yalang oyogʻining ilon zahar solgan joyiga dorivor barglar qoʻyib bogʻlashgan, zahar badanga koʻp tarqalmasligi uchun tizzasini ola chilvir bilan tangʻib tashlashgan edi.

Aravalar qoʻzgʻaldi. Fil mingan yoʻlboshlovchi yana oldinga oʻtib ketdi. Yoʻl yurganlari sari rutubat kuchayib, nafas olish ogʻirlashib borar edi.

Kun og'ganda Ravi daryosi tomondan yuztacha qurolli odami bilan Hindubek chiqib keldi. Xos navkarlar uni yaxshi bilishardi. Asli dehlilik sipohiylerden bo'lgan Hindubek Ibrohim Lodi bilan kelisholmay bundan yetti yil oldin Kobulga borgan va Boburning xizmatiga kirgan edi. Qirq yoshlardan oshgan bu yigit Boburning Hindistonga qilgan avvalgi yurishida ko'p jasorat ko'rsatgan edi. Boburga uning dovyurakligi bilan birga Vatanidagi ichki parokandalikni tugatish yo'lida ko'p qon to'kmaslikka, iloji bo'lgan joylarni jangsiz olishga astoydil intilishi ham juda ma'qul tushgan edi. Hindubek turkiy, forsiy tillarni ham mukammal o'rgangan, ilmli, ma'rifatli, dilkash kishi bo'lganligi uchun Boburning eng yaqin musohib beklari qatoriga kirgan edi. Bundan oldingi yurishda Kashmirdan oqib keladigan Jilom daryosi bo'yidagi Bhira Hindubekning harakatlari bilan jangsiz olinganda, Bobur bu obod viloyatga Hindubekning o'zini hokim tayinlab, Kobulga qaytib ketgan edi. Hozirgi yurishda Bobur Laxo'rni ham qon to'kmasdan jangsiz olish umidida edi va Hindubekni vositachi qilib, Laxo'r amirlari bilan muzokara olib bormoqda edi. Bobur Hindubekni uzoqdan tanidi va u bilan yakkama-yakka gaplashish uchun otini yo'ldan chetroqqa burdi. Hindubek otidan tushib, ta'zim qildi.

- So'zlang, bek!

- Hazratim, Davlatxonning avzoyi buzuq. Meni tuttirmoqchi bo'lganini sezib qochib keldim.

- Nechun? Axir Kobulga o'g'li Dilovarxonni yuborib, biz bilan ittifoq tuzgan edi-ku. Men uni otam degan edim! Qancha yaxshiliklar qilgan edim.

- Davlatxon hammasini unutgan. Beliga ikkita qilich taqib olgan. Men buning sirini o'g'li Dilovarxondan so'rab bildim. Bir qilichni Dehli sultoni Ibrohim Lodiga qarshi taqqan emish. Ikkinchi qilichni sizga qarshi.

- O'g'illari ham yog'iylik maqomidami?

- Dilovarxon sizga xoqon, kelib mulozamat qilmoqchi, Laxo'zni jangsiz bermocqchi. Otasi meni tuttirmocqchi ekanini Dilovarxon aytib, bir falokatdan qutqardi. Lekin katta o'g'li G'ozixon otasi tomonida.

- Olamxon-chi?

- Olamxon Ibrohim Lodi bilan olishib, mag'lub bo'lgandan beri qayta urushishga jur'ati yo'q. Laxo'rga borganingizda chiqib mulozamat qilishga so'z berdi. Agar G'ozixon shikast yesa, ko'pchilik beklar bo'yin egurlar, Laxo'r jangsiz olinur. Lekin... hazratim, nechun Laxo'rga bunday yomon yo'llardan bormocqdasiz?

- Panjoblik ittifoqdoshlarimiz peshvoz chiqargan rahnamo bizni shu yo'lga boshladi.

- Qani o'shal rahnamo? Ijozat bering, men bir taftish qilib ko'ray.

Fil mingan yo'l boshlovchini yana chaqirib keldilar. La'l Chand filini changalzorga yaqinroq bir joyda to'xtatdi va yana juftlangan qo'lini peshonasiga qo'yib, egilib salomlashdi. Hindubek ham kaftini juftlab, peshonasiga tekkizdi-da, o'zini osoyishta tutib, hindcha gapirisha boshladi:

- Asli qayerliksiz?

- Agralikman, sohib.

- Panjobga qanday kelib qolgansiz?

- Ish izlab kelganman.

- Shunday zo'r filingiz bor ekan, Ibrohim Lodi sizga ish topib bermadimi?

- Ibrohim Lodi xasis. Butun mamlakatning oltinlarini yig'ib, xazinasiga yashirib qo'yan. Qurilishga sarflash yo'q. Odamlarni ishlatib, rozi qilish yo'q! Bezor bo'ldik!

- To'g'ri aytasiz, - dedi Hindubek. - Men ham Lodilarning zulmidan qochib kelganman. Iskandar Lodi<sup>1</sup> mening otamni sarkashlikda ayblab, quturgan filing oyog'i tagiga tashlab o'ldirgan.

<sup>1</sup> Iskandar Lodi - Ibrohim Lodining otasi. 1517-yilda o'lgan.

Filbon Hindubekka maroq bilan tikildi-yu:

– Kshatriylardanmisiz?<sup>1</sup> – dedi.

– Ha, asli otim Indri. Bobur hazratlari Hindubek deb atadilar. Bu nom hammaga ma’qul bo’ldi. Xo’sh, sizning otingiz nima?

– La’l Chand.

– Siz ham Ibrohim Lodining zulmidan qochib kelgan ekansiz. Endi bu zulmdan bizni kim qutqaradi, deb o’ylaysiz?

– Xudo.

– Bandalaridan-chi?

La’l Chand o’ylanib qoldi:

– Davlatxonmi? – dedi Hindubek.

– Davlatxon saxiy odam. G’ozixon ham Ibrohimdan yaxshi.

Hindubek ovozi pasaytirib so’radi:

– Rostini ayting, siz bu qo’shinni nega bu yo’ldan boshlab boryapsiz?

– G’ozixon aytgan yo’l shu.

– G’ozixon nega o’tib bo’lmaydigan yomon yo’ldan yurgin degan, bilasizmi?

– Bular uchun yaxshi yo’l shu.

– Nega? Bular sizga nima yomonlik qildi?

– Bitta zolim podshoh – Ibrohim bizga ozmidi? Yana bittasi kelyapti!

– G’ozixon seni aldagan!

La’l Chand filini changalzor tomonga keskin burdi-yu, qichqirdi:

– Bular bosqinchilar! Bular Bajur qo’rg’onida uch ming yigitimizni qilichdan o’tkazgan! Shahar-qishloqlarimizni talatgan!

La’l Chand shunday deyar ekan, filini choptirib, o’rmon ichiga qarab qochdi.

---

<sup>1</sup> Kshatriy – hindlardagi asosiy to’rt tabaqaning biri, harbiylar.



– Hazratim, bu rahnamoni tuttiring! Bu yog‘iy kishisi! Sizni xarob qilmoq uchun yomon yo‘lga boshlagan!

– Tuting uni! – qahrланib qichqirdi Bobur. – Nobakorni oldidan to‘sib chiqing! Tez!

Otliqlar filning ketidan intildilar. Ulardan uchitasi katta banan daraxtini aylanib o‘tib, filning yo‘lini to‘sib chiqdilar. Filbon qo‘lidagi temir kajak bilan filni qattiq xillalab, bir narsa deb qichqirdi. Fil otlarning birini oyog‘i bilan tepib yiqitdi, ikkinchi otning bo‘yniga xartumini o‘rab, siltab itqitib yubordi. Buni ko‘rgan uchinchi otliq daraxt panasiga qochib, zo‘rg‘a qutulib qoldi.

Qahri kelgan fil bahaybat tovush bilan na‘ra tortib, yo‘lida uchragan yo‘g‘on chirmovuqlarni uzib o‘tar, katta-katta shoxlarni qarsillatib sindirar va otliqlar kirolmaydigan qalin changalzorda tobora uzoqlashib borar edi.

– O‘qlang! – deb qichqirdi Bobur.

La‘l Chand filning ulkan bo‘yniga bag‘rini berib, uning baland sag‘risi va quloqlari panasida biqinib yotar edi. Orqadan yog‘dirilgan yoy o‘qlarining ko‘pini daraxtlarning shoxlari va chirmovuqlar o‘tkazmadi. Uch-to‘rtta o‘q shoxlar orasidan o‘tib filning orqasiga urildi, lekin po‘latday qattiq va qalin fil terisiga botolmay, yerga uchib tushdi. Usta Aliqulning to‘fangdozlari miltiqlarini o‘rmonga to‘g‘riladilar. Biroq barqandozlar chaqmoq chaqib, to miltiq piltasini yondirgunlaricha La‘l Chand mingan fil yo‘g‘on va qalin daraxtlar panasiga o‘tib, ko‘zga ko‘rinmay ketdi. Fil zarbasidan yiqilgan har ikki ot yerdan turolmay uyalab yotar, ularning ustidagi navkarlar o‘lgan bo‘lmasa ham oyoq-qo‘llari shikastlangan edi.

– Yaradorlar aravaga olinsin! – buyurdi Bobur.

– Bizni adashtirib halok qilmoqchi bo‘lgan nobakor

jazolanmog'i kerak! To'fangandozlar o'tlanib, o'rmonni aylanib o'tsinlar!

To'fangandozlar shosha-pisha o'tlanib, aylanma yo'l izlay boshladilar. Ammo hammayoq changalzor, botqoqlik edi.

– Qani, Hindubek, endi bizga siz rahnamolik qiling!

– Bosh ustiga, hazratim!

Hindubek kechki payt ularni keng bir ko'kalamzor vodiyya boshlab chiqdi. Behad charchagan Bobur shu ko'kalamzorga chodir tikdirdi.

O'rmonda kiyimlari tiralib yirtilgan, otlari loyga belangan to'fangandozlar La'l Chandni topolmay qaytdilar. Shuning ustiga Laxo'rdan amir Davlatxon, uning o'g'li Dilovarxon ellik-oltmishta mulozim va navkarlari bilan Boburning qarorgohiga yaqinlashishdi. Dilovarxonning avvaldan xayrixohligini yaxshi biladigan Bobur xirgohda uni o'rnidan turib kutib oldi va o'ng tomonda o'tirgan e'tiborli beklari orasidan joy ko'rsatdi.

– Janob Dilovarxon, padari buzrukvoringiz nechun ittifoqni buzib, bizga yog'iylik maqomida qilich qayramishlar?

– Hazrati oliylari, otamni og'am G'ozixon yo'ldan urdi. «Yot qo'shin kelsa Laxo'r bizdan ketadi, bular ham bizga Ibrohim Lodiyyay dushman», deb ishontirdi.

– Shuning uchun Davlatxon aldamchi rahnamo yuborib, bizni o'rmon ichida adashtirgan ekan-da?

– Ammo bu fitnadan otamning xabarlari yo'q, hazrati oliylari! Bu – G'ozixonning ishi. Agar otam shunday qilganlarida bu yerga o'zlari kelmas edilar. Laxo'rda qon to'kilmasin deb, sizdan inoyat istab keldilar.

– Bizning inoyatlarimizga faqat siz munosibsiz, janob Dilovarxon! Ammo otangiz qilmishlariga yarasha jazo olgusidir! – Bobur shig'ovulga yuzlandi:

– Davlatxon so'nggi paytlarda bellariga ikkita qilich

taqib yurgan emish. Qani, o'sha qilichlarini biz ham bir ko'raylik... Har ikki qilichni bo'yniga osib kiringlar!

Ko'p o'tmay ikki zo'r navkar oppoq soqolli kekxa Davlatxonni ikki bilagidan mahkam ushlab chodirga olib kirdi. Chol navkarlarning qo'lidan bo'shamoqchi bo'lib asabiy siltanar, uning bo'yniga osilgan ikkita uzun qilich ko'kragiga urilib selanglar edi. Davlatxon Boburga alam bilan tikilib dedi:

- Podshoh hazratlari, men asir olingan emasmen, o'zim keldim! Bu qanday shafqatsizlik?

- Siz mendan elchi bo'lib borgan Hindubekni tuttirmoqchi bo'libsiz! Agar niyatingizga yetganingizda Hindubek omon qolmas edi! Keyin biz ham changalzorda balchiqqa botib, G'ozixonning qopqonida jon berarmidik? Bizga shafqat qilganlaring shumi? Shafqatsizlarga biz ham shafqatsizmiz! - Bobur shig'ovulga buyurdi: - Bu odam oilasi bilan birga Laxo'rdan Bhiraga badarg'a etilsin. Bhiraning Milvat qo'rg'onida hibsdan saqlansin!

Bo'shshib hech narsa deyolmay qolgan Davlatxonni olib chiqib ketdilar.

## 2

Kuz va qish o'tib borayotgan bo'lsa ham, daraxtlar yashil libosini echmas, «dun» deb ataladigan bag'ri keng, sayhon Hind vodiylari yil bo'yi bahordagiday ko'kalam bo'lib turar edi. Jamna daryosi bo'ylab Janubga tomon harakat qilib borayotgan Bobur qo'shini Dehlidan ellik chaqirimcha shimoldagi Panipat shahriga kelib to'xtadi. Dehli sultoni Ibrohim Lodi yuz mingga yaqin askar va bir yarim ming harbiy fil bilan Agra tomonidan yaqinlashib kelmoqda edi. Ibrohim Lodi shu fillari va askarlari bilan bultur Dehli bo'sag'asida Olamxon, Dilovarxon va boshqa dushmanlarining qirq ming kishilik qo'shinini tor-mor keltirgandi.

Boburning qo‘shini esa o‘n ikki mingdan oshmas edi. Yovning son jihatidan beqiyos darajada ustunligi ko‘pchilik bek va navkarlarning qalbiga g‘ulg‘ula solar edi. Agar mag‘lub bo‘lishsa, atrof hammasi notanish yerlar, begona yurt, qayerda jon saqlashadi? Ichki beklar orasida yurgan Tohir ko‘proq Boburning harbiy tajribasiga va usta Aliqul boshliq to‘fangandozlar va to‘pchilarning qurollariga umid bog‘lagan edi. Jahonda hali juda kam tarqalgan bunday qurollar Ibrohimning qo‘shinida yo‘q edi. Bobur o‘zida yo‘q harbiy fillar hujumini mana shu qurollar kuchi bilan bartaraf qilish fikrida ekanini Tohir bilar edi. Ular Panipat shahri bilan Jamna daryosining oralig‘idan to‘fang va to‘p otish uchun qulay bo‘lgan bir joyni topishdi-yu, yaqin-yiroqlardan olib kelingan barcha aravalarni yarim doira shaklida saf qildirishdi. Yetti yuzdan ortiq arava bir-biriga zanjirday mahkam tirkishlar<sup>1</sup> bilan bog‘landi. Aravalarning oldi va oralariga yoy o‘qi o‘tmaydigan temir qalqonlar o‘rnatildi. To‘fangandozlar va to‘pchilar shu qalqonlar ortiga bekinib, o‘q otishni mashq qildilar.

Aravalar baland bir tepalikning etagiga – oldi nishab joyga keltirildi. Ular o‘z-o‘zlaridan yurib ketmasligi uchun g‘ildiraklarning tagiga yog‘och to‘siqlar tirab qo‘yildi. Harbiy mashqlar o‘tkazilgan kuni Bobur aravalar ortidagi tepalikda otliq turib, g‘ildiraklar oldidagi yog‘och to‘siqlarni birvarakayiga olishni va barcha aravalarni barobar yurgizib ko‘rishni buyurdi.

Mulozimlar qatorida yurgan Tohir aravalar safining narigi chetiga ot choptirib borib, sarkardaning buyrug‘ini Mustafu to‘pchiga yetkazdi. Hamma piyodalar, to‘pchilar, zarbzan va barqzanlar<sup>2</sup> buyruqni

---

<sup>1</sup> Tirkish – ho‘kizning xom terisidan eshilgan arqonsimon narsa.

<sup>2</sup> Barqzan – chaqmoq chaqib, miltiqning piltasini yondiradigan odam.

bajarishga hozirlandilar. Hammaga ko'rinadigan joyda turgan usta Aliqul:

– Aravalar surilsin! – deb qichqirdi.

Aravalar ba'zisi hadeganda o'rnidan jilmadi, ba'zilari esa birdan tezlab ketdi. Aravalar safi egri-bugri bo'la boshladi, ora-oraga bog'langan tirkishlardan bir qanchasi uzildi, temir qalqonlar qulab tushdi.

– To'xtang! – buyurdi Bobur. – Mashqni takrorlating, janob Aliqulbek, toki birorta tirkish uzilmasin, birorta qalqon ham qulamasin!

Odamlar terlab-pishib aravalarni yuqoriga sudrab chiqa boshladilar.

Bu og'ir ishdan ba'zi navkarlar o'zlarini chetga olsa, o'nboshilar ayamay so'kar, hatto urar edilar.

– Mashq paytida navkarni ayamang, – dedi Bobur Aliqulbekka. – Hozir ayasangiz jangda mag'lub bo'lib o'lib ketur.

Bobur tepalikdan tushib, daryo tomonga yo'l oldi. U yoqda fil o'tolmaydigan chuqur xandaqlar qazilgan, endi ba'zi joylarga shox-shabba bosib, ihota yasashmoqda edi. Xizmati yuzasidan Boburga ergashib, uni qo'riqlab yuradigan Tohir xandaqlar va shox-shabbalarga qarab o'zicha o'ylandi: «Shuncha tayyorgarliklarga yarasha yog'iy to'g'rimizdan kelsa yaxshi-ya! Agar shaharni aylanib o'tib orqadan kelsa hammasi behuda-da!» Biroq shaharning narigi tomoniga borib kelgan chig'dovullar u yoqdagi botqoqlik va changalzorlardan katta qo'shin o'tolmasligini aniqlab keldilar. O'ng tomonda Jamna daryosi. Chapda Panipat shahrining aholisi tig'iz mahallalari. Ibrohim Lodi bu mahallalarni qo'shiniga toptatib, shahar oralab kelmas. Demak, uni faqat to'g'ridan kutish mumkin. Lekin salkam o'n barobar katta kuch bilan kelayotgan yovga bu aravalar-u xandaqlar turish berarmikin?

Bir vaqtlar Kobulda Andijon va Quvalarni eslasa yuragi eziladigan Tohir endi Kobulni eslasa yuragi

sogʻinchdan orziqadi. Kobulda uning oʻn besh yil istiqomat qilgan uyi bor, xotini Robiya, madrasada oʻqiyotgan oʻgʻli Safarбек, yolgʻiz togʻasi mavlono Fazliddin bor. Oldindagi jang tahlikasidan koʻngli bezovta boʻlib yurgan Tohir: «Ishqilib oʻlim boʻlmasinda, – deydi oʻzicha. – Agar shu gal ham tirik qolsam, sipohiylikni bas qilardim-da. Yosh ham ellikka borib qoldi. Qachongacha begona yurtlarda tentirab yuramen? Safarбек katta yigit boʻlib qoldi, bu yil madrasani xatm qilib<sup>1</sup>, muhandis<sup>2</sup> boʻladi. Keyin boshini ikkita qilib qoʻysam... Yo Xudo! Oʻgʻlimning toʻyini koʻrish menga nasib qilganmikin-a? Robiyani yana koʻrarmikinman-a?» Yurakka gʻulgʻula soluvchi bu iztirobli oʻylarni ichkilik bir oz bosar edi. Tohir koʻpdan beri beklar davrasida yurib, koʻnglining chigalini ichkilik bilan tarqatishga anchagina odatlanib qolgan edi. Hindistonda uzum kam, shuning uchun chogʻir tanqis, lekin mahva degan daraxtning bargidan olinadigan oʻtkir aroq uchrab turar edi.

Ibrohim Lodi bilan jang boʻlishidan bir kun oldin Tohir shu aroqdan koʻproq ichgan edi. Sahar palla badani tirishib uygʻondi. Ogʻzi taxir, boshi loʻqillab ogʻriydi. U yoq-bu yoqqa agʻdarilib, yana uxlamoqchi boʻlib koʻrdi, lekin uxlay olmadi. Shundan keyin turib, sopol koʻzaning tagida qolgan aroqdan uch-toʻrt qultum ichdi-da, sabuhiy qildi. Shu payt birdan dovullar va nogʻoralar chalinib, hammani saflanishga chorlay boshladi. Chigʻdovullar Ibrohim Lodining bostirib kelayotgani haqida xabar bergan edilar. Sabuhiydan yana kayf qila boshlagan Tohir etigi bilan jibasini ancha vaqt imillab kiydi. Bir qulogʻi Samarqandda kesilgan Mamat soʻnggi yillarda Tohirning otboqariga aylangan, lekin eski qadrdonligi va bir-ikki yosh kattaligi tufayli goh uni koyib ham qoʻyar edi.

---

<sup>1</sup> Xatm qilish – tugatish.

<sup>2</sup> Muhandis – injener.

– Sahari mardondan ichib nima qilar edingiz, bek!  
– deb po'ng'illadi Mamat.

– Gapni ko'paytirmay, ko'k otni tezroq keltiring! – buyurdi Tohir.

So'nggi yillarda xiyla ozib, yuz-ko'zlari avvalgidan ham ortiqroq bo'rtib qolgan Mamat otlar bog'langan tomonga chopib ketdi. Yov yaqinlashib kelayotgani haqidagi xabardan ko'p odam jonsarak bo'lib u yoqdan-bu yoqqa yugurmoqda edi. Mamat kechasi yechilib ketgan ko'k otni tutib olguncha ancha ovora bo'ldi. Odatda, ot kechasi egarlangan holda qolsa, ayili, qorinbog'i bo'shatib qo'yilardi. To'polonda Mamat shoshilib ayilni mahkamlashni xayolidan qochirdi. Tezroq Boburning huzuriga yetib borishi kerak bo'lgan Tohir uzangini izlab o'tirmadi-yu, otning bo'ynidan olib, ustiga sakrab mindi. Shunda egar bir chayqaldi. Tohirning kayfi bo'lmaganda ehtimol, egarning yaxshi urilmaganini tez sezgan bo'lardi, otdan tushib, ayilni mahkamlab olar edi. Lekin u egarda chayqalganini sabuhiydan ko'rdi-da, oyoq tirab, otni tez orqaga burdi. Anchadan beri boquvda yotib kuchi tanasiga sig'may ketgan ko'k bedov orqa oyoqlariga tikka turib, og'zidan ko'pik sochib, burildi. Shunda birdan egar og'ib otning qorniga tushdi-yu, Tohir yelkasi bilan yerga gursillab yiqildi.

Mamat chopib kelib, bir qo'li bilan otning jilovidan oldi va ikkinchi qo'li bilan Tohirni suyab turg'izdi. U Tohirni kayfi borligi uchun yiqildi deb o'ylab, kulib gapirdi:

– Tohirjon, bek bo'ldingiz-u ichadigan hunar chig'ardingiz-da! Bu sabilni ko'p ichmang demaganmidim!

Tohir yumshoq yerga yiqilgani uchun hech qayeri lat yemadi. Lekin katta jang arafasida shunday ahmoqona yiqilishi unga mash'um bir falokatning xabarchisidek tuyildi. U qahr bilan so'kinib, Mamatga egarni ko'rsatdi.

– Ayilni kim bo‘shatib qo‘ygan edi?

Mamat kechasi ot dam olsin deb bo‘shatib qo‘ygan ayilini ertalab mahkamlamaganini endi payqadi.

– To‘polonda esimdan chiqibdi-ya! Hey, men xomkalla!

Mamat endi o‘zidan kulib, ayilni torta boshladi. Tohirning aroqdan loyqalangan tasavvurida Mamat uni yiqitib, ustidan kulish uchun ayilni ataylab bo‘shatib qo‘yganday ko‘rindi. Ilgari ikkovi ham navkar bo‘lgan paytlarida Tohir bunday hazillarga kulib ketaverar edi. Lekin hozir...

– Sen mening bek bo‘lganimga baxilliging kelib shunday qilgansan! – deb u birdan Mamatni sensirab so‘ka boshladi: – Sen menga o‘lim tilaganingmi bu?

Tohir g‘azabdan titrab, belini paypasladi-yu, qamchisini qidirdi. Qamchi yerda yotar edi. Gunoh qilgan navkarlarni so‘kish, urish beklar orasida keng tarqalgan odat edi. Bu odat Tohirga ham ozmi-ko‘pmi yuqqan edi. Lekin u o‘ttiz yillik qadrdoni Mamatga hali biror marta musht ko‘tarmagan edi.

Mamat yerda yotgan qamchinni olib, Tohirga uzatdi:

– Mang, gunohim uchun qamchilang, lekin bunday gaplarni ayt mang! Men sizga o‘lim tilaydigan baxillardan emasmen!

Mamat yana Tohirdan kulayotganday, o‘zini undan olijanobroq qilib ko‘rsatayotganday tuyildi.

Tohir:

– Shunday kunda yiqitganing – o‘lim tilaganing emasmi? – dedi-yu uning peshonasi aralash boshiga qulochkashlab musht urdi.

Mamat uch-to‘rt qadam nariga uchib ketdi va ko‘zi tinib, yerga o‘tirib qoldi. Peshona suyagi Tohirning qo‘liga toshday qattiq tegdi, bosh barmog‘i «qirs» etdi-yu, o‘tkir bir og‘riq miyasiga chiqib bordi. «Boshmaldoq sindiyov! – dedi Tohir ichida. – Qilich tutadigan o‘ng qo‘lning



boshmaldog'i... Bunga ham mana shu sababchi!» Bu o'ydun uning g'azabi yana bir darajada oshdi. O'rnidan turishga intilayotgan Mamatni chap qo'li bilan ham urib, yerga yiqitdi.

Orqadan yetib kelgan barvasta bir yigit oraga tushdi.

– Qo'ying, bek og'a, bir marta kechiring! Mamat og'a siz uchun jonini beradi-ya! Ayilni men boshqatdan tortib beray! Mana, hozir, hozir...

Tohir ayili tortib bog'langan otga minganda qattiq og'riyotgan qo'lga tikilib qaradi. Bosh barmog'i shishib ketgan, qimirlatsa, og'rig'iga chidab bo'lmas edi.

«Mendan omad ketdi!» o'yladi Tohir mulozimlar to'planayotgan tomonga ot choptirib borar ekan.

Uning ketidan ergashgan yigirmatacha otliq navkarlari orasida peshonasi g'urra bo'lgan, yuzi bo'zday oqargan Mamat ham bor edi. Bek ming urib-so'kkanda ham navkar uning ketidan qolmasligi kerak edi.

\* \* \*

Jamna daryosining chap tomonidan chiqqan oftob nayza bo'yi ko'tarilganda yov qo'shinining tig'iz saflari aniq ko'rina boshladi. Oxiri ufqqa borib taqalgan behisob ko'p qo'shinning har yer-har yeridan harbiy fillarning ulkan gavdalari cho'qqilarga o'xshab chiqib turardi. Eng katta oq filning ustida o'tirgan Ibrohim Lodi atrofga xuddi tepalik ustidan qarayotgandek hammayoqni bahuzur ko'rar edi.

Bobur bir-biriga bog'lab tashlangan aravalar ortidagi tepalikda turib, yovning yaqinlashishini kutmoqda. Uning o'ng qanotiga o'g'li Humoyun javobgar edi. Xo'ja Kalonbek, Hindubek kabi eng sinalgan beklar barcha navkarlari bilan Humoyunning ixtiyoriga berilgan. Markazni to'pchilar va to'fangandozlar egallagan. Har ikki qanotning ikki chetida to'lg'ama uchun ajratilgan otliqlar tayyor turibdi. Ibrohimning harbiy fillar himoyasiga

tayanib urushadigan qo'shinida piyodalar ko'pligi va saflar tig'iz bo'lishi ma'lum edi. Bunday hollarda Shayboniyxon tajribadan o'tkazgan to'lg'ama usuli qo'l kelishini Bobur yaxshi bilardi. U ham Shayboniyxonga o'xshab to'lg'amaga ajratilgan askarlarga otlarning eng chopqirlarini saralab bergan edi.

Tohir ichki beklar va xos navkarlar bilan birga podshohdan orqada turibdi. Boburning ikki yonini aloqachi beklar, yasovullar va choparlar egallaganlar. Bobur ularga ish buyurar ekan, ovozi ichki bir kuch va ishonch bilan jaranglab eshitalardi. «Shu odamning panohida necha qirg'inlardan omon chiqding, – dedi Tohir o'ziga-o'zi tasalli berib. – Bobur mirzo bor ekan, senga hech nima qilmaydi».

Daryo bilan shahar oralig'ini to'ldirib, vahimali qora bulutga o'xshab kelayotgan Ibrohim Lodining qo'shini qarshisida harakatsiz tek turib kutish og'ir edi. Ko'pchilik bek va navkarlar fursatni boy berib qo'yayotgandek sabrsizlanishar, lekin Bobur:

– Hech kim buyruqsiz qo'zg'almasin! – deb hammani qattiq tutib turardi.

Ibrohim Lodi Boburning qo'zg'almasdan kutib turganini, ikki orada yuzlab aravalardan yasalgan mustahkam devor va chuqur xandaqlar borligini ko'r-di-yu, qo'shinini to'xtatdi. Lashkarboshilarni chaqirib, asosiy zarbani yovning o'ng qanotiga berish va shahar tomondan aylanib o'tish haqida buyruq berdi. Biroq yuz ming qo'shinga to yangi buyruqni tarqatib, uni shahar tomonga burguncha ancha vaqt o'tdi.

Bobur darhol mana shu vaqtdan foydalandi. Uning buyrug'i bilan to'lg'amaga ajratilgan ikki ming otliq joyidan qo'zg'al-di. Chopqir otlar yov qo'shinining ikki qanotiga tegmay o'tdi-yu, bexavotir kelayotgan orqadagi otliqlar va piyodalarga hamla qildi. Humoyun boshliq to'rt ming otliq o'ng tomondan yovning

yo'lini to'sib chiqdi. Chap qanot ham jangga tushdi. Markazdagi aravalarning ora-orasidan to'plar ustma-ust o'q yog'dira boshladilar.

To'rt tomondan yashin tezligida birvarakayiga qilingan hamlani tepadan kuzatib turgan Tohir Boburning sarkardalik tajribasiga o'zicha qoyil bo'lib qo'ydi. U harbiy san'atni faqat do'stlaridan emas, dushmanlaridan ham o'rgangan edi. Bobur to'p va miltiq ishlatishning ahamiyatini birinchi marta ittifoqdosh Shoh Ismoilga qarab bilgan bo'lsa, to'lg'ama ishlatishda ashaddiy yovlari Shayboniyxon va Ubaydullaxonning tajribasini o'zlashtirgan edi. U achchiq mag'lubiyatlar jarayonida orttirgan barcha harbiy tajribalarini bugun go'yo yagona bir mushtga tugib, maydonga ustalik bilan tashladi-yu, tashabbusni darhol qo'lga oldi.

Boburning butun rejasi – yov qo'shinini to'rt tomondan o'rab olishga va qanotlarini ichkariga qayirib tashlashga qaratilgan edi. Lekin o'rab olingan yov Bobur qo'shiniga nisbatan yetti-sakkiz barobar ko'p edi, chopqir otlar bahaybat fillarning bir zarbasidan yumalab, yiqilib ketardi. Shu sababli Ibrohim Lodi askarlari hali o'ngda, hali so'lda Bobur qo'shinining halqasini yorib chiqardi. Bobur yonida turgan aloqachi beklar va yasovullarni ketma-ket jang maydoniga choptirar, yovning qo'li baland kela boshlagan qanotlarga markazdan ko'mak yubortirar edi. U markazni yovga ataylab ochiq qoldirmoqda edi, chunki hali harakatsiz turgan aravalar va to'fanglar markazga qo'yilgan edi.

Ikki tomondan va orqadan ustma-ust zarba berilavergandan keyin Ibrohim Lodining asosiy kuchlari va harbiy fillari markazga tashlandilar. Shunda Bobur aravalarning g'ildiraklari tagidagi yog'ochlarni olishni buyurdi. Yetti yuz arava joyidan qo'zg'alib, yov qo'shinining ro'parasidan chiqdi. Aravalar ustidan

to'plar, ora-oradan esa to'fanglar yaqin kelib qolgan yovga o'q ota boshladi. To'plarning gumburlashi, miltiqlarning qarsillashi, borut tutuni, har qanday qalqonni teshib o'tadigan olovli o'qlar zarbasi va yana buning hammasi behisob aravalar shakliga kirib, o'z-o'zidan yurib kelayotgani yov qo'shinini dahshatga keltirdi. Fillar yarador bo'lib bo'kira boshladi. Filbonlar talvasaga tushib, fillarni orqaga burdilar. Orqada esa g'uj-g'uj otliqlar-u piyodalar bir-biriga aralashib ketgan edi. Itar-itar, ur-sur boshlandi. Yaralanib quturgan fillar otliqlarni yiqitib, piyodalarni bosib-yanchib o'ta boshladi. To'plar va miltiqlar hamon o'q otmoqda. To'p o'qi tekkan fillardan bir qanchasi piyodalar ustiga ag'anab tushdi. Orqadan kelayotgan otlar va fillar o'zlarini to'xtatolmasdan ag'anab yotgan fillarga surinib yiqilishardi. Ketma-ket bir-birini itarib, surib kelganlari oldin yiqilganlarning ustiga qulashar va o'tib bo'lmaydigan to'siqqa aylanishardi. Bu qiyomat ur-yiqitdan qochib qutulushning ilojini topgan filbonlar-u otliqlar jon-jahdlari bilan qochishga tushdilar. Orqada to'lg'ama ishlatgan otliqlarning safi ancha siyraklashib qolgan edi. Fillar bu safni birpasda yorib o'tdilar-u Dehli tomonga intildilar.

Tepalik ustidan buning hammasini ko'rib turgan Bobur:

– Yog'iy Dehlini bekitmoqchi! – dedi va aloqachi beklari turadigan o'ng tomonga o'girildi.

Biroq aloqachi beklar, choparlar va yasovullar hammasi birin-ketin jang maydoniga maxsus topshiriqlar bilan yuborilganicha qaytib kelishmagan edi. Ehtimol, ularning ba'zilari o'lgandir yoki yaralangandir – jang busiz bo'lmaydi. Bobur otini burib, ichki beklari va navkarlari tomonga yuzlandi. Shunda uning ko'zi Tohirga tushdi. Tohir maxsus farmonlarni hamisha yaxshi ado etib kelganini esladi:

– Tohirbek, Ibrohim Lodi qochdimi yoki jang maydonida qoldimi, shuni aniqlamoq kerak. Agar qochgan bo'lsa, xossa tobindan quvg'inchi yuborgaymiz.

Tohir chang-tutunga burkanib, jahannam bo'lib yotgan jang maydoniga ko'zi javdirab qaradi-yu, singan boshmaldog'ini eslab, ovozi qaltirab dedi:

– Bosh ustiga, hazratim!

Shu payt jang bo'layotgan tomonda oyog'iga o'q tegib, uzangisidan qon sirqib oqayotgan bir yasovul ot choptirib keldi.

– Hazratim, zafar bizniki! – dedi u hansirab. – Yog'iy qochdi!

– Ibrohim ham qochdimi?

– Qochgan fillar orasida Ibrohimning oq filini ko'rdim! Qochdi!

– Bo'lmasa darhol iziga tushmoq kerak! Tohirbek, siz to'xtang! Janob Qosimtoy mirzo!

– Labbay, hazratim! – deb qirq yoshlardagi norg'ul bek safdan oldinga chiqdi. Turkistonda tug'ilib-o'sgan bu bekning Ulug'bek mirzoga uzoq qarindoshchiligi bor edi. U o'n besh yildan beri Bobur huzurida xizmatda edi.

– Agar Ibrohim Lodi Dehli yoki Agraga yetib, bu qal'alarni bekitsa, muhoriba-yu muhosara qaytadan boshlanur, – dedi Bobur Qosimtoy mirzoga. – Holbuki, biz Dehli bilan Agrani jangsiz olish umididamiz. Yog'iyning bizga hamla qilish ehtimoli endi bartaraf bo'ldi. Janob Qosimtoy, xossa tobindan ming kishini oling. Beklardan Bobochuhra... Tohirbek navkarlari bilan... Ibrohimni quvlanglar. Agar Dehlida to'xtamay yana qochsa, Agragacha ketidan qolmanglar, toki bu shaharlarni berkita olmasin. Ketlaringizdan biz izmaiz yetib borurmiz!

– Farmoni oliyga jonimiz fido! – dedi Qosimtoy mirzo.

– Siz bizning ilg'orimizsiz. Tangrim yoringiz bo'lsin! Yenging-u yengilmang!

– Omin!

Shunday g'olibona jangda ilg'or safda bo'lish Tohirning ko'nglini ko'tardi-yu, singan boshmaldog'ining og'rig'i ham sezilmay qoldi. U navkarlarini yoniga olib, jang maydoniga hammadan oldin kirib keldi.

Oftob tikkaga kelgan. Kun issiq. Chekinayotgan yov besh-olti bo'lakka bo'linib ketgan.

Ba'zilarini Humoyunning odamlari, ba'zilarini Xo'ja Kalonbekning navkarlari ta'qib etmoqda. Lekin ularning otlari ertalabdan beri u yoqdan-bu yoqqa chopib, charchab qolgan. Tohirlarning tobinda<sup>1</sup> dam olib turgan otlari jangdan toliqib qolgan otliqlardan o'tib, yovga birpasda yetib oldi.

Yengilgan qo'shin bo'linib-bo'linib qochayotgan bo'lsa ham cho'g'i juda katta ekani Tohirlarga yaqin borganda bilindi. Har to'pda yetti ming-sakkiz ming keladigan qo'shin. Ularga nisbatan quvib kelayotganlarning to'pi juda kichik. Yovning har to'pida qator-qator fillar kelayapti. Lekin ular orasida oq fil yo'q. Balki Ibrohim fildan tushib, ot minib ketayotgandir? Qosimtoy bilan Tohir o'zaro maslahatlashishdi-yu, yovning kichikroq ko'ringan bir to'pini ikki yonidan aylanib o'tib, oldilaridan to'sib chiqishdi va bir suruv filni egalari bilan asir olishdi. Ularning orasida Ibrohim Lodi yo'q edi.

Qosimtoy filbonlarni hind tarjimon orqali so'roq qila boshladi.

– Ayt, Ibrohim Lodining qaysi to'pda ketayotganini ko'rsatib bersa, ozod qilamen!

Filbonlardan biri orqada qolgan jang maydonini ko'rsatib, kuyib-pishib allanarsa dedi:

– Ibrohim mingan fil yaralanib yiqilgan emish, uning o'zi o'lganmish, – dedi tarjimon.

Lekin Qosimtoy bunga ishonmadi:

---

<sup>1</sup> Tobin – zaxira.

– Bizning odamlar Ibrohimning qochganini koʻrgan. Soʻra, rostini aytsin, boʻlmasa boshi kesilgay!

Birinchi filbon yana avvalgi gapini takrorladi. Chindan ham Ibrohim jang maydonida oʻlgan edi. Lekin Qosimtoy filbonning gapidan koʻra boya Boburga axborot bergan yasovulning gapiga koʻproq ishonar edi. Qosimtoy siqishtira bergandan keyin boshqa bir filbon tusmol bilan Ibrohimning daryo boʻylab ketib borayotgan katta toʻpda ekanini aytdi. Uchinchi bir filbon oʻng tomonda ketayotgan toʻpni koʻrsatdi.

Qosimtoy hamma filbonlarni fillari bilan birga maxsus navkarlarga topshirib, Boburning ixtiyoriga yubordi. Keyin daryo boʻylab chekinayotgan toʻpning ketidan tushdilar. Bu toʻpda fil mingan, ot mingan va Lodi qoʻshinining eng jangovar qismi hisoblanadigan rajputlar koʻp edi. Qosimtoy daryo tomonda, Bobobek bilan Tohir oʻngdan aylanib oʻtib, ularning yoʻllarini toʻsib chiqdilar. Rajputlar taʼqib etayotganlarning nisbatan oz ekanligini koʻrdilar-u kamonlariga oʻq oʻrnatib, qilich yalangʻochlab, dadil jang qila boshladilar. Tohir kamoniga oʻq oʻrnatib otayotganda, singan barmogʻining jonsizlanib, ishlamay qolganini sezdi. Oʻqning uchini boshqa barmoqlari bilan tutib, kamonni tortib otdi. Oʻq qilich yalangʻochlab kelayotgan qora bir odamning koʻzi aralash yuziga tegdi. Oʻq egan rajput bir qoʻli bilan yuzini changallab, otdan yiqilib tushdi. Bu orada polvontaxlit bir rajput Tohirla yaqin kelib qoldi. Tohir kamoniga qayta oʻq oʻrnatishga ulgurmasligini sezdi-yu, qilichini sugʻurdi. Rajput polvoni oltita keskir tigʻi bor chakra degan qurolini koʻtardi. Tohir uning chakra tutgan qoʻliga qarab qilich sermadi. Qilich chakraga qarsillab tekkanda Tohirning singan boshmaldogʻidan badaniga shunday ogʻriq tarqaldiki, vujudi zirqirab ketdi. Shishib ketgan boshmaldoq qilichning dastasini qoʻlidan qanday chiqarib yuborganini bilmaydi.

Faqat qilich yerga uchib tushganini ko'rib, belidan xanjarini olmoqchi bo'ldi, lekin ulgurmedi. Olti tig'li keskir chakra uning bo'yni va o'ng yelkasiga shunday bir zarb bilan urildiki, kiftidan engagigacha hamma joyini qiymalab tashlaganday tuyildi. Tohir ko'zi tinib, otning yoli ustiga ko'kragi bilan tushganda chakraning yana bir zarbasi uning zirhli kiyimiga qarsillab urildi. Tohir dahshatli og'riq ichida: «Endi bu meni otdan yiqitmaguncha qo'ymaydi! – deb o'yladi. U otdan yiqilsa jasad tuyoqlar tagida qanday majaqlanishini tasavvur qildi-yu: – Tezroq hushimdan ketsam edi!» – dedi.

Shu payt Mamat yetib kelib, dastasi uzun oyboltani chakra ko'targan rajputning qo'liga urdi. Chakra yerga tushib ketdi. Mamat qonga belanib, egardan sirg'alib tusha boshlagan Tohirni tez o'ngarib oldi-yu, jang maydonidan qochib chiqdi.

### 3

Dehliga otasidan oldin kirib kelgan Humoyun Jamna daryosining o'ng qirg'og'idagi qizil devorli ulkan qal'ani jangsiz egalladi. Ibrohim Lodining qal'adagi xazinalarini muhrlab, ishonchli posbonlarga topshirdi-da, uch yuztacha xos navkari bilan shaharni aylanishga chiqdi.

Unda-bunda uchraydigan past-baland tepaliklarni hisobga olmaganda, Dehli – ko'kalam bir tekislikka joylashgan va chetlarini ko'z ilg'amaydigan katta shahar edi. Tig'iz joylashgan uylar, mahalla-ko'ylar behisob, lekin ko'chalarda odam kam – notanish fotihlardan cho'chib, uylaridan chiqmay o'tirganlar ko'p.

Humoyun qaysi ko'chadan o'tmasin, besaranjom bir sinchkovlik bilan eshik-derazalar tirqishidan, devor tepalaridan qarab turgan o'nlab ko'zlarni ko'radi. Muqaddas daryo hisoblangan Jamna bo'yida



to'p-to'p odamlar dafn marosimi o'tkazmoqdalar. Ular o'liklarni xushbo'y o'simlik moyi sepilgan o'tinlar ustiga qo'yib kuydiradilar-u kulini sekin daryoga oqizadilar. Narigi dunyoga oid bu ish bilan bo'lib, bu dunyoning tashvishlariga, hatto shaharni egallayotgan begona qo'shinga ham ko'pda e'tibor bermaslikka tirishadilar.

Chorsu bozorida bilaklariga va bo'yinlariga shoda-shoda gul osgan yalangoyoq bolalar, ayollar ko'rinadi. Hatto soch-soqoli oqargan ba'zi bir keksalar ham bilaklariga qizg'ish-sariq rangli gulshodalar solib olishgan edi.

- Bu - Chandin Chouk bozori, - deb izoh berdi Humoyunning yonida borayotgan Hindubek. - Oydin Chorsu degan ma'nosi bor.

- Bugun hayitmi, gul ko'p? - so'radi Humoyun.

- Ha, bahorgi ekinlarning unib chiqishini qutlab o'tkaziladigan hayit. Hindistonda hayit ko'p. Biron oy hayitsiz o'tmaydi.

- G'aroyib el! - dedi Humoyun o'ychan kulimsirib.

Eski bir qasrning tom va devorlari ustida oyoq-qo'llari uzun maymunlar bemalol sayr qilib yurar edi. Yuzlari, qo'llari qora, qorinlari sarg'ish, boshqa hamma joylari oqish-kulrang. Jajji maymun bolalari tomdan banan va nim daraxtlarining shoxlariga sakrab o'tishar, bir-birlari bilan quvlashib, daraxtdan yerga ham tushishar edi. Qasrning ich-tashida odamlar yuribdi, lekin maymunlar bilan hech kimning ishi yo'q.

Humoyunning ketidan borayotgan yuzboshining ko'zlari birdan ovchilik ehtirosi bilan yona boshladi. U kamonini qo'liga olayotganini ko'rgan Hindubek:

- Maymunning uvoli yomon bo'ladi, - dedi. - Buni ovlagan odam baxtsizlikka uchragay.

Humoyunning o'ng yonida borayotgan Xo'ja Kalonbek kulib so'radi:

– Sigirni ham shunaqa e’zozlashimiz kerakmi, janob Hindubek?

– Neki tansiq bo’lsa, elga aziz ko’rinur, – dedi Hindubek. Bu yerning issiq iqlimida sigir asrash oson emas.

– Harqalay, – deb Humoyun Hindubekka yon bosdi, – podsho hazratlari maxsus farmon chiqardilarki, hind xalqining azaliy udumlariga hurmat bilan qaralsin, el-ulusning nafsoniyatiga tegadigan harakat sodir bo’lmasin.

Xo’ja Kalonbek o’ng qo’lini ko’ksiga qo’ydi:

– Amirzodam, bu farmoni oliy biz uchun qonun! Men faqat Hindubekka sal tegishdim.

– Bekning gustohligi ma’lum-ku, – deb endi Hindubek ham Xo’ja Kalonga hazil qildi.

Oldinda baland darxtlar orasidan bo’y cho’zib chiqib turgan yonlari qirrador minora ko’rindi.

– Qutb Minora! – dedi Hindubek.

Humoyun minora oldida otdan tushdi, so’ng beklar bilan minoraning tepasiga chiqdi.

Minoradan yuz qadamcha narida terak bo’yi keladigan yolg’iz bir qora ustun ko’rindi. Ustun atrofida odam ko’p edi.

– Bu nedur? – so’radi Humoyun Hindubekdan.

– Bu ustun yaxlit temirdan yasalgan. Bilganlarning aytishicha, uch yuz yildan beri turgan emish. Kimki ustunni quchib, ilkini bir-biriga tekkizolsa, o’ylagan murodi hosil bo’lar emish.

Shu vaqtgacha o’zini bosiq tutib kelayotgan Humoyun endi o’smirlarcha bir qiziqish bilan:

– Qani ko’raylik! – dedi va chaqqonlik bilan zinadan chopib tushib ketdi.

Temir ustun atrofidagi odamlar shahzodani ko’rib, o’zlarini chetga oldilar.

– Janob Hindubek, qani, ustunni ne tavr quchish kerak?

Ustunning tepasi va pasti qorayib ketgan. Faqat o'rtasi – behisob odamlarning qo'l va yelkalari tekkan joy oppoq bo'lib, ma'dani yiltirab chiqib turar edi. Hindubek ustunga teskari turib, yelkasini unga tiradida, qo'llarini orqaga cho'zdi. Ustun ancha yo'g'on edi. Hindubek uni teskari quchib qo'lini bir-biriga cho'zdi, lekin yetkizolmadi. Butun kuchi bilan chirandi, bari bir qo'li qo'lga tegmadi. Buni ko'rganlar xaxolab kula boshladilar. Humoyun ham kula-kula Hindubek uddalay olmagan ishni qilib ko'rdi. Lekin u ham qo'lini qo'lga tekkizolmadi. Bek va navkarlar-u yana besholtitasi kuch sinab ko'rdi. Shulardan faqat bittasi – qo'llari uzun, o'zi ozg'in samarqandlik yigit – ustunni teskari quchib, qo'lini qo'lga tekkazishga muvaffaq bo'ldi.

Humoyun unga bir siqim kumush tanga mukofot berdi.

\* \* \*

Dehlida to'p-to'p bo'lib aylanib yurgan g'oliblar orasida yog'li o'lja izlayotganlari ham bor edi. Sind daryosining bo'yidan Bobur askarlariga qo'shilib kelgan Yor Husaynbek ilgari Xaybar dovonining janubida yo'lto'sarlik qilgan qaroqchilardan edi. Hozir uning navkarlari shahar chetidagi bir ibodatxonaga kirishib, hindlar sig'inadigan Xudolarning haykallariga o'rnatilgan qimmatbaho toshlarni ko'chirib olishga tushdilar.

Devorlari oq-sarg'ish marmardan ishlangan ibodatxonada keksa bir barahman<sup>1</sup> ko'zlariga yosh olib, buddaning ulkan tosh haykalidan najot so'ramoqda. Ibodatga kelgan ayollar, chollar, o'smirlar, Xudolari oldida bosh gib, jim turishibdi.

---

<sup>1</sup> Barahman – hindlarning ruhoniysi.

Yor Husaynbekning navkarlari esa to'rt qo'llik Xudo Shivaning baland haykaliga narvon qo'yib chiqishgan, Shivaning peshonasiga katta qizil xolga o'xshatib o'rnatilgan yoqutni xanjar bilan kavlab olishga urinishardi.

Shu hodisaning ustiga kelib qolgan Humoyun narvondagi navkarga qahr bilan qichqirdi:

– Podshoh hazratlari nomidan buyuramen. Haykalga tegma! Tush pastga!

Yor Husaynbek nimqorong'i ibodatxona ichida Humoyunni avval tanimadi:

– Kofirlarning haykalini himoya qiladigan podshong o'zingga! – dedi-da, narvondagi navkarga buyurdi: – Olaver!

Navkar xanjar bilan haykalning peshonasini kavlashda davom etdi. Shunda Humoyun otgan yoy o'qi uning bilagiga tegdi. Xanjar yerga tushib ketdi. Navkar bilagini changallaganicha orqaga o'girildi.

Yor Husaynbek qilichini sug'urib:

– Kim u? – deb o'shqirdi-yu, Humoyun tomonga hamla qildi.

Hindubek ham qilichini sug'urib, oldinga chiqdi:

– Siz Yor Husaynbek bo'lsangiz, bu oliy zot Bobur podshohning o'g'illari mirzo Humoyundirlar!

Yor Husaynbek bu gapga ishongisi kelmay, Humoyunga ko'zlarini olaytirib tikildi. U eng avval Humoyunning egnidagi arg'uvoniy to'nni tanidi. Yoqalariga durlar qadalgan bu to'n – Boburniki edi. Humoyun Panipat jangi arafasida Ibrohim Lodining Hamidxon degan lashkarboshisi bilan olishib, uni yenggan, uch yuzdan ortiq odamini asir olib kelgan edi. Bobur o'g'lining bu jasoratiga qoyil bo'lib, egnidagi shohona to'nini o'g'liga kiydirgan, buni hamma beklar, shu jumladan, Yor Husaynbek ham ko'rgan edi. O'sha to'n hozir ham Humoyunning egnida edi – uning

xipcha gavdasiga bir oz katta kelib, yelkalari osilibroq turar edi.

- Amirzodam, men sizni tanimabmen! - Yor Husaynbek qo'lida qilichi bilan bir qadam orqaga chekindi.

- Qilichni topshiring! - buyurdi Humoyun.

- Amirzodam, men hazrat otangizga sodiq xizmat qilgan beklardanmen!

- Ibodatxonada sug'urilgan qilichni men podshoh hazratlariga eltib topshirishim kerak! - dedi Humoyun. - Siz yo'lto'sarlikdan tavba qilib, hazrati oliyning xizmatiga kirgan ekansiz. Bugun yana talonchilik ko'chasiga qaytmishsiz. Podshoh hazratlari ziyoratgohlarda nojo'ya harakat sodir bo'lmasin deb buyurmagan edilarmi? Nechun nazarni bunchalik past qildingiz, bek? Yog'iy xazinalaridan barcha jangchilar o'z ulushlarini olgaylar! Bu xazina sizga ham yetib ortgay! Ibrohim Lodining odamlari shu haykalning peshonasidagi yoqutga tegmagan ekanlar. Ular qilmagan pastkashlikni qilish bizga isnod emasmi? Oling qilichini! Mana bu nokas yigitlarni tutib, hibsga elting! Toki, boshqa yigitlarimizga ibrat bo'lsin!

Xos navkarlar bu buyruqni bajarganlaridan keyin Humoyun Hindubekka barahmanni va uning qavmlarini ko'rsatdi-da:

- Janob bek, podshoh hazratlari bizga tayinlagan gaplarni bularga tarjima qilib bering, - dedi. Bularning dini boshqa. Lekin biz barcha g'ayridinlarni bir Xudoning bandalari deb bilurmiz. Biz Hindistonga yaxshi niyatlar bilan keldik. Bu muazzam kishvarni hindlar bilan birga obod qilmoqchimiz. Kimki bizga hamkor bo'lsa, hamkorlik qilurmiz!

Hindubek tarjima qilgan bu so'zlarni barahman va uning qavmlari bosh irg'ab, ta'zim qilib eshitdilar. Shahzoda va uning odamlari chiqib ketgandan keyin esa barahman yana buddaning haykali oldiga ibodatga

kelib, butun minnatdorchiligini unga ayta boshladi. Muqaddas yoqutni olmoqchi bo'lgan nokasning qo'ldan o'q yeb jazolanishi buddaning irodasi bilan bo'lganiga barahman o'z qavmlarini ishontirishi zarur edi.

#### 4

Uzoq Sirdaryo vohalarida endi lola barg yozadigan salqin hamal oyida Jamna bo'ylari avji saraton paytidagidek issiq edi. Kuni bo'yi oftobda otliq yurib badani misday qizib ketgan Bobur kechki payt salqinroq joy izlab, Jamna daryosining bo'yiga keldi.

Kunning issig'idan tashqari peshindan so'ng ichilgan aroqning tafti ham uning ichini yondirmoqda edi. Kobulda ko'p ichib o'rgangan beklar Panipatdagi g'alaba sharafiga har kuni bir-ikki joyda ziyofat berishib, uni taklif qilishardi. Issiq va sernam havoda ustma-ust ichilayotgan chog'ir va aroqlar Boburning yuragini behalovat qilib, kechalari uyqusini qochirib yuborardi. Ko'p ichib yotgan kunlari ertalab turib yo'talsa, balg'amga qon aralashib chiqardi.

Buni ko'rgan hirotlik xos tabib Yusufiy:

– Hazratim, o'tinamen, ichkilikni tashlang! – deya yalinardi.

Boburning o'zi ham uyqusiz behalovat bo'lib yotgan kechalari: «Endi tashlamasam bo'lmas», derdi. Lekin kunduz biron tashvishdan ko'ngli g'ash bo'lsa yoki aksincha, kayfini chog' qiladigan yaxshi voqea yuz bersa, yana ichgisi kelib qolardi. Ayniqsa, ilk qadahlarni ichib, kayfi endi ko'tarilib kelayotgan paytlarda beklari bundan keyingi ichkilik majlisga taklif qilsalar osonlikcha rozilik berib qo'yardi. Bugun peshindagi o'tirishda ham xuddi shunday bo'lgan, «Kechasi kemada bazm qilurmiz» deb beklarni o'zi ziyofatga taklif qilgan edi. Holbuki, tushda ichilgan mayning g'ubori haligacha tarqamasdan borlig'ini lohas qilmoqda edi.

Bobur mulozimlari va xos navkarlari bilan Jamnaga yaqinlashganda, daryo bo'ydagi ko'kalam yalanglikda dafn marosimi o'tkazayotgan barahmanlar, ayollar, kekxa-yosh yuzdan ortiq odamlarni ko'rdi. Bobur dafn marosimini yaqinroqdan kuzatmoqchi bo'ldi-yu, otini o'sha tomonga burdi.

Panipatdagi jangning dahshatli tafsilotlarini eshitgan odamlar otliqlardan qo'rqib, marosimni buzib qocha boshladilar. Bobur yaqin borganda yondirishga tayyorlab qo'yilgan o'lik oldida bitta motamsaro kelinchak, kekxa ayol va munkaygan bir barahman chol qolgan edi. O'tin ustida chalqancha yotqizib qo'yilgan jasadning peshonasini to'fangdan merganlarcha otilgan o'q qoraytirib teshib o'tgan edi.

Bu rajput yigitni Bobur qayerdadir ko'rganday bo'ldi. Ha, Panipat jangidan bir kun oldin Humoyun Hamidxon degan afg'on sarkardasini yengib, uning uch yuz navkarini asir olib kelgan edi. Ibrohim Lodi bilan bo'ladigan jang hali oldinda. Uning qo'shini sakkiz barobar ko'p. Shuning tahlikasi ta'sirida Bobur asirlarga nisbatan ayovsiz bir siyosat ishlatganini esladi.

Ibrohim Lodi qo'shinlarida to'fang yo'q. Asir olinganlar ham to'fangdan odamni otib o'ldirish mumkinligini bilishmaydi. Ular ko'proq hind Xudolaridan bo'lmish Shivaning qahridan qo'rqishadi. Rajputlarning e'tiqodi bo'yicha, agar Shiva astoydil g'azablansa, ikki ko'zidan tashqari peshonasida uchinchi ko'z paydo bo'ladi. Shiva kimgaki shu uchinchi ko'zining qip-qizil olovini sochsa, o't tekkan odam til tortmay o'ladi...

Bobur mana shu diniy e'tiqoddan harbiy maqsadda foydalanmoqchi bo'ldi-da, asirlardan yuztasini bir chetga saf qildirdi. Ularning qarshisiga yuzta to'fangandozni qo'ydi va yigirma qadam joydan o't ochishni buyurdi. O'sha to'fanglardan otib o'ldirilgan asirlarning biri – peshonasidan o'q tekkan mana shu yigit edi.

Tirik qolgan asirlar to'fangdan otilgan olovli o'q odamni qanday o'ldirishini umrlarida birinchi marta ko'rib, dahshatga tushdilar. Ulardan biri osmonga qo'l cho'zib:

– O Shiva! Rahm qil, Shiva! – deb baqirdi.

Bobur vahimadan titrayotgan yuzta asirga tarjimon vositasida murojaat qildi:

– Ha, bizda Shivaning ko'ziday shafqatsiz olov sohadigan qurol bor! Sizlarni hozir ozod qilgaymiz. Borib yurtdoshlaringizga aytinglar! Biz bilan urushganlar mana shu olov zarbidan halok bo'lurlar! Urushmay taslim bo'lganlar sizlar kabi omon qolurlar!

Tirik qo'yib yuborilgan yuzga yaqin asir bu gaplarni shahar-u qishloqlarga tarqatdilar. Hozir Jamna bo'yida dafn etilayotgan jangchi yigitning yaqinlari ham uning Shiva olovini eslatadigan bir balodan halok bo'lganini eshitgan edilar.

Marhum jangchining yoshgina xotini o'zini erining jasadi bilan birga olovga tashlab kuydirishga tayyorlanmoqda edi. Bobur sochlari yoyilib yelkasiga tushgan kelinchakning yuzida o'lim sharpasini ko'rdi-yu, hindlardagi sati odatini esladi.

Agar kelinchak tirik qolsa, umr bo'yi azadorlik kiyimida yurishi, kuniga faqat bir marta ovqat eb, boshqa er qilmay, to o'lguncha azob-uqubatda yashashi kerak edi. Mabodo kelinchak bunday zabun hayotni o'ziga munosib ko'rmasa, sati odatiga bo'ysunib, erining murdasi bilan birga olovda yonib ketishi kerak edi...

Keksa barahman jasadning tagidagi o'tinlarga birdan o't qo'yib yubordi. Maxsus moy sepilgan o'tin lovillab yonib ketdi. Kelinchak olov ichida qolayotgan jasadga qarab bir talpindi-yu, lekin joni shirinlik qilib, orqaga chekindi.

Bobur Hindubekka yuzlandi:



– Nahotki shunday go‘zal kelinchak o‘zini olovga tashlasa? Bu ne jaholat?! Barahmanga bizning buyrug‘imizni ayting! Kelinchakni olib ketsin! Hindubek otini chu-chulab barahman bilan kelinchakka yaqinlashdi-da, hindchalab bir narsalar dedi. Kelinchak Boburga tez o‘g‘irilib qaradi:

– Fotihlarning podshosi shumi? Mening erimga Shivaning olovini shu odam sochganmi? – kelinchak ikki qo‘lini Bobur tomonga cho‘zdi: – Agar senda Shivaning qudrati bo‘lsa erimni tiriltirib ber! O‘shanda men ham tirik qolurmen! Sen Shiva bo‘lsang, endi bizga rahm qil! Tiriltir!

Hindubek bu iltijoni tarjima qilganda, Bobur sarosima bo‘lib:

– Hushi joyidami? – dedi. – Men Shiva emasmen! O‘lgan odam endi tirilmagay! Kelinchakni qutqaring!

Bu gaplarning tarjimasini eshitgan kelinchak birdan g‘azablanib qichqirdi:

– Shiva bo‘lmasang, nechun yolg‘on ovoza tarqatding? Nechun mening erimni o‘ldirding?! Endi mening o‘limimga ham sen sababchi bo‘lursen!

Kelinchak olovga yaqinlashar ekan, Bobur Hindubekka:

– Ushlang, ushlang! – dedi.

Hindubek ot ustidan kelinchak tomonga intilib, uni o‘ngarib olmoqchi bo‘ldi. Ammo kelinchak Boburga qarata:

– Ket, bosqinchi! Yo‘qol! Yurtingga ket! – deb qichqirdi-da, Hindubekka chap berib, o‘zini olovga otdi va erining yonayotgan jasadini quchoqlab oldi.

Lovullab yonayotgan olov darhol kelinchakning harir kiyimlariga va yelkasida yoyilib yotgan qora sochlariga ilashdi. Bobur uning olov ichida achchiq og‘riqdan chinqirib yuborganini eshitdi, shunda ham jangchi erining jasadini quchog‘idan qo‘ymayotganini ko‘rdi-yu, larzaga kelib, otini orqaga burdi.

U Jamnaning sokin qo'ltig'ida langar tashlab turgan ikki oshiyonlik kemaga tomon otini yeldirib borayotganda, orqadan esgan shamol olovda kuygan odam tanasining ko'ngilni aynitadigan chuchmal hidini olib keldi. Kemaning pastki qavatida bakovul va oshpazlar podshoning tushlik taomi uchun kabob pishirmoqda edilar. Bobur kemaning «tolor» deb ataladigan boloxonasiga ko'tarilayotganda, mang'alda pishayotgan kabobning tutuni va hidi boyagi olovning chuchmal hidini eslatdi-yu, birdan ko'nglini behuzur qildi. U bakovulga o'girilib:

- Mang'alni o'chirtiring! - dedi.
- Hazratim, sizga tushlik...
- Tushlik kerak emas.
- Ammo kechqurungi ziyofat...
- Ziyofat qoldirilsin!..

Bobur g'amgin yuz bilan tolorga bir o'zi chiqib keldi. Hademay pastki qavatga ham jimlik cho'kdi. Shu jimlikda o'zini olovga tashlagan kelinchakning chinqirig'i go'yo qayta eshitila boshladi... Panipatdagi harbiy g'alaba bu chinqiriq ta'sirida Boburga ma'naviy mag'lubiyatdek tuyilib ketdi. Shiva haqidagi rivoyatdan siyosat uchun foydalangani ilgari harbiy ishda xatarli asnoda joiz bir choradek ko'ringan bo'lsa, endi olovda yongan go'zal kelinchak buning qanchalik g'ayriinsoniy shafqatsizlik ekanini uning ko'ziga baralla ko'rsatdi. Panipat zafari... Taqdir unga shunday ulkan g'alabani nega Movarounnahrda bermadi? Vatanida jang qilsa, hech kim uni bosqinchilikda ayblay olmas edi-ku!

Uzoqlarda qolgan Mohim begim esiga tushdi. Ko'rmaganiga olti oydan oshyapti. So'nggi marta suhbatlashganlarida, Mohim begim bugungi dahshatlarni oldindan sezganday, qanchalik iz-tirobga tushgan edi!.. Boyagi kelinchakning: «Ket,

bosqinchi! Ket!» deb qichqirgani uning qulog'i ostidan ketmas edi.

Bobur ichida: «Yo Rab, bu ne ko'rgilik!» dedi-yu, xayolini boshqa biron narsa bilan band qilish uchun daftar-qalam oldi. Sevgan yoridan va tug'ilib-o'sgan diyoridan uzoqda u o'zini behad tolesiz, baxtsiz sezgan paytlari ko'p bo'lar edi. Hozir ham shu og'ir tuyg'u yuragini chulg'ab oldi. Bobur ko'nglini daftariga bo'shatgisi kelib, birinchi satrni yozdi:

*Tole' yo'qi jonimga balolig' bo'ldi.*

U keng qirg'oqlar orasidan tovushsiz jim oqib o'tayotgan Jamnaga tikildi. Botib ketgan quyoshning quyuc shafag'idan daryo suvi qizg'ish ko'rinadi. Boburning nazarida, daryo suvini shafaq emas, janglarda to'kilgan qonlar qizartirib yuborganday tuyildi. U iztirob bilan keyingi satrlarni yozdi:

*Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi!*

\* \* \*

G'ira-shira qorong'ilikda o'ng qirg'oqdan katta bir qayiq chiqib, kemaga qarab kela boshladi. Kemaning pastki qavatidan qo'rchiboshi:

– Kim u qayiqdagi? – deb so'raganini Bobur ham eshitdi-yu, qayiqqa tikilib qaradi.

Qayiqning oltitami-sakkiztami eshkagi bor edi.

– Mirzo Humoyun hazrati oliylarining huzurlariga ijozat so'raydilar! – deb javob berdi qayiqdan yo'g'on bir tovush.

Humoyun bilan ko'pdan beri yakkama-yakka suhbatlasha olmagan Bobur bugun o'g'li bilan bir dardlashgisi keldi-yu, pastdan savdarni chaqirdi:

– Ayting, Humoyun tologa chiqsin!

Ko'p o'tmay tolol zinasida vazmin qadam tovushlari eshitildi. Humoyun eshikdan kirganda, Bobur uning chaqnagan navqiron ko'zlariga, endi lab ustini qoplagan nozik mo'yloviga, kuchga to'lib turgan xipcha, sog'lom gavdasiga havasi kelib tikildi. Boburni qiynayotgan iztirobli tuyg'ular, uni behalovat qilgan issiqlar Humoyun uchun go'yo yo'q edi. «O'n sakkiz yoshimda men ham shunday yigit edim-a, endi nimam qoldi?» degan o'ydanda Boburning ko'ngli qattiq ezildi.

Ota-bola ko'rishib-so'rashganlaridan so'ng, Humoyun otasining ro'barusiga cho'kka tushdi-da, kulimsirab qo'ynidan chiroyli sadaf quticha oldi.

– Hazratim, shuni bir ochib ko'ring.

Bobur qutichani qo'liga olib shoshilmay ochdi. Qora baxmal mato orasidan olmosga o'xshash serjilva bir tosh yulduzday charaqlab ko'rindi. Lekin toshning yong'oqday kattaligiga qarab, Bobur uning olmosligiga ishongisi kelmasdi. Juda ko'p xazinalarni va xilma-xil javohirlarni ko'rgan Bobur bunchalik katta olmosni hali uchratmagan, olmos donasining bu qadar ulkan bo'lishini tasavvur ham etmas edi.

– Bu qanday javohir? – deb so'radi Bobur o'g'lidanda.

– Olmos emish.

Bobur nur jilvasiga cho'mib o'ynayotgan toshni qo'liga olib salmoqlab ko'rdi:

– Vazni yetti-sakkiz misqol kelur. Nahot shunchalik katta olmos bo'lsa?

– Men bir muqayyimni<sup>1</sup> chaqirib ko'rsatdim. Mashhur Ko'hinur<sup>2</sup> olmosi shu, – dedi. – Olamda

---

<sup>1</sup> Muqayyim – javohirshunos zargar.

<sup>2</sup> Ko'hinur – «nur tog'i» demakdir. O'sha zamonda bu olmos – odamzod topgan olmoslarning eng ulkani bo'lgan. Olimlar Ko'hinur olmosining 1304-yildan beri borligini aniqlaganlar. Hozir bu olmos Londonda saqlanadi.

bundan katta olmos yo‘q emish. Bahosi sandiq-sandiq oltinlardan baland emish.

– Men Bangola podshosi Sulton Aloviddinda ulug‘ bir olmos bor deb eshitgan edim. Ta‘rif qilgan edilarki, shu bitta olmos katta bir mamlakatning bir oylik sarf-u xarajatini ko‘targay.

– Muqayyimning aytishicha, mana bu olmosning qiymati tamomi olamning ikki yarim kunlik sarfiga barobar ekan.

– Sen buni qayerdan olding?

Humoyun o‘ng‘aysizlanib jilmaydi-yu:

– Gvalior rojasining xaylxonasida peshkash qildilar, – dedi.

– Nechun?

Humoyun voqeani hikoya qilar ekan, Bobur Gvalior viloyatida yuz yildan beri hokimlik qilib, juda katta boylik orttirgan roja Bikramadit‘yaning hashamatli qasrini ko‘z oldiga keltirdi. Bikramadit‘ya Ibrohim Lodiga bo‘ysunmasdan, u bilan uzoq vaqt urush qilgan, oxiri Gvaliorni Ibrohimga berib, o‘zi Shamsobod degan joyga ko‘chib ketgan va ko‘p o‘tmay vafot etgan edi. Panipatdagi g‘alabadan keyin Humoyun boshliq ilg‘orlar Dehlidan o‘tib borib ko‘p qasrlarni ishg‘ol qildilar. Shu qasrlardan birida o‘lib ketgan o‘sha rojaning bo‘y yetgan ikki qiz, bir o‘g‘li va ularning onalari yashab turgan edi.

Rojaning yigirma yoshlardagi o‘g‘li Humoyunni yaxshi qarshi oldi:

– Sizlarning dushmanlaringiz bo‘lgan Ibrohim Lodi bizning ham dushmanimiz edi, uning mag‘lub bo‘lganidan biz shodmiz, – dedi. – Endi ruxsat beringizlar, biz Shamsoboddan ona yurtimiz Gvaliorga qaytib ketaylik.

Humoyun ham yosh roja bilan iliq muomala qildi-yu, lekin Gvaliorga ko‘chib ketish uchun o‘zi ruxsat

bera olmasligini, podshohni kutish kerakligini aytdi. O'sha kecha Vays degan bir bek ellik nafar yigiti bilan rojaning qasrida tunadi. Humoyunning o'zi qasrning hovlisidagi boqqa chodir tiktirib, kechasi chodirda uxlab yotganda ichkarida ko'tarilgan to'polonni eshitib uyg'onib ketdi. Qo'rchilarini yoniga olib, qasr ichiga chopib kirsa, Vaysbekning yigitlaridan biri eshik oldida qonga belanib o'lib yotibdi. Qandillarda shamlar yonib turibdi. Ikkinchi qavatning zinapoyasida turgan o'n sakkiz yoshli go'zal qiz chuvalib yotgan ipak sarisini titroq qo'llari bilan olib, yalang'och yelkasiga yopishga urinyapti. Rojaning o'g'lini besh-oltita navkarlar o'rtaga olib, qo'lidagi qilichini urib tushirishdi. Ma'lum bo'lishicha, Vaysbek rojaning shu qizini yoqtirib qolib, navkarlari yordamida o'z bo'lmasiga kuch bilan olib keltirmoqchi bo'lgan. Qizning akasi qilich yalang'ochlab, himoyaga chiqqan. Qizni ko'tarib ketmoqchi bo'lgan navkarni qilich bilan urib yiqitgan. Endi buning qasdiga navkarlar yosh rojaning o'zini o'ldirmoqchi edilar.

Humoyun gap nimadaligini surishtirib bilgach, navkarlarga:

– Rojani bo'shating! – deb buyurdi. – O'z singillarini bunchalik mardona himoya qilgan yigit ehtiromga sazovor. Podshoh hazratlari bunday kishilar bilan yaxshi muomalada bo'lishni buyurgan edilar. Farmoni oliyni unutgan shahvatparast Vaysbek hibsga olinsin! Qizni iliklamoqchi bo'lgan navkarlar o'n darra kaltaklansin!

Xos navkarlar bu buyruqni bajarmagunlaricha Humoyun ularning tepasidan ketmay turdi. Bu orada zinapoyadan yosh rojaning onasi qo'lida kichkina sadaf quticha bilan tushib keldi. U oliy tabaqaning o'qimishli ayollaridan edi, ko'p tillarni bilardi, Humoyunga forschalab gapirdi:

– Shahzoda, mening bisotimdagi eng katta boyligim – mana shu qutichaning ichida. Menga far-

zandlarim dunyoning hamma boyliklaridan azizroq. Siz o'g'limning jonini qaytarib bergandek bo'ldingiz. Mana bu qutichadagi ulug' olmosni sizga peshkash qilaman!

- ...Voqeaning tafsili shu, - dedi Humoyun va otasiga «Bir navkarning o'lgani-yu, Vaysbekning jazolangani uchun gap eshitmasmikinmen?» degandek termilib qaradi.

Bobur og'ir tin oldi-yu:

- Alqissa, bu go'zal olmos ham zo'ravonlig-u xunrezlik balosini ko'rib kelmishmi? - dedi.

- Hazratim, mendan xatolik o'tgan bo'lsa, afv eting. Men o'yladimki, o'z or-nomuslarini shunday bebaho olmosdan ham ortiq qadrlaydigan odamlar g'ayridin bo'lsalar ham...

- Rost, bu mamlakatda shunday or-nomusli odamlar borligini o'ylasam, mening ham ko'nglim ko'tarilur, o'g'lim! Ammo bizning nazari past bek-u navkarlarimiz zo'ravonlig-u talonchilik bilan hind elini bizdan cho'chitmoqdalar. Axir bizning maqsadimiz faqat mamlakat olmoq emas edi-ku. Biz Hindistonda katta davlat tuzish orzusini ko'nglimizga tugib kelgan edik. Yagona qudratli davlat barpo etilishidan hind eli ham manfaatdor emasmi? Barcha o'lkalar birlashsa, elning tinkasini quritgan ichki urushlar to'xtamasmi? Ulus tinchib, ilm-u san'atning ravnaqi osonlashmagaymi? Buni sezgan hindistoniylardan Dilovarxon, Hindubek kabilar biz bilan hamkorlik qilmoqdalar. Biz endi butun hind elining ko'nglini olmoqqa intilmog'imiz darkor, o'g'lim!

- Hind elining ko'nglini olmoq?! - taajjub bilan so'radi Humoyun. - Qonli janglar vahimasidan qo'rqib, shahar-u qishloqlarini tashlab qochmoqda bo'lgan ming-ming odamlarning ko'nglini biz qandoq olg'aymiz?

Bobur Panjobda yo'lni adashtirib, fotihlarni xarob qilmoqchi bo'lgan filbonni va boya «Ket, bosqinchil!» – deb qichqirib o'zini olovga tashlagan kelinchakni esladi:

– Ha, bu juda mushkul muammo! – Bobur miz ustida turgan sadaf qutichani qo'liga oldi. – Umidvormen, shoyad bu muammoni yechishga muyassar bo'lsak. Axir mana sen bir qancha hindistoniylarning ko'nglini olmishsen-ku. Dehliga kelgan kuning ibodatxonada bu elning muqaddas tuyg'ularini himoya qilmishsen. Buning hammasiga loyiq mukofot mana shu olmosdir! Ol, haloling bo'lsin!

– Hazratim, – deb Humoyun qutichani olmay qo'lini ko'ksiga qo'ydi, – bu olmosni men sizga atab keltirdim.

Bobur sadaf qutichani yana miz ustiga qo'ydi-yu, ovozi xiyol tovlanib:

– Sening bu saxovating uchun Tangriga shukrlar qilamen, – dedi. – Panipat jangida sen menga eng birinchi bo'lib zafar keltirding, qo'shinning ruhini ko'tarishga sababchi bo'lding. Men hali bu xizmatlaringni ko'nglimdagidek taqdirlaganim yo'q.

– Lekin sizning avvalgi in'omlaringiz mening butun umrimga yetgulikdir, – deb Humoyun otasiga «Mubayyin»ni eslatgisi keldi. – Men ham sizga arzirlik bir armug'on keltirish orzusida edim...

– Unday bo'lsa, mayli, men bu armug'oningni bir marta qabul qilay. Endi shu olmos menikimi?

– Sizniki!

– Lekin taqdir menga dunyodagi barcha olmoslardan qimmatliroq bir mukofot bermishdir. Bu mukofot – mening sendek o'g'lim borligidir. Tojdor, taxtdor ota-o'g'illar orasida qandoq yomon baxilliklar, qandoq razil xunxorliklar bo'lganligi senga sir emas. Men istaymenki, bu balolar sen-u menga hech vaqt yovuq kelmasin. Xudodan tilagim shuki, mendan senga,



sendan avlodlaringga saxovat-u mardlik, fidokorlig-u olijanoblik meros bo'lib qolsin. Bu fazilatlar bizni ulkan tog' silsilasidek doimo bir-birimizga bog'lab tursin. Ana o'shandagina biz Hindistonga kelib, ko'zlagan ulug' maqsadlarimizga yetishgaymiz.

– Siz aytgan ulug' maqsadlar uchun o'g'lingiz jonini berishga ham tayyor!

– Bunga mening ishonchim komil. Shuning uchun bu noyob olmosni men faqat senga munosib ko'urmen. O!

Humoyun endi o'rnidan sakrab turdi-yu, sadaf qutichani ta'zim bilan otasining qo'lidan olib, ko'ziga surdi. Boburning boyagi behalovatligi va tushkun kayfiyati endi tarqab ketgan, ko'nglida yana yaxshi istiqbolga ishonch tuyg'usi mavj urar edi. U Humoyunga:

– O'tir, – dedi-da, qarsak chalib, savdarboshini chaqirdi: – Hindubekni chorlang. Xo'ja Xalifa bilan birga kirsin.

Chaqirilganlar kelguncha, Bobur Humoyunga Agradagi ahvol to'g'risida gapirib berdi:

– Qo'rg'onni Ibrohimning onasi, o'g'li, Malikdod Koroniy otliq vaziri mingdan ortiq xos askarlari bilan berkitib olmishlar. «So'nggi odamimiz qolguncha jang qilurmiz» deb ahd qilmishlar. Bu ahdni bizning qo'shin bir hamla bilan ko'kka sovurmog'i mumkin. Ammo yana xunrezlik bo'lur, shahar buzilib, bizga kerakli qancha odamlar hayf ketur!

Xo'ja Xalifa va Hindubek tolorga ta'zim qilib kirishdi. Bobur ularni qarshisiga o'tqazgach:

– Sizlar Agraga bizdan elchi bo'lib bormoqlaringiz kerak, – dedi. – Maqsad – qo'rg'onni jangsiz olish. Mol-u jonlari omon qolsin. Ibrohimning onasi Jamna bo'yidan pargana<sup>1</sup> so'ragan emish. Mayli, beraylik,

<sup>1</sup> Pargana – kichikroq viloyat.

Ibrohimning o'g'li arabcha-forscha o'rgangan ilmlik o'spirin emish, uni saroydagi obro'li mulozimlarim qatoriga qo'shay. Malikdod Koroniyni tadbirkor vazir deb eshitdim. Uni Hindiston muammolari bo'yicha o'zimga maslahatgo'y qilib xizmatga olay. Borib, yaxshilab so'zlashing. Yana qanday ma'qul tilaklari bo'lsa qabul qilaylik. Xullas, qirg'in bo'lmasin, beva-bechora ko'paymasin, deb shu yo'lni tutmoqdamiz... Ya'ni, sizlarning vazifalaringiz – qal'a olish emas, balki qal'adagilarning ko'nglini olishdir!

Og'ir janglarning oldingi safida qon kechib yurgan Humoyun bilan Hindubek Boburning bu tadbiridan yengil tortishib, bir-birlariga mamnun qarab olishdi.

## AGRA

### YO HAYOT, YO MAMOT

#### 1

Ibrohim Lodining onasi malika Bayda Panipat jangida o'ldirilgan o'g'li uchun aza tutib, boshdan-oyoq oq kiyinib yurar edi. Oraga qo'yilgan odamlar unga istagan parganasini berib, Agrani jangsiz topshirishga ko'ndirdilar. Malika qo'rg'on darvozalarining kalitini Jamna bo'yida Boburga topshirayotganda, ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Bobur bu salobatli kampirning keng peshonasi va bir-biriga qo'shilgan qoshlarini qayerdadir ko'rganday bo'ldi. So'ng birdan Panipat esiga tushdi. Jang tugagandan keyin bir bek minglab o'liklar orasidan Ibrohim Lodining jasadini izlab topgan va boshini kesib olib, uzun nayzaga sanchib, Boburga keltirib ko'rsatgan edi. Endi qirq yoshlarga borgan Ibrohim Lodining keng peshonasi va payvasta qoshlari ham xuddi onasinikiga o'xshar edi.

Boburga bir lahza shunday tuyildiki, go'yo Ibrohim Lodi to'satdan tirilib, onasining qiyofasiga kirib kelgan. Bobur allanechuk sarosima bo'lib:

– Malika, yig'lamang, – dedi. – Bizdan yana qanday tilagingiz bo'lsa ayting?

Malika Bayda ko'z yoshini kafti bilan tez artirdi:

– Menga boshqa ozor bermasalar bo'ldi.

Bobur mulozimlari tomonga yuzlandi:

– Minba'd malikaga hech kim ozor bera ko'rmasin, hamma uni mo'tabar onamizdek ehtirom qilsin!

Mulozimlar bu topshiriqni ta'zim bilan qabul qildilar. Malika ham bosh egib, minnatdorchilik

bildirgan bo'ldi. Ammo uning yig'idan namlangan ko'zlari po'lat tig'ning sovuq jilosini eslatib nafrat bilan yaltirab ketganini hech kim ko'rmadi.

Malika Bayda o'g'lining kushandasini kechiradigan onalardan emas. Panipatdan mudhish xabar kelganda, malika uchun osmon o'pirilib yerga qulaganday bo'lgan edi. U o'g'lini so'nggi marta ko'rishni istar, uning jasadini o'z qo'li bilan tuproqqa qo'yib, qabrini quchoqlab yig'lasa, ko'ngli xiyol taskin topadiganga o'xshar edi. Shuning uchun malika eng ishongan odamlarini Panipatga yuborib, Ibrohimning jasadini topib kelishni buyurgan edi.

Lekin Agra bilan Panipatning orasi uch-to'rt kunlik yo'l. To o'lim xabari Agraga yetib kelguncha, so'ng Agradan malika yuborgan odamlar Panipatga borguncha oradan bir haftacha o'tgan, ungacha o'liklarning bir qismi ko'mdirilgan, bir qismi mechkay quzg'unlar suyaklarigacha tozalab yeb ketgan edilar... Malika Bayda yuborgan odamlar sulton Ibrohimning jasadini topolmadilar, faqat jang kuni uning kallasini nayzaga sanchib, Boburga ko'rsatganlari haqida xabar topib keldilar... O'g'lining jasaki qanday xor bo'lganini eshitgan onaning qayg'u-alamlari avvalgidan o'n hissa oshdi. U, hatto joynamoz ustida namoz o'qib o'tirganda ham: «Ibrohimjon, endi bu olamda sening qabring ham yo'q, Xudo menga jasadingni ham ko'p ko'rdi! – deb nola qilar: – Ilohim, senga o'lim keltirgan Boburning o'zi o'lsin, bundan ming hissa ortiq xor bo'lib o'lsin!» – deb qarg'ar edi.

Malikaning kanizlari va xizmatkorlari ko'cha-ko'ydan unga taskin beradigan gaplar topib kelishardi. Boburning askarlari yem-xashakdan qiynalib, dehqonlarning ekinlarini otlariga yedirgan ekan, dehqonlar g'alayon ko'tarib, navkarlardan bir qanchasini bolta va panshaxalar bilan urib o'ldiribdi. Fotihlarni Hindistonning issiqlari ham juda qiynab

qoʻygan emish. Salqin togʻ havolariga oʻrgangan ot va odamlar bu yerning ayovsiz issigʻiga bardosh berolmay oʻlayotgan emish. Vabo va qora bezgak ham ularning saflarini siyraklashtirib qoʻyayotgan emish...

Malika ovozalarning qanchalik rostligini Bobur saroyida xizmatda yurgan nevarasi Bahodirdan surishtirib bilmoqchi boʻldi. Bahodir hafta-oʻn kunda kelavermagach, malika «uni saroydan chiqarishmasa kerak», deb oʻyladi-yu, kanizini podshoh mahkamasiga yubordi. «Men betobman, nevaramga ruxsat bersinlar, meni kelib koʻrib ketsin», degan maʼnoda maktub yubordi.

Oʻn yetti yoshli Bahodir forschani va sanskritni yaxshi bilar, Bobur uchun zarur boʻlgan baʼzi hujjatlarni tarjima qilar edi. Saroyda boshqa tarjimonlar ham bor edi. Bahodirga koʻp ish buyurishmas edi-yu, lekin uni oʻzicha erkin ham qoʻyishmasdi. Bobur uni qattiq qoʻriqlab yurishni buyurgan edi. Bu qoʻriqchilar Bahodirni tashqi xatarlardan ehtiyot qilib yurganday koʻrinsalar ham, aslida ular shahzodani «Ibrohim tarafdorlari tomonidan uyushtirilishi mumkin boʻlgan biron fitnaga bosh qoʻshmasin» deb, sinchiklab kuzatishardi. Shu sababli Bahodirni saroydan koʻp chiqarishmasdi.

Biroq eshik ogʻa Muhammad Doʻlday malika Baydaning «Kasalman, nevaram kelib ketsin», degan mazmundagi xatini olgach, Boburning «Malikani moʻtabar onamizday ehtirom qiling» degan buyrugʻini esladi-yu, Bahodirga javob berdi. Faqat uning yoniga avvalgidan ikki barobar koʻproq navkar qoʻshdi-da, shu bugunoq qaytib kelishni tayinladi. Nevarasi kelganda, malika Bayda daryo boʻyidagi marmar koʻshkning nimqorongʻi ichki xonasida xastalarday shiftga tikilib yotgan edi. Yoʻlda issiqdan terlab-pishib kirgan nevarasiga yonidan joy koʻrsatdi-yu, majolsiz bir ahvolda oʻrnidan turib oʻtirdi. Nevarasining boʻgʻriqqan

yuzlariga qarab hol-ahvol so‘rashdi. Yoz bu yil har yilgidan ham issiq kelganini aytdi.

– Fotihlar issiqqa bardosh berolmay o‘layotgani rostmi? – deb so‘radi.

– Birda-yarim o‘layotganlari bor, – dedi Bahodir.

– «Hindistonda turmaymiz, salqin joylarga qaytib ketamiz» deyayotganlari-chi?

– Podshohlari ketgani qo‘ygaymi? Ko‘pchilik uning izmidan chiqmas ekan. O‘zi ham juda gapga usta notiq odam ekan. «Ketamiz», deb yurganlarni saroyga to‘plab, shunday bir gaplashdiki, hammasi jim bo‘lib qoldi.

– Sen otangning qotilini... maqtayapsanmi?

Bahodir eshikka xavotirli ko‘z tashlab qo‘ydi. U o‘zi bilan birga kelgan hamrohlaridan xavotirda edi. Buni sezgan malika ovozini pasaytirib so‘radi:

– Ketingga odam qo‘yganlarmi?

– Ha, hech kim bilan yakkama-yakka gaplasholmayman. Hamisha yon-verimda qo‘riqchilar... Yomonlasam, darrov yetkazadiganlar ko‘p.

– Qo‘rqma, bu xonada faqat biz ikkalamiz... Ilgari bizga xizmat qilgan odamlardan saroyda hech kim bormi?

– Otamning vaziri Malikdod Koroniy bor... Keyin... bizning kutubxonada ishlagan to‘rtta olim ham xizmatga olindi. Bilishimcha, Bobur hindistonliklarni o‘ziga el qilmoqchi, ularning ishonchini qozonmoqchi. Shuning uchun otamning barcha oshpazlarini saroyga to‘plab, to‘rttasini o‘zi uchun tanlab olibdi.

– Shu bizning oshpazlar pishirgan ovqatlarni Bobur ham yermishmi?

– Ha, ko‘rganlardan eshitdim. Bobur hindistoniylar taomlarni yeyish bilan ham o‘zini bizning elga yaqin ko‘rsatmoqchi bo‘lsa kerak.

Malika ilgari o‘zining itoatida bo‘lgan o‘sha to‘rt oshpazdan birortasini qo‘lga olish mumkinligini

o'yladi-yu kutilmagan bir bardamlik bilan o'rnidan turib ketdi. Uning qalbini o'rtab yurgan qayg'u-alamlar endi birdan yangi yo'l topganday bo'ldi. Zo'r intiqom tuyg'usi uning xayollarini bir nuqtaga to'plab, vujudiga kuch-quvvat berganday bo'ldi. «Agar Bobur o'ldirilsa, uning odamlari bu yerda turolmaydi: ketadi, mamlakat yana o'zimizga qoladi!» degan o'y ham uning oshpazlarini qo'lga olish haqidagi qarorini mustahkamladi. Malika og'zini nevarasinnig qulog'iga yaqinlashtirib so'radi:

- O'sha oshpazlarni sen ko'rdingmi?

- Ko'rdim.

- Ularning orasida Ahmad choshnagir yo'qmi?

Bahodir buvisining avzoyi o'zgartanidan allanechuk cho'chib:

- Yo'q, - dedi. - Ahmad choshnagir Agradan Atovaga ketgan.

Malika Bahodirning eshikka yana xavotir bilan ko'z tashlab qo'yganini ko'rdi-yu, kinoyaomuz iljaydi: «Bu nevaram bo'shroq, ayg'oqchisi ham ko'p ekan, sir berib qo'ysa juvonmarg bo'ladi, men ham niyatinga yetolmayman», dedi o'zicha va ko'nglidagi qaltis niyatni unga bildirmay, gapni boshqa yoqqa burdi:

- Bizga shunchalik sodiq ko'ringan odamlar hozir dushmanlarimizga xizmat qilyapti-ya! E, bevafo dunyo! Malikdod Koroniy ham, oshpazlar ham hammasi sotilgan! Lekin sen... dushmanlar bilan til uchida murosa qil-u dilingni otangga sodiq tut!

- Hali ham shunday, buvijon! - pichirlab dedi Bahodir.

\* \* \*

Nevarasi ketgandan keyin malika Bayda xastalik to'shagini yig'ishtirdi, ilgarigi fig'on chekishlar va qarg'ashlarni ham bas qildi. Uning fikr-u zikri - eng sadoqatli va tadbirkor odamlarini ishga solib, Boburni

zaharlab o'ldirishga qaratildi. Malikaning atrofida fotihlardan qasos olishga tashna odamlar ko'p edi. Bobur askarlari bilan to'qnashuvlarda birining akasi, birining inisi o'lgan, biri ilgarigi makoni va mavqeyidan ajralib xonavayron bo'lgan... Malika ana shunday qasoskorlarning eng ishonchlilarini izlay boshladi. Bobur ishga olgan to'rt oshpazdan birining yolg'iz inisi Panipat jangida halok bo'lgan edi. Malika zimdan surishtirib buni bilganda, quvonib ketdi. Biroq o'zi bu oshpaz bilan bevosita aloqa qilishni lozim topmadi. Chunki malikani hamma taniydi. Bobur odamlari sezib qolishlari mumkin.

Ilgari sulton Ibrohimning saroyida bu oshpazlar bilan birga ishlagan va ularga qadrdon bo'lib qolgan eng ishonchli odam – Atovaga ketib qolgan Ahmad choshnagir edi. Malika Agradan ancha uzoq bo'lgan Atovaga maxsus odam yuborib, Ahmad choshnagirni o'z huzuriga taklif qildi.

Ahmad choshnagir Agradagi hovlisi va mol-u mulkidan ayrilib, fotihlarga qarshi g'azabga to'lib yurar edi. Malika Bayda uni o'z parganasiga ishga oldi, uy-joy va maosh berdi, so'ng asta-sekin ko'nglidagi niyatini aytdi. Ahmad choshnagir avval «uddalay olmayman» deb qo'rqdi. Lekin malika unga dalda berdi, «inisi Panipatda o'ldirilgan oshpaz bilan gaplashib bersang bo'ldi, qolgan ishni o'zimiz qilamiz», dedi. Ahmad choshnagir saroyga qanday kirishni bilmas edi.

Buning yo'lini ham malikaning o'zi topdi. Malika Bayda nevarasidan xabar olish uchun saroyga borishi mumkin edi. Malika nafis shohi va parchalardan sovg'alar tayyorlatdi, so'ng bu sovg'alarni Ahmad choshnagirga ko'tartirib, saroyga bordi... Malika podsho qabuliga kirib chiqquncha Ahmad choshnagir eski qadrdoni bo'lgan o'sha oshpazni topgan va u bilan ertasi kuni saroydan tashqarida uchrashishga kelishgan edi. Oradan bir haftacha o'tgach, Ahmad



choshnagir oshpaz bilan til biriktirganini malikaga kelib aytdi.

– U ham kelgindilarni daf qilishning yoʻlini bilmay yurgan ekan. Podshohlari oʻlsa hammasi daf boʻladi deb ishontirdim!

– Agar hamma ish oʻylaganimizday boʻlsa, otasining taxtini Bahodirjon oladi. Oʻshanda sizga katta bir pargana beramiz. Oshpaz ham katta mukofot oladi.

– Ilohim shu niyatimizga yetaylik! Vatanimiz berahm fotihlardan xalos boʻlsin!

– Omin!

Ahmad choshnagirning saroy oshpazi bilan kelishuviga binoan, Boburning ovqatiga solinishi kerak boʻlgan zaharni malika oʻzining eng ishonchli bir kanizidan berib yuborishi kerak edi. Endi ular mana shu nozik ishni qaysi kanizga topshirishni oʻylay boshladilar...

## 2

Uch oydan beri muttasil koʻtarilib borayotgan jazirama issiqlar hindcha ashora<sup>1</sup> deb ataladigan toʻrtinchi oyga kelib, juda avjiga chiqib ketdi. Yomgʻir faslining boshlanishiga hali salkam bir oy bor. Toʻrt oydan beri nam koʻrmay qurib yotgan yer issiqning zoʻridan tars-tars yorilib ketgan.

Jamna daryosining chap qirgʻogʻiga – ilgarigi tashlandiq yerlar va chakalakzorlar oʻrniga qurilayotgan Zarafshon bogʻida hali soya joylar kam. Bobur qurilishni otliq aylanib koʻrar ekan, uzangi temirining issigʻi etikdan oʻtib, oyogʻini jizillatib, uzib olayotganini sezadi. Oltin qoplangan egarning oftobda yaltirayotgan

---

<sup>1</sup> Ashora – javzo oyiga toʻgʻri keladi. Hindistonda yoz fasli bahorda hut oyidan boshlanib, toʻrt oy davom etadi. Keyin «Pashkol» deb ataladigan yomgʻirlar fasli boshlanib, bu fasl mezon oyigacha davom etadi.

qoshini ushlaganda, cho'g'ni ushlaganday bo'lib, qo'li kuyar edi.

Shunday bo'lsa ham u issiqdan behalovat bo'layotganini ketidan ergashib kelayotgan beklariga sezdirmas edi. Chunki bu beklar o'lja tushgan xazinalardan katta-katta ulushlar olgandan beri salqin joylarga ketib, rohat-farog'atda yashashga intilishar, Agra va uning atrofida yangidan imorat qurib, bog'-rog' qilishga toqatlari yo'q edi.

Kobul va G'azni kabi salqin joylarga tezroq qaytib ketishning yo'lini izlayotgan beklardan biri marg'ilonlik Xo'ja Kalonbek edi.

Bobur unga uzun oq yaktak kiygan, kichkina oq salla o'ragan mo'ysafid me'morni ko'rsatdi-yu:

– Tanidingizmi? – dedi.

– Andijonlik mavlono Fazliddinmi?

– Ha, Kobuldan biz bilan ketma-ket kelsin deb tayinlagan edim. Sangtarosh o'g'li bilan yetib kelib, mana shu bog'ning tarhini chizdi. Shundoq keksa odam chidagan issiqlarga nahotki biz bardosh bera olmasak?

– Lekin mijoziga issiq to'g'ri kelmaydigan odamlar ham bor-da, hazratim. Kechagi bodi samumda<sup>1</sup> mening navkarlarimdan uchtasi tap-tap yiqilib jon berdi.

– Ajali yetgan bo'lsa, samum bir sabab bo'lgan, xolos, – dedi Bobur va ta'zim qilib peshvoz chiqqan mavlono Fazliddinga yuzlandi. – Hormang, mavlono... Qani, arzingiz bo'lsa eshitgali keldik.

– Arzim shuki, hazrati oliylari, bizga fil bilan ishlaydigan filbonlar kerak. Bog' o'rtasidagi marmar qasr uchun Dehalpurdan juda og'ir toshlar olib kelmoqchimiz. Bunday toshlarni katta arobalarga faqat fillar ortib berishlari mumkin.

Bobur Panipat jangida filbonlari bilan asir olingan suruv-suruv fillarni esladi. So'ng devonxonaga

<sup>1</sup> Bodi samum – eng issiq garmsel shamol.

ishga olingan hindistonlik maslahatchisi Malikdod Koroniyga yuzlandi:

– Janob Koroniy, harbiy fillarni mehnatga o‘rgatish mumkinmikin?

– Mumkin, hazratim. Fil juda ziyrak jonivordir. Filbonlardan eshitganim bor. Fillar qonli janglardan ko‘ra osuda mehnatga tezroq o‘rganar emishlar.

– Bizning qo‘shinlar fil yordami bilan jang qilishga odatlangan emaslar. Shuning uchun Panipatda o‘lja olingan harbiy fillarni qurilishlarda ishlatmoq mumkin. Janob Koroniy, bu farmonni shu bugunoq barcha filbonlarga yetkazing!

– Jonim bilan.

Koroniy buyruqni tezroq bajarish uchun hozir ketmoqchi edi, Bobur uni to‘xtatdi:

– Yana shahar-u qishloqlarga maxsus tavochilar yuboring. Biz Ibrohimdan o‘lja olingan boyliklarni obodonchilik yo‘lida sarflamoqchimiz. Shuni barcha viloyatlarga ma‘lum qiling. Qurilishlarda ishlash uchun sizga o‘n besh ming korgar yetarlikmi, mavlono?

– Yetarlik. Lekin hazratim marmar qasr bilan tosh voyinni<sup>1</sup> bir yilda qurib bitirishni buyurgan edilar. Sangkorlik – tez bo‘ladigan ish emas...

– Sangtaroshlarni ko‘paytirsak-chi? – dedi Bobur.

– Men ham shuni iltimos qilmoqchi edim. Hindistonning havosiga Hirot-u Samarqanddagi g‘isht-u koshindan ko‘ra tosh-u marmar mosroqdir.

– Hozir qurilishlarimizda qancha sangtarosh usta bor, mavlono?

– Agraning o‘zida olti yuz sakson sangtarosh ishlatmoqdamiz. Sekrida, Dehalpurda, yana boshqa joylarda – jami ming to‘rt yuz to‘qson bir sangtarosh...

– Bu oz emas! – dedi Bobur. – Bobokalonimiz Amir Temur Samarqandda eng katta imoratlar qurdirganda,

---

<sup>1</sup> Voyin – katta hovuz.

turli mamlakatlardan ikki yuz sangtarosh borib ishlagan ekan. Tarixchi mulla Sharafiddin<sup>1</sup> buni favqulodda maqtab ta'riflagan ekanlar. Lekin Hindiston hunarpeshalarga shu qadar boyki, biz yuzlab emas, minglab usta-sangtaroshlarni ishga taklif etishimiz mumkin. Janob Koroniy, bizning qalamravimizdagi barcha shaharlarga jarchilar chiqaring. E'lon qilsinlarki, bizning qurilishlarimizga kelib ishlaydigan korgar-u ustalariga istaganlaridan ham ziyoda haqlar to'lanur, imtiyozlar berilur. Din-u millat ayirish yo'q. Barcha ustalar avvalo Xudoning, undan so'ngra bizning himoyamizda bo'lurlar!

Koroniy ta'zim bilan:

– Farmoni oliyga jonimiz fido! – dedi-da, otini burib, Agra tomonga yo'l oldi.

Boshqa bek va mulozimlar tobora kuchayib borayotgan issiqdan betoqat bo'lib, daryoda langar tashlab turgan kemalarga qarab-qarab qo'yishardi. Ular qurilishni ko'rib bo'lganlaridan keyin podshoh bilan birga shu kemalarga chiqib dam olishlari mumkinligini bilishardi. Shuning uchun qurilishga oid gaplar tugashini sabrsizlik bilan kutishmoqda edi. Lekin Bobur me'mordan bo'lajak qasr bilan daryo oraliq'iga tushadigan marmar hammomning gumbazi va ichi qanday bo'lishini so'radi.

– Ichi xuddi Samarqanddagi Ulug'bek mirzo hammomidek sangfarsh qilinur, – dedi mavlono Fazliddin. – Lekin gumbazi mirzo hammomining gumbazidan xiyla ulug' bo'lur. Devorlari qizil toshdan ishlanur... Marmarning bir xosiyati shuki, yozda muzdek salqinlik berur.

– Bo'lmasa, marmar imoratlarni tezroq quringki, biz bu jaziramada kuyib, kul bo'lmaylik! – dedi issiqdan bo'g'riqqan Kalonbek.

---

<sup>1</sup> Sharafiddin Ali Yazdiy.

– Marmar imoratlar tezroq bitsin desangiz, otdan tushib, hashar qilishing, janob bek! – deb tegishdi mavlono.

Bobur uning javobidan mamnun bo'lib kuldi-da:

– Qalay, mavlono, issiq o'zingizni ko'p qiynamadimi? – dedi.

– Qiynasa ham chidaymiz-da. Mana shunday katta obidalarni Andijonda quramen deb, qurolmadim. Hirotda quramen deb, qurolmadim. Chizgan tarhlarim o'ttiz yil sarg'ayib yotdi. Qarangki, butun umr qilgan orzularim uzoq Agraga kelganimda ro'yobga chiqadigan bo'lib turibdir. Taqdir-u nasibam shuni taqozo qilsa, issig'i ko'zimga ko'rinurmi? Hindistoniy ustalar salqin tutadigan meva sharbatlari-yu yengil taomlar yeyishar ekan. Men ham shunga o'rgandim. Ertalab salqinda turib, bir paxra<sup>1</sup> ishlaymen. Kun qiziganda bir paxra yotib, dam olgaymen. Issiqning tafti pasaygach, yana bir paxra ishlagaymiz.

– Biz bo'lsak, erta-yu kech sergo'sht taomlar, qazi-yu kaboblar yeyurmiz, – dedi Bobur Xo'ja Kalonga qarab. – Yana bu yetmagandek, olovli maylar ichurmiz.

Xo'ja Kalon ot ustida oftobning tig'ida turib, shunday terlagan ediki, yuzi va peshonasidan sirqigan ter tomchilari mosh-guruch soqolidan oqib ko'kragiga tommoqda edi. Boburning o'zi ham har nafas olganda ichiga havo emas, olov kirayotganday bo'lardi. U me'mor bilan gapini tugatgach, otini daryodagi kemalar tomonga burdi-yu, yeldirib ketdi.

Otlar tez yurganda qarshidan shabada esganday bo'lar va nafas olish yengillashar edi. Shunin uchun Boburning ketidan boshqalar ham otlarini tez hayday boshladilar. Shu tarzda daryo sohiliga yaqinlashar ekanlar, Xo'ja Kalonning navkari mingan badaxshoniy qora ot surinib, yiqilib tushdi. Badaxshonlik navkar

---

<sup>1</sup> Bir paxra – to'rt soat.

oyog'ini otning tagidan tortib oldi-da, yuganni silkitib, otini turg'izmoqchi bo'ldi. Og'zidan qon aralash ko'pik kelayotgan ot bir-ikki talpinib ko'rdi, lekin o'rnidan turolmadi.

– Buni ham oftob urdi! – dedi Xo'ja Kalon alam bilan. – Koshki bu mamlakatda ot topish oson bo'lsa!

– Janobi bek, bir ot uchun muncha iztirob chekmang, men buyuray, navkarlaringiz bizning taviladan bir ot olsin, – dedi Bobur.

– G'oyat minnatdormen, hazratim! – dedi Xo'ja Kalonbek. – Lekin gap faqat otda emas. Men bu o'limda o'z istiqbolimni ko'rib, iztirob chekmoqdamen!

Bobur otdan tushdi-yu, daryoda langar tashlab turgan «Osoyish» nomli ikki oshiyonlik muhtasham kemani Xo'ja Kalonbekka ko'rsatib hazillashdi:

– Hozir sizga mana bu istiqbol muntazir! Yuring!

\* \* \*

Qayiq'larga minib kemaga yetganlarida Bobur Xo'ja Kalonbekni kemanding tumshuq tomonidagi xonayi xosga boshladi. Kema daryo bo'ylab suzib borar ekan, suvning shamoli eng avval shu xonaga tegar va ajib bir salqinlik berar edi.

Savdarlar daryoda sovitilgan norinj va limu<sup>1</sup> sharbatidan keltirdilar. Xo'ja Kalonbek muzday norinj suvidan bir chini kosa sipqardi-yu, nafasini sal rostlab, Boburning yuziga qaradi.

– Hazratim, siz ham qorayib, juda ozib ketibsiz, – dedi. – Bizga bildirmaysizu, lekin nechog'lik qiynalib yurganingizni boshqalar sezmasa ham men payqaymen.

– Ha, endi... Siz bilan biz o'ttiz yildan beri birgamiz. Ne ranj-u ne mashaqqatlarni boshdan kechirmadik!

---

<sup>1</sup> Limu – limon.

O'shal g'am-u alamlarga nisbatan hozirgi azoblarimiz – davosini topsa bo'ladigan dardlar-ku.

Xo'ja Kalonbekni yana ter bosdi. U qo'ynidan ipak ro'molcha olib, peshonasidan ko'ziga oqib tushgan terlarini artar ekan:

– Afsuski, yoshim ketib qoldi, – dedi. – Yigitlikda issiq-sovuqni farq qilmas edik. Hozir ellikdan oshdik... Sezib turibmenki, Hindning bodi havosidan bir haftada bir yoshga qarimoqdamen. Eski beklardan Qosimbek qavchin bor edi. Bu yil keksayib, dunyodan ko'z yumdi. Bu ahvolda men ham ko'pga bormasmen, hazratim!

– Unday demang, janob Kalonbek. Issiqqa ham odatlanurmiz.

– Movarounnahrday salqin o'lkalardan chiqqan odam hind issig'iga o'rganishiga aqlim bovar qilmaydir!

– Nechun? Asli Shahrisabzning lochin urug'idan bo'lgan Xisrav Dehlaviy Hindda yetmish yil umr ko'rmish. Bunisiga ne deysiz?

Xisrav Dehlaviy – Xo'ja Kalonbekning sevimli shoirlaridan edi. Dehlidan o'tganlarida, Kalonbek ham Bobur bilan birga Xisrav Dehlaviyning Nizomiddin Avliyo maqbarasiga qo'yilgan qabrini ziyorat qilgan edi. O'sha yerda Kalonbek Dehlaviyning «Ro'y ba Hind ovardoni sohibdilon bechiz nest!» degan mashhur satrini eslagan, «Biz ham endi Hindga kelgan sohibdillardanmiz» degandek mag'rurlangan edi. U paytda hali issiqning tafti bunchalik baland emas edi. Xo'ja Kalonbekning Hindistondan qaytib ketish istagi ham hozirgichalik kuchli bo'lmagan. Bobur Dehlaviyni eslatish bilan Kalonbekning avvalgi ahdida turolmayotganini aytmoqchi edi.

Xo'ja Kalonbek buni payqab, tomoq qirdi:

– Hazratim, Dehlaviy ulug' odam bo'lgan, – dedi.  
– Mening ulug' odamlarga tenglashadigan qudratim yo'q ekan...

– Siz yana avvalgi e'tiqodlaringizga zid gapirmoqdasiz. Maqsad ulug' odamlarga tenglashmoq emas, balki ularning nek ishlarini davom etkazmoq edi-ku. Bizni maftun qilgan hodisa – Xisrav Dehlaviyning qalbida turkiy ulusning qudrati bilan hind elining dahosini bir-biriga payvand bo'lib, ulug' natija berganligi emasmi?

Xo'ja Kalonbek e'tirozga so'z topolmay tasdiq ma'nosida bosh irg'adi va dasturxonda turgan limu sharbatiga qo'l cho'zdi.

Ular Dehlaviy haqida ilgari ham ko'p so'zlashgan edilar. Laxo'r, Dehli va Agrada Dehlaviyning hind tilida bitgan qo'shiqlarini musulmonlar ham, otashparast va butparastlar ham to'y-tomoshalarda kuylab yurganlarining guvohi bo'ldilar. Dehlaviy Boburdan ikki yuz yil oldin o'tgan bo'lsa ham uning g'azallari, kuylari, qo'shiqlari xuddi bugun bitilganday yangi va ta'sirli edi. Bobur Dehlaviyning Hindistondagi barcha ellarni ahillikka da'vat etib ketganini, agar bu mamlakat din-u millat nizolaridan baland tursa va tarix maydoniga yakdil-u yaktan bo'lib chiqsa, jahonning eng ulug' qit'asiga aylanishi mumkinligini ayta boshladi.

Boburning bu gaplarni aytishdan maqsadi – Xo'ja Kalonbekni Hindistonda olib qolish edi. Lekin Xo'ja Kalonbek do'stlari davrasida chog'ir ichib o'ltirganda: «Shu bu yil Hinddan ketmasam yuzim qora bo'lsin!» – deb qasam ichgan edi. Endi u qasamxo'r bo'lib qolmaslik uchun ham Hindistondan ketishga intilmoqda edi. U Boburning nutqi va mantiqi juda zo'rligini yaxshi bilar, Bobur keltirgan kuchli dalillarga jim turib quloq solar, lekin e'tiroz uchun qulay payt poylar edi.

– Hindning qadimiy madaniyatini Beruniy qanchalik ulug'lab yozganini bilursiz, – so'zida davom etdi Bobur.

– Bu elda iste'dod-u salohiyat konlari hozir ham



beadad. Faqat inqirozli davrlar bu konlarni berkitib ketmishdir. Biz bu konlarni qaytadan ochmog'imiz mumkin. Hunarmandlar behisob. «Ish topib bersangiz qilg'aymen», deb muntazir turgan qurur-qurur<sup>1</sup> zahmatkashi bor. Xazinalarini o'zingiz ko'rdingiz. Aholisi-yu boyligining ulkanligini yana shundan bilsa bo'lurki, bizda yo'q raqamlar bularda bor. Yuz qurur – bir arb<sup>2</sup>. Yuz arbni qarab derlar. Yuz qarabni nil<sup>3</sup> derlar. Yuz nil – padam<sup>4</sup>. Birgina Dehli viloyatidan har yili davlat xazinasiga tushadigan daromad uch qurur-u oltmish to'qqiz lak-u ellik ming tangadan ortiq. Bunday viloyatlar Hindistonda ozmi? Siz shu viloyatlardan qaysi birini ma'qul ko'rsangiz, shunisini beraylik.

– Hazratim, menga G'aznini inoyat qilsangiz, marhamatingizdan umrbod minnatdor bo'lur edim.

– Yana G'azni deysiz-a! G'aznida nechog'lik tangdastlik bilan kun kechirganlarimiz esingizdan chiqdimi? Mahmud G'aznaviyning buzilgan bandini tiklaymiz deb, uddasidan chiqolmagan edik. Odam topsak, mablag' topilmas edi, mablag' topsak, yana biron narsa yetishmas edi. Bu yerda hammasi bor. Kuch-u qudrat ummonday cheksiz!

– Lekin bu ummon mendek... musofirni nom-nishon qoldirmay yutib yuborishidan qo'rqamen!

Xo'ja Kalon «mendek musofirni» deb faqat o'zi haqida gapirayotganday ko'rinsa ham, aslida u Bobur bilan kelgan barcha vatandoshlarini nazarda tutmoqda edi. «Bu ulkan mamlakatga bir urvoq ham bo'lolmaymiz, katta xalqqa aralashib yo'q bo'lib ketamiz, undan ko'ra oladigan o'ljamizni olib, shimolga tezroq qaytib ketaylik», deb yurgan beklar yolg'iz Xo'ja Kalon emas edi. Bobur shuni o'yladi-yu:

---

<sup>1</sup> Qurur – yuz lak, ya'ni o'n million.

<sup>2</sup> Arb – milliard.

<sup>3</sup> Nil – trillion.

<sup>4</sup> Padam – kvardillion.

– Maqsad nom-nishon qoldirish bo‘lsa, – dedi, – odam shu maqsadga o‘zini fido qila bilishi kerakmi, yo‘qmi? Biz o‘rgangan salqin bog‘lar, ravon ariqlar bu yerda yo‘q. Uzum yo‘q, qovun yo‘q, yax yo‘q. Yaxshi ot yo‘q. Sulton Ibrohimdek podshoning saroyida sham-u shamdon ishlatilmas ekan. Yuz-ikki yuz charog‘bon davtiylar tirik shamdon bo‘lib xizmat qilar ekanlar. Chap iliklariga sepoya bor chirog‘ni tutib, o‘ng iliklariga yog‘ solingan kaduni ko‘tarib, ulug‘lariga chirog‘ kerak bo‘lganda o‘trularida shamdonga o‘xshab turar ekanlar... Men buyurdimkim, hunarmandlarga bizning shamdonlar-u qandillarni ko‘rsatib, shundaylarini yasatsinlar. Bir oy o‘tmay saroyga yetgulik shamdon-u qandil tayyorlandi. Shamgarlik ham joriy etildi. Tok ektirdim, nasib qilsa hind uzumini ham ermiz. Bugun ko‘rib kelgan bog‘imizning o‘rni qanchalik besafo yerlar bo‘lganini ko‘rgan edingiz. O‘lmasak, ushbu yerda Samarqand-u Hirotning eng mashhur bog‘-u chorbog‘laridan ham go‘zalroq bog‘lar, ko‘shklar barpo etilganini ko‘rurmiz. Samarqand-u Hirotda inqirozga yuz tutgan madaniyatni biz endi hind madaniyatiga qo‘shib yuksaltira olsak... Shuning hammasi bizdan nom-u nishon bo‘lib, avlodlar xotirasida qolmasmi, bek?

– Hazratim, niyatlaringizning ulug‘ligiga tasanno ayturmen. Lekin Vatanimizda qilmagan nek ishlarni begona yurtda qilsak, kim buning qadriga yetur? Ne qilsangiz ham biz kelgindi fotihlarmiz. «Bular yigitlarimizni jangda o‘ldirib, kishvarimizni zo‘rlik bilan olgan», deb ta‘na qilmaslarmi? Paytini topganda qasos olmaslarmi?

Bobur og‘ir «uf» tortdi-yu:

– Ne qilay? – dedi. – Men shu orzularni Vatanimda ro‘yobga chiqaray deb ozmuncha olishdimmi?

– Sizdan oldin Hindistonni fath etgan Mahmud Gʻaznaviy katta oʻljalar olib, kerakli hunarpechalarni Gʻazniga olib ketib ishlatgan. Ana!...

– Nahotki siz mening Mahmud Gʻaznaviyga oʻxshashimni istarsiz?

– Gustohligim uchun maʼzur tuting!

– Axir biz mamlakatni talab, boyliklarini-yu hunarpechalarni olib chiqib ketadigan qaroqchilar emasmiz-ku!

– Bir sheʼringizda oʻz yerimizni qoʻyib, Hind sari yuzlanganimizni yuzi qarolik deb atagan emasmidingiz, hazratim?

– Atagan boʻlsam, endi yuzimizga tekkan qaroni yuvib tashlash harakatidamen! Agar biz ham Xisrav Dehlaviydek shu mamlakatga farzand boʻlsak, butun aql-u zakovatimizni unga baxsh etsak, aminmenki, kelajak avlodlar oldida yuzimiz yorugʻ boʻlgʻusidir!

Xoʻja Kalonbek munozara yoʻli bilan Boburga soʻzini oʻtkazolmasligini endi aniq sezdi.

– Hazratim, sizning metin irodangiz bor, – deb endi Boburni maqtab yumshatishga tirisha boshladi. – Sizning boshingizga tushgan kulfatlar boshqa odamning boshiga tushsa, bardosh berolmas edi. Lekin siz hammasiga bardosh beribgina qolmay, yana shunday ulkan ishlar qilmoqchisizki, bunga jahon tahsin oʻqigʻusidir. Yillar oʻtgan sari men sizning ulugʻ bir siymo ekanligingizni tobora aniq sezmoqdamen. Mana hozir ham sizning yoningizda xuddi ulkan togʻ choʻqqisining domonasidagi kichik bir tepachadek, oʻzimga-oʻzim ojiz koʻrinib ketdim.

Xoʻja Kalonbek ovozi hayajondan titrab, koʻzi alandanmi, oʻksinishdanmi chaqnab gapirmoqda edi. Buni koʻrgan Bobur uning koʻnglini koʻtargisi kelib, Dehlaviyning bir satrini eslatdi:

– «Asli kas az kas naboshad kam chu jumla az odamand»<sup>1</sup>.

– Lekin besh qo‘l barobar emas, hazratim... Mening ahvolim o‘zimga ma‘lum. Siz ko‘targan ulug‘ yukka yelkamni tutsam, mayib bo‘lurmen. Meni besh-olti yil tirik yursin desangiz, ruxsat bering, G‘azniga boray. Mahmud G‘aznaviydan qolgan o‘sha eski bandni tiklatib, cho‘lni obod qilay. Bu ishning butun savobini sizga bag‘ishlay.

Bobur bu so‘zlarga e‘tiroz qilmay, o‘ylanib qoldi. Xo‘ja Kalonbek ko‘zlagan maqsadiga yetkazadigan yo‘lni endi topganini sezdi-yu, shosha-pisha so‘zida davom etdi:

– Hazratim, iltimosimni qabul eting! Umrimning oxirida duoi joningizni qilib orom olay. O‘lsam, jasadimni G‘azniga qo‘ysinlar. Harna Vatanimizga yaqinroq bo‘lg‘aymen.

Bobur Xo‘ja Kalonbekning ko‘zi namlanganini ko‘rdi-yu, o‘zining Humoyunga tayinlagan bir gapi esiga tushdi: «Urushda qon kechib yuribmiz, mabodo vafot etsam, meni Kobulga eltib ko‘mgin» degan edi Bobur. Xo‘ja Kalonbek ketsa, ular yana diydor ko‘risha olarmikinlar? Shu o‘y ta‘sirida Boburning ham ko‘ngli buzilib, ovozi tovlanib eshitildi:

– Ketingizdan boshqa bek-navkarlar ergashsa... men kim bilan qolg‘aymen?

– Hamma beklar bilan o‘zim gaplashurmen, «podshoh G‘aznidagi bandni tiklash uchungina ruxsat berdilar», dermen. Hech kim menga ergashmaydigan qilib ketgaymen, bunga ishoning!

Bobur Hirotga, Tabrizga, Balxga, Andijon-u Toshkentga odamlar yuborgan, «kimda-kim bizga xayrixoh bo‘lsa, Hindistonga kelsin, ulufalar berurmiz,

---

<sup>1</sup> Aslida odam odamdan kam emas, chunki hamma ham Odam Ato farzandidir.

ne istaklari bo'lsa ado eturmiz» degan qadag'alar<sup>1</sup> yo'llagan edi. Kobuldagi dorug'alar keluvchilarning sarf-u xarajatlari uchun maxsus mablag'lar olgan edilar.

– Bo'lmasa, siz ham... qayerdagi qizilboshlar bilan shayboniyzodalardan bezgan olim-u hunarmand, bek-u navkar ko'rsangiz, bizning nomimizdan ayting, kelsinlar! – dedi u Xo'ja Kalonbekka.

– Jonim bilan ayturmen, toki mendek ketganlarning biri o'rniga yuzi kelsin!

Xo'ja Kalonbek Boburga bu gaplarni chin dildan aytganday ko'ringan edi. Ammo Hindistondan ketishga ijozat olgandan keyin Boburga o'zini ayanch ko'rsatib yalingani uchun alami keldi. U bek do'stlari oldida ichgan qasamini qoyillatib bajarganini hammaga namoyish qilgisi, Hindda qolayotganlarni kuydirib ketgisi keldi-yu, Agrada yashagan uyining devoriga bir bayt she'r yozib qoldirdi:

*Agar bayxayri salomat guzar zi Sind kunam,  
Siyoro'uy shavam, gar havoyi Hind kunam <sup>2</sup>.*

Xo'ja Kalonbekning uyiga ko'chib o'tgan Hindubek bir kun kechki payt bu she'rni yozib kelib, Boburga ko'rsatdi va baytni o'qigan odamlar hamma joyda shov-shuv gap qilib yurganini aytdi.

Bobur Xo'ja Kalonning «Hech kim menga ergashmaydigan qilib ketgaymen!» degan so'zlarini esladi-yu:

– Bu kudurat nechun? – deb hayron bo'ldi. – Nahotki, Xo'ja Kalon boshqa beklarning ham Hinddan ketishini istasa?

---

<sup>1</sup> Qadag'a – chaqiriq xat.

<sup>2</sup> Yaxshilik va salomatlik bilan Sind daryosidan o'tib olganimdan keyin agar yana Hindni havas qilsam, yuzim qaro bo'lsin.

– Bilmadim, bu yerda qolgan beklarning fidoyiligi Xo‘ja Kalonbekning alamini keltirganmi?

– Ha, o‘zi shunday fidoyi bo‘lmaganining alami bu! – dedi Bobur va qarsak chalib, munshini chaqirdi.

Munshi kelguncha o‘rnidan turib, xonayi xosning u burchagidan-bu burchagiga asabiy bir tarzda borib keldi. Bir ko‘ngli Xo‘ja Kalonning ketidan chopar yuborib, uni G‘azni hokimligidan bekor qilishga moyil edi. Lekin shuncha yillik qadrdonidan ayrilish, keyin G‘aznidagi vayron bo‘lib yotgan bandni tiklash uchun yana boshqa odam izlash tashvishi uni bu fikrdan qaytardi. Nima qilish kerak? Xo‘ja Kalonning she‘ri Hindistondan ketgisi kelib yurgan bek-u navkarlarni battar qo‘zg‘atib qo‘yishi aniq. Agar bu bayt uchun Xo‘ja Kalon jazolansa, she‘rning ta‘siri yanada oshishi aniq.

– Bu bayt devorga yozilganicha turibdimi? – so‘radi Bobur Hindubekdan.

– O‘chirtirib tashladim.

– Bekor qilibsiz, bek. Siz o‘chirganingizdan so‘ng bu bayt odamlarning xotirasiga yanada mahkamroq o‘rnashur, she‘rning ta‘sirini faqat she‘r bilan kesmoq mumkin.

Qo‘lida qalam-qog‘ozi bilan xipcha bo‘y, o‘rta yashar munshi ta‘zim qilib kirdi.

– Yozing! – buyurdi Bobur unga.

Munshi gilam ustiga cho‘kka tushib, juzdonni tizzasiga qo‘ydi, qog‘ozni kafti bilan tekislab, yozishga tayyorlandi.

Bobur badiha ohangida gapirdi:

– *Yuz shukr de, Boburki, karim-u g‘affor  
Berdi senga Sind-u Hind-u kishvari bisyor.*

«Kishvar» so‘zi vaznga tushmay saktalik berganini sezdi-da, ikkinchi satrni boshqacha qilib takrorladi:

*Berdi senga Sind-u Hind-u mulki bisyor.  
Issiqlig'iga gar senda yo'qdur toqat,  
Sovuq yuzin ko'ray desang G'azni bor.*

Mushoiraning nozik qoidalariga moslab birpasda yaratilgan bu badiha Hindubekning zavqini keltirdi. U devorga sovuq gap yozib ketgan Xo'ja Kalonbekning basharasi ham Boburga nechog'liq sovuq ko'ringanini o'zicha tasavvur etib, beixtiyor kulib yubordi. Bobur otgan o'qining nishonga tekkanini shu zavqli kulgidan sezdi-yu, yengil bir so'lish olib, munshiga buyurdi:

– Badihani uch nusxa ko'chiring. Bir nusxasini Xo'ja Kalonbekning ketidan jo'natsinlar. Hindubek, bir nusxasini siz olib, Kalonbekning baytini o'qigan bek-u navkarlarga bering. Ko'rsinlar-chi, mushoirada kim g'olib?

Bu badihani o'qigan ko'pchilik bek va mulozimlar Xo'ja Kalonbekni kulgi qilishib, «Sovuq yuzin ko'ray desang G'azni bor!» deydigan bo'lishdi. Issiqdan toqatsizlanib noliydiganlarga ham: «Sovuq yuzin ko'ray desang G'azni bor!» deb istehzo qilish rasm bo'ldi.

### 3

Panipatda og'ir yarador bo'lgan Tohir uch oygacha o'rnidan turolmay yotdi. Saroydan yuborilgan tabib uning etidagi yaralarni durust muolaja qildi-yu, lekin qovurg'a va qo'l suyaklarining mayda-mayda bo'lib singan joylarini epaqaga keltirolmadi. Singan suyaklarning og'rig'i tun-u kun tinchlik bermas edi. Tohir Agrada o'sha eski qadrdoni Mamat bilan kichik bir hovlichada turar, «endi bu yerdan o'ligim chiqsa kerak», deb o'ylar edi. Shuning ustiga Kobuldan mavlono Fazliddin Tohirning muhandis o'g'li Safarbekni boshlab kelib qoldi. Ular qurilishda birga ishlaydigan hind sangtaroshlaridan so'rab-

surishtirib, agralik bir jarrohni topib keldilar. Jarroh kambag'alparvar odam ekanini eshitgan mavlono Fazliddin jiyanini unga tanishtirar ekan:

– Sohib Bayju, – dedi. – Tohir ham aslida zahmatkash bir dehqon edi. Men buning navkar bo'lishiga qarshi edim...

– O'shda siz haq gapni aytgan ekansiz, mulla tog'a, – dedi Tohir. – Men berahmlar orasida yurib berahm bo'lib ketgan ekanmen... Bo'lmasa, yigirma yillik qadrdonim Mamatga shunchalik shafqatsizlik qilarmidim? Mana, hammasining qasosi qaytdi. Hali ham Mamat odamgarchilik qildi. Bo'lmasa otlarning oyog'i tagida qolib, majaqlanib ketardim!

Mavlono Fazliddin Mamatning bu yaxshiligini kelgan kunlari eshitgan va uni bog' qurilishiga ishga olgan edi. Mavlono buni tabibga forscha aralash urducha tilida hikoya qilib berdi-da:

– Jiyanim ham endi beklig-u navkarlikni tashlamoqchi, – dedi. – Siz-u bizdek tinch mehnat bilan kun ko'rmoqchi. Bunga yordam beraylik!

– Bilaman, siz bizning yurtimizga obodonchilik qilish uchun kelgansiz, sohib, – dedi Bayju, – Siz iltimos qilganingiz uchun jiyaningizga qo'limdan kelganicha yordam beraman!

Tabib aytganini qilib, Tohirni bir oy astoydil davoladi. Bayjuning sezgir qo'llari qaysi suyak qayeridan qanday singanini bexato aniqlab, hammasini mohirlik bilan joy-joyiga qo'yib chiqdi. Bir oy davomida Tohir uning kafti oqish-ko'kimtir, usti qora mayin panjalariga xuddi o'z qo'llariga o'rganganday o'rganib ketdi. Keyin tuzalib o'rnidan turgan kuni Bayjuning shu panjalarini qo'llariga olib, ko'ziga surdi:

– Ayting, sohib, men bu yaxshiligingizni qanday qaytaray?

– Jarrohning qo'lini shunchalik e'zozlab ko'zga surganingiz – yaxshiligimning qaytgani emasmi?



– Yo‘q, men sizdan umrbod qarzdormen!

– Kim bilsin, balki men o‘zim hozir bir qarzimni uzgandirman?

Mavlono Fazliddin ham shu yerda turgan edi. U tabibning allanimani «Aytaymi, aytmaymi?» – deb ikkilanayotganini ko‘rdi-yu:

– Sohib Bayju, siz nechun o‘zingizni qarzdor sezdingiz? – dedi.

– Buning tarixi uzoq... Faqat iltimos qilaman, boshqa hech kimga aytmangizlar.

– Iltimosingizni bajonidil qabul qildik!

– Mening bir filbon akam bor. Ibrohim Lodi zamonida akam Agradan ish topolmay Panjobga ketgan edi. O‘sha yerda qo‘shinlaringiz qancha odamlarimizni qirganini eshitpti. «Bularni Vatanimga kirgizmayman», debdi-yu, qo‘shinlaringizni adashtirib, changalzor botqoqlikka boshlabdi.

– E, bo‘ldi, bo‘ldi! – dedi Tohir filbon rahnamo La‘l Chandni eslab. – Bizning ikkita navkarimizni filiga urdirib, mayib qilib ketgan edi... Ammo men o‘shanda uning dovyurakligiga qoyil bo‘lgan edim. Bir o‘zi bir qo‘shindan qo‘rqmay olishgan edi-ya!.. Biz uni changalzor botqoqlikdan chiqolmaydi, deb o‘ylagan edik. Chiqibdimi-a? Hozir tirikmi?

– Tirik, lekin endi Agraga kelishdan qo‘rqadi... Akam o‘sha navkarlaringni mayib qilgani... yaxshi bo‘lmagan... Ehtimol, men sohib Tohirni davolaganim – o‘sha gunohimizni yuvib ketgandir?

– Siz akangiz qilgan ishni gunoh deb atamang, sohib Bayju! – e‘tiroz qildi mavlono Fazliddin. – Vatanni bunday bahodirona himoya qilish gunoh emas, balki sharafdir!

– Yaxshi so‘zlaringiz uchun rahmat, sohib! Ammo o‘sha ishi tufayli akam hamon ishsiz. O‘z Vatanda bekinib qochib yuribdi. Bola-chaqasi och-yalang‘och.

– Akangiz qurilishda ishlaganmi?  
 – Ha, fil bilan doim qurilishda ishlar edi.  
 – Bo'lmasa menga uchrasin, ish topib beray. Biz hatto harbiy fillarni mehnatga o'rgatmoqdamiz-ku!

– Akam buning hammasini eshitgan. Ibrohim Lodi bekitib yotgan oltinlarni sizlar endi qurilishga sarflayotganlaringizdan mamnun. Ammo qo'lga tushib qolishdan qo'rqadi.

– Balki akangizning Agraga kelmagani to'g'ridir. Bu yerda bek-u mulozimlar ko'p, tanib qolib, bir balo qilishlari mumkin. Akangiz a'yonlar kam boradigan chet joydagi qurilishga kelsin. Men juma kuni Dehalpurga boraman. Istasa, o'sha joyga borsin.

– Sohib, sizni podshoharingiz hurmat qilar emishlar, eng katta qurilishlarning sarkori ekansiz. Podshohdan akamning gunohini so'rab, shafokat olib berolmaysizmi? – O'shanda biz bexavotir yurar edik.

Mavlono Fazliddin o'ylanib turdi-yu:

– Sizni bunga ishontirolmayman, Bayju, – dedi. – Chunki podshohning joniga qasd qilgan odamlarni ayovsiz jazolash haqida farmon chiqarilgan. Bobur mirzo shu farmonga imzo chekkanlar. O'zlari sohibdil shoir, ma'rifatlik inson bo'lsalar ham podshohlik bilan fotihlik u kishini murakkab ziddiyatlarga duchor qilgan. O'shanda La'l Chand uni askarlari bilan adashtirib, yo'q qilib yubormoqchi bo'lgani esiga tushsa, qahr ustida qatl ettirib yuborishi mumkin.

– Bu rost, – dedi Tohir tog'asining so'zini ma'qullab,  
 – Hatto men... endi saroyga xizmatga qaytishdan cho'chiymen. Bobur mirzoni chin dildan yaxshi ko'rsam ham uning shafqatsiz muhitidan uzoqroq yurgim keladi.

– Undoq bo'lsa, endi mening akam najotni faqat sizdan kutadi, mavlono Fazliddin!

– Men unga qo'limdan kelgan yaxshilikni qilishga tayyormen. Kelgusi juma Dehalpurga kelsin. Faqat...

o'zini... Sizning nomingiz bilan atasin. Iloji bo'lsa qiyofasini sal o'zgartirsin.

- Akamning o'zi ham soch-soqol o'stirib, tanish qiyin bo'lgan qiyofaga kirgan.

- Juda soz. Balodan hazar deydilar. Fili bilan qurilishda ishlab, o'zini o'nglab olsin, so'ngra yana kengashib ko'rurimiz!

Tabib Bayju akasi La'l Chandni kelgusi haftada Dehalpurga mavlono Fazliddin oldiga yuboradigan bo'lib ketdi.

#### 4

Agrada sershamol yomg'ir fasli boshlangan saraton kunlarining birida Tohir saroyga Boburning huzuriga keldi.

Devoni xosning marmar ayvonida o'tirgan Bobur uni zo'rg'a tanidi - Tohirning soch-soqoli oqarib ketgan. Yuzidagi chandiqdan tashqari, engagi aralash bo'yniga go'yo katta bir yamoq tushgan.

- Xayriyat, tuzalib ketibsiz, - deb Bobur uning ko'nglini ko'taradigan gap izladi.

- Ha, mulla tog'am jonimga ora kirdilar...

- Endi qalay, avvalgi xizmatga qaytmoqchimisiz?

Tohirning o'ng qo'li zaif, bo'yni ham durust qayrilmaydigan bo'lib qolgan, yon-veriga qaramoqchi bo'lsa, butun gavdasini burib qarar edi.

- Men endi qo'rchilikka yaramasmen.

- Bo'lmasa ichki beklar qatorida yuravering.

- Lekin men beklilikni eplolmadim... Panipatda o'zimdanda o'tdi.

- Nechun?

Tohir jang bo'ladigan kuni azonda qanday sabuhiy qilganini, otdan qanday yiqilganini va qadrdon navkarini qanday shafqatsizlarcha urganini bir-bir aytib berdi.

– Bek bo‘ldim, deb mag‘rurlanib zolim bo‘lib ketgan ekanmen. O‘lim to‘shagida yotib o‘zimni tanidim. Menga bekklik... to‘g‘ri kelmas ekan, hazratim. O‘zim ham endi mayib odammen. Ijzat bering, mulla tog‘am tarhini chizgan bog‘da suvchimi, gulchimi bo‘lib qolay... Bir vaqtlar Quvada kichkina bog‘chamizdagi dov-daraxtlarni sug‘orishni yaxshi ko‘rar edim...

Bobur ayvonning jimjimalik marmar ustunlari ortidan suzib o‘tayotgan yomg‘ir bulutlariga tikilib og‘ir xo‘rsindi. U Tohirga yaxshilik qilmoqchi bo‘lib bekklik unvonini bergani oxir-oqibatda yomonlik bo‘lib chiqqan edi.

– Siz-ku beklarning kasofat muhitidan suvchi bo‘lib qutulmoqchisiz. Lekin men qandoq qutulgaymen?

Bu savol Tohirni shoshirib qo‘ydi.

– Siz... podshohsiz, hazratim. Beklar sizning itoatingizdalar.

– Itoatimda bo‘lib itoat etdirurlar... Bularning shunday girdoblari borki, sal bexabar qolsangiz g‘arq qilib yuborurlar... Men So‘xda sizga aytgan gaplarim esingizdami?

– Men u so‘zlaringizni hech vaqt unutmam kerak...

– O‘shanda, siz, umrbod huzuringizdan ketmasmen, degan edingiz-ku!

– Hazratim, men u vaqtda sog‘lom yigit edim... Hozir ahvolim bu...

– Saroyda mening xilvatxonamga qaraydigan durust odam yo‘q. Shu ishni siz olsangiz. Xilvatxona – Boburning yolg‘iz o‘tirib ijod qiladigan joyi ekanini Tohir bilar, Bobur hayotining eng dilkash tomoni uning ijodida ekanini sezardi. Lekin saroyning murakkab, bo‘g‘iq muhitidan ko‘ngli qolgan Tohir bog‘da, tog‘asining yonida ishlashni istardi.

– Hazratim, qulingizni ma‘zur tuting. Men bog‘da ishlaymen, deb ahd qilgan edim...

– Bog‘da ham xilvatxona bo‘lur, – dedi Bobur. – Qurib bitirilsa, unga ham siz qaragaysiz. Ma‘qulmi?

Endi «yo‘q» deyishning iloji qolmadi. Boburning so‘zini ikki qilib o‘rganmagan Tohir qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi-yu, rozilik berdi.

\* \* \*

Agra qal‘asidagi xilvatxona devoni xos bilan podshoh oshxonasining oralig‘ida edi. Bir oydan beri davom etayotgan yomg‘ir fasli hali-beri tugaydiganga o‘xshamas, ba‘zi kunlari besh-o‘n martadan jala quyib o‘tardi. Yog‘in-sochinli kunlarda Bobur ko‘proq Agrada ishlaydi. Xilvatxona – ichma-ich qurilgan uch xonadan iborat. Bu xonalarning mayda-chuyda ishlarini to‘rtta savdar qiladi, lavozimi «oftobachi» deb ataladigan Tohir ularga boshliq. Eng ichki xonada qog‘oz, qalam va Bobur tayinlagan kitoblar turadi. Berigi xonaga dasturxon solinib, Bobur xush ko‘radigan gulob, norinj sharbati, anba mevasi,<sup>1</sup> qayla<sup>2</sup>, tanbul bargi<sup>3</sup> va mag‘zi qizil fufal yong‘og‘i qo‘yilgan.

Bir kuni Tohir dasturxonaga eng toza G‘azni chog‘iridan ham bir ko‘zacha qo‘ydirgan edi, Bobur:

– Chog‘ir majlisi xirgohda bo‘ldi, bas, – dedi.

Shundan keyin Tohir xilvatxonaga ichkilikni yo‘latmaydigan bo‘ldi.

Bobur ichki uyda tuni bilan ishlasa Tohir ham tong otguncha uxlamay, uning tinchini qo‘riqlab chiqar edi. Uning tashqi xonada uyg‘oq o‘tirishini biladigan Bobur goho ichkaridan chiqib kelib, g‘alati savollar berardi:

– Badaxshonda archazorlarda nafis bir o‘t bo‘lur edi, esingizdami? Dahkat atrofida, Osmon Yaylovda

<sup>1</sup> Anba – ananasning bir turi.

<sup>2</sup> Qayla – banan.

<sup>3</sup> Tanbul bargi – apelsin bargiga o‘xshab ketadi. Fufal yong‘og‘i bilan birga og‘izga solib chaynalsa kayf beradi, tishni mustahkamlaydi.

ham mo'1 edi. Rangi havorang. Men bir daftarga yozib qo'yg'an edim... Kobulda qolganmi? Yo'q.

– Ot eydimi?

– Ha, yaxshi eydi. Bo'yi past-past, yerdan to'p-to'p bo'lib chiqur.

– Betakamikin?

– Ha, ha, betaka ham derlar, lekin asli butaka! Buttalab o'sgani uchun butaka der ekanlar. Men buning vajhi tasmiyasini<sup>1</sup> Badaxshonda eshitgan edim.

Bobur qidirgan so'zini topganidan mamnun bo'lib ichkariga kirib ketdi. U Tohir bilan birga ko'rgan joylari, birga boshdan kechirgan voqealarining mana shunaqa tafsilotlarini so'rab, aniqlab olgan kunlari Tohirning ham ko'ngli ko'tarilib yurardi. U Boburning o'z ko'rgan-kechirganlari haqida katta kitob yozayotganini eshitgan edi. Endi Tohir ham shu kitobning yozilishiga bir qadar ishtirok etayotgani uchun «harqalay, bu yerda o'tgan kunlarim zoye ketmaydiganga o'xshaydi», deb qo'yardi. Bir kun tun yarimlaganda, Bobur xilvatxonadan xomush bo'lib chiqdi-yu, hazin tovush bilan bir to'rtlik o'qib berdi:

*Ko'pdan berikim yor-u diyorum yo'qdir,  
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qdir.  
Keldim bul sori o'z ixtiyorum birla,  
Lekin borurimda ixtiyorum yo'qdir.*

Bu satrlar Tohirning sog'inch tuyg'ularini shunday qo'zg'atdiki, ko'pdan beri ko'rmagan Robiyasini qo'msab, o'pkasi to'ldi.

– Bolalar bilan qachon diydor ko'risharkinmiz-a, hazratim?

– Yo'llar hali notinch. Haram uchun xatar ko'p. Bu yoqda Rano Sango bizdan norizolarni atrofiga to'plab, kuch yig'moqda emish...

<sup>1</sup> Vajhi tasmiyasi – shunday deb atalish sababi, etimologiyasi.

«Bizdan norizolar» degan soʻzlar Tohirga mana shu qalʼa hovlisida oʻtgan kuni yuz bergan bir fojiani eslatdi. Hind ustalari, pashkol paytida yer qazib boʻlmaydi, ishni toʻxtaylik, deyishdi. Lekin sarkor bunga koʻnmadi: «Biz voyinni olti oyda qurib bitirishga soʻz berganmiz, yomgʻir fasli ikki oy davom etsa, keyin qachon ulgurgaymiz? Podsho hazratlari bizni yolgʻonchi demaslarmi? Yomgʻir pisandmas! Qaytaga salqin boʻldi! Ishlayveringlar!» Xullas, sarkor yer qazuvchilarni majbur qilib ishlata boshladi.

Muttasil yogʻib turgan yomgʻirlar yerni ivitib, hilvirlatib qoʻygan edi. Oʻtgan kuni yer qazuvchilar oʻn quloch chuqurlikdagi chohning tubida ishlayotganlarida jarday chuqur havzaning bir tomoni oʻpirilib tushdi-yu, toʻrt odamni bosib qoldi. Ularni loy aralash tuproq tagidan kavlab olgunlaricha uchtasi allaqachon jon bergan, toʻrtinchisi tirik boʻlsa ham beli sinib, mayib boʻlgan edi.

## 5

Xilvatxonadan sal narida – saroy oshxonasida ovqat pishirib yurgan Bahlul ismli oʻrta yashar bir oshpaz ham voyinning chohi tagida jon bergan yer qazuvchilarni koʻrgan edi. Bu fojia oshpazga Panipat jangida fotihlarning qilichidan halok boʻlgan yigirma yashar suyukli inisini eslatgan va qalbidagi intiqom tuygʻusini yana junbishga keltirgan edi. Ahmad choshnagir malika Baydaning kanizlaridan birini oraga qoʻyib, zaharni shu Bahlulga yetkazib bergan edi. Malika Baydaning yana bir kanizi kelib, rejani hozirgi pashkol kunlarda – Bobur biron yoqqa yurishga ketib qolmasidan oldin amalga oshirish kerakligini aytgan edi.

Toʻrt buklangan oq qogʻoz ichida ziravorga oʻxshab turgan zahar ikki misqolgina boʻlsa ham Bahlulga zoʻr

bir po'lat quroldek og'ir tuyilardi. U jangda vatanini himoya qilib jon bergan inisining o'chini shu qurol yordamida olishni va fotihlarni bu yerdan tezroq quvishni istar edi. Agar Bobur o'ldirilsa, fotihlar Hindistonda turolmay ketib qolishlariga Ahmad choshnagir Bahlulni ishontirgan edi.

Podshoh oshxonasida har bir taomni tekshirib tatib ko'radigan maxsus bakovullar bo'lar edi. Qattiq yomg'ir yog'ayotgan kuni kechqurun shu bakovullar aroq ichib, mast bo'lib qolishdi. Qozonda karundi daraxtining nordon mevasidan qo'shib tayyorlangan mazali qayla pishib turibdi. Bobur bu qaylani yaxshi ko'rishini Bahlul bilar edi. U sekin qo'yin cho'ntagiga qo'l solib, to'rt buklog'liq qog'ozni oldi. Oshxonada hech kim yo'q. Bakovullar narigi xonada mast bo'lib, ashula aytishyapti, shamol aralash yomg'ir yog'yapti. Bahlul zaharni qozonga solmadi – bakovullarning aroqqa qaylani gazak qilish odatlari bor, yeb ko'rishsa, zaharlanib, bildirib qo'yishlari mumkin. Shuning uchun oshpaz zaharni Bobur ovqat yeydigan chinni laganga yupqa lochira non ustiga sepa boshladi. Birdan shamol tashqi eshikni qarsillatib yopti. Bahlulga kimdir kelayotganday tuyildi-yu, zaharning qolganini qozon tagida yonib turgan olovga otdi. Keyin chinni lagandagi zahar sepilgan lochira ustiga tez-tez qaylani soldi.

Oradan sal vaqt o'tgach, savdar kirdi, quyon go'shtidan qilingan qovurdoqni va qayla solingan chinni laganni Bobur ovqat yeb o'tirgan xo'rakxonaga olib chiqib ketdi. Ahmad choshnagir bu zaharni ta'midan bilib bo'lmasligini, uning ta'siri asta-sekin bilinishini aytgan edi. Bahlul sir ochilguncha qo'rg'on darvozasidan chiqib ketish umidida edi.

Ammo u oshxona eshigidan chiqayotganda, shirakayf bakovullardan biriga duch keldi.

– Qani, quyon go'shtidan bizga ham qoldirdingmi?



- Qayla bor, sohib.
- Yo'q, quyon qovurdog'i kerak!
- Qovurdoq oz edi, hammasini hazratga berib yubordim. Qayla yey qoling, gazakka yaxshi.
- Yo'q! Quyon ko'p edi-ku! Nega bizga qoldirmading?
- Hammasini qovurganim yo'q edi...
- Bo'lmasa hozir bizga quyon go'shtidan qovurib ber! Tez!

Bakovulning yo'g'on gavdasi eshikni to'sib turardi.

Oshpaz orqaga qaytdi va sarosima harakatlar bilan yog' dog'lab, quyon go'shtini qovurishga tayyorlay boshladi. Yomg'irli tun saroyini chulg'ab olgan. Shu payt birdan xos navkarlar tabibga yugurib, bakovullar bir-birini chaqirib, oshxonaning ich-tashi to'polon bo'lib ketdi. Xilvatgohda o'tirgan Tohir ham xo'rakxonaga chopib keldi.

Bobur ustma-ust qayt qilib, yuzi ko'karib ketgan. U nafasi qaytib, tashqariga intildi, ammo ikki qadam qo'yguncha bo'lmay, gandaraklab yiqila boshladi. Tohir chopib borib, uni qo'ltig'idan suyab oldi. Tabib Yusufiy Boburning narigi qo'ltig'iga kirdi. Jonsarak bo'lib qolgan savdarlarga buyurdi.

- Ichkariga joy qiling!
- Ravonga! - dedi Bobur yutoqib.

Uning ko'ngli behud, boshi gir-gir aylanar, nuqul havo yetishmayotganday bo'lar edi. Boburni ravonga suyab chiqarib yotqizdilar. Tabib yurakka quvvat beradigan doridan hidlatdi.

- Sizga ne bo'ldi, hazratim? Mayni ko'p ichdingizmi? Yo ma'jun aralashdimi?

- Ovqatda bir sir bor! - dedi Bobur va yana ko'ngli aynib, chinni toz ustiga engashdi. - Oshpaz taftish qilinsin!

Shu payt qayladan yegan yana ikki mulozim Boburga o'xshab qayt qilayotgani ma'lum bo'ldi.

Bakovullar qayla pishirgan Bahlulni tutib, saroyning eng qattiqqo'l tergovchisiga topshirdilar. Tergovchi uni turli qiynoqlarga solib, so'roq qilishga kirishdi. Bobur tuni bo'yi o'lim bilan olishib chiqdi. Har qayt qilganda, yurak-bag'ri uzilib, parchalanib chiqayotganday og'rir, goho nafasi ichiga tushib ketar edi. Tabib uning tepasidan ketmay:

– Shifo topasiz, bardam bo'ling! – deb tasalli berar edi.

Tohir ham tabibga qarashib, tuni bo'yi mijja qoqmay chiqdi. U Boburning boshini tutar, ter bosgan yuzini, bo'yinlarini yelpir edi. Boburning zahar azobidan to'lg'anayotganini ko'rgan sari, o'zi ham zahar ichganday qiynalar edi. Tong payti Bobur alahsiraganday bo'lib, Humoyun bilan Mohim begimni yo'qlay boshladi.

Shimoliy chegaralar yana notinch bo'lib qolgani uchun Bobur Humoyunni o'tgan oyda Badaxshonga qaytarib yuborgan edi. Mohim begim hamon Kobulda edi.

– Humoyun mirzoga chopar yuboraylikmi? – deb so'radi Tohir.

Bobur ko'zini ochib, xiyol o'ziga kelgandek bo'ldi. Chopar Kobul va Badaxshonga yetib borguncha kamida bir oy vaqt o'tadi. Bu orada biron kor-hol bo'lsa na Humoyun, na Mohim begim yetib kelolmasliklari aniq. Bobur g'amgin bosh chayqab:

– Foydasi yo'q, – dedi.

Uning ahvoli tobora tang bo'layotganini ko'rgan Tohir:

– Hazratim, bardam bo'ling! – deb iltijo qildi. – Biz siz bilan necha o'limlardan qolganmiz! Dardga bo'y bermang, yengasiz!

– Lekin... bunday falokat... birinchi uchrashi!..

Bobur behol qo'zg'alib, yana toz ustiga engashdi, og'riq zarbidan ko'zlariga duv-duv yosh keldi. So'ng boshini yana yostiqa qo'yib, ko'zini yumib yotganda ravonga tergovchi kirdi.

Yusufiy unga:

– Qisqa soʻzlang, faqat axborot! – deb shipshidi.

Tergovchi Baydani ham soʻroq qilganini, narigi uchoviga shu badbaxt malika bosh boʻlganini, lekin tashqi dushmanlar bilan, jumladan, Rano Sangram Sinx bilan aloqasi borligini rad etganini, boshqa savollarga javob berishdan bosh tortganini aytib berdi.

– Malʼunlar!.. – dedi Bobur yotgan joyida gʻazabdan ovozi qaltirab. – Men ularga shunchalik ishonib... ilkidin taom yesam... izzat-ikrom qilsam!..

– Hazratim, bu iblislarni ming qiynoqqa solib oʻldirmoq kerak!

– Narigi uchovini... qoidaga binoan qatl ettiring! Bayda... keyin!

– Bosh ustiga! – deb tergovchi chiqib ketdi.

Qoidaga binoan, podshohning joniga qasd qilganlar eng ogʻir qiynoqlarga solib oʻldirilardi. Oshpaz Bahlulning terisi tiriklay shilinib olindi. Jallodlar Ahmad choshnagirning avval qoʻl-oyoqlarini kesib, keyin boshini tanasidan uzib, vujudini parcha-parcha qilib tashladilar. Ikki orada vositachi turgan va ustalik bilan saroyga zahar olib kirib, oshpazga bergan kanizak quturgan filning oyogʻi tagiga tashlab oʻldirildi. Malika Bayda eng qattiq hibsdan saqlanar, endi odamlar uning qanday qatl etilishini kutar edi. Tabib Yusufiy Boburning hayoti uchun ikki kecha-yu kunduz tinmay kurashdi. Tohir ham ikki kecha-yu kunduz bemorning yonidan jilmay, xizmatini qildi. Nihoyat, uchinchi kun tabib:

– Xudoga ming qatla shukur, hazratim, bir oʻlimdan qoldingiz! – dedi. – Onadan qayta tugʻilganday boʻldingiz. Endi ozgina qatiq iching. Soʻngra uxlang!

Bobur bir piyola qatiq ichgach, koʻzini yumib, yostiqa bosh qoʻydi. Lekin boshidan oʻtgan oʻlim dahshati hamon xayolidan nari ketmasdi. Uning joni shuncha vaqt qil uchida osilib turganini oʻylasa, beixtiyor vahmi kelardi. Shu qil uzilsa oʻlim deb

ataladigan zulmat qa'riga qulab tushishini ikki kun davomida muttasil his qilish unda yashash istagini kuchaytirib yuborgan edi. Hayotning bir lahzasi, bir uchquni dunyoning barcha boyliklari-yu toj-u taxtlaridan ham aziz ekanligi unga endi astoydil sezildi. Uning azobdan toliqqan vujudi hamon behol bo'lsa ham ruhida nimadir o'zgargandek va dunyo ko'ziga boshqacharoq ko'ringandek bo'lardi. Har bir kishining faqat bittagina umri bor ekan va umrning har lahzasi shu qadar shirin ekan, Boburning yoshiga yetmay o'lib ketganlarga oson tutib bo'ladimi? Ibrohim Lodi undan to'rt yosh kichik edi. Malika Bayda buni unutishi va Bobur yaxshi muomala qilgani uchungina uni kechirib, farzandi o'rnida e'zozlashi mumkinmidi? Jangda erishgan g'alabalari unga eng mushkul ishlarni ham oson ko'rsatib qo'ygani uchun bo'lsa kerakki, Bobur Ibrohim Lodining onasiga shunchalik ishongan va uning amrida bo'lgan oshpazlarni ishga olgan ekan-da! Bu oshpazlar tayyorlagan hindcha taomlarni yeyish bilan el-ulusning ko'nglini olmoqchi bo'lgani ham, uning o'z kuchiga ortiq darajada ishonganidan kelib chiqmaganmikin? Holbuki, kechagi dushmanlarni bugun darhol do'stga aylantirish osonmi? Xususan, Baydadek farzand dog'ida kuyib yurganlar yoki oshpaz Bahluldek inisining qasdini olmoqchi bo'lganlar bilan muomalada ehtiyotkorroq bo'lishi kerak emasmidi? Kobulda Mohim begim aytgan iztirobli gaplar yana uning yodiga tushdi. Begona yurtdan borgan fotihni osonlikcha kechirmasliklari, uning qilichidan paydo bo'lgan yaralar asrlar davomida bitmasligi rost bo'lsa... Bobur bu mamlakat xalqining ko'nglini olishi uchun qancha ko'p yillar kerak bo'ladi? Bunga uning umri yetarmikin? Umuman, bu o'zi erishish mumkin bo'lgan maqsadmi yoki sarob?..

Bu o'ylardan Bobur yana boshi berk ko'chaga kirib qolganday bo'ldi, kelajak ko'ziga qorong'i ko'rinib

ketdi. Faqat tanasiga asta-sekin qaytib kelayotgan hayotiy kuchlar shu zulmatni yorib o'tib kelayotgan yog'dularday iliq tuyilardi. O'sha kecha Bobur yaxshi uxladi. Ertasi kuni tabib uning tomiridan ko'proq qon olmoqchi bo'ldi.

– Zaharlangan harom qonni chiqarib yuborgaymiz, hazratim. Yana biror hafta qimirlamay yotmog'ingiz kerak.

Bobur bunga e'tiroz qildi. Busiz ham uning darmoni ketib qolgan edi. Agar tabib ko'p qon olsa, uzoq yotishi aniq. Holbuki, «Podshoh o'lim to'shagida yotgan emish!», «Umid yo'q emish!» degan ovozal tarqalgan, qulay fursat kutayotgan g'animlar jonlanib qolgan edi. Beklar ham Boburning tezroq ko'pchilikka ko'rinishini istar edilar.

Oradan yana ikki kun o'tgach, Bobur tantanali marosimlarda kiyadigan kiyimlarda devonxonaga chiqdi. Baland taxtning ikki tomonida tizilib turgan yuzdan ortiq amirlar, sarkardalar, viloyat hokimlari ta'zim bajo keltirib bo'y egdilar. Bobur taxtga shoshilmay chiqib o'tirgach, ikkita navkar malika Baydani poygaktagi eshikdan olib kirdi.

Kampir hali ham boshdan-oyoq oq kiyib, o'g'li Ibrohimga aza tutib yurar edi. Faqat qaddi avvalgidan bir oz bukchayganroq. Lekin ko'zlari Boburning yuziga tushganda, uning og'ir kasalga o'xshab sarg'ayib qolganidan qanoat hosil qilganday mamnun yiltiradi.

Eshik og'a Muhammad Do'lday malikani so'roqqa tutib, suiqasdga yana kimlar ishtirok etganini surishtira boshladi.

– Suiqasd emas, bu intiqom! – dedi malika. – Podshoingiz to'kkan qonlarning qasosi bu! Menga yordam bergan oshpaz ham, Ahmad choshnagir ham, kaniz ham botir qasoskorlar edi. Hammasi mardlarcha jon berdi. Endi navbat meniki. Men o'g'limning dog'ida

kuyib, kul boʻlganman. Endi qoʻllaringdan kelsa, kulimni koʻkka sovuringlar!

Malika saroyda hamma tushunadigan forsiy tilda gapirmoqda edi. Aʼyonlar nafaslarini ichlariga olib, yerga qarashdi. Malika bir oʻlimni boʻyniga olib kelgan, endi har bir soʻzni oʻqqa aylantirib, yoviga dadil otar, Boburning gʻazabga toʻlib, jallod chaqirishini, qurolsiz onaga qarshi barcha qurollarini ishga solishini istardi. Oʻshanda maʼnaviy gʻalaba malika tomonida boʻlar, uning dovyurakligi ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, odamlarning ehtiromini qozonar edi. Buni Bobur ham sezdi-yu, oʻzini bosib, Malikdod Koroniyga qaradi.

– Bu qanday yosumanlik! – dedi Malikdod Koroniy Baydaga. – Shunchalik oʻch olish niyatingiz bor ekan, aʼlohazratning inoyatlarini nega qabul qildingiz?

– Niyatimga yetishim uchun shunday qilishim kerak edi!

– Aʼlohazrat sizni «Moʻtabar onamizdek eʼzozlang!» deganlarida, yigʻlab minnatdorchilik bildirganingiz bizning yodimizdan chiqqan emas!

– Men u paytda nafratim zoʻridan yigʻlagan edim! Oʻgʻlimning kushandasiga ona boʻlishdan qiynalib koʻzim yoshlangan edi!

– Yo alhazar! Axir siz ham Muhammad ummatisiz, musulmasiz-ku! Oʻgʻlingiz bularga qarshi necha barobar katta kuch bilan chiqqanini bilmasmisiz? Bular magʻlub boʻlsa, oʻgʻlingiz yovlarining ming jonlaridan birini ham tirik qoʻymas edi. Siz sulton Ibrohimning qanchalik shafqatsiz boʻlganini bilar edingiz. Agar sizda insof-u imon boʻlsa, qoʻlida qilichi bilan ochiqchasiga jang qilgan sarkardaga yashiriqcha zahar bermas edingiz!

– Men ayol kishiman, qilich koʻtarib jang qilolmayman! Ana oʻsha zahar – mening qilichim edi. Fotihlar Panipatda ming-ming odamlarning oʻlimiga

sabab bo'ldi! Bu mamlakatning yana ko'p joylariga ajal urug'ini ekdi! Men kabi minglab onalar hozir motam tutib, ko'z yoshi to'kib yuribdi. Qancha-qancha kelinchaklar beva qolib, o'zlarini erlarining jasadlari bilan birga olovda yondiryapti! Men bergan zahar ana o'sha ajalning urug'idan tayyorlangan edi! Unga beva-bechoralarning achchiq ko'z yoshlari ham qo'shilgan edi!

Malikaning so'nggi so'zlari fotih beklarga ham tegib ketdi. Sersoqol bir bek o'rnidan sakrab turib, Boburga ta'zim bilan murojaat qildi:

– Hazratim, bu yalmog'izning tilini og'zidan sug'urib olmoq kerak! Shunday mal'unligi ustiga yana buncha gap!

– Mayli, meni qiymalab tashlasinlar! – deb qichqirdi Bayda. – Men qo'rqmayman!

Bobur Baydani beklar istagandek qiynoqlarga solib o'ldirtirsa, el-ulus nima deyishini o'ylar ekan, «lop» etib Hirotdagi Xadicha begim esiga tushdi. Makkorlikda u ham Baydadan qolishmas edi, nevarasi Mo'min mirzoning o'limiga sabab bo'lgani ko'pchilikka ma'lum edi.

Shunga qaramay, Shayboniyxon uni Mansur baxshining ixtiyoriga topshirib, dahshatli qiynoqlarga solgani juda ko'p odamlarning nafratini keltirgan edi. Boburning o'zi bundan bir haftagina oldin xilvatxonada xotira yozib o'tirganda, Shayboniyxonning bu ishini jirkanib qalamga olgan edi. «...Besh kunlik o'tar dunyoda Shayboniyxon mundoq ablahona ishlari bilan yomon ot qozondi», – degan satrlarni o'z umr kitobiga bitgan Bobur endi manna bu quolsiz onaga qanday chora ko'rish kerak? Qanday qilsa, odamlarning nafratiga emas, hurmatiga sazovor bo'ladi?

Beklar hamon Baydaning o'ldirilishini talab qilmoqda edilar:

– Bu yalmog‘izni quturgan filning oyog‘i tagiga tashlab qatl ettirmoq kerak!

– Yoki oyoq-qo‘lini chirmab bog‘lab, baland minora ustiga yotqizib qo‘ymoq darkor – go‘shkini quzgunlar yeb, ko‘zlarini cho‘qib ketsin!

Malikaga zimdan tikilib turgan Bobur so‘nggi takliflardan Baydaning rangi o‘chib, yuzi ko‘kimtir tusga kirganini ko‘rdi. Shunda Muhammad Do‘ldayning ishorasi bilan beklar jim bo‘ldilar. Bobur malika tushunadigan forsiy tilda:

– Janob beklar taklif qilgan jazolar barchasi asosli, – dedi. – Biroq xiyonatchi malikaga bularning hammasidan ham og‘irroq bir jazo bor. Bu xonimning gapiga qaraganda, hamma yetim-u yesirlar uchun joni achir emish, zaharni o‘shalarning ko‘z yoshlaridan tayyorlagan emish! Biroq buning o‘g‘li Ibrohim Lodi el-ulusga ozmuncha zulm o‘tkazganmi? Ozmuncha odamni yetim-u yesir qilganmi? Ibrohim sababchi bo‘lgan ichki urushlarda har yili qancha odam halok bo‘lgan edi, janob Koroniy? Siz bilsangiz kerak?

– Hazratim, menda hisoboti bor: so‘nggi uch yil davomida sulton Ibrohim boshlagan ichki urushlarda bizdan yuz yigirma ming odam halok bo‘lmishdir.

– Uch yilda bir yuz-u yigirma ming! – xitob qildi Bobur. – Ibrohim Lodi esa o‘n yildan ortiq taxtda o‘ltirgan! Hindistonda odam ko‘p. Yuz mingi ichki urushda halok bo‘lsa, Ibrohim yana yuz mingini pulga yollagan. Agar Ibrohimning onasi bo‘lmish bu xonim o‘lgan navkarlarga-yu ularning yetim-yesirlariga astoydil jon kuydirsa, nechun yuz minglab odamlarning behuda o‘lib ketishlariga yo‘l qo‘ygan? Nechun o‘g‘lini bunday nojo‘ya qirg‘inlardan qaytarmagan?!

– Men faqat ona edim, podshoh o‘g‘linga amr-farmon berolmas edim! – deb malika Bayda endi o‘zini himoya qila boshladi.

– Nojo‘ya ichki qirg‘inlarni to‘xtatishga amr-farmon bermoq uchun mana biz bel bog‘ladik! – dedi Bobur.



– Tangridan umidimiz borki, bu ulug‘ mamlakat endi yagona markaziy davlat atrofiga jiplashgusidir. Biz Hindni obod-u qudratli qilmoq orzusidamiz. Bizga hamkor-u hamnafas hind beklari, fuzalolari, hunarpeshalari ko‘p. Bizni zaharlab o‘ldirmoqchi bo‘lgan bu makkor xonim uchun eng og‘ir jazo shuki, biz, mana, tirikmiz! Bu xonimning o‘zi-yu o‘g‘li qilolmagan ulkan ishlarni biz qilmoqdamiz!

Malikdod Koroniy birdan yengil tortib:

– Hazratim lutf qildilar! – dedi.

– Bu malika, – deb davom etdi Bobur, – shu daraja beva-bechoraga jonkuyar bo‘lsa... Abdukarimbek!

Baydaga yaqin bir joyda o‘tirgan shig‘ovul sakrab o‘rnidan turdi. Bobur unga buyurdi:

– Bu malikaning barcha mol-u dunyosini musodara qilib, Jamna bo‘yida bir buq‘ayi xayr<sup>1</sup> qurdiring. Barcha xizmatkorlari o‘sha buq‘ada xizmat qilsin, malikaning butun boyligi, mol-u dunyosini yetim-yesirga xayr-ehson qilib ulashsinlar.

– Bosh ustiga! – deb Abdukarim bu farmonni ta‘zim bilan qabul qildi.

– Malikani to umri yetgunicha tirik saqlash ham sizga topshirilur, janob Abdukarimbek!

– Tirik?! – hayron bo‘lib so‘radi shig‘ovul.

Boshqa a‘yonlar ham taajjublanayotganini ko‘rgan Bobur ovozini ko‘taribroq gapirdi:

– Malika bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko‘rsin. Yomonlikka yaxshilik qilish mard kishining qo‘lidan kelishiga amin bo‘lsin. Agar malikada vijdon bo‘lsa, o‘g‘li qilmay ketgan ishlarni biz qilganimizni ko‘rib, vijdoni azoblansin. Agar vijdoni bo‘lmasa, ichida faqat baxillik chayonlari bo‘lsa, bu chayonlar o‘zini chaqib yotaversin. Malikaga bundan o‘zga jazo munosib emasdir!

---

<sup>1</sup> Buq‘ayi xayr – xayr-ehson uyi.

Bek va a'yonlarnig pichir-pichirlari orasidan allakimning:

– Hazratim tantilik qildilar! – degan quvonchli xitobi eshitildi.

O'z o'limini ham o'tkir bir qurolga aylantirmoqchi bo'lib kelgan malika Bayda endi bu qurolidan ayrilganini sezdi. Shu paytgacha u ajali yetganiga shubha qilmas edi. Endi birdan yana yashash umidi paydo bo'ldi. Malikaning o'lim sovug'idan muzlagan qalbiga hayotning iliq nafasi tegdi-yu, ko'nglini bo'shashtirib yubordi.

Malika yuzini qo'llari bilan to'sib, yelkalari silkina-silkina yig'lay boshladi.

## SEKRI

### QAYTA KO‘Z OCHGAN BULOQ

#### 1

Boburning maxsus taklifi bilan Hirotdan Agraga kelayotgan mavlono Xondamir, shoir Shihob Muammiy va mudarris Ibrohim Qonuniy uch oyga yaqin yo‘l yurdilar.

Badvahima Xaybar dovonidan o‘tib, sersuv Sind daryosidan kechib, changalzor o‘rmonlarni oralab borar ekanlar, mavlono Xondamir olamning naqadar ulkanligini endi birinchi marta astoydil his qildi. Haftalar, oylar davomida otliq safar qilib oxiriga yetib bo‘lmaydigan bag‘ri keng o‘lkalar hammasi endi yaxlit bir davlat bo‘lib birlashganligi, Balxdan Kobulgacha, undan Laxo‘r va Dehligacha hamma joyda Boburning muhri bosilgan farmonini beto‘xtov ado etishlaridan sezilar edi. Bu farmonga muvofiq Xuroson va Movarounnahrda Bobur taklifi bilan kelayotgan ilm-u san‘at ahlini, hunarpehalarni barcha viloyat hokimlari, barcha qo‘riqchi askarlar va bekat nazoratchilari qo‘shni davlat elchilariga ko‘rsatiladigan izzat-ikrom bilan kutib olib, kuzatib qo‘yishlari kerak edi. Yo‘llarda hali qaroqchilar tugatilmagan, tartib o‘rnatilmagan notinch shahar va qishloqlar bor edi. Xondamir va uning hamrohlarini bunday joylardan «badraqa» deb ataladigan ikki yuz-uch yuz kishilik qo‘riqchi askarlar o‘tkazib qo‘yishardi.

Karvonsaroylarda ham ularni «podshohning xos mehmonlari» deyishib, eng yaxshi xonalarga joylashtirishar, qo‘llaridagi qog‘ozlariga binoan kundalik taomlari uchun bepul guruch, go‘sht, yog‘

berishar, tag'in mayda xarajatlari uchun maxsus ulufa ham to'lashardi. Charchagan ot-ulovlarini almashtirishlari kerak bo'lib qolsa, yomchilar boquvdagi ot-ulovlaridan ularga birinchi navbatda berishar edi. Kobuldan Dehligacha bo'lgan minglab chaqirim yo'l bo'yidagi karvonsaroylar va yomlar Boburning harakatlari bilan shunchalik obod va shunchalik yaxshi ishlab turar edi.

Xondamir yo'llarda, bekatlarda Hindistonga borib kelayotgan elchilar, sayyohlar va savdogarlarni ko'p uchratardi. Bultur Agradan ellik chaqirimcha g'arbdagi Sekri degan joyda Bobur Rano Sango bilan urushib, Panipatdagidan ham ulkanroq g'alabaga erishgandan keyin uni astoydil tan olib, elchi yubora boshlagan podshohlar ko'payib qolgan edi. Xondamir Laxo'rda uchratgan qizilboshlarning elchisi Shoh Taxmasi I<sup>1</sup> nomidan g'alati sovg'alar olib bormoqda edilar. Bu sovg'alar orasida oq tuyaning zar uqali kajavasida parvarishlab olib ketilayotgan ikkita go'zal cherkas qizi ham bor edi. Shoh Taxmasi bu qizlarni Boburning haramiga atab yuborgan edi.

Xondamir Dehlidan shimolroqdagi bir bekatda samarqandlik va toshkentlik elchilarni ham uchratdi. Sekridagi g'alabaning shuhrati atrof mamlakatlarga yoyilganidan keyin Bobur Hindistonda tuzgan yangi davlatni uning ashaddiy dushmanlari bo'lgan shayboniyzodalar ham tan olgan edilar. Hozir Samarqand taxtida o'ltirgan Ko'chkinchixonning elchisi Boburga Samarqandning soyaki mayizlaridan, Konibodomning subhoni o'riklaridan, Buxoroning o'tkir maylaridan, Movarounnahrning boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga sovg'a-salom yuklab, yoniga ikki yuzta yaxshi otni ham tortiq qilib qo'shib keltirgan edi. Bobur bu elchini o'zining Jamna bo'yida qurdirgan

---

<sup>1</sup> Taxmasi I – Shoh Ismoilning o'g'li. 1524-yilda Shoh Ismoil vafot etgach, Taxmasi uning o'rniga shoh bo'ladi.

yangi Hasht Bihisht bog'ida xonlar o'tiradigan oq kigiz ustiga o'tqazib, kamoli ehtirom bilan qabul qilgan edi. Boburning qabulidan va sovg'a-salomlaridan mamnun bo'lib qaytayotgan xon elchisi Xondamirga maqtandi:

– E, mavlono, biz Hindistonda ko'rgan xirmon-xirmon oltinlarni hali hech kim ko'rmagandir. Bobur mirzo quyma oltindan qilingan taxtda o'tiribdir. Taxtning pastiga katta gilam to'shalgan ekan. Viloyat hokimlari har yili beradigan oltinlarini shu gilamning ustiga keltirib to'kdilar. Birpasda oltindan katta xirmon ko'tarildi.

Bobur shayboniyzodalarning oltinga suq odamlar ekanini bilgani uchun elchining ko'zi oldida ataylab shunday xirmon ko'targanini Xondamir ich-ichidan sezib kuldi:

– Janob elchi bu xirmondan kapsan olmadilarmi?

– Podshoh bizga qimmatbaho sarupolar kiydirdi. Gilam ustidagi oltindan hazrat Ko'chkinchixonga atab sovg'a berildi. Oltin tangalarni sanab ham o'ltirmadilar. Ikki yuz ellik misqolni bir kumush tosh bilan tortib berdilar-qo'ydilar.

– Ikki orada biron shartnoma tuzildimi?

– Ha, bemalol bordi-keldi qiladigan bo'ldik. Savdosotiq tiklandi. Aloqalar ilgarigidan yaxshiroq ravnaq topg'usidir. Biz bulardan ipak, ziravor olurmiz. Bularga ho'l-u quruq mevalar, ot-ulovlar soturmiz... Yo'li uzoq bo'lsa ham korvonlarimiz ishtiyoq bilan kelib ketadi. Chunki Bobur mirzo butun qalamravida tamg'a<sup>1</sup> solig'ini bekor qilmishlar. O'zbek, turkman, tojik, hind, arab, ajam, fors – qo'yingki, hamma bani bashar<sup>2</sup> bu og'ir soliqdan xalos bo'lib, daromadlari oshibdi. Hunarmand-u savdogarlar ham shunisidan juda mamnun. Faqat Bobur podshoning bir amri bizga ma'qul kelmadi.

<sup>1</sup> Tamg'a – qo'shimcha daromad solig'i.

<sup>2</sup> Bani bashar – odam farzandi.

– Qaysi amri? – qiziqib so‘radi Xondamir.

– Butun mamlakatida may ichish man etilmishdir.

Bobur mirzoning o‘zi ham «minba‘d ichmaymen», deb butun el oldida tavba qilibdirlar. Bazmlari ichkiliksiz... muzdakkina! Ko‘chkinchixonning elchisini ko‘ngilsizlantirgan bu yangilik Xondamirning ruhini ko‘tardi.

Husayn Boyqaroni va uning o‘g‘illarini ichkilik balosi qay darajada xarob qilgani hali mavlononing esidan chiqqan emas edi. Bundan to‘qqiz yilcha burun Bobur Hirotga ikkinchi marta borganda Xondamir uning ham mayxo‘rlikka ruju qila boshlaganini ko‘rgan, «Nahotki, bu nodir siymo ham boshqa ko‘p Temuriylar singari iste‘dodini ichkilikka boy bersa!» deb tashvishlangan edi. Elchining hikoyasi uning mana shu tashvishini tarqatib yubordi. Xondamir bu uzoq va mashaqqatli safarga Boburni orqa qilib chiqqan edi. Yoshi ellikdan oshayotgan olim bu uzoq yurtlardan Hirotga sog‘-salomat qayta oladimi, yo‘qmi, hali o‘zi uchun qorong‘i edi. U Bobur tufayli mana shu qorong‘ilikni bo‘yniga olib kelmoqda edi. Endi yo‘llarda Boburning irodasi va aql-zakovatidan dalolat beradigan nimaiki uchra-sa, hammasi mavlononing qalbidagi mash‘um qorong‘ilikni quvayotganday bo‘lar va yorug‘ bir istiqbolga ishonch uyg‘otar edi.

Xondamir Agraga kelib kirkanda, daryo bo‘yiga qurilgan Hasht Bihisht va Zarafshon bog‘larini, marmarlariga chiroyli gullar solib ishlangan tosh imoratlarni, tomlari maysalar bilan bezangan tillakori tolorldarni<sup>1</sup>, chaman-chaman gullari ko‘zni qamashtiradigan gulzorlarni ko‘rdi. Bu ulug‘vor go‘zalliklar mavlononing kela-kelguncha ko‘rgan va eshitganlariga qo‘shildi-yu, u Boburni avvalgidan boshqacha favqulodda qudratli bir qiyofaga kiritib tasavvur eta boshladi...

---

<sup>1</sup> Tolor – shiypon.

\* \* \*

Lekin Bobur so'nggi yillarda ko'p kasal bo'lib, juda ozib ketgan, jussasi xiyla kichrayib qolgan edi. Xondamir uning o'zini qanchalik oldirib qo'yganini Sekri tog'iga sayrga chiqqanlarida oftob yorug'ida juda aniq ko'rdi. Bobur Sekri tog'ining mo'jazligi va tekis joyga tushganligi O'shdagi Buratog'ni eslatishi haqida gapirar, tog' etagidagi ko'l ichiga qurilayotgan toshsupani qo'li bilan ko'rsatar, pastda qulf urib o'sgan yam-yashil bog' va daraxtlar orasidan ko'rinib turgan yangi imoratlar qanday barpo bo'lganini hikoya qilardi. Xondamir esa uning suyagi bo'rtib qolgan ozg'in yuziga, ko'z atroflari va peshonasidagi qavat-qavat ajinlariga, uyqusizlikdan ichiga botib ketgan qovoqlariga qarab, ich-ichidan unga kuyunar edi.

Tog'dan ko'l tomonga tushib borayotganlarida Bobur Xondamirning bu kuyunishini sezganday bo'lib:

- Mening taqdirim g'alati, mavlono, - dedi. - Atrofimni obod qilganim sari o'zim so'lib bormoqdaman.

- Unchalik emas-u... harqalay, o'zingizga ham ko'proq g'amxo'rlik qilishingiz zarurmikin?

- Zarurlikka zarur. Lekin mamlakat qanchalik ulkan bo'lsa, uni idora etish shunchalik qiyinlashar ekan. Men zo'r bir davlat tuzish maqsadini zimmamga olganimda buning qanchalik mushkul ekanini tasavvur qilmagan ekanmen. Tun-u kun mehnat, tashvish, o't, olov... Xuddi harakatdagi vulqonlar orasiga tushib qolgandekmen. Ko'zlagan maqsadim amalga oshguncha umrim yetgaymi, yo'qmi, bilmaymen.

- Niyatni butun qilmoq kerak, hazratim. Siz hali yigit yoshidasiz, alhol qirq olti yoshdasiz.

- Ammo Hindga kelganimdan beri har yili besh-o'n yillik umrim sarf bo'lgandek tuyilur. Isitma, uyqusizlik...

Xondamir Boburning Hindistonga kelib tuzgan yangi devonini bugun ertalab o'qigan edi. Shu devondagi bir ruboiy hozir uning esiga tushdi:

*Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,  
Ko'zdin uchadur uyqu chu oqshom bo'ladur.  
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,  
Borg'on sari bu ortadur, ul kam bo'ladur.*

Boburning uyqusiz tunlardan kirtaygan ko'zlari sal shamol tegsa yoshlanadigan bo'lib qolgan edi.

– Tabiblar uyqusizlikning davosini bilar edilar-ku?

– Hirotlik xos tabibimiz Yusufiy muolaja qilib ko'rdi. Bo'lmadi. «Sizga orom kerak» deydir. «Davlat tashvishlarini unuting», deydir. «Kechalari she'r yozmang», deydir. Ammo... davlat tepasida o'ltirib, uning tashvishini qanday unutish mumkin? Faqat she'r yozganda, ijod qilganda bu tashvish xayolimdan ko'tariladir. Lekin Agrada bo'lsam ijodga ham fursat topolmasmen. Kechasi ham, kunduzi ham davlat tashvishi... Bezor bo'lib, mana shu Sekriga chiqib keldim. Ijod uchun bu yer tinchroq... Anchadan beri masnaviy yozmoqdamen. Sanasam, bir kecha-kunduzda ellik bayt masnaviy bitibmen.

Bobur xastaligi ustiga ko'p ishlab, o'zini juda toliqtirib qo'rganini, uyqusizlikning bir sababi shu ekanini, tabib kechalari she'r yozishni man qilishi to'g'riligini Xondamir sezib borardi-yu, lekin buni aytishga andisha qilardi. Tabiatan orom nimaligini bilmaydigan Bobur o'zini ayamay ishlab o'rganib qolgan edi, u bir kunda shuncha she'r yozganidan mamnun bo'lib yurganda uni bu mamnuniyatdan ham mahrum qiladigan nasihat gap aytish mavlonoga o'rinsiz tuyildi.

– Ishqilib, Xudo sizga quvvat bersin, – deb qo'ya qoldi.



Bobur mavzuni yangilagisi kelib:

– Mavlono, «Habib us-siyar»ni<sup>1</sup> necha yil yozgansiz?  
– dedi.

– O‘n bir yil. Lekin hali xatm qilgan emasmen. Xotirjamlik bo‘lganda Hirotda xatm qilmoqchi edim. Lekin yigirma yildan beri sunniyparastlar bilan shiaparastlar Hirotni bir-birlaridan tortib olib, goh o‘tga urdilar, goh suvga...

– Ho‘ o‘shanda... Unsiyaning minorasida turib so‘zlashganimizda «Hirotning tole quyoshi botib ketmasmikin?» – deb iztirob chekkan edingiz. Shu iztiroblar bari o‘rinli ekan-da.

– Hirotda tole ketganda Samarqand bizga quchoq ochib tursa ekan! Shia-sunniy adovati Movarounnahr bilan Xuroson-u Eronning madaniy aloqalarini uzib tashladi. Bu aloqalardan qancha avlodlar bahra olgan edi, qancha iste‘dodlar kamol topgan edi. Johil sultonlar Movarounnahrni biqiq muhitga solib qo‘yib, xurofot bilan bid‘atga yem qilmoqdalar. Samarqanddan kelgan bir olim yig‘laguday bo‘lib aytib berdi. Obirahmat bo‘yidagi uch oshiyonlik Ulug‘bek rasadxonasi vayron bo‘lmishdir. Shahar hokimining parvoyiga kelmas emish. Johillar nurab yotgan rasadxonaning g‘ishtlarini olib ketib, o‘z hovlilariga ishlatmoqda emishlar.

– Biz o‘zga yurtga kelib imoratlar qurganda ular o‘z yurtimizdagi obidalarni buzmoqdalar! Charxning bundan achchiq kinoyasi bo‘lurmi, mavlono? Shuni o‘ylasam, o‘z yerimizni qo‘yib, Hindga ko‘ngil berganim menga xuddi oqibatsizlikdek ko‘rinadir!

– Biroq falakning gardishi shuni taqozo qilsa, odam iloj topolmas ekan-da. Mana, men ham sizdan ibrat

---

<sup>1</sup> «Habib us-siyar» – «Sevimli do‘stning tarjimai holi» demakdir. Xondamir o‘zining bu katta asarida Arab, Eron, O‘rta Osiyo, Xuroson tarixining olam paydo bo‘lganidan to XVI asrgacha o‘tgan eng muhim davrlari haqida so‘z yuritadi.

olib, Hindga keldim-ku! Muarrix bo'lganligim uchun tarixiy zarurat bizdan zo'r bo'lishini ko'p sezmişmen.

Bobur Xondamirning so'nggi gapiga qiziqib, otini uning otiga yaqin yurgiza boshladi.

– Darhaqiqat, tarix alohida shaxslar irodasiga bo'ysunmas ekan, – dedi Bobur. – Oyog'ingiz tagidagi tog' pastga qarab ko'chsa, siz yuksakka qanchalik intilmang, tog' ko'chkisi bilan birga pastga qulab ketar ekansiz. Endi o'ylab ko'rsam, Movarounnahrda ko'chkilar meni xuddi shu ko'ygga solgan ekan. Biroq siz qadam qo'yan tog' ichdan ko'tarilib o'sib borsa, ko'zlagan yuksakligingizga qanday ko'tarilganingizni o'zingiz sezmay qolur ekansiz. Hindiston menga ichdan ko'tarilib o'sib boruvchi tog'dek tuyiladi, mavlono. Shuning uchun Samarqand-u Andijonda qilolmagan ishlarimni bu yerda qilish umididamen!

– Mening nazarimda ham endigi yuksalish asri Hindga ko'chganga o'xshaydir. Jaholat quvgan juda ko'p ilm-u san'at ahli sizdan panoh istab Hindga kelishlari bejiz emasdir. Chunki falakning gardishi o'zgardi. Axir bir vaqtlar Xuroson-u Movarounnahr ham ichdan ko'tarilib o'sib boruvchi tog'dek yuksalgan emasmidi? Xorazmda – Beruniy, Buxoroda – Ibn Sino, Tusda – Firdavsiy, Bolasug'unda – Yusuf Xos Hojib – bular hammasi bir-biriga asrdosh. Shuncha zo'r siymolar chiqqan asr – bizning ulug' bir yuksalish asrimiz edi. Chingizxonning ko'chmanchi o'rdalari bosib keldi-yu, madaniy taraqqiyotimiz iplarini bir necha asrga uzib tashladi. Ulug'bek davrida Samarqandda, Navoiy davrida Hirotda juda ko'p madaniy daholar yana uyg'ondi. Yangi yuksalishlar asri boshlandi. Lekin kajraftor falak buni ham bizga ko'p ko'rди! Yana chingiziy sultonlar madaniy taraqqiyot iplarini uzib, chalkashtirib yubordilar... Faqir Hirotda topolmay yurgan kalavaning uchini shu yerda topgandek yengil tortmoqdamen. Musofirlik juda og'ir bo'lsa ham,

lekin bashariyat yashab turgan shu keng olamda yangi daholari uygʻongan, ilm-u sanʼatga astoydil yoʻl ochilgan Hindning borligi qalblarga quvvat beradir... Men endi «Habib us-siyar»ning soʻnggi tahririni shu yerda, qanotingiz ostida tugallash umididamen.

– Bajonidil!.. Bizdan neki koʻmak zarur boʻlsa, tortinmay ayting.

– Faqir Hazrat Mir Alisherning kutubxonalarida koʻp yil ishladim. Husayn Boyqaro hazratlarining kutubxonalaridagi nodir qoʻlyozmalardan ham koʻp foydalandim... Endi... bu kutubxonalar Hirotda qoldi.

Xondamir Boburning ham ellik kishi ishlaydigan ulkan kutubxonasi borligini bilar, Hirotdan topilmaydigan nodir manbalar bu yerdan topilishi mumkinligiga ishonar edi. Biroq podshohning xos kutubxonasiga ancha-muncha odam yoʻlay olmaydi. Xondamir shuni oʻylab, gapining davomini aytishga iymandi.

– Siz bizni deb shuncha joydan kelibsiz-u, biz kutubxonamizni sizdan ayagaymizmi, mavlono? – dedi Bobur uning iymonish sababini sezib. – Abdulla kitobdorga buyurgaymen, sizga neki asar zarur boʻlsa topib bergay. Kutubxonada hindistoniy kitoblar ham koʻp. Abdulla kitobdorning ixtiyorida sanskritni yaxshi biladigan tarjimon olimlar bor. Shulardan bir-ikkitasini sizning ixtiyoringizga berurmen, neki xizmatigiz boʻlsa ado eturlar.

– Toabad minnatdormen, hazratim! Gustohlik sanalmasa, yana bir erkaligim bor...

– Marhamat, mavlono.

– Hirotda oʻzingiz yozgan sarguzashtlaringizdan parcha oʻqib bergan edingiz. Meni maftun etgan edi. Agar shu asaringizning tayyor qismlari boʻlsa, men uchun... eng aziz, eng nodir manba boʻlur edi. Chunki siz boshdan kechirib, tadqiq etgan tarixiy voqealarni boshqa hech kim shunday yaxshi tadqiq etgan emas...

Bobur otining chimirilgan quloqlariga tikilib bir oz jim bordi. U ikki yildan beri «Boburnoma»ni boshidan qaytib ko'chirib, yaxlit bir asar holiga keltirmoqda edi. Bultur yoz issiqlari tugab, yomg'ir fasli boshlanganda juda qattiq shamol ko'tarilgan. Bobur chodirda ishlab o'ttirganda yomg'ir aralash kelgan dovul uning chodirini yiqitib, qo'lyozmalarning o'nlab varaqlarini uchirib ketgan edi. Butun-butun boblarni yomg'irdovul halok qilgan edi. Ularni tiklash uchun haligacha yaxlit bir vaqt topilmas edi. Qo'lyozmani shu ahvolda Xondamirga bersa to'g'ri bo'larmikin?

– Men o'ylab ko'ray, mavlono.

Bu orada ular Sekri tog'ining etagidagi buloqqa yaqinlashdilar. Atrofi orasta qilib qo'yilgan suvi muzday buloq Boburning yaxshi ko'rgan joylaridan biri edi. Shu yerda Xondamir ikkovlari otdan tushdilar.

Tiniq mavjlarga toza qumlar qo'shilib qaynab chiqayotgan buloq sokin gulzorlarni oralab, shildirab oqmoqda edi.

– Atrof shunday sokin, – dedi Xondamir. – Ko'l bo'yida qurilishlar... Bundan ikki yil burun shu Sekrida Rano Sango bilan dahshatli janglar bo'lganini tasavvur etish mushkul.

Mana shu atroflarda bo'lib o'tgan qirg'inning eng tahlikali damlari Boburning tasavvurida qaytadan gavdalandi. O'shanda u naq o'limni bo'yniga olib qo'ygani edi. Zahar asorati hali ketmagan. Bobur asta-sekin darmonga kirib, sog'lig'ini tiklayotgan kunlarda navbatdagi hayot-mamot kurashi boshlandi. Bu gal eng jangovar rajput qo'shinlarining sarkardasi Rano Sangram Sing to'qson ming qo'shin to'plab, Boburga qarshi jangga otlandi. Holbuk, Bobur Kobulda ekanida Rano Sangram bir necha marta elchilar yuborib, uni Hindistonga taklif qilgan va Ibrohim Lodiga qarshi kurashga chorlagan edi. Rano Sangram o'g'li Bikramaditni oraga qo'yib tuzgan shartnomada

«agar Bobur hazratlari bizni Ibrohim Lodi zulmidan xalos qilsalar, uni oliy hukmdorimiz deb tan olurmiz» deyilgan joyi ham bor edi.

Ehtimol, u paytda Rano Sangram Boburni «Hindiston issiqlariga bardosh berolmas, oladiganini olib qaytib ketsa, mamlakat o'zimizga qolar», deb o'ylagandir. Ammo Bobur Hindistonda mahkam o'rnashib, ikki yildan buyon katta qurilishlar qilayotgani va ulkan bog'lar, toshhovuzlar, qasrlar bunyod etayotgani Rano Sangramning avvalgi umidini puchga chiqardi. Surishtirib qarasa, Boburning qo'shini hali ham o'n besh mingdan ortiq emas. Rano Sangram esa barcha rajput roa va ranolari bilan til biriktirib, bundan olti barobar ortiq qo'shin to'pladi. Yana Ibrohim Lodining ukasi Mahmud Lodi ham yigirma ming suvoriy bilan unga yordamga keldi. Rano Sangram mingdan ortiq jangovar filni oldinga chiqarib, yo'lida uchragan to'siqlarni parchalab, yanchib, Bobur tomonga bostirib kela boshladi. Ichkarida fitna, xiyonat. Bobur laxo'rlik Olamxonni ikki ming qo'shin bilan Gvalior himoyasiga yuborgan edi, u odam yo'lini bexatar tomonga burib, askari bilan Panjobga qochdi. Hasanson degan yana bir afg'on sarkardasi olti yuz navkari bilan Bobur qarorgohidan yashiriqcha chiqib, tunda dushmanga borib qo'shildi.

Shuning ustiga Muhammad Sharif degan munajjim:

«Mirrix g'arb tomonidadir, osmondagi yulduzlar bizning mag'lubiyatimizdan darak bermoqda», deb ovoza tarqatdi. Bek-u navkarlarni vahima bosganini sezgan Bobur Sekri ko'li yaqinidagi qarorgohga besh yuzdan ortiq odamlarini yig'di.

Doshqozonlarda palov pishmoqda. Dasturxonlarga noz-ne'matlar, oltin-kumush surohiylar qo'yilgan. Soqiylar xumlarda kuch yig'ib yotgan maylardan ko'zachalarini to'ldirib olishmoqda.

Ulardan biri ikkinchisiga shivirlab deydi:

– Ertaga yana qirg‘in urush bo‘larmish. Shunday paytda ichkulik bazmi ko‘ngillariga qanday sig‘arkin?

Ikkinchi soqiy e‘tiroz qiladi:

– Ichkulik odamni botir qilgay, g‘am-g‘ussani unutdirgay! Xumda xosiyat ko‘p.

Ba‘zi beklar ham: «Jangchilarning kayfiyatini may bilan ko‘tarmoq kerak!» deb, bazmning tezroq boshlanishini sabrsizlik bilan kutmoqda edilar. Hatto shahzodalardan Humoyun bilan Askariy ham xatarli urush oldidan to‘yib kayf qilish umidida edilar. Bobur o‘g‘illarining otadan ibrat olib allaqachon may ichishga o‘tganlarini hozir yana bir og‘rinib his qildi-yu, ko‘pdan beri ko‘ngliga tukkan niyatini shu qirg‘inbarot arafasida amalga oshirmasa bo‘lmasligini o‘yladi.

U savdarlarga buyurib ziyofat bo‘ladigan joydan nariroqqa kattagina chuqur qazdirdi. Chuqur yaqiniga sandiqday-sandiqday ikkita xarsangtoshni yumalatib keltirib o‘rnattirdi. Bek-u navkarlar uning nima qilmoqchiligini tushunolmay hayron edilar. Bobur oltin-kumush surohiylarga may quyishni buyurdi. Lekin dasturxon yoniga hech kimni taklif qilmadi. O‘zi ham may to‘la oltin surohiy bilan haligi chuqur yaqinida tikka turibdi. Beklardan biri yonidagi o‘rtog‘iga:

– Bugun tik turib ichgaymiz, chamasi? – deb shivirladi.

Bobur hamma eshitadigan jarangdor tovush bilan:

– Janob beklar! Yigitlar! – deb gap boshladi. – Taklif bo‘ldiki, jangchilarga may ichiraylik, toki dadil bo‘lib maydonga kirsinlar. Ammo boshimizdan o‘tgan, bilurmizki, may dadilligi – aldamchidir. Mast odam jangda ajal paymonasidan qanday ichganini bilmay qolur. Najot qayda? Ertangi jang biz ko‘rgan qirg‘inlarning eng mushkuli-yu eng murakkabi bo‘lg‘usidir. Biz sepoyalar yasadik, arobalarni zanjirlar

bilan bogʻladik, gʻalabaning barcha rejalarini tuzdik. Endi bu rejalarni eng nozik nuqtalarigacha bexato amalga oshirmasak magʻlub boʻlgaymiz. Jangda nihoyatda hushyor boʻlmogʻimiz kerak. Najot mastlikda emas, hushyorlikdadir! May ichib koʻp gunohlar qildik. Endi men hayot-mamot jangiga halqumimni poklab kirmoqchimen... Bir oʻlim har vaqt boshimizda bor. Agar ertaga kunim bitsa, bu foniy dunyodan boqiy dunyoga may mastligi bilan emas, imon pokligi-yu tan halolligi bilan ketmoqchimen!

Bobur oʻsha damda chindan ham bir oʻlimni zimmasiga olib, bek-u navkarlari bilan vidolashayotgan odamday hayajonlanib gapirgan edi. Bu koʻpchilikka juda qattiq taʼsir qildi. Bir lahzalik ogʻir jimlikdan soʻng, Bobur shu bugun bitgan masnaviy sheʼridan toʻrt satrini yoddan aytdi:

*Kimki oʻlmak oʻziga jazm etar,  
Ushbu holatta bilursenki netar.  
Aritur barcha gunohidan oʻzin...  
Tavba qildim chogʻir ichmaklikdin!*

Soʻnggi satrini baland ovoz bilan aytgandan soʻng, surohiydagi mayni oyogʻi ostidagi chuqurga sepib tashladi. Soʻng surohiyni chuqur yonidagi xarsangtoshga qarsillatib urdi. Oltin surohiy xuddi uchqun sachratganday «yalt-yult» etib pachaqlandi-yu, koʻkat orasiga yumalab tushdi. Bunday hodisani umrlarida birinchi marta koʻrayotgan bek-u navkarlar qoʻllaridagi maylarini nima qilishni bilmay sarosima boʻlib qolishdi. Bobur yana jarangdor, taʼsirli tovush bilan sheʼr aytdi:

*Oltin-u nuqra surohi-yu, ayoq –  
Majlis olotin tamomi bul choq*

*Hozir aylab borini sindurdum!  
Tark etib mayni ko'ngil tindirdum!*

Bek-u navkarlar hang-mang bo'lib turishibdi. Kimlardir qo'llaridagi xushbo'y mayni chuqurga to'kishdan qizg'anadi. Kimlardir oltin-kumush surohiylarni xarsangga urib sindirishga jur'at etolmaydi. Balki Bobur o'ziga ep ko'rgan bu ish bek-u navkarlarga joiz emasdir? O'zining ta'sirli nutqlari-yu she'rlari bilan ixlosmandlarini sehrlab olishga va ortidan ergashtirishga o'rgangan Bobur bugun har qachongidan ham ortiq e'tiqod bilan so'zlamogda:

– Beklar! Yigitlar! Qachongacha nafsimizga tobe bo'lurmiz? Tokay umrimizni mayga zoye eturmiz? Ichkulikning harom kayfi kimga vafo qilibdiki, siz-u bizga vafo qilgay? Oltin-u nuqraga achinmang! Surohiylarning sinig'ini miskin-u bechoralarga ulashgaymiz. Agar Tangrim bizga madad bersa, ertangi jangdan g'olib chiqqaymiz! May to'kilgan mana shu chuqur o'rniga obod bir manzil-u marmar voyin qurdirgaymiz. Niyat qilaylikki, voyin zilolday buloq suviga to'lib tursin. Voyin bo'yiga xayr-ehson uyi barpo etaylik. Toki bu uyda ichkulik bazmlarining sarf-u xarajatini, oltin-u nuqra surohiylar pulini muhtojlarga xayr-u ehson qilib ulashsinlar. Shu ezgu niyat yo'lida kimki menga hamdam-u maslakdosh bo'lsa mayni to'ksin, sindirsin mayxo'rlik olotini!

Bobur Humoyunga bir qarab oldi. Bu qarashning ma'nosini sezgan Humoyun:

– Hazrat otajon, men doim sizdan ibrat olishga o'rganmishmen, – dedi. – Daf bo'lsin may-u surohiy!

Humoyun mayni chuqurga sepdi-yu, oltin surohiyni xarsangga urib sindirdi. Undan so'ng Askariy, Tohir, Hindubek... bir necha soat ichida uch yuzga yaqin bek-u mulozim qo'lidagi qadahini xarsangga urib, may ichishdan tavba qildi. Bu hodisa o'sha kuni



qarorgohdagi o'n ming jangchining hammasiga ma'lum qilindi. Boburning hayot-mamot jangi oldidan chiqargan farmonida:

– O'z nafsini yenggan odamlar har qanday yog'iyini yengishga qodirdirlar! – degan so'zlar maxsus ta'kidlandi va buni isbot etadigan misollar muqaddas kitoblardan ham keltirildi.

Bu hammasi qo'shin orasida tarqalgan vahimani bosishga va odamlarning ruhini ko'tarishga yordam berdi. Boshqa muammolar jang maydonida hal bo'ldi. Zambaraklar yovning harbiy fillariga olovli o'qlar otdilar. Zambarak o'qlari kigiz parchalariga o'ralgan edi. Borutdan o't olgan kigiz parchalari fillarning ustiga olov bo'lib yog'ildirdi. Olovdan cho'chigan yov fillari bo'kirib orqaga qaytar va izma-iz kelayotgan otlig'-u piyodalarni bosib-yanchib qochib qolardi. Lekin Rano Sangramning qo'shini behisob ko'p edi.

Erta tongdan boshlangan jang kechgacha davom etdi. Boburning o'zi og'ir ahvol yuz bergan joylarga ot choptirib borardi. U zaxiradagi kuchlar yordamida yovning eng xatarli hujumlarini bir necha marta qaytarishga muvaffaq bo'ldi. Humoyun o'ng qanotdan, Askariy chap qanotdan yov askarlariga ustma-ust zarbalar berdi. Kechki payt Boburning buyrug'i bilan Turdibek Turkistoniy chopqir otlarda yovning har ikki qanotini aylanib o'tdi-da, to'lg'ama ishlatib, orqadan qaqshatqich zarba berdi.

Olov halqasi ichida qolgan Rano Sangramning ko'ziga o'q tegdi, bir ko'zi ko'rmay qoldi. Shunda rajput soqchilari uni jang maydonidan olib chiqib qochdilar... G'alabadan so'ng o'sha chuqur o'rniga marmar voyin, uning yoniga xayr-ehson uyi qurildi. Xarsangga urib sindirilgan oltin-kumush surohiylar puli beva-yu yetimlarga, g'arib-u muhtojlarga ulashildi...

Keyinchalik Bobur Rano Sangram Sinxning bir ko'zi oqib tushganini, o'zi mag'lubiyat alamidan og'ir

kasalga uchrab yotib qolganini eshitdi. Hozir buni Xondamirga soʻzlab bergach:

– Gʻayridinlar uchun ham Xudo bor ekan! – dedi.  
 – Rano Sangram biz bilan ittifoq tuzgan edi. Soʻzidan qaytib, ahdini buzganlarga Xudo oʻzi jazo berarkan! «Vaqoi»ning maxsus bobida muhoribaning barcha tafsilotlarini yozmishmen. Xattot kitobning tayyor qismlari bilan birga shu bobni ham bugun koʻchirib boʻlgay. Oqshom hammasini sizga berurmen, mavlono. Oʻqib fikr aytursiz.

Boya javobsiz qolgan iltimosiga endi javob olgan Xondamir qoʻlini koʻksiga qoʻydi:

– Siz menga tengsiz bir ishonch bildirursiz, hazratim!

– Sizni Hirotdan chorlab keltirishdan maqsad ham ijodiy ishlar boʻyicha maslahatingizni olmoq edi.

– Sarafrozmen!

Shu payt ot dupuri eshitildi. Yoʻlka oxirida uzoqdan ot choptirib kelgan chopar sakrab yerga tushdi va taʼzim bilan Bobur tomonga kela boshladi.

– Agrada biron shoshilinch ish chiqqanga oʻxshaydir, – dedi Bobur. – Mavlono, agar men poytaxtga ketsam, «Vaqoi»ni sizga oqshom keltirib berurlar.

Bobur otini tutib turgan jilovdor tomonga yoʻnaldi.

## 2

Sekri togʻining shimoliy yonbagʻrida salqin bogʻning toʻrida joylashgan uch xonali shinam xilvatxona mavlono Xondamirga berilgan edi. Bobur oʻsha kuni Agraga joʻnab ketdi. Mavlono xilvatxonaning oʻymakor ayvoniga chiqib, undan yaxshi koʻrinadigan shishaday tiniq koʻlni tomosha qilib oʻtirganida xonayi xosning savdarboshisi Boburning qoʻlyozmasini unga olib kelib berdi. Qoʻlyozma xattot tomonidan zarvaraqlarga benihoya chiroyli qilib koʻchirilgan edi. Xondamir

uni xona ichiga olib kirib, miz ustiga qoʻydi. Tepada yonayotgan shamlarni miz ustiga yaxshi yorugʻ beradigan qilib oʻrnatgach, koʻzoynagini taqdi va asarni ehtiyot bilan varaqlab oʻqishga tushdi.

Bundan oʻn yilcha avval Bobur Hirotga ikkinchi marta borganida Xondamirga «Vaqoiʻ»dan oʻqib bergan bobning uslubi mavlononi xiyol taajjubga solgan edi. Mana bu qoʻlyozmada ham Bobur qalamga olgan voqealar juda murakkab boʻlsa-da, muallif ularni ogʻzaki hikoyaga yaqin bir tarzda xiyla oddiy uslubda yozgan edi. Koʻp joylarda Xondamir hatto Boburning soʻzlash tarzini, ohangi, baʼzi bir shaxsiy xislatlarini payqab: «Gʻalati-ku!» – deb qoʻydi. Chunki otasi Mirxond Xondamirni yoshlikdan boshqacha eʼtiqodlar bilan tarbiyalab oʻstirgan edi. Bu eʼtiqodga binoan, nasrnavis muarrix oʻz shaxsiy uslubini davr uslubiga boʻysundirmogʻi, oʻz «meni»ni davr ummoniga qoʻshib bilintirmay yubormogʻi kerak edi. Agar asarda muallif oʻzini namoyon qilaversa, bu – nokamtarlik belgisi hisoblanardi. Katta tarixiy kitoblar hukmdorlar uchun yozilar, asosiy taʼrif-u tavsif oʻshalarning ishlariga berilardi. Nazokatli oʻxshatishlar, jimjimador majozlar va shoirona koʻtarinki uslub hukmdorlarga xush kelar va barcha mualliflar boʻysunadigan bir qonun hisoblanardi.

Bobur mana shu qonunni butunlay inkor etuvchi uslub bilan asar yozgani Xondamirga ortiq darajadagi bir shakkoklikdek tuyildi. Bobur oʻgʻli Humoyunga yozgan xatini ham kitobida keltirgan edi:

«...Xat bitirda takalluf qilay deysen, ul jihattin mugʻlaq<sup>1</sup> boʻladur. Betakalluf pok alfoz bila bit, senga ham tashvish oz boʻlar va oʻqigʻuvchigʻa ham». «Ajabo! – oʻylandi Xondamir, – betakalluf til bilan asar bitmoq Bobur mirzo uchun pok uslub belgisi hisoblanur

---

<sup>1</sup> Mugʻlaq – tushunib boʻlmaydigan.

ekan-da!» Xondamir o'zining o'n yildan beri yozayotgan «Habib us-siyar»ida nazokatli takalluflar ko'pligini esladi-yu, o'zini o'ng'aysiz sezib, o'qishdan to'xtadi va ayvonga chiqdi.

Osmonda sakkiz kunlik oy suzib yurar, uning nuri qarshidagi ko'lning o'rtasida oydin yo'lka hosil qilgan edi. Ko'lning narigi chetidan tog' etagigacha kelgan bu nur yo'lkasida to'lqinlar jimir-jimiri gavhar jilvasiga o'xshab ko'zni qamashtirardi. Lekin Xondamir shu nur o'yinida ham Bobur tasvirlagan voqealarni ko'rar, ularning ta'sirini xayolidan uzoqlashtirolmas edi.

Sertakalluf, serbezak uslub Xondamirdan juda ko'p kuch, vaqt, mehnat talab qilar edi. Bunday jimjimador uslubda asar yozish qanchalik qiyin bo'lsa, uni o'qib tushunish ham shunchalik qiyin edi. Bobur ikki tomonni ham bu qiyinchilikdan qutqarishga intilsa nimasi yomon? O'g'liga yozgan xatida «senga ham tashvish oz bo'lar, o'qig'uvchiga ham» deganda u haqli emasmi? Unda Xondamirning yuksak shoirona uslubga oid e'tiqodlari puchga chiqadimi? Yo'q, bu mumkin emas! Xondamir qaytib ichkariga kirdi-yu, o'zining haqligiga dalil qidirib, ochiq qo'lyozmaning davomini o'qishga tushdi.

Hali hech bir muarrix qalamga olmagan g'aroyib voqealar bu qadar ko'p! Xondamir kitobning mazmuni yangi va maroqli ekaniga tan bermay iloji qolmadi. Bobur o'zini-o'zi ochiqchasiga muhokama qilgan, o'z xatolarini ro'yi-rost yozgan joylari ham Xondamirga juda iliq tuyildi. Oxirgi boblarida yana ajib bir xat uchradi. Bobur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub Mohim begimga atab yozilganini Xondamir sezdi. Boburning zaharlanish tafsilotlari shu yerda bitilgan edi: «Dasturxon ustida ikki-uch marta ko'nglum barham urib qusayozdim. Oxir ko'rdumkim bo'lmas, qo'pdum... Obxonaga borib qalin qusdim. Hargiz

oshdin so'ng qusmas edim, balki ichganda ham qusmas edim. Ko'nglimga shubha kechdi.

...Jon mundoq aziz nima emish: muncha bilmas edim, ul misra' borkim:

*«Kim o'lar holatga yetsa,  
Ul bilur jon qadrini».*

Tengri taoloning inoyati bor ekandir, manga yangi boshdan jon bag'ishladi».

Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yozgani Xondamirni hayron qoldirdi. Keyingi bobda yana bir tafsilot uning e'tiborini tortdi. Ichkilikni bundan ikki yil odin tashlagan Bobur uni haligacha qaytib og'ziga olmas edi. Buning oson bo'lmaganini Xondamir quyidagi satrlardan bildi: «Bu o'tgan ikki yilda chog'ir majlisining orzu va ishtiyoqi behad va g'oyat edi, andoqki, chog'ir ishtiyoqidan borlar<sup>1</sup> yig'lamoq sarhadiga yetar edim».

O'z istagiga qarshi kurashib, yig'lash darajasiga borganini ochiq yozish tojdorlar orasida misli ko'rilmagan bir sohibdillik ekaniga Xondamir ich-ichidan tan berdi. Ochiqchasiga aytgan mana shunaqa oddiy tafsilotlar tufayli Bobur unga o'zi kabi bir inson farzandi bo'lib tuyildi. Ammo boshqa tojdorlar tarixiy kitoblarda oddiy odamlarga o'xshab ko'rinishdan qanchalik cho'chiydilar! Ular el-yurtdan mumkin qadar balandda bo'lishni, oddiy insondan ko'ra Xudoga yaqinroq turishni qanchalik yaxshi ko'radilar! Shuning uchun ham Xondamirdek muarrixlar podshohlar haqida oddiy odamlar tushunmaydigan balandparvoz, sertakalluf tilda kitob yozishga majbur bo'ladilar. Bobur o'zi podshoh bo'lgach, bunday takalluflarni kim uchun yozadi? Hamma tomonidan qabul qilingan davr uslubining qonunlarini buzib chiqib, o'z hayoti haqida

---

<sup>1</sup> Borlar – «ba'zi paytlar» ma'nosida.

shunday erkinlik va rostgo'ylik bilan asar yozishi – hech kimga qaram emasligi tufayli emasmikin?

Bu fikr Xondamirni Boburning uslubidagi o'zgachalik bilan go'yo yarashtirdi. Shundan keyin Boburga xos oddiylikning teran bir she'riy nafasati ham borligini, bu nafasat odamni sehrlab olishini sezdi. Tun yarmidan oshganda esa asarda tasvirlangan voqealarga qiziqib, uslubini butunlay esdan ham chiqardi. Tongga yaqin ozgina uxlab, so'ng yana o'qishni davom ettirdi-yu, qo'lyozmaning oxiriga yetmaguncha undan ajralolmadi.

Bobur Sekriga uchinchi kun ertalab qaytib keldi – kunduzi havo juda issiq bo'lgani uchun yo'lni tun salqinida bosib o'tgan edi. U Xondamirni yana bog'da uchratdi, ikkovi piyoda o'sha buloq bo'yiga keldilar.

Bobur yo'l yurib charchagan, uyqusiz o'tgan yana bir tun yuzini juda so'litib qo'yan bo'lsa ham u o'zini xushhol tutib:

– Mavlono, mensiz dilgir bo'lmadingizmi? – dedi.

– Hazratim, men tun-u kun sizdan ayrilmay suhbatingizda bo'ldim, siz yozgan asar sahifalarida unutilmas damlarni boshdan kechirdim.

– Hali oxiriga yetmagandirsiz?

– Kecha peshinda oxirgi sahifasini yopganimcha hamon uning ta'siri bilan yashamoqdamen.

– Meni ayamang, mavlono, rostini ayting.

– Rostini aytsam, siz meni chil-chil sindirdingiz!

Xondamir bu gapni shunday jiddiy turib, ichki bir dard bilan aytdiki, Bobur taajjublanib to'xtadi:

– Nechuk sindirmishmen, mavlono?

– Uslubingizdagi nafis bir soddalik qarshisida mening yuksak shoirona uslubim ortiqcha bir takallufdek tuyildi.

– E, takallufmi? Ammo mening ahvolim o'zingizga ma'lum. Jumlalarni takalluf bilan bezashga fursatim yo'q edi.

– Asli go‘zal bo‘lgan yuzga ortiqcha zeb-ziynat ne hojat? Hazratim, siz adabiyotimizda hali hech kim qilmagan ulug‘ bir ishni qilmishsiz. Muborak bo‘lsin!

– Minnatdormen, mavlono. Biroq hali men bu ishning yo‘qolgan sahifalarini tiklamog‘im kerak.

– Tiklashingizga aminmen. Oxiri yana boshqa nek ishlarimiz yozilgusidir. Biroq shu turishda ham men bu ulkan asaringizni turkiy tilda aytilgan yangi bir so‘zdek qabul qildim. Men aminmenki, avlodlarimiz sizning bu shoh asaringizni Alisher Navoiyning «Xamsa»si kabi e‘zozlagaylar. Chunki shu vaqtgacha turkiy tilda bitilgan eng ulug‘ she‘riy asar «Xamsa» bo‘lsa, shu vaqtgacha turkiy tilda bitilgan eng ulug‘ nasriy asar, menimcha, «Boburnoma» bo‘lg‘usidir.

– Mavlono, garchi mubolag‘a qilgan bo‘lsangiz ham, dil so‘zlaringiz uchun tashakkur. Men bu asarni nihoyasiga yetkazish uchun bugun yana Sekriga qaytib keldim. Agar nuqsonlari bo‘lsa ochiq ayting.

– Faqir ba‘zi sahifalardagi sanalar-u nomlarda noaniqliklar uchratdim. Xususan, Hirotga Husayn Boyqaro saroyiga oid boblar xiyol tahrirtalab.

– Mana shu nuqtalarda menga sizning ko‘magingiz darkor.

– Bajonidil, hazratim. Neki noaniqlik bo‘lsa, barchasini alohida qog‘ozga yozib qo‘ydim. Asaringiz bilan birga bermoqchimen.

Shu payt tepadan o‘tayotgan qushlar keskin hushtak chalganga o‘xshab noxush ovoz chiqargani eshitildi. Bobur osmonga qarab, qoramtir-qizg‘ish kalxatlar galasi qanot qoqmay uchib borayotganini ko‘rdi. So‘ng ularni Xondamirga ko‘rsatib:

– Bu yirtqichlar janglardan so‘ng o‘laksa yeb mazaxo‘rak bo‘lmishlar, – dedi. – Rano Sango bilan bo‘lgan jangdan so‘ng mana shu ko‘l atroflarida, bog‘ning o‘rnida o‘lib yotgan odamlar, otlar, tuyalar,

fillar behisob edi. Kalkatlar qon hidini sezib, uzoqlardan gala-gala uchib kelganlari yodimda bor...

Bu xotira Boburda noxush tuyg'ular qo'zg'aganini sezgan Xondamir:

– Nachora, hazratim, – dedi. – Hanuzgacha hech bir ulug' davlat jang-u jadalsiz barpo bo'lgan emasdir.

– So'zingiz chin-u, ammo... So'nggi yillarning voqealarini qog'ozga tushirganimda, barcha qurbonlar, to'kilgan barcha qonlar ko'z o'ngimda shunday to'liq gavdalandiki, uyqularim o'chib ketdi... Bajur qo'rg'onida uch ming kishining qilichdan o'tkazilgani... Panipatda bir necha yuz asirning to'fangdan otib o'ldirilgani... Bizning odamlar ham kalla-minoralar qo'nargani...

– Hammasini umr kitobingizda ro'yirost bitmishsiz.

– Chunki avlodlar haqiqatni bilsinlar, bizni farishta deb o'ylamasinlar. Qilgan gunohlarimiz o'zimizga nechog'liq og'ir tushganidan ogoh bo'lsinlar.

Boburning ruhida dam-badam sezilib qolayotgan ichki bir dard – faqat xastalik yoki charchoqlikdan emasligini Xondamir endi sezdi. Bobur ijodiy ishga berilgan sari uning qalbidagi shoh bilan shoirning murosa qilishi qiyinlashib ketardi.

Xondamir beixtiyor Hirotni va Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi murakkab munosabatlarni esladi. Bu ikki zot yoshlikdan bir-birlarini yaxshi ko'rar edilar, ammo podshohning shafqatsiz ishlari shoirning nafis tuyg'ulariga shu darajada zid kelar ediki, Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan bir shaharga, hatto bir mamlakatga sig'ishmay qoladigan va Xurosonni tashlab hajga ketishga astoydil intiladigan paytlari bo'lardi.

Hatto bir shaharga va bir mamlakatga sig'maydigan katta shoir bilan podshoh Boburning qalbida birga yashashga majbur ekanini va bu uni qanchalik qiyin ahvollarga solishini Xondamir hozir yaqindan



ko'rganday bo'ldi. Uning yodiga Boburning: Yuz hayfki, zoye o'tadir umri aziz, Afsuski, botil<sup>1</sup> boradir umri sharif! degan satrlari tushdi. «Shoir bu satrlarni podshohlik tashvishlaridan to'yib ketgan paytda yozgan bo'lsa kerak!» degan o'y ko'nglidan kechdi.

Bobur buloq bo'yiga cho'nqayib o'tirib, kaftini muzday tiniq suvga to'ldirib oldi-da, uni simirib, xiyol tafti bosilganday bo'ldi.

Xondamir gapni yoqimliroq mavzuga burgisi keldi:

- Hazratim, Hirotda uchrashganimizda siz o'z hayotingizni... ko'chki bosgan buloqqa o'xshatgan edingiz. Yodingizdami?

- Yodimda bor.

- Faqir hozir taxmin qildimkim, Movarounnahrda ko'chki bosgan buloq balki shu yerga kelib qayta ko'z ochgandir?

- Aql bovar qilmaydir. Orada shuncha uzoq masofalar bor.

- Lekin chinakam zo'r iste'dodlar - o'lmas buloqlarga o'xshar ekanlar. Ularning ko'zini o'n joyda bekitsalar, o'n birinchi joydan yana yorib chiqar ekanlar!

- Lutf qildingiz, mavlono. Hozir ijodiy ish meni xuddi shu toza buloqdek o'ziga tortadir. Janglarning qonli sellari, saltanatning betinim to'fonlari jonimga tegdi. Toju taxt bevafoqligini ko'pdan beri sezib yuribmen. Menga vafo qilsa faqat yozgan asarlarim vafo qilgusidir. Ota yurtim Turkistonga o'zim qaytolmasam ham, asarlarim qaytishi mumkin.

- Inshoolloh, siz ota yurtingizga zafar bilan qaytursiz. Toshkentda, Samarqand-u Hirotda sizning qaytishingizni kutib yurgan ixlosmandlaringiz ko'p.

- Ammo g'animlarimiz ulardan ko'proqdir, mavlono. Ular bilan jang qilib vatanga qaytguncha yana qon daryosida suzmoq kerak... Men bundan juda

---

<sup>1</sup> Botil - qalbaki yo'ldan borish, adashish.

bezganmen... Qilich bilan olingan ellar vafo qilmas ekanlar. Faqat ma'naviy zafarlar umrboqiy bo'lishini keyingi davrlar bizga ko'rsatdi.

– Hazrat Alisher ham ma'naviyatni hamma narsadan baland qo'yar edilar. Siz chindan ul zotning buyuk ishini davom etdirmoqdasiz.

– Afsuski, hazrat Alisherdek daholar turk olamida ancha kech paydo bo'lmishdir. Jahon bo'ylab ot o'ynatib, qilich topgan turk bahodirlari ming yillar davomida Chin-Mochindan Misrgacha, Hinddan Farangistongacha qanchadan-qancha qudratli davlatlar barpo etganlar. Ammo ular o'z davlatlarini umrboqiy qiladigan turkiy alifbo-yu ona tiliga, yaxlit bir turkiy ma'naviyatni yaratishga yaxshi e'tibor bermaganlar. Qilich bilan tiklangan davlatlarning ma'naviy poydevori mustahkam bo'lmasa, ular boshqa qilichlar zarbidan tez qulab tusharkan.

– Rost, hazratim, turk olamining bu tarixiy nuqsoni haqida siz bilan Hirotda ham ko'p dardlashgan edik.

– Ana o'shal dardlarning turtkisi bilan men Kobul-u Samarqandda turkiy alifboni tiklamoqchi bo'ldim. Bundan maqsad – barcha davlat ishini turkiy tilda yuritmoq edi. Ammo... bu harakat qanday fojia bilan tugagani ma'lumingizdir.

– E-voh, shunday ulug' jasorat uvol bo'ldi-ya! Johillar yana g'olib keldilar!

– Ammo turkiy alifbo bilan turkiy ma'naviyatga oid orzular meni hamon tark etgan emas. O'g'illarim Humoyun bilan Komron xatti Sig'noqiyni mukammal o'rganibdir, menga o'shal alifboda maktublar biturlar. Hozir men tun-u kun turkiy tilda o'ylaymen, shu tilda ijod qilmoqdamen. Chunki bizga ona suti bilan kirgan tilimiz – bizning ma'naviy vatanimizdir. Turkiy tilda yozganimda ruhim yana Andijon-u Samarqandga qaytgandek taskin topur.

Ma'naviyat ohanrabosi bilan turkiy ellarni ruhan yaqin-u inoq qilish mening ezgu niyatimdir. Bu niyatga biz yetolmasak, shoyad kelgusi avlodlar yetsa!

Bobur ko'pdan beri uyqusiz yurganidanmi yoki sog'inch hissining zo'ridanmi, ko'zlari beixtiyor yoshga to'ldi.

– Men ham Hirotni behad sog'inib yuribmen, hazratim. Lekin... o'zingiz aytgan edingizki, Hind ham endi biz uchun vatan. Yozgan asarlaringiz Hindning shavkatiga ham shavkat qo'shg'usidir. Hindda barpo qilgan ulug' davlatingiz esa sizni voyaga yetkazgan Movarounnahrga ham shuhrat keltirgusidir.

– Zora shunday bo'lsa! – dedi Bobur.

U Xondamir bilan kechgacha dardlashib yurdi-yu, ko'nglini bo'shatib, o'zini ancha yengil sezdi.

Biroq kechasi yana uyqusi qochib, tong otguncha mijja qoqmadi.

## AGRA

### YULDUZLAR GIRDOBI

#### 1

Yana yozning jazirama issiqlari boshlandi. Bobur goh devoniomda, goh kutubxonada ishlar, mudom ichi kuyib, sovitilgan norinj sharbati va yaxna choy ichar, lekin chanqog'i hech bosilmas edi.

Bir kun peshin kechroq Tohir xilvatxonaga uch-to'rt bosh oq kishmish uzum olib kirdi. Hozirgina uzib yuvilgan oltin rang kishmish donalari ustida suv zarralari yiltirab turadi. Ko'pdan beri bunday uzumni ko'rmagan Bobur taajjub bilan:

- Qaydan oldingiz? - dedi.

- O'zimizning Hasht Bihisht bog'imizdan. Samarqanddan keltirilgan kishmish ko'chatini o'z ilkingiz bilan ekaningiz yodingizdami, hazratim?

Bobur quvonib uzumdan bir boshini qo'liga oldi. Bu yerlarning tarixida birinchi marta yetishtirilgan oq kishmish sal sersuvroq bo'lsa ham, lekin uning ta'mi Boburga Samarqandni eslatdi. Uzum yegan sari chanqog'i bosilib, o'zini birdan tetik sezdi.

- Buni Mohimga ko'rsatmoq kerak! - deb o'rnidan turdi.

Bultur kuzda Kobuldan Agraga ko'chib kelgan Mohim begim bu bog'ning to'ridagi marmar ko'shkda edi. Bobur barkashdagi uzumni Tohirga ko'tartirib, gulzor yo'lkalardan ko'shkka qarab ketdi.

Havo dim va rutubatli. Yana pashkol fasli boshlanib, osmondan bulut arimay qolgan. Barkashdagi oltinrang kishmish Boburga shu bulutlarni yorib o'tib, uzoq

Samarqanddan yetib kelgan yorug‘ bir nurdek ko‘rinardi.

Mohim begim ko‘shkning ayvonida miz ustiga engashib allanarsa yozmoqda edi.

Ayvonga Tohirni ergashtirib kirgan Bobur:

– Uzumimiz pishibdi, Mohim! – dedi. – Bir tatib ko‘ring.

Mohim begim o‘rnidan turib, Boburni odatdagiday ta‘zim bilan qarshi oldi, lekin o‘pkasi to‘lib, durust gapirolmadi. So‘nggi ikki yil ichida yarasidan qolgan asoratlar tuzalib, qo‘llari avvalgiday ishlaydigan bo‘lib ketgan Tohir uzumni ta‘zim bilan Mohim begimga tutdi.

Mohim begim barkashni uning qo‘lidan olib, miz ustiga qo‘ydi. Uning qovoqlari shishib, ko‘zlari yig‘idan qizarganini payqagan Tohir sekin orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Er-xotin yolg‘iz qolganlarida Bobur:

– Sizga ne bo‘ldi? – dedi. – Yig‘labsizmi?

– Nafasim qisildi...

Mohim begim qirq yoshga borgandan beri yuzlari to‘lishib, anchagina semirib qolgan edi. Kobulning yengil va quruq tog‘ havosiga o‘rgangan begim Jamna bo‘yidagi issiq kunlarda sernam dim havodan nafas olish qanchalik qiyin bo‘lishini avval ham eshitgan, bir chekkasi shu sababdan to‘rt yilgacha Agraga kelmay yurgan, axiri Boburning yuzidan o‘tolmay bultur kelgan edi.

– Pashkol faslida men ham juda qiynalib nafas olurmen, – dedi Bobur. – Tashvish chekmang, o‘rganib ketursiz. Qani, uzumdan oling!

Mohim begimning hech narsa yegisi kelmas edi. Shunday bo‘lsa ham kishmishdan ikki dona olib og‘ziga soldi-yu, Boburning ko‘ngliga bo‘la:

– Yaxshi pishibdir, – dedi.

– Maktub yozmoqchi edingizmi?

– Ha, Humoyunga... Mening nafasimni pashkol emas, sogʻinch qisadir!

Toʻlib oʻtirgan Mohim begim birdan yigʻlab yubordi:

– Men hamisha Humoyunning diydoriga zormen. Siz mudom oʻgʻlimni mendan uzoqlarga yuborursiz! Kobulda ekanimda Humoyun Jamna-yu Ganga boʻylaridan boʻshamadi. Men Agraga keldim, Humoyun Badaxshonga joʻnab ketdi. Badaxshonni tinchitib qaytdi hamki, uni yana uzoq Sambxalga yubordingiz. Qayerda bir xatar boʻlsa, oʻshanga Humoyun roʻbaroʻ! Qaysi uzoq yurtida mushkul ish boʻlsa – yana Humoyun! Men bu yerda xavotirlikda qon yutib iztirob chekurmen!

– Bunchalik xavotirlanishning ne hojati bor, Mohim!

– Siz xavotirlanmaysiz, hazratim, sizning farzandlaringiz koʻp! Mening yolgʻiz farzandim qolgan! Uchtasini tuproqqa topshirib, shu birgina Humoyun bilan qolganmen!

Boburning boshqa xotinlari va ulardan boʻlgan boshqa bolalari ham borligi Mohim begimda qanchalik murakkab tuygʻular qoʻzgʻashini Bobur hozir yana bir marta sezdi. Shu payt xonaga sakkiz yoshli Gulbadan chopib kirib keldi. Boʻynidagi jajji taqinchoqlarini shildiratib, otasi qarshisida egilib taʼzim qildi. Lekin onasining yigʻlab, oʻrtanib gapirayotganini koʻrdi-yu, xavotirlanib toʻxtadi.

– Mohim, – dedi past tovush bilan Bobur, – Hindol bilan Gulbadan ham sizga farzand-ku, axir!

– Komron mirzo-chi, hazratim? U kishi sizning oʻgʻlingiz emasmilar? U kishi Laxoʻrda onalari bilan tinchgina yuribdilar! Nechun hamma baloga Humoyun balogardon boʻlmogʻi kerak?

– Chunki Humoyun – taxt vorisi! Men qilmogʻim kerak boʻlgan mushkul ishlarni Humoyun qilib oʻrganmogʻi kerak.

– Men xavotirlanib qon yutsam mayli! Siz bunga parvo qilmaysiz, chunki boshqa xotinlaringiz bor!

Gulbadan ota-onasini hech qachon bunday mushkul va noqulay ahvolda koʻrmagan edi. U koʻzlari javdirab, nima gap boʻlayotganini tushunolmay lol boʻlib turardi. Axir hazrat onasi podshoh otasiga nihoyatda mehribon edi-ku. Kobuldan ikki oy yoʻl yurib, kela-kelguncha uning nomini tildan qoʻymay eʼzozlab gapirar edi-ku! Hazrat otasi ham ularga Agradan peshvoz chiqib, Jaloli koʻli yaqinida kutib olmaganmidi? Charchagan otidan tushib, boshqa ot keltirgunlaricha sabri chidamagan Bobur Mohim begimning oldiga piyoda kelgan emasmidi? Soʻng suyakli xotinini eʼzozlab, uni otdan tushishga qoʻymagan, oʻzi esa Mohim begimning oti yonida uch chaqirimcha joyga piyoda borgan edi-ku. Buni koʻrgan odamlar: «Podshohning oʻz xotinini bu darajada yuksak izzat-ikrom bilan kutib olganini umrimizda koʻrgan emasmiz!» deganlarini Gulbadan oʻz qulogʻi bilan eshitgan edi-ku. Hozir bularga nima boʻldi?

Bobur qizchasining hang-mang boʻlib turganini sezib, tez oʻrnidan turdi, barkashdagi uzumdan bir boshini qoʻliga berdi:

– Ma, qizim, ye! – deb unga muloyim gapirib, eshikdan tashqariga yetaklab chiqdi. – Bor, endi bogʻda oʻyna.

U koʻz yoshlarini hamon toʻxtatolmayotgan Mohimning qarshisiga qaytib kelib oʻtirdi va hazin tovush bilan dedi:

– Mohim, siz mendan har qancha ranjisangiz haqingiz bor. Shariat ruxsat bergani bilan har bir musulmon uch xotin olishi shart emas edi... Mendek sayyohtabiat odam... umrining yarmidan koʻpini safarlarda, janglarda oʻtkazishini bila turib, uch

xotin olishi... kechirilmaydigan bir xatolik bo'ldi. Bu xotirlarning hech biri men orzu qilgandek baxtiyor bo'lmaganini... bugun sizga qarab ko'rib turibmen... Kundoshlik alamlari... Bir-biriga o'gay bolalarning raqobati... Ota-bobolarimizni o'rtagan bu jahannamlar bizga daxl qilmas, deb o'ylagan edim... Yo'q, mana, hatto sizdek suyuqli yorim ham... shu jahannam azobidan ko'zyosh to'kmoqdasiz. Majruh dilim sizni ko'rib, battar xastalandi.

Mohim begim Boburning sarg'ayib qolgan kasalmand yuziga qaradi-yu, ko'z yoshini apil-tapil arta boshladi.

– Hazratim, mendan ozorlanmang. Men bir munglik ayolmen. Siz podshohsiz. Arzimni sizga aytmasam, kimga aytamen?

– Ha, men podshohmen – butun balo shunda. Neki xatolik, neki gunoh qilgan bo'lsam, hammasining birlamchi sababi mening podshohligimdir. Yoshligimda podshohlik zanjiridan qutulib ketmoqchi bo'ldim. Lekin meni bu zanjirdan xalos qiladigan najotkor topilmadi. Endi umidim borki, mening najotkorim Humoyun bo'lg'usidir.

Mohim begim Boburning bu so'zlariga ishonib-ishonmaganday unga termilib qaradi.

– Mohim, maktubingizni davom ettiring. Mening nomimdan ham yozing, Humoyun Agraga tezroq qaytsin. Ko'zim tirikligida toj-u taxtni egallasin. Yozing, men imzo chekurmen!

– Hazratim, Siz Humoyunni toj-u taxtga bunchalik intiq deb o'ylamang! Hech unday emas! Men faqat o'g'limiz yonimizda bo'lsin demoqchi edim, xolos!

– Yozing, kelsin!.. Faqat podshoh bo'lish sharti bilan kelsin. Bu maxfiy gapni hozircha boshqa hech kim bilmasin.

Boburning niyati jiddiyligiga endi ishongan Mohim begim:



– Siz... Kobulga qaytmoqchimisiz? – deb so‘radi.  
– Mabodo, olamdan ko‘z yumsam, Kobulda dafn etinglar.

– Nechun bunday deysiz?

– Sizdan yashiradigan sirim yo‘q, Mohim. Siz Kobulda «fotihlikning qasosi qaytsa, yomon bo‘lur», degan edingiz. Shu gapingiz rost chiqdi. Podshohlig-u fotihlik balolari malika Bayda bergan zahar shakliga kirib, mening umrimni kemirdi. Agar men ham bor kuchimni faqat ilm-u ijodga bersam, balki Beruniydek yetmishdan osharmidim? Yoki Alisher Navoiydek oltmishga kirarmidim? Biroq mana qirq yetti yoshimda umrimning oxiri ko‘rinib qoldi.

– Niyatni yaxshi qiling, hazratim! Xudo xohlasa, hali umringiz uzoq bo‘lg‘usidir!

– Ne bo‘lganda ham endi podshohlik bas. Qolgan umrimni ijodga sarflamoqchimen! Menga saroylar-u qasrlarning keragi yo‘q. Mana shu Zarafshon bog‘ining bir go‘shasi bo‘lsa bas... Ortiqcha savdar-u mulozimlar ham darkor emas. Tohir oftobachining bir o‘zi menga yetarlik. Humoyunga shu qarorimni aytib, ikkovimizning nomimizdan yozing!

Mohim begim Boburga juda og‘ir tegadigan mavzularda gap ochganidan endi qattiq pushaymon bo‘ldi-yu, eriga iltijo qilib:

– Meni kechiring! – dedi. – Men hech xayolimga keltirmagan gap... Bu mumkin emas! Men bunday maktubni yozolmasmen!

Bobur o‘rnidan turdi.

– Bo‘lmasa men o‘zim yozgaymen, – deb ko‘shkdan chiqdi.

U bog‘ oralab xilvatxonaga qarab borayotganda, gulzor yo‘lkada kichkina Gulbadanni uchratdi.

Ziyрак qizcha otasini qiynab yurgan mushkulotlarni tushunmasa ham unga ich-ichidan qayishib, hamdardlik bildirayotgandek mo'ltirab qarab turardi<sup>1</sup>.

## 2

Otasining maxfiy maktubi borganda Humoyun Sambxalda og'ir kasalga chalinib to'shakda yotgan edi. Maktubni o'qigach odamlariga:

– Meni tezroq Agraga yetkazinglar!– deb buyurdi.

Dehliga kelguncha Humoyunning isitmasi yana oshib, kasali battar og'irlashdi. Uni olib kelayotgan Hindubek yo'lda biror kor-hol bo'lishidan qo'rqib, darhol Agraga xabar yubordi-yu, o'zi Dehlida qolib Humoyunni eng yaxshi tabiblarga davolata boshladi. Lekin dori-darmon kor qilmas, qora bezgakka o'xshash bir dard Humoyunni kecha-yu kunduz kuydirib, go'yo jingak qilib tashlamoqda edi.

Agradan ikki kecha-yu kunduz otliq yo'l yurib, Mohim begim yetib keldi. Daryo yo'li tinchroq va salqinroq deyishib, Humoyunni Dehlida kemaga solishdi-da, oqim bo'ylab, Agraga olib kelishdi.

Humoyunni taxtiravonga yotqizib, sakkiz yigit Zarafshon bog'iga ko'tarib kirdi. Bobur rangi yerday o'ngib ketgan Mohim begimni ko'rgandayoq, yuragi «shuv» etib ketdi. Yigitlar ko'tarib kelayotgan taxtiravon uning ko'ziga tobutday sovuq ko'rindi.

Humoyun tuni bo'yi alahlab behush yotdi. Faqat sahar palla ko'zini xiyol ochib, tepasida turgan otasini tanidi, o'rnidan turgisi kelib qimirladi, lekin

<sup>1</sup> Boburning farzandlari orasida eng uzoq umr ko'rgan va saksonga kirgan Gulbadan begim bolaligida ko'rgan-bilganlarini «Humoyunnoma»da batafsil yozgan. U otasining oxirgi paytda toj-u taxtdan astoydil ko'ngli qolganiga, hokimiyatni Humoyunga berib, o'zi Tohir oftobachi bilan bir go'shada yashamoqchi bo'lganiga dalillar keltirgan.

boshini ko'tarishga ham madori yetmadi. Otasining maxfiy maktubida yozilgan gapga rozi bo'lolmasligini aytmoqchi bo'lib:

– Biz... xizmatda... sizensiz... – «Mumkin emas!» deganday bosh chayqadi-yu, keyin yana allahlay boshladi. – G'ulga uring... uring! Ketdi!.. To'xta!..

Humoyun nafasi qaytganday talvasa qilib, o'zini u yoqdan-bu yoqqa bir-ikki otdi-yu, yana hushidan ketdi. Saroy tabiblari bu og'ir dardga hech bir davo topolmadilar. Mohim begim yum-yum yig'laydi.

Bobur suyukli o'g'lini hadeb o'tga-suvga solib, shu kasallikka o'zi ham sababchi bo'lganday o'rtanardi. Og'ir paytlarda Bobur suyanib o'rgangan odamlar biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir u ham chorasizlikdan o'zini qo'yadigan joy topolmay qiynaldi.

Keksayib munkillab qolgan shayxulislom Boburning yoniga keldi:

– Hazrati oliylari, ko'p g'am chekmang, Parvardigor g'oyibdan shifo yuborgusidir, – dedi. – Tabiblardanki ish chiqmadi, endi Xudo yo'lga dunyo molidan tasaddiq qilmoq kerak.

Bobur shayxulislomning niyatiga tushunolmay:

– Qaysi moldan? – deb so'radi.

– Jon omon bo'lsa javohir topilur. O'shal... ashxas olmos yaxshi tasaddiq bo'lg'ay.

Bobur Jamna ustida kemada o'ltirganda Humoyun keltirib ko'rsatgan olmosni esladi.

– Ko'hinurnimi?

Shayxulislom tasdiq ma'nosida bosh irg'adi. Bobur hushini bir joyga yig'ib:

– Taqsir, kimga tasaddiq qilaylik?– deb so'radi.

Qiymati ulkan oltin xazinalariga barobar keladigan bu olmosni o'g'rilardan qo'riqlab turish uchun ham juda ko'p navkar kerak edi. Shuni biladigan shayxulislom «menga» deyishga tili bormadi.

– Murtazo Ali mozoriga, – dedi. – Din yo‘liga.

Mozor va Ko‘hinur olmosi bir-biriga mutlaqo qovushmaydigan narsalar edi. Dindorlarning kattasi shayxulislom bo‘lganligi uchun olamni bezaydigan bu go‘zal olmos aylanib kelib uning sandig‘iga tushishi aniq. Bobur hozir mol-u dunyoni o‘ylaydigan ahvolda bo‘lmasa ham Humoyunga taqdim etilgan bu noyob gavharga munkaygan shayxulislom ko‘z tikkani uni sergaklantirdi.

Ruhoniylar ilojini topsa, podshohdan ham baland turishga va ularning boshiga og‘ir kun tushganidan foydalanib, o‘z hukmlarini o‘tkazishga intilishlari ko‘pdan ma‘lum edi.

– Taqsir, nazaringizda, o‘shal olmos azizmi yoki mening jonim aziz?

Shayxulislom hang-mang bo‘lib:

– Nechun unday deysiz, hazratim! – dedi. – Undoq olmoslarning yuztasidan sizning bir mo‘yingiz azizroqdir!

– Minnatdormen! Undoq bo‘lsa, men Humoyunga jahondagi barcha olmoslardan ham azizroq bir narsamni qurbon qilmoqchimen. Faqat bu qurbonni siz-u bizga o‘xshagan bandalari emas, zarur bo‘lsa Parvardigorning o‘zi olsin!

Bobur o‘ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o‘tib, Humoyunning to‘shagi yoniga keldi.

– Humoyun, jigarbandim! – dedi u hamma eshitadigan tovush bilan. – Sening betoqatlig‘ingga men toqat keltiray. Sening shu og‘ir dardingni Xudo sendan olib menga bersin!

Behush yotgan Humoyun bu gaplarni eshitmas, lekin bemorning xobgohidagi ayollar, mulozimlar, tabiblar, ruhoniylar – hammasi Boburga quloqlarini ding qilib qarab turardilar.

Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marta aylandi-yu:

– Yo, Parvardigor! – deb iltijo qildi. – Menki Boburmen, agar jon berish mumkin bo'lsa, umr-u jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroyil mening jonimni olsin-u Xudo Humoyunga shifo bersin!

Mohim begim yig'idan to'xtab, Boburga qo'rquv aralash hayrat bilan tikilib turardi. Keksa shayxulislom esa hozirning o'zidayoq Humoyuning sog'ayib ketishini va Boburning holsizlanib yiqilishini kutganday ancha vaqt ota-bolaga baqrayib qarab turdi. Lekin kutilgan mo'jiza yuz bermadi. Behush Humoyun alahlab, bir nima dedi-da, yana jim bo'ldi.

Boburning badanidan «lop» etib olov chiqqanday bo'ldi, vujudi qizib ketdi. U hamon behush yotgan Humoyunga qarab:

– Ko'tardim dardingni! – dedi-da, yelkasiga og'ir yuk olgan odamday qaddi xiyol egilib xobgohdan chiqib ketdi...

### 3

Yigirma uch yoshlik Humoyunning yigit yuragi otasi ko'rsatgan ruhiy madaddan kuch olib, og'ir kasallikni axiyri yengdi. Oradan bir hafta o'tgach, u kasal ko'rishga kelganlarni o'rnidan turib qabul qildi. Yana ikki kundan so'ng otasini borib ko'rish uchun xobgohidan chiqdi.

Bobur o'g'lini Orombog'ning to'ridagi xonayi xosda qabul qildi. Humoyun uning qarshisida tiz cho'kib, ko'ziga yosh olib gapirdi:

– Hazratim, men sizning iltijongiz bilan shifo topmishmen. O'zimga kelganimdan beri Xudodan tilaymenki, sizning umringiz uzoq bo'lsin! Bu ulug' davlatni siz barpo etdingiz. Hammamizning pushti panohimiz o'zingizsiz. Parvardigor bizga rahm qilsin!

Bobur o'g'lini yelkasidan olib o'rnidan turg'izdi:

– Mana, shukr, yuribmen-ku, o'g'lim. Sen ko'p xavotir bo'lma.

– Ammo shayxlar: «Hazratim o'g'liga kelgan ajalni o'zlariga oldilar», deb ko'nglimga g'ulg'ula soldilar.

Bobur o'g'liga o'ng yonidan joy ko'rsatdi.

– Humoyun, o'g'lim, mardona bo'l, eng og'ir yuklar endi sening yelkangga tushadigan ko'rinadir.

Xayriyat, tuzalib ketding. Agar mutaassib shayxlarning gapiga kirib, Ko'hinur olmosini tasaddiq qilsam, ular g'olib chiqmasmidi? «Humoyunni biz o'shal tasaddiq evaziga qutqarib qoldik, biz podshohdan ham zo'rmiz!» deb tantana qilmasmidi? Imon-u e'tiqod bunday g'arazlardan baland turmog'i kerak-ku, axir!

– Ilohim, siz haqingizdagi karomatlari ham yolg'on chiqsin!

– Harqalay, sen Olloh-u taologa g'arazli shayxlar orqali emas, bevosita imon-u e'tiqodning orqali iltijo qilishga o'rgangin. Shayxlar mudom podshohning tepasiga chiqib, unga hukmini o'tkazishga intilurlar. Shundan ehtiyot bo'lgin.

– Toki tirikmen, bu o'gitingizga hamisha amal qilgaymen!.. Endi... Hazratim, Sambxal chegarasida yana qonli to'qnashuvlar bo'lmoqda emish. Ijizat bersangiz, men borib chegaralarni tinchitsam...

Bobur indamay o'rnidan turdi-da, xonayi xosning to'ridagi sandiqni ochdi. Humoyun tik turgan holda otasiga yuzlanib qo'l qovushtirdi.

Bobur sandiqdan oq ipak matoga o'ralgan qilichni oldi.

– Humoyun, o'g'lim, mening qancha umrim qolgani Xudoning o'ziga ayondir. Sohibqiron bobokalonimizning mana shu qilichini endi sen taqmog'ing kerak. Bu qilichga «Kuch – adolatdadir» degan so'zlar bitilgan. Doim odil bo'lgin-u mag'lub bo'lmagin!

Bobur qilichni o'g'liga ikki qo'llab uzatdi. Humoyun tabarruk qilichni tiz cho'kib oldi-da, uning muqaddas yozuv bitilgan joyini ko'zlariga surib o'pdi.

– Mayli, – dedi Bobur. – Sambxal notinch bo'lsa, borib tinchitgin-u o'rningga Hindubekni qo'yib qaytgin. Endi davlat ishini zimmangga olmog'ing kerak...

\* \* \*

Yomg'ir fasli o'tib, osmon yana bulutlardan tozalandi, tunlar salqin bo'lib qoldi. Bobur uyqusiz tunlarda boqqa chiqar va yulduzlarni tomosha qilgisi kelib osmonga qarardi. Lekin tanida isitmaning balandligidan osmondagi yulduzlar joyidan ko'chib, girdobga tushib aylanib ketayotganday ko'rinar, ko'ngli behuzur bo'lib, osmondan darhol ko'zini olardi.

Kunduz saroyda davlat ishlarini qilgan paytida goh shayxulislomni, goh nufuzli a'yonlarni uchratur, ular Boburga avvalgidan ham pastroq, egilib ta'zim qilishar, lekin o'lishi muqarrar bo'lgan bemorga qaraganday musibatli ko'zlar bilan qarashar, muomalalaridagi alohida muloyimlik ham shundan dalolat berar edi. Ularning e'tiqodiga binoan, Bobur o'z hayotini o'g'liga qurbon qilgan, shuning uchun Humoyun tuzalib ketgan, endi ko'zga ko'rinmas ajal qilichi

Boburning boshi ustida osilib turar edi. Ochiq aytilmaydigan, haddan ortiq mayin gaplar, ta'zim-u tavozelar ostiga yashiriladigan bu mash'um ishonch Boburga juda og'ir ta'sir qilar, goho atrofida aylanib yurgan o'lim sharpasini uning o'zi ham sezganday bo'lardi.

Mezon o'tib, qavs oyi kirganda, Boburning kasalligi battar og'irlashdi. Biror joyida yara yoki shish yo'q, nuqul ichi kuyadi, isitmasi ko'tarilib, uxlay olmaydi, rangi kun sayin so'lib boradi.

Mavlono Yusufiy mamlakatning eng mashhur tabiblaridan uch-to'rttasini chaqirtirib maslahatlashdi. Bemorning tomiridan qon olib ko'rishdi. Qonning rangi sog'lom odamnikidek tiniq emas, allanechuk iriganga o'xshab qolgan edi.

Tabiblar o'zaro kengashib, «Malika Bayda bergan zaharning qonda asorati qolgan» degan xulosaga keldilar va qonni tozalaydigan dorilardan, anor suvidan ko'proq berishni buyurdilar.

Lekin bu narsalarning hech biri kor qilmadi. Bobur holsizlanib yotib qolgach, Humoyunga chopar yuborishdi.

Humoyun kelsa, otasi o'z xobgohida baland oq to'shakda terga botib yotibdi. Rangi sap-sariq bo'lib ketgan. Boburning bosh tomonida Xonzoda begim pat yelpig'ich bilan uning yuzini yelpiyapti. Oyoq tomonida Mohim begim g'am-g'ussaga botib, haykalday beharakat o'tiribdi.

Humoyun tiz cho'kib, otasining to'shagini quchoqladi. Boburning ozg'in qo'lini o'pib ko'rishdi, so'rashdi. So'ng otasining bu ahvoliga o'zi sababchi bo'lganday yonib gapirdi:

– Nechun bizga bunchalik jon fido qildingiz, hazratim?

Bobur majolsiz tovush bilan:

– Sen buni o'zingdan ko'rma, – dedi. – Illat qonda emish. Bilmadim... Har qanday olov ham yonib-yonib axiyri bir kun... – Bobur «o'chadi» demoqchi bo'ldi-yu, lekin ayollarni ayadi:

– Alangasi pasayadir. Men umr bo'yi ayovsiz yondim.

– Biz uchun ham kuyib-yongansiz! Endi bu qarzlarni uzishga mening butun umrim yetmagay!

– Qarzingni menga uzolmasang... farzandlaringga uzarsen...



Bobur to'xtab-to'xtab so'zlayotgan bo'lsa ham ko'nglidagi gaplarini ravon aytayotgani Humoyunni umidlantirdi. U otasining so'zini bo'lmay, jim quloq sola boshladi.

– Temuriylarning ko'pchiligi... fidoyilikni unutib... yo'q bo'lib ketdi. O'g'il otani o'ldirdi. Og'a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... bari razolatning qurboni bo'ldi... Undan ko'ra.. yaxshilikning fidosi bo'lgan afzal emasmi?... Mana ammang Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib o'zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo'lishga undab keldi... Sen ham endi inilaring-u... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o'rgatgin.

Bobur to'shakning orqa tomonidagi harir oq pardaning ortiga boshini burib qaradi. Parda ortida odam borligini Humoyun endi payqadi.

– Tohirbek, juzdonni keltiring, – dedi Bobur.

Shu vaqtgacha qimir etmay o'tirgan Tohir endi tez o'rnidan turdi-yu, tokchadagi katta charm juzdonning ichidagi yangi muqovalangan qo'lyozmasi bilan ikki qo'llab ko'tarib keldi.

– Badaxshonda «Vaqoye'»ni so'ragan eding, – dedi Bobur Humoyunga. – Mana, yozib tugatdim. Ol.

Tog'lar orasida Bobur: «Bu kitob bitganda, mening umrim ham tugagay!» – degani Humoyunning yodiga tushdi. U juzdon ichidagi kitobni olib, peshonasiga surib o'par ekan, ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Yirik bir yosh tomchisi zarhal muqova ustiga tomib tushganini Bobur ham ko'rdi.

– Sendan iltimosim, – deb davom etdi Bobur. – Buni avlodlaring ham o'qisin... Xatolarimni takror etmanglar. Yaxshi ishlarim... oz bo'lsa, ko'paytiringlar. Bu kitobdan nusxalar ko'chirtirib, Samarqandga... Toshkentga... Andijonga... munosib odamlarga yuborgin... Men tug'ilgan yurt bilan aloqani uzmanglar.

Shoyad men bitgan kitoblar... ikki oradagi aloqaning rishtalari bo'lsa...

Bobur o'g'liga vasiyat qilayotganini sezib turgan Xonzoda begim o'zini ortiq tutib turolmadi.

– Boburjon, men egachingiz!.. Men... men sizdan besh yosh kattamen! Bu dunyodan ketish navbati avval meniki! Siz taslim bo'lmang! Boburjon, inim!

Xonzoda begim uning podsholigini unutib, «Boburjon!» deganda, Bobur bolaligini eslab, ko'ngli bir orziqdi. U beklardan ham, savdarlardan ham, begonalardan ham, hatto suyukli o'g'li va xotinidan ham nuqul «hazratim» degan murojaatni eshitar, ko'p ishlatilaverib, siyqa bo'lib ketgan bu so'z uning me'dasiga tekkan edi.

Piq-piq yig'layotgan Mohim begim oldingi og'ir suhbatlarni eslab:

– Mening xarxashalarim ham sizni xasta qildi, hazratim! – dedi. – Meni kechiring!

– Mohim, siz meni kechirsangiz bo'ldi... Men sizdan rozimen... faqat endi meni hazratim demang...

Mohim Boburni: «Ko'z ochib ko'rgan tanho yorimsiz, jismimdagi jonsiz!» demoqchi bo'lib og'iz juftlab ko'rdi-yu, lekin atrofidagilardan uyaldi. Yig'i aralash:

– Xo'p, – deya oldi, xolos.

Bobur uning aytilmagan so'zlarini ovozidan, ko'zlaridan sezdi. So'ng o'g'liga yuzlandi:

– Humoyun, men sendan ham «ota» degan so'zni hali eshitganim yo'q.

«Ota» degan jo'ngina so'zga o'rganmagan Humoyun:

– Padari buzrukvor! – deb ko'rdi. Bundan otasining ko'ngli to'lmaganini sezdi-yu: – Otajon! – dedi. – Siz saltanatni menga bermoqchi bo'libsiz. Lekin ishoning, men bu toj-u taxtdan sizning bir nafaslik umringizni afzal ko'rurmen!

– Men sendan rozimen... Endi mendan ham rozi bo'linglar!

Xonzoda begim rozilik so‘rashga tili bormay, o‘rtanib yig‘ladi. Uning yig‘isiga Mohim begim qo‘shildi. Bu og‘ir ahvolning ustiga kirib kelgan mavlono Yusufiy Boburning ko‘zlari bejo bo‘layotganini, uni qattiq ter bosganini ko‘rdi.

– Endi hazratim orom olishlari kerak! – deb qo‘liga oq dokani olib, Boburning yuzidan, bo‘yinlaridan terlarini arta boshladi. Qiynalib nafas olayotgan Bobur bosh tomonda turgan Tohirga shivirlab:

– Yelping!.. – dedi.

Yig‘i-sig‘i bilan Boburni qiynab qo‘yganlarini endi sezgan begimlar sekin chiqib ketdilar.

Bobur Humoyunga:

– Endi eshik og‘a bilan... a‘yonlar kirsin, – dedi. – Ko‘zim tirikligida... hokimiyatni senga topshiray.

Tashqarida kutib turgan Muhammad Do‘lday va boshqa nufuzli beklar kirdilar. Bobur ularning oldida podsholik tojini o‘g‘li Humoyunga topshirdi. Rozi-rizolik so‘rash paytida beklardan bir-ikkitasi ko‘ziga yosh olganday bo‘ldi. Lekin chiqib ketayotganlarida hammalari endi Humoyunning atrofida parvonaday aylanib, yangi inoyatlar umidida ko‘zlari tama bilan yonganini Bobur ko‘rib qoldi.

Xonada Tohir bilan ikkovlari qolgandan so‘ng:

– Endi... bek-u sultonlarga mening keragim yo‘q, – dedi. – Tohirbek, kechga... Mavlono Fazliddinni chaqirtiring.

Tohir Boburga tabib Yusufiy buyurib ketgan suyuq doridan ichirtirdi, uning qiyshayibroq qolgan yostig‘ini to‘g‘rilab qo‘ydi. So‘ng savdarlar xonasiga o‘tib, tog‘asiga odam yubordi. Aytilgan paytga yetib kelgan mavlono Fazliddin Boburning o‘lim to‘shagida yotganini ko‘rdi-yu, tug‘yon ichida:

– Hazratim, Xudo sizga quvvat bersin! – deb qo‘lidan o‘pdi.

– Men... podshohlikni Humoyunga topshirdim... Minba'd hazratim, demang, mavlono. Munosib ko'rsangiz... meni ham mavlono deng.

– Biz Navoiyni ulug' ijodlari uchun «hazrat Alisher» der edik. Siz turkiy adabiyotimizning Navoiydan keyingi eng ulkan siymosidirsiz. Shu sababli sizni shoir va adib sifatida «Bobur hazratlari» deyishga haqlimiz.

– Minnatdormen, mavlono... Siz Agrada, Sekrida, Dehalpurda ajib ko'shklar, oromgohlar barpo etdingiz... Xudo umr bersa men... Samarqanddagi Bibixonim madrasasidek ulug' bir... madrasaning tarhini sizga... chizdirmoqchi edim... Opa-singillarimizning qadrini boshimizga... ko'tarsak arzigay...

Mavlono Fazliddin Boburning so'nggi kuchlarini to'plab, qiynalib so'zlayotganini sezdi-yu, uning fikrini o'zi davom ettirdi:

– Dono so'zlarni aytdingiz, hazratim! Chindan ham xalqimizda bu odat azaldan mavjud... Samarqanda Bibixonim madrasasidan tashqari Turkan og'o maqbarasi bor. Hindlarda ham ayol zotiga ehtirom zo'r ekan, hatto sig'inadigan Xudolari orasida ham ayollar bor... Bizning Hirot-u Samarqanddagi eng yaxshi me'morchilik an'analarimizni Hindistonning eng ezgu ajib an'alariga payvand etib, ayol zotini ulug'lovchi bir madrasa qurish mening ham eng ezgu orzularimdandir!

Bobur mavlono Fazliddinning Xonzoda begimga bo'lgan yoshlik mehri zamona zayli bilan qanday qurbon bo'lganini esladi-yu:

– Mavlono, – dedi, – mening egachim Xonzoda begim... insoniylikda tengsizlar!.. Agar siz orzu qilgan... madrasani qurish bizga nasib bo'lsa... uni «Xonzoda begim madrasasi...» deb atasak arzir edi...

Mavlono Fazliddinning ko'zlarida yashin kabi bir olov chaqnadi:

– Hazratim, siz hozir mening ko‘zimga muqaddas bir maqsadni ko‘rsatdingiz! Agar bu maqsadni ro‘yobga chiqarishga mening umrim yetmasa, uni farzandlarimizning diliga jo etib ketgaymen. Toki ular hind me‘morlari bilan hamkorlikda xalqlarimizning ayol zotiga bo‘lgan ehtiromini ulug‘ bir me‘morchilik obidasida ifoda etsinlar!

Boburni ter bosdi. Uning harir oq ko‘ylagi qorayib tanasiga yopishib qolganini ko‘rgan Tohir bezovtalanib o‘rnidan turdi:

– Mulla tog‘a, hazratimni charchatib qo‘ymaylik!.. Tabib «ko‘p hayajonlanmasinlar!» deb tayinlagan edi...

Suhbatning tafti chindan ham baland bo‘layotganini endi sezgan mavlono Fazliddin o‘rnidan ko‘tarildi:

– Hazratim, endi orom oling! Men keyin yana kelurmen!..

Bobur Mavlono Fazliddinga qarab:

– Yana bir o‘tinchim bor, – dedi. – Olamdan ko‘z yumsam... Kobulda o‘zingiz tarhini chizgan bog‘ bor... Tog‘ tepasida... Abadiy oromgohim... o‘sha Guzargohda bo‘lsin... Ortiqcha dab-dabasiz... shoirona bir tarh chizing...

Mavlono Fazliddin o‘pkasi to‘lib gapirolmadi. Tasdiq ma‘nosida bosh irg‘adi-yu, ko‘zidan oppoq soqoliga oqib tushgan yoshni artib, eshikdan chiqdi.

Tohir Boburning terdan ho‘l bo‘lgan ichki kiyimlarini almashtirdi. U o‘zini odatdagiday osuda tutib, kundalik xizmatlarini qunt bilan ado etar edi. Bobur chanqasa suv beradigan ham, nafasi qayta boshlasa yelpiydigan ham Tohir edi. U shu yerda bo‘lsa, Bobur sokinroq yotishini mavlono Yusufiy ham bilar, shuning uchun Tohirni tun-u kun bemorning oldidan ketkizmas edi.

Bugun kechasi Bobur ichkarida hadeb behalovat bo‘lavergandan keyin Tohir savdarlarni chaqirib, uni to‘shagi bilan hovlidagi usti ochiq marmar supaga chiqartirdi.

Agraning kech kuzi xuddi Andijonning bahor paytlaridek salqin va mayin tuyular edi. Qop-qora osmonda yulduzlar charaqlab turibdi. Isitmasi baland Boburga yulduzlar yana girdobga tushib aylanayotganday va bir-birlariga urilib ketayotganday ko'rindi. Bobur ko'zini yumdi:

– Badanimda... qon uyushib qolayotganday... – dedi Tohirga.

Tohir uning yelkalarini, qo'llarini, keyin oyoqlarini sekin-sekin uqalay boshladi. Bobur bundan sal yengil tortganday bo'ldi-yu, ko'zini ochib yana osmonga qaradi.

Yulduzlar endi joy-joyida to'xtab, sokin nur socha boshladi. Ana Oltin Qoziq. Uning g'arb tomonidagi Yetti Og'ayni yulduzlari ufqqa og'ib tushib ketyapti. Sharqdan esa bir to'p bo'lib Hulkar yulduzlari ko'tarilib kelyapti.

– Bizning Quvada ham Hulkar xuddi mana shunaqa bo'lib chiqar edi, – dedi Tohir.

Bobur ham bolaligi o'tgan Andijon osmonini esladi. Mana shu Yetti Og'ayni yulduzlari o'sha yerda ham Oltin Qoziqni aylanib o'tib, g'arbga botib ketardi. O'sha yerda ham Yetti Og'ayni ufqqa bosh qo'yan sari Hulkar yulduzlari osmonning baland joylariga chiqib borardi. Bobur o'smirligida Hulkar yulduzlarini olmosdan yasalgan varrakka o'xshatar edi. Dumini quvnoq silkitib uchadigan olmos varrak uning xayolini yana musaffo bolalik yillariga olib ketdi. Osmon dunyoning hamma joyida bir ekani, umrining boshlanishida Andijonda ko'rgan yulduzlari umrining oxirida Agrada ham chaqnaq turgani unga so'nggi bir tasallidek tuyildi. Bobur osmonga qarab yotganda yana yosh, sog'lom yigitga aylanib, Andijon chorbog'ining supasida yotganday bo'ldi.

Bir lahzalik bu shirin his ketidan yana shafqatsiz bir qaltiroq bosib keldi-yu, yulduzli osmonni girdobiga olib, gir-gir aylantira boshladi... Tun yarmidan

oshganda Tohirning o'kirib yig'lagani qorong'i bog'ni zir titratdi...

\* \* \*

Mavlono Fazliddin Kobulda Boburga anvoyi rangli marmarlar bilan ziynatlangan serfayz bir maqbara qurishga ulgurdi, lekin Xonzoda begim nomiga madrasa qurish unga nasib bo'lmadi, uning bu orzusini oradan yuz yillar o'tgandan so'ng Boburning chevarasi Shoh Jahon qurdirgan mashhur Toj Mahalda ulug' hind me'morlari ro'yobga chiqargan bo'lsalar ehtimol.

Tohir «Boburnoma»dan ko'chirilgan nusxalarni adibning Andijondagi, Toshkent va Samarqanddagi muxlislariga eltib topshirgach, o'zi Robiya bilan birga Quvaga qaytdi. Ular umrlarining qolgan qismini tug'ilgan yurtlarida o'tkazdilar. Biroq o'g'illari Safarbek mavlono Fazliddinning farzandlari bilan birga Agrada umrbod qoldilar va o'sha yerda oila qurib, hind xalqiga qo'shilib ketdilar.

Bobur tuzgan ulkan davlat o'z qudrati va madaniy yodgorliklari bilan jahonga tanilib, uch asr umr ko'rdi-yu, tarixda qoldi. Uning o'g'il avlodlari bugungi kunga yetib kelolmadilar – eng oxirgi Boburiylar o'tgan asrlarda ingliz mustamlakachilari davrida mahv etildi.

Faqat Bobur o'z qo'li bilan yozgan asarlar haligacha tirik bir qalbning haroratiga to'lib, odamlarga hamon ma'naviy oziq va zavq beryapti. To'g'ri, uning bir umri qorong'i osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduzdek tez so'ndi. Lekin o'lmas asarlari sahifasida salkam besh asrdan beri davom etib kelayotgan ikkinchi umri – bu yulduzning tundan tongga qarab uchganini va o'z nurini kelajakka yo'naltirganini aytib turibdi. Bobur qalb o'tiga yo'g'irib yaratgan madaniy meros bugungi sernur avlodlarni bahramand qilgani sari uning ana shu ikkinchi umri ham qorong'i tunlardan keyingi yorug' kunlarda astoydil obod bo'lyapti.

## **MUNDARIJA**

### **AROSAT**

#### *Birinchi qism*

Quva. Qil ustida turgan taqdirilar .....	3
Axsi. Ajalga davo yo'q.....	24
Andijon. Gul va qyun.....	38
Quva. Jasoratning jazosi.....	68
O'sh. Najot qayda.....	86
Samarqand. Zafar va kulfat .....	135
Andijon, Xo'jand. Uvol bo'lgan orzular .....	159
Xo'jand, Marg'ilon, Andijon. Amir Temur saboqlari.....	187
Toshkent, Namangan, Andijon. Chingiziylar yana hukmron bo'lmoqchi.....	203
Samarqand. Hal qiluvchi olishuv.....	229
Toshkent, O'ratepa, So'x. Ko'chki bosgan buloq .....	310

### **TAQDIR TAQOZOSI**

#### *Ikkinchi qism*

Hiroat. Dovuldan oldingi osudalik.....	357
Hindikush. Kobul.O'lim bilan yuzma-yuz .....	391
Hiroat. Marv. Paymonasi to'lganlar .....	411
Qunduz. Samarqand. Ikki qilich orasida .....	438
Kobul. Toshgan daryo o'zan izlaydi .....	498
Laxo'r. Panipat. Dehli. Yangi qirg'oqlar.....	540
Agra. Yo hayot, yo mamot .....	579
Sekri. Qayta ko'z ochgan buloq .....	619
Agra. Yulduzlar girdobi .....	644



*Abadiy-badiiy nashr*

**PIRIMQUL QODIROV**

**YULDUZLI TUNLAR**

***Roman***

Muharrirlar  
Ma'mura QUTLIYEVA,  
Shahnoza RAHMONOVA

Musahhihlar  
Sunnat MUSAMEDOV,  
Sadoqat ESHQO'ZIYEVA

Badiiy muharrir  
Uyg'un SOLIHOV

Kompyuterda sahifalovchi  
Nigora UMARQULOVA

Texnik muharrir  
Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 3-fevralda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 20,875. Shartli bosma tobogi 35,07 .

Garnitura «Bookman Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 12.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMM da tayyorlandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 278-36-89; marketing bo'limi – 128-78-43;

faks – 273-00-14; web-saytimiz: [www.ibook.uz](http://www.ibook.uz)

e-mail: [yangiasr@ibook.uz](mailto:yangiasr@ibook.uz); [yangiasravlodi@mail.ru](mailto:yangiasravlodi@mail.ru)

**«Yangi asr avlodi» NMM  
2015-yilda «Kamolot kutubxonasi»  
rukniida chop etilgan quyidagi  
kitoblarni taqdim etadi:**

**ZULFIYA**

**«Bahor keldi seni so‘roqlab»**

**84x108 1/32, 192 bet, yumshoq muqova**

XX asr o‘zbek she‘riyatining zabardast vakillaridan biri, davlat arbobi Zulfiya Isroilova bugungi kun o‘quvchilari uchun yaxshi tanish. Maktab darsliklarida shoiraning qator she‘rlarini mutolaa qilganmiz. Vatan, muhabbat, vafo, ezgulik tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan she‘rlari barchamizning ko‘nglimizdan munosib joy olgan.

Mazkur kitob Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab nashrga tayyorlandi. Undan shoira ijodidagi eng sara she‘rlar o‘rin olgan. Aziz o‘quvchilari-miz ushbu to‘plamni o‘qib, mutolaa zavqidan bahramand bo‘ladilar, degan umiddamiz.

**MUSA TOSHMUHAMMAD O‘G‘LI OYBEK**

**«Bolalik xotiralarim»**

**84x108 1/32, 348 bet, yumshoq muqova**

Atoqli o‘zbek yozuvchisi Musa Toshmuhammad o‘g‘li Oybek turfa voqealarga boy, mashaqqatli va ayni paytda ajoyib hayot yo‘lini bosib o‘tgan. Qo‘lingizdagi «Bolalik xotiralarim» kitobida u ana shu yo‘lning 1917 – 1918-yillarga qadar bo‘lgan qismi bilan siz, hurmatli kitobxonlarni tanishtiradi.

Oybek singari ulug‘ allomalarning bolalik va yoshlik kezlari ularning ko‘cha changitib yurgan oddiy boladan xalqning mutafakkir siymolaridan biriga aylanishi, ayniqsa, yosh avlodlar uchun hamisha maroqli va ibratlidir.

## **TOHIR MALIK**

**«Alvido, bolalik»**

**84x108 1/32, 532 bet, yumshoq muqova**

Bolalik – umrimiz bahori, orzu-umidlarimiz bilan ulgʻayadigan eng joʻshqin va haroratli damlar. Bolalik – umrimiz mazmunini, qoʻyingki, butun hayotimizni belgilab beruvchi shunday bir pallaki, bu davrda biz yaqinlarimizning alohida eʼtiboriga ehtiyoj sezamiz. Agar bunday fursatlarda ozgina eʼtiborsizlik holatlari kuzatilsa-chi?

Taqdim etilayotgan kitobda aynan shu jarayon bilan bogʻliq holatlarni yozuvchi hayotiy, real voqea-hodisalar asosida yoritib bergan.

## **ODIL YOQUBOV**

**«Billur qandillar»**

**84x108 1/32, 322 bet, yumshoq muqova**

Odil Yoqubov – oʻtgan asrning oltmishinchi – yetmishinchi yillari yoshlarining sevimli adiblaridan biri edi. «Billur qandillar», «Muqaddas», «Muhabbat» kabi qissalar oʻsha davr oʻquvchilarining axloqiy va maʼnaviy tarbiyasiga ijobiy taʼsir etgan, desak xato boʻlmaydi.

Asarlarning barchasida yoshlar oʻrtasidagi muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Chin sevgi, poklik va halollik, muhabbatga yetishish yoʻlidagi xudbinliklar, xiyonat kabi munosabatlar oʻquvchini asar mohiyatini bilishga undaydi.

Xudbinlik va nohalollik hukm surgan joyda muhabbat soʻnadi, hatto oʻladi. Mehr va vijdon muhabbatga yetkazadi. Yashashning mazmuni muhabbat bilan sayqal topadi. Shu boisdan Odil Yoqubov asarlari nafaqat bugungi kun chun, balki kelajak uchun ham ibratli boʻlib qolaveradi.

## **SHUKUR XOLMIRZAYEV**

**«O'n sakkizga kirmagan kim bor»**

**84x108 1/32, 388 bet, yumshoq muqova**

Mazkur kitobga O'zbekiston xalq yozuvchisi, iqtidorli adib Shukur Xolmirzayevning eng sara qissa va hikoyalari kiritilgan. Ularda sevgi-muhabbatning o'zgacha talqini, oshiqlik va ojizlik, matonat va razolat, inson ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va axloqiy masalalar bayon etiladi.

## **ABDULLA QAHHOR**

**«Muhabbat»**

**84x108 1/32, 248 bet, yumshoq muqova**

Abdulla Qahhorning ilk hikoyalar to'plami 1932-yilda chop etilgan. Bugungacha bo'lgan davr mobaynida o'zbek adabiyotida, jumladan, hikoyanavislikda juda ko'p asarlar yaratildi. Sara hikoyalar, deya e'tirof etilgan bir qancha ijod namunalari o'quvchilar hukmiga havola etildi. Ammo Abdulla Qahhor hikoyalari yillar chig'irig'ini pisand etmay, hamon sevib o'qiladi.

Adib qahramonlari o'quvchi uchun qadrdon va ardoqli. Mutolaadan keyingi tanaffusda Unsin uchun qayg'uramiz, Turobjonning xotiniga anor ilinamiz, Qobil boboga taskin bergimiz keladi, ming bir jonli Mastura va uning vafodor eri Akromjonga havas qilamiz. Sodda va kamtar insonlar sizni suhbatga chorlaydi. Beixtiyor yana mutolaaga shoshilasiz. Abdulla Qahhor hikoyalarida ana shunday ohanrabo bor...

## **ALBER KAMYU**

**«Begona»**

**84x108 1/32 476 bet, qattiq muqova**

Alber Kamyu – XX asrning fransuz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, adabiyot bo'yicha Nobel mukofotining sohibi, mohir adib, dramaturg, faylasuf, «Tubanlashuv», «Vabo», «Sifiz haqida asotir», «Kaligula»,

«Asotir va qiyofa», «Isyonkor odam», «Begona» kabi asarlar muallifi.

A.Kamyu o‘z asarlarida Ikkinchi jahon urushi dahshati oqibatida paydo bo‘lgan insoniy taqdirning absurd hissiyotlarini kuylaydi.

Alber Kamyuning «Vabo» va «Begona» asarlari Ahmad A‘zam tomonidan mohirona tarjima qilingan. «Hikmatlar», «Yon daftarchalar» asarlari esa I.Bek tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Asar keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

## **FYODOR DOSTOYEVSKIY**

### **«Jinoyat va jazo»**

**84x108 1/32 876 bet, qattiq muqova**

Jahon va o‘zbek adabiyotining durdona asarlaridan tarkib topgan «Kamolot kutubxonasi» rukni bu gal atoqli rus yozuvchisi Fyodor Dostoevskiyning «Jinoyat va jazo» romanini taqdim etadi.

«Kambag‘allik ayb emas, biroq yo‘qchilik – illat. Birinchisida inson tug‘ma olijanob fazilatlarini saqlab qola oladi, ammo yo‘qchilikda ularni hech qachon va hech kim saqlab qola olmaydi», asardagi personajlaridan biri bosh qahramonga bu gapni hayotiy misollar asosida izohlab beradi. Universitetning sobiq talabasi bo‘lgan Raskolnikov esa bu gapdan tegishli xulosa chiqara olmaydi. Natijada, yo‘qchilikdan qutulish, tezda boyib ketish va yuqori mavqega ega bo‘lish maqsadida aql bovar qilmaydigan jinoyat sodir qiladi. Fojiali jihati – qahramon o‘z jinoyatini oqlaydi. Ammo hayot qonunlari adolatli – jinoyatni jazosiz qolishiga imkon bermaydi. Ruhij jazo jinoyatchini o‘z aybiga iqror bo‘lishga majbur etadi.

Romanda shu mudhish qotillikning uzluksiz uqubatlari bilan birga go‘zal muhabbat tasviri ham borki, u kitobxon qalbini beixtiyor junbishga keltiradi.

## **IVAN TURGENEV**

### **«Otalar va bolalar»**

**84x108 1/32 320 bet, qattiq muqova**

Mashhur rus yozuvchisi I.S.Turgenevning o'z davrida katta shuhrat qozongan ushbu "Otalar va bolalar" romani rus adabiyotshunosligida yozuvchi ijodining cho'qqisi sifatida talqin etiladi. Adib bosh qahramon Bazarov obrazida hurfikrlilik va yangilik sari intilish kabi fazilatlarini mujassamlantirgan. Asardagi voqealar o'sha davrda chiriy boshlagan jamiyatni shunchaki isloh etish emas, balki poydevorini tag-tugi bilan yo'q qilib, yangisini barpo etish kerakligini ko'rsatib beradi. Turgenev Bazarovdagi nigilizmni (barcha narsalarni inkor qilish) tasvirlash orqali rus yoshlariga xos salbiy jihatlarni ham namoyon etgan. Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga o'rgatuvchi ushbu asar mutolaasi kitobxonga zavq baishlaydi, degan umiddamiz.

## **ILYA ILF, YEVGENIY PETROV**

### **«O'n ikki stul»**

**84x108 1/32 456 bet, qattiq muqova**

«O'n ikki stul» – ushbu asar 1927–1928-yillarda yaratilgan bo'lib, o'tkir yumoristik romanlar qatorida e'tirof etiladi. Asar hayotda sodir bo'lgan voqeliklarga asoslangan. Roman qahramonlari Ostap Bender hamda Ippolit Matveyevich Petuxova xonim boyliklarini izlab topish maqsadida birgalikda sayohatga o'tlanadilar va juda ko'p sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Ular mahoratli usta Gambs tomonidan yaratilgan ajoyib san'at namunalari bo'lmish o'n ikki stul jamlanmasini birma-bir qo'lga kiritishga intiladilar. Bu ikki hamtovoq o'z maqsadiga erishish uchun eng qabih jinoyatlarni amalga oshirishdan toymaydi. O'quvchi ushbu asar orqali jinoyat jazosiz qolmasligi va birovning mulkiga ko'z olaytirish qanday fojialarga olib kelishi mumkinligini fahmlaydi.

## **YOHANN VOLFGANG GYOTE**

### **«Faust»**

**84x108 1/32 536 bet, qattiq muqova**

Buyuk nemis shoirining bu yirik asari jahon adabiyotining durdonalaridan sanaladi. Unda ikki mangu qarama-qarshi kuch: yaxshilik va yovuzlik, iqror va inkor kurashadi. Faust – hayot oshigʻi, taraqqiyot jangchisi, adolat jarchisi. Mefistofel – hayot yovi, taraqqiyot dushmani, adolat kushandasi. Asardagi murakkab voqealar silsilasi shu ikki qahramon xatti-harakatlari orqali rivojlanib boradi.

## **FENIMOR KUPER**

### **«Chingachguk fojiasi yoxud Saskuixanna manbalarida»**

**84x108 1/32 672 bet, qattiq muqova**

Mashhur amerikalik adib Fenimor Kuperning oʻzbek kitobxoniga havola qilinayotgan ushbu romani «Koʻn Paypoq» beshlik – pantalogiyasining toʻrtinchi kitobidir. Asarda abjir ovchi Natti Bampo bilan Oliver Edwardsning sarguzashtlari hamda mogikanlar sardori Chingachgukning fojiali oʻlimi aks ettiriladi.

Ushbu asarda Vatanga muhabbat, doʻstlik, sevgi va sadoqat singari ezgu tuygʻular qadrlanadi.

## **JEYN OSTIN**

### **«Andisha va gʻurur»**

**84x108 1/32 404 bet, qattiq muqova**

Jeyn Ostin «Andisha va gʻurur» asarida qishloq dvoryanining qizi Elizabet Bennet bilan oʻzining kelib chiqishi, boyligi ila magʻrur boy pomeshchikning oʻgʻli Fistuilyam Darsi oʻrtasidagi sarguzashtlarni hikoya qiladi. Asar 1813-yilda nashr qilinib, adabiyot dunyosida katta shov-shuvga sabab boʻldi. Ushbu asar haqida oʻsha paytdagi «Britaniya tanqidchisi» jurnali

shunday yozgan edi: «Asar shu paytgacha o'quvchilar hukmiga havola qilingan bu turdagi hamma romanlardan yuqori turadi». Umid qilamizki, mazkur asar hurmatli o'zbek kitobxonlariga ham manzur bo'ladi.

**ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN**

**«Yevgeniy Onegin»**

**84x108 1/32 224 bet, qattiq muqova**

A.S.Pushkin jahon she'riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan, asarlari dunyo xalqlari tillariga tarjima qilingan va hamon sevib o'qilayotgan Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Bayron, Gyote singari buyuk shoirlar sirasiga kiradi. Uning kitobxonlarni ham, mutaxassislarni ham hayratga solib kelayotgan she'riy dahosi «Yevgeniy Onegin» asarida o'zining, ayniqsa, porloq badiiy tajassumini topgan.

1936-yilda buyuk shoir va adib Oybek tomonidan katta mahorat bilan tarjima qilingan bu asar o'zbek xalqining rus shoiri ijodini kashf etishida muhim ahamiyatga molik bo'ldi, o'zbek she'riyatiga yangi adabiy janr va uslublarning kirib kelishi, she'riyatimizda poetik tafakkur va lirizmning chuqurlashishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Rus she'riyatining bu o'lmas durdonasini adabiyot shaydolari qizg'in kutib oladilar, degan umiddamiz.